



### **Bismillahir Rohmanir Rohiym**

«Ey Odam farzandilari, shayton ota-onangizning avratlarini o'zlariga ko'rsatish uchun ustlaridan liboslarini yechib, jannatdan chiqarganidek, sizni ham fitnaga solmasin. Albatta u (ya'nikim, shayton alayhila'na) va uning yordamchilari sizni o'zingiz ko'rmaydigan tomondani ko'rib turadi. Biz, albatta, shaytonlarni iymon keltirmaydiganlarga do'st qilganmiz».

«U (ya'nikim Oллоh) bir guruhni hidoyat qildi. Boshqa guruhga yo'ldan ozish haq bo'ldi. Chunki ular Oллоhni qo'yib, shaytonlarni o'zlariga do'st tutdilar, hamda o'zlarini, albatta, hidoyat topuvchilar deb hisoblaydilar.»

(«A'rof» surasining 27, 30-oyatlaridan ma'no tarjima.)

*Xudovando, na qildim turfa yozdim,*

*Shayotin makri birlan yo'ldan ozdim.*

*Pushaymonman parishon o'tgan ishdan.*

*Bahoru tiyra moh yozu qishdin.*

*(So'fiy Oллоhyorning «Sabotul ojziyn» kitoblaridan.)*

Borliq olamlarni yaratish barobarinda bizlarni — odam bolalarini yo'qdan bor qilgan, iymon, ma'rifat, ilmu adab, hikmat bahsh etgan, o'zining vahdati zotini, asmai sifatini bizlarga — qullariga bildirgan Xoliqi dahrga madhu tahsinlarimiz va shukrlarimiz bo'lsin. Rahim va Rahmon habibi, olamlar nuri, olimlar faxri bo'lmish Muhammad mustafo salallohu alayhi va sallamga salotu salom va tahiyyat bo'lsin.

Muhtaram payg'ambar afandimizning aziz avlodlariga, xonadonlari ahliga, din yo'lida yordamchilari, dunyoi oxiratda sodiq yorlari martabasidagi ulug' birodarlariga salovotlar bo'lsin. Va jami anbiyo salovatullohi alayhim va avliyoi kirom ruhlariga vosil bo'lsin va biz miskinlardan rozi va hushnud bo'lsinlar. Insha Alloh, omiyn. Ammo ba'd: Shukrlarimiz bo'lsinkim, necha yillardan beri shaytonga tobe olam ahvolining bayoni bahonasida siz muhtaram kitob muhoblari bilan birgamiz. Sizlardan benihoya minnatdormankim, saxovatingizni ayamaganingiz holda bir ojiz va notavon banda sababi bilan qog'ozga tushirilgan mazkur bitikdagi sahvul-qalamga kechirimli bo'ldingiz, uzrlarimizni e'tiborsiz qoldirmadingiz. Yana bir quvonchimiz shuki, shayton vasvasasiga berilmoqlik, shaytonga qarshi jihodda mag'lub bo'lmoqlik oqibati Siz — azizlarni loqayd qoldirmadi. Siz bilan biz «Falonchi qo'shnim (yoki hamkasbim, yoki qarindoshim) mening dushmanim», de-yishga odatlanganmiz. Men buni bir oz o'zgacharoq tarzda bayon qilgan bo'lardim. Sababki, Odam bolasining Odam bolasiga dushmanlig'i durust emasdur. Odamning yagona dushmani — iblisdur! Iblisning eng zo'r quroli — nafs. Demakki, biz dushmanni atrofimizdan emas, o'z vujudimizdan, o'z ruhimizdan izlamog'imiz joiz. Buyurilmishkim, «la-tazanil xolqa bimizanika, vazzin nafsaka bi mizonil

qavm». Ma'nosi budirkim: «Xalqni o'z o'lchoving ila o'lchamagil, bil'aks, o'z nafsingni qavm (xalq) o'lchovi (mezoni) ila o'lchagil». Shunga bizlar amal qilsak, hidoyat yo'lidan toymasmiz, insha Alloh.

To'rtinchi kitobga jamlanuvchi fikrlarni qog'ozga tushirish avvalida ayrim izohlarni bayon etmoqqa hojat sezildi. Dastlabki umidimiz — voqealar bayonini uch kitobga jamlash edi. Uchinchi kitobda umidga yetkurgan Tangrimizga shukrlar qilganimiz holda asarga so'nggi nuqta qo'yilganini ma'lum etib edik. Yashirmaymiz, dastlabki ahdga binoan o'zimizni zo'rlagan holatda asarni yakunlaganday bo'lib edik. Ana shu zo'rakilik talabchan kitobxonlarimizga ma'qul kelmabdi. Uchrashuvlarda, maktublarda asar yakun topmagani xususida tanqidiy fikrlar bildirildi. Shu kezlari giyohvandlik oqibatlari muammolari hususida hujjatli film uchun ma'lumotlar to'plashga to'g'ri keldi. Mazkur jarayon ham asarni davom ettirishga da'vat etdi. Bizni endi hijolatga solayotgan bir sabab bor: «Bemaza qovunning urug'i ko'p bo'lar», deganlaridek, asarning cho'zilishi oqibatida Siz — azizlar hafsalasini pir qilib qo'ymasak bo'lgani... Nachora, yaxshi umid bilan yana qo'lga qalam oldik, rahmli Parvardigorimizdan xayrli nihoyasiga yetkazmog'ini so'raymiz.

### **Munojotimiz budir:**

Iloho Parvardigoro! Izzating va jaloling haqqi, anbiyoyu mursalin va avliyoyi solihiy va ulamoi rosixin raziyallohu anhum ajma'yin arvohi shariflari hurmati, biz zaif va gunohkor qullaringni ham bu qavmdan benasib qilmagil va ul xos naslidankim, bularga nasib etding, bizlarni ham mahrum qilmag'il. Va shar'iy amallarimizni gunohlarimizga kafforot aylagil va so'nggi nafasda iymonimizni shayton makridan o'zing saqlagil. Omiyn ya Robbil alamiyn\*!

Shundan so'ng Haq taolo inoyati bilan bayonlarimizni boshlarmiz, biavnillohi taolo.

---

\* Farididdin Attor hazratlarining lafzlaridan foydalandik. Olloh u zotdan rozi bo'lg'ay.

## **I b o b**

### **1**

Lahtak bulutlar qitmirligi tufayli yayrab nur tarata olmayotgan quyosh shom kirishini kutmayoq bota qolganday bo'ldi. Tongda esa Beg'ubor osmon umidida kayta bosh ko'tardiyu yana bulutlar shumligiga uchradi. Olmoniya quyoshining tayinsizligiga, fayzsiz tonglariga Manzuraning chidashi og'ir kechdi. Zotan, uning qalbi shu quyosh kabi ojiz holatda edi. Garchi o'g'illarining to'yidan ko'ngli ravshanlashgan bo'lsa-da, havotir bulutlarining chaqinidan bag'ri kuyib turardi.

Eri Asadbekning, qizi Zaynabning ayanchli ahvolidan bexabar bo'lsa-da, o'ziga ham noma'lum bir tuyg'u ko'nglini g'ashlik buluti bilan chirmab turardi. Asadbekning telefonda to'ng ohangda gaplashishi uni ajablantirmas, bu holatga yillar bo'yi ko'nikib ketgan edi. Uni ezayotgan narsa boshqa — eri har safar «uyga qaytishga shoshilma», — deb gapni qisqa qiladi. Qudalari esa «Qachon qaytasizlar?» deb ochiq aytishmasa ham ko'z qarashlaridan shu ma'no sezilib turardi. O'g'illari nigohida ham shu savol zuhur edi. Ma'suma ayol savolga javob qaytarishga qodir bo'lsami edi, bu yerda bir on ham qolmasdi.

Qanotlari qayrilgan emas, qirqib olingan qush holatidagi Manzura tunda quyosh

balqishini kutgan notavon kabi eridan har daqiqada bir mujda kutardi.

Manzura qamoqdagi mahbus holatida edi, deyilsa yumshoqroq aytilgan bo'ladi. Chunki mahbus ozodlikka qachon chiqishini biladi, shu kunni, soatni, orziqib kutadi. Kutish ham u uchun bir saodat. Har tunda yostiqqa bosh qo'yib har tongda ko'z ochishining o'ziyoq bir baxt. Manzura esa yana qancha tund tonglarni musofirlikda qarshilashini bilmaydi. O'zini qafas temirlariga uraverib qanotlarini majruh etgan qush ahvalidagi Manzuraning dardi qudalariga ayon edi. Shu bois ko'ngil xiraligi tarqab, dilga bir yorug'lik mo'ralarmikin, degan maqsadda Shvetsariyaga safar qilishni taklif etishdi. Mehmonning ixtiyori mezbonda bo'lgach, Manzura nima deya olardi? O'g'illar onadagi tashvish bulutini nari haydash niyatida Alp tog'larining benazir go'zalligini madh etishdi. «Bolaning ko'ngli dalada» deganlari balki shudir. Hozir g'oyibdan bir ovoz kelib «jannat eshiklari senga ochiladi, kirasanmi yo uyingga borasanmi?» deyilsa u hech ikkilanmay uyga qaytmoqni ixtiyor etardi. Zotan, ahli oilaga muhabbat ham iymonning go'zal bir ko'rinishidir. Ikki o'g'li, ikki kelini, Guluzor begim hamrohligida maqtalgan yerlarga borgan Manzuraning zimiston ko'ngliga ravshanlik mo'ralay olmadi. U farzandlari kichikligida Nanayga bir necha marta chiqqan, suv ombori qurilib, qishloq buzilgach, anchagacha ko'ngli vayron bo'lib yurgan edi. Keyinchalik Mahmudning xotini bilan boshqa qishloqlarga ham chiqdi, Shohimardonga ham bordi. Biroq, dastlab chiqqanida diliga o'rnashgani uchunmi, boshqa joylarni Nanayga o'xshata olmadi. Shvetsariya Alplari deb nom chiqargan, dunyodagi mana man degan boylarning sevimli maskaniga aylangan bu qorli tog'lar uning aqlini lol qila olmadi. To'g'ri, u yozloqqa chiqqan, qorli tog'larning havosidan esa nafas olmagan edi. Mahmudning xotini «Opa, bollarni olib Chimyonga chiqaylik, chena uchib kelishsin», deganida «Qishning sovug'ida tog'da balo bormi?» deb unamagan edi.

Kelinlari bilan o'g'illarining yayrab chang'i uchayotganlarini ko'rib ham ko'zlari quvondi, ham «bular o'qishyapti, desam chang'i uchishdan bo'shashmagan shekilli» degan fikrga keldi. Manzura «o'g'illarim chang'i uchishni shu yerda o'rganishgan», deb o'ylab yanglishdi. Cho'lponoy bilan Mushtariyning shu yerda o'rganganlari ayni rost.

Abdusamad bilan Abduhamidning Jamshid hamrohligida tez-tez Chimyonga chiqib turishganidan u bexabar edi. Bolalari bir safar ijozat so'rashganida «yiqilib, u yer-bu yerini sindirib olmasin» degan: havotirda ruxsat bermagan, yuragi qaynab turgan o'g'illarining yashirincha chiqishlarini esa xayoliga ham keltirmagan edi.

Qorli yonbag'irdagi odamlar orasidan Manzura o'g'illarini nigohi bilan izlaydi. Yiqilib tushayotganlar o'g'liday tuyulib, yuragiga bir zirapcha sanchilganday seskanadi. Holatini sezdirmaslikka harakat qilsa-da, Guluzor begim undagi havotirni fahmlab:

— Bu yerning qori xuddi par bolish kabidir, yiqi-lajak o'lsangda bir huzurlanursan, — deb qo'ydi.

— Siz ham uchasizmi? — deb so'radi Manzura ajablanib.

— O, albatta, — dedi Guluzor begim qahva ho'p- lab. — Bu shunchaki sho'xlik mevasi emas, sihat uchun-da lozim o'laroq bir amaldir.

Ular o'tirgan qahvaxona osoyishta, taralayotgan yoqimli ohang ham shunga mos edi.

Guluzor begim boshini egganicha nimanidir o'yladi, hatto huzurida aziz mehmon o'tirganini ham unutganday bo'ldi. So'ng boshini ko'tarib deraza osha tashqariga qaradida, xuddi o'ziga o'zi gapirganday pastroq ovozda:

— Neki vor, xapsi cho'x go'zaldur, — dedi. Keyin yuzini qudasi tomon burib, qo'shib qo'ydi: — Ammo xapsidan Vatangina go'zalmishdir!

Keyingi jumlada armon zuxur edi. Biroq, o'z yog'iga qovrilib yurgan Manzura buni «uyingizni sog'ingandirsiz?» degan ma'noda tushunib yengil seskandi.

Taqdir iplari farzandlari tufayli go'yo bog'langanday bo'lgan bu ikki ayolning sog'inchlari,

armonlari bir-biriga sira o'xshamas edi. Ta'bir joiz bo'lsa Vatan sog'inchi Guluzor begimga ota meros, qon bilan kirgan, jon bilan chiqq'uvchi fazilatdir. O'zining emas, volidayn kindik qoni to'kilgan Vatan tuprog'iga qadam qo'ymay, havosidan nafas olmay turib sog'inish qanday bo'lishini tasavvurimizga sig'dirishimiz, bayon etishimiz g'oyat mushkul. Vatan — ya'ni ota yurtni sog'inish darajalarini belgilamoqda «musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmas», degan hikmatni hisobga olmoq balki joizdir? Deydilarki, bulbulni «gar oltun qafas ichra» saqlasangiz ham sayramas ekan. Manzuradagi sog'inch hislari esa butunlay o'zga. Vatan ismli o'lchovsiz tuyg'udan holi, demoqlik noo'rindir. Chunki u sog'inayotgan oila, hovli, yaqinlari — Vatanning zarralaridir.

Yaratganning mo'jizalariga aql bovar qilmaydi: shu kabi tog', shu kabi qor ko'pgina yurtlarda mavjud. Guluzor begim aytganlariday, bu yerning qori par yostiqlik yumshog'u boshqa yerniki toshday qattiq emas. E'tiborli jihati shundaki, qorli tog'larning har biri o'sha yurt egasi uchun suyumliroq. Shu bois ham Manzurani bundagi manzara lol qoldira olmadi. Balki eri, qizi ham yonida bo'lsa bu chiroyni ilg'armidi?

Qahva ichayotgan Guluzor begim bilan ta'msiz tuyulgan bo'lsa-da, mezbonning hurmati uchun o'zini zo'rlab choy ho'playotgan Manzurani bog'lab turuvchi bir narsa bor: bu qalblardagi hislarni yuqori maqomda bayon etolmaslik, bu hislar to'liqida jo'sh urib suhbatlasholmaslik yoki bahslasha olmaslik.

Shaharchani aylanish ham, qahvaxonada o'tiraverish ham Manzurani zeriktirdi. Mehmonning o'g'illari bilan shahar sayriga chiqqanidan foydalangan Guluzor begim esa qizlariga qo'shib chang'i uchdi, ko'ngil chigilini yozib oldi. Bir hafta — o'n kunga mo'ljallangan sayohat Manzuraning ko'ngliga qarab, uch kundayoq nihoya-siga yetdi. Shvetsariyadan ketmay turib Mahmud — Chuvrindiga qo'ng'iroq qilib muammoni oydinlashtirmoqchi bo'ldi.

— Mahmudjon, akangizning dardini siz yaxshi bilasiz, kelaman, deb o'zlari kelmayaptilar, qaytib ketay desam, unga unamaydilar, siz biron nima bilsangiz ayting, — dedi.

Chuvrindi nima desin? Yangasi «akangizning dardini siz yaxshi bilasiz», deydi. Zohiriy dardini-ku biladi, ammo ayta olmaydi. Botiniy dardini esa gumon ko'zlari bilan ko'radi.

«Akam dard bilan yolg'iz o'zlari olishib, yolg'iz o'zlari mag'lub bo'lmoqchilar.

Yangamning ko'z yoshlari to'kib o'tirishlarni istamayaptilar», deb tahmin qiladi.

Tahminida ozgina jon bo'lsa-da, xojasining asl maqsadini u ham aniq bilmaydi.

So'nggi onlari yaqinlashganini sezgan mag'rur burgut o'limni inida kutib olmay osmonga parvoz qilib so'ng o'zini qoya toshlariga urar ekan. Chuvrindi xojasini ana shu burgut misolida ko'rardi. Unga faqat bir narsa: so'nggi parvozning qachon va qanday bo'lishi noma'lum edi. Chuvrindi bularni ham ayta olmadi. Shuning uchun:

— Akam tayyorlanyaptilar. Bu yerda zarur ishlar chiqib qoldi. Akamdan avval Zaynab borsalar kerak. Bir-ikki kundan keyin ruxsat tegadigan bo'lib turibdi, — deb qo'ya qoldi. Bu mujmal javob Manzurani qanoatlantirmay Olmoniyaga qaytgan kunning ertasiga uyiga qo'ng'iroq qildi. «Adasi, siz keyinroq kelarsiz», degan taklif hamda qaytmoqlik ahdini ma'lum qilib qo'yish niyatida edi. Boloxonadagi yigitning «Bek akam janozaga ketganlar» deyishi yuragidagi xavotir uchqunini o't oldirdi.

— Kimning janozasi? — deb so'radi ovozi titrab.

Yigit «bu shumxabarni aytish mumkinmi yo yo'qmi?» degan mulohazada sukut saqladi. Aslida u «Bek akam yo'g'idilar-a», deb gapni qisqa qilmog'i joiz edi. Xayoli kutilmagan fojia bilan band bo'lgani uchun beixtiyor ravishda «janozaga ketganlar» deb yuborgan edi.

— Kimning janozasi? — deb qayta so'radi Manzura.

— Mahmud akamniki, — dedi yigit bir oz dovdiragan holda.

— Qaysi Mahmud? — Manzura «Qaysi Mahmud» ekanini anglagan bo'lsa-da, «ishqilib men tanimaydigan boshqa odam bo'lsin», degan ilinjda qayta so'radi. Yigitning navbatdagi sukuti bu ilinjga quvvat berganday bo'lib, so'ng esa g'ippa bo'g'ib qo'ya qoldi: Chuvrindining fojiasi haqidagi shumxabar hushini oldi. Manzura go'shakni joyiga qo'ygach «ko'nglimning xijilligi bekorga emas ekan», deb o'yladi. Tug'ishgan ukasiday bo'lib qolgan odamning fojiasi dastlab uni gangitgan bo'lsa, so'ng o'zi yashayotgan olamda halokatlar tasodifiy bo'lmasligini bilgani uchun ham xavotir o'tida qovrila boshladi. Erining safarni paysalga solishi, Mahmud — Chuvrindining ikki kun avvalgi mujmalroq javobi, nihoyat fojia haqidagi xabar yuragining bir chekkasini jizillatib turgan xavotir cho'g'iga moydek sepilib alanga oldirgan, endi bu o'tni o'chirish mumkin emas edi. Mana shu tashvish gulxani undagi mutelik chegarasini buzdi. Manzuraning beorom qalbi uni kamdan kam hollarda yuz beruvchi inqilobga da'vat etdi. Faqat qudalarini emas, o'g'illarini ham ajablantirgan holda safari yakun topganini ma'lum qildi. «Mehmonning izzati uch kun edi, to'y bahonasida shuncha qolib ketdim, qizlarimni darrov bag'ringizdan yulib olgim kelmadi», deb lutf qilmoqchi bo'ldi-yu, ammo lablaridagi yengil titroq, ko'zlaridagi parishonlik ko'ngil notinchligini ayon qilib qo'ydi. Manzuraning shu kunga qadar qaytishga shoshilmayot-gani qudalarga malol kelmayotgan bo'lsa-da, «u tomonlar tinchlikmikin, ishqilib?» degan xavotirlari mavjud edi. Qudalarining qaytmoqlik xususidagi ahdi bu xavotirni nari surgani bilan ro'paralariga ayriliq balosini ko'ndalang qilib qo'ydi. «Buncha shoshmasangiz, hali sizga to'yganimiz yo'q», degan soxtaroq lutf qudani ahdidan qaytara olmasa ham aytili. Yurtni sog'ingan yuraklar qalblarining ikki parchasini yulib olib yurtga uzatishdi. O, bu baxtga tashna yuraklar ro'parada balo bulutlarining yamlashga shay turganini bilishsami edi... Inqilobga jazm etgan mushtipar o'z qarori bilan qayg'u-alamlar ko'chasiga burilganini bilsami edi...

## 2

Bir kun oldin Asadbek g'alati tush ko'rgan edi. Buni tush deyish ham qiyin. Mashinada kelaturib bir daqiqaning nari-berisida mizg'idi. Radioda aytilayotgan gaplarni eshitib turdi, demak, uxladi, de-yish mumkin bo'lmaganidek, tush ko'rdi, demoqlik ham o'rinsiz. Balki xayoliga chaqmoq kabi urilgan beo'xshov manzara unga tushday tuyulgandir. Manzura uyda bo'lganida borib aytardi, u yo'yib bir ma'no chiqarardi... Asadbek o'zicha ma'no qidirib ko'rdi-yu, «bunaqa bema'ni tushda ma'ni nima qilsin» degan to'xtamga keldi. Uning fikri to'g'ri: aloq-chaloq, ma'nisiz tushlar ko'p ko'riladi, ammo bunaqasi uchramaydi. Nima emish, kafanga o'rab-chirmalgan Asadbek tobutda yotganmish. Tobut ham qiziq, atrofiga oq mato o'ralgan emas, shag'al tashiydigan zambilga o'xshash, o'likning ham ko'nglini aynitadigan bir balo emish. Odam oz emish. Kafanlangan Asadbek «O'ynab-kulib yurib minglab oshna-og'ayni orttiribman-u, tobutimni ko'taradigan yigirmata do'st topa olmabman-da», deb o'ylab xo'rliigi kelibdi. Tirik odam xo'rlansa chorasi oson: birovni urib-so'kar, yoki yig'lab olar. Kafanlangan bechora nima qilsin? Asadbek oq surpga emas, alam matosiga o'ralganicha yotaverganmish. Bu ham mayli, chiday oladigan manzara. Tobut oldidagi manzara jinnining ham esini teskari qilib yuborishi mumkin. Nima emish: jirkanch tobut oldida qo'sh surnay, qo'sh nog'ora, qo'sh karnayu qo'sh childirma! Baka-bakabum avjida. Oldinda esa to'n kiyib belini bog'lagan Kesakpolvon yer tepinib o'ynab boryapti. «Hoy ah- moq, — dermish kafanlangan Asadbek, — bel

bog'lagan odam ham tobut oldida o'ynaydimi?» Bu savolni eshitgan Kesakpolvon qah-qah otib kularmish. «To'y bo'lganidan so'ng o'ynayman-da» dermish. «To'y? — deb ajablanarmish kafanlangan Asadbek, — kimga to'y, kimga aza?» «Bizga to'y, — dermish Kesakpolvon, — senga esa aza...» Keyin mozorga olib borishdi. Mozormi yo shahar ahlatxonasimi — ajratish qiyin bo'lgan bir joy. Agar shu joyni o'likka ko'rsatib «so'nggi makoningni ko'rib qo'y» deyilsa, o'rnidan turib qochib qolishi aniq. Lekin kafanga chirmalgan Asadbek chorasiz emish, qocha olasmish. Lahadga qo'yilib, tuproq tortila boshlaganida qorining tilovati eshitilmaydi, bilaks, yana o'sha qo'sh surnay, qo'sh nog'ora avjiga chiqadi. Hamma o'ynaydi-quv naydi. «O'lik ko'mishga ham qasam ichirvordilaring...» deb g'ijinarmish lahaddagi Asadbek. Keyin qarasa lahaddagi boshqa odammish, o'zi qabr tepasida turganmish. Lahadning og'zi ochiqmish, pastda yuzi ochilib, qiblaga moyil qilib qo'yilgan odamga «Kim ekan?» deb qararmish-u, ammo tanimasmish...»

Ko'rganlari mana shular. Dahshat desa dahshat emas, fikrlashga, ma'ni qidirishga ham arzimaydigan ta-yinsiz bir manzara... O'sha onda shu fikrda edi.

Ammo ertasiga, Chuvrindining o'limini eshitgach, bema'ni sanalgan shu tushni yana yodga oldi. Yuzi ochilib, qiblaga moyil qaratib qo'yilgan mayitni esladi. Tobut oldida, so'ng qabr atrofida o'ynayotgan Kesakpolvon ko'z oldida gavdalandi. «Bizga to'y, senga aza», degan gap qulog'i ostida jarangladi.

Chuvrindining uyiga kelib kutilmagan fojidan gangib qolgan o'g'lini bag'riga bosganida, o'z farzandiday suyumli bu yigitchaning xo'ngrab aytgan gaplari kechagi tush zindonining qulfiga kalit bo'lib tushdi go'yo. «Kechasi chaqirtirgan ekansiz, kelganlarida kayflari bor edi, mashinani men hayday qolay desam, ko'nmadilar... Ajal chaqirgan ekan...»

Ajal chaqirgan ekan... Nima demoqchi bola? «Siz — ajalsiz!» demoqchimi? Bolaning o'ylamay aytib yuborgan gapi Asadbekni o'ylantirib qo'ydi. Chuvrindini u chaqirtirmagan edi. Kim chaqirtirdi? Chaqirtirgan «ajal»-ning ismi — Haydar-Kesakpolvonmi? Yo Xongireyning chayonday izg'ib qolgan odamlarimi? Yo xojasiga sodiq qolgan Hosilboyvachchaning yigitlaridanmi? Qancha o'ylamasin, tarozining pallasini Kesakpolvon tomon bosib ketaverdi. «Xongirey ham, Hosilboyvachchaning yigitlari ham Mahmudni o'ldirib bir manfaat topolmaydi. Kasd qilsa menga tashlanardi. Yo meni «o'ladigan kasal, shunday ham tinchib ketadi», deb ayashadimi», degan xulosaga keldi. Xulosasi bir tomondan to'g'ri edi: Xongirey uning tuzalmas xasta ekanini bilgach «xotirjam o'lvolsin», deb marhamat qilgan edi. Xulosaning noto'g'ri yeri shundaki, xotirjam o'lvolishga izn bergan Xongirey uning xotirjam o'lishini xotirjam ravishda kuta olmas edi. «Qirol o'ldi, yashasin qirol!» deganlaridek yangi qirol muammosi uni befarq qoldirish mumkin emasdi. Gap o'ziga mute odamni qirol taxtiga o'tqazishdagina emas. Taxtga kim o'tirsa ham qayirib olishga qurbi yetadi. Bo'ysinishni istamagan yangi qirolga atalgan bittagina o'q to'pponcha o'qdonida zanglab qolmaydi. Xongireyning muddaosi bosh-qa: Asadbekka vafo qilmagan taxtga lalaymagan odam o'tirishi shart. Siyosatchilar tili bilan aytganda, bu taxtga kurash yo'li bilan borgan ma'qul. Kim aqlliroq bo'lsa, kim rahmdil bo'lmasa, kim raqibi qalbini sug'urib olib chaynab yutishga qodir bo'lsa — o'sha qirol!

Asadbek Kesakpolvonning taxtga intilishini kutgan-u, ammo Xongireyning bu maqsadidan bexabar edi. Kesakpolvonning karnay-surnay navosiga emas, balki Xongireyning do'mbrasiga o'ynayotganini keyinroq fahmlaydi. Keyinroq fahmlaydiyu ilon chaqib dog'da qolgan odam holiga tushadi. Ingraydi, to'lg'onadi, qani edi bundan bir foyda bo'lsa?!

Bunga hali vaqt bor. Hozircha ilon uning iliq bag'rida, ozgina besaranjomligi inobatga

olinmasa rohatda deyish ham mumkin.

Janozaga qadar ham, qabrga tuproq tortilayotganda ham Asadbek beixtiyor ravishda Kesakpolvonni kuzatdi. Mayit lahadga qo'yilayotganda Kesakpolvonning «Voy jigarim! Voy ukajonim!» degan o'kirigi «Voy, otam!»leb bo'zlayotgan bolalarning nolasini bosib ketdi.

Asadbek go'rkov tutgan ketmon yuziga bir siqim tuproq tashlagach, Jalil uni yomg'irdan panaga, nariroqdagi shiyponga tortmoqchi bo'ldi. Bu bilan xasta do'stini ham yomg'irning savalashidan, ham ruhiy azobdan himoya etmoqchi edi. Asadbek unga norozi qiyofada qaradi. Shunda Jalil namlangan ko'zlar egasining dardu g'am dengizi naqadar mavjli ekanini fahmladi. Ko'zlarining bu kabi dardli boqishini u ko'p yillar muqaddam ko'rgandi. Ukasi, so'ng onasi dafn etilayotganda ham qorachiqni shunday g'am pardasi to'sgan edi. Asadbek o'shanda ham ovoz chiqarib yig'lamagan edi.

Asadbek Chuvrindining o'g'li qo'lidagi belkurakni olib qabrga besh-olti marta tuproq tashlagach, bir oz chekindi, ammo uzoq ketmadi. «Taborak» o'qilib, yuzlarga fotiha tortilgach, Jalil tarqalayotgan odamlarga qo'shilib nari yurdi, so'ng qabr tepasida yolg'iz qolgan Asadbekni, u tomon yura boshlagan Kesakpolvonni ko'rgach, to'xtadi.

Asadbek «hamma yoqni bo'ktirib tashlayman» deganday kerilib yog'ayotgan qor aralash yomg'irning qilig'iga parvosiz ravishda turardi. «Bu yer mening joyim edi, Mahmud ukam... Senga qasd qilganni xor qilmagunimcha yoningga kelmayman...»

Qadimda qabristonni ziyorat etmoqqa ijozat yo'q ekan. So'ng «bandalar mozoristonni ko'rib oxiratni o'ylasin, degan maqsadda ruxsat etilgan ekan. Shunga ko'ra ertami-kechmi qismati qattiq guvalaga bosh qo'ymoq bo'lmish odam tavbani, shayton vasvasasidan qutulmoqni o'ylashi kerak. Yuzlariga qor zarralari, sovuq yomg'ir tomchilari urilayotganini sezmay turgan Asadbek esa izmini iblis hukmiga to'la topshirib, yana toshga aylangan qalbini qasam bilan quvvatlantirgan edi. Zulm-ga zulm bilan javob qilmoq uning nazdida haqiqat edi.

Hukm qat'iy lashgan paytda kimdir qo'lidan ushlab tortdi. O'girilib qaradi: Kesakpolvon.

— Sen mening yuragimga tupurding, — dedi Asadbek.

— Unday dema, Asad, agar shu mening ishim bo'lsa — Xudo ursin!

— Yo'qol!

— Asad...

— Yo'qol dedim!

Kesakpolvon uch-to'rt qadam chekindi-yu, ammo yo'qolmadi. Oshnasining shumshayib turishiga toqat qilolmagan Jalil unga yaqinlashib, jiqqa ho'l yelkasiga qo'l tashladi.

— Asad, yur, keldi-ketdiga qarab turishing kerak.

Asadbek akasining yo'rig'idan chiqmaydigan mo'min boladay Jalil boshlagan yo'lga yurdi. Mashina Chuvrindi yashagan ko'chaga yaqinlashganda Asadbek Halimjonga:

— O'ngga burma. To'g'riga hayda, — dedi. So'ng picha sukut saqlagach, qo'shib qo'ydi:

— Eski uyimga hayda.

Jalilga uning bu qarori g'alati tuyuldi.

— Sen bu yerda turishing kerak, — dedi u.

— Turolmayman... chidolmayman.

— Bormasang... sendan ko'rishadi...

Asadbek javob bermadi. Halimjon buraymi yo ketaveraymi, deganday mashinani sekinlatdi. Buni sezgan Asadbek zardali tovushda buyurdi:

— To'g'riga hayda, dedim!

Jalil Asadbekning bu buyrug'iga e'tiroz bildirmadi. Mashinadan tushib oshnasiga ergashganda Asadbek uni ostonada to'xtatdi:

— Uyingga boraqol.

Juda mayin, dardli, ayni choqda iltimos ohangida aytdi. Boshqa vaziyat bo'lganida Jalil «Odamga o'xshab gapirishni ham bilar ekansan, a» deb uzib olgan bo'lardi. Hozir esa «ukamdan xabar olay-chi», deb ota hovlisiga kirib ketdi.

Sovuq uy. Sovuq tancha. Xuddi qirq yil avvalgi kabi.

Ho'l paltosini yechmay tanchaga o'tirib, qunishdi. Eti uvishdi. Deraza orqali tashqariga qaradi. Osmonu zamin hukmronligi uchun bir necha soatlik olishuvdan so'ng bemavrid yopirilgan shoshqaloq yomg'ir qishning so'nggi sovuq nafasiga dosh berolmay chekingan, qor zarralari esa g'alabadan mas'ud, shoshmay-shoshmay, yayrab-yayrab, uchib-uchib, so'ng atalasi chiqayozgan yerga asta qo'nardi. Ikki yarim oylik qish hukmida tomir-tomirlarigacha muzlayotgan zamin yuziga qo'nayotgan qor zarralaridan go'yo junjikardi, ho'l paltosi bilan sovuq tanchada o'tirgan odam kabi qunishardi. Oradan ko'p fursat o'tmay yer sathi oqardi. Asadbekning xayoliga urilayotgan fikrlar bu beozor qor zarralari kabi emas, balki beayov uriluvchi do'l singari edi.

Krasnoyarga borib qaytguniga qadar bu uyga har kelganida, shu yerda o'tirib deraza osha ko'cha tomonga qaraganida go'yo eshik ochilardi-yu, chana ko'targan dadasi ko'ziga ko'rinardi. U bir-ikki qadam bosardi-yu, ammo uy ostonasiga yetib kelolmasdi. Uning izidan o'sha ikki odam paydo bo'lardi. Dadasining «Toychoq!» degan xitobini ularning «Biz do'stlarimiz, otang — xalq dushmani!» degan sovuq saslari bo'g'ib o'ldirardi. Otasining qabrini ziyorat qilib qaytgach, o'zi ham tushunmagan holda, bu manzara ko'rinmay qoldi. Kimdir uy ichida xo'rsindi. Bir emas, bir necha marta xo'rsindi. Asadbek bu holatdan bir oz cho'chidi ham. Uyda uzoq o'tira olmadi.

Hozir ham dadasini ko'rish ilinjida yana qaradi. Eshik ochildi...

Eshik ochildi-yu, Jalil ijroqo'm vakilini boshlab kirdi. Asadbek «yo'lni narigi mahalladan sol, bu yer buzilmaydi», degach, «ijroqo'mdan kelgan o'rtoq» beixtiyor ravishda «ish boshlangan, loyihani o'zgartirib bo'lmaydi», deb yubordiyu tilini tishladi. Asadbekning o'qrayib qarashiga dosh berolmay, iziga chekindi. Jalil unga ergashgan edi, Asadbek zaharli ovozi bilan uni to'xtatdi:

— Jalil!

— Kuzatib qo'yay, — dedi Jalil, ostona hatlab.

— Jalil! — zaharli ovoz endi tahdid libosiga o'raldi. — O'tir. Chaqirilmagan mehmon, o'zi ketaveradi.

— Tanchaga cho'g' olib chiqaman.

— O'tir dedim, senga!

Jalil qaytib, tanchaga omonat o'tirdi. Keyin o'rnidan turib qo'shni xonaga kirdi-da, elektr pechi olib chiqib qo'ygach:

— Ahmoqlik ham evi bilan-da. Sen ahmoqqa qo'shilib shamollashga tobu toqatim yo'q,

— deb yana tashqariga chiqdi. Uch-to'rt daqiqadan so'ng xokandoz to'la cho'g' ko'tarib kirib tanchaga soldi. Chap panjasida siqimlab turgan isiriqni cho'g' ustiga tashlab, joyiga o'tirgach, «gaping bo'lsa, ana endi gapir» deganday oshnasiga qarab oldi.

Asadbekning unga aytadigan gapi yo'q edi. Faqat bir necha daqiqalik yolg'izlikdan so'ng do'stining yonida bo'lmog'ini istab qolgandi. Bir zumlik sukutdan keyin Jalil qarashiga yarashqli javob oldi:

— Ilgari ham shunaqa ahmoqmiding yo endi ahmoq bo'lyapsanmi?

— Ha, ukaxon, nimaga achishib qoldi?

— O'rtog'ingni boshlab kirishing shartmidi?

Jalil noto'g'ri ish qilganini anglab tursa ham aybiga iqror bo'lgisi kelmadi:

— Uyma-uy yurgan ekan, men boshlab kelibmanmi?

Jalil avj pardasini ozgina ko'tarish evaziga dahanaki olishuvni debochasidayoq o'z foydasiga hal qildi. Itining fe'li egasiga ma'lum deganlaridek, oshnasining qilg'ini yaxshi



bilgan Asadbek «yana bobillab bermasin», degan havotirli o'йда mag'lublik tamg'asiga itoat etib, bitta gapdan qola qoldi.

Oyog'idan issiq o'tgach, badani bo'shashdi. Uyqu bosib mudray boshlaganda ko'cha eshik ochilib, ostonada to'n bilan telpak ko'targan Halimjon ko'rindi. Jalil o'rnidan turayotganida Asadbek ko'zlarini ochib, tashqariga qarab oldi-da, oshnasining mehribonligidan iyib ketdi. To'n, telpak, issiq jun ko'ylak, jun paypoq olib kelishga Halimjonni jo'natish hatto o'zining ham xayoliga kelmagan edi. Asadbek kiyimlarni almashtirib olgach, dekchada qaynoq sho'rva, issiq non, choy kiritildi. Asadbekning ishtahasi bo'lmasa ham o'rtog'ining zo'ri bilan sho'rvani xo'rillatib ichib oldi-yu, peshonasidan ter chiqib, tanasi yayradi.

Ikki piyola choyni ketma-ket ichib olgach, Jalil lo'labolishga yonboshladi:

— Kambag'alning to'ygani — chala boy bo'lgani, — dedi u kekirib. — Senga qo'shilib men ham boy bo'ldim, xudoga shukr.

— Men-chi? — dedi Asadbek.

— Sen mendan batarroq kambag'alsan.

— Sho'rva ichgandan keyin hammi?

— Sen kambag'al-boy deganda nimani tushunasan o'zing? Puling ko'p bo'lsa boysan-u, yo'q bo'lsa kambag'al-misan? Pul deganing qo'lning kirimi? Sobitxonning gaplarini eshitganmisan? Odamning cho'ntagi emas, iymoni boy bo'lishi kerak. Egamning oldiga shu boylik bilan borib ro'para bo'lasiz.

— Sho'rva ichsa, iymon boy bo'ladimi?

— Kallang joyidami? Sho'rva nimayu iymon nima, farqiga borasanmi o'zing?

Jalilning chala mullaligi tutib, u yer-bu yerda eshitganlarini dastak qilib «amri ma'ruf»ni boshlab yubordi. Asadbekning jimgina o'tirib tinglashi Jalilga ilhom berdi — hali u, hali bunisidan cho'-qilab-cho'qilab, bo'zchi bilganini to'qiganiday gapiraverdi.

Asadbekning someligi zohiran edi. Xayoli Chuvrindining o'limiga doir muammolar chigilini yechish bilan band bo'lgani sababli aytilayotgan nasihatlar u qulog'idan kirib bunisidan chiqar, miyaga o'tishga, fikr xazinasidan joy olishga uning ojiz holati yo'l qo'ymas edi. Uning uchun eng ma'quli — Jalilning tinmay «sayrab» turishi. Nima desa ham mayli, gapirsa bas, hozirgi holatida Asadbekning vayron ko'ngli yolg'izlik azobiga dosh berolmaydi. Jalil uyiga kirib chiqqunicha buni his qildi — uy devorlari o'rnidan siljib, uni siqa boshladi. Jalilning jim o'tirishi esa, yolg'izlikdan ham yomonroq.

Tosh bo'lib qotgan, muhrlangan qalbni eritmoq fursati o'tganini fahmlamagan Jalil oshnasining o'ziga xos mamlakat fir'avni ekanini, oxirat qismati ham fir'avnniki kabi ekanini o'ylab ko'rmagan edi.

— Xudo sening joningni qaytib berdi, bir o'lib, bir tirilding, — dedi Jalil. — U dunyoga o'tishingga bir qarich qoluvdi. O'lsam nima bo'laman, deb o'yla-dingmi hech?

Bu savol Asadbekning someligi soxta ekani, «amri ma'ruf»ni tinglamayotganini fosh qilib qo'ydi.

— Senga gapiryapmanmi yo devorgami? — dedi Jalil zardali ohangda.

— Gapingni qaytar, tushunmadim, — dedim Asadbek yengil yo'talib.

— Eshitsang tushunarding, — Jalil shunday degach, savolini takrorladi.

Asadbek xayolidagi parishonlikni yashirish uchun javobdan bo'yin tovladi:

— O'limni o'ylash uchun kasal bo'lish shartmi, o'zing o'ylamaysanmi?

— Mening o'ylashim boshqa, seniki boshqa. Oллоh chaqirsa, «labbay!» deb ketaveraman.

Mening bu dunyoda achinib tashlab ketadigan matohim yo'q. Senga qiyinroq, shuncha to'plangan mol-dunyoni tashlab ketish o'zi bo'ladimi? Hali bu topgan-tutganlaringni hisobini berishing ham bor. U yoqda yumshoq karavotu par yostiqlar yo'q. Muzdek yerda yotasan...

Bu gapni eshitgan Asadbek xuddi lahadda yotgandek seskanib ketdi:

— Gapingning sovuqligini qara, oying muzxonada tuqqanlarmi seni?

— Gapim sovuq bo'ladimi, issiqmi — haqiqat shu!

Ko'cha eshigi ochilib, To'lqin ko'rinmaganida ularning bu «shirin» suhbatlari so'kish bilan yakunlanishi aniq edi. To'lqin ularning sinfdoshi, aynan shuning yo'qolgan perosi tufayli bolalar Asadbekka tupurib, «xalq dushmanining bolasi»ga o'z nafratlarini izhor etishgan edi.

Jalil tanchaning cho'g'xonasidagi choynakni olib choy quyib uzatdi. Asadbek To'lqinni har ko'rganida o'sha tupurish voqeasini eslab, bir ijirg'anib olardi. Ayni damda, yuragi zardobga to'lib ezilib turgan onlarda uning tashrifi dard ustiga chipqonday bo'ldi. To'lqin bemavrid kirganini fahmlab, qanday turib ketishni bilmay kalovlandi.

— Asadbek aka, qalay, yaxshi yuribsizmi?— dedi-yu, ko'zlarini undan olib qochib, najot umidida Jalilga qaradi. Asadbek «ha» deb qo'ya qolsa, osmon uzilib yerga tushmas edi. Shunday bo'lsa ham indamadi. Oradagi bir lahzalik sovuq sukutni Jalilning ovozi quvdi:

— Qachondan beri Asad senga aka bo'lib qoldi? — dedi u bir oz kinoya ohangida.

— Ha, endi hurmatlari bor-da.

— Hurmati zo'r bo'lsa boshqalarga zo'r, sen bilan menga u bor-yo'g'i bir oshna. Qolgani sen bilan menga sariq chaqa. Ha, biron yoqqa shoshyapsanmi yo akaginangni ko'rib ishtoningni ho'l qilib qo'ydingmi? — Jalil bu gaplari bilan «ma'nili biror gaping yo yumushing bo'lmasa keta qolganing ma'qul», deganday ishora qildi. To'lqin buni tushundi, qaynog'i o'lmagan choyni ho'plab, og'zi kuysa ham yutdi-da:

— Janozaga o'tib ketayotgan edim, qaragam eshik ochiq ekan, balki sizlar ham borarsizlar, bahonada ko'rishib qo'yay, deb kiraverganim, — dedi.

— Kim o'libdi? — Jalil shunday deb u uzatgan piyolani oldi-da, guldor patnis ustiga qo'ydi.

— Suhrob ota, bir paytlar pochtachi bo'lgan odam-chi?

Bu gapdan keyin Asadbek unga yalt etib qaradi. To'lqin u odamning xatchi ekanini ta'kidlamasa ham Asadbek yaxshi biladi. Krasnoyardan qaytgach, otasining xatlarini kim yoqib yuborganini bilganda uni bo'g'ib o'ldirgisi kelgandi. Shuni esladi-yu «Baribir o'libdi-a» deb to'ng'illadi. To'lqin uning gapini anglamay «menga gapirdimi?» degan savol nazari bilan Jalilga qaradi. Jalil Asadbekning gapini eshitib, tushungan bo'lsa-da, e'tiborsiz ravishda fotihaga qo'l ochdi. To'lqin qaynotasining huzuriga ilk bor kirgan kuyov kabi dovdorab o'rnidan turdi. Ostona hatlayotganida Asadbek uni to'xtatdi:

— To'lqin, sendan bir iltimos, oshna, o'sha janozaga borib yurma, u palidni yoqib kulini sovurgan odam savobga qoladi. Sen bollarni to'plab kel. Osh qilib berishni niyat qilgan edim, bugun bi-ir o'tirishaylik.

To'lqin «xo'p» dediyu «gapi chinmi?» deganday Jalilga qaradi:

— Ha, men buni bitta oshga tushirganman.

— Asadbekni shu paytgacha hech kim tushirmagan, senga yo'l bo'lsin, — dedi Asadbek, keyin To'lqinga yuzlandi. — Ko'chada turgan bolani aytvor, kirsin.

To'lqin ko'chaga chiqishi bilan Halimjon ildam yurib kelib uy ostonasida to'xtadi.

— Sen nima qilib turibsan?! — dedi Asadbek unga qahrli nigohini qadab. — Kim kelsa kiritaverasanmi?

— Bolalikdagi o'rtog'ingiz ekanlar, — dedi Halimjon gunohkor odam tovushida.

— Akang men bilan o'tirganida birovnini qo'yma yoki avval so'rab, keyin qo'y, nima deding, ukam?

Jalil vaziyatni yumshatishga urinmasa ham Asadbek xayoliga kelgan fikrdan ko'ngli bir oz yumshagani tufayli yigitga boshqa tanbeh berish niyati yo'q edi.

— Bollarga ayt, ikkiyu ikki\*ga mo'ljallab xarajat qilib chiqishsin, — dedi Asadbek.

«O'tmish esa hamisha totli» deganlaridek, bolalikda orttirilgan do'stlari, ular yaxshi bo'ladimi yo ablahmi — farqsiz, ko'ngil tusab turadi. Bunday nafs xuruji boshqalarga nisbatan Asadbekda kamroq sodir bo'lardi. Ne ajabki, hozir ezgin bir kayfiyatda o'tirganda, hatto To'lqinning tashrifi yoqmay turganida kamnamo sog'inch uyg'ondi. Jalil buni tushuna olmas, Asadbekning esa izoh bermoqqa toqati yo'q edi.

— Menga qara, ukam, mahallachilik degan gaplar bor. Osh pishguncha janozaga chiqib kela qolaylik, — dedi Jalil.

Asadbek qovoq uyub qarab qo'ydi-yu, indamadi.

— Hali ham alaming bormidi unda. U bechora atay qilibdimi? Musulmon musulmonning gunohini uch kun ichida kechirib yuborishi kerak.

Bu gap Asadbek vujudidagi g'azab otining bir sapchishiga sabab bo'ldi. Qo'li beixtiyor ravishda patnis ustidagi piyolaga yugurdi, beixtiyor ravishda piyolani changalladi, beixtiyor ravishda uni Jalilga qaratib otmoqchi bo'ldi, ammo ko'z ko'zga tushishi bilan fikridan qaytdi, sovub qolgan choyni yon tomonga sepib tashlab, piyolani «to'q» etib joyiga qo'ydi.

— Azroilning tug'ishgan jiyani bo'lsang ham o'zingni bosib ol, bola, — dedi Jalil. — Nega to'xtading? Otavermaysanmi, basharamni majaqlamaysanmi? Qonsiragan bo'lsang, bira to'la so'yib tashlay qol.

— O'chir! — Asadbek shunday deb baqirdi-da, so'ng tin oldi. Keyin horg'in ovozda, xuddi o'ziga o'zi gapirganday dedi: — Menga qara, donomaxsum, sen tug'ilishing bilan kindigingni o'zing kesgansan, a? Bilib qo'y, men u haromning gunohini uch yuz yilda ham kechmayman. O'lganimda shu isqirtning yoniga qo'ygin, go'rda ham bo'g'ib yotaman. Sen og'aynimsan-u, ammo darding boshqa. Yuragimni kemirib yotgan qurtlar borligini bilmaysan. Bilmaganingdan keyin pista qilib o'tir.

Eshik og'zida Halimjon ko'rinmaganida ehtimol Jalil ham pista qilib o'tirish qo'lidan kelmasligini aytgan bo'lardi. Halimjon uning qalampirga belanayotgan gaplarini tilga chiqmay qolishiga sababchi bo'ldi.

— Bolalarga aytdim, — dedi Halimjon hisobot ohangida. — Yangam telpon qilganmishlar. Asadbek uchun bu xabar xavotirsiz edi. Shu sababli bosiqlik bilan so'radi:

— Nima debdi?

— Sizni so'rabdilar xalos.

Asadbek «bo'pti, boraver», degan ma'noda ishora qildi. Xotining bu qo'ng'irog'i ulug' qayg'ular saroyi darvozasi qulfiga solinajak ochqich ekanini uning g'ofil qalbi sezmedi.

Kesakpolvon aziz farzandidan ayrilib, dunyo ko'zlariga qorong'u ko'rinayotgan ota qiyofasida turar edi. Qabristonga kelganlarning aksari qorining tilovatidan so'ng tarqalishdi. Uning «qayg'uli» ko'rinishiga birov ahamiyat berdi, birov e'tiborsizgina qarab qo'ya qoldi. U o'zini motamsaro qilib ko'rsatishga tirishsa-da, olazarak ko'zlari g'amdan yiroq ekanini oshkor etib turardi. Yaqinroq tanishlar «bandalik», deb ta'ziya bildirib qo'yardi. Uning olazarak ko'zlari esa odamlar orasidan Asadbekni qidirardi. Yuragi ayriliq azobi bilan emas, xavotir tashvishi bilan tepardi.

Asadbekning qabr tepasidagi gapi, hozir esa ko'rinmay qolishi uni qafasga tiqilgan mahluq holatiga soldi. «Sen mening yuragimga tupurding», degan gapning mag'zini chaqmoqchi bo'ldi. Bolalikda «xalq dushmanining o'g'liga nafratini izhor etish uchun» yuziga tupurgani nechundir esiga kelmadi. Asadbek ilgarilari achchiqlanganida ham uni «yo'qol!» deb haydab qoldi. Ammo bugungisi boshqacharoq ohangda, «butunlay yo'qol» degan mazmunda jarangladi.

«Nima uchun darrov mendan gumonsiradi?» deb o'yladi Kesakpolvon. Keyin o'zidan o'zi nafratlandi: «Asad, agar shu mening ishim bo'lsa — Xudo ursin!» degan gapi endi o'ziga

g'alati tuyuldi. «Nega darrov qasam ichdim. Nega o'zimni oqlashga urindim?» deb g'ashlandi. «Qo'rqoq, oldin musht ko'tarar» deganlari kabi xatoga yo'l qo'rganini fahmlab, qafasdan chiqish yo'llarini izlay boshladi. Agar Asadbek shu yerda bo'lganida yonida turib, bir-ikki gaplar bilan yumshatishga harakat qilarmidi... Shunday o'ylardi-yu, ammo Asadbekni qanday gaplar yumshata olishi mumkinligini bilmas edi. Shuning barobarida darg'azab xojasining qayda qolganini yoki qayga jo'naganini ham bilmasdi. Kesakpolvon beo'xshov pildirak kabi xizmat qilib yurgan Xumkallani ko'zi bilan imlab, mashinasi tomon yurdi. Xumkalla hayallamay, tezgina yaqinlashdi.

— Bek akang ko'rinmay qoldi-ku? — dedi Kesakpolvon labiga sigaret qistirib.

Xumkalla cho'ntagidan chaqqonlik bilan yoqqich olib unga olov tutdi:

— Jalilxon akamiz bilan billashib moshinaga o'tiruvdilar. Keyin bilmadim, hayronman, qayoqqa ketishdiykin? — dedi.

— Bu akangni nima deb chaqiruvding? — Kesakpolvon unga o'qdek ko'zlarini qadadi.

— Bek akam chaqiryaptilar, tez yetib keling, dedim.

— O'ziga aytganmiding?

— O'zlari hali kelmagan ekanlar, o'g'illariga ta-yinlovdim. Og'zinga ro'molcha tutib gapirdim, meni tanimadi.

— Hayvon! — Kesakpolvon shunday deb barmoqlari orasida tutayotgan sigaretni uning yuziga otdi. Xumkalla bir seskanib, orqasiga tislandi. Atrofda odamlar bo'lmaganida uch-to'rt tepki mazasini totib ko'rmog'i tayin edi.

— Hayvon, yo'qol! — dedi Kesakpolvon. U ham Asadbek kabi g'azab bilan gapirdi.

Xumkalla shoshib iziga qaytdi-yu, «yo'qol!» degani oddiy haydash emas, balki hukm ekanini fahmlamadi.

Kesakpolvon Asadbekning nima uchun darg'azab bo'lganini endi tushundi. Xojasining yuragini bir-ikki gap bilan yumshatish mumkin emasligini ham angladi. Shu paytga qadar Asadbek bilan necha marta xafalashgan, arazlashgan bo'lsa, bularning barchasi holva ekani, qabr tepasida aytilgan gaplar til uchida emas, yurak qa'ridan otilib chiqqanini ham fahmladi.

Yarim tunda Moskvaga, Xongireyga qo'ng'iroq qilib «Mahmud tinchidi» deb suyunchilaganda bo'lajak xojasining «ehtiyot bo'l, o'zing ham tinchib qolmagin», degan ogohlantirishini esladiyu eti bir seskandi. Bu seskanish yengil qo'rquvning zarbidanmi edi yo ivigan paltosidan o'tib badaniga sanchila boshlagan sovuqdanmi — farqlay olmadi. Xumkallaning orqasidan bir zum tikilib turib, bu befahmni tuqqan onasini eshakka ro'para qilib so'kindi-da, mashinasi eshigini ochib, orqa o'rindiqqa o'tirdi. Old o'rindiq g'ilofining cho'ntagidan bir uchi chiqib turgan konyak shishasini olib qopqog'ini ochdi, piyolaga quyishga qanoat qilmay, shundayligicha ko'tarib, nafasi qaytguniga qadar qultillatib ichdi. Bu bilan nafsi orom olmagan sababli yana ko'tardi. So'ng o'rindiq orqasida turgan ikki nokning birini olib karsillatib tishladi. Konyak badaniga iliqlik bergach, shisha uchinchi marotaba ko'tarildi, ammo bu safar kamroq ichdi. Qopqoqni burab mahkamlagach, shishani joyiga qo'ydi.

Shu damda u faqat «Jigari»ning o'liminigina emas, balki navbatdagi ikki saydning taqdiridan bo'lak hamma narsani unutgan edi. Tezlik bilan ovlanaajak jonning avvali — Xumkalla. Uning umr bayoniga nuqta qo'yish Kesakpolvon uchun og'ir ish emas. Chirt etib yuborganday bir gap. Faqat «qaerda, qachon, qanday?» degan savollarga javob topsa bas.

«Jigari» Mahmud taqdiriga doir bu uch savolga javob topgan onda «ukaxoni»ga biroz achingan edi. Xumkallaga esa achinmadi. Odam tuproqda o'rmalayotgan qumursqani behos bosib olmay deb rahm qiladi. Ne qayg'uki, Yaratgan bunday fazilatni barcha bandalariga bir xilda beravermas ekan. Kesakpolvonni yaxshi bilgan odam Tangrining bu

mo'jizasiga lol qolib, kichkinagina gavdaga shunchalar ko'p beshafqatlik, berahmlik, zulm cho'g'i qanday jo bo'lgan ekan, deb yoqa ushlaydi.

Qonni qon bilan yuvib bo'lmaydi, degan oddiy haqiqatni anglashga qaldirg'och mo'ylovini silagancha o'yga tolgan Kesakpolvonning aqli qosirlik qilar edi. U kecha qonga belangan qo'lini ertaga yana qon bilan yuvmasa o'z qoni daryosiga g'arq bo'lishinagina bilardi. Jonini asrab qolish uchun jon olmoqdan o'zga yo'l unga ko'rinmas edi.

U necha kunlardan beri gumoni ta'qibida bo'lgan Halimjonni ham o'yladi.

Hosilboyvachchanning qaysi go'rga tiqilgani bilan qiziqib yuruvchi bu yigitga ham qat'iy bo'lmasa-da, hukm chiqarib qo'ygan edi. Halimjon faqatgina «militsiyaga sotilgan» degan gumon to'rida ekani uchun emas, balki Kesakpolvonga bo'ysunmay, Chuvrindi bilan Asadbekka sodiq bo'lgani uchun ham bu dunyoda yashab yurish huquqidan mahrum etilgan edi.

Kesakpolvon shu hukmni ijro etmoq fursati yetdi, degan to'xtamga keldi. Halimjon bilan Xumkallani bir-biroviga qayrab qo'ysa bas, qaysinisi aqlliroq bo'lsa yana uch-to'rt kuncha tirik qoladi. Keyin esa o'zi ham qurbonining izidan yetib boradi.

Kesakpolvon bundan o'zgacha niyat, o'zgacha reja qilishi mumkin emasdi.

Idoraning yangi rahbari xona ashyolarining o'rnini o'zgartiradi. Bu barchaning ko'z o'ngidagi zohiriy ishi. Botiniy ishi esa xodimlarning ma'lum qismini haydab, ular o'rniga o'ziga sadoqatli odamlarni to'plashdan iborat bo'ladi. Kesakpolvon zohiriy ishlarga muhtoj emasdi, shu bois botiniy yumushlarni hali taxtga o'tirmayoq boshlab yuborayotgan edi. Shaytanat olamining o'zga dunyodan farqi ham shunda: saroyga yolg'iz emas, ishonchli ayonlar bilan birga kirib boriladi. Dahlizga to'shalmish chiroyli ensiz gilamni emas, murdalar ko'ksi bosib o'tiladi. Birinchi bo'lib Chuvrindining murdasini bosib o'tgan Kesakpolvon hushini taxt jilvasi o'g'irlagan edi. Bu jilva fohishaning ishvasi kabi aldamchi ekani, olam yaralganidan beri taxt hech kimga vafo qilmaganini fahm etmoqqa u qodir emasdi.

U biroz o'ylangach, rejasi xom tuyulib, undan voz kechdi. Halimjon xoin bo'lsa ham Asadbek qo'njida tura turgani ma'qul, deb fikr qildi. Undan tashqari «quturgan it oldidagi suyakni tortib olishga urinish xavfli» degan to'xtam o'ziga ma'qul keldi.

Hali bir o'rin sovumay turib, ikkinchi to'shakni yetim qoldirmoqni qasd qilgan Kesakpolvon bu yerga nima uchun kelganini ham unutgan edi. Ko'zi fotihaga kelayotganlar tomonga qadalgan bo'lsa-da, xayoli Xumkallaning kallasini olish muammosi bilan band edi. Birovni beayov urib rohatlanuvchi Kesakpolvon ko'p yillardan beri o'zi odam o'ldirmasdi. Bu «qora ish»ni mulozimlari risoladagiday bajarar edilar. Masalaning mushkul tomoni shundaki, ular begonalarning yoki raqiblarning jonlarini rohatlanib sug'urar edilar. O'z sheriklarining yuragini ham shundayin rohat ila sug'ura oladilarmi yo yo'qmi — Kesakpolvon uchun aynan shunisi qorong'u edi.

Fotiha o'qib chiqayotganlar orasida Qozini ko'rgan Kesakpolvon mashinasi eshigini qiya ochdi. To'dadan ajrab mashina sari yura boshlagan Qozi qadamini ildamlatdi. Eshikdan bosh suqib salom bergach, xojasining «o'tir!» degan amriga itoat etdi — chaqqonlik bilan mashinaning orqa tomonidan aylanib o'tib, Kesakpolvonning yoniga o'tirdi.

«Yo'qol!» deb haydalganidan ko'ngli g'ashlangan, mashina tomon damba-dam qarab qo'yayotgan Xumkalla bu manzarani ko'rib joyida picha qotdi, kiprik qoqmagan holda mashina tomon tikildi. Bezovta ko'ngli uni aldamayotgan edi. Chindan ham bu onda uning taqdiri hal etilayotgandi.

Kesakpolvon mulozimidan hol-ahvol so'rash o'rniga piyolaga konyak quyib uzatdi: — Ma, isinib ol.

Qozi sovqotmagan bo'lsa ham, xojasining bu marhamatidan mamnun bo'lgan holda piyolani bir ko'tarishda bo'shatdi-da, labini yalab qo'yib, egasiga termulgan it kabi qarab

turdi.

— Xumkallani ko`rdingmi? — deb so`radi Kesakpolvon.

Qozi bu tagdor savol zamirida qanday ma`no yashiringanini anglamay «Ha»deb qo`ydi.

— Shu bola menga yoqmayapti, — dedi Kesakpolvon.— Odam desang odamga

o`xshamaydi, maymun desang maymunga o`xshamaydi. Bu xumday kallani ko`tarib yuraverishdan gavdasi ezilib ketdi. Gavdasiga rahm qilsakmikin?

Xojasining maqsadini uqqan Qozi javobni hayallatmadi:

— Savob bo`lardi.

— Savobning dodaxo`jasi degin! Xumkalla akaxoniga ja-a sadoqatli edi-a? Ja-a kuyib, ezilib ketdi-ku, boyaqish. Shu bugundan kechikmay borsin yoniga, akaxoni zerikib qolmasin.

— Mashina urib ketsinmi yo poezd-moezd bosib olsinmi?

— Izi qolmasin. Lekin mozorga tiqma, xitlar aylanib yurishibdi.

— Gap yo`q, yo`lini qilaman.

Qozi shunday deyishi bilan Kesakpolvon uni yoqasidan oldi:

— Isi chiqmasin, buni faqat senu men bilaman. Agar sal nari-beri bo`lsa orqasidan o`zing ham jo`naysan, — Kesakpolvon shunday deb uni bir-ikki silkidi, so`ng yoqasini

bo`shatmagan holda, ammo muloyimroq ohangda qo`shib qo`ydi: — Choyxonani o`zing ishongan bolaga topshir. Endi mening yonimda sen yurasan.

Qozi mansab pillapoyasidan ko`tarilib, noiblik darajasiga yetgani, bu martabaning bahosi Xumkallaning joni ekanini angladi-yu, xojasiga qulluq qildi.

---

\* «Ikki kilo go`shtu ikki kilo guruch» demoqchi.

## I I b o b

### 1

Bu dunyoda iblis yetovida yuruvchi odamlar bor ekan, prokuratura tergovchisi ishsiz qolmaydi. Bir uchi Asadbekka borib taqaladigan chigal ishlarni yechish mashaqqatidan rasman ozod etilgan, ammo norasmiy ravishda kuzatuvlarini davom ettirayotgan Zohid Sharipov yaqin orada prokuraturadagi xonasini tark etajagini hali bilmas edi.

Borliqni shom qorong`uligi yutib, idoradagi rasmiy ish vaqti tugagan onda Zohidni prokuror yo`qladi. Bu yerdagi ish vaqtiga «rasmiy» deb nisbat berishimiz bejiz emas. Chunki bu idoradagi ish hajmini ham, ish vaqtini ham belgilab bo`lmaydi. Ba`zan tunlar tong-larga ulanishini, ba`zan bir necha kunlab uyga borib kelishga ham imkon bo`lmasligini hamma ham bilavermaydi. Idorada ishlovchilar esa «ish vaqti tugadimi?» deb soatlariga qaramaydilar.

Zohid bu sohaning mashaqqatlariga militsiyada ishlab yurgan kezlariyoq odatlanib ketgan. Shu bois boshliqning kechki yo`qlovidan ajablanmadi. Shahar prokurori ham sohada boshlangan yangiliklar, o`zgarishlarning natijasi o`laroq bu idoraga qo`yilgan edi. Ozodalik bilan tartibni xush ko`ruvchi prokuror haqida Zohid yomon gap eshitmagan edi. Zohidni faqat bir narsa ajablantirardi: tartibni xushlovchi prokuror idorasidagi ayrim xodimlarning g`irrom o`yin yuritishlaridan xabardormikin? Zohid prokuror bilan asosan majlislarda ko`rishardi, yuzma-yuz holda gaplashish sharafiga hali muyassar bo`lmagan edi.

Zohid xonaga kirganida prokuror nimanidir o`qib o`tirardi. U bosh ko`tarib «keling,

o'tiring», deb qo'ydi-da, o'qishni davom ettirdi. Zohid salomining javobsiz qolganidan, bunday sovuq tarzdagi muomaladan bir oz og'rindi. Prokuror qo'lidagi «Ish»ni oxirigacha o'qib tugatmaguniga qadar boshini ko'tarmadi. O'n besh daqiqa shu zaylda, sovuq sukut hukmida o'tdi. Prokuror so'nggi sahifani o'qib bo'lgach, «Ish»ni yopdi-da, sovub qolgan qahvadan bir ho'pladi. Keyin Zohidni ajablantirgan holda o'rnidan turib u bilan ko'rishdi. So'ng hozirgina o'qib tugatgan «Ish»ni Zohidga uzatdi:

— Bu ishni o'zimiz yuritmasak bo'lmaydi. Militsiya achchiq ichakdek cho'zib yubordi. Ishni cho'zgan ularu gapni men eshitaman. Diqqat bilan o'qib chiqing. «Ish» nihoyatda chigal. Gumondagi ikki kishi sakkiz oydan beri o'tiribdi. «Ugro»da ishlaganingiz uchun bu «Ish»ni sizga ishonyapman. Tezlating, ammo... shoshilmang. Tushundingiz-a? Bu «Ish»ga tegishli hamma masalani faqat men bilan birga yechasiz.

Prokuror shunday degach, yana o'rnidan turdi-da, ham muvaffaqiyat tilash, ham xayrlashish maqsadida qo'l uzatdi.

Zohid xonasiga qaytib, «Ish»ni varaqladi. Sakkiz oy muqaddam yo'qolgan beton zavodi direktorining murdasi Bo'zsuv to'g'onidan topilganini eshitgan edi. Beton zavodi direktori Mavlon Shokarimov vino zavodi boshqoni Qilich Sulaymonov kabi shaharga dong taratgan bo'lmasa-da, bekorga o'ldirilmagani aniq edi. Shokarimov biron kishining shaxsiy g'arazi qurboni bo'lgani yo tasodif bilan o'lganmi yoki biron to'daning g'ashiga tegib qo'yganmi? To'daning... Qaysi to'daning? Dastlabki savollar girdobi Zohidni o'ziga torta boshladi. «Qotil» deb emas, «Qotillikka dahldor», deb qamoqqa olinganlardan biri Shokarimovning haydovchisi Eshpo'latov, ikkinchisi esa o'ynashi Zaripova edi.

Shokarimovning uyi shahardan yigirma besh chaqirim narida ekan. Shaharning kunbotar tomonidagi yangi uyda o'ynashi yashagan. Eshpo'latov xo'jayinini oxirgi marta shu uyga olib borgan. Avvallari yarim kechagacha bo'lsa ham shu yerda kutgan ekan. Oxirgi safar Shokarimov unga «Sen ketaver, ertalab shu yerga kelasan», degan. Eshpo'latov aytilgan vaqtda kelgan, bir soat kutgan. So'ng yuqoriga ko'tarilib, eshik qo'ng'irog'ini bosgan. Zaripova eshikni darrov ochmagan. «Akaning kecha kelmaganlar» deganu eshikni yopgan. Eshpo'latov ichkarida bir erkakni ko'rgan. Hayron bo'lib zavodga borgan. Xo'jayin yo'q. Uyga borgan — xo'jayin yo'q. Kechgacha zavodda kutgan. Keyin uyiga borib xabar bergan. Zaripova avvaliga «hech qanaqa Shokarimovni tanimayman», deb o'ynashidan tongan. Keyin «ba'zi-ba'zida kelib turardilar, ammo oramizda hech gap bo'lmagan, o'sha kuni kelmaganlar», degan. Ertalab uyida erkak borligini ham rad etgan. Tergovchi ham bu dalilga nechundir e'tiborsiz qaragan.

«Demak, mashinadan tushgan, yo'lakka kirgan, uyga esa chiqmagan. Yo'lakda birov kutib turganmi, yo'lakda o'ldirganmi?» Zohid sakkiz oy mobaynida yechilmagan masalaga bir onda oydinlik kirita olmas edi. Uni chulg'ayotgan savollar militsiya xodimlarini ham gangitgan, masalaning turli yechimlarini izlab ko'rishgan, ammo boshi berk ko'chada tentirashdan o'zga chorani topa olishmagan edi.

Xufton qorong'uligi hukmi ostidagi sovuq shamol deraza tirqishlaridan bemanzirat kirib turgan damda Zohid «Ish»ni uchinchi marta o'qib o'tirgan edi. Shahar militsiyasi tergovchisining aybi yoki loqaydligi tufayli yo'l qo'yilgan xatoni aniqlay olmadi. Zohid «Ish»ni olib borgan tergovchini tanir edi. Mayor Soliev bilan ko'p yillardan beri hamkorlikda xizmat qiluvchi bu tajribali tergovchi uddasidan chiqolmagan ishni Zohid eplay olarmikin?

Uyga qaytayotgan Zohidni shu savol ham o'ylantirdi. Tongda idorasiga o'tmay, ishni shu tergovchi bilan gaplashishdan boshlashga qaror qildi.

Shahar ichki ishlar boshqarmasida qandaydir besaranjomlik mavjudligini Zohid navbatchi xonasiga kirganidayoq sezdi.

Zohid avvaliga mayor Solievni so'radi. Navbatchi qisqagina qilib «yo'qlar» dedi-yu,

«boshqa narsa so'ramang», deganday yuzini burdi. Zohidga kerak bo'lgan mayor Ilyosov ham yo'q edi. Ichkariga o'tmoqchi bo'lgan Zohidni navbatchi to'xtatib «aka, kirganingizning foydasi yo'q, hozir hamma temir yo'l bekatida», — dedi.

«Nimaga?» deb so'rashning hojati yo'q edi. Hamma bekatdami, demak, favqulodda xodisa ro'y bergan. Aytish mumkin bo'lmagan sirni aytib qo'ygan navbatchi endi Zohidga cho'chinqirab qarab turardi. Uning ahvolini sezgan Zohid «Xavotir olma, men hech nimani eshitmadim», dedi-yu, iziga qaytdi.

U dastlab ishxonasiga bormoqchi edi. Lekin qandaydir kuch uni bekat sari undayverdi. U g'ayritabiyy bu kuchga bo'ysunib, yo'lovchi mashinaga qo'l ko'tardi.

Bekating asosiy binosi o'rab olingan, tamoshatalab odamlarning yaqinlashishiga yo'l berishmayotgan edi. Zohid birinchi halqadagi soqchi yigitlarga o'zini tanitib o'tdi-yu, ikkinchisida to'xtatildi. Guvohnomasini ko'rsatib, «aka, kattalaringiz ichkarida, sizning kirishingizga hojat yo'q», degan javobni oldi. Nima qilarini bilmay, atrofiga alangladi-yu, yer osti yo'lagiga olib tushuvchi zinapoya yaqinida turgan mayor Ilyosovni ko'rib, o'sha tomon yurdi.

## 2

Shokarimov o'limiga doir «Ish»ni Zohid ikkinchi marta o'qiyotganida mayor Soliev uyga ketishga otlanayotgan edi. Shoh bekatdan uzatilgan xavotirli xabar temir javonga qo'yilgan qurolni qayta qo'lga olishga majbur etdi. Ufadagi qamoqxonadan «Qassob» laqabli jinoyatchi qochganini ular eshitishgan, ammo tez orada bu yerda paydo bo'lib qolishini kutishmagan edi. Qamalmasidan ilgari «Qassob» qaysi shaharlarda yashagan, «ov» qilgan bo'lsa, o'sha yerlarda pistirmalar qo'yilib, poylanayotgan edi. Biz «jinoyatchi» deb atovchi odamlarning ayrimlarida bo'rining sezgirligi bo'ladi. Tuzoq qaerga qo'yilganini oldindan fahmlaydi-yu, pistirmadagilarni dog'da qoldiradi. «Qassob» shu toifadan edi. Adashib kirib qolgan pashsha ham iziga yo'l topa olmay qoladigan qamoqxonadan qochib qutilishga aqli yetgan odamning pistirmalar qo'yilganini anglamasligi mumkin ham emasdi. U o'zi bo'lgan shaharlarni aylanib o'tdi-yu, asr chog'ida shu bekatda poezddan tushdi. «Qassob» pistirmalarni aylanib o'tdi-yu, ammo taqdir yozug'ini chalkashtira olmadi. O'n yetti juvonning go'shtini yeb, otuvga hukm etilgan, jazodan qutuldim, deb erkin nafas olayotgan «Qassob» suratlari bu yerlarga ham yetib kelganini fahmlasa-da, «ko'pchilik orasida birov meni tanimaydi», deb o'ylardi. Xizmatga yaqindagina kirgan militsioner yigit rasmini ikki soatgina burun qo'lida ushlab turganini, «rostdanam o'n yetti xotinning go'shtini yeganmikin?» deb o'ylanganini esa bilmas edi. Milisa yigit ham suratdagi odamxo'rga ikki soatdan so'ng bekatda ro'para kelarman, deb o'ylamagandi.

«Qassob»ning olazarak ko'zlari dastlab xatardan ogoh etuvchi hech qanday harakatni ilg'amadi. Shunday bo'lsa-da, bekat binosini tark etib ko'chaga chiqishga shoshilmadi. Yukxonaga tushib sumkasini qo'ydi. So'ng hojati bo'lmasa-da, chiptaxonadagi turnaqator navbatda turdi. Uning fikricha, pistirma qo'yilgan bo'lsa, ko'chada, odam siyrakroq yerda qo'lga olishga urinishadi. Odam ko'p yerda otishma bo'lishidan qo'rqishadi. «Qassob» shu sababli ham tashqariga chiqishga shoshilmadi. Uning yo'l qo'ygan xatosi ham aynan shunda edi: shoshqich chaqiruvga binoan yordamchi kuchlarning yetib kelishiga o'zi sharoit yaratib berdi. Xatosini tushunganda esa kechikkan edi. Chiptaxonadan chiqib o'zini gavjumroq to'daga urganda ikki kuragi o'rtasiga to'pponcha tiralib, «Qimirlama, qo'lingni ko'tar!» degan buyruq yangradi. U amrga itoat etdi: qo'llarini ko'tardi-yu, boshini burib orqasiga qaradi. Ikkinchi qavatda turib «Qassob»ning harakatlarini kuzatayotgan mayor Soliev shoshqaloq yigitning o'zboshimchaligidan g'azablandi.



«Qassob»ning orqasiga o'girilib qarashi esa zulm vulqoni otilajagidan uni ogoh etdi. U beixtiyor ravishda to'pponchasini yalang'ochlab yugurdi. «Qassob»ni o'zim ko'rdim, o'zim ushlayman», degan niyati amalga oshay deb turgan yigit yuqoriga ko'tarilgan qo'llardan birining qanday qilib aylaganicha gardaniga urilganini sezmay ham qoldi. To'pponcha ushlagga ko'nikmagan titroq barmoqlari tepkini bosishga ham ulguradi. «Qassob» esa to'pponchani uning qo'lidan tortib olishga ham, tepkini bosishga ham ulgurdi. Shu onning o'zida qochmoqqa shaylangan bolalik ayolning sochlariga chang solib to'xtatdi-da, to'pponchani chakkasiga tirab:

— Qayt, qaytlaring! Bir qadam bossalaring otaman! — deb tahdid qildi.

Ham qo'rquv, ham sochlari qattiq tortilganidan uyg'ongan og'riq sabab bo'lib, ayol bag'riga bosgan bolasini tushirib yubordi. Bir yoshdan endigina oshgan go'dak oq marmar ustiga tushib chirillab yig'ladi. Peshonasida qon ko'rindi. Ayol talvasaga tushib tipirchilay boshlaganida «Qassob» uning boshiga to'pponcha dastasi bilan qattiq urdi-da, ikkinchi qo'lini uning bo'ynidan aylantirib bo'g'ib oldi. Ayolning xushsiz gavdasi osilib qoldi. Talvasaga tushgan odamlar o'zlarini turli tomonga urib panoh izladilar. Shu topda hammaning joni o'ziga shirin edi. «Birovni turtib yuborarman, birov yiqilib mayib bo'lar», degan o'y hech kimning xayoliga kelmas edi. Peshonasidan qon oqayotgan go'dakning chirillashi ham birovning qulog'iga kirmasdi.

Hamma o'limdan qochardi. Bugun bo'lmasa qachondir o'lim sharobini totishlarini bilsalar ham qochardilar.

Bu onda «Qassob»ga boshqalarga nisbatan Soliev yaqin kelib qolgan edi.

— Ayolni qo'yib yubor! — deb baqirdi u to'pponcha o'qtalغانicha.

— Qayt! To'pponchani tashla, bo'lmasa otaman! — deb baqirdi «Qassob».

Mayor Soliev bir nafas ikkilandi, so'ng yumshoqroq tarzda gapirdi:

— Yaxshi, tashlayman, ayolni qo'yib yubor. Bolaga qarasang-chi!

— Bolasiga o'zing qarayver. Qurolingni tashlamasang ikkalasi ham o'ladi.

— Yaxshi, — Soliev shunday deb to'pponchasini qo'ltig'i ostidagi g'ilofga solmoqchi bo'ldi.

— Yerga qo'y, — deb buyurdi To'ng'iz. — Sherikla-ringga ayt, to'pponchalarini joyiga solib, chetga chiqishsin. Bilib qo'ylaring, senlarning o'qing jonimni olgunicha tepkini bosishga ulguraman.

Soliev to'pponchani yerga qo'ydi-da, atrofga qarab oldi. Bu qarashdagi ma'noni anglagan yigitlar to'pponchalarini g'ilofga soldilar.

— Agar bu tovuqqa rahming kelayotgan bo'lsa, mayli uni qo'yib yuboraman, ammo o'rniga o'zing kelasan. Rozimisan?

— Yo'q, bormang, — dedi yigitlardan biri.

Soliev bir qo'lini ko'tarib «jim» degan ishora qildi.

— Foydasi yo'q bu qilgan ishingning. Hamma yoq o'rab olingan. Baribir qocholmaysan.

— Sen menga aql o'rgatma. Beshgacha sanayman. Menga baribir, men o'limga hukm qilingan odamman. Bir... ikki...

«Qassob» quruq tahdid qilmayotgan edi. O'limidan oldin ham ikki jonni bahridan o'ta olishga qodir edi. Soliev qonga belanib yotgan militsioner yigitga qarab oldi, nazarida u hali tirik edi. Peshonasidan qon oqayotgan go'dak ham najot tilaganicha unga qarab yig'layotganday bo'ldi. «Qassob» esa sanardi: to'rt... Yana bir soniyadan so'ng bu boshi buzuqning tepkini bosib yuborishidan hech nima qaytarolmasligi mumkin.

— Roziman, qo'yib yubor uni, — dedi Soliev oldingga bir qadam bosib.

— To'xta, sen avval ikkita kishan ol, — deb buyurdi «Qassob».

— Ikkita kishanni nima qilasan?

— Ishing bo'lmasin, aytganimni qil!

Soliev cho`ntagidan bir kishan chiqarib, orqasiga qaradi. Yigitlardan biri unga ikkinchi kishanni uzatgach, «Qassob» tomon yurdi. To`rt qadam qolganda «Qassob»:

— To`xta! — deb buyurdi. — Qo`llaringni kishanla!

Buyruq ado etilgach, Soliev yana ikki qadam bosdi.

— Endi o`ng bilagingga kishanning bir halqasini sol, — deb buyurdi «Qassob». Bu buyruq ham so`zsiz bajarildi.

— Orqangga o`girilib, ikki qadam tisaril.

Solievga «Qassob»ning maqsadi ayon bo`lgan edi. Uning xayoli hozir «Qassob»ni ushlashda emas, azoblanayotgan go`dakning hushsiz onasi bilan qonga belangan yigitni qutqarishda edi. Shu bois buyruqlarga so`zsiz itoat etayotgan edi. Uning maqsadini anglamayotgan yigitlar esa otishga shay turishardi. Soliev orqasiga o`girilgan damda ularga bir qarab olib «zinhor ota ko`rmanglar» deb nigohi bilan ishora qildi.

— To`xta! — Solievning gardaniga «Qassob»ning sassiq nafasi urildi.

Uch soniyaning o`zida kishanning bir halqasi «Qassob»ning chap bilagiga ilindi, ayol qo`yib yuborildi. Shunda Soliev chakkasiga to`pponcha tiralishini kutgan edi. Ammo kutgani sodir bo`lmadi. Shu nuqtaga tikilib turgan o`nlab ko`zlar uchun hech bir kutilmaganda to`pponcha qo`yin cho`ntakka solindi, o`rniga esa panjalari «limonchik» deb erkalab ataluvchi, o`smirning mushtumidek keladigan bujir bombani oldi. «Qassob» bombani ehtiyot halqachasini tishlari bilan uzib tashladi-da, uni Solievning ko`kragiga bosdi:

— Qani endi otlaring, xunasalar! Ha, otmaysanlarmi! — dedi u hansirab.

— Baqirma, nega o`kirasan? — dedi Soliev xotirjam ohangda. Bu xotirjamlik, talvasadan yiroqlik «Qassob»ni bir oz ajablantirdi. Solievning ahvalidagi boshqa odam qo`rqmagan taqdirda ham asabiylashmog`i lozim edi.

Soliev to`pponchani yerga qo`yganida ham, qo`liga kishan urganida ham, hatto orqasiga o`girilib tisarilganida ham o`zini tavakkal hukmiga bergan edi. «Qassob»ning changaliga tushgach, tavakkal chekinib o`rnini qo`rquv egallay boshladi. Qilib qo`ygan ishi endi o`ziga ham yoqmay bir oz asabiylashdi. Ammo bu qo`rquv, bu asabiylik quliga aylanmadi. Qo`rquvni ham, asabiylikni ham sirtiga chiqarmay bo`g`ib turishga o`zida kuch topdi. Uyg`onayotgan talvasani sezdirib qo`yishi mag`lubiyat belgisi ekanini bilardi, shu bois raqibiga sir boy bermadi. «Qassob» Solievdagi hotirjamlik sababini anglamay, uning bo`ynini qisdi:

— Sen menga aql o`rgatma! — deb vishilladi.

— Sekinroq,— Soliev kishanli qo`llarini ko`tarib bo`ynini bo`shatmoqchi bo`ldi. — O`ldirib qo`ysang o`zingga yomon bo`ladi. Sen jazavaga tushmaginu maqsadingni ayt: meni garovga olding, endi nima qilmoqchisan? Shaharga chiqishingga yo`l ochib berishsinmi?

— Jim bo`lmasang, tilingni sug`urib olaman.

«Qassob» shunday deb baqirdi-da, atrofga olazarak qarab «o`ljasi» bilan turmoqqa qulay yer izladi. U halqa orasida ekanini bilardi, shunday bo`lsa-da, qochish imkoni tug`ilishi yoki o`qlar yomg`iridan qutulish chorasi izlanishi mumkinligini ham hisobdan chiqarmagandi. Eshik tomon ham, zinaga yaqin panalik ham unga ma`qul kelmadi. U pana yerni emas, halqaning qoq o`rtasini tanladi. «Otishma boshlansa bir-birini otib o`ldiradi, u dunyoga yolg`iz ketmayman» deb fikr qildi-da, «o`ljasi» bilan tislendi.

Dastlabki o`ljasi — hushsiz ayol va yigit murdasidan o`n qadamlar uzoqlashgach, Soliev: — Ayol bilan bolaga qarashsin, — dedi.

— Qarashsin, — dedi «Qassob» marhamatli janob ovozida. So`ng amr etdi: — Xo`jayiningni chaqir, talabim bor.

— Xayrullinni chaqiringlar, — dedi Soliev baland ovozda.

Yigitlar orasidan kalta charm palto kiygan odam ajralib chiqdi.

- Sen kimsan? — deb soʻradi «Qassob» undan.
- Ugro boshligʻiman, — dedi Xayrullin deganlari.
- Men senga xoʻjayinni chaqir, dedim! — «Qassob» shunday deb tizzasi bilan Solievning orqasiga tep-di. — Buningni men etigimga patak ham qilmayman.
- Bu yerda undan kattasi yoʻq. Sen aytaver, u kattamizga yetkazadi.
- Kattangga borib ayt: menga bitta samolyot bilan bir million pul kerak.
- Xayrullin Soliev bilan koʻz urishtirib oldi-da, «xoʻp» deganicha orqasiga chekindi.
- Bir soatda hal boʻlmasa, sheriging oʻladi! — deb baqirdi «Qassob».
- «Oʻlamiz» degin. Endi yolgʻiz oʻlish yoʻq.
- Toʻgʻri aytasan, yo birga yashaymiz yo birga oʻlamiz. Sen sheriklaringdan umid qilma. Ularing oliftagarchilik qilib toʻpponcha oʻqtalganlari bilan otisholmaydi.
- Nega otisholmas ekan?
- Otishga-ku, otishadi, lekin tegiza olishmaydi. Men qanaqa mashq qilishlaringni bilmas ekanmanmi? Uch oyda uchtagina oʻq otasanlarmi? Uchta oʻq otib mergan boʻlgan bormi dunyoda? Agar gapimga ishonmasang, garov oʻynayman: hozir seni qoʻyib yuboraman toʻpponchani chiqarib otishni boshlayman. Ana oʻshanda koʻrasan tomoshani: bu tomondagi sheriklaring roʻparadagilarini otib qoʻyishadi. Kamida besh-oltitang joʻnaysan ashulalaringni ayt-ib.
- Boshqacha yoʻli ham bor, — dedi Soliev. — Sen meni qoʻyib yuborasan, yigirma qadamdan gugurt choʻpini qoʻyib otishamiz.
- «Qassob» tizzasi bilan yana tepdi:
- Yo sen jinnisan yo men ahmoqman.
- Ikkinchisi toʻgʻri. Ahmoq boʻlmasang, samolyot soʻraysanmi, pul soʻraysanmi? Qayoqqa uchib borasan?
- Nima ishing bor, balki Isroilga ucharman?
- Isroilga uchasanmi yo boshqa yoqqami, yerga qoʻnishing bilan ushlashadi-yu, «Petrovka»dagi akalaringga ikki qoʻllab topshirishadi. Sen siyosatchi emassan, senga shafqat qilishmaydi.
- Oʻchir ovozingni!
- Haq gap hech kimga, hatto odamxoʻrga ham yoqmaydi. Soliev toʻgʻri gap uchun uchinchi marta orqadan tepki yedi.
- Qamoqdan qochgan jinoyatchini ushlash — militsiyaning oddiy vazifalaridan biri. «Tezkor guruh» deb atalgan yigitlar «oddiy vazifa»ning bunaqa yakun tomon burilishini sira kutishmagandi. Bular-ku, yosh yigitlar, hatto Soliev ham koʻp yillik tajribasida bunday holga duch kelmagan edi. Bir militsionerning oʻldirilishi, zobitning garovda ushlab turilishi, jinoyatchining bomba bilan tahdid qilishi bir necha daqiqa ichida katta-kichik idoralarga maʼlum boʻldi. Avval oʻrinbosarlar kelishib «Qassob» bilan muzokara yuritmoqchi boʻlishdi. Soʻng vaziyatning naqadar jiddiyligi inobatga olinib, kattalarga xabar berildi. Kattalarning ham samolyot bilan pul vaʼda qilmoqdan oʻzga choralari yoʻq edi. «Qassob» avvaliga yana bir soat kutishga koʻndi. Soʻng qor yogʻayotgani, samolyot uchmayotgani tufayli yana kutadigan boʻldi. Pulni esa betoʻxtov keltirilishini talab qildi. Bu oʻlim halqasidan qutilib ketishiga «Qassob»ning ishonchi yoʻq edi. Samolyotlarda qochayotganlarning qismati, Soliev eslatmasa-da, unga maʼlum. Qamoqdan qochayotganida chet eldan panoh topish niyati ham, rejasi ham yoʻq edi. «Endi tavbamga tayandim, burnimga suv kirdi, koʻzdan yiroqroq biron ovloqda tinchgina yashayman», degan maqsaddan ham yiroq edi. Toshlardan toshlarga urilib oquvchi bebosh irmoq suvi kabi qismatni aʼlo deb bilgan «Qassob» yana qassobchiligini davom ettirmoqdan boshqa narsani oʻylamasdi. Agar militsioner yigitga duch kelib qolmaganida bir necha kundan soʻng qaysi bir laqma juvon goʻshtidan oʻzi tukkan chuchvarani yeb

rohatlanib o'tirgan bo'lardi.

Endi esa qo'lidagi bombani changallaganicha najot kutardi. Najot qaydan keladi — o'zi bilmaydi. Najot bilan birgalikda qaysi bir tuynukdan o'q otilib chiqib qanshariga sanchilishini ham kutadi. Talab qilgan samolyot bilan million pul o'rniga mergan otgan o'q hadya etilmog'i mumkinligining haqiqatga yaqinroq ekanini ham ko'ngli sezadi. «Bu faraon samolyot bilan million pulga arzirmikin o'zi? Arzimas nimani kutishyapti? Shartta otib tashlasha qolishmaydimi? — deb o'ylagan «Qassob» mergan yashirinishi mumkin bo'lgan tomonlarga javdirab qaraydi. Jon olishni xush ko'ruvchi odam jon berishni istamaydi. Najot kutayotgan bu odam o'zi uchun eng yaxshi, eng maqbul najot ana shu mergan otgan o'q ekanini tan olgisi kelmaydi. Qo'lidagi bomba emas, go'yo o'zining yuragiga o'xshaydi. Panjasini ochsa tamom — yurakdagi jon chiqadi-yu, uchadi-ketadi. Uchib borib qo'nar manzili ham aniq — azoblar otashi. Zulmdan rohatlanuvchi jon uchun o'zgacharoq manzil yo'q.

Ne ajabki, mayor Solievga ham bu bomba ayni damda yurakka o'xshab ko'rinib ketdi. Bomba ixtirochilarining qaltis yoki shum hazilimikin bu? Hozir necha juft ko'z yurakka o'xshovchi bu bombaga tikilib turibdi. Balki ko'zga ko'rinmas Azroilning ko'zlari ham shunga qadalgandir? Vaqt-soati yetganida uning amri bilan panjalar ochilar, bomba portlar... Balki portlamas... Balki Azroilga bitta jon kerakdir? Balki kimdir tirik qolar?.. «Hozir pul olib kelinadi» degan va'dadan so'ng jimlik hukmronligi boshlangan edi. Kutilmaganda zinapoya panjarasiga suyanib turgan yigitlar ovozlari ko'tarib bahslashib qolishdi:

— Otish kerak,— dedi biri,— bitta o'q bilan o'ldirilsa panjasini ochishga ulgurmasligi ham mumkin.

— Bu ishonchsiz, — dedi ikkinchisi, — o'q otilishi bilan bomba ushlangan panjaga mahkam yopishishi kerak.

Soliev ularning maqsadini, nima demoqchi bo'lishganini angladi. «Qassob» o'zbekchani tushunmasa ham ko'ngli bir shumlikni sezib:

— Jim bo'llaring! — deb baqirdi.

Soliev esa asta bosh chayqab, sheriklariga «otmang-lar» degan ishora qildi.

— Sheriklaring nima deyishdi? — deb so'radi «Qassob».

Soliev «Qassob»ni hayron qoldirib to'g'risini ayta qoldi:

— Seni otish kerakmi yo yo'qmi, deb tortishishyapti. Xo'jayinlarning senga yon bosayotganlaridan norozi bo'lishyapti.

Soliev shunday deyishga dedi-yu, «Qassob»ning vujudida tutayotgan gumonga moy sepib, yondirib qo'yganini anglab, tilini tishladi.

Samolyot bilan pulning unishiga o'zi ham uncha ishonmayotgan «Qassob» atrofdagilarning g'imirlab boshqa chora izlashayotganiga amin bo'ldi.

Oqu qoraga, pastu balandga bo'lingan bu dunyoning ishlari qiziq. Qochgan ham Xudo derkan, quvgan ham. Qoraning bag'rida oqqa qarshi fitna yasaladi, oqning bag'rida qorani mahv etmoq rejasi pishadi. Atrofdagilar bombani changallab turganning hayoti yakunini tezlashtirishni qanchalar xohlashsa, bunisi umrining yanada uzayishini shunchalar istaydi. Har ikki tomonning o'z haqiqati, o'z adolati bor. Atrofdagilarning haqiqati shuki, sudning hukmi to'xtovsiz amalga oshirilishi shart. O'zga chora bo'lmog'i mumkin emas.

«Qassob»ning haqiqati butunlay boshqa.

Foniy olamdagi odamlarning barmoq izlari bir-biriga o'xshamagani kabi, ularning dunyoni ko'rishlari, fahm etish darajalari ham turlicha. «Qassob»ning jinoyat «xaltasi»da (hujjatlarning dalolatiga qaraganda) o'n yetti ayolning joni bor. Agar shunchaki «o'n yetti odamni o'ldirgan qotil» deyilsa hayratga ham, ajablanishga ham o'rin qolmaydi.

Chunki unga nisbatan bir necha barobar ko'proq odam o'ldirganlar ham bor. Shunday toifalar borki, ular kimnidir aybdor bo'lgani uchun o'ldirmaydilar, balki shunchaki jon olgilari kelgani uchungina qon to'kadilar. Suv ichgisi kelgan odamning suv ichishi, kino ko'rgisi kelganning tomosha ko'rishi oddiy hol bo'lgani kabi butunlay tanimagan odamni o'ldirib berish ham bu toifa uchun oddiy holatdir. Ammo «Qassob»ning qotilligi bu «odatiy hol» doirasiga ham sig'maydi. Uning jinoyatlariga oid «Ish»larda «odamxo'r» degan atama ham uchraydi. Shunday baho bergan tergovchi, shubhasiz, yanglishgan. «Qassob» odamxo'r bo'lganida edi, erkagu xotinni farqlamay, aralash yeyaverardi. Holbuki u faqat xotirlarning go'shtini xush ko'rgan. Ufadagi tergovchi «nega faqat xotirlarni o'ldirib, go'shtini yegansiz?» deb so'raganida u «xotirlarniki shirinroq bo'lishini bilmaysizmi?»— deb javob bergan edi. Tergovchi bu yolg'on gapga ishongan, holbuki «Qassob» erkakning go'shtini yemagan, qaysi go'sht shirinroq ekanini farqlashi mumkin emasdi.

Ufada uning bo'yniga to'qqizta xotinning joni ilinganida u yana sakkiztasining nomini, o'ldirilgan joyini aytib berdi. Bu sakkiztasining qotili sifatida sakkizta odam allaqachon hukm qilib yuborilgan edi. Ufada bu sakkiztani «Ish»ga tirkashni avvaliga xohlashmadi. Yopig'liq qozonning yopig'liq qolmog'ini ma'qul ko'rishdi. «Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi» deganlaridek, Ufadagilar sakkizta shahardagi hamkasblarining sharmanda bo'lishlarini istashmadi. Sakkizta beayb odamning azoblanishi ularni mutlaqo qiziqtirmadi. «Qassob» esa ularning taqdirini o'yladi, demoq to'g'ri emas. «Yana sakkiztasining go'shtini yeganman», deb o'jarlik qilib turishiga boshqa sabab bor edi. To'qqiztaga ham, o'n yettitaga ham bir xil jazo bo'lganidan keyin sal shov-shuv bilan, o'zining qarichi bilan o'lchaganda «mardlik» bilan ketishni ma'qul ko'rdi. «Qassob»ning o'n yetti ayol go'shtidan chuchvara tugib yegani haqiqat edi. Ammo o'ldirilganlar soni o'n yetti emas, o'n sakkizta edi. Birinchi ayolni o'ldirib, go'shtini yemagan edi. Chunki uning birinchi o'ljasi — o'zini tuqqan onasi edi.

U yashaydigan uy Sochi deb atalmish go'zal shaharning dengiz qirg'og'iga yaqin go'shasiga joylashgan edi. Go'zal shahardagi bolaning hayoti go'zal bo'lavermas ekan. Ba'zan yarim tunga qadar, ba'zan tongga qadar ko'chalarda sanqib yurishga majbur bo'lardi. Ko'chada qancha yurishi bir xonadan iborat uylaridagi maishatning qancha davom etishiga bog'liq edi. Go'daklik chog'larida hali esi kirmagan paytlarda «otam kim, otam qani?» deb ko'p so'ragan. Oqu qorani ajrata boshlagach esa «otamning kimligini o'zi ham bilmaydi» degan to'xtamga kelib, bu savollarini bas qildi. Qo'shni sinfda o'qiydigan oltinsoch qiz uning o'smirlik yuragida muhabbat deb atalmish tuyg'uni uyg'otganida hali onasiga nisbatan nafrati to'lib toshmagandi. Maktabni bitirish kechasi yurak yutib muhabbat izhor etganida oltinsoch malak labini burib «meni onangga sherik qilib olasanmi?» degach, aqlini tamom yo'qotdi. U damlarda maktabni bitiruvchilar «Sochining sururli tongi» deb nomlangan bayramni nishonlashardi. Bo'lg'usi «Qassob» bayramni rad etilgan muhabbatiga motam tutgan holda shampin vinosi ichish bilan boshlab, «sururli» tongni qonli barmoqlariga tikilgan holda militsiya xonasida qarshiladi. Yo'q, u kuni onasini o'ldirmadi. Onasi bag'ridagi erkakka pichoq urdi xalos. Onasini qamoqdan qaytgach o'ldirdi. U hukmni qamoqdaligida qabul qilgan edi: «bolaligimni o'g'irlagani uchun...» Hukm ayovsiz edi. Jinoyatga oid qonunlarda bemehr onalarga bunday jazo qo'llanilmaydi. Nari borsa «onalik huquqidan» mahrum etiladi. Agar ona go'dagini jismonan mahv etsa, shubhasiz, qamaladi. Ammo o'zi dunyoga keltirgan bolasining bolaligini o'g'irlasa, bolaligini bo'g'ib o'ldirsa — unga jazo yo'q. Shu bois onasiga jazoni «Qassob»ning o'zi o'ylab topdi, o'zi hukm qildi, o'zi ijro etdi. Bu hukm va ijro hech bir so'roq qog'ozlarida qayd etilmagan. Umri fohishalik bilan o'tgan ayol jasadining mayda-mayda bo'laklari huzurini shahar ahlaxonasidagi itlar ko'rishdi.

Shubhasizki, bu itlardan hech kim «Sen bugun kimning go'shtini yeding?» deb so'ramaydi...

Onasiga doir voqealar, o'smirlikning sururli damlari uning uchun olis o'tmish bo'lsa-da, unutilgan xotiralar emasdi. Uning pokizaroq ko'ngil mulki shugina edi va undan birovning bahramand bo'lishiga yo'l qo'yilmasdi. Ufadagi tergovchiga, sud raisiga bu ko'ngil mulki eshiklarini ochgan taqdirda ham, birinchi qadamga undagan, majbur etgan ruhiy holat baribir inobatga olinmas edi. «O'zi yaxshi bola ekan, muhit majburlabdi», degan fikr yoki to'xtam uning jonini saqlab qololmasdi.

Hozirgi chorasi ham cho'kayotgan odamning xasga tirmashishi kabi ekanini fahmlasa-da, chiqmagan jondan umidi bor edi.

— Menga qara, faraon, — dedi «Qassob» Solievning orqasiga yengil turtib. — Sheriklaring seni sariq chaqaga ham olmas ekan. O'lishing tayin bo'lib qoldi.

— O'lishimiz, degin.

— Ha, albatta birga o'lamiz.

— Xuddi egizaklar kabi, — Soliev shunday deb mahzun tarzda kulimsiradi. «Qassob» bu alamli chehrani ko'rmadi. Shu nuqtaga tikilganicha har qanday tasodifga shay turganlarning ayrimlari ilg'ashdi-yu, ammo uning nima sababdan kulimsiraganini fahmlashma-di.

— Yo'q, faraon, — dedi «Qassob» yumshoqroq ohang-da. — Egizaklar uch-to'rt daqiqa farqi bilan tug'ilishadi. Sen bilan men esam bir nafasda o'lamiz. Men-ku baribir itday otib tashlanadigan odamman. Ha, senlar meni bir hayvon qatorida ko'rsalaring ham odamman. Quturgan itni otib tashlab qanday rohatlansalaring meni ham o'ldirib shunday huzurlanasanlar. Faqat sengina maza qila olmaysan. To'g'rimi, alam qilyaptimi?

— Yo'q.

— Quloqqa lag'mon ilma.

— Bo'ladigan gapni aytyapman: o'limdan qo'rqmayman. Gap qachon o'lishda emas, qanday o'lishda.

— Ha... hali shunaqami? — «Qassob» bir oz o'yga toldi. So'ng tizzasi bilan yana tepdi. — Men bilan birga o'lishdan hazar qilyapsanmi? Taqdiring shu ekan, faraon, chida. Sen menga o'xshaganlardan nafratlanib yashading. Men esa senga o'xshaganlardan nafratlanib yashadim. Men qaerda tug'ildimu qanday hayot kechirdim? Men boshqa olam edim, sen boshqa dunyo eding. Qara, taqdir meni shu yerlarga haydab kelib, qo'llarimizni bog'ladi. Demak, taqdirimiz bir ekan. Senga o'zingning yo'ling ma'qul edi. Shu yo'lingni to'g'ri deb bilding. Menga esa o'zimning yo'lim ma'qul edi. Endi nima deysan?

— Nima derdim, qo'llarni bog'lab turgan bu kishan sen aytgan taqdir zanjiri emas. Soliev «Qassob»ning yashagan olami haqida, bu olamning falsafasi haqida uch-to'rt og'iz gap aytmoqchi edi, ammo fikridan qaytib, gapni shu tarzda qisqa qilib qo'ya qoldi. Umr bo'yi balchiq suvidan bahra olgan odamga buloq suvining afzalligini gapirishdan ne naf? Jarga qulayotgan, halokati aniq bo'lgan kimsani «jarga yaqinlashma», deb ogohlantirishdan ne naf?

— Faraon, sen Xudoga ishonasanmi?

Kutilmagan savolga Soliev darrov javob bera olmadi.

— Faraon, o'lib qoldingmi, javob ber, Xudoga ishonasanmi?

— Ishonaman.

— Ahmoqsan. Men esa ishonmayman. Xudoga ishonsang ayt-chi, nima uchun meni bunaqa qilib qo'ydi?

— Xudoga ishonmaganing uchun.

— Laqillama, faraon, ishongan sen ham, ishonmagan men ham bir xilda o'lyapmiz-ku?

— Men hali o'layotganim yo'q.

— O'lyapsan... o'lib bo'lding, faraon. Faqat o'limingni rasmiylashtirish qoldi. Joning ishonganing Xudoning emas, mening qo'limda. Istasam hozir o'lasan, xohlasam ertalabgacha yashaysan. Sen o'zingni yaxshi odam deb hisoblaysan-a? Men esa sening nazaringda eng yovuz, eng tuban, eng iflos odamman. Sen meni tanimasang ham shunday deb hisoblaysan. Chunki men — odamxo'rman. Sen shu ma'lumotga ishonib meni o'ldirish maqsadida bu yerga kelgan eding. Sendan oldin-roq men sherigingni otdim. Bunga ham men aybdormanmi? Yo'q, bir so'takning qo'liga to'pponcha berib qo'ygan sen aybdorsan. Men o'zimni himoya qildim, uni o'ldirmasam o'zim o'lardim. Xotinni garovga olmaganimda o'sha zahoti otarding meni. O'ylab ham o'tirmay otarding, a? Axir sen u xotinning kimligini bilmaysan-ku? Balki u mendan ham battardir? Balki u yigirmata erkakni avrab, to'shagiga olib kirgandir, keyin o'ldirib, go'shtini yegandir? Senlar men o'ldirgan xotinlarga achinasanlar, a? Kimlar edi ular, bilmaysan-ku? Bilmay turib achinaverasan. Hammasining erlari bor edi, bolalari bor edi. Erlari bo'la turib men bilan o'ynashishdi. Buzuqliklari uchun erlari ham indamaydi, senlar ham jazolamaysanlar. Eriga xiyonat qilish jinoyat emasmi? Jinoyat. Odam o'ldirishdan ham battar jinoyat. Shuning uchun men ularni jazoladim. Bu yaxshiligim uchun senlar meni o'linga hukm qildinglar. Bu adolatdan emas, faraon. Hozir seni qo'yib yuborsam boshimga yuzlab o'qlar yog'iladi. Badanimni ilma-teshik qilib tashlaysanlar. Menga bittagina o'q kifoya qilishiga aqlaring yetmaydi. Faraon, nega jimsan? Mening haqiqatim oldida Xudoying ham jim qoladi. Sen «Xudoga ishonaman», deysan. Laqillama, faraon, sen Xudoga emas, to'pponchangga ishonasan. Sening Xudoying shu to'pponcha, payg'ambaring manavi kishan. Ana, sening Xudoying ham, payg'ambaring ham menga xizmat qilyapti. Dodingni kimga aytasan?

— Birinchi marta qachon odam o'ldirgan eding?

— Ha, faraon, bu senga nima uchun kerak bo'lib qoldi.

— O'sha paytda qo'linga tushganingda uch-to'rt og'iz gap gapirar edim. Endi foydasi yo'q. Senga qarab o'sha paytda o'q uzilgan. Faqat yuragingga sanchilishi qoldi. Sen balki bugun qutulib ketarsan, lekin bilib qo'y, o'q iziga qaytmaydi, senga atab uzilganmi, demak, adashmaydi. Hukmni Ufadagi sud chiqardi, deyapsanmi, bekor gap. O'sha birinchi qadamingda o'zingga o'zing hukm o'qigansan. O'qni ham o'zing uzgansan. Boshqalardan o'pkalama.

— Shundaymi, u holda o'lim men uchun najot, sen uchun esa falokat, jazo ekan. Bunga nima deysan?

— Men o'limning sharpasini sezmayapman.

«Qassob» shunaqami, «sezmasang, sezib ol», deganday panjasidagi bombani Solievning ko'kragiga qattiqroq bosdi. O'zini hotirjam tutishga harakat qilayotgan Soliev shundan so'ng o'zini behol sezdi. Yo'q, «hozir bomba portlar, tanam qiyma-qiyma bo'lib ketar», deb qo'rqmadi. Xizmati yuzasidan hamisha o'lim bilan berkinmashoq o'ynaydigan odamning yengil turtkidan vahimaga tushishi mumkin emas. Alhol, Soliev vujudidagi behollik sababini bilmadi. Bu sababni keyinroq, shiftga tikilib yotgan damlarda anglaydi. Odam bolasi tug'ilib, dunyoni ko'rgan onidan o'lim bilan quvlashmashoq o'yinini boshlaydi. O'lim quvlaydi, odam bolasi esa qochaveradi. Kimdir bu o'yinda tez charchaydi, o'lim tezgina quvib yetadi. Ba'zilar esa uzoq, juda uzoq qochadi. Hatto o'lim tezroq yugura qolsa edi, tezroq menga yeta qolsa edi, deb nolalar qiladi. Hatto yugurib horigani uchun sekinroq yura boshlaydi. Ne g'amki, shu onda o'lim ham yugurishni bas qiladi. Yugura-yugura charchagan, hayotdan to'ygan odam o'lim yeta qolsaydi, degan ilinjda to'xtaydi. Ne qayg'uki, o'lim ham to'xtaydi. Chunki... quvlashmashoq o'yinining nihoyasi, oqibati qochayotganning ham, quvlayotganning ham ixtiyorida emas. Holiqi

olam belgilagan vaqt va manzilga yetilgunga qadar bu o'yin davom etaveradi. Solievni quvib kelayotgan sayyod — o'lim ayni shu bekatda saydiga yetib keldimi ekan? Buni yolg'iz Yaratgan biladi.

### I I I b o b

#### 1

Uchoq bekasi Maskov o'n ikki darajali sovuq bilan qarshilayotganini e'lon qilib, ehtiyot kamarlarini bog'lagan holda qo'nishga tayyorgarlik ko'rishni iltimos qildi. G'ildiraklar yerga do'qillab tegib, uchoq silkinganida Manzura «Xudoga shukr», deb pichirladi. Uyiga yetib olishiga hali fursat bo'lsa-da ayriliq kunlarining tugayotgani uning qalbini quvonch nuri bilan yoritdi. Shuning barobarida shodlik quyoshi yuzini tashvish buluti to'sishga urindi.

Chuvrindining o'limi haqidagi xabarni eshitgach, qaytish ixtiyorini bildirdi-yu, uyiga qo'ng'iroq qilib ahdini eriga bildirishdan cho'chidi. Ana shu damlarda Asadbekning o'zi qo'ng'iroq qilib mushkulini bir oz yengillashtirdi. Odatdagi salam-alikdan so'ng Manzura yurak yutgan holda so'ramoqchi bo'ldi:

— Adasi, Mahmudjonga...

Savolini oxiriga yetkaza olmay erining to'ng javobini eshitdi:

— Ishing bo'lmasin...

Darvoqe, Manzura erining hayotiga, ishlariga aralashmoq huquqidan mahrum ekanini unutibdi. Asadbek, faqat u emas, balki boshqa erkaklar ham «umr yo'ldoshi» deb atalguvchi xotinlarining chegarasini aniq belgilab qo'yishadi. Halqadan iborat bu hudud orasidagina ayollar erlarining umrlariga yo'ldosh bo'lishlari mumkin, ya'nikim, to'shakda erning ko'nglini olish, bolalar tug'ib berish, farzandlarni tarbiyalash, erning issiq-sovug'idan xabardor bo'lib turish huquqi ularga to'laligicha berilgan. Bu huquq halqasidan bir qarich chiqish yoki chiqishga urinish, agar omadli bo'lsalar so'kish bilan, sho'rpehona bo'lsalar kaltak bilan mukofotlanadi.

Har bir ayol kabi Manzura ham bilib-bilmay ba'zan chegara chiziqlariga yaqinlashib qoladi. Erining «ishing bo'lmasin», yoki «aqling yetmaydigan ishlarga aralashma» deb to'ng'illashi unga chegarada turgan askarning «To'xta, otaman!» degan hayqirig'iday eshitilib, yalang oyog'i bilan cho'g'ni bosib olgan odam holatida iziga qayta qolardi.

Asadbek so'nggi marta qo'ng'iroq qilganida ham o'z odatiga sodiq qoldi: savolining yarmini ichiga yutib «ishing bo'lmasin», degan javobdan qanoatlana qoldi. Eri «Yana nima gaping bor?» degach, ahdini aytishga qiynalib, bir zum tildan qoldi.

— Nima, o'lib qoldingmi? Gapir, gaping bo'lsa! — degan amrdan so'ng tiliga jon qaytganday bo'ldi-yu, tutila-tutila maqsadini ma'lum qildi. Bu xabarni eshitgan Asadbek jimib qoldi. Manzura vulqon otilishini kutgan bechora hoida, barmoqlaridagi qaltiroqni oshkor qilmaslik uchun go'shakni mahkamroq qisib, qulog'iga qattiqroq bosdi-da, ro'parasidagi o'g'illariga najot ko'zlari bilan boqdi. Abdulhamid onasidagi o'zgarishni sezib «aybni bizga yuklayvering» degan ma'noda ko'rsatgich barmog'ini ko'kragiga nuqib qo'ydi.

Manzura kutgan vulqon portlamadi, vazmin, dardli ovoz eshitildi:

— Seni birov haydadimi?

— Yo'q, adasi, o'g'illaringiz...

— Samadga ber.

O'g'lining salomiga sovuq tarzda alik olgan Asadbek qachon uchishlarini so'rab,



Maskovga kutib oluvchi odam yuborajagini aytishdan nariga o'tmadi. Asadbek o'g'illariga indamaydi, zahrini Manzuraga sochadi. Manzura ishonchli qalqoni bilan o'zini himoya qilishga har on shay bo'lsa-da, eri otgan zaharli so'z toshlari bu qalqonni yorib o'ta olmasligini yaxshi bilsa-da, baribir zirillab turadi. Nikoh kechasi Asadbek chimildiqqa kirib kelishidan sal oldin yangasining «nima bo'lsayam hamisha bitta gapdan qolishni o'rgan», degan o'giti butun umr davomida unga ishonchli qalqon sifatida xizmat qildi. Agar har safar bitta gapdan qolganida bittadan gugurt cho'pi tashlab qo'yaverganidami shaharni cho'p bosib ketishi aniq edi. Erinmagan odam bu cho'plarni temir yo'li singari terib chiqsa Yer yuzini necha bora aylanar ekan... Erga tegib kaltak yemaganining bir sababi Asadbekning onasi taqdirini unutmagani bo'lsa, ikkinchisi ana shu «bir gapdan qolish» deb ataluvchi qalqon himoyasida ekanligi edi.

Maskovning muzlagan yeriga qadam qo'ygan Manzu-ra navbatdagi «bir gapdan qolish» uchun uyiga oshiqardi.

Chegarachilar nazoratidan o'tib, bojxona rasm-rusm-lari maydonchasiga o'tishganida Manzura to'siq orti- da turgan Jamshidni ko'rdi-yu, toshday qotdi. Hatto kipriklar ham harakatdan qoldilar. Abdusamad jomadonlar bilan ovora edi. Akasiga ko'maklashishga hozirlangan Abdulhamid onasidagi o'zgarishni sezib, to'xtadi. Onasi tikilib turgan tomonga qarab Jamshidni ko'rdi-yu, jilmayganicha qo'lini havolatib, salomlashgan bo'ldi. So'ng onasiga:

— Jamshid akam kelibdilar, oyi, — dedi.

— Voy tavba, astag'firulloh! — dedi Manzura pichirlab.

— Ha, oyi? — dedi ajablangan Abdulhamid.

— Rostdanam Jamshid akangmi?

— Ha, tanimadingizmi?

Tanimaganida bunchalik holsizlanmas edi. Boshqa a'yonlarga nisbatan yaqinroq, suyumliroq bo'lgan Jamshidning o'limini Manzura o'g'illariga aytmagandi. Ku-yib, qovjirab, deyarli ko'mirga aylangan jasad uchun Chuvrindining uyida o'zi o'rin solganini, g'assol kelguniga qadar ona qatorida murdaning yonida o'tirganini, so'ngroq esa Jamshidning o'limini eshitgan Zaynabning o'zini osganini aytganida Abdulhamid bunday deb so'ramagan bo'lar edi.

O'g'li tanidi. Demak, to'siq ortidagi yigit — Jamshid. Unda Chuvrindining uyida kimning o'ligiga o'rin soldi? Yo tirilib qaytdimi bu yigit? Ko'mirga aylanganini ko'rmaganida ham «tirilibdi» degan gapga ishonishi mumkin edi. Balki ko'rayotgani arvohdur? U holda... o'g'liga ham arvoh ko'rindimi?

Bojxonachilarga jomadonlarni ochib ko'rsatayotgan Abdusamad gap talashib ovozini balandlatgach, ona-bola beixtiyor o'sha tomonga qarashdi. Abdulhamid «Sizlar shu yerda turinglar», deb kelinlar bilan Manzurani qoldirib, o'zi akasi tomon yurdi.

O'g'illarining gap talashayotganidan, bojxonachilarning zarda qilayotganlaridan xavotirlangan Manzura kelinlariga «shu yerda jilmanglar», deb farzandlariga yaqinlashdi. O'rischani durustroq bilmagani sababli nima voqea yuz berganini darrov anglamadi.

Anglamasa-da, yarim o'rischa, yarim o'zbekchalab bolalarini himoya qila ketdi. Go'shtdor malla bojxonachi «grajdanka, siz nari turing» deb Manzuraning bilagidan ushlaganida Abdulhamid qizishib «Nega onamni turtasan!» deganicha uning qo'lini siltab tortdi. Dahanaki jang Manzura kelishi bilan rosmama olishuvga aylanib ketay dedi. Abdusamad ukasini chetga tortib tanbeh berayotganida Jamshid to'siq eshigi oldidagi soqchi yigit kaftiga pul qistirdi-da, shoshganicha yigitlarga yaqinlashdi.

— Kennayi, siz kelinlaringizning yoniga borib tura qoling, — dedi. Keyin Manzuraning nari ketishini kutmay, Abdulhamidning yelkasini ushlab silkitdi: — Kallang bormi, kimga

osilyapsan?

— O'zini ko'rmaysizmi?

— O'chir, ahmoq!

Manzura joyiga qaytgach, Jamshid aka-ukalarni ham qoldirib bojxonachilar bilan o'zi gaplasha boshladi. Oqibat shu bo'ldiki, o'zi bilan kelgan yigitga ayollarni topshirib mehmonxonaga jo'natdi. Aka-ukani esa yuklari bilan birga milisaxonaga olib ketdilar. Ular bilan izma-iz yetib kelgan Jamshid milisaxonaning kattalari bilan til topishga urindi. Bojxonada taftish qaydnomasi yozilmagani uchun bu yerda ish oson bitar, deb o'ylab yanglishgan edi. Milisaxonada ham tergovchi so'roqni boshlamay aka-ukalarni «izolyator» deb atalmish vaqtinchalik qamoqqa qamadi. Jamshid «Ish»ning rasmiylashtirilishiga shoshilishmayotganidan, gaplarini bee'tibor tinglashayotganidan bir shumlikni sezdi. Shu bois ular qarshisida ko'pam elanmay, iziga qaytdi. Telegrafga kirib Bek akasiga noxush xabarni bildirdi-da:

— Yuklaridan qora dori chiqqanmish, — deb izoh berdi.

Bu gapdan so'ng Asadbekdan bir necha soniya sado chiqmadi.

— Xongireyga aytsammikin? — deb so'radi Jamshid.

Bu safar javob hayallamadi:

— Yo'q, — dedi Asadbek bo'g'iq ovozda. — Sen aralashmay tur, o'zim yetib boraman.

Milisalarga gapi o'tmagach, Jamshid Xongireyga uchrashmoqni o'yladi-yu, ammo «Xongireyning ishi bo'lsa-chi, bu?» degan savol xayolini bir yoritib o'tdi. «Agar bu ishda Xongireyning qo'li bo'lsa, gapimni sariq chaqaga olmaydi, Bek akamning oyoqlariga bosh urib kelishlarini xohlaydi, degan fikr uni to'xtatdi.

Jamshiddan sovuq xabarni eshitgan Asadbek ham birinchi galda Xongireyni esladi.

Esladi-yu, maqsadini ham angladi: endi oyoqlariga bosh urib borishdan o'zga chorasi yo'q. Shu topgacha erkakman, deb qaddini g'oz tutib yurgan Asadbek endi egilishga majbur. Bu qimor o'yiniga anov-manov narsa emas, o'g'illarining jonlari tikilgan. Ko'ngli shu xorlikni sezardi. Sezgani uchun ham ularning qaytishlarini istamayotgan edi.

Xojasiga shumxabar yetkazgan Jamshid «Bek akamning jahllari chiqdi» deb o'yladi. U jahl emas, naq jonning o'zi chiqayozganini fahmlamadi. Shumxabarni eshitgan topda Asadbek bo'lajak xorlikni, ta'zim qilib borib balchiqqa bulg'anishini o'ylamadi. Yo'q, buni ancha keyin o'ylaydi. Hozir uning ko'zlariga faqat bolalarining joni ko'rindi. «Bolalar qamoqda» degan gap unga «bolalar tobutda» deyilganday eshitilib, vujudiga muz yugurdi. Jamshidning «gaplashdim, ancha yumshatdim», deyishi ham bu muzni erita olmadi. O'zining tezda yetib borajagini aytgach, «Kennayingga indamay qo'ya qol», dedi.

Hojasi ogohlantirmasa ham Jamshid nima voqea yuz berganini yangasiga aytmas edi.

Vahima to'riga o'ralib yig'iga bandi bo'lib o'tirgan ayollarga «ahvol chatoq, yukinglar orasidan ancha qoradori chiqibdi» de-yishining oqibatini yaxshi bilardi.

Manzura mehmonxonaga joylashguniga qadar, yuragi yorilib ketguday darajada potirlab urayotgan bo'lsa-da, alamli yig'i bo'g'zidan bo'g'sa-da, o'zini tutishga kuch topdi. Xonaga kirib oromkursiga omonat o'tirdi. O'tirdiyu mushuk panjasidagi onasiga mo'ltillab tikilayotgan kabutar poloponlari holidagi kelinlarining ko'zlariga ko'zi tushgach boshqa chiday olmadi. Yuvinish xonasiga o'tib unsiz yig'ladi. Qalbidan nido vulqoni portlagan bo'lsa ham ovoz chiqarmadi. Unsiz yig'la- moq — uning qismati. Yaratgan unga shu azobni ravo ko'rgan ekan, dardini kimlarga aytsin?

Hamma uni baxtli hisoblaydi. Agar yemoq-ichmoq, kiyinmoq, bezanmoq baxt hisoblansa Manzurani eng baxtli ayollardan biri demoq mumkin. O'lchovi, zamoni, makoni bo'lmagan baxt atalmish tushunchaga Manzuraning o'zi ham tushunmaydi.

Manzurani baxtli deb hisoblovchilar, «shu ayolga nasib etganingdan menga ham ber»,

deb Tangriga tavallo qilg'uvchilar uni hozirgi ahvolda bir ko'rsalar edi, «agar baxt shu bo'lsa baxtsizligi qanday ekan?» degan muammoga javob topa olmay yana Yaratganga yuzlanar va bu ayolga o'xshatib qo'ymasligini so'rar edilar.

Manzuraning qorni to'q, usti but bo'lishi barobarida tashvish sandig'i ham to'la edi. U tanish-notanish odamlar og'zidan ba'zan to'g'ri, ba'zan mish-mishlarni eshitib qolganida «bundan ko'ra qimor o'ynab yurganlari ma'qul edi», deb qo'yardi. Qaytar dunyo, deganlaridek, boshqalarga ravo ko'rilgan zulm farzandlariga qaytishi mumkinligini o'ylaganda esa badaniga muz yugurib «qimor o'ynab, meni yutqizib yuborganlari ming marta afzal edi», deb qo'yardi. Deyishga derdi-yu, ke-yinroq noshukrlikka yo'l qo'yganini fahmlab, tavba qilardi. Shu topgacha xonadoni boshiga qora kunlar tushmagani balki shu tavbalar, duolar tufaylidir? Shiddat bilan bostirib kelayotgan qora kunlar seli qarshisida endi uning tavbalari, duolari ojizlik qilib qolgandir?

Roviylar ayturlarkim, cho'pon suruvni qaytargach, sovliqlarni sog'ib, bir qultum sutga ham xiyonat qilmay, xo'jasiga berarkan. Xo'jayin esa sutga suv qo'shib, pullarkan. Cho'pon xo'jasini haromdan qaytarmoqchi bo'lganida da'vati evaziga orqasidan tepki yebdi. Bir kuni suruv o'tlab yurganda qo'qqisdan sel kelibdi-yu, qo'ylarni surib ketibdi. Oqshomda so'ppayib qaytayotgan cho'ponini ko'rib, xo'jayin «Qo'ylar qani?» deb so'rabdi. «Siz sutga qo'shgan suvlar yig'ilib selga aylandi-yu, suruvni surib ketdi», debdi cho'pon.

Har qanday aybli ishlar, gunoh amallar yig'indisining tomchilardan vujudga kelgan ko'l kabi sel qudratiga ega bo'lishini va bu qudrat jazo darvozalarini ochib yuborajagini ko'p qatori Manzura ham bilmasdi. Qizi Zaynab o'g'irlangan kuni bu jazo darvozasining qiya ochilganini, endi esa baralla ochila borayotganini u fikr qilib ko'rmadi. Boshlari uzra jazo shabadalari esa boshlaganda er-xotin tavba bilan sajdaga bosh qo'yganlarida balki ibodatlar jazo seli yo'lga to'g'on bo'la qolarmidi, vallohi a'lam?

Endi esa kech.

Yoz chillasi o'rnini navbahor qayta egallay olmagan kabi g'am-tashvish bulutlaridan yog'ila boshlagan alam do'llariga chora yo'q endi.

Manzura bugungi holatdan eziladi. Yuragi esa ertaning alamlaridan so'zlamoqni istab behalovat tepadi. U esa tilsiz yuragining faryod bilan aytayotgan so'zlarini anglamaydi. Ularni kuzatib kelib, mehmonxonaga joylashtirgan yigit chaqirtirgan restoran xodimlari dasturxon tuzadilar. Manzuraning ham, kelinlarining ham tomoqlaridan ovqat yoki bir tishlam non tugul, bir qultum choy ham o'tmadi.

Manzura kelinlariga nima deb izoh berishni ham, nima deb yupatishni ham bilmas edi. Uning o'zi shu topda bir dononing izohiga, bir mehribonning ovutishiga muhtoj edi. Mushtariy quyib uzatgan choyni olishga oldi-yu, ko'ngil uchun labiga ham olib bormadi. Ko'zi kelinlarining nigohlari bilan to'qnashgach, shu bolalarni tug'ib katta ayb ish qilib qo'yganday boshini xam qildi.

Cho'lponoy ham, Mushtariy ham savol muhrlangan nazarlariga qaynonalaridan javob talab qilmayotgan edilar. Ota-onalarining hikoyalari orqali bu mamlakatni och, vahshiy bo'ri ko'rinishida tasavvur etgan, bir havotir bilan yo'lga chiqqan kelinlarning yuragi qush hadigi bilan tepardi. Ota-onalari yurtlariga kimlar hukmron ekanliklarini bilib tursalar-da, mamlakatdagi keyingi o'zgarishlarga umid bilan qarab, Asadbekning o'g'illarini kuyov qilmoqlikka jazm etgan edilar. Bo'rilar hukmidagi o'rmonda qashqiru shoqollar ham davr surishini ular hisobga olmagan edilar. «Mubham u diyorda qanday yashab ketarkinmiz?» degan tashvishdagi kelinlarga bu hodisa kutilmagan, ajabtovur tuyulmadi. Ularning yuraklari qandaydir noxush voqeaning albatta sodir bo'lajagini sezgan edi. Ammo «mamlakat tuprog'iga qadam qo'yishga ulgurmay erlarimiz hibsga olinarlar» deb o'ylashmagan edi. Yaxshiki ular Olmon polisi bilan Moskva milisasi orasida

osmon bilan yercha farq borligini bilishmaydi. «Advokatlar ishtirokidagi savol-javobdan soʻng hademay chiqib kelishadi» degan oʻy ularni bir oz boʻlsa-da, xotirjamlikda ushlab turardi. Erlarining zax va sovuq, qorongʻu va badboʻy qamoq xonasida qunishib oʻtirishganini bilishsami, buni Manzura ham bilsami, uchovlarining azador xotin holatiga tushmoqliklari aniq edi. Yurt sogʻinchi bilan umr kechirayotgan ota-onalarining armonlari soyasida ulgʻaygan qizlar nikohdan soʻng tanmahramlaridan vatanlari haqida eshitgan nurli hikoyalarga bir ishonib, bir ishonmay safarga otlanishgan edilar. Abdusamad ham, Abdulhamid ham ularni aldamagan edilar. Ular Rusiya istilosida unsiz ingrayotgan Vatan nolalarini emas, quyosh nurida yashnayotgan yurt tabiatini maqtagan edilar. Buning uchun ularni yolgʻonchiga chiqarmoq nooʻrindir, chunki Vatanda turib ular Vatan nolalarini eshitmas edilar. Bu azobli ingroqni armonda yashayotganlar jon quloqlari bilan tinglab, yuraklaridagi nolalari bilan joʻr boʻlar edilar. «Bedardning oldida boshimni ogʻritma», deganlaridek toʻkin dasturxon atrofida ulgʻaygan bolalarning Vatan alamlaridan voqif boʻlmoqliklari mumkin emas edi. Abdusamad bilan Choʻlponoyni, Abdulhamid bilan Mushtariyni bir-birlariga aynan shu toʻkin dasturxon birlashtirib turardi. Dunyoni anglamak, Vatan taqdiriga kuyunmak borasida ularning qalblari boshqa-boshqa edi. Shuning barobarinda Asadbek bilan Muzaffarxon, Manzura bilan Guluzor begim ham bu masalada oʻzga-oʻzga olamning fuqarolari edilar.

## 2

Jamshid taksiga oʻtirib mehmonxonaga yaqinlashganida xojasidan bir narsani soʻrab olmaganini fahmlab, afsuslandi. Shu bois mehmonxona nazoratchisi choʻntagiga besh soʻmlikni qistirib ichkari oʻtgach, yuqoriga koʻtarilmay, telefon koʻshklari tomon yurdi. Asadbek aʼyonining ovozi eshitishi bilan xavotirlanib:

— Yana nima boʻldi? — deb soʻradi.

— Kennayimlarni joʻnatib yubora qolsammikin, deb soʻramoqchiydim...

Asadbek bu masalani Jamshid aytmasdan ilgariroq hal qilib qoʻygan edi. Shu sababli javobni hayallatmadi:

— Tayyor turlaring, odam boradi.

Jamshid yettinchi qavatga koʻtarilib, ayollar joylashgan xona eshigi oldidagi sherigiga yaqinlashdi.

— Aytganingizday choy-poy qildim, — dedi yigit Jamshidning savol nazariga javoban.

— Yigʻi-sigʻi qilishmayaptimi?

— Yoʻq.

— Bitta-yarimta kuzatmayaptimi, sezmadimgi?

— Yoʻq. Birov yaqinlashmadi.

— Ichkarida gap-soʻz boʻlmadimi? — Jamshid shunday deb shiftga qarab oldi. U ovoz yozib oluvchi uskunalar oʻrnatilgan boʻlishi mumkin, degan gumonda sherigini avvalroq ogohlantirgan edi. Yigit hozirgi savoldan Jamshidning maqsadini anglab, «yoʻq» degan maʼnoda bosh chayqadi. Shundan soʻng Jamshid eshikni asta taqillatib, soʻng qiya ochdida:

— Kennayi, kirsam maylimi? — deb soʻradi.

Qafasga solingan qushlar holatidagi ayollar qiya ochilgan eshikka najot koʻzlari bilan qarashdi. Jamshidning ortidan Abdusamat bilan Abdulhamidni koʻrmoq ilinjida termuldilar. Jamshid ostona hatlab ichkari kirganidan soʻng ham eshikdan koʻzlarini uzmadilar. Manzura Jamshidga yaqinlashib, paltosining yoqasini asta ushladi-da:

— Oʻgʻillarim qani? — deb yengil siltadi.

— Ozgina qogʻozbozlik ishlari bor ekan, kelib qolishadi, — dedi Jamshid xotirjam tarzda.

Ona qalbi bu xotirjamlik pardasi ortida yolg'on yashiringanini sezib, Jamshidning ko'zlariga tikildi. Asadbekning badanni teshib yuborguday o'tkir nigohlariga ko'nikib qolgan Jamshid uchun bu ma'suma ko'zlarning tikilishi nima ekan? Jamshid xuddi hech qanday voqea yuz bermaganday, o'g'illari rostdan ham hozir kirib keladiganday xotirjam tarzda qarab turaverdi, hatto sal jilmaygan ham bo'ldi.

— To'g'risini ayt, — dedi Manzura titroq ovoz- da. — ularni... qo'yib yuborishdimi? Manzura aslida «ularni qamashmadimi?» deb so'ramoqchi edi. Ammo bu xunuk so'zni tilga olishdan irganib «qo'yib yuborishdimi?» deb so'radi. Jamshid Manzura tilidan uchishi mumkin bo'lgan savol o'qlariga javob-qalqonlarini tayyorlab qo'ygan edi.

— Kennayi, bollarni ushlagani yo'q-ku? — Jamshid shunday deb mo'ltillaganicha tikilib turgan kelinlarga qarab jilmaydi. — Biz tomonlarda qog'ozbozlikni yaxshi ko'rishadi. Bitta harf noto'g'ri tushsa ham qitmirlik qilaverishadi.

— Qoradorichi? — dedi Manzura pastroq ovozda.

— Shunga ishondingizmi? Bojxonaning tomog'i qichishsa shunaqa qiliq qiladi. Nafsig'a urib qo'ydim, tinchishdi. Agar rostdanam qoradori bo'lganida qog'ozlar to'ldirishardi, hammayoqni vahimaga to'ldirib yuborishardi. Bitta ham qog'oz yozishmadi-ku, o'zingiz ko'rdingiz-ku?

Manzura «aldamayapsanmi?» deganday unga qarab turaverdi, paltosining yoqasini bo'shatmadi. Jamshid esa o'z onasini quchgan mehribon o'g'il kabi Manzuraning yelkasiga kaftini qo'ydi:

— Hozir aka bilan gaplashdim, — dedi suyunchilik xabari bildirganday.

— Aytidingmi, chaqirdingmi?

Bu savol uning mo'ljalida yo'q edi, shu sababli bir oz gangidi. «Chaqirdim, keladilar» desa ishning jiddiyligi sezilib qoladi. «Kelmas ekanlar», desa uyga qaytishganida bu yolg'oni ham fosh bo'ladi. Jamshid «Nima bo'lganda ham uyga yetib borishaverishsinchi» degan fikrda:

— Akam kutyaptilar. Aslida bir-ikki kun Maskovda aylantiray devdim...

Jamshidning gapi chala qoldi. Manzura qo'lini uning yoqasidan olib salgina chekindi-da:

— Ha, Maskoviyam juvonmarg bo'lsin! — dedi.

Bu gapdan Jamshid jonlandi:

— Akam ham shunday dedilar. Hozir sizlarni kuzatib qo'yar ekanman. Bolalar bilan o'zim izma-iz yetib boraman.

Manzura «shunday qilamizmi?» deganday kelinlariga qarab oldi-da, ulardan javob kutmay qarorini aytdi:

— Birga ketamiz. Bir kun ming kun emas, kuta- miz.

— Bilmadim... — Jamshid siquvga olib ularning hadikdagi yuraklarini yanada ezmaslik uchun sukut saqladi. So'ng ilojisiz odamning ovozi bilan davom et-di: — Akam nima der ekanlar. Hozir odam keladi.

— Kim?

Kim kelishini Jamshidning o'zi ham bilmas edi. Shu sababli mujmal javob qildi:

— Akam shu yerdagi yaqinlariga tayinlabdilar. Agar xohlasangiz telefonni ulay, akam bilan o'zingiz gaplasha qoling.

Jamshid Manzurani ko'ndirish uchun atayin shunday dedi. U yanglishmadi — mo'ljalni aniq oldi. Eri bilan gaplashish haqidagi taklifni Manzura o'ylab ham o'tirmay rad qildi:

— Yo'q... kerakmas.

Manzura xonaga kirishi bilan uyga qo'ng'iroq qilishni o'ylagan edi. Ammo erining qahrli ovozini eshitishdan cho'chidi. «Bunga sen o'zing aybdorsan!» degan hukmdan qo'rqdi. Hozir ham ana shu qo'rquv tirnoqlari orasida «yo'q» deb qaytish haqidagi amrga bo'ysunmoqdan o'zga chorasi yo'qligini angladi-yu, bu bilan Jamshidning mushkulini

yengil qildi.

Ayollar huzurida qoqqan qoziqdek turish Jamshidga malol kelib, dahlizga chiqdi. Qo'shni xonadan joy olgan bo'lishlariga qaramay, bu eshikdan uzoqlashmagan holda soqchi kabi turishdi. Ularni kuzatib qo'yishi lozim bo'lgan odam hadeganda kelavermagach, Jamshid toqatsizlandi. Xojasidan «Kimga aytgansiz, kim keladi, kim kuzatadi?» deb so'rab olmagandi. Bularni so'rashga haqqi ham yo'q edi. Bek akasi lozim topsa o'zi aytardi. Aytmadimi, demak, Jamshid bularni bilmasa ham bo'ladi. Ayniqsa telefonda har qanday gap aytilavermasligini Jamshid yaxshi biladi. Bilgani uchun ham «shuni so'rab olmabman-da» deb afsuslanmadi. Jamshidning betoqatligi zamirida «aytilgan odam keladimi yo yo'qmi?» degan havotir yo'q edi. Xojasi kim bilan-dir gaplashdimi, kimgadir aytdimi, demak, masala hal. Jamshid masalaning tezroq hal bo'lishini, ayollarni tezroq sog`-omon kuzatib, yigitlar holidan xabar olish uchun milisaxonaga qaytishni istayotgan edi.

Ming yillik qari toshbaqa singari sudralayotgan vaqt betoqat yuragini siqayotgan damda ayollar xonasidagi telefon jiringladi. Manzuraga ham, kelinlarga ham telefonning bemavrid jiringi xuddi ro'paralarida pinakka ketgan bo'g'ma ilonning behos uyg'onib, bosh ko'tarishiday tuyulib, cho'chib ketishdi. Go'shakni ko'tarmoqqa hech birlari jur'at etishmadi. Telefon to'rtinchi marta jiringlaganda Jamshid eshikni taqillatib, kirib keldi. Go'shakni qulog'iga tutib «allo» deyishi bilan qo'ng'iroq qilgan odam salom-aliksiz, muddaoga ko'cha qoldi: tezlik bilan Domodedovoga yetib borishlari lozimligini tayinladi. Gap qisqa va aniq edi. Jamshid «xo'p, yaxshi» deyishga ham ulgurmay aloqa uzildi. Ko'chaga chiqishganda mijozga mahtal bo'sh taksilarga o'tirishmadi. Biroz kechikibroq chiqqan Jamshidning sherigi xuddi begona odamday ularga e'tibor bermasdan ko'chaning narigi betiga o'tib ketdi. Kelinlar bo'sh mashinalardan biriga o'tirmay izg'irinda kutib turishlari sababini bilmay hayron edilar. Manzura ham ehtiyot chorasi ko'rilayotganini bilmay, tanishlarning mashinasi kelsa kerak, degan o'yda turardi. Qarshi tomondan uch-to'rt bo'sh taksi o'tgandan so'ng, yigit navbatdaxisiga qo'l ko'tardi. Manzura uning mashinaga o'tirganini ko'rib «ishi bo'lsa boshqa yoqqa ketayotgandir» deb o'yladi. Ammo oradan bir qancha muddat o'tgach, ayni shu mashina ro'paralarida to'xtagandan so'ng Manzura yigitlarning maqsadini tushundi. Old o'rindiqdagi yigit o'rniga Jamshid o'tirdi, ayollar orqadan joy oldilar. Jamshidning sherigi boshqa mashina to'xtatib, izma-iz yurdi.

«Domodedovo» deb atalmish havolanida ularni hech kim kutib olmadi. Shunday bo'lsa-da, Jamshid qandaydir ko'zlar ta'qib etayotganini his qildi. Telefondagi topshiriqqa binoan pattalarni rasmiylashtiruvchi ikkinchi bo'limdagi oltinsoch juvonga hujjatlarni uzatdi. Juvon bir hujjatga, bir unga qarab oldi-yu, patta ilinjida soatlab mo'ltillab turgan yo'lovchilarga e'tibor ham bermay ishga kirishdi.

Jamshid ayollar oldida, sherigi sal orqaroqda nazoratchining to'sig'idan o'tib, uchoqqa chiqishdi. Ayollar joylashib olishgach ham Jamshid yo'lovchilarga zimdan ko'z tashlab kuzatib turdi. Uchoq bekasi «Siz nega turibsiz, joyingiz qaerda?» degach, Manzura bilan xayr-lashib, pastga tushdi. Zinapoyalar olinib, uchoq uchish maydoniga qarab yurganidan so'nggina iziga qaytdi. Yigitga «Sen Bek akamni kut», deb o'zi milisaxonaga ketdi.

Uchoq bulutlar oqimi bilan olishib, titray-titray yuqoriga ko'tarilgani sayin Manzuraning yuragi ham titrab-titrab, parcha-parcha bo'lib uzilib yerda qolayotganday zirillayverdi. Uyga qaytmoq umidining bu tarzda amalga oshayotganidan alamda bo'lgan ona qalbining xotirjam tepishi mumkin ham emasdi.

O'ldi deb yurgani yigitning tirik holda ko'rgandagi ajablanishi ham unutildi, uyga qaytgach amalga oshajak suyunchli orzu-havaslar yuzini esa qora bulut to'sdi...

...Darvoza ostonasidan to mehmonxonaga qadar oq poyandoz to'shalgan... Boshlariga oq harir ro'mol tashlagan kelinlari qutlug` qadamlari bilan poyandozni bosib ostona hatlaydilar. Ichkariga bir qadam qo'yadilaru egilib salom beradilar — taomil shunday: xonadonga, mehmonlarga, shuning barobarinda muborak kunda yo'qlab kelgan ruhlar hurmatiga salom beriladi. Kimdir «hayotlari shirin bo'lsin» degan niyat bilan kelinlari boshi ustidan shirinlik sochadi. Adasi (ya'ni Asadbek!) «hayotlari to'kin bo'lsin», degan niyatda pul sochadi. Keyin avval kelinlarining, so'ng o'g'illarining peshonasidan o'padi. Agar birov kelib Manzuradan «Bu dunyoga nega keldingu nega yashading?» deb so'rsa u «mana shu baxtli onlarni ko'rish uchun yashadim» deb javob bermog'i aniq edi. Endi-chi?

Poyandoz solish birovning xayoliga kelarmikin?

Sochqi sochish-chi?

Eri, Asadbek nimani sochadi, pulmi?

Endi pul emas, zahrini sochadi...

Manzura erining qay holda qarshilashini ko'z oldiga keltirib, battar ezildi.

Bulutlar bag'ridan yulqinib chiqqan uchoq titrog'i bosildi. Lekin Manzuraning yuragidagi titroq so'na qolmadi. Ko'z ilg'amas kenglikdagi osmon uning ko'ziga tor ko'rindi. Pastdagi bulutlar o'rkachining go'zalligi uni maftun etmadi, balki do'zax o'tlarining tutuni bo'lib ko'rindi ko'ziga. U uchoqda uchmadi, badbaxtlik tikonlari ustidan yalangoyoq yugurib yetdi manziliga.

Uchoq qo'ngach, o'rnidan turishga shoshilmadi. Savol nazari bilan qarashgan kelinlariga «odamlar tushib olaverishsin, turtinib yurmaylik», deb izoh berdi. Agar orada tashvish olovi yonmaganida, o'g'illari bag'rida bo'lganida bunday demasdi, o'zi birinchi bo'lib oshiqib tushardi, qush kabi oshiqib uchardi uyi tomon. Hozir esa eri bilan uchrashish onlarini bir necha soniyaga bo'lsa-da, ortga surishni istadi. Go'yo sal kechroq tushsa, o'g'illari ortdagi uchoq bilan izma-iz yetib kelib, uni erining qahrli nigohidan qutqarib qoladiganday edi.

Uchoq zinapoyasidan o'ttiz qadamcha naridagi ikki oq «jiguli» yonida turgan Kesakpolvon Manzurani ko'rishi bilan unga peshvoz chiqib, so'rashdi. Keyin kelinlarning salomiga alik olib, «qiynalmay keldilaringmi?» deb qo'ydi. Manzura erining kutib olishiga unchalik ishonmasa-da, «keldilarmikin?» degan ham ilinj, ham xavotirda mashinalarga qarab oldi.

— Kelinlarning naq shkaladidan topibsan, Manzur! — dedi Kesakpolvon tirjayib.

Bu gap Manzuraga malol kelsa ham, yuragidagi g'amni sezdirib qo'ymaslik uchun bosh irg'ab jilmayishga urindi. Cho'lponoy ham, Mushtariy ham «Manzur» deb sensirashidan bu past bo'yli jikkak odamni yaqin qarindoshlardan shekilli, deb o'ylashib «kelinlarning naq shkalad»i qanday ekanini anglashmagan bo'lishsa-da, asta jilmayib qo'yishdi. Garchi Asadbek bir necha marta «Bu senga kennayi bo'ladi, sizla» deb tanbeh berganiga qaramay «sen oshnamsan, bu singlim», deb o'z bilganidan qolmagan Kesakpolvonning sansirashiga avvallari Manzura befarq qarardi. Ammo hozir kelinlari huzurida malol keldi.

— Pattani ber, yuklaringni bolalar oladi.

— Yuklarni... ukalaringiz olib kelishadi.

— Ha... Asad aytuvdi.

Manzura old o'rindiqqa, Halimjonning yoniga o'tirdi. Kelinlar orqa o'rindiqdan joy olishdi. Kesakpolvon o'tirgan mashina izma-iz yurdi.

Darvoza ostonasidan to mehmonxonaga qadar bo'lmasa-da, uch-to'rt qadam uzunlikda poyandoz solingan edi.

...faqat sochqi sochilmadi.

...Manzuraning baxtiga g'azabli nigohdan ta'na o'qlari ham yog'ilmadi.

...kelinlarining peshonalaridan o'pib, qutlashi lozim bo'lgan Asadbek ko'rinmadi. Poyandoz adog'ida jilmayib kutib olgan Zaynab avval kelinoyilari bilan ko'rishib, so'ng onasining bag'riga singib ketdi. Bunday onlarda ona-bolaning yig'lab ko'rishmog'i ayb sanalmaydi, birov ajablanmaydi ham. Bunday yig'i shodlik nishonasi deb izohlanadi. Biroq, hozirgi yig'i faqat sog'ingan yuraklarning emas, balki alamga to'la qalblarning nidosi ham edikim, buni atrofdagilar anglashmadi. Onaning qalbi ham, qizning qalbi ham faqat o'zigagina ma'lum g'am zahridan azoblanib nola qilardi. Agar Manzura qizi boshiga tushgan qora kunlarni bilsami, agar Zaynab akalarining nima sababdan Moskvada qolganlari- dan xabar topsami — bu yig'ilar yanada bo'lakcha bo'lar edi. — Qani, Manzur, fotiha ber, qassob qarab qol-di, — dedi Kesakpolvon ona-bolaning unsiz dil roziga barham berib.

Manzura qizini bag'ridan bo'shatib, yonog'idagi ko'z yoshlarini kafti bilan artdi-da, Kesakpolvonning kibrli boquvchi xotini, yana «qutlug' bo'lsin»ga chiqishgan qo'shni xotinlar bilan yengil-elpi ko'rishib, o'ng qo'lida pichoq bilan fotihaga tayyor turgan qassobga, oyoq ostida bo'ynini cho'zib, bo'g'ziga pichoq qadalishini kutib yotgan qo'yga qaradi.

— Qani, ovmiyn! — dedi Kesakpolvon baland ovozda.

Manzura ham fotihaga qo'l ochib, pichirlaganicha duo qildi. «Ya olamlar Robbisi, o'zingning roziliging uchun atadik, dargohingda qabul et, har na bo'lganda ham yolg'iz o'zingga shukr qilamiz, yolg'iz o'zingga sig'inamiz, yolg'iz o'zingdan umidvormiz, yolg'iz qudrat sohibi o'zingsan!» demadi. «Ey Tangrim, bolalarimni o'zing panohingda asra!» deb munojot qildi. Onaning diliga ham, tiliga ham bundan bo'lak iltijoning kelmog'i mumkin emasdi. Pichirlagan lablardan uchgan qalb nidosini atrofdagilar eshitishmadi. Eshitishlari shart ham emas, chunki tinglovchi ham, duolarni ijobat etuvchi ham Tangri taolodir.

Cho'lponoy ham, Mushtariy ham bu ajabtovur marosimdan gangigan holda, iymanibgina turishardi. Manzura boshga oq ro'mol tashlashni, ostona hatlagach salom berishni ularga tayinlamagan edi. Oq ro'mollar jomadonda, jomadon esa Moskvada. Salom berish va boshqa urflarni Moskvadan uchganda yo'l-yo'lakay o'rgatarman, deb o'ylagan edi, aytish ko'ngliga sig'madi.

Qo'y bo'g'ziga pichoq tortilib, qon otilganda Mushtariy cho'chib, «voy!» deb yubordi-yu, yuzini burdi. Bunaqa manzaraga birinchi marta guvoh bo'layotgan opa-singil hurmat-e'tibor ramzi bo'lmish odatni yovvoyilik, hatto vahshiylik belgisi sifatida qabul qilishib, bir oz ko'ngillari og'ridi.

Mehmonxonaga kirib, to'kin dasturxon atrofida duo qilishgach, Zaynab onasi bilan ko'z urishtirib olgach, kelin oyilariga imo-ishora qilib o'rnidan turdi. Qa-yin singillarining maqsadini anglagan kelinlar ijozat so'raganday Manzura qarashdi. Manzura «tura qolinglar» degan ma'noda im qoqib qo'ygach, bir oz hijolat bo'lganlari holda o'rinlaridan turib, Zaynabga ergashishdi.

— Akamlar aeroportda qolishdimi? — deb so'radi Zaynab, hovliga chiqishgach.

Kelinlar «xabaringiz yo'qmi?» degan ma'noda ajablanib qarashdi. Cho'lponoy vaziyatni chigallashtirmaslik maqsadida:

— Maskovinda bir ozlik yumushnida yopmoqliklari lozim o'lur emish, — deb izoh berdi. Zaynab shirin lafzda aytilmish bu so'zlarga yaxshi tushunmasa-da, mulozimat qoidasiga ko'ra jilmayib qo'ydi-da, ro'paradagi uy tomon yurdi. «Qaysi biringiz katta kennoyimsiz?» deb so'rashga iymanib:

— Bu uy Samad akamga, bunisi Hamid akamga atab solingan. Hammomi ham ichida, — dedi. — Kirib chiqasizlarmi?

— Siza cho'x tashakkurlarimiz o'lsin, Zaynab bo- nu, — Mushtariy shunday deb yuzini



Zaynabning yuziga qo'ygan tarzda o'pdi.

— Tengri taolo sizdan-da rizo o'lsun, — Cho'lponoy ham shu tarzda o'pgach, har birlari o'zlariga atalgan uyga kirishdi.

Manzura Olmoniyada ekanida, hali qaytish fursati ma'lum bo'lmay turib, avval Chuvrindining xotiniga, so'ng Zaynabga qo'ng'iroq qilgan, kelinlarning uylarini yasatib, kelinlar uchun uch-to'rt sidra kiyim-bosh olib qo'yishni tayinlagan edi. Chuvrindining xotini Elchin fojiasidan so'ng gangib yurgan Zaynabni yoniga olib, shu xayrli ishlar bahonasida ovunar degan maqsadda bozorlarga birga tushib, birga harid qilib, uylarni birga yasatgan edi.

Kelinlar uyga kirib ketishgan damda Manzura mehmonxonadagi ayollarga uzr aytib, tashqariga chiqdi. Zaynab bundan quvonib, onasiga yaqinlashdi-da, mahkam quchoqlab oldi.

— Adang qanilar? — deb so'radi Manzura past ovozda.

— Krasnoyarga ketyapman, dedilar.

— Qachon?

— Bugun.

— Nimaga ketdilar yana, aytmadilarmi?

— Bobomning qabrlariga tosh qo'yarmishlar.

— Voy Xudoyim, shu shartmidi hozir...

Zaynab aldamadi. Otasidan eshitgan gapni aytdi. Gapi ohangida yolg'on bo'lmagani sababli Manzura unga ishondi. Asadbekning Moskvaga ketgani kuzatib chiqqan Halimjon bilan Kesakpolvongagina ayon edi. Nima uchun ketgani esa Kesakpolvonning o'zigagina ma'lum edi.

Dasturxonga sho'rva suzilgach, telefon jiringladi. Zaynab mehmonxonaga kirib «Kennayim, Mahmud akamning xotinlari...» deb chaqirdi. Onasi ayvonga chiqishi bilan «xabarlari yo'qdir» degan mulohazada «kennayim azadorlar, shuning uchun kelolmadilar», deb qo'ydi. Manzura go'shakni qulog'iga tutib, salomni eshitishi bilan alik o'rniga ko'ngil so'radi:

— Bandalik ekan, ovsin, ukamni berib qo'yib- siz, — deb yig'lamsiradi.

— Qandoq qilamiz, opajon, peshonamiz shu ekan,— degan javob yig'iga ulandi.

Telefon orqali yig'i-sig'i uzoqqa cho'zilmay, Chuvrindining xotini kutib olishga chiqolmaganidan xijolatda ekanini bildirib, erta-indin albatta yo'qlayajagini ma'lum qildi. Manzura til uchida «Xo'p, keling, aylanay ovsin», dedi-yu, «Azador xotin chillalik uyga kelmay tursa ham bo'lardi», deb o'yladi.

Manzura xizmat qilib yurgan Halimjonni chaqirib, so'yilgan qo'yning bir sonini olishni, non, noz-ne'matlardan solib tugun qilishni buyurdi-da, yotog'iga kirib javonni ochdi. O'g'illarining ilgakda osig'liq turgan ko'ylaklaridan bir juftdan olib, yaxshilab taxlab, yaltiroq qog'ozga o'radi. So'ng Zaynabga «sen mehmonlarga qara, men hozir kelaman», deb qaynonasi va qaynisi dafn etilgan qabristonga ketdi. Halimjon olib kelgan tugunni go'rkovlarga berib, o'zi mashinaga qaytdi. Manzura esa taxta o'rindiqda uzoq o'tirib, Yaratganga iltijo qildi.

## IV b o b

### 1

Marhumlarning faqat qiyomat qoyim bo'lganida, sur chalingan onda tirilmoqlari ma'lumdir. Shunday bo'lmaganda edi, Fir'avn tirilib kelib Xongireyning qilmishlarini

ko'rib, a'yonlari Homon va Qorunga qarardi-da, «Senlar o'tmish hayotlaringdan ko'p ham kuymalaring. Senlardan battari ham bor ekan. Senlar-ku, meni xudo deb bilib qildilaring barcha gunohlarni. Bu befarosat bola esa o'zini o'z olamining xudosi deb fahm etyapti. Men do'zaxga hukm qilinganman, ammo bu aqli qosir bilan bir o'tda kuymoqlikdan hazar qilaman», degan bo'lardi.

Fir'avn taqdiridan bexabar o'nlab, yuzlab, balki minglab, balki undan-da ko'proq bandalar safidagi Xongireyni u dunyoda kutilajak azoblar mutlaqo tashvishga solmas edi. Uning ayni damlarda tashvishi faqat bu dunyoga xos — singan Asadbek o'rniga o'zining sodiq vassalini qo'ymoq. Ha, u Asadbekni singan hisoblardi. Qurigan, singan shoxlarni gulxanga tashlab, olovda qo'llarini isitib rohat olgani kabi Asadbekning jon talvasasidan huzurlanishni istayotgan edi.

Qonundagi o'g'ri shohsupasida o'tirgan, ustoz Zelixon tomonidan «Knyaz» deb erkalgan Xongirey qimorbozlarni azaldan yoqtirmas edi. Hali o'g'rilar olamida suyagi qotmagan mahallarda sheriklari bilan militsiya libosini kiyib qimorxonalarni besh-olti marta bosgan edi. Omadi kelib katta yutuq olgan qimorbozlarning ham dodini bergan edi. Uning uchun davlat xazinasini urgandan ko'ra qimorbozlarning sho'rini quritish durustroq edi. Chunki qimorboz ahli hukumatga arz-dod qilmagani uchun ta'qib tashvishidan holi edi. Katta qimorbozlar bilan qonundagi o'g'rilar orasida sulh mavjud bo'lgani sababli «qonundagilar»ning kattalari Xongireyning tanobini tortib qo'yishgach, restoran direktorining sho'rini quritaman deganida o'zining sho'rginasi qurib qoldi. Shu holatning asosiy sababchilari qimorbozlar deb bilib ularga nisbatan so'nmas nafrati yuragiga muhrlandi.

Shundanmi, Xongirey o'zga o'g'rilardan farqli o'laroq, qimor o'ynamas edi. Hatto shunchaki havas yoki ko'ngil ochar uchun ham qo'lga qarta olmas, yonidagilar uchun ham qimorga yaqinlashmoqlikni man etgan edi. O'jarlik, o'z ahdida qat'iy turishda unga bas keluvchining topilishi qiyin. Ahdga vafo qilmoq, qat'iylik pokiza qalb egalari uchun yaxshi fazilat sanaladi. Zulm urug'i nish urgan yuraklar uchun esa ofat eshigining ochilmog'idir.

Xongireyning bu olamga kirib qolishiga asosiy sabab ham shu o'jarlik edi.

Qofqazning osmon bilan o'pishgan yerlarida joylashgan Hamzat ovuli faqat atrofidagi mag'rur cho'qqilari bilan emas, yigitlarining bo'ydor, baquvvatligi bilan ham boshqalardan ajralib turardi. Endigina o'n beshni qoralagan Aftondil esa gavdada ham, abjirlikda ham yigirma yoshlilar bilan baralla bahslasha olardi. Chavandozlikda, kurashda ovulning faxriga aylana borayotgan edi. Mayxo'rliги tufayli ovulga isnod keltirayotgan odamning o'g'li atrof ovullarning ham nazariga tushayotgan paytda shayton g'oliblik qildi.

Tengsiz chavandoz bo'lib yetishayotgan yigitchaning uyida ot tugul eshak ham yo'q edi. Aftondil uchun esa bu bir adolatsiz hol edi. Bu nohaqlikka chek qo'yishga ahd qilgan damda qalbiga zulm o'rgimchagi hali to'rini yoymagan edi. Dastlab ahdini halol tarzda amalga oshirmoqqa urindi. To'y-hashamdagi poygalarda, kurashlarda g'olib chiqsa-chiqmasa unga mehrini bog'laganlar suyunchi sifatida pul berar edilar. U ana shu pullarni yig'a boshladi. «Ot bo'lmasa toy olarman», deb niyat qildi. Nazran tomondagi Ingush ovulda bir toyning dovrug'ini eshitib, xaridor bo'lib bordi. Toyning egasi narxni aytganida Aftondilning kapalagi uchib ketdi: to'plagan puli toyning bitta tuyog'iga arang yetardi. U toyning qimmatini taxminan chamalab ko'rgan, ammo zotdor toyning bu qadar qimmat bo'lishini hisobga olmagan edi. O'jar, mag'rur, ayni damda soddadil yigitcha «hozircha shu pulni ola turing, qolganini ke-yinroq olib kelib beraman», dedi. Toyning egasi bu soddalikdan kulib, «bo'lmaydi, inim», deb qo'ya qolsa bo'lardi. Ammo u hazillashib «bu pulingga eshak olib mina qol» deb mag'rur yigitchaning izzat-nafsiga

tegib qo'ydi.

Xudo urganni, banda ham turtib o'tadi, deyishlari rost ekan. Nazrandagi Ingush ovuldan alam bilan qayt-gan Aftondilning g'am daryosi ikki kundan so'ng toshgandan toshib ketdi: otasi pulni o'g'irlab olib, sheriklari bilan bo'kib ichibdi. Aftondil har qancha alamda bo'lsa-da, otasiga qarshi gapirmadi — haddida turdi, mag'rur tog'liklar urfini buzmad. Aytilishi lozim bo'lgan gaplarni onasi aytdi: «Bu kuningizdan o'lganingiz ming marta yaxshi. O'g'lingiz ot olmoqchi edi bu pulga, sizda insof degan narsa bormi?! Kecha Nazranga borganida puli yetmagan ekan, tamom quritdingiz-ku endi!» dedi. Kayfi hali tarqamagan otasi esa qo'l siltab «Erkak odam pulim yetmadi, deb o'tiraveradimi, yoqqan bo'lsa minib kelavermaydimi? Bitta ingushning toyini tortib ololmagan chechen — chechenmi», deb ming'irladi. Shunchaki aytilgan gap Aftondilning qulog'iga o'rnashib qoldi. Ertasiga esa otasining kayf aralash aytganlari haq gapga aylandi. Eshak sotib olib minishni maslahat berib haqoratlagan odamni jazolashi kerak edi. Otasining aytganini amalga oshirishni paysalga solmadi. Nazranga toy minib kelish qasdida jo'nadi-yu... uyiga bir yarim yilda qaytdi. Toy minib emas, «ot o'g'risi» degan la'nat tamg'asi bilan qaytdi. Endi uning kurash maydoni ham, poyga maydoni ham o'zgardi. Ozodlikdagi kunlari bir yilga bormadi. Bir do'konni bosaman, deganda sakkiz yilga ketvordi. Yoshi o'n sakkizga yetguniga qadar o'smirlar axloq tuzatish lagerida bo'lib, so'ng Pskovdagi kattalar qamoqxonasiga ko'chirildi. Axloq tuzatishi lozim bo'lgan yerda o'g'irlik bobidagi chala ilmini ancha to'ldirgan edi. Pskovga kelib esa, «oliy ma'lumot» ola boshladi. Bu «oliy ma'lumot»ni «akademik» laqabi bilan mashhur Zelixon berdi. Keyinchalik «qonundagi o'g'ri» tojini kiyishi ham aynan shu ustozining tavsiyasi bilan amalga oshdi. «Aftondil» ismining «Xongirey»ga aylanishi ham uning istagi bilan bo'ldi.

Birinchi marta o'tirganida unga «Zuluk» deb laqab berishgan edi. Bu nom Zelixonga yoqmadi. Yigitni sinab, hunarini o'rgatgach, bir kuni:

— Sen balchiqda tug'ilganmisan? — deb so'radi.

— Men tog'liman! — dedi Aftondil g'urur bilan.

— Tog'da qo'ng'iz ham tug'iladi, burgut ham, — dedi Zelixon. — Sen burgut bo'la olarmikansan?

— Men burgutman! — dedi u ishonch bilan.

— Unda nima uchun shuncha yildan beri «zuluk» degan past nomni ortmoqlab yuribsan. Burgut bo'la olsang, nimaga chang solishni bilib ol: quzg'unga o'xshab o'laksa ovlama. Zulukning vazifasi nima, bilasanmi? Bilmasang bilib ol: u harom qonni so'radi. Harom qon so'ruvchi zuluk bilan o'laksa yeyuvchi quzg'unning nima farqi bor? Sen laqabingni o'zgartir. Zuluk degan nomdan or qilmaganingga hayronman.

Chindan ham or qilmagan edi. Bu dashnomdan so'ng izza chekdi.

— Men senga Xongirey deb nom beraman. Men Xongireevlar nasabidanman. Sen ham Girey xonlar singari bu olamning zo'ri bo'l, xoni bo'!

Aftondil — Xongirey Oltin o'rdaga bo'yunsinmay, Qrim xonligiga asos solgan Girey xonlari sulolasini, ularning yevropaga dahshat solganlarini, Davlat Gireyning esa Moskvaning dodini berganini bilmas edi. Buni Zelixon ham yaxshi bilmas edi.

Shubhasizki, shogirdining Davlat Girey izidan borib, Moskvaga in qo'yishini, Moskvaning zo'rlaridan biriga aylanishini o'ylab ham ko'rmagan edi.

Aftondilga ustozining bittagina gapi kifoya qil-di — o'shandan beri u Xongirey. Ammo nomi o'zgargani bilan fe'li aslicha qolaverdi. Harom-xarishning, o'laksaning farqiga bormay yashayverdi. Zelixon vaqti-vaqti bilan unga dashnom berib turardi. Xongirey ustozining dashnomlarini indamaygina eshitardi, boshini egardi, keyin esa yana o'z yo'lida davom etaverardi. U garchi «Tog'likman!» deb g'ururlansa ham, burgutman, deb kerilsa ham, ustoziga xiyonat qilishga majbur bo'ldi: Zelixonni oxirigacha himoya qila

olmadi. O'z jonini garovga qo'yib ustozini saqlab qolmog'i mumkin edi, ammo bunday qilmadi, yuragini moy kabi o'ragan xudbinlik bunga yo'l qo'ymadi.

Birinci xiyonatni ko'pchilik sezmay ham qoldi. Zelixon o'ldirilgach, uning ruhiga ham xiyonat qildiki, buni boshqalar ham payqashdi. Birinci galda Baygildin fahmladi. Baygildin o'sha Pskovdagi qamoqda Xongireyni Zelixondan «qabul qilib olgan» o'g'ri edi. Banklar bo'yicha «mutaxassis» hisoblangan Baygildin qamoqdan keyin ham Xongirey bilan birga bo'ldi. Mustaqil ishlashni yoqtirmaydigan Baygildin oqibatda Xongireyning o'ng qo'lga aylandi.

Mayda o'g'irliklar barham topib, Xongirey qulochini kattaroq ota boshlaganda Baygildinga ish ham qolmadi. Ammo Xongirey uni yolg'izlatmadi, Baygildin «maslahatchi» martabasida yuraverdi. Baygildin beradigan maslahatlari havoga uchib ketishini, Xongirey o'z bilganidan qolmasligini bilsa ham uni tashlab ketmadi. Shogirdning Asadbekka osilayotganini fahmlagan Baygildin avvaliga indamadi. Asadbekning o'g'illari hibsga olinganidan so'nggina aralashmoqlikni ma'qul ko'rdi. Mamatbey kirib Asadbekning o'g'illari rayon militsiyasining qamoqxonasida o'tirishganini ma'lum qilgach:

— Kelishganimizdek, ertagacha kutamiz. Asad kelsa keldi, kelmasa o'g'illarini Lefortovoga o'tkazib yuboraveramizmi?

— Shoshilma,— dedi Xongirey esnab, — sen o'zbeklarni yaxshi bilmaysan. O'lar joyda bo'lsa ham yetib keladi. O'zbekning ko'ziga joni emas, bolasi ko'rinadi. Mening ko'nglim to'q. Shu bir-ikki kun ichida Asadning masalasi hal bo'ladi.

— O'g'illaridan qaysi biri?..

— Aytuvdim-ku? Bo'shangrog'i qolsin, otasiga o'xshaganini tinchitasan.

— Bittasi aeroportda g'alva ko'tardi. Jangariroq ekan.

— Ana, hukm tayin ekan-ku? — Xongirey bu safar obdon kerishib, esnadi. — Nima balo, lanjlik tarqamayapti-ku?

— Konyak quyaymi? — dedi Mamatbey o'rnidan turib.

— Yo'q, sen chiqib ayt, achchiq qahva berishsin.

Mamatbey eshikni qiya ochib buyruqni yetkazgach, yana Baygildin yoniga o'tirdi.

— Xon, — dedi Baygildin, — Sen Zelyani unutdingmi?

Xongirey unga qarab qo'ydi-yu, javob bermadi. Baygildin ham javobga mushtoq bo'lmagan odamday boshqa gap qo'shmadi. Savol Xongireyga yoqmadimi, demak javobdan umid qilmaslik kerak. Savolni ikkinchi bor qaytarmoqqa hojat ham yo'q. O'n oltidan endigina oshgan durkun qiz ishva bilan olib kirgan qahvadan uch-to'rt xo'plagach, Xongirey ustoziga qaradi.

— O'zbeklarga qo'l ko'tarishga haqqim yo'qligini bilaman. Chechenlarga non berganlarga qo'l ko'tarsam, Zeli og'amning ruhi chirqiraydi, shuni aytmoqchimisiz?

Bu gap Mamatbeyga ma'lum edi, shu bois hojasini quvvatladi:

— Ular o'yin qoidasini buzdilar, jazosiz qoldirib bo'lmaydi.

— Sen to'g'ri gapir, jazolamaymiz, tarbiya qilamiz, — Xongirey shunday deb oyoqlarini pastqam stol ustiga qo'yib, chalishtirib oldi.

Baygildin shogirdining o'zi tomon uzatilgan oyoqlariga e'tibor bermadi, ko'ngli ham og'rimadi. Odob degan tushunchadan yiroq bo'lgan olam uchun bunday o'tirish nima ekan, agar Xongirey shu tomon qarab tahorat ushatsa ham parvoyiga kelmagan bo'lardi. Chunki bunda yosh emas, martaba muhimroq.

Baygildin shogirdini ogohlantirish bilan vazifasini ado etgan hisoblab, gapni chuvalashtirmadi. Xongirey esa o'ng bilagidagi soatga qarab, yana esnadi-da:

— Ponchikni soat nechaga aytgansan? — deb so'radi.

— Vaqt bo'ldi, kelgandir, — dedi Mamatbey.

— Qara, kelgan bo'lsa chaqir.

Mamatbey yana o'rnidan turib, eshikni ochdi-da, amr-ga mahtal turgan yigitga imlagach, yana joyiga qaytdi. Dam o'tmay eshik baralla ochilib, ostonada Selim ko'rindi.

— Selim, bormisan, orqadoshim! — dedi Xongirey o'tirgan yerida.

Selim salom berdi-da, gavdasiga yarashmagan holda tez-tez yurib kelib, so'rashish uchun uzatilgan qo'lni o'pib, ko'ziga surtdi. Bu qiliq ma'qul kelib, Xongirey o'zini chin xon kabi his qilib jilmaydi-da, Selimga yonidan joy ko'rsatdi.

— Qaerlarda tentirab yuribsan? — deb so'radi u Selim o'tirgach, yelkasiga qo'lini tashlab. — Qorabog'da eding, Bokuga ko'chibsanmi?

— Ha, endi... — Selim aybdor boladay boshini egdi. — Qorabog'dagi qarindoshlarni qora tortib boruvdim, u yerning tinchi ham buzildi... Boku tinchroq bizga.

— Sen qaerga borsang, g'alva chiqyapti, nima balo shumqadammissan? — Xongirey shunday deb kuldi. Mamatbey hojasining ko'ngli uchun tirjaydi. Dam sigaret tutatib, dam qahva ho'playotgan Baygildin esa bu gaplarni eshitmaganday jimgina o'tiraverdi.

— Sen nima uchun Hosil bilan chiqishmay qolgan eding? — deb so'radi Xongirey jiddiylashib. — Otang-dan qolgan molingni talashdingmi?

— U narxni past oldi, bizga tiyin ham qolmadi.

— Hosil mening odamim-ku?

— Buni bilmabman.

— Sen mentlarga xizmat qildingmi?

— Yo'q. — Selim shunday dedi-yu, ichida nimadir uzilganday bo'ldi.

— Zeli og'am seni nima uchun do'pposladi?

— Tushunmovchilik bo'lgan...

— Zeli og'amni o'ldirishdi. Uning o'limi sening bo'yningda. — Xongirey shunday deb Selimning bo'yniga uch-to'rt shapatiladi. — Sening har bir tomiringni bitta-bitta kesib tashlasam ham xumordan chiqmayman. Bo'ri o'libdi, eshitgandirsan?

— Yo'q...

— Laqillatma, eshitgansan. Sen har bir baloni bilasan. Sen titrama, ponchik. Nima balo, ishtoningni ho'l qilib qo'ydingmi, tur, chiqib almashtirib kel. Mamatbey bunga loyiq ishtoning bormi? Xotinlarniki ham bo'laveradi. Buning erkakka o'xshamay qolibdi.

O'zingni tut, shu yurak bilan Hosilga osildingmi? — Xongirey shunday deb uni yelkasiga yengil mushtladi. — Seni o'ldirmayman. Bir qop go'shtning jonini sug'urib olsam isnodga qolaman. Sen hozir ko'ch-ko'roningni ko'tarasanu O'zbekistonga qaytasan.

— Nega?

— Kokoin bilan shug'ullanasan.

— Kim bilan... ishlayman? Yana Hosil bilanmi?

Xongirey «Hosilning o'limini rostdan ham bilmaysanmi?» deganday unga tikildi:

— Har holda Iliko bilan emas...

Bu gapdan so'ng Selim rostdan ham ishtonini ho'l qilay dedi. Farg'onada ekanida, hali Zelixonning tepkisini yemay turib, «Bo'ri» — Fedyaning yo'rig'iga yurmasidan avval g'ilay Shomil uni siquvga olganida «Iliko bilan maslahatlashaychi...» deb, kimga suyanajagini ishora qilib qo'ygan edi. Hosilning Xongirey bilan aloqasi borligini bilganda bu gapni zinhor aytmagan bo'lardi.

— Iliko bilan... aloqam yo'q, — dedi Selim titroq tovushda. — Menga osilavermasin, deb shunchaki aytuvdim.

— Bilaman, — dedi Xongirey, — Iliko sen bilan ishlaydigan ahmoq emas. Ikki qulog'ingga quyib ol: O'zbekiston meniki. U yerga bir-ikki ishonchli odam kerak.

Aloqalaringni yo'qotmagandirsan, a?

— Bor... siz bilan ishlash biz uchun baxt.

— Tilyog`lamalik qilma. Men bilan ishlagan odam hech qachon baxtli bo`lmaydi. Sen O`zbekistonga boraver, nima qilishingni keyin aytaman.

— Men avval o`zim borib, joy-poy qilsam...

— Ha, albatta, bir o`zing borasan. Oilang esa Moskvada turadi. Sen u yerda boshqaga uylanib, maisha-tingni qilaver. Mamatbey, buning o`ynashlaridan xabar olib keldingmi? Mamatbey bosh barmog`ini ko`rsatib, «Zo`r!» degan ishorani qilganicha ishshaydi. Selim esa oilasi garovda ekanini anglab zil ketdi.

— Balki Bokuda... — deb gap boshlagan edi, Xongirey unga o`qraydi.

— Galvars! Odamlar Moskvada yashashga yetisholmaydilaru sen noz qilasanmi? Agar halol ishlasang, uch yildan so`ng ana u yerda, — Xongirey ustozini o`tirgan yerni imlab ko`rsatdi, — o`tirasan.

Xongirey shu gapni aytgach, Selim masala hal bo`lganini anglab, o`rnidan turdi. Ostonaga yetay deganida Xongirey uni to`xtatdi:

— Hosildan qo`rqma, u ham o`lgan.

Selim bu xabarni endi eshitganday, Xongireyga ajablanib qaradi. Xongirey boshqa gapirmadi. Ichida «Ha, tulki!» deb qo`yib so`kindi.

Bir necha soatdan so`ng Kesakpolvon qo`ng`iroq qilib, Asadbekning Moskvaga qarab uchganini bildirdi.

## 2

Bu voqeadan to`rt kun avval Asadbek Chuvrindining janozasidan so`ng eski uyiga kelib o`tirganida Xongirey Moskvadan salkam ikki yuz chaqirim narida joylashgan Shaxovskoy deb nomlanuvchi o`rmon bag`rida barpo etilgan qarorgohida maishat qilib yotardi. Chuvrindining o`limi xususidagi Kesakpolvonning xabari unga aynan shu yerga yetkazilgandi. O`shanda Xongirey xushxabarni aytgan Mamatbeydan:

— Asadbekning o`g`illari Germaniyada edimi? — deb so`rab, savoliga javob kutmayoq amr etgan edi: — Xabar olchi, har holda qadrdonimning bolalari, uyiga qaytadigan bo`lishsa, Moskvada uch-to`rt kun mehmon qilaylik.

Ularni qanday kutib olish, qanday mehmon qilish rejasi aynan o`sha yerda, o`sha damda pishib yetilgan edi. Yovlashib qolgan ikki odamning biri otasidan qolgan eski uyida, bolalik chog`ida basharasiga tuflab, xalq dushmani o`g`liga nafratini izhor etgan do`stlari uchun osh damlatib o`tirardi. Do`stlarini kutayotgan Asadbekning xayoli bolalik xotiralari bilan emas, balki ukasiday qadrdon bo`lib qolgan Chuvrindining halokati bilan band edi. Shaxovskoydagi qarorgohda esa Xongirey shoxona dasturxon tuzab, o`g`rilar olamiga kirib topgan Kats, Yaponchik, Tengiz, Jamal, Mixas, Karo, Yakutyonok kabi laqablar bilan nom chiqargan do`stlarini kutayotgan edi. Mazkur maishat Kozlov saltanatining barbod etilgani suyunchisi edi. Xongirey shu ziyofat bahonasida O`zbekistonda ham to`la nazorat o`rnata boshlaganini ma`lum qilib, «senlar u tomonlarga burinlaringni tiqmalaring», deb ishora qilib qo`ymoqchi edi.

Osmonga hukmini o`tkazishga, quyosh yuzini to`sishtga ahd qilgan qora bulutlar ohista va sokin suzib yurgan bo`lsalar ham, ulardan qo`rqqulik. Yetarli quvvat to`plagach, bir-biriga yaqinlashadi-yu, yashin chaqnab hamma-yoq ostin-ustin bo`lib ketadi. Shamol ularni haydab, quyosh yuzi ochilgunga qadar qora bulutlar bag`ridan to`kilgan do`l ekinlarni payhon qilishga ulguradi. Shaxovskoydagi qarorgoh bilan Asadbekning eski uyi orasida salkam beshming chaqirim masofa bo`lsa-da, bu ikki joyni, bu ikki jonni ko`zga tashlanmas iblisning zulm iplari bir-biriga bog`lab turardi. Qora bulutlarni-ku shamol haydar, ammo qora niyatlarga nima to`siq bo`la olar ekan?

Asadbek «do`stlar davrasida bir oz taskin toparmikinman», deb yanglishgan edi. Tancha

atrofida faqatgina uning jismi o'tirardi. Palov suzilib, hidi nafsni bir qalqitib oldi-yu, biroq tomoqdan ovqat o'tmadi. Ayniqsa Jalilning bir gapi boshiga gurzi kabi urildi...

Bolalikdan birga ulg'aygan do'stlar yig'ilgani bilan davra suhbatini uy kabi sovuq, uzoq-yuluq mavzudagi gaplar bir-biriga qovushmas edi. Osmon kabi tund o'tirgan Asadbekning kayfiyati hazil-mutoyibaga yo'l bermadi. Oshnalar «nima uchun chaqirdi-yu, nima uchun birov yeb o'zi quruq qolganday tumtayib o'tiribdi», degan ma'noda bir-birlariga savolomuz qarab qo'ydilar xalos. Buning sababini faqatgina Jalil so'ray olardi. U jim o'tiribdimi, demak boshqalarning ham sukut saqlaganlari durust. Agar Asadbek lozim topsa, nega yo'qlaganini o'zi aytadi. Lekin kayfiyati chatoqligining sababini baribir bildirmaydi. U tashvishini birovga dasturxon qilib yoyadigan toifadan emas.

Asadbekning qulog'iga oshnalarining so'zlari dam kirib, dam kirmasdi. Jalil suhbatga qo'shilmasidan oldin gap nima haqda ketayotganini anglamay qoldi. To'lqin mahalladagi bir qariyaning farzandlari beoqibat, bemehr chiqqanini aytayotganida Jalil uning gapini shart bo'lib:

— Xudodan qaytibdi, uning o'zi ham otasini xorlagan edi, — dedi.

Xudodan qaytibdi... Zaynab o'g'irlanganida Jalil tomonidan aytilgan bu gap unutilmay, yuragini sich-qon kabi kemirib yotgan edi. Hozir o'sha og'izdan chiqqan o'sha gap xonada momaqaldiraq singari guldiragandek bo'ldi. Asadbekning boshiga gurzi kabi urilib, tovoniga qadar zirillatdi.

«Xudodan qaytibdi?.. Meni gapiryaptimi?» Asadbek shu xavotir bilan o'rtoqlariga qaradi.

Jalil uning boqishiga e'tibor bermay ayni kunlarda ezilayotgan oqsoqolning bir vaqtlar otasini qanday xorlaganini gapira boshlagan edi. Asadbek suhbat mavzuini qisman anglagan bo'lsa-da, boshiga to'qmoq kabi urilgan gapning zahridan qutula olmadi.

Xudodan qaytibdi... Asadbek o'shanda «Mening maishat qilganimni ko'rdingmi?» deb baland kelishga urinsa-da, faqat o'zigaginayu Ollohga ma'lum qiliqlarini eslab, bu haq gap oldida taslim bo'lgan edi. Ana shu taslimlik o'shandan beri azob berardi. Jalilning hozirgi gapi boshqa odamga tegishli bo'lgani bilan uning yarasini yangiladi.

Xudodan qaytishi...

Zaynabning qismati, Mahmudning o'limi... Yana Xudo nimalarni qaytarib, boshiga solar ekan?..

Osh yeyilib, bir piyoladan choy ichildi-yu, do'stlar davrasi ortiqcha lutfsiz tarqaldi.

Shundan so'ng Asadbek ham o'rnidan turdi.

— Uyingga borasanmi? — deb so'radi Jalil undan.

— Seni olib borib qo'yishadi, — dedi Asadbek to'g'ri javobdan bo'yin tovlab.

Jalil bu gapdan «Borar yerim bilan ishing bo'lmasin», degan ma'noni uqib:

— Avtobusda ketaveraman, onam meni mashinada tug'maganlar, — dedi.

Asadbek yana to'ng'illab qolishning oldini olish maqsadida hazil ohangida:

— Seni oying garmdorining ustiga tuqqanlar, — dedi.

Bir nima deb javob qaytarishga Jalilning tili qichidi-yu, ammo do'stining ahvolini inobatga olib, o'zini tiydi.

Asadbek uyiga qaytmadi, Chuvrindinikiga bordi. Shom kirib, xassakashlardan bo'lak odamlar tarqalishgan edi. Asadbek mashinadan tushmay turiboq, atrofga qarab Kesakpolvonni qidirdi. Hovliga, undan mehmonxonaga kirganida ham nigohi uni izladi. Mushtoqligi uchun emas, aksincha ko'rgisi kelmayotgani uchun ham qidirdi. Jalil «oshnam ukasining o'limidan ezilib ketdi, shuning uchun janozadan so'ng azador xonadonga borgisi kelmadi», deb o'ylab bir oz yanglishdi. To'g'ri, ezildi. Biroq Chuvrindining uyiga kelishidan tiyilishiga asosiy sabab Kesakpolvonga ro'para kelish qo'rquvi edi. Ha, aynan qo'rquvi edi. U o'zini tutolmay a'yoniga tashlanib qolishdan cho'chirdi.

Asadbek Kesakpolvonga qabr tepasida turib «yuragimga tupurding» degan gapini aniq ishonchga emas, gumonga suyanib aytgan edi. Falokat tasodifan yuz berdimi yo birov atayin uyushtirdimi, Asadbek aniq bilmasdi. U hayoti davomida katta-kichik falokatu fojialarga ko'p duch keldi. Ana shu hayotiy tajriba unda «hech qanday ish tasodifan yuz bermaydi» degan aqidaga ishonirib qo'ygan edi. Shu bois ham «mashinasi tasodifan to'qnashib ketibdi» degan fikrni chetlab o'tdi. Keyinroq «yarim kechada bu ko'chada «KamAZ» nima qiladi, bu hecham tasodif emas», deb aqidasiga sodiq qoldi.

Fojea haqidagi xabarni eshitib to Chuvrindining uyiga kelgunicha turli gumonlarni haqiqat tarozusi pallalariga qo'yib ko'rdi. Unga dadil qarshi chiqishi mumkin bo'lgan Hosilning jasadini allaqachon lahad qurtlari yeb ado etgandir. Shomilning tanasiz boshi ham necha qurtlarga ozuqa bo'lgandir. Hosilning boshqa yigitlari bunday ishga jazm eta olmas. Unda kim?

Bu savolga Kesakpolvonning ko'zlari javob berganday bo'ldi. Kesakpolvon Asadbekni tili bilan aldashga ko'p uringan, lekin har safar ko'zlari pand berib qo'yardi. Asadbek buni bolalik yillari maktabda pero o'g'irlash voqeasidayoq kashf etgan edi. O'qituvchi «Haydar, sen-chi, tupurmaysanmi?» deganida Asadbek bilan uning nigohi to'qnashgan, o'shanda Haydar ko'zlarini olib qochib, o'g'irligini fosh etib qo'ygan edi. O'shanda Asadbek «o'zim ko'rdim, sen o'g'irlading», degan yolg'on gapini uning qarashidagi ana shu xavotirlikka asoslanib aytgandi.

Erta tongda Chuvrindining hovlisiga qadam bosib kirganida ro'parasida Kesakpolvon paydo bo'ldi. Ro'para bo'ldi-yu, yaqin kishisidan ayrilgan odamning dardi, qayg'usi bilan emas, aybli kishining xavotirli nigohi bilan qaradi. «Asad, Mahmudjondan ayrilib qoldik», dedi uning titroq lablari. Ammo nigohi «ajal ukaxonimizni yulib oldi», deb faryod urmadi. Aksincha, Asadbekning savol zuhurlangan tik qarashiga dosh berolmay, «kechir meni, bilmay qilib qo'ydim bu ishni» deganday bo'ldi.

Asadbek bu ikki a'yon orasidan gap qochar, taxt talashar, oqibatda kelishib olishar, deb o'ylandi. Biroq, bir-birini o'ldirib yuborar degan fikrdan yiroq edi. Ayniqsa Kesakpolvon o'zi topgan, o'zi tarbiya qilgan odamni o'zi yakson qilar, deb kutmagan edi.

Chuvrindining hovlisida to'qnashgan nigohlar oqibatida tug'ilgan gumon Kesakpolvonni ta'qib eta boshladi. Chuvrindining o'g'li «chaqirtirgan ekansiz», degach, bu gumon haqiqatga aylana bordi. Ana shu haqiqat ma'lum nuqtaga yetgach portlashi mumkin edi.

Asadbek aynan shuni istamadi. Qabr tepasida turib a'yonini haydagan bo'lsa-da, keyinroq «ishqilib adashgan bo'la-yin, ishqilib boshqa odam bo'lsin», deb umid qildi.

Chuvrindining o'limi uni zaharli o'q bilan yaraladi. Asadbek «qachondir kimdir meni o'ldirib ketar, o'z ajalim bilan o'lmasam kerak», deb xayol qilardi. Oxirgi oylarda Hosil boyvachchadan xavotirlanardi. Agar xavotiri chinga aylansa, Hosil o'tsa yoki so'ysa unchalik alam qilmas edi. Agar hozirgi gumoni to'g'ri chiqquday bo'lsa, alamga chidolmas, jonini shu alam panjasi sug'urib olar...

Asadbek Chuvrindining uyida Kesakpolvonni uchratmagach, bir oz yengil tin oldi. Xizmat qilib charchagan yigitlar Asadbekni mehmonxona ostonasi qadar kuzatib, o'zlari yon tomondagi xona tomon yurdilar. Mehmonxonaga avval Chuvrindining katta o'g'li, saldan so'ng boshiga qora ro'mol tashlagan xotini kirdi. Ona-bola «janozadan keyin ko'rinmay qoldingiz, tinchlikmi?» deb so'rashmadi, Asadbek ham uzr aytishni lozim topmadi. Bir necha fursat bir-birlariga qarashga botinmay jim o'tirdilar. Asadbek so'z aytish avval o'zidan lozim ekanini bilardi. Hammaning tilidan birday uchadigan «bandalik...» dan boshlasinmi?

Asadbek so'z boshlashga qiynalib o'tirganida ayollarning besabrlilik odatiga sodiq qolgan kelin (Chuvrindining xotinini u chin kelinlik martabasida ko'rar edi) tilga kirdi:

— Mulla aka, qishloqda tog'alari bor ekan, ayttersakmikin?



Savol kelini tomonidan berilgan bo'lsa-da, Asadbek unga javob qaytarish o'rniga jiyan martabasidagi Chuvrindining o'g'liga qarab so'radi:

— Ilgari bordi-keldi qilarmidilaring?

— Yo'q, — dedi jiyan «to'g'ri javob beryapmanmi?» degan ma'noda onasiga qarab olib, so'ng dadilroq ohang-da qo'shib qo'ydi: — Biz ularni tanimaymiz.

— Tanimasalaring nima qilasanlar xabarlab. Tirigida yaramagan tog'a endi kelib tiriltirib berarmidi. Mehrga arziydigan odam bo'lsa, Mahmudning o'zi oqibat qilardi. Endi gap bunday, Umidjon bolam, adang rahmatli yetimlikda katta bo'lgan edi. Sen «mening ham peshonam shu ekan», deb siqilma. Sen meni «opoq dada» deb katta bo'lding. O'lgunimcha senga ham, ukalaringga ham dadaman.

— Mulla aka, sizning tani-joningiz sog' bo'lsin. Sizdan boshqa bizning yana kimimiz bor? Bola-chaqangizning rohatini ko'ring. Fotihaga kelayotganlarga yigirmaning qachon bo'lishini aytib qo'ysakmikin?

Asadbek bu safar ham jiyaniga qarab javob berdi:

— Bularni o'ylamalaring. Qachon, qaerda, nima qilishini o'zimiz bilamiz. Umidjon bolam, sen adanglarning tsexlariga borib turarmiding?

— Ha... — Yigit bu safar ham onasiga aybli odamning nigohi bilan qarab oldi.

— Uch kun bu yerda turgin-da, keyin ishga qara. Adang-ning ishlarini endi o'zing yurg'izasan.

— Mulla aka, — kelin murojaat etishga etib qo'yib, fikrini bayon qilmoqqa ikkilanganicha past ovozda dedi: — O'g'lingiz o'qishini tiklab, davom ettirsamikin, devdik. Ukangiz bilan ham maslahatimiz shunaqa bo'luvdi. O'g'lingiz bir esi yo'qlik qilibmi tashlovdi o'qishini, endi o'zi ham pushaymon, «o'qiyman», deyapti, opoq dadasi. Yana... Umidjon o'g'lingiz yosh... bu ishlarni eplolmaydi.

Buralgan tarzda bayon qilingan fikrga yashirilgan maqsadni Asadbek angladi.

Bu ayol eri bajaradigan barcha ishlarni aniq bilmasa-da, odamlarning gap-so'zlariga ishonib, taxmin qilardi. Lazzatli kelinlik olamiga kirgan dastlabki haftalar, oylar, yillarda erining uyga qaytishini xavotir bilan kutib, tuni bilan Manzura kabi joynamoz ustida o'tirishni odat qilmagan, lekin ajinadan qo'rqqan qizaloq kabi hadiksirab kun o'tkazardi. Garchi shu olamning noz-ne'matlaridan bahramandlikda yashasa-da, farzandlarining boshqa bexavotir olam fuqarolari bo'lishlarini istardi. Bu jihatdan uning niyati Manzuraning, nafaqat Manzuraning, hatto Asadbekning umidlari bilan uyqash edi. Shu sababli ham Asadbek gapning zamiridagi ma'noni darrov uqdi. Uqdi-yu, biroq, achchiqlanmadi, «noshukr ekansan!» deb g'azablanmadi. Aksincha bu taklifni xotirjamlik bilan qabul qildi:

— O'qiydi, o'qimaganiga qo'ymayman. Mahmud menga ham «o'qishini tiklataman», devdi...

Asadbek bu gapning yolg'onligini bildirib qo'ymaslik uchun xuddi rost gapirayotgan odam kabi ona-bolaga bir-bir tik qarab oldi. To'g'ri, Chuvrindi o'g'lining o'qishidan gap ochgan edi. Faqat hozir Asadbek aytgan tarzda emas, balki «Bek aka, sizning o'g'illaringizga havasim keladi. Umidjonimda o'qishga sira toqat yo'q. Bolaligidan shunaqa. Kitob o'qi, desam yig'lardi. Endi-ku «o'qimayman» deb dangal aytdi. O'qimasa o'qimas. Lekin bitta diplom to'g'irlab qo'ysammikin», degan edi. Hozir Asadbek «o'qimaganiga qo'ymayman» deganda o'sha «diplom to'g'irlash»ni nazarda tutdi. Bir ozlik sukutdan so'ng u fikrini davom ettirdi:

— O'zimning bolalarimni o'qitib, senikilarni ko'chaga tashlab qo'yamanmi? Sen aytmasang ham o'qitaman. Xotirjam bo'l, bolalaringning hammasi o'qiydi.

«Hohlamayman» deydiganini ham tinch qo'ymayman.

Xizmat qilib yurgan Xumkalla uchta kosa qo'yilgan patnisni ko'tarib kirib, ularning

gaplari uzildi.

— Kennayi, qo`shnilardan qaynoq moshxo`rda chiqdi. Bek aka, siznikini qatiqlamadim-a? Xumkalla shunday deb kosalarni dasturxon ustiga qo`yayotganida kelin yuziga ohistagina fotiha tortib, o`rnidan turdi-da, «Men ichkarida icha qolaman», deb eshik tomon yurdi.

— Kennayi, siznikini olaveraymi bo`lmasa? — Xumkalla shunday deb bitta kosani patnis ustiga qo`yib, iziga qaytdi.

Chuvrindining o`g`li Xumkalla kirishidan to chiqquniga qadar unga g`alati qarash bilan qaradi. Asadbek buni sezib, u ham Xumkallaga tikildi. Tikildi-yu, unda sarosima yoki dovdirash holatini ilg`amadi. Ko`proq Chuvrindi bilan birga bo`luvchi Xumkallaning fe`lini, qiliqlarini yaxshi bilmagani uchun ham Asadbek hech nima sezmedi.

Asadbek ota uyidagi palovxo`rlikda Jalilning zo`ri bilan uch-to`rt qoshiq osh yegan edi. Boshqa payt bo`lganida balki taomning hidi nafsni qitiqlab uyg`otardi. Ammo bir necha soat oldin o`lik chiqqan uyda nafs uyg`ona olmadi. Asadbek ko`ngil uchun qo`liga qoshiq oldi-da, ovqatga botirib aylantirdi.

— Ich bolam, sovutma, — dedi mehribonlik bilan.

Chuvrindining o`g`li ham ko`ngil uchun bir qoshiq ichib opoq dadasiga qarab oldi.

— Kechasi telefon qilgan odamning ovozi tanidingmi? — deb so`radi Asadbek, kosani sal nari surib. — Men adanglarni chaqirmagan edim. Bu gap oramizda qolsin. Ayangga ham aytma. Ovozni kimga o`xshatding?

Umid yelka qisib, yerga qaradi.

— Aytaver, qo`rqma. Bu tasodifga o`xshamayapti. Agar adanglarni... o`ldirishgan bo`lsa... unda sen... ularni o`ldirasan. Ketgan kelarkan, ketmonlagan qaytib kelmas ekan. Men bu ishning tagiga yetaman. G`alamisni topib o`ldirmasak, adanglar bizdan rozi bo`lmaydi. Hayot shunaqa, Umidjon bolam, erkak odam qasos uchun yaralgan.

Asadbek hayot haqidagi, yaralish va o`lim to`g`risidagi, mehr va zulm xususidagi o`z dunyoqarashi, o`z xulosalariga tayanib aytdi bu gaplarni. U «al qasosul minal Haq» — «qasos Haqdandir» degan haqiqatning ma`nosiga yetmas edi. Asadbekday odam bu haqiqat mag`zini chaqolmasa hayotning achchiq mevasini endigina totgan bu yigit nima desin? Yarim tunda otasining o`limi haqidagi xabarni eshitiboq «adamni o`ldirishibdi», degan xayolga bandi bo`lib qolgan yigitga Asadbekning hozirgi gaplari qanot berdi. U otasining murdasi uyga olib kelinib, g`assolning qo`liga topshirilgunicha ham, Yerga topshirilib, to fotihachilar oyog`i uzilgunicha ham «Kim o`ldirdi?» degan savolga javob topmoq istadi. Ko`ngil so`rovchilarning aksari uning ko`ziga qotil bo`lib ko`rindi ham. «Bandalik...» degan so`zlari yigitning qulog`iga «Bopladik...» deganday eshitildi. Hatto... «opoq dada» deb erkalab mehr qo`ygani Asadbek ham bu ro`yxatga bir kirib chiqdi. Hozir opoq dadasining dardli ohangdagi gaplarini eshita turib undan gumonsiragani uchun uyaldi.

— Ota-bobolarimiz hamisha shunday qilishgan, — dedi Asadbek. — Biz ham shunday qilamiz. Agar sen bilan men eplay olmasak, ukalaring ulg`ayganida o`ldirishadi u palidni. Agar ukalaring katta bo`lgunicha u o`lib qolsa, iflosligi uchun bolalari javob beradi. Hukm shu. Boshqacha bo`lishi mumkin emas. Endi ayt, ovozi tanidingmi? — Umiddan sado chiqavermagach, Asadbek uning hozirgi qarashiga asoslanib — Xumkalla emasmi? — deb so`radi.

Umid opoq dadasiga bir qarab oldi-yu, ishonchsizlik bilan bosh irg`adi.

— Bo`pti, birovga og`iz ochma. Sen qarashingdan gumoningni sezdirib qo`yyapsan.

Chaqirgan Xumkalla bo`lsa, chaqirtirgan kim? Bu yog`iga aralashmay turasan.

Bolaning tashqi ko`rinishi otaga o`xshagani bilan fe`li hamisha ham bir xil bo`lavermaydi. Umidning bo`y-basti otasiga tortsa-da, qiziqqonligi o`xshamasdi. Yosh yigitlardan

vazminlik, chuqur mulohaza yuritishni talab qilishning o'zi to'g'ri emas. Qiziqqonlik barcha yoshlarga xos. Vaqti kelib, bosh turli devorlarga urilib, ko'zi ochilgach, unda o'sha vazminlik, sermulohazalilik o'z-o'zidan uyg'onadi. Xudo umrini bersa, balki Umid ham otasi kabi bo'lar, vallohi a'lam.

Hozir esa... Agar hozir Asadbek «to'g'ri fahmlabsan, otangni shu o'ldirgan» desa, o'ylamay-netmay qo'lga pichoqmi yoki boltani olib yugurib qolar edi. Asadbek shuni nazarga oldimi, har nechuk uni tiydi.

Bola — bola-da. Asadbek «ayangga aytma», deb ta-yinlagan bo'lsa-da, onasi «opoq dadang bilan nimalarni gaplashding?» deb so'rganida bir ozgina gullab qo'ydi. To'g'ri, gumonini, qasos haqidagi gaplarni aytmedi. «Bu tasodifga o'xshamasmish», deyishining o'ziyoq onasini bir qalqitib yubordi.

Chuvrindining xotini bu ayriliqning tasodif emasligini xabar eshitganidayoq his qilgan edi. U bir kunmas bir kun oqibat shu bo'lar deb qo'rqib yashadi. Qo'rqib kutganining yuz berganini biliboq ko'z oldi qorong'ulashdi. Bir necha lahza tildan qoldi. Xayolidagi «kim o'ldirdi?» degan savol buluti quyuqlashdi. Bu borada ona-bolaning fikr-o'ylari hamohang edi.

Umidning gaplarini eshitib qalqishiga sabab bo'lgan narsa gumonining to'g'ri ekani emas, balki bu haqiqatdan o'g'lining xabar topishi edi. Otasining o'ldirilganini bilgan qaysi o'g'il tinch yurarkin? Yoshlikning qaynoq qoniga qasos o'ti harorat bersa yangi falokat yuz ochmasmi ekan? Bu falokat bolasini biron baloga giriftor etmasmi ekan? Shu xavotir onaning yurakkinasini yorib yuboray dedi. «Opoq dadang adashganlar. Adang birovga yomonlik qilmovdilar. Birovning adangda xusumati bo'lmagan. Bu bir falokat, bir tasodif», deb o'g'lini chalg'itmoqchi bo'ldi. O'zi ham ishonmaydigan bu gapga o'g'li ishonarmi ekan?

Bu haqda o'ylamadi.

### 3

Ertasiga ertalab Asadbek yana keldi. Bu safar mehmonxonaga kirmadi. Xassakashlar uchun darvozaxonaga qilingan joyga o'tirdi. Kesakpolvonni ko'rib fe'li bir buzildi, rangi bir bo'zardi-yu, darrov o'zini qo'lga oldi. Xuddi kecha qabr tepasida turib «Yo'qol! deb haydamaganday, sir boy bermagan holda so'rashdi. A'yonining «O'zing tuzukmisan, xavotir olib uyingga boruvdim, yo'q ekansan», degan savoliga «Yaxshiman, shukr», deb javobni qisqa qildi. «Sen menikiga borganingda men bu yerda edim», deyishining hojati yo'q edi. Asadbek uyiga qaytgach, bu yerdan chiqib qozixonaga borgan Xumkalla barcha xabarni hojasiga yetkazgan, hatto qatiq qo'shilmagan moshxo'rdaning ichilmaganini ham aytib «bir nimadan xitlanmadilarmikin?» deb ilova qilgan edi. U sadoqati uchun hojasidan shirin so'z ko'rinishida bo'lsa ham bir mukofot kutgan edi. Sho'ring qurg'ur Xumkalla sho'ri qurib qolganini, oxirgi mukofot o'lim sharobi ekanini tasavvur ham qila olmas edi. Umri adog'idagi so'nggi xabarini aytib bo'lgan Xumkallani Qozi maishatga taklif qilib «ijozat bering» degan ma'noda hojasiga qaradi. Kesakpolvon:

— Bo'пти, bugun ja-a ezadigan kun bo'ldi, bi-ir chigil yozdi qillaring, — deb marhamat qildi.

Asadbek Kesakpolvonga sir boy bermay o'tirgach, atrofni zimdan kuzatib Xumkallani qidirayotgan pallada shahar chekkasidagi axlatxona atrofida hamisha och yuruvchi itlarning bayrami avjga chiqqan edi. Itlar galasidagi zo'rlar qorinlarini to'ydirib, uzun tillari bilan tumshuqlarini yalab nari ketishgan, zaifroqlari esa Xumkallaning so'nggi etlarini suyakdan ayirib yeyish bilan ovora edilar.

Kesakpolvon hozircha o'z taxtida o'tirgan hojasining olazarak qarab qo'yishlarini sezdi, Halimjonni chaqirib qulog'iga shivirlaganini ko'rganda sergaklandi. Halimjon ketgach, Asadbek a'yonini imlab chaqirdi.

— Dasturxonga qarab qo'ysang bo'lmaydimi? — dedi Asadbek bir oz zardali ohangda. — O'lar joyda emasmiz-ku, yo bozorda meva-chevaning urug'i qurib ketibdimi?

— Endi... ma'arakada siporoq bo'lsin, debman-da. Hozir qotiramiz, — deb o'zini oqladi Kesakpolvon.

— O'tir,— dedi Asadbek, — Halimni jo'natdim. Sen yigirmaningmi?

— Ha, o'n to'qqiz kunda qilamiz. Mahmudning hurmati bor, darrov o'tkazib yuborsak, ayb bo'lar.

— Qaerda bo'ladi?

— Shu yerda, hovlisi keng, bemalol.

— Osmonga qarab qo'y-chi?

— Uch-to'rtta parashyut olib kelib to'sib tashlaymiz.

— Bo'lmaydi. Anhor bo'yini gaplash. Tuzukroq qorilarni aytir.

— Qorilarning xo'rrozini toptiraman. Yo Sobitxoningni Qo'qondan oldirib kelaymi?

— Uni bezovta qilma. Sen bundan buyog'iga yigitlarga ko'z-quloq bo'lib tur, bevoshlik qilishmasin. Avval ham aytuvdim, a? Esingdami? Zamonga qaralaring, noziklashib qoldi.

Qozixonangni yopdingmi?

— Allaqachon yopib tashlaganman.

— Hosilning bollari tinch yuribdimi?

— Gah, desang qo'lingga qo'nadigan qilib qo'yganman.

— Haydar, endi ikkalamiz qoldik. Birga boshlagan edik, oxirida ham ikkalamiz qoldik.

— Oxirida deganing nimasi?

— Hamma narsaning oxiri bo'ladi, og'ayni. Men senga suyanaman, meni yolg'izlatma.

Asadbekning dardli ohang libosiga o'rab aytgan bu yolg'oni xuddi rost gapday eshitilib, Kesakpolvonni eritdi. «Ha, endi o'limini bo'yniga olibdi», degan fikr xayolini bir yoritdi.

Asadbekning yelkasiga qo'lini tashlab, mehribonlik bilan quchdi:

— Unaqa sovuq nafas qilma, oshna. Hali qiladigan ishimiz ko'p.

— Buni to'g'ri aytding. Qiladigan ishimiz ko'p...

Asadbek shunday deb a'yoniga qaradi. Bu qarash zamirida «Sening ishing taxtga chang solish, mening ishim esa boshqa», degan ma'no yashiringanini Kesakpolvon fahmlamadi.

Shu payt xizmatchi yigitlardan biri yaqinlashib, Moskvadan Xongirey so'rayotganini aytdi. Asadbek Kesakpolvonga savol nazari bilan qaradi-da, o'rnidan turib, mehmonxona tomon yurdi. A'yonni esa ikki qadam qo'yib ergashdi-yu, so'ng to'xtadi. Asadbek bundan sergaklandi: «Nega to'xtadi? Xongireyning gapiga nega qiziqmadi?»

Shaxovskiydagi qarorgohidan mehmonlarni kuzatib, Kozlov masalasida ham, Asadbek masalasida ham muddaosiga yetgan Xongirey hol so'ragach, qayg'uli xabar eshitganini aytib, ta'ziya bildirdi-da:

— Asad, men doimo sen bilan birgaman, — deb tasalli berdi.

Asadbek minnatdorlik bildirgach, qisqa suhbat yakun topdi. Xabarning Moskvaga yetgani ajablanarli hol emas. Telefon go'shagi ko'tarilsa, bir-ikki daqiqada har qanday xabar Moskva nima, dunyoning narigi chekkasiga ham yetadi. Lekin o'sha go'shakni kim ko'targan, kim Xongireyning raqamlarini tergan? «Xongireyning shu atrofda izg'ib yurgan laychalarimi yo bag'rimda isinib yotgan ilonlardan birimi?» — deb o'yladi

Asadbek iziga qaytar chog'ida. — «Sen bilan birgaman», dedi. Ha, albatta, birgaman. O'lsam ham seni birga olib ketaman».

Kesakpolvon joyiga qaytib o'tirmay, darvozaxonada turgan edi. Asadbekni qarshilab ko'zini olib qochgan holda:

— Asad, men doimo sen bilan birgaman, — deb tasalli berdi.

Asadbek minnatdorlik bildirgach, qisqa suhbat yakun topdi. Xabarning Moskvaga yetgani ajablanarli hol emas. Telefon go'shagi ko'tarilsa, bir-ikki daqiqada har qanday xabar Moskva nima, dunyoning narigi chekkasiga ham yetadi. Lekin o'sha go'shakni kim ko'targan, kim Xongireyning raqamlarini tergan? «Xongireyning shu atrofda izg'ib yurgan laychalarimi yo bag'rimda isinib yotgan ilonlardan birimi?» — deb o'yladi

Asadbek iziga qaytar chog'ida. — «Sen bilan birgaman», dedi. Ha, albatta, birgaman. O'lsam ham seni birga olib ketaman».

Kesakpolvon joyiga qaytib o'tirmay, darvozaxonada turgan edi. Asadbekni qarshilab ko'zini olib qochgan holda:

— Tinchlikmi? — deb so'radi.

— Tinchlik, — dedi Asadbek unga tikilib, — ko'ngil so'rab qo'ydi. Mehr-oqibati yaxshi shu yigitning.

— Har nima qilsa ham musulmonligi bor-da, — dedi Kesakpolvon.

«Ha tulki, shu «musulmon»ga qul bo'lmoqchimisan? Agar shu Xongirey musulmon bo'lsa, men bo'lmadim. Shunaqa musulmondan yana o'nta bo'lsa bu dunyoda kofirning hojati yo'q». Asadbek bu fikrini oshkor qilmaslik uchun o'zini majburlab jilmaydi-da:

— To'g'ri aytding. Kozlov deb uning ko'nglini xira qilganimiz chakki bo'ldi, — dedi.

Yarim soatga qolmay Halimjon yelim chelakni to'ldirib uzum olib kelgach, Kesakpolvonning gumoni tar-qadi. Halimjon xizmat qilib yurgan yigitlar davrasiga qo'shilganda Asadbek uni yana imlab chaqirdi. Halimjon qulog'iga aytilgan gapga ma'qul ishorasini qildi-da, ko'cha tomonda turgan Kesakpolvonga yaqinlashib «Zaynabni olib kelaman», dedi.

Kesakpolvon «Men ham qizimni olib kelsam bo'larkan», deb o'ylab, yigitlardan birini imlab chaqirdi.

Xalimjon Zaynabni olib kelgach, darrov iziga qayt-di. Fotihachilar bilan ovora Kesakpolvon uning g'o-yib bo'lganini bilmay ham qoldi. Halimjon bu safar hojasidan olgan asosiy topshiriqni bajarish uchun ketdi. Asadbek bu topshiriqni ertalab yo'lda kelayotganida aytib qo'ygan edi. Shunga muvofiq Halimjonni o'sha ondayoq jo'natsa bo'lardi. Lekin u yigitni ikki marta chaqirib, qulog'iga shivirlaganda ko'zi Kesakpolvonda bo'ldi. A'yonining sarosimaga tushish yoki tushmasligini tekshirmoqchi edi, kutgani amalga oshdi.

Halimjon Chuvrindining joni uzilgan yerga borib, o'sha yerdagi xonadonlarda yashovchilar bilan uchrashib, o'zini «militsiya xodimi» deb tanishtirgach, «KamAZ»dan tushib qochgan odamning qiyofasini surishtirdi. Odamlar uchun «men militsiyadanman» degan gapning o'zi kifoya qildi. Birontasi hujjat so'ramadi. Ayni damda tayinli gap ham aytmadi. Barchalari yarim tundagi fojidan uyg'onganlarini, ko'chaga chiqqanlarida «KamAZ»da hech kimni ko'rmaganliklarini aytishdi. Faqat birgina kampir «KamAZ»dan tushayotgan past bo'yli odam qorasini ko'rganini bildirdi. Halimjon bu ma'lumotni eshitishi bilan tezgina iziga qaytdi-da, fursat topib turib Asadbekka bildirdi. Bu xabardan Asadbekning ko'zlari yondi:

— Xumkallani top, nega ko'rinmayapti? — dedi.

Halimjon yana bir soatcha g'oyib bo'lib, Xumkallaning uyida tunamagani haqidagi noxush xabarni yetkazdi. Bu yangilikni eshitgan Asadbekning ko'kragida bir nima portlaganday bo'lib, bu portlash kuchidan hosil bo'lgan to'lqin bo'g'ziga qadar bostirib keldi. Atrofida hech kim bo'lmaganida «meni go'l qilib ketishdi, an-qayib qoldim-a», degan afsus bilan peshonasiga bir shapatilagan bo'lardi. O'ziga necha juft ko'z tikilib turgani uchun tashvishli emas, xush yoquvchi xabarni eshitganday o'zini majburlab jilmaydi.

Peshinda qo'shnilar pishirib chiqargan oshdan bir-ikki qoshiq yegan bo'lib, ketishga chog'langanida Jamshidning mashinasi ko'rindi. Ikki uy narida to'xtagan mashinadan Jamshid tushdi-yu, yurarini ham, yurmasini ham bilmay to'xtab qoldi. Fojeani yo'lda eshitib, ishonib-ishonmay kelayotgan Jamshid bu ko'chaga burildi-yu, darvoza yonidagi odamlarni ko'rib yuragi uvishdi.

Bir necha oy muqaddam shu darvozadan kuyib ko'mirga aylangan mayitni olib chiqishgan edi. Tutingan ukasiga «aza ochgan» Chuvrindi shu darvoza og'zida uch kun bel bog'lab turgan edi. Buni Jamshid bilmaydi. Bilgani — Mahmud akasining o'rnida hozir Umid bel bog'lab turibdi. Kecha bu yerdan ko'tarib chiqishgani ham birovning kuygan murdasi emas, aynan Mahmud akasining jasadi... Yurishga majoli qolmagan Jamshid

ko'chaga chiqib kelayotgan Asadbekni ko'rgach tamom joyida qotdi.

Jamshidga ko'zi tushgan Asadbek ham to'xtadi-da, Kesakpolvondan:

— Buning qaerda edi, nega ko'rinmadi? — deb so'radi.

— Hayronman, — dedi Kesakpolvon yelka qisib, so'ng Jamshid tomon tez-tez yurdi-da, unga yaqinlashib, baland ovozda:

— Qaerlarda sanqib yuribsan, marjaboz?! — deb so'radi.

Jamshid unga «qaerdaligimni o'zingiz bilasiz-ku?» degan ma'noda ajablanib qaraganida Kesakpolvon pastroq ovozda «Seni men emas, Mahmud akang yuborgan», deb shipshidi.

Kesakpolvon orqa o'girib turgani uchun Asadbek uning keyingi gapini eshitmadi. Lekin Kesakpolvonning birdan u tomon yurib qolganidan ajablandi. Bunaqa paytda bitta imlab qo'yilsa kifoya edi, Jamshid yugurib kelardi...

Kesakpolvonga ergashib yurib kelgan Jamshid Asadbekdan bir qadam berida to'xtab, salom bergach, «Bandalik...» deb ta'ziya bildirdi.

— Qaysi go'rlarda yuribsan? — dedi Kesakpolvon jerkib.

— Termizga borib keldim, — dedi Jamshid yerga boqqanicha.

Savolga alik olmagan Asadbek bu gapdan keyin unga ajablanib qaradi-yu, indamadi.

Kesakpolvon «Ahmoq, Termizni aytib qovun tushirdi-ku», deb ichida so'kinib qo'ygach, so'roqni davom ettirdi:

— Termizda nima bor ekan senga?

— Mehmonlarni olib borib keldim.

— Qanaqa mehmon?

Jamshid yerga qaradi, savolga javob bermadi.

— Sendan so'rayapman, serraymay javob ber: qanaqa mehmon?

— Mahmud akamning... mehmonlari. Ularni tanimayman.

— Nimaga borishibdi?

— Bilmayman. Bitta uyga kirib chiqishdi. Men mashinada o'tiruvdim.

Asadbek undagi sarosimani sezsa ham, parvo qilmaganday bo'lib mashinasi tomon yurdi. «Mahmudning qanaqa mehmoni bor ekan, Termizga nimaga boradi?» degan savolga har qancha urinmasin, javob topa olmadi.

Javobni kechqurun Jamshidning o'zi olib keldi.

Asadbek telefonda Manzura bilan gaplashib, uning qaytish haqidagi qaroridan g'ashlanib o'tirganida boloxonadagi yigitlardan biri Jamshidning kirishga izn so'rayotganini ma'lum qildi. Jamshid qaytganidan beri «mendan nari yursin», degan hukmga itoat etib, suyukli hojasiga yaqinlashmayotgan edi. Shu bois ham bemalol ostona hatlab kira oladigan xonadoni eshigi oldida to'xtab, ruxsat so'radi. Asadbekka uning bu odobi ma'qul kelib, «kirsin», dedi.

Hovliga tasodifan chiqqan Zaynab darvozaxonadan kirib kelayotgan Jamshidni ko'rdi-yu, vujudi titrab ketdi. Biroq, oniy sarosimani yengishga o'zida kuch topib, tez-tez yurganicha oshxonaga kirdi.

Yaxshiki shu damda Asadbek deraza osha hovliga qaramadi. Bu holni ko'rganida yana eski yarasiga tuz bosilib, Jamshid bilan muomalasi boshqacha bo'lishi aniq edi.

Jamshid xonaga bir qadam qo'yib, salom berdi-yu, to'xtadi.

— Kir, kiraver, o'tir, — dedi Asadbek, unga ro'parasidan joy ko'rsatib.

Bu xonadonga o'g'il, eng kamida uka maqomida bo'lgan Jamshid endi xuddi begonaday kirib, begonaday omonat o'tirdi.

— Termizga nima uchun borganingni aytgani keldingmi? — dedi Asadbek zaharli ohangda.

— Ha, — deb javob berdi Jamshid unga tik qaray olmay. — Sizga yolg'on gapiruvdim.

- Bilganman. Endi rost gapirmoqchimisani? Agar seni Mahmud yuborganida men xabardor bo'lardim. Menga-ku, mayli, tupurding, o'lgan akangga tuhmat qilishga uyalmadingmi? Bunaqa palidlikni Xongireydan o'rganib keldingmi?
- Bek aka, meni nima qilsangiz qiling, lekin o'sha joyda shunday deyishga majbur bo'ldim.
- Kimdan qo'rqding?
- Qo'rqmadim... Rosti, meni Haydar akam yuborgan edilar.
- Mehmonlari kim edi, rostdan tanimasmi- ding?
- Sal-pal tanirdim. Xongireyning yigitlaridan edi. Bek aka, bu ishdan latta hidi kelib turibdi. Ularning niyati — qoradori.
- Qayoqdan bilasan?
- Gaplaridan fahmladim. Ozgina yuk ham olishdi.
- Ahmoq! Qo'lga tushib qolsang uchib ketarding-ku, o'ylamadingmi?
- Ilojsiz edim...
- Qani o'sha mehmonlaring?
- Samarqandda kuzatdim, Maskovga uchib ketishdi.
- Haydar akangga hisob berdingmi?
- Ha.
- Nima uchun Haydar akaxoningni menga sotyapsan? Axir u bechora sening joningni saqlab qolaman, deb qaerlardan o'lik qidirib topgan-a!
- O'zingiz aytdingiz... Mahmud akamga tuhmat qila olmadim.
- Seni o'limga men hukm qilgan edim.
- Bu gap esimdand chiqqan.
- Rostdanmi?
- Eslagan kunim — o'lganim.
- Yaxshi. Sen Haydar akangdan uzoqlashma. Hozircha bitta narsani bilsang yetarli — uning fikri buzilgan, ehtiyot bo'l.
- Haydar akam menga yana bitta ish buyurganlar.
- Qanaqa ish?
- Halimni o'ldirishim kerak ekan.
- Halimnimi? Nega?
- Xitlarning odami, dedilar. Men sal-pal hid olganday bo'ldim. Gaplarida jon borga o'xshaydi.
- Yana tekshir. Xitlarning odami bo'lsa, o'lishi hecham mumkin emas. Sen... shu hafta ichi Maskovga borasan, Kennaying bilan ukalaring kelishyapti, kutib olasan. Asadbek shunday deb «Senga ruxsat» deganday o'rnidan turdi. Uning «kennaying bilan ukalaring» deyishi oradagi to'siqni olib tashlab, Jamshidning yana eng ishonchli odamga aylanganidan dalolat edi. Asadbek Jamshid chiqib ketgach, Halimjon haqidagi gapni mulohaza qilib «Xitlarning odami bo'lsa, yana yaxshi, Haydarning xizmatini qilib yuraveradi», degan qarorga keldi.

#### 4

«Gunohlarni siz qildingiz-u, jabrini bolalar tortishsinmi?..»

Kimdir shunday deb baqirganday bo'ldi.

Ha, Jamshid Moskvadan telefon qilib Abduhamid bilan Abdusamatning milisaxonada o'tirganini xabar qilgan ondayoq qaydandir shu ovoz keldi.

Bir necha hafta ilgari Zaynabga «O'zingni os» degan ma'noda arqon tashlab chiqayotganida ham shunga yaqin gap aytilib edi. Undagi ovoz Jalilniki edi. Bunisi...

Manzuraniki!

...Gunohlarni siz qildingiz-u...

Biron marta bo'lsin eriga tik qaramagan Manzura bu safar baqirdi. Umr bo'yi to'planib, kuch yiqqan dardi shu onda go'yo portladi. Portladi-yu, Asadbekning ruhini tilka-tilka qilib yubordi. Agar Manzura unga ro'para bo'lib shunday desa Asadbek ilgorigidek «o'chir ovozingni» deb qayirib tashlashga kuch topolmasdi.

«...Yuklaridan qora dori chiqqanmish...»

Asadbek buni tasodif yoki tushunmovchilik oqibati deb qabul qilmadi. Ilonning dumini bosib olib qo'rquvda yashayotgan odam kabi Asadbek keyingi oylar ichi Xongireyning zahar solish onlarini xavotir bilan kutib yashardi.

Manzuraning qaytish haqidagi qarori Asadbekning rejalarini buzib tashladi. Tabib muolajasidan so'ng Zaynabning o'ziga kelgani, Elchinning holatidagi xavotirli onlar ortda qolganidan xabar topgan Asadbekda qizini Olmoniyaga jo'natish fikri qat'iylashdi. U qarorini Chuvrindi orqali bildirganda Zaynab «erimni bu ahvolda tashlab ketolmayman» debdi. Asadbek bu gapdan g'ashlanib Chuvrindiga:

— Erini bo'ri yermidi, hujjatlarini tayyorla, boradi, — dedi.

O'sha xunuk voqeadan so'ng Asadbek gapi bo'lsa Chuvrindi orqali yetkazardi.

Zaynabning javobini ham Chuvrindi bildirib, orada xolis vositachi vazifasini bajarib qolgan edi. Eri yaralangunga qadar Zaynab otasiga ko'rinmaslikka harakat qildi. Elchin kasalxonaga tushgach, asosan ota uyida yashay boshladi. Shunda ham ota-bolaning o'zaro muomalasi salom-alikdan nariga o'tmayotgan edi.

Asadbek kuyovini Abdurahmon tabibga ko'rsatishni ham o'yladi. Fikrini aytganda Chuvrindi ma'qullab:

— Tabib ko'rib qo'yganidan keyin Elchinni ham birga yuborsakchi? U yoqda zo'r do'xtirlar bor, — dedi.

— Yo'q, — dedi Asadbek bosh chayqab. — Do'xtiri zo'r bo'lsa zo'rdir, lekin yangi qudalarga «kuyovimni tuzatib beringlar» deb yuboramanmi? Qo'y, Abdurahmon tabib har qanaqa kasalni tuzatib yuboradi.

Chuvrindi Zaynabning hujjatlarini tayyorlab qo'ygan edi. Agar o'lim g'olib kelmaganida ertalab borib idoradan hujjatlarni olib chiqqan bo'lardi. Uning o'limidan so'ng ham Asadbek Zaynabni jo'natish fikridan qaytmadi. Manzuraning nogahoniy qaroridan shuning uchun ham achchiqlandi.

— Zaynabni jo'natayotgan edim-ku? — dedi bo'g'i-lib.

— Voy adasi, qudalaringizga aytib qo'ydim. Zaynab keyinroq kelib ketar.

— Hey!.. — Asadbek «onangni...» deb bir «shirin» gapini aytmoqchi bo'ldi-yu, o'zini tiydi. — U yer amma-xolangning mahallasimi, Zaynabning bugun bo'lmasa ertaga lip etib borib kelaveradigan...

— «Bo'pti, bilganingni qil». — Asadbekning shunday deb chekinishdan o'zga chorasini yo'q edi.

Bilganini qildi xotini.

Oqibat bu...

Shuning uchun donolar «xotinning gapiga quloq solu teskarisini qil», deb aytishgandir... Asadbek avvaliga Manzurani aybladi. Keyinroq, hovuri bosilgach, o'zining kaltabinligini tan olib, barcha aybni o'z yelkasiga oldi. «Manzura bechora tag'in ham chidab turdi u yerda. Bugun bo'lmasa ertaga baribir qaytishi kerak edi. O'lganimdan keyin shunaqa qop-qonga tushsa kim qutqaradi?..»

«O'lganimdan keyin...»

O'lganidan keyin ham Xongirey ularni tinch qo'ymaydimi? Xongireyga nima kerak? Asadbekning o'limi emasmi? Asadbek urug'i bilan qirilib ketish darajasida gunoh



qilibdimi? Xo'p, Kozlov masalasidagi o'jarligi durust bo'lmadi. Xongirey «yo'limdan qoch», deganida nari tursa olam guliston edi. Bunda gap faqat o'jarlikda emas. Orada Kozlov bilan ahdnoma bor edi, Asadbek bu ahdga xiyonat qilib past ketishni istamadi. Bugun Kozlov masalasida chekinsa, ertaga boshqa ishda qulluq qilib tursa Xongireyning uni eshakka aylantirib minib olishi yoki boshga chiqib istagan noma'-qulchiligini amalga oshirishi mumkinligini ham hisobdan chiqarmagan edi.

Hosilning o'limi uchun hisob berishi kerakmi? Axir uni Xongireyga o'chakishib o'ldirmadiku? Hosil o'limni o'zi sotib oldi-ku? Faqat benomus otagina Hosilning qiligi'ga chidashi mumkin edi. Agar ana shu nomus qasosi uchun jon berishi shart bo'lsa — Asadbek tayyor!

«Xongirey... darding bo'lsa erkakchasiga dangal aytmaysanmi? Nayrangga balo bormi? Yoki... dard chekib ingraganimda rohat topasanmi? Undan ko'ra o'ldirib, jasadimni yoqib, shu olov taftida qo'lingni isitib maza qila qolmay-sanmi, nomard!..»

Moskvaga uchadigan uchoq yerdan ko'tarilgunicha shu kabi xayollar qurshovida bo'lgan Asadbek Xongirey bilan uchrashajagi aniq ekanini bilardi, faqat qaerda, qay holda ko'rishajagi xususidagi tasavvuri aldamchi edi. Xongirey tayyorlab qo'ygan nayranglarning navbatdagisini u yetti uxlab bir tushida ko'rmas edi.

U yorug'lik olamidan tobora zimiston dunyosiga kirib, ana shu zulumot qa'ridan yorug'likni umid qilib borardi.

O'g'illarining yuklari orasidan chindan ham qora dori chiqqan bo'lsa, qo'rqulik emas. Bir necha kunda bo'lmasa-da, uzog'i bilan uch-to'rt haftada chiqarib olishga ishonadi. Ammo bu Xongireyning ishi bo'lsa... chorasi qiyin. Tomirida iblis qoni oquvchi kimsa ham Xongirey darajasida beshafqat bo'lmas. Asadbek o'g'rilar olamida «Knyaz» deb ardoqlanuvchi bu odamning qiliqlarini eshitib yurardi, biroq, g'ilay Shomilning kallasini qutiga solib yuborganini bilgach, undagi beshafqatlik darajasining chegara bilmasligiga amin bo'ldi. Qonundagi o'g'rilarning «O'g'ridan boshqa hech kim inson taqdirini hal qilish huquqiga ega emas», degan aqidasiga sodiq holda ish yurituvchi Xongirey Asadbekning, uning o'g'illarining taqdirini qanday hal etar ekan?

Uchoq bulutlar bag'rini yorib yuqoriga ko'tarilar mahalda qattiq titradi. Bunaqa paytda har qanday odam Xudoni eslab qoladi. «O'zing asragin, Tangrim, falon-falon gunohlarni boshqa takrorlamayman», deb tavba qiladi, ont ichadi. Uchoq titroqdan to'xtab, ohista ucha boshlagach, tavba ham unutiladi, Xudo ham. Ko'p kabi Asadbek ham shunday edi. Hozir unday bo'lmadi. Uchoqning qulashidan, o'zining o'limidan qo'rqmadi. Aksincha, «bu kunimdan o'lib ketganim ming marta yaxshi emasmi?» degan fikr uni karaxt qilib qo'ydi.

Yoshi ellikdan oshibdi. Qanchadan qancha narsalarni ko'ribdi. Qiziq... Nimalarni ko'rdi? O'ylab qarasa, hech nimani ko'rmaganga o'xshaydi. Ro'parasida zulmat, ortiga o'girilib qarasa, qorong'u bo'shliq. Faqat uqubat uchun tug'ilgan odam ham u kabi uqubat chekmasa kerak... Qoq suyak topgan it ham o'zini baxtli his qilari balki. Shuncha boyligi bo'la turib nima uchun Asadbek baxtsiz?..

Har bir odamning baxt daraxti o'ziga alohida bo'ladi. Bu baxt daraxtini boylik bulog'i suvi bilan sug'orib meva olmoqchi bo'lganlar yanglishadilar.

Asadbek ana shu adashuvchilardan biri edi.

Faqat iymon bulog'idan suv ichgan baxt daraxtigina shirin meva berishini hamma ham anglab yetavermaydi.

Asadbek ana shu anglamaganlardan biri edi.

Zulm bulog'idan suv ichgan baxt daraxti qiyomatda zaqqum daraxtiga aylanajagidan barcha xabardormi?

Asadbek xabardor bo'lmaganlardan biri edi.

Uchoq titrog'i tinib, bulutlar ustiga chiqib olgan onda ikki qator oldindagi o'rindiqda o'tirgan odamga Asadbekning ko'zi tushib, yuragi bir hapriqdi. Boshiga do'ppi kiyib olgan bu odam yon tomondan Sobitxonga o'xsharkan.

Asadbek o'zining sihati, tashvishlari bilan andarmon bo'lib uni yo'qlay olmagan edi. Hozir shu do'ppili kishining chindan ham Sobitxon bo'lib qolishini istab, unga qayta-qayta tikildi. U kishi ortidan kimningdir qattiq tikilayotganini sezdimi, bir-ikki o'girilib qaradi. Do'ppili bu kishining ham soqol-mo'ylovi bo'lsa-da, yuzida Sobitxon yuzidagi nur yo'q edi.

Shu kishi bahona bo'lib, Asadbek Qo'qondagi shifoxonada bo'lgan suhbatni esladi: Ikki yuz yil umr ko'rgan odam: «Baloli yillar, farovon yillar... kun o'tadi, tun o'tadi. Tuqqan tug'adi, o'lgan o'ladi. Tuqqan tug'masaydi mavjudot tugardi. O'lgan o'lmasaydi — Yer yuzi undagilarga tor bo'lib qolardi», degan ekan.

Ha... O'lganlar o'lib turibdi. Lekin shunda ham Asadbekning nazarida, keng dunyo juda tor bo'lib ketayotgan edi. Tor bo'lmasa, salkam besh milliard odam siqqan shu dunyoga Mahmud sig'masmidi? Dunyo birgina shu odamga torlik qildimi?.. Dunyo yanada torayib, endi kimlarni siqib chiqaradi ekan?

«Bek aka!..»

Yonidagi odam Sobitxonning ovozi bilan chaqirganday bo'ldi. Asadbek beixtiyor ravishda unga qaradi: burniga ko'zoynak qo'ndirib gazetaga muk tushib o'qiyapti.

Ovoz esa yana takrorlandi:

«Bek aka... Yaxshilab o'ylab qaralsa, bu dunyo hayotidan tubanroq narsa yo'q. Dunyoni yiqilishga yuz tutgan devorga ham o'xshatishadi.

Devorning yiqilajagini bilgan holda unga suyanamiz, a? Dunyo hayotini sirpanchiqqa ham o'xshatishadi. Bu sirpanchiqda hech kimning oyog'i sobit turmaydi... sirpanib yashaymiz... Keyin esa... so'nggi ziyoratgohga qarab jo'naymiz. So'nggi ziyoratgohimiz — qabr. Bu ziyoratgohni hech eslamaymiz, eslagimiz ham kelmaydi. Ajalni unutishda bir-birimizni ortda qoldirib ketamiz...»

Qo'qon shifoxonasidagi o'sha uchrashuvdan so'ng ko'p oylar o'tdi. Krasnoyarda yurganda, ayniqsa xastalik o'lim darvozasiga haydab kelgan kunlarda Sobitxonning gaplarini ko'p eslagan edi. Keyinroq o'lim ostonasidan qaytib, umid darvozasiga yetganda ibodatdan yiroqlashgani kabi bu gaplarni, Abdurahmon tabibning gaplari qatorida, eslashdan uzoqlashdi.

Yer bilan osmon orasida eslashi...

Osmonda nima bor?

Yerda nima qoldi? Bir-birlarini bo'riday g'ajiydigan odamlarmi?

Shu savol xayoliga urilishi bilan qulog'i ostida Anvarning gapi jarangladi. Ha, aynan o'sha ovoz, aynan o'sha gap:

«Bo'riday desangiz bo'rilar xafa bo'lisharmikin? Bo'rilar ahil yashasharkan...»

«Bo'richalik ham aqlimiz yo'q, — deb o'yladi Asadbek. — Bu dunyoda sirpanib yasharkanmizmi? Men sirpana-sirpana shu holga keldimmi? Endi so'nggi ziyoratgoh qoldimi? Yo'q, hali vaqt bor... Bilaman, Mahmud u dunyoda kimnidir olovli gullar bilan kutib turibdi. Avval o'sha gul egasini topib, jo'natay...»

Asadbek zulm libosiga o'ralgan niyatini qanday amalga oshirishini o'zi ham yaxshi bilmaydi. U bir yil avvalgi Asadbek bo'lganida zulmatli olam ichra bu qadar sarsari kezmasdi. Aravalar otlardan oldin chiqib ketgan zamonda bir qanoti qirqilgan, ikkinchisi esa xiyonat qilgan qush baland ucha olarmikin? O'ljaga dadil va bexato chovut sola olarmikin? Hech bo'lmasa o'zini himoya eta olmoqqa kuch toparmikin?

Bir qanotning qirqilishi kutilmagan hol bo'ldi. Ammo ikkinchi qanotning xoinligi tasodifmi? Bir qanotning qirqilishiga sabab bo'lgan ikkinchi qanotning xoinligi qachon

boshlandi? O'zini ziyrak va sergak deb hisoblovchi Asadbek nechun bu holni payqamay qoldi?

Qimor o'ynab yurgan kezlarida raqibining qarta tutgan barmoqlariga, javdiragan ko'zlariga qarab g'irrom o'yin bo'layotganini fahmlab olardi. Bu o'yindagi g'irromlikni nechun sezmedi?

Bir kuni Kesakpolvon Asadbekka:

— Ukangning tanobini tortib qo'y, mening ildizimga bolta uraman, deb ovora bo'lmasin, — degan edi.

Shunda Asadbek yumshoqroq ohangda:

— Hammamizning ildizimiz bir, bolta urilsa, baravar quriymiz, — deb javob bergan, Kesakpolvon esa, qo'l siltab, zarda bilan:

— Sen ham ukaxoningning gaplarini aytyapsan, — degan edi.

Kesakpolvon xiyonat ko'chasiga shundan so'ng kirdimi yo u damda kirib bo'lgandimi? Asadbek Abdurahmon tabibnikida shifo umidida yurgan kezlari o'zi barpo etgan olam qasrining yorila boshlaganini sezib, «bu ofat qachon boshlandi?» degan savoliga javob izlagan edi. U Zaynabning o'g'irlanishi barcha tashvish eshiklarini ochib yubordi, degan to'xtamga kelib edi. Bu dunyoda dunyo umidida yurgan ko'p g'ofil bandalar kabi Asadbek ham Yaratganning «Yabna Odama! Iza raayta-l-g'inaa muqbilan a'layna. Faqul zanbun a'jilatun uquba'tuhu»\* degan xitobidan bexabar edi. Xabardor bo'lganida hayoti iplarining chigilini yechishda bu qadar qiynalmas edi.

Boylik ham keldi, uning izidan gunoh ham hayallamadi.

Azob-uqubat va jazo ham naqd bo'ldi...

G'ofil banda buni bilmaydi.

Muhrlangan qalb ko'zlarning nurini ham olib qo'ygan.

Ko'zlar ochiq, ammo oyoqlar ostidagi vayl cho'g'larini ko'rmaydi.

Buning o'rniga eng yaqin a'yoni bo'lib kelgan xiyonatchi qanotning xiyonatlarini o'ylaydi. O'ylay-o'ylay xiyonat ko'chasiga burilish nuqtasini o'zicha topganday bo'ladi ham.

Zaynabning o'g'irlanishini undan gumon qilmaydi. Ammo to'ydan so'ng Elchinning ko'chasiga yigitlarni qo'yganida «Kimdan qo'rqasan, — Asadbek chumchuq pirr etsa, yuragi shirr etadigan bo'lib qolibdi, degan isnodga qolmoqchimisan?» deb qaytardi.

Asadbek «To'g'ri, endi kimdan cho'chiyman?» — deb uning gapiga kirib ahmoqlik qildi. Keyin Bo'tqani mas'ul qilib ko'chaga poyloqchi qo'ydi, ammo bu tadbiri uy yonib bo'lganidan so'ng suv sepish kabi bir chora edi.

Asadbek o'sha nuqtadan to o'g'illarining bugungi qismatiga qadar bo'lgan gap-so'zlar, voqealarni xayol chig'irig'idan bir-bir, qayta-qayta o'tkazib ko'rdi.

Bir jang avvalida munajjim sohibqironi akbarga «yulduzlar bu kuningizni sharaflashmayapti», deganida u zot «Biz o'z g'alabamiz bilan bu kunni sharaflagimizdur», degan ekanlar. Agar munajjim paydo bo'lib Asadbekka shu mazmunda bir gap aytsa, u sharafliguna ishonch bilan qadam qo'ya olarmidi? Holbuki...

Tun xunuk fojiaga homilador bo'lib, kun uni tug'ishga tadorik ko'rardi.

Uchoq yerga qo'nganida quyosh bosh ko'tarayotgan edi. Yorug'lik va'dasida ko'tarilayotgan quyoshmi bu yo majhul sarob — hech kim bilmasdi.

---

\* Mazmuni budir: Ey Odam farzandi! Agar senga boylik kelayotganini sezsang, bilgilki, azob-uqubati va jazosi naqd bo'lgan gunoh kelayotir («Hadisi qudsiy»dan).

## V b o b

### 1

Zulmat...

Ha, zulmat edi.

Nafas oldi-yu, nafas chiqarishga ulgurmedi. Xuddi birdaniga chiroq o'chirilganday bo'ldi. Zulmat qanday bostirib kirganini sezmay qoldi. «Ana endi o'ldim», deb fikrlashga ham ulgurmedi.

«Qassob» qo'lida asir ekanida «Bu jinni bu baloni portlatib yuborsa, o'lar oldidan oilamga bir og'iz ham gapirolmay ketamanmi?» deb afsuslangan edi. «Kelib-kelib shunday o'lim menga nasib qiladimi-ya? — deb o'yladi mayor Soliev. — Uyda hech bo'lmasa uch-to'rt kun oyoqni cho'ziltirib yotib, bola-chaqaga vasiyatni qilib, so'ng jon berishning ham gashti bor ekan-da, a?»

Aytadigan gaplari ko'p ham emas, bolalariga «onang-ni hurmat qillaring, halol yeb, halol yashalaring», deydi. Otasi unga shunday vasiyat qilib edi. Otasidan oshirib u nima deya olardi?

Aslida bu gapni kunda bo'lmasa-da, tez-tez aytadi. Ammo o'limi oldidan aytsa u oddiy gap maqomidan chiqib, vasiyat martabasiga ko'tariladi.

Xotiniga ham ko'p gapirmaydi. «Keling bilan hadeb o'chakishaverma, bechorani ezaverma», deydi xalos.

Aslida bu gapni ham kunda bo'lmasa-da, tez-tez aytadi. U aytishdan charchamaydi, xotini o'z bilgicha yashashdan horimaydi. Soliev qaynona-kelin mojarosiga poydevor bo'lguvchi, ko'pchilik e'tibor bermaydigan bir sababni aniq biladi: uning xotini ham ko'p onalar singari o'g'lini kelinidan qizg'anadi. Yigirma yilmi yo undan ko'proqmi hamisha qanotida yurgan farzandining xuftondan so'ng «g'oyib» bo'lishiga avvaliga ko'nikolmaydi, keyin-keyin esa chidolmay qoladi. «Qizil oyoq kelib, qizil yuzdan judo qildi», degan maqolning aynan o'shanday «qizg'anchiq» onalar to'qigani bejiz emasligini Soliev anglaydi. Gaplari shamolga sovrilishini bilsa-da, tanbeh beraveradi.

Jon chiqishi oldidan so'nggi bor aytsa bo'lardi. Ammo endi bunisi oddiy gap maqomidan chiqib, vasiyat martabasiga ko'tarilardi. Nodon xotini hech bo'lmasa, bir-ikki hafta vasiyatga amal qilar axir. So'ng qizg'anish olovi yanada battarroq alanga olar. Oldinlari yonida eri bo'lardi, yolg'izlik muzxonasining sovug'i unga kamroq sezilardi. Eri o'lgach, muzliklar aro yalangoyoq, yalang'och qolgandek bo'ladi. Tongga qadar azoblanadi. Azobning alamini kimdan olishi esa tayin...

Temir yo'l bekatida ko'kragiga bomba bosilgan holda nochor turgan mayor Soliev aytolmaydigan vasiyati bahonasida shularni ham o'ylashi kimgadir g'alati, balki ishonchsiz tuyulishi mumkin. Holbuki, g'alat holatlarda g'alat o'ylarning fikrni yoritib o'tishi mutlaqo g'alati emasdir. Agar Solievning o'rnida bir necha soat avval «Qassob»ning o'qidan jon bergan militsioner yigit bo'lganida boshqacha o'ylab, o'zgacha vasiyatni fikr qilardi. Agar unga «hozir «Qassob» seni otib o'ldiradi, vasiyatingni aytib ol», deb imkon berilsami, birinchi galda homilador xotiniga qarab: «Mendan ke-yin turmushga chiqsang, bolani «detdom»ga berma, ota-onamga qoldir», demog'i shubhasiz edi. Biroq, unga bunday imkon berilmadi, vasiyatsiz ketdi. Solievning o'ylarida jon bor: vasiyatni aytib, so'ng jon berish ham o'ziga yarasha bir baxt — Tangrining buyuk marhamatlaridan biri...

Zulmat qa'rida ekanida hayot va mamot, vasiyat to'g'risidagi o'ylar uni bezovta qilmaydi. Zulmat pardasi teshilib, oydinlikning zaif nuri qorong'ulik bilan olisha boshlaganida nimanidir sezdi, qandaydir tovushni eshitdi. Hatto nimalarnidir ko'rganday

ham bo'ldi. Ammo sezgani, eshitgani, ko'rgani nima ekanini idrok eta olmadi. Quloqlariga kirayotgan tovushlar notanish, dimog'iga urilayotgan hid ham begona edi. Keyin...

Ha, keyin «Qassob»ni ko'rdi. Hamma yog'i qonga belangan «Qassob» avvaliga daf qilish maqsadidami, u tomon bostirib keldi.

Soliev yotgan yerida qimirlay ham olmadi.

— Qornim ochdi, — dedi «Qassob». — «Chuchvara yegim kelyapti. Lekin sening go'shting chuchvaraga yaramaydi. Erkak go'shtini yeyish — mening printsipimga to'g'ri kelmaydi...»

Temir yo'l bekatida changalida bomba ushlab turganida ham shunday degan edi. Bu gapni eshitib Soliev «Shu taviyaning ham printsipi bor-a...» deb o'ylab g'ashi kelgan edi. Hozir ham shunday o'yladi. Bir narsa demoqchi edi, tili aylanmadi. G'udrandi.

— Hali ham o'lganing yo'qmi? — «Qassob» shunday deb engashgan edi, Solievning ko'kragiga qon tomchi. Tomchi qon qaynoq suv kabi etini kuydirib, azob bera boshladi. Kutilmaganda «Qassob» tisarildi. Kutilmaganda Soliev quvvatga kirib, qaddini rostladi. Buni ko'rgan «Qassob» qocha boshladi. Soliev quvmoqchi bo'ldi: negadir qush kabi yengil uchdi.

— To'xta, qochma, nega qochyapsan? — deb baqirdi.

— Quvlama meni, baribir yeta olmaysan.

— To'xta, gapim bor senda.

— Gaplaringga bir kecha kamlik qildimi? Sen bilan bir tun birga bo'ldim. Endi o'lguningcha meni eslab yurasan. O'lguningcha meni quvlaysan. Quvlash joningga tegib ham ketdi.

Shunday deb «Qassob» ham ucha boshladi. Oxiri ko'rinmay ketdi. Yo'lda qonli izlar qoldi.

Shundan so'ng ko'zlarini ochdi.

Qaerda ekanligini bilmadi. Ko'rgani — oppoq shift unga qaerda ekanini anglatmadi. «Qassob»ni quva-quva yetib kelganim shu yermi, degan o'yda bir necha fursat ko'zlari baqrayganicha qotdi. Notanish tovushlar ham tindi. Sukunat jarangidan quloqlari shang'illadi. Ko'p qatori u ham «Sukunat — jimlik demakdir» deb hisoblar edi. Ammo hozirgi ahvolda sukunatdan quloqlari qomatga keldi. Sukunat shovqinini daf etmoq uchun quloqlarini kaftlari bilan berkitmoqchi bo'ldi, biroq qo'llari uning hukmiga bo'ysunmadi. Bilaklari og'ir toshga bog'lab qo'yilganday ko'tarilmadi. Shunda qotib qolgan nigohi harakatga keldi. Unga xiyonat qilmagan joni avvaliga kipriklarini o'ynab pirpiratdi. So'ng shiftga qadalgan nigoh asta pastladi. Dastlab ko'rga-ni — to'ntarib qo'yilgan dori shisha idish po'kagiga ulangan shaffof ichak bo'ldi. Shisha idish ichidagi yarimlab qolgan za'faron suyuqlik qaynashni boshla-yotganday dam-badam pufakcha chiqarib qo'yadi. Mayor Soliev ana shu pufakchalarni sanayotganday tikilib yotdi. «Kasalxonadamanmi?»

Savoliga za'faron suyuqlik oqib o'tayotgan shaffof ichak javob beradiganday nigohini yuqoridan pastga tomon tushirdi. Biroq, ko'zlari ichakning qaerga qadalganini ko'rolmadi. Shundan so'ng boshini asta yon tomon burib, qo'shni karavotda yotgan odamni ko'rdi. Harakatsiz yotgan odamning tirikmi yo o'lik ekanini bilmadi. Uning tepa tomonidagi to'ntarilgan shisha idishda pufakchalarni ko'rgach, qo'shnisi hali hayot ekanini angladi. «Kim bu? — deb o'yladi u. — «Qassob»mi? Shuncha otishmadan so'ng ham tirik qoldimi?» Xonadagi yorug'lik yetarli emasmidi yoki Solievning ko'zlari xiralashganmidi, har holda tikilgani bilan yon tomonda yotgan odamni taniy olmadi. Bu orada eshik ochilib, hamshira kirdi. Solievda hayot nishonasini ko'rib, unga yaqinlashdi-da, hech bir so'z aytmay, o'zini zo'rlagan holda jilmaydi.

— Qaerdaman?

Bu safar ham ovozi chiqmadi, faqat lablari asta qimirladi. Hamshira lablarning qimirlashidan savolning mazmunini uqqanday, o'sha soxta jilmayishini kanda qilmagan holda mayin kaftini uning peshonasiga qo'yib:

— Xavotirlanmang, krizis o'tdi, — dedi. Keyin dalda beruvchi ohangda qo'shib qo'ydi: — balki erta-indin reanimatsiyadan umumiy xonaga olishar...

«Krizis...», «Reanimatsiya...»

«Zulmat — krizismidi? Menga nima bo'ldi o'zi? — deb o'yladi Soliev — Bomba portlamagan edi. Yigitlar kirishgandi. Balki o'shandan keyin portlagandir? Yonimdagi yaralanganlardan bittasimi? Boshqalari qani?»

Tili gapga aylanib, bularni so'raganida ham hamshira javob qaytara olmas edi. Hamshira yon tomondagi bemorning holidan xabar olgach, chiqib ketdi. Hamshira kiringach, qaysi bir burchakka biqinib olgan sukunat u chiqib, eshik yopilishi bilan yana xonaga o'z hukmini o'tkaza boshladi. Solievning baxtiga bu safar quloqlari shang'illamadi. Ahyon-ahyonda dahliz tomondan soatning chiqillashini eslatuvchi uzuq-uzuq, ojiz-ojiz tovush sukunat hukmiga zarba berib turdi. Xayollari asta-sekin tiniqlasha boshlagan Soliev zulmat dunyosiga kirish arafasidagi voqealarni esladi.

## 2

Soliev jinoyatchilarning izlaridan tushgan paytlarida ko'p tunlarni bedor o'tkazgan, biroq, «Tun» deb atalmish vaqt birligining bu qadar uzun, bu qadar og'ir-vazmin bo'lishini sezmagani ekan.

«Qassob» ham, Soliev ham, atrofda sergak turgan yigitlar ham «Tezroq tong ota qolsaydi» deb kutishardi. Go'yo bu mashmashaga tun aybdoru, otajak tong barcha balolarni daf etadiganday edi.

O'lim yoki hayot daragini bermog'i lozim bo'lgan tong ham otdi.

«Qassob» chala bo'g'izlab qo'yilgan ho'kiz tovushida baqirib, yana talablarini takrorladi. Bu tomon va'dani yana quyuq qildi. Talab va va'dalar qachonga qadar davom etajagini, qanday yakun topajagini hech kim bilmasdi. Hamma qandaydir bir mavhum tasodifga umid qilardi.

Soliev va'da berayotganlardan ham, atrofda kuzatib turganlardan ham ranjimas edi. Chunki bu muammoning yechimini o'zi ham bilmasdi. Bilganda-ku, «shunday-shunday qilinsa — olam guliston» deb g'azablansa ham arzirdi.

Yurakni eslatuvchi mushtdekkinaga temir necha soatdan beri necha-necha yuraklarni behalovat tepishga majbur qilardi. Portlamay qolsa-ku, barcha masala bir nafasda hal bo'ladi-qoladi. Tongga yaqin holdan toygan Soliev bombaning portlab ketishini ham istadi.

U tomon hech qachon talabni bajarmaydi. «Qassob» esa o'zicha insofqa kelmaydi. Shunday ekan, nimadan umid qilmoq mumkin?

— Ha, faraon, charchadingmi? — dedi «Qassob» uning holini anglaganday.

— Charchashimning birovga foyda-ziyoni yo'q. O'zing charchaganga o'xshaysan. Barmoqlaring titrayapti. Qo'yib yubora qol o'sha zormandani.

— Charchabsan, faraon. O'limni bo'yingga oldingmi, demak, tamom bo'libsan.

Ishtoning quruqmi ishqilib? Har holda ho'l ishtonda o'lsang sheriklaringga kulgi bo'lasan. Men senga bir yaxshilik qilay: ishtoning qurigunicha kutaman. Ikki soat oldin o'lamanmi yo keyinmi, menga baribir. Sen, — «Qassob» istehzo bilan tirjaydi. — «mardlarcha halok bo'lsang» bitta medalga ilinib qolasan.

Soliev indamadi. U «Qassob» baqirayotgan paytda talablaridagi qat'iylikning susayganini

sezgan edi. Hozir gapirish ohangining ham tundagidan farq qila-yotganini fahmladi. Faqat bu o'zgarish sababini bilolmadi.

— Faraon, — dedi «Qassob», — qara, atrof yorishib qoldi. Lekin quyosh ko'rinmayapti. Men quyoshsiz kunni yomon ko'raman. — «Qassob» shunday deb picha sukut saqladida, so'ng ta'kid etdi: — Juda yomon ko'raman.

«Qassob» to'g'risini aytgan edi. U bolalik chog'larida dengiz qirg'og'ida o'tirib quyosh chiqishini tomosha qilishni yaxshi ko'rardi. Onasining maishatiga xalal bermaslik uchun ko'chaga chiqib ketganida u ko'pincha qirg'oqqa borardi. To'lin oy nurining to'lqinchalar bilan o'yiniga uzoq-uzoq tikilardi. So'ng esa quyoshni kutib olardi. To'lqinchalar yuzini silagan oy nuri qanchalik maftunkor bo'lmasin, ufqni titratib ko'tarilgan quyoshning o'zgacha latofati bor edi. Bolaning nazarida tabiat chiroyini ochib yuborgan quyosh unga yangi kunda shirin va'dalar berayotganday bo'lardi.

«Bugun otang qaytib keladi», der edi Quyosh.

«Endi seni hecham tashlab ketmaydi», — deb ishontirardi Quyosh.

«Onang endi begonalarni boshlab kelmaydi», — deb va'da qilardi Quyosh.

«Endi tunlari ko'chalarda sanqimaysan», — deb umid chirog'ini yoqardi Quyosh.

«Bugundan boshlab seni biron «shiltaning bolasi» deb kamsitmaydi», — deb himoyasiga olardi Quyosh.

O'zining ongida tug'ilgan bu va'dalarga bola ishonardi.

«Otam qaytib kelsa ham, tunlarda sanqimasam ham, baribir seni kutgani tongda kelaman», deb ham va'dalar berardi.

Bulutli tonglarni esa yomon ko'rardi.

Onasi «Otang kimligini o'zim ham aniq bilmayman», degan rost gapni shubhasizki, aytmas edi. Shu bois «otang bizni boqa olmay tashlab ketgan» degan yolg'onga bola ishonardi. Quyoshni kutayotgan mahallarida pul topish, boyib ketish yo'llarini izlardi.

Bir kuni o'rtog'iga yuragini o'rtayotgan orzularini aytdi:

— Pulni nima qilasan, mashina olasanmi? — deb so'radi o'rtog'i.

— Yo'q, otamni topib, uni boqaman.

— Nega? — deb hayron bo'ldi o'rtog'i.

— U bizni boqolmay tashlab ketgan ekan. Erkak kishining bunday qilishi — nomardlik.

Nomardlik jazosiz qolmasligi kerak. Men uni boqib jazolayman. Har tishlam nonni tishlaganida meni tashlab ketganidan uyaladi, afsuslanadi. Afsuslanib, afsuslanib, yuragi siqilib qiynaladi. Qiynalib-qiynalib, oxiri o'ladi...

Norasidalik chegarasidan o'tgan o'smirning istagi shu edi. U faqatgina Xudoga ma'lum bo'lgan onasini jazolashning turli usullarini mo'ljallab qo'ygan edi. Tasodif tufayli otasini topib, o'ylab qo'ygan jazolash usullaridan biri qo'llanilgan taqdirda ham u bolani ayblash joiz bo'larmikin? Har holda valadi zinodan yana nimalarni kutmoq mumkin?

Uning murg'ak qalbi, kirlanishga ulgurmagan ongi farzandini tashlab ketmoqlik nomardlik ekanini fahm etardi. Nomardlar qanday usulda bo'lmasin jazo topmoqliklari shart, deb hisoblardi. O'shanda o'rtog'iga jazoning oxiri nima bilan yakunlanishini aytmovdi. Uning rejasicha, otasi «afsuslanib-afsuslanib» o'lgach, tobutga solib ko'milmaydi. Balki, jasad krematoriya topshirilib, kuydiriladi. Uning kuli bir qutichaga solinadi, so'ng muzeyga topshiriladi-da, tagiga «Nomard otaning kuli» deb yozib qo'yiladi. Buni ko'rgan erkaklar oqibatni o'ylab qoladilar va farzandlarini tashlab ketmaydilar.

Bolalik tasavvuri shunday edi. Bolalarini tashlab ketuvchilarning hammasiga shunday jazo qo'llanilsa, muzeylarda joy yetishmay qolishini u o'ylab ko'rmagandi.

Bolalik orzulari o'ttiz kunlik oy nuri kabi unga xiyonat qildi — zulmat qa'riga singib ketdi. Ammo... quyoshga bo'lgan muhabbati so'nmadi.

Bulutli tongga bo'lgan nafrati ham susaymadi.

Zotan...

Uning butun umri bulutli tong kabi edi.

Shubhasizki...

Umri adog'i aynan shunday bulutli kunda bo'lajagini u bilmas edi.

Quyoshli tongni suygan bola umri adog'ida quyoshni bir martagina ko'rmoq ilinjida ko'z yumadi...

Bolaligida tong quyoshi uni aldardi.

Alhol, uning quyoshi xiyonat qildi. So'nggi nafasida bir qarab olishni istamadi.

Quyosh-ku... balki istagandir. Biroq, zaharli bulutga chirmalgan umri evaziga bu baxtdan mahrum etilgandir...

U otasining jasadini kuydirmoqni niyat qilgan edi. Niyati o'ziga nasib etadi...

Unga qadar esa...

Changalida bombani ushlaganicha, hazin ovozda:

— Quyoshsiz kunni yomon ko'raman, — dedi.

Mayor Soliev uning ovozidagi xazinlikni sez-di-yu, «ishqilib bu o'zgarish yaxshilikka bo'lsin-da», deb o'yladi.

— Faraon, sen Xudoga ishonaman, deding, a? Shaytonga-chi? Shaytonga ishonasanmi?

Soliev darrov javob bermadi. «Qassob» ham «tez bo'!» deb qistamadi. «Agar bu dunyoda shayton bo'lsa, bu sensan», deb o'ylagan Soliev fikrini sirtiga chiqarmadi.

Ilohiy tuyg'ulardan mahrumligi bois ruhlari o'lik, hayvoniy hislari esa quvvatli bu odamga nisbatan shu gaplar aytilsa, balki shayton alayhila'na ranjirmidi... Iblis «Qassob»ni

hidoyat yo'lidan adashtirgani rost, Xudoga begona qilgani to'g'ri, xiylalari to'riga o'ragani, vasvasalari gulxanida qovurgani ayni haqiqat. Biroq, iblisning o'zi xotinlarni

o'ldirib, go'shtlaridan chuchvaralar tugib yemagandir... «Eng shirin chuchvara sen maishat qilgan juvonning go'shtidan bo'ladi», degan xiylasiga ishontira olgan iblis hozir «Qassob» laqabli bandasining qonlarini ko'pirtirib qanday vasvasa qilyapti ekan? Yoki «mana, oxirgi manzilingga eson-omon yetib kelding, endi men senga do'st emasman», deb qochib qoldimi?

Ajab... «Qassob» umrining so'nggi soatlarida nechun qadrdoni shaytonni eslab qoldi?

Qizig'i shuki, shayton yetovida yurguvchilar hamma vaqt ham o'z yo'l boshchilarini eslayvermaydilar.

Bir ozlik sukutdan so'ng «Qassob» qadrdonini nima sababdan eslaganini ma'lum qildi:

— Men shaytonga ishonaman, — dedi u. — Bilib qo'y: barchalarimizning xo'jayinimiz shayton bo'ladi. Mening shaytonim baquvvatmi, demak, men zo'rman. Seniki kuchlimi, demak, sen zo'rsan.

— Hozir... sen zo'rmisan? — deb so'radi mayor Soliev.

— Zo'r bo'lmasam shuncha odam atrofda titrab turarmidi? Lekin... faraon, bilib qo'y: shayton har bir odamning ko'kragiga mana shunaqa bombani bosib turadi.

— Keyin portlatadimi?.. Qachon portlatadi?

— Har kuni portlatadi. Keyin yurakni qiyma-qiyma qilib yeydi.

Ertasiga yurak yana o'sib chiqadi, u yana portlatadi, yana yeydi.

— Falsafang qiziq ekan. Men shayton tomirlardagi qonga aralashib oqib yuradi, deb eshituvdim. Sen o'sha shayton bilan olishib ko'rmaganmisan?

— Nega olishaman? U menga doim quvvat bergan.

— Yuragingni qiymalashichi?

— Buni azob deb o'ylayapsanmi? Yo'q, bu men uchun zo'r rohat edi.

— Hozir ham rohatlanyapsanmi?

— Ha.



- O'zingni o'zing aldama: hozir qo'rqyapsan!
- Aljima, faraon... — Qassob shunday deb bir siltab, bombani uning ko'kragiga qattiqroq bosdi.
- Shaytoning endi senga quvvat bera olmaydi. Yo'l ham ko'rsata olmaydi. Bittagina yo'ling bor sening.
- Bittagina yo'l? Taslim bo'l, demoqchimisan? Aqling kalta ekan, faraon. Ikkinchi yo'l-chi? Panjalarimni ochib yuborish uchun menga quvvat shart emas. Yana bitta yo'lim bor. Balki... ko'rarsan.
- Hamma yo'llaringning nomi bir — chorasizlik.
- Bo'ldi, o'chir! Falsafa so'qma menga.
- Men falsafa so'qiydigan faylasuf emasman. To'g'ri gapni aytyapman. Sen katta fojining halqumidan bo'g'ib turibman, deb o'ylayapsanmi? Panjalariningni ochib yuborsang dunyoni larzaga soladigan fojia yuz beradimi? Tomizg'ichda dengiz suvidan ikki tomchi olib tashlansa nima o'zgaradi? Dunyo g'ariblashib qoladi-mi?
- Tomchi dedingmi? To'g'ri aytding. Sen chindan ham arzimas bir tomchisan. Shuning uchun ham million so'm ham, samolyot ham menga berilmaydi. Nega laqillatishayotganlarini bilmaymanmi? Xo'jayinlaring Mos-kvadan buyruq kutishyapti. Moskva marhamat qilib «so'raganini berlaring», desa berishadi. Ikkovini otib tashla, desa, otib tashlashadi. Moskva uchun sen kimsan? Hech kimsan. Sendaqalar millionta. Moskva nimadan qo'rqadi, bilasanmi? Xalqaro janjaldan. Bu yerda esa xalqaro janjal yo'q. — «Qassob» shunday deb yengil titrab oldi. — Faraon, to'g'ri aytibsan, charchabman. Hamtovoqlaringga ayt, bir shisha aroq berishsin.
- Soliev «Qo'y, bu ahvolda ichma», demoqchi bo'ldi-yu, aytajak gapi xarsangtoshga otilgan kesak kabi naf bermasligini bilib, tilini tiydi. Shuning barobarinda «bunga aroq beringlar» ham demadi. Chunki «Qassob»ning baralla aytgan gapini sal narida turgan yigitlar eshitishgan, ular uchun Solievning tasdiq ma'nosidagi ishorasi kifoya edi.
- Zaharlamay olib kellaring, avval sheriklaring ichadi, — dedi «Qassob» yigitlarga qarab. So'ng yana buyurdi: — avtomat yukxonadagi qirq yettinchi bo'linmani ochasanlar. Shifri — 01958. Sumkani olib kelasanlar. Qulfini ochishga harakat qilmalaring, bombaga ulangan.
- Soliev sumkani nima maqsadda oldirib kelmoqchi bo'lganini fahmladi:
- Xumori tutdimi?— deb so'radi u xotirjam tarzda.
- Ziyrak ekansan, faraon. Sheriklaringga ayt: men quruq po'pisa qilmayapman. Sumkada rostdan ham kichkinagina bombacha bor. Kichkinagina bo'lsa ham uch-to'rt hamtovog'ingni tinchitishga kuchi yetadi.
- Soliev buyruqni bajardi.
- «Qassob»ning talabi ham tezlikda ado etildi.
- Sumka oyog'i ostiga qo'yilgach, u kuldi.
- Qara-ya, faraon, aroqni bir pasdayoq olib kelishdi. Mashinalaringda maishat uchun olib yurasanlarda, a? Men ahmoq, samolyot so'rab o'tiribman. Aslida seni ikki shisha aroqqa almashtirib yuborsam bo'larkan. Endi narxingni bildingmi? Qani ol, och aroq- ni.
- Soliev buyruqni bajargach, «Qassob» shishaning yarmidan sal yuqorirog'iga barmog'ini tirab dedi: — Shu yergacha ich. Qolgani menga.
- Men ichmayman, — dedi Soliev.
- Sendan «ichasanmi?» deb so'ramadim, «ich!» dedim.
- Soliev odobli bola singari buyruqqa itoat etib shishani ko'tardi, biroq, ikki qultumdan keyinoq qalqib ketdi. Yo'tali bosilgach, keyingi buyruqqa itoat etgani holda sumkani ko'tardi.
- Hojatxonadagi uchta sheriging dimiqib ketishgandir, ayt, daf bo'lishsin, — deb

buyurdi «Qassob».

«Obbo zang`are, shuni ham bilib turgan ekan-da?» deb o`ylab, yigitlarga ishora qildi. «Qassob»ning talabi bajarilgach, hojatxona sari yurdilar. Soliev eshikni ochib, ostona hatlayman, deganida «Qassob» uni to`xtatib, orqasiga o`girildi:

— Sheriklaringni to`sib olaman, qiynalib ketdi. Xalaqit bermalaring. Eshikni ochgan — o`ladi!

Ichkari kirishgach, «Qassob» kishanning kalitini so`radi. Kalit shimning cho`ntagida, Soliev kishanli qo`li bilan ololmas edi. Shunda «Qassob» panjasidagi bombani Solievga tutdi:

— Ushla, faraon, jon shirin bo`lsa, mahkam ushla.

Panjalariga bomba tegishi bilan Solievning yuragi «shuv» etib ketdi. Bosh barmog`i bilan ehtiyot tugmasini bosgunicha tovonidan sochining uchiga qadar bir sovuqlik yugurib o`tdi.

«Qassob» esa xotirjam ravishda uning cho`ntagiga qo`l solib, kalitni oldi. O`zining bilagidagi halqani yechib, Solievni suv quvuriga kishanlab qo`ydi-da, eshikka xavotir bilan qarab-qarab olganicha sumkani ochdi. Undan yelim xaltacha olib, kaftiga kukun tashlagach Solievga «ana endi xumorbosdi qilaman» deganday qarab oldi. Keyin kukunni burniga tortdi. Ko`zlarini yumib chuqur nafas oldi. Huzurli onlardan rohatlangach, bu kayfni quvvatlantirmoq maqsadida aroqni ko`tardi.

— Sen dunyoning mazasini bilmaysan, faraon. O`lsam ham menga alam qilmaydi. Chunki men maza qilib yashadim. Men qamoqdan o`limdan qo`rqqanim uchun qochmadim. O`limimni kutib yotishdan bezib qochdim. — Shunday degach, yana kukun hidladi.

— Faraon, — dedi u huzurlanib ko`zlarini yumgani holda. — Seni bir millionga olishmadi. Sening o`limingga rozi ular. Lekin men rozi emasman. Kel, sen bilan shartnoma tuzaylik: men sening hayotingni saqlab qolaman. Sen esa mening o`ligimni krematoriyga yoqtirmaysan. Odam qatorida tobutga solib ko`mdirasan. Go`rimning tepasiga bitta but ham qo`ydirasan.

— Xudoga ishonmaysan-ku?

— Ishonmasligim to`g`ri. Lekin... kim biladi, balki bordir? Sen ehtiyotdan but qo`yaver. Balki foydasi tegib qolar. Kelishdikmi?

— Kelishdik.

— Senga ishonchim bo`lmasa ham ishonyapman. Boshqa ilojim yo`q. Faraon, umringda bittagina o`g`il bolalik qil: va`dangni bajar, xo`pmi?

«Qassob» shundan so`ng gapirmadi. Soliev ham uni kuzatib jimgina o`tiraverdi. Aroqning so`nggi qultumi bu dunyodagi huzurli rohatning so`nggi nafasi yakunlanganiga dalolat bo`ldi. «Qassob» shishaning bo`g`zidan ikki barmog`i bilan ushlaganicha baland ko`tardi-da, uning ichidan bir nima izlagandek tikilib turdi. So`ng bexos tashlab yubordi. Shisha chil-chil sindi. «Qassob» chap kaftida qolgan kukunni shisha siniqlari ustiga sochdi-da, Solievga yaqinlashib, panjasidan bombani oldi, ammo ehtiyot tugmasini bosmadi.

— Faraon, bo`ldi, o`zingni qiynama. Bu bomba port-lamaydi. Senlarni laqillatib xumordan chiqdim. Menga shu yetadi, — «Qassob» shunday deb bombani tuvakka tashladi.

«Qassob» portlamaydi, degani bilan Soliev kuchli portlashni kutdi. Ana shunda yuragi yana bir qalqidi. «Qassob» esa yon cho`ntagidan ikki to`pponchani oldi-da, o`qdonni tekshirib, Solievga qaramagan, «xayr» ham demagan holda eshikka yaqinlashdi-yu, uni zarb bilan tepib ochib tashqariga otildi.

— Qani, otlaring endi! — deganicha hayqirib to`pponchalarning tepkilarini bosdi.

Soliev jonholatda:

— Otmanglar! — deb baqirdi.

Lekin uning ovozi hech kim eshitmadi. Pala-partish otishma bir necha soniyada tindi. Soliev shularnigina eslaydi.

Yo'q, bo'shshib, nafasi qayta boshlaganida yigitlar kirishdi...

Demak, o'zi chidasa ham yuragi dosh berolmabdi-da...

Soliev bir oz o'ziga kelgach, «Qassob»ga bergan va'dasini esladi. Esladi-yu, nochor ekani ham ma'lum bo'ldi: u behush yotgan kunlarda «Qassob»ning egasiz jasadi kuydirilgan edi...

### 3

Yer osti yo'lagiga olib tushuvchi zinapoyada mayor Ilyosovni ko'rgan Zohid unga yaqinlashgan onda bekat hojatxonasidagi «Qassob» chap kaftidagi kukunni shisha siniqlari ustiga sochgan edi. Zohid Ilyosovdan «Nima gap?» deb so'rashga ham ulgurmay, ichkarida otishma boshlandi. Bir daqiqa atrofida davom etgan pala-partish otishma tingandan so'ng ham o'rab turgan soq-chilar halqasi tarqalmadi. Zohid-ku, endigina keldi, ta'bir joiz bo'lsa, u «chaqirilmagan mehmon». Ammo tuni bilan mijja qoqmay, soqchilikda turgan Ilyosov ham ichkariga qo'yilmadi. Aslida Zohidning ichkarida qiladigan ishi ham yo'q, ustoz Maqsud Solievning taqdiri ham u uchun noma'lum edi. Atrofdagi yurgan odamlardan farqsiz o'laroq, unga ham ichkarida nima voqea yuz berganini bilishgina qiziq edi. Solievning tuni bilan garovda ushlab turilganidan xabardor bo'lgan Ilyosov esa birodari taqdiridan xavotirlangani tufayli ichkariga intilgan edi. Otishma tingach, sal chetroqda shay turgan «Tez yordam» mashinalari bekatning oynavand eshiklari qarshisiga kelib to'xtashdi. Zambil ko'tarib shoshib yurilganidan icharida hamma masala hal etilgani ayon bo'ldi. Avval boshdan oyoqqacha choyshab tortilgan odamni olib chiqishdi. «Kimdir o'libdi... Kimning jasadi bu?»... degan savol nazari bilan Zohid bilan Ilyosov bir-birlariga qarab oldilar. Savolga ikkovlarida ham javob yo'q edi. Bekatni o'rab turgan soqchilar halqasi zaiflashib, chekindi. Ular bekat eshigiga ancha yaqinlashishganda yana bir zambil ko'tarib chiqildi. Zohid «Tez yordam» mashinasidan o'n besh qadamcha narida turgan bo'lsa-da, ko'zlari yumuq, ranglari oqargan Solievni tanib, yuragi «shuv» etib ketdi. «Yaralanganlarmi, yo... Ilyosovga qaragan Zohid uning ko'zlaridan ham ayni savolni uqdi. Ularning qarashidagi savol ham bir, javob ham bir edi: yaralangan! Xayollaridagi javobning xatoligini ular keyinroq biladilar.

O'sha kuni Ilyosovdan «Ish»ga aloqador gaplarni so'rashning mavridi emasdi. Odamlar tarqay boshla-gach, Zohid ham ishiga qaytdi-da, Shokarimov o'limiga doir ma'lumotlarni qaytadan sinchiklab o'qiy boshladi. Marhumning shaxsiga taalluqli satrlarga kelganda nigohi bir nuqtada qotdi. «Kecha nima uchun e'tibor bermadim? Bu tasodifmi?..» degan xayolda Shokarimov ishlagan joylarning nomlarini qayta o'qidi. Beton zavodiga o'tguniga qadar taksoparkka direktor bo'lgani sirli qulfni ocha oluvchi kalit bo'lib ko'rindi. Zohid yon daftarchasiga taksopark raqamini yozib, tagiga uch-to'rt chiziq tortdi-da, undov va so'roq belgilarini qo'ydi. Bu taksopark Zohidga yaxshi tanish edi. Shilimshiq o'z o'limini topguniga qadar aynan shu saroyning yangi «Volga»sini minib yurgan. Aynan shu Shokarimov va uning qanotidagilar taksoparkdan mashina «o'g'irlanganini» to Shilimshiq o'ldirilguniga qadar «bilmay» yurishgan. Ustiga ustak, Kesakpolvonning topshirig'ini bajarib, o'likxonadan murda olib borib bergan Sayfi Turdiev ham aynan shu yerda ishlardi.

Zohid yon daftarchasidagi yozuvga tikilganicha o'ylanib qoldi. Nazarida hozirgina yozib, ostiga chizilgan raqam oddiy belgi emas, balki sirlar sandig'ining sirli ochqichi edi. Zohid barmoqlarini yoyib, sochlarini yuqoriga qarab qayta-qayta taradi. So'ng peshonasidagi

teri bilan et orasiga chumolilar kirib olganday g'imirlab g'ashini keltira boshlagach, chap kafti bilan siladi. O'ylagani sayin o'ylari uni o'zi istamagan holda asadbeklar olami tomon tortaverdi. Agar asadbeklar olami shaxmat taxtasiga qiyos etilsa, Zohidning fikricha, Shokarimov ham Namozov kabi piyodalardan biri edi. Shohning manfaati uchun piyodalarning qurbon bo'lishi tabiiy bir hol. «Piyoda» Shokarimov qanday manfaat uchun qurbon qilindi ekan? «Piyoda» Namozov ilmi, olim edi. Bunisi esa hunar-texnika bilim yurtini tamomlagan. Demak, maktabdagi o'qishini qoyillata olmagan. O'qituvchilarning zo'ri bilan «hunar o'rganish ishtiyoqida» bilim yurtiga borgan. Kasbi — g'isht teruvchi! Bu ham Zohid uchun ajablanarli sir edi. Shokarimovning qo'liga g'isht ushlagan-ushlamagani qanchalar jumboq bo'lsa, uning qaysi yo'llardan yurib taksopark boshlig'i kursisiga o'tirgani shu qadar sir edi. Zohid «Ish»ni qayta-qayta o'qib «Shokarimovning o'ynashi ham, haydovchisi ham besabab ushlab turilibdi, ehtiyot chorasi o'zgartirilishi kerak» degan to'xtamga keldi. Ammo Ilyosov bilan suhbatlasha turib qarorini amalga oshirishga shoshilmadi.

Bekatdan qaytar mahalida ustozining yaralanmaganini, balki yuragi o'ynab, hushsiz bo'lganini eshitgan edi. Peshindan keyin Solievning ahvolidan xabar olgani kasalxonaga bordi-yu, «infarkt» degan tashhisni eshitib, beixtiyor ravishda «Nega?» deb yubordi. Solievning hayotidan bexabar odam «Qassob»ning panjasidagi bombadan qo'rqib yuragi ishdan chiqibdi», degan xulosaga kelishi mumkin. Har holda bekatdagi tunni bedor o'tkazganlar, ayniqsa, Solievni behush holda ko'rganlar shunday deb o'ylashgan edi. Holbuki «Qassob»ning panjasidagi bomba so'nggi turtki edi. Bu so'nggi turtkidan xabarsiz bo'lgan Zohid kasalxona hovlisidagi kimsasiz ayvon ustuniga suyanib, zaif qor uchqunlarining sar-sari uchishlariga tikilib turardi. U ustozning hayotini qisman bo'lsa-da bilgani uchun «Nega?» degan savoliga o'zi javob topdi. Necha haftalab, hatto oylab bedor yurib, jonini garovga qo'yib jinoyat ildizini ochganida bittagina telefon qo'ng'irog'i bilan barcha harakatlari chippakka chiqarilganida yuragidagi bitta tomir uzilmadimikin? Jinoyat ishi kattalardan birining tantiq o'g'liga taqalganida, qat'iy turib olgani uchun «o'z vazifasiga munosib emas», degan tamg'a bilan ishdan chetlatilganida-chi? Soliev boshiga tushgan savdolardan ayrimlarini ibrat tariqasida aytib berganida Zohid «yuragingiz temirdan ekan, chidabdi», degandi. Mana endi ma'lum bo'ldi, yuragi temirdan emas ekan.

Zohidning qishlog'ida, ularnikidan olti xonadon narida bir odam yashardi. Asl ismi G'ayrat bo'lgan bu kishini hech kim o'z nomi bilan atamay, qisqa va lo'nda qilib «G'iybat» deb yuritishardi. Uning yana bir laqabi «Ofat» bo'lib, ayrimlar boriga baraka usulida uni «G'iybat Ofat» deb ulug'lashardi. «G'iybat» deyilsa- da — yarashiqli, ofat deyilsa-da — arziqli bu odam atrofdagilarning yoqtirmasliklarini faxmlardi. Shu bois duch kelgan xonadonga kirib, o'zida yo'q obro'sini to'kkisi kelmas, mo'min-qobil bo'lgani uchun Zohidning otasi bilan hamsuhbat bo'lishni yoqtirardi. «Hamsuhbat» deyish ham nisbiy tushuncha. Chunki Zohidning otasi suhbatlashmas edi, tilining tagiga bir chekim nos tashlab faqat eshitardi. O'n ikki yil muqaddam Zohid G'iybat Ofatning rais bilan olishuvi haqidagi «axborot»ni bexos tinglab, g'azablangan edi. «Menga moshin bermaguningacha har kuni kelaman, yuqoriga yozib seni tinchitmayman. Yo sen menga moshin berasan, yo men seni infarkt qilaman!» G'iybat Ofat bu gapni alohida bir g'urur bilan aytgan edi.

Rais bu odamning aybi bilanmi yo boshqa sababdanmi infarktdan ko'z yumgan edi. O'shanda Zohid «pichoq urib yoki bo'g'ib o'ldirganni «qotil» deymiz, qamaymiz, hatto o'linga hukm qilamiz. Raisning qotili kim? G'iybat Ofatni ayblay olamizmi? Pichoq urmoq bilan infarktga olib bormoqning farqi nimada? Faqat usul boshqa, oxir oqibat esa bir — bevaqt o'lim!»

Hozir kasalxona hovlisidagi ayvon ustuniga suyanib turgan Zohid shularni esladi. Eslay turib «birovlarni infarkt qiluvchi odamlarning o'zlari ham infarkt bo'larmikinlar? Ular qanday holda jon berarkinlar?» deb o'yladi.

4

Ilyosov joyiga o'tirgach, peshonasini tirishtirganicha Zohidga qaradi. Zohid bu qarashdan «Uka, bemavrid kelibsan, boshimni qotirma», degan ma'noni o'qib, xona sohibining so'z boshlashini kutdi. Ilyosov esa erinchoqlik bilan stol tortmasini ochdi-da, sigaret olib, labiga qistirdi.

— Nima bo'lganini eshitgandirsiz? — U shunday deb so'rab, javob kutmay sigaret tutatdi.

— Kasalliklarini bildim.

— Xudo bir asrabdi oshnamni. Undan ko'ra yelkasidanmi yo sonidanmi yaralangani ming marta yaxshi edi. Infarktning ishi qiyin, uka. Endi uni bu idorada boshqa ko'rmaysan, majruhlikka chiqarib yuborishadi. Mana shunisi infarktning o'zidan ham yomonroq. Umr bo'yi ko'chada yurgan odamning «qachon infarkt bo'larkinman, ikkinchisida o'larmikinman yo uchinchisidami?» deb uyda Azroil kelishini kutib o'tirishi osonmi? Meni qancha kutdingiz?

— Yarim soatcha.

— Odam odamni yarim soatmi yo besh soatmi kutsa betoqatlanadi. Har daqiqa, har soatda o'limni kutsa-chi? Buni hech o'ylaganmisiz? Siz hali yoshsiz, xayolingiz boshqa yoqda. Men ham kam o'ylayman buni. Lekin oshnam endi tinmay shuni o'ylayveradi. O'ylay-o'ylay o'zini yeb ado qiladi. Infarkt nima, bilasizmi? Bu kasallik emas, aslida Azroilning tashrif qog'o-zi. Kutilganga nisbatan kutilmagan mehmon ancha durust. Ilyosov hayot va mamotga doir falsafasini aytib bo'lgunicha Zohid toqat bilan o'tirdi. Ortiqcha gap qo'shmadi. Yaqin odami boshiga kulfat yog'lsa yoki xastalikka chalinsa kishi «bu mening taqdirimda ham bordir» deb xavotirlanadi. O'zini gumonidagi kulfatni qarshilashga ruhan tayyorlaydi. Hozir Ilyosov hamkasbining taqdiridan kuyib gapirayotgan bo'lsa-da, ko'nglining bir chetida «kaminaning yozug'i ham shu» degan haqiqat g'imirlardi. O'zining ham qachondir infarkt bo'lishi mumkinligi haqidagi fikr kechmish va kelajakka oid falsafalarini to'kib solishga undardi. Zohid hamsuhbati ruhiy holatidagi tug'yonni sezgani uchun ham xalal bermay tek o'tirdi.

Azaga kelgan xotin rostdanmi yo yolg'ondanmi harchand yig'lamasin, oqibat o'zining tashvishlariga ko'chadi. Ilyosov gapira-gapira bir oz yengil tortganday bo'lib, «bu yigit mening hasratimni eshitgani kelmagandir», degan xijolatda izoh berdi:

— Maqsud akangiz sizga ustoz bo'lganlari uchun aytyapman bu gaplarni.

Ilyosov bir necha nafas sukut saqlagach, falsafa olamidani haqiqat dunyosiga ko'chdi:

— Shokarimovning ishini sizga berishibdi, eshitdim. Mendan biron narsani so'ramoqchimisiz?

— Ha, — Zohid shunday deb o'rnida bir qimirlab oldi. — Qog'ozga tushmagan gaplar bo'lsa...

— Qog'ozga tushmagan gaplarmi? — Ilyosov Zohidga tikilib qoldi. — Qog'ozga tushmay qolgan gaplarning asosiysini Shokarimov o'zi bilan go'rga olib ketgan. Uncha-buncha qolgan gaplar o'ynashi bilan haydovchisining tilida turibdi. Bilmadim, haqiqatni tillariga qo'shib sug'urib olish kerakmi? Har holda men ulardan kerakli ma'lumot ololmadim. Balki sizga yorilib qolishar? Siz qidiradigan sir shu ikkalasining orasida. Uzoqqa borib yurmang, uka.

— O'limga boshqa sabab ham bo'lishi mumkinmi?

— Masalan?

Zohid taksoparkka asadbeklarning ta'siri borligini aytishni istamadi. Shilimshiq, Sayfi Turdievga doir gaplarni bu odam bilmasligi ham mumkin. Bilmasa, xabardor bo'lmay turgani ham ma'qul. Alhol Zohidning maqsadi uni gumonlaridan ogoh etish emas, bilaks, undan biron yangilik eshitish edi.

— Masalan... taksopark direktorining beton zavodiga boshliq bo'lib qolishi meni ajablantiryapti. U sohada ham bu sohada ham ma'lumoti yo'q ekan?

— Bunaqa o'rinlarda o'tirish uchun ma'lumot shart emas, uka. Pul sanashni, pulni to'g'ri taqsimlashni bilsa bo'ldi. Siz kitob ko'rib ulg'aygan yigitsiz. Agar qoqilmayin desangiz, endi bu kitoblaringizni chetga qo'yib hayotning kitobini o'qing.

Ilyosovning bu o'giti Zohid uchun yangilik emasdi. Ildagi muallimi Habib Sattorovdan ham, bu sohadagi ustozlari Maqsud Solievdan ham eshitgan. Yoshi ulug'roq odam borki, Zohidga o'xshaganlarga shunday maslahat qiladi. Zohidga bu gaplarni eshitaverish erish tuyuladi. Chunki u hayot boshqa, kitob boshqa degan fikrni mutlaqo hazm qila olmaydi. Uning aqidasiga ko'ra, har qanday kitob hayot tajribasiga asoslangan tarzda yuzaga keladi. «Dono»lardan biri Zohidga «hayot kitobini o'qing», deganida u g'ashlanib:

— O'zingiz hech kitob o'qiganmisiz? — deb so'ragan edi.

— Kitob o'qib, boshimni og'ritib nima qilaman, men hayot ko'rganman, — degan edi «Dono». O'shanda Zohidning tili qichib o'rtog'iga aytgan gaplarni aytib yuborgan, keyin afsuslanib «Dono» ranjiydi, deb o'ylagan edi. Ammo «Dono» Zohidni hayron qoldirib ranjimadi. Holbuki u gap uncha-buncha odamning badanini teshib yuborishi mumkin edi: bir kuni Zohid uyda yotganida hamqishloq o'rtog'i yo'qlab keldi.

— Ha, yana bosh og'riyaptimi? — deb ko'ngil so'ragach, o'zicha tashxis qo'ydi: — Kitobni ko'p o'qiysan-da. Men senga ming bir marta aytdim: hadeb o'qiyverma. Mana men bitta ham kitob o'qimaganman. Shu yoshga kirib bir marta ham boshim og'rimadi.

Zohid o'rtog'iga yarim hazil, yarim chin ohangida:

— Boshingning og'rimasligi kitob o'qimaganingdan emas, sen yana yuz yil yashasang yuz yil bosh og'rig'i nimaligini bilmaysan. Senda og'riydigan boshning o'zi yo'q, — degan edi.

Hozir Ilyosovga ham shunga o'xshagan gap aytvoray dedi-yu, tilini tiydi. Fikrni chalg'itmaslik uchun muddaodan chetlamadi:

— O'ynash bilan haydovchiga qo'llanilgan ehtiyot chorasini sal oshirib yuborilmaganmi?

— Men ularni o'z bilgimcha qamamadim. Jinoyatga aloqasi bo'lgani uchun men taklif etdim, prokuror tasdiqladi. Xotinini qamab qo'yganim yo'q-ku?

— Ehtiyot chorasini o'zgartirsammikin, siz nima deysiz?

— Endi uka, «Ish» sizning qo'lingizda. Nima qilsangiz qiling. Faqat shoshilmang.

Xo'jayinlar «Ha, bo'li!» deb turishsa ham arqonni uzun tashlayvering. Men shoshilmagan edim, «Ish»ni sizga olib berishdi. Aqlim yetganicha gumonlarim bor, ammo buni hozir sizga aytmayman. O'zingiz bir harakat qilib ko'ring. Keyinroq maslahatim zarur bo'lib qolsa kelarsiz.

Ilyosovning bu tarzda suhbatga yakun yasashi Zohidga malol kelsa-da, og'ir olganini sezdirmay xushmuomalalik bilan xayrlashdi. Umri «Ugro»da o'tayotganlarning tergovchilarni, ayniqsa, yoshlarni xushlamasligi, ayrim holatlarda mensimasligi Zohidga ayon. Barcha sohalarda bor bo'lgani kabi yosh-qari mutaxassis orasidagi muammo bunda ham mavjud. Yoshlar kattalarni dogmada, ya'ni qotib qolganlikda ayblashadi. Kattalar esa ularni «dumbul» deb bilib ishlaridan ayb izlashaverishadi. Kamchilik topilgan taqdirda mamnuniyat bilan tanbeh berishadi. Musulmon odobiga zid o'laroq, biron yoshning qoqilishini istovchilar ham yo'q emas. Afsus shuki, bu toifa «yosh birodarim iloyim qoqilmasin, qoqilguday bo'lsa o'zim suyayman», demaydi. «Qoqilsin,

yiqilsin, peshonasi g'urra bo'lsin, burni qonasin, shunda ko'zi ochiladi, mening qadrimga yetadi», deb umid qiladi. Quruq umid bilan kifoyalansa koshki, ba'zan kishi bilmas tarzda qoqilishiga yordam berib qo'yadi. Zohid bunday kimsalarni ilm olamida ham ko'rdi, bunda ham uchratib, ko'zi pishdi. Xayriyatki, tunning muqobilida kun bo'lgani kabi, yomonning payini qirquvchi yaxshi ham bor. Soliev shu toifadan bo'lgani uchun Zohid uni behad hurmat qilardi. Zohid «Ilyosov Solievning aksi», degan fikrdan uzoq. U haqda yomon gap eshitmagan. Ajablanarlisi shuki, yaxshi gap ham, aytaylik, «falonchiga yordam beribdi, qo'llabdi, yonini olibdi», deganga o'xshash olqish ham qulog'iga chalinmagan.

Birovga yaxshilik ham, yomonlik ham qilmaydigan odamdan ehtiyot bo'lish kerakmi yo faqatgina ablahlikni kasb qilib olgandan qo'rqish zarurmi — Zohid bu masalani ham o'zicha hal qilib olgan: u uchun keyingi toifa xatarli emas, chunki bunday odamlarning hujumiga ertayu kech shay turasan. Ilmiliq (Zohid birinchi toifani shunday ataydi) odamlar oftobda qolgan suvga o'xshaydi. Chanqab kelasanu icholmaysan, ichsang ko'ngling ag'dariladi.

Ilyosov ayrim ishlarni Soliev bilan birga bajarardi. Uning tajribali, mulohazali ekani Zohidga shundan ma'lum. Ilmiliq ekanini yaxshi bilmas ekan, bugungi muomalasidan bunga amin bo'ldi. Zohid lozim bo'lib qolganda Ilyosovni bu ishga jalb qilishi mumkin edi. Xonadan chiqa turib «bu ilmiliqsiz ham kunim o'tar», deb qo'ydi.

## 5

Mirkarimovning uyida motamsarolik soyasi yo'q edi. Ko'k kiygan ayolni, g'amnok bolalarni uchratarman, deb o'ylagan Zohid yanglishdi. Keyin «Bu uydan o'lik chiqqaniga ancha bo'ldi shu paytgacha oh-voh qilib o'tirisharmidi», degan fikrga keldi.

Ba'zilar pul topadilaru aql topmaydilar. Yo dan-g'illama uy soladilar. Yoki dovrug'i yetti iqlimga ketadigan to'y qiladilar, yo har yili bir marta, ishtahalari kelib qolsa, ikki marta mashinalarini yangilaydilar, shu zaylda qarmoqqa ilinganlarini o'zlari ham sezmay qoladilar: «Sotsialistik mulkni talon-taroj qilish»da ayblanib bor budlaridan ayriladilar. Zohid darvoza oldida turganicha atrofni kuzatib «Mirkarimov bu toifadan bo'lmagan ekan», degan to'xtamga keldi. Dabdabali to'y qilganmi-yo'qmi — hozircha bilmaydi. Bilgani — Mirkarimovning nomida mashina ham, uy ham yo'q. Uy qaynonasining nomida, sutrang «09» xotining nomida. Mirkarimovning aqliga besh ketish kerakki, faqat xotinigina o'zining nomida. Qo'lga tushguday bo'lib sud «mol-mulki davlat hisobiga musodara qilinsin», degan hukm chiqarganda ma'lum bo'ladiki, bu «bechora»da mol-mulkning o'zi yo'q. Agar jinoyat kodeksida «Xotini ham musodara qilinsin», degan modda bo'lsami, bu zotlar xotinni ham boshqa birovning nomiga rasmiylashtirib qo'yisharmidi, vallohi a'lam?

Bu dunyoning qonunlarini shu tariqa chetlab o'tish mumkin. U dunyodagi so'roqlardan qay tarzda bo'yin tovlanar ekan? U dunyoda xotinning nomidagi mashina qay tarzda xarid qilingani xususida ham hisob berilarmikin?

Shahar chekkasidagi qishloqda chiroyli peshtoqli, ko'krak kerib turgan oq tunukali uylar ko'zga deyarli tashlanmaydi. Aksincha, sinchi yoki paxsasi ko'tarilib, u yog'iga qo'l kaltaligi tufayli tashlab qo'yilgan uylar ko'proq. Mirkarimovning uyi boshqalardan farqli o'laroq, ko'cha yuziga emas, bog' ichkarisiga qurilgan. Uyning dabdabasini bog'dagi daraxtlar yomon ko'zlardan himoya qilib turadi.

Zohid to'rt paxsa balandligidagi devor bilan o'ralgan bog' darvozasi oldida chalingan qo'ng'irog'iga javob kutib ancha turdi. Betoqatlansa-da, tirqishdan mo'ralashdan o'zini tiydi. To'rtinchi qo'ng'iroqdan so'ng darvoza ortida ayolning «Kim?» degan ovozi

eshitildi. Zohid o'zini tanitgach, darvoza o'rtasidagi eshik qiya ochilib, egniga paxtalik nimcha kiyib, yelkasiga jun ro'mol tashlagan, kipriklari uzun-uzun, qoshlari kamalak kabi egilgan chiroyli juvon ko'rindi.

«Qoshu yosimu deyin, ko'zi qarosinmu deyin», degan ashulani shoirlar shunday go'zallarga qarab turib yozishganda...» Zohid buni ayni damda, darvoza ostonasining bu tomonida turganida emas, keyinroq qaytar mahalida o'ylaydi. Hozir esa savol nazari muhrlangan chiroyli ko'zlarga qarab turib maqsadini aytdi. Juvon «bu odamning uyga kirishga haqqi bormi, qo'yaymi yo qo'ymaymi», degan o'yda picha turdi-da, so'ng chekinib eshikni kengroq ochganicha «kiring», deb yo'l boshladi. «Uyda erkak yo'q, gapingiz bo'lsa shu yerda so'rayvering», deyish «erkaksiz uyga begonalarni kiritma», degan odobdan dars olmagan juvonning xayoliga ham kelmadi. Uning izidan borayotgan Zohid «bu qizimi yo kelinimi?» deb o'zicha fol ochdi. Bu ko'hlik juvon Mirkarimovning ikkinchi xotini degan haqiqat tushiga kiribdimi?

Qishning hukm surish vaqti taqvimga ko'ra adog'iga yetgan bo'lsa-da, sovuq nafasi hukmronlikni davom ettirayotgani sababli tashqarida turib gaplashish imkoni yo'q edi. Kungay qilib solingan oynavand ayvon issiq ekan. Zohid «shu yerda o'tira qolaylik» degan taklifni aytishga ulgurmay juvon televizor qarshisidagi stulni ko'rsatib «o'tiring» dedi. O'zi yon tomondan joy olib, yelkasidagi jun ro'molni suyanchiqqa tashladi. So'ng portfelini ochib, qog'ozlarini olayotgan Zohidning harakatlarini ziyraklik bilan kuzatdi.

— O'ldirgan odamni topdinglarmi?

So'roqqa tayyorlanayotgan Zohid uchun bu savol kutilmagan bo'lmadi. Bunday savollarni ko'p eshitgani uchun ham shoshilmay, qog'ozlarni ko'zdan kechirib oldi-da, javobni qisqa qildi:

— Topamiz.

— Sizdan ham oldin bir kishi ikki-uch marta keldi. Qotilni sizlarga biz topib berishimiz kerakmi?

— Siz ovora bo'lmang, opa, o'zimiz bir amallab topamiz.

— Shunaqami? — juvonning kamalak qoshlari chimirildi. — Unda nima uchun keldingiz? Adalarini... bu uyda o'ldirishmagan. Endi boshqa kelmanglar. Birinchi kuni olib ketgan narsalaringni ham qaytaringlar.

«Adalarini... Demak, bu xonim Mirkarimovning bevalari ekan-da?» Zohid shu xayol bilan juvonga tegishli sahifalarni varaqladi. «Oysanam Erkaeva. 1958 yilda tug'ilgan... Yoshiga kecha e'tibor bermabman. Eridan o'n sakkiz yosh kichik ekan...» Zohid bevaning talab ohangidagi gaplariga ham sovuqqonlik bilan javob qaytardi:

— Mirkarimovning bu uyda o'ldirilmaganini bilaman. Lekin o'limidan oldin shu uydan o'z oyog'i bilan chiqqan. Olingan narsalar vaqti kelganda qaytariladi, xavotirlanmang. Ro'yxat bilan olingan, ro'yxat bilan qaytariladi, ignadek narsa ham yo'qolmaydi, Oysanam opa, — Zohid shunday deb juvonga tik qaradi. Chiroyli ko'zlarga dosh berish qiyin bo'lsa-da, nigohini olib qochmadi. — Men so'raydigan ayrim narsalar sizga bema'ni yoki erish tuyulishi mumkin, lekin shularni so'rab, aniqlashga majburman.

Eshitishimcha, Mirkarimov serhimmat, qo'li ochiq, mehmondo'st, hotamtoy odam ekanlar, — shunday deb Zohid atayin yolg'on aytdi. Puldor odamlar, ularning oilalari baxil bo'lsalar-da, o'zlari haqida shunday tavsifni eshitmoqni xush ko'radilar. Zohidning mo'ljali aniq chiqib juvon uzoridagi qat'iylik soyasi chekinib, mamnunlik oftobi ko'rindi. Zohid esa bu o'zgarishni sezmaganday davom etdi: — Kunda bo'lmasa ham kunora mehmon kutgandirsiz. Mehmondo'st odamning xotini bo'lish osonmas.

— Nimasini aytasiz... — juvon shunday deb yengil xo'rsindi.

Yaqin o'tmishning totli xotirasi yuragini entiktirdi. Mehmon kutishda u ertalabdan xamir qorib nonu somsa yopmas, bir qozonda suyuq, ikkinchisida quyuq ovqat ham



pishirmasdi. Mehmon kutishni pazanda yigitlar, xizmatchi ayollar o'rniga qo'yishardi. Bu oppoq, bo'liq barmoqlar qozon-sochiq nimaligini allaqachon unutib yuborgan. Mehmon kutiladigan kun bu barmoqlar piyoz archib, to'g'ramas, balki tilla uzuklar bilan orolanardi. Tamanno bilan yurib, ko'p ko'zlarni kuydirardi. Eri «erkaklarning oldiga hadeb chiqaverma» desa-da, «choyinglarni yangilab berayinmi?» degan mehribonlik bilan kirib-chiqib turardi. Uning xayolida buzuqlik yo'q edi, eriga xiyonat qilmoqni ham o'ylamasdi. Faqat erkak zotining yeb qo'ygudek bo'lib suqlanib qarashidan rohatlanardi. Mehmonga taqinchoqlarini taqib borganida esa erkaklarning xirsday qarashlariga qo'shimcha ravishda ayollarning hasad bilan boqishlaridan mast bo'lardi. Hozir o'sha omon-omon damlarni eslab entikdi. Juvonning bu olami Zohidga qorong'u edi. Shuning uchun yengil xo'rsinish sababini boshqacha tushundi.

— Tez-tez keladigan odamlar orasida Asadbek aka bo'larmidilar?

— Kim u kishi?

— «Asadbek» desa butun shahar taniydi-ku? Siz... eshitmaganmisiz?

— Eshitmaganman... og'aynilari orasida bunaqasi yo'q edi shekilli?

— Haydar aka, Mahmud deganlarini-chi?

— Esimda turadi, deysizmi? Bilasiz-ku, bizda erkaklar alohida o'tirishadi. O'rislarga o'xshab billalashib cho'qishtirib ichishmaymiz.

— Bu gapingiz ham to'g'ri. Men Asadbek akani taniysiz deb o'ylabman. Sizni qaerdadir ko'rganday bo'lib o'tiruvdim. Endi esladim: Asadbek akaning to'ylarida ko'rgan ekanman.

Zohid bu yolg'onni tavakkal qilib aytdi. Uning farazicha, to'yga shaharning barcha puldorlari kelishgan. Asadbeklarga xizmat qilib yuruvchi taksopark direktorining kelishi esa isbot talab etilmaydigan haqiqatlar sirasiga kirardi. Shunday dabdabali to'yga bunday go'zal xotinni olib bormaslik esa nodonlik bo'ladi.

Zohidning bu yolg'oni ham yaxshi samara berdi. Juvon kaftini o'ng betiga bosib, o'ylanganday bo'l-di.

— Qaysi to'yni aytyapsiz?

— Mashhur hofiz Elchinni kuyov qildi-ku?

— Ha... siz ham boruvdingizmi?

— Faqir kishi panada, deyishadi-ku, bir chetda o'tirib maza qilganmiz. Demak, esladingiz. Asadbek aka kelib turarmidilar?

— Yo'q, u kishi kelmasdilar. Balki o'g'ilchamizning to'yida kelgandirlar. Nima, o'sha kishidan gumoningiz bormi?

— Be, shunday ulug' odamdan gumonsiraymizmi? — Zohid shunday deb kulimsiradi. — Shunchaki so'radim, qo'ydim, Mendan oldin siznikiga militsiyadan Ilyosov degan odam kelgan. O'sha odamga «hech kimdan gumonim yo'q», debsiz. Rostdanam gumoningiz yo'qmi?

— Kimdanam gumon qilardim?

— Haydovchidan... — Zohid «o'ynash» demoqchi bo'l-di-yu, juvonga bu so'z yomon ta'sir qilishi mumkin-ligini anglab, yumshoqroq tarzda: — yana bir tanish ayol, — dedi.

— Ayolni bilmayman, — dedi Oysanam, — lekin haydovchi deganingiz... akamdan qanaqasiga gumon qilishim mumkin?

Bu gapni eshitib Zohid sergak tortdi:

— Nima, akam dedingizmi? O'z akangizmi?

— Ha,— juvon shunday deb ajablanib yelka qisdi,— tug'ishgan akam. Siz nimaga hayron bo'lyapsiz?

— Ilyosovga ham aytganmidingiz buni?

— Esimda yo'q... aytgandirman.

- Akangizning familiyasi?..
  - Men birinchi erimning familiyasida qolganman.
- Bu yangilik Zohid uchun kutilmagan jumboq bo'ldi.

## VI b o b

### I

«Anglashilmovchilik bo'libdi»?!

Asadbek quloqlariga ishonmadi. «Uyqusirayaptimi bu malla kapitan yo kechasi bilan otib chiqqan bo'lsa kalla karaxtmi?»

Chetdan qaragan kishiga milisaxona navbatchisining darchasiga tirsagini tirab turgan Asadbek gap uqmas bo'lib ko'rindi. Bu xonada kapitandan boshqa chetdan qarovchi odam yo'q edi. Unga esa Asadbek aynan shunday ko'rindi.

— Tushunmadingizmi? — dedi u ensasi qotgan tarz-da.

— Tushunmadim, — dedi Asadbek.

— Nimasiga tushunmaysiz? Anglashilmovchilik bo'libdi, — dedi kapitan. — Militsiya nomidan uzr so'raymiz. O'g'illaringiz hozir chiqishadi, olib ketaverasiz. Yuklaringizni qarab, tekshirib qabul qiling.

Necha xil o'y-xayol, necha xil reja bilan bu yerga kelgan Asadbek uchun bunisi sira kutilmagan «sovg'a» bo'ldi. U avvaliga to'g'ri Xongireyga uchrab «talabingni ayту bolalarimga tegma», demoqchi bo'ldi. Lekin bu ahdi qat'iylashmadi. «Xo'p, bordim, aytdim, — deb o'yladi u, — «o'g'illaringni men qamatmadim», demaydimi? Deydi. U xunasa chaqaloqligida tulkinning sutini emib katta bo'lgan. O'zini bilmaganga oladi. «Iya, shunday bo'ptimi?» deb achinadi. Keyin menga marhamat qiladi. E, yo'q, menga u xarifning marhamati kerakmas. U mening bosh egib kirib borishimni juda-juda istayapti...»

Asadbek yo'qotilgan boylikning o'rnini to'ldirish mumkinligini, yo'qotilgan nomusni esa aslo tiklab bo'lmasligini yaxshi bilgani uchun ham Xongireyning huzuriga bormadi. O'g'illari uchun jonini berishga tayyor Asadbek nomusini bulg'ab bo'yin egishga kelganda chiday olmadi. Nomus jonga nisbatan ulug'lik qildi. O'zini to'xtatdi. Nomusning toptalishini eng so'nggi chora deb bildi. «Gadoning dushmani gado bo'ladi», deganlaridek, Moskvada Xongirey yakka hokim emas, uning payiga tushadiganlar ham topiladi. Asadbek hozir chora izlab ulardan birining huzuriga bormog'i mumkin edi. Lekin bu yo'lning ayni damda xatarli ekanini, yara patos bog'lab ketmog'i mumkinligini u fahmladi. Shubhasizki, Asadbek Moskva yeriga qadam bosishi bilan Xongireyning odamlari uni kuzatadilar. Asadbek Xongirey uchun nobop to'daga arzini aytgani hamon o'ljani bo'g'ib turgan ilon zaharlashni paysalga solmaydi.

To'g'ridan to'g'ri milisaxonaga boraverish fikri uni kutib olgan Jamshidga ham ma'qul keldi. Balki «besh-o'n so'm» sovg'a evaziga ish pishar degan umidda navbatchi darchasiga tirsagini tiraganicha o'zini tanitib, muddaosini aytishi hamon kapitan anglashilmovchilik bo'lganini ma'lum qilib turibdi.

Umidiga osonlik bilan yetgani uchun quvonishi lozim bo'lgan Asadbek «anglashilmovchilik» degan so'z ikkinchi marta takrorlangach, beixtiyor g'azablandi. «Ikkita begunohni qamog'ingga tiqib qo'yib yana «anglashilmovchilik» deb bezrayasanmi, enag'ar!» deb baqirishga chog'langanida xojasining fe'li ayniganini sezgan Jamshid uni chetga tortdi.

Asadbek «nega aralashasan!» degan ma'noda o'tli nigohini unga qadadi.

— Bu yerdan chiqvolaylik, keyin gaplashamiz, — dedi Jamshid.

Kim bilan, qachon, qaerda, qanday tarzda gaplashajagini o'zi ham bilmasa-da, xojasini tinchitish uchun ishonch bilan aytdi bu gapni. Asadbek «ertaga senga shokolad olib beraman», degan aldovga uchgan go'l bola singari yuvosh tortdi. Endi uning javdiragan ko'zlari har yon boqib, o'g'illarining chiqib kelishlarini kutardi.

Oradagi yarim soat xuddi yarim yil singari ruhni ezg'ilab o'tdi. Vaqtning o'n besh daqiqasi «hozir chiqishadi», degan ishonch bilan, qolgani esa «yana anglashilmovchilik bo'libdi, beayb boshqa odamlar ekan, sizning o'g'illaringizni chiqarmaymiz» deb qolsa-chi?» degan gumon talvasasi bilan o'tdi.

Yarim soat Asadbekni besh yilga qaritdi. Zaynab mojarosida cho'kkan gavdasi yanada cho'kdi. Hojasini kuzatib turgan Jamshid yengil titradi: hojasining soch-lari birdaniga oqarib ketdi. Asadbekning sochlariga oq oralagan edi. Lekin hozir, bir onning o'zida qirov qo'nganday bo'ldi. Jamshid «avval ham shundaydir, e'tibor bermagandirman», deb o'ylab yanglishdi. Sochning ayni shu damda oqarganini navbatchi kapitan ham sezgani uchun tez-tez qarab-qarab qo'yayotgan edi.

Sukunat...

Sukunatning tili bormi? Bo'lsa, sassiz ravishda nimalar deyapti ekan? Balki o'zining tilida chinqirib Asadbekni qarg'ayotgandir? Balki sochlarining oqarib ketgani qarg'ishning ijobat bo'layotganiga bir ishoradir?

Oldinda qo'llari kishanlangan Abdusamad, orqaroqda Abduhamid ko'rinishi bilan Asadbek o'zini tuta olmadi. Uning keyingi oylar ichi zaiflashib qolgan irodasi, saboti ko'zdan quyilib, kipriklariga qadalgan yosh tomchilarini to'xtata olmadi.

Hali «anglashilmovchilik bo'lganini» bilmagan, «Turlaring!», «Devor tarafga o'giril!», «Qo'lingni cho'z!», «Bitta-bitta yur!», «Gaplashma!» degan buyruqlarga mo'min bola singari itoat qilib chiqib kelayotgan, xayollari «Endi bu yog'i nima bo'larkin?» degan savol bilan band aka-uka oynavand devor ortida otalarini ko'rdilaru ko'ngillari to'lib, bo'g'izlariga yig'i keldi. Ulardagi yoshlarga xos matonat yig'ini to'xtatishga qurbi yetdi. Agar Asadbek o'g'illari ko'zlarida yosh ko'rsami, bo'g'ziga qadalib turgan faryodni to'xtata olmasdi. Yaxshi hamki oynavand devorning xiraligi otalari yonog'iga dumalagan ko'z yoshni parda qilib to'sdi. To'smasami edi, balki yoshlik matonati ham ojizlik qilib qolarmidi...

Go'zal yorlari hamrohligida uyga kirib bormoqni, kelinsalomdan quvongan otalari bilan ko'rishmoqni orzu etgan o'g'illar xira oynavand to'siq ortidan «Adajon, bizning hech gunohimiz yo'q» degan ma'noda javdirab qarashardi. Qo'llaridagi kishanlar yechilib, cho'ntaklaridan olingan narsalar ro'yxat bo'yicha bir-bir qaytarila boshlangach, ular chindan ham «gunohlari yo'qligini» anglab yengil tortishdi. Ikkovlari ham baravariga «adam chiqarib oldilar» deb o'ylashdi.

Sog'inch va tashvishdan o'rtangan yuraklar xadik soyasi ostida uchrashganlari uchun tilga so'z kelmay qoldi. Titroq tillar «Boram!», «Adajon!» deyishgagina quvvat topa oldilar xolos. Asadbek o'g'illarini bag'riga bosib, ko'ngli bir oz orom topgach, qulochini keng yoyib ikkovini qanotlari ostiga oldi-da, «Ketdik!» dedi. So'ng jiyanlari qatori suyumlu bo'lib qolgan yigitlar bilan ko'rishish baxtidan bebahra qolayotgan Jamshidga qarab:

— Yuklarni o'zing olib chiq, — dedi.

— Bek aka, qarab olaylik, — dedi Jamshid aybdor odamning ovozi bilan.

— Past ketma bularning oldida. Bir-ikkita matohni olgan bo'lsa olgandir.

— Olsa mayli-yu, qo'shib qo'ygan bo'lsa-chi? Ko'chaga chiqqanimizda yana hunar ko'rsatishmasin, deyman...

Jamshid «xo'jayinga aql o'rgatib baloga qolmasaydim» degan xavotirda gapini kalta

qildi.

Asadbek keyingi yillarda faqat Chuvrindi ukasigina aql o'rgatsa chidardi. Hatto Kesakpolvon to'g'ri maslahat bersa-da, avval bir bobillab, so'ng amal qilardi. Jamshid xojasining bu odatini yaxshi bilgani uchun ham fikrini bayon qilishda bir oz cho'chidi. Shu paytga qadar «Bek akam «nimaga?» degan savolni yomon ko'radilar. Akamga «xo'p bo'ladi» ko'proq yoqadi», aqidasiga amal qilib kelgan odam uchun yurakdagi zardoblari toshib, alam vulqoni portlay deb turgan xojasiga bunday deyish o'ziga xos jasorat edi. Farzandlarini qanotlari ostiga olib eshik tomon bir qadam qo'ygan Asadbek to'xtab, a'yoniga o'girildi. Portlash o'rniga Jamshid uchun kutilmaganda horg'inlik bilan:

— Gaping to'g'ri, — deb o'g'illarini qanotidan chiqardi.

Jamshid yigitlar bilan yengil-elpi ko'rishib olgach, kapitan chaqirtirgan milisa ishtirokida jomadonlarni ochdi. Shu onda telefon jiringladi. Navbatchi go'shakni qulog'iga tutib, o'zini tanitgach, Asadbekka qaradi-da:

— Ha, shu yerda, — dedi. So'ng eshitgan buyrug'iga itoatkorona tarzda: — Xo'p bo'ladi, — deb Asadbekni chaqirdi: — Asad Abdullaev, siz men bilan yuring.

Jamshid ham, o'g'illar ham kutilmagan bu yo'qlovdan ajablanib, kapitanga savol nazari bilan qaradilar:

— Sizlar ishingizni davom ettiringlar, bu o'rtoq hozir qaytadi, — kapitan shunday deb Asadbekni dahliz bo'ylab boshladi. Dahliz adog'iga yetganida o'girilib, Asadbekka: «Shu yerda to'xtang», deb amr etgach, o'ng qo'ldagi eshikni taqillatdi.

«To'xta, devorga o'giril, qo'lingni orqaga qil!» demadi, shunisiga shukr, — deb o'yladi Asadbek. — Meni kim chaqirdi, maqsadi nima? O'z oyog'im bilan ozod yurib kelib, mahbus bo'lib chiqmasaydim...»

Bu xayol vasvasa hosili emasdi. Xongireyday odam bir qiliq bilan o'g'illari o'rniga o'zini tiqib qo'yishi hech gap emasdi. Agar hozir ichkarida tirjayib o'tirgan Xongireyni ko'rsa Asadbek mutlaqo ajablanmagan bo'lardi.

Kirishga ruxsat bo'lgach, kapitan Asadbekning ortidan eshikni ohista yopdi. Asadbek ichkari kirib salom berdi. Charm paltosini yechmay stulda emas, stolda o'tirgan yigit salomga alik olish o'rniga o'zini «KGB hodimi», deb tanishtirdi. Guvohnomasini ko'rsatmadi. Asadbek esa talab qilmadi.

— Abdullaev, bizdagi ma'lumotga qaraganda Afg'onistonda tayyorlangan kokoin sen orqali Rossiyaga uzatilar ekan.

Yigitning dabdurustdan sensirashi Asadbekka malol kelsa-da, g'azabini yutdi. Chunki qo'yayotgan aybi oldida bu sensirash hech gap emasdi. Xongireyning asl maqsadi shu aybnomadan so'ng oydinlashganday bo'ldi. «Darding meni yo'q qilish ekan, nima qilarding bolalarimni ezib», deb g'ijindi.

Savolga darrov javob bermagani uchun charm paltoli yigit o'rnidan turib unga yaqinlashdi:

— Biz hatto narkokurerlaringni ham bilamiz.

Asadbekning talvasaga tushishini kutgan yigit uning ko'zlariga tikilib xavotirni ko'rmadi. — Kim bo'lsa ham sizga noto'g'ri ma'lumot beribdi. Men hech qachon qora doriga aralashmaganman.

— Ha, — yigit tisarilib yana stolga omonat o'tirdi: — Gaping to'g'ri. Bizda bunaqa ma'lumot ham bor. Xo'sh, qaysi biri haqiqat?

— Ikkinchisi.

— Qara, fikrimiz bir yerdan chiqdi: men ham hamkasblarimga shunday dedim. Ammo ular ishonishmayapti. Ularni ishontirish uchun nima qilish kerak?

Asadbek yelka qisdi-yu, «bilsang o'zing ayt» deganday unga qarab turaverdi.

— Sen biz bilan hamkorlik qilishing kerak. Tushunyapsanmi? Hech bo'lmasa bir-ikkita

narkokurerni bizga tutib berasan. Mulohazaga o'rin yo'q. Ko'nishga majbursan. Har holda o'g'illaringni bekorga chiqarmayapmiz. Ular garovda, bilib qo'y!  
Chindan ham tortishish, mulohaza yuritishga fursat yo'q edi.

— Kim bilan bog'lanaman?

— Sen bilan o'zimiz bog'lanamiz. Endi boraver. Uyingga qaytib, to'yingni boshlayver. Qo'rqma, endi sen bizning himoyamizdasan.

Asadbek past ovozda «xayr» deb xonadan chiqdi. Salomiga alik olinmagani kabi xayrlashishiga ham lutf qilinmadi.

Jamshid bilan o'g'illarining savol bilan qarashlariga javoban:

— Tezroq bo'llaring, men toza havoda turaman, — deb tashqariga yurdi.

Ko'chaga chiqdi-yu, quruq qor bo'roni yuziga urilib nafasi qaytdi. Paltosining yoqasini ko'tarib, boshini toshbaqa kabi ichiga tortdi. Moskvaning sovug'iga moslanmagan yupqa paltosi bo'ron hamlasini qaytara olmadi. Bir pasda badaniga muz yugurib qaqshay boshladi. Iziga qaytmoqchi bo'lganida besh qadam narida, ko'cha chetida qorga burkanib turgan «Volga» eshigi ochilib Jamshidning sherigi tushib keldi:

— Bek aka, bo'ldimi, chiqishdimi? — deb so'radi.

Asadbek «ishing nima!» deb jerkimoqchi bo'ldi-yu, qo'l qovushtirib some' turgan yigitni o'ksitgisi kelmay qisqagina qilib:

— Ha, — dedi.

— Hayriyat-e, Bek aka, moshina issiq, o'tirib turing. Men ichkariga kiraymi?

Yigit endi haddidan oshgan edi. Shu bois bu safar xojasining g'azabidan benasib qolmadi:

— Joyingga bor, ishingni qil!

Yigitning mahmadanaligi g'ashini keltirgani uchun u taklif etgan issiq mashinaga bormay joyida turaverdi.

Uning xayollari ko'chada sarsari kezayotgan qor bo'roni kabi to'zigan edi. «U meni kutib o'tirgan edimi? «KGB xodimiman» deganida ishonib qo'ya qolganim yaxshi bo'ldi.

Guvohnoma so'rasam gap maydalashardi. Mayli, meni kaltafahm deb hisoblab o'tiraversin. Agar uning KGB emas, Xongireyga tobe laycha ekanini bilmasam, unda chindan ham paytavafahm bo'laman. Xongirey qoradorifurushlikka toqatim yo'qligini biladi. U o'zicha ustalik bilan qo'l-oyog'imni bog'ladi. Agar haromi Haydar bilan til biriktirgan bo'lsa, ishini qilaveradi. Men nodon esa narkokurerlarni aniqlab, xabarlayman. Bu ma'lumot to'g'ri Xongireyning qo'liga borib tushadi. U enag'ar ilgaritdan qanjiq\* edi. Meni ham o'ziga o'xshatyapti shekilli? Yaxshi, o'xshatsa o'xshatib tursin. Men unga o'xshagan past o'g'ri emasman. Meniki bitta gardkam bo'ladi. Ostidan ham ustidan ham qo'porib tashlamasam yurgan ekanman. U basharasiga niqob taqib arslonman deb kerilyaptimi? Bashara arslonniki, dum esa tulkiniki. E, nodon, o'sha tulki dumingning ostiga sening...» Asadbek shunday deb so'kinib yon tomonga o'girilganicha tupurdi.

Birinchi jomadonni ko'tarib chiqqan Jamshid:

— Bek aka, sovuqda turmang, yuring, — dedi mehribonlik bilan.

Asadbek Chuvrindiga qanday itoat etgan bo'lsa, Jamshidga ham shunday bo'ysunib, ergashdi.

Ko'chada turganida etini zirillatgan sovuq mehmonxonaga borganida kuchini ko'rsatdi. Badanida bezgak titrog'i turib, holdan toydi. Jamshid ustma-ust junchoyshabga o'rab qo'ysa ham isimadi. Xojasining titrog'i pasayish o'rniga zo'rayayotganini ko'rgan Jamshid restoranga qo'ng'iroq qilib qaynoq karam sho'rva bilan aroq buyurdi. Aytganlari muhayyo bo'lgach, shishadagi aroqning yarmini xojasiga zo'rlab ichirdi. Asadbek karam sho'rvadan uch-to'rt qoshiq ichgach, peshonasida ter marjonlari ko'rindi. Jamshid

zo'rlasa ham sho'rvaning yarmidan kamrog'i qoldi. Shundan so'ng Jamshid xojasini yechintirib, badanini aroq bilan obdon artib, xuddi chaqaloqni yo'rgaklaganday yotqizib qo'ydi. Ana shu amaldan so'ng Asadbekning badaniga iliqlik yugurib sovuq titroq azobidan qutuldi. Hatto tashvishli gaplardan ham yiroqlaganday bo'lib o'zi sezmagani ravishda oromli uyquga ketdi. Ammo bu orom olami uni bag'rida uzoq ushlab turolmadi. Bir soatga yetar-etmay u yana tashvishli dunyosiga qaytdi.

Yuvinish xonasi tomondagi g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushlar qulog'iga kirmaganida uzoqroq uxlashi mumkin edi. Avvaliga buni ko'rayotgani majhul tushga oid tovushlar deb o'yladi. Tovushlar avval uning sezgilarini uyg'otdi. So'ng ko'zlari ochildi. Bir zum quloq tutib yotdi-da:

— Mahmud, kim keldi? — deb so'rab qaddini ko'tardi.

«Jamshid» demay «Mahmud» deb yuborganini o'zi ham sezdi. Jamshid esa ustozini o'rnini egallayotganini fahmladi. Yotoq eshigini qiya ochib:

— Mamatbey keldi. Xongireyning salomi bor emish,— dedi.

— Ha... kelibdi-da, juda yaxshi. Hozir kiyinib chiqaman. Sen choy-poy buyur.

— O'tirmas emish. Sizni olib ketgani kelganmish. Menam tayyorlanaymi?

— Sen ukalaring bilan qolasan. Xongireyning bilan o'zim bi-ir otamlashay.

— Sherigim boraqolsinmi?

— Keragi yo'q. Bu sen o'ylagandaqa uchrashuvmas. Yarash-yarash bo'ladi. Akangning ziyofatini yeymiz bugun. — Asadbek kiyina turib shunday dedi-da, zaharli tarzda kulimsirab qo'ydi.

U Xongireydan chopar kelishini kutgan edi. Shu sababli milisaxonadan chiqishgach, mehmonxonaga borajagini bildirdi. Xojasining maqsadini anglamagan Jamshid ajablanib qarab qo'yish bilan qanoatlandiyu «Ichkariga chaqirishganda bir gap aytilgandir-da», degan o'y bilan cheklandi. «Nega chaqirishibdi, tinchlikmi?» deb so'rashni xayoliga ham keltirmadi. Aytish lozim bo'lsa, xojasining o'zi aytardi. Sir saqladimi, demak, bu sir qal'asining eshiklari Jamshid uchun taqa-taq berk. Ochishga urinishlik esa eng kamida so'kish bilan mukofotlanadi.

Asadbek milisaxonadan to'g'ri «Domodedovo» deb atalmish joyga qarab bormog'i, ikki soatdan so'ng esa uchoqqa o'tirib uyiga jo'nab qolishi ham mumkin edi. Shunday qilsa uning har qadamiga tikilib, kuzatib turganlar juda bo'lmaganda qo'rqqoqlik tamg'asini bosar edilar. Yoki yuklar qayta tekshirilib biron mashmasha chiqarilmog'i muqarrar edi. Asadbek kiyinib dahlizga chiqishi hamon Mamatbey quchoq ochib kutib oldi.

— Ha, eski og'aynilar topishib oldinglarmi? — dedi Asadbek yengil piching ohangida.

— O', jan gardashim, bu o'g'lung cho'x buyuk insan. Bek gardash, ta'ziyalarimi qabul et. Mahmutbey cho'x buyuk insan edi. Afsuslar chekmakdamiz, afsuslar.

— Og'ang Xongirey qalay, durustmi?

— Tashakkur sana, gardash. Sana Xangireyning salamlari var.

— Ertalab ziyoratiga boraman deb turuvdim.

— Ziyaret bizdan lazim o'lur, Bek gardash. Sanda biza ko'nakdiansan. Sanida aziz etib bashlarimizga ko'tarajakmiz. Xongirey orqadash bu onda sani kutmakdadir.

— Kutayotgan bo'lsa ketdik.

— Jamshidbeyda bizim ila borajakmi?

— Yo'q. U ukalari bilan shahar aylanmoqchi bo'lib turuvdi, shashtini qaytarmaylik.

---

\* Hukumat idoralari bilan hamkorlik qilish o'g'ri uchun o'z qonunlariga xoinlik hisoblanib, shunday «unvon» bilan taqdirlanadilar.

Milisaxonadan chiqib, mashinaga o'tirishgach, or-qadagi o'g'illari tomon qiya o'girilib:

— Qiynashmadimi? — deb so'rganida Abdusamad:

— Yo'q, — deb javob qilgan, Abdulhamid esa:

— Faqat bilakdan qon olishdi, — deb qo'shimcha qilgan edi.

— Nega qon oladi? — deb ajablangandi Asadbek.

— Qoradorini o'zimiz iste'mol qilamizmi, yo'q-mi — bilishmoqchi ekan, — deb izoh bergandi Abdul-hamid.

Asadbek «qiynashmadimi?» deb so'raganda tan azoblarini nazarda tutgan, Abdusamad ham ayni shu ma'noda «yo'q» deb javob qilgan edi.

Odatda milisaxonaga tushib chiqqan har bir odamdan shunday deb so'rashadi. Hech kim, hech qachon ruh azobi bilan qiziqib ko'rmaydi. Ko'p qatori Asadbek uchun ham bolalarining kaltaklanmagani muhim edi. Ruhlarining faryodini esa u eshita olmas edi. Zotan, ayni damda o'zining bezovta ruhi ham chinqirig'ini bas qilmagan edi.

Tangri taolo bandalarini xo'p ajib tarzda yaratmish ekan. Huda-behuda yig'lashni, uvvos tortishni ayollarga kasb qilib berib, ba'zi-ba'zida yig'lashi mumkin bo'lgan erkakning xo'ngrashini xunuklik libosiga o'rab qo'ymish ekan. Bu yig'ining zohiriy ko'rinishi.

Botindagi ruhlarning faryodiga ham tovush ato etilsami, dunyoning quloqlari qomatga kelarmi edi...

Abdusamad yuklarni tekshirishda boshlangan mashmasha qo'lga kishan urilishi bilan yakunlanadi, deb sira o'ylamagan edi. Sermulohaza, bosiq tabiatli bo'lgan bu yigit o'rtada bir qing'ir o'yin boshlanganini fahmlab, ko'pam talashib-tortishmadi. Qoni ko'pirgan, olishmoq ishtiyoqidagi ukasini ham og'ir bo'lmoqqa undab turdi.

Alohida xonaga qo'yilganlarida Abdusamad sezdi, bu tomoshani tayyorlaganlar ehtiyot chorasini unutmaganlar. Tergovga chaqirilmayotganlaridan fahmladiki, bu tomosha zamirida uning aqli bovar qila olmaydigan bir sir-sinoat mavjud. Bu sir-sinoatning ildizi otasining qilmishlariga borib taqalishini u tasavvur qilib ko'rmadi. Alhol, bu ig'voga xorijdagi hayotimiz sababdir, deb gumon qildi.

Ular o'qishga ketishayotganda Berlin devori hali mahv etilmagan bo'lsa-da, G'arb deb atalmish dunyo bilan oraliqdagi to'siqlar o'zina boshlangan edi. Siyosatchilar Sovet Ittifoqining tashqi olam bilan munosabatida yaxshilik sari burilish sodir bo'layotganini maqtayotgan onlarida o'qish uchun Olmoniyaga o'tlangan aka-uka maxsus suhbatga chorlanib, vatandoshlar bilan yaqin aloqaga kirish barobarinda ularning orasidagi gap-so'zlardan xabardor qilib turish vazifasi topshirildi. Taqdir yozug'i shunday ediki, maxsus topshiriqsiz ham ular vatandoshlar bilan yaqin aloqa o'rnatdilarkim, oqibat bu aloqa nikoh bilan yakunlandi. Nikoh haqida gap chiqishdan avval ham, to'y arafalari, keyin ham aka-uka maxsus topshiriqni eslab turishardi. So'ralguday bo'lsa so'rovchilarni qanday chalg'itish maslahatini pishitib olishardi. Biroq, Olmoniyada «topshiriqni bajaryapsizlarmi?» deb birov yo'qlamadi.

«Endi shu ig'vo bahonasida so'rashdimi? So'rash uchun bu yerga olib kelish shartmidi?»

Dunyoning ko'p qing'irliklaridan bexabar aka-ukalar «maxsus topshiriq faqat bizga berildi», deb o'ylashgandi. Xorijga chiqayotgan har bir odam zimmasiga shunday topshiriq yuklanishidan, chetdagi vatandoshlarning xatti-harakatlari, maqsadlari, gap-so'zlari bularning xizmatidagi ham maxsus idoralarga ma'lum ekanidan bexabar edilar. Vaqtinchalik qamoqxonaning temir panjarali eshigi sharaqlab yopilgach aka-uka uzoq vaqt gap-so'zsiz o'tirdilar. Abdusamad gumonu taxmin, farazlarini tarozi pallasiga bir-bir qo'yib ko'rgach, uf tortib:

— Biz rostdanam go'l sichqonlar ekanmiz, — deb qo'ydi.

— Nima deding?

Oraliqdagi farq bir yosh bo'lgani sababli Abdulhamid akasini ko'p hollarda sensirardi. Faqat ota-onasi huzurida tanbeh eshitmaslik uchungina sizlab qo'yardi. Ukasining bu qilig'iga ko'nikib ketgan Abdusamad hozirgi sensirashga ham ahamiyat bermadi.

— Ustozning gaplari esingdami? — dedi ukasiga qarab.

Esida...

Vatanga qaytish kuni, vaqti aniq bo'lgach, doktor Xudoyor ularni mehmonga taklif etdi.

— Meni avfu aylangiz jigarbandlarim, sizlar uchun vaqtimdan bir soatni belgiladim.

Qahva ichib so'zlashajakmiz. So'ng mening yumushlarimda vordur.

Ustozlarining nemislarga xos mehmondo'stligi ularga yangilik emasdi. Ziyofatlarda maishat qilib uzoq o'tirish yoki uyda ziyofat tashkil etish uning tabiatida yo'q edi.

Shogirdlari bilan muloqotda bo'lganida «englar, ichinglar, ammo isrof qilmanglar» oyati kalimasini tez-tez tilga olar, «isrof qilmaslik faqat taomgagina nisbat emasdur, vaqtga ham taalluqlidir, vallohi a'lam. Qiyomat kuni behuda isrof etgan umrimiz uchun ham hisob berajakmiz. Hamonki, beshikdan qabrga qadarli ilm olmoqlik bizlarga farz etilmish ekan, vaqtni zoe ketkazmakdan biza qanday naf kelur?» deb nasihat qilardi.

Vatandoshlar doktor Xudoyorning bu tabiatini hazm qila olishmas, «ilmdagi omad uni kibrga olib bordi», deb afsuslanishardi. Gap kelganda otasini ayamaydigan doktor Xudoyor Sa'dulloxonga o'xshaganlar bilan tez-tez bahslashib «Sizlar Vatan hijronida emas, boylik hasratida yurgan bandasizlar», deb ularning naf-ratini qo'zirdi. Uning achchiq haqiqati faqat Muzaffarxongagina ma'qul bo'lardi. Shu bois uyidagi biron-bir yig'in Xudoyorsiz kechmas edi. Ana shu yaqinlik oqibatda to'rt yoshni bir-birlariga qovushtirdi.

Doktor Xudoyorning chorlashi o'ziga xos xayrlashish marosimi edi. Ustoz Vatanga qaytayotgan shogirdlariga havasi kelayotganini qayta-qayta ta'kidlab:

— Dunyoda ommatan abadiy o'lan hech nimarsa yo'qtur. Xossatan Vatanning istilodagi umrining adog'i ko'rinmakdadir. Ohkim, mana bu qadar cho'x marhamatlar etgan Tangrim yana birgina karomat etsa-da, man Vatan ozodligin ko'rsam, Vatan erki xususindagi darakni eshitsamgina bas, orada to'rt ummon o'lsa-da, suzib o'tajakman, Vatan tufrog'in o'pajakman! Banda uchun shu baxtning o'zi basdir. Banda bandaga ta'zim etmas, ammo man — banda Vatan istiqlololam aro ovoza etmish bandaga ta'zim qilajakman. Siza so'zim shuldir, azizlarim.

— Biz bilan boraversangiz bo'lardi. To'yimiz bahonasida orzuga yetardingiz. Siz — olimsiz, sovetlarga yomonlig'ingiz yo'q. Moskvaga bordingiz, indashmadi-ku?

— Oh, jigarlarim, qalbimdasiz! Man qo'rquv iskanjasidagi ojiz bir banda emasdurman. Maning-da bu ko'zlarim istilodagi yurtni emas, hur Vatanni ko'rmak istayur. Qalbim toptalmish tufrog'ni emas, ozod o'lmish zaminni o'pmakni orzu etiyur. Ojiz fikrim ayturki, bu kunlara insha Olloh, tezda yetajakmiz. Unga qadar esa ehtiyot o'lmog'ingiz joizdur. Jon talvasasidagi bu beasllar iblis eplolmagan ishlarni-da qilmoqqa qodirdirlar. O'tmish yoz chog'indagi mesxetiyalik orqadoshlarimizga qilinmish ig'volarni unutmashlik shartdir. Sovetning tavbasi mushukning tavbasi ila ohangdosh o'lmish. Anglayurmisiz? Mushuk ila sichqon xususinda cho'x rivoyatlar bitilmish. Mazkurlar orasinda ibrat shulkim, bir qari mushuk o'lar oldindan go'yokim insofga kirmish ekan. Sichqonlarga maktub bitib tavbalarini izhor etibdur va yana debdurkim «sizlarga bir ziyofat bersam-da so'ngra jon versam. Sichqonlar bu va'daga inonish yoxud inonmaslikni-da bilmay donishmandga yuz tutmish ekanlar. Donishmand debdiki: «Mushukning tavbasiga zinhor inonmangiz. O'lib, ko'mib-da qo'yilmish mushukning bir dona mo'ylabi tufroqdin chiqib turganini ko'rmoq bo'lsangiz-da hov naridan aylanib o'tmagingiz durust o'lur». Sichqonlarning jo'juqlari nasihatga zid o'laroq mushuk huzurina boribdilar.



— Dunyoda hech bir mushuk shu onga qadarli tavba qilmagan edi, sen nechuk istig'for aytmakni ixtiyor qiliyursan? — deb so'rabdilar.

Do'mboq sichqonlarni ko'rgan mushukning-da fe'li o'sha on aynibdi, niyati-da buzulibdi. — Senlar ayt-chi mana, senlar insofsizmi yoki men? Senlar nechun qopning og'zi ochiq o'lgani holin-da ostidan teshasanlar? Men shu savolga javob istab senlarni yo'qlagan edim.

Mushuk shunday debdi-yu, nodon sichqonlar uning nonushtasi bo'libdilar ekan...

Mana shu rivoyatni aytib doktor Xudoyor sovub qolgan qahvaga uzoq tikilib, jim qolgan edi.

Moskva milisaxonasining vaqtinchalik qamoqxonasida aka-uka o'sha xayrashuv onlarini, ustozini aytib bergan rivoyatni eslashdi.

— Sichqonlar nodon bo'lishsa ham «tavba qil!» de-yishga ulgurishibdi-ku, — dedi Abdulhamid akasining gapiga javoban.

— Sovuq nafas qilma, nima, bizni hozir shartta otib tashlasharmidi?

Abdulhamid «buni Xudo biladi», deganday qo'l siltadi.

Ularning hibsdagi soatlari adog'iga yetib, erkinlikka chiqishgach, to'g'ri uyga qaytish o'rniga mehmonxonaga borib qolganlaridan ajablanishdi. Jamshid xojasini muolaja qilib chiqqach, «Nega uyga ketmayapmiz?» deb uni so'roqqa tutishdi. Negaligini koshki Jamshid bilsa. Bir ko'ngli «Adanglardan o'zlaring so'ranglar», demoqchi bo'ldi. Biroq, gapni chuvalashtirmaslik uchun «Bek akamning bu yerda qiladigan ishlari bor ekan, ertaga qaytadigan bo'ldik», deb ularni tinchitdi. Ertaga qaytar-qaytmasligini o'zi ham aniq bilmasa-da, shunday dedi. Agar ertaga ham Moskvada qolsalar «Bek akamning ishlari bitmabdi», degan bahonani aytishdan osoni yo'q.

Asadbekning badanidan issiq o'tib uxlagan damda aka-uka uyga telefon qilib onalarining bezovta yuragini tinchlantirdilar.

Jamshid esa yotoqning eshigi yoniga stul qo'yib o'tirib, oyoqlarini uzatib chalishtirdi-da, boshini beton devorga yopishtirilgan gulli qog'ozga tirab mizg'idi.

### 3

Asadbek odatiga ko'ra orqa o'rindiqqa o'tirmoqchi bo'lib mashina eshigini ochgan edi, Mamatbey to'xtatdi:

— Bek gardashim, yanima o'ltur, suhbatlashib ketajakmiz, — dedi kulimsirab.

Asadbek uning gapiga e'tibor bermay orqaga o'tirib, eshikni yopdi-da:

— Orqadagi xatar yomon-da, a? — dedi.

— Xatar deding? — Mashinani o't oldirgan Mamatbey kulimsirab bosh chayqadi. — Sendan xatar kutmaklik men uchun cho'x nodonliktur.

— Mamatbey, qardosh, xatar deganlari sen bilan menga o'z soyamizdan ham yaqin. Kimdan qanday mukofot olishingni bilmaysan.

— Cho'x go'zal falsafa so'ylading, gardash. Xatar ham, o'lim ham bizlarga hamroh o'lur. «O'lim-ku, bizlarga bilan birga tug'ilgan. Xatarni esa o'zimiz arzon-garovga sotib olganmiz», deb o'yladi Asadbek. Mamatbey esa «Gapim unga yoqdi», degan xayolga borib, ro'parasidagi ko'zgu orqali Asadbekka bir qarab oldi.

Bo'ron tingan bo'lsa-da, osmon Asadbekning ko'ngli kabi tund edi. Baland-baland issiqlik minoralaridan sizib chiqayotgan bug' og'ir bulutlar qatlamini yorib o'tishga ojizlik qilib, ko'p qavatli imoratlar tomlari uzra yengil suzadi. Yaxmalakka qarshi sepilgan tuz kuchini ko'rsatgan, serqatnov ko'cha yuzini qoplagan qor qop-qora atalaga o'xshab ketgan edi. Oldindagi mashinalarning orqa g'ildiraklaridan otilgan bu atala-balchiq ba'zan peshoynaga zarb bilan urilib, qora parda hosil qilardi.

«Hayot ham shu atalaga o`xshab qoldi, — deb o`yladi Asadbek, — Ba`zan ko`zingga sachrab ko`r qilay deydi».

Hamrohining jimib qolgani Mamatbeyga yoqmadi. U xo`jayinidan «yo`l-yo`lakay gaplashib, kayfiyatini bil. Dardini ichiga yutsa ham, uzoq chidolmasa kerak», degan topshiriq olgan edi.

— Ay gardash, xayollaring quvibla tashla. Kishi kishi ila so`ylashmagidan ulug` o`lan cho`x go`zal narsa yo`qtur.

— Gapingning mag`zini chaqib ketyapman, — dedi Asadbek kulimsirab. — Menga qara, sen o`zing o`limdan qo`rqasanmi?

Mamatbey yo`ldan ko`z uzmagan tarzda bosh chayqab:

— Yo`q — dedi. So`ng ta`kidladi: — Qo`rqmayman.

— Sen shunday deb o`zingni aldayver. Boshqalarni laqillatma. O`limdan qo`rqmaydigan odam bo`lmaydi.

— Men qo`rqmayman. Men jo`jiqlarimning yetim qolishidan qo`rqaman, gardash.

— Ali xo`ja, Xo`ja Ali, — dedi Asadbek.

Mamatbey buning ma`nisiga tushunmay orqasiga tezgina o`girilib, Asadbekka qarab oldi:

— Anglamadim, na deding?

— Har ikkovi ham bir demoqchiman.

— O`zing-chi? Qo`rqmaysanmi?

— Hamma qo`rqadi...

Asadbek inson zoti borki, barchaning o`limdan qo`rqishiga amin bo`lsa-da, «men ham...» deb tan olishni istamadi.

Abdurahmon tabibning uyida shifo umidida yashagan kunlarning birida xuddi hozirgiday o`lim haqida so`z ketgan edi. O`shanda tabib aytgan fikr Asadbekka ma`qul kelib, yodiga muhrlagan edi. Alhol o`sha gaplarni esladi: «Inson o`lim haqida dastlabki taassurotga ega bo`lgan ondan boshlab o`ziga oson o`lim izlaydi. U go`yo hayot kechirayotganday bo`ladi. Ba`zan go`yo baxtsizlik sahrosida azob chekadi. Banda bilmaydiki, baxtli kunida ham, baxtsiz qora kunida ham u asli bir yumush bilan mashg`ul — o`limini quvib borayotgan bo`ladi. Marraga qachon, qay tarzda yetadi — yolg`iz Ollohga ma`lum. Har holda sira kutilmagan, istalmagan onda yetadi bu manzilga...»

Tabibnikidan uyga qaytganida bu aqlli gapni Chuvrindiga ayta turib:

— Ana shunaqa, o`limni quva-quva yetolmay qaytib keldim shekilli. Menga chap berdi o`lim, — degan edi. Chuvrindi esa:

— Chap bergani rost bo`lsin, — deb boshini quyi egib nimalarnidir o`ylagandi. O`shanda Asadbek bu holatga uncha e`tibor bermovdi. Hozir qorong`i uyda birdan chiroq yoqilib, xonadagi barcha ashyolar aniq-tiniq ko`ringani kabi o`sha manzara ko`z oldida gavdalandi. «O`shanda o`limni o`ylabmidi? Marrasiga yaqinlashganini ko`ngli sezibmidi?..» Ularning bu suhbatlari tabiatning o`lim faslida — quzda bo`lgan edi.

Tug`ilish fasli — bahor arafasida Chuvrindi marrasiga yetdi. Osonlik bilan yetdi. Asadbek kabi quvib-quvib charchamadi.

«Chuvrindini Kesakpolvon o`ldirtirgan», degan gumon bilan yashayotgan Asadbek o`lim sirtmog`ining bir uchi bu tomonlarda ekanini o`ylab ko`rmagan edi. Hozir gumonlar tog`ining cho`qqilari ana shu haqiqat chaqmog`i nuridan yorishganday bo`ldi. «Haydar o`zicha jur`at etolmagan bo`lardi», degan fikr bu haqiqatga quvvat berdi. «Mahmud Shomil bilan kelganda qanaqa gaplar bo`lib o`tgan? Shomilning kallasi olinganini mendan yashirgan edi. Yana qanaqa gaplarni yashirgan? Xongireyga nimasi yoqmay qolgan? Xongireyning maqsadi mening qanotimni qirqishmidi? Yo «Sen Hosilni o`ldirding, men o`zingni emas, eng yaqin odamingni...» demoqchimi? Endi Haydar bilan topishdimi? Bo`lishi mumkin, ikki o`g`ri bir-birining tilini tez tushunadi...»

O'g'illarining tashvishi chiqib qolmaganida shu kunlar ichiyuq Asadbek Kesakpolvonni siquvga ola boshlamoqchi edi. Hozir «buyruq bu yoqdan bo'lgan», degan to'xtamga kelgach, «tegmay turganim yaxshi bo'lgan ekan», deb qo'ydi.

Mamatbey ro'parasidagi ko'zgu orqali Asadbekka ikki-uch qarab oldi. Hamrohining xayollarini qandaydir gumonlar iskanjaga olayotganini sezdi. Uning xo'jayiniga «qandaydir» emas, aniq gap kerak. Asadbek ham nodon emaski, bir-ikki gapga laqillab ichidagilarni dasturxon qilib yoysa. Mamatbey buni ham biladi. Bilsa-da, «chiqmagan jondan umid», deganlaridek, biron gapni gullab qo'yarmikin, deb umid qiladi.

— Ay gardash, erta qarimakdan saqlan, ko'p o'ylanma. Nalarni o'ylamakdasan, yana o'limmi? Qo'y o'limni. O'lim lablarindan o'pich olmog'imiz cho'x uzoqdir. Allax seni-da, bizni-da rohat ila yashasin, deb yaratmish ekan, men rohata to'yganim yo'qtur. Sen-da to'ymagansan. O'ynamak va kulmak, kulmak va o'ynamak kerak! Gula-gula yasha, gardash! — Mamatbey shunday deb kuldi-da, orqasiga o'girilib qarab oldi.

Asadbek qarashidagi jiddilikni o'zgartirmagach, kulgisining umri qisqa bo'ldi. Asadbek «Abdurahmon tabibning gaplarini aytib bersammikin», deb o'yladi. Ammo «bu paytavafahm tushunarmidi», degan mulohazada gapdan tiyildi. Asadbek «men kimmanu u kim? U bir laycha bo'lsa...» degan fikrda suhbatlashishni istamadi. Mamatbey mashinaning old o'rindig'iga taklif qilganidayoq «bir laycha-yu, o'zini xonday tutadi-ya!» deb g'ijingan, o'zining kimligini ta'kidlab qo'ymoq maqsadida ortga o'tirgan edi. Yo'l-yo'lakay suhbatga chorlashga intilayotganidan maqsad ne ekanin ham bildi. Bu ham tilining tiyilishiga sabab bo'ldi. Lekin indamay ketishni ham ma'qul ko'rmadi. Bularni sergaklantirib, o'zgacha o'yga boshlab qo'yishi mumkin bo'lgani sababli mashina «Dinamo» stadioni yonidan o'tayotganida:

— Qayoqqa ketyapmiz? Hali uzoqmi? — deb so'radi.

— Rohatsiz o'lma, az qoldi. «Sokol» metrosindan chap tamon o'tajakmiz, unda gardashimiz cho'x go'zal bir restoran yapmish. Nomi-da cho'x go'zaldir: «Lebedinaya pesnya»!

Asadbek bu nomni, unga berilgan ta'rifni eshitib ajablendi. «Gapining ma'nosini biladimi?» degan fikrda so'radi:

— Nomini nima deding?

— «Lebedinaya pesnya», ya'nikim, «Aqqush qo'shig'i»! Cho'x go'zal, a?

— Ha, go'zal, — Asadbek shunday deb hamrohining ko'nglini ko'tarib qo'ydi. O'zining ko'ngli esa yana xufton qorong'uligiga yuz burdi. Chunki u «oqqush qo'shig'i»ning asl ma'nosini bilardi: aytadilarkim, oqqush o'limi yaqinlashganini payqab, balandlarga parvoz etarkanda hayotidagi so'nggi qo'shig'ini kuylarkan...

«Oqqush qo'shig'i» — demak, o'lim darakchisi. Shub-hasizki, Mamatbey maqtovini keltirgan «gardash» Xongireyning odami. Restoran ham uniki. Oqqush qo'shig'ining ma'nosini bilib, tushunib qo'yganlarmi yo bu bir tasodifmi? Yo bu yer Xongirey hukmi ado etiladigan maskanmi? Bu restoranga mehmon bo'lib kirib, murda bo'lib chiqilmaydimi?

#### 4

Elliginchi yillarda qurilgan mahobatli imoratning yerto'lasi qayta jihozlanib restoranga aylantirilgan edi. Uquvsiz rassom qo'li bilan chizilgan oqqush rasmi va «Ristoran «Lebedinaya pesnya» degan yozuv bo'lmasa bu yerning oddiy yerto'lalardan farqi yo'q edi. Tashqi tomoniga zeb berilmaganidan bu restoran maxsus odamlar uchungina xizmat qilishini, ortiqcha shov-shuvga muhtoj emasligini bilsa bo'ladi. Zinadan pastga tushayotgan Asadbek «Hamma hashami ichidadir», deb o'ylab

yanglishmadi. Tungi maishatlarga mo'ljallangan xos xonalar did bilan bezatilgan edi. Kunduz kuni bo'lgani uchunmi yo Xongirey «Hech kim qo'yilmasin», deb amr etganmi, har holda xizmatchi yigitlardan tashqari hech kim ko'rinmadi. Xos xonalardan ham tovush chiqmadi.

Asadbek telpagini yechib xizmatchi yigitga uzatayotgan damda Mamatbey unga qaradiyu, oqarib ketgan sochlarini ko'rib taajjublandi. «Qachon bunchalik oqardi? Yo bo'yatib yurarmidi?» degan savoliga javob topishga harakat ham qilmay, Asadbekni kattaroq ziyofatlarga mo'ljallangan kengroq xonaga boshlab kirdi.

Yigirma besh kishiga mo'ljallangan stol usti oliyshon makondagi kabi noz-ne'matlar bilan to'ldirilgan edi. Eti ustixoniga yopishgan, kal boshi chiroq nurida yaltillab turgan, ko'zlari ma'nosiz ravishda chaqchaygan odam dasturxon to'rini egallagan edi. Xongirey esa uning muqobilida daxanini mushtumiga tiraganicha tikilib o'tirardi. Mamatbey kirib salom bergach, Xongirey orqasiga o'girildi. Asadbekni ko'rib avvaliga ajablandi.

Mamatbeyning xayolini yoritgan savol unga-da nasib etdi. Uning ajablanganini Asadbek sezdi. «Hali ham tirikmisan?» deb hayron bo'lyapti shekilli?» degan fikrga kelib, «Sen uchun afsuslar bo'lsinkim, Xudoga shukr tirikman», ma'nosida jilmayib qo'ydi.

Asadbekning chehrasini silab o'tgan jilmayish Xongireyga ta'sir qildi. Tund yuzi yorishdi. O'rnidan turdi. Uzoq vaqt ko'rishmay sog'ingan qadrdon kabi quchoqladi. Sharqliklarga xos odob bilan avval o'ng, so'ng chap betini betiga qo'ydi.

Uning bu tarzda ko'rishishidan taajjublangan Asadbek «Bu bola o'g'ri emas, artist bo'lishi kerak edi», deb o'yladi.

Xongirey quchog'idan bo'shagan ondan boshlab Asadbek uning ko'zlariga tikildi: biron ma'no uqmadi. Asadbek uning qarashida oshkorami yoki yashirinmi «O'g'illaringni qo'lga tushirib bopladimmi? Men bilan o'chakishadigan senmisan hali?!» degan ma'no bo'lishi kerak, degan fikrda edi. Xongireyning qarashida ham, harakatlarida ham bu fikrni isbot etishga arzigulik holat ko'rinmadi.

Ular ko'rishayotgan onda to'rdagi odam tili g'o'diragan ravishda:

— Aftandil! — deb chaqirdi.

Xongirey o'girilib o'z tilida bir nima dedi. Chaqchaygan ko'zlari yumilay deb turgan kal ham nimadir degach, Xongirey Asadbekning bilagini ushlab o'tirishga joy ko'rsatdi.

— Bu mening otam, — dedi Xongirey. — Sen bilan ichishni xohlayapti. Sen undan irganma. Uning turgan-bitgani shu. Men uni shu holicha ham yaxshi ko'raman. Chunki u mening otam. Kutaisiga borgan edim, qaytishda ovulga kirsam otam yotib qolibdi. Jigar qurib bitganmish. Do'xtirlar «yaqinda o'ladi», deyishibdi. Onam ham qiziq ayol. «Kasal ekan, o'lar ekan», deb aroq bermay qo'yibdi. Bir yoqdan kasallik azobi, bir yoqdan xumor azobi otamni yeb tashlabdi. Holiga qaragin... Chindan ham uning yelkasida Azroil o'tiribdi. U umr bo'yi ichdi. Onamdan yashirib ham ichdi, urishib ham ichdi, yalinib ham ichdi. Endi o'ladigan paytda qiynashning nima keragi bor? To'g'rimi? Ichsin, to'yib-to'yib ichsin, armonsiz ketsin.

Xizmatchi yigit kirib bo'g'zi oq sochiq bilan o'ralgan shishadagi aroqni qadahlarga quydi.

— Ota, bu Asadbek, mening izzatli mehmonim, — dedi Xongirey ruschalab. —

Mehmonim salomat bo'lsin. Ichamiz! — Xongirey shunday deb aroqdan xo'plab qo'ydi.

— Otangning sog'ligi uchun! — Asadbek ham oxirigacha ichmadi.

— Tilaging uchun rahmat, — dedi Xongirey. — Lekin u endi sog'aymaydi.

Otasi titroq qo'llari bilan changallagan katta qadahni labiga yaqinlashtirib, aftini bujmaytirdi. Ko'ngli ichishni istamasdi, vujud aroqqa to'ygan edi, ammo nafs hamon och edi. To'ymog'i ham mumkin emas, chunki imoni ojiz kishilarning och nafi faqat lahad tuprog'i bilan qanoat topadi. Xongireyning otasidagi ko'ngil bilan nafs olishuvi aroqni xo'rillatib ichish bilan yakunlandi. Asadbek choy, sho'rva xo'rillatib ichilganini ko'rgan,

biroq bunaqasiga endi duch kelishi edi. Xo'rillatish ham holva ekan, aroq ichib bo'lingach, tamaddi qilish o'rniga yon tomonga qarab tupurildi. Eshik ortida shay turgan xizmatchi yigit kirib uning og'iz-burnini oq sochiq bilan artib qo'ydi. Yigit iziga qaytishga ulgurmay burun obdon tortilib so'ng yana tupurildi.

— Unga e'tibor berma, — dedi Xongirey. So'ng avvalgi gapini takrorladi: — Uni shundayligicha ham yaxshi ko'raman. U — mening otam!

Asadbek Xongireyning maqsadini anglamadi. Otasiga ichirmoqchi ekan uyidami yo shu restoranning boshqa xonasidami ichiravermaydimi? Bu irkit tamoshaning nima keragi bor ekan?

— Kecha bu paytda ovulda edim. Onam bilan ancha tortishdim. «Otangni olib ketma, musofirlikda o'lmasin», deydi. Moskvaga bugun ertalab keldim. Hozir joni chiqsa, ovulga hoziroq qaytaman. Bu yerga ko'mmayman. Chechen o'z tuprog'ida yotishi kerak.

Akademikni bilarding, a?

— Zelixonmi?

— Ha, Zelixan! U mening ustozim edi. Tog'da mashinasi halokatga uchrabdi. O'ligini oldirib, ovuliga ko'mdirdim. Qo'limdan kelgani shu bo'ldi. — Xongirey shunday deb xo'rsindi-da, bir oz sukut saqladi. Ke-yin: — Kutaisiga borib keldim, — deb Asadbekka savol nazari bilan qaradi: — Nega bording, deb so'ramaysanmi?

— Nima uchun borganingni aytging kelsa men so'ramasam ham aytarsan, — dedi Asadbek xotirjam tarzda.

— Sulikoni ko'mishga bordim. Tanirding-a?

Xongirey Asadbek bilan Sulikoning qadrdonligini yaxshi bilsa-da «Tanirding-a?» deb atayin ta'kidlab so'radi. Xongirey Kutaisidagi dafn marosimiga Asadbek ham yetib kelar, deb o'ylagan edi. U yerda uchratmagach, «nima uchun kelmadi ekan?» deb ko'p o'yladi. Sulikoning vafotidan Asadbekning bexabar ekanini u bilmasdi.

Asadbek uchun Xongireyning xabari kutilmagan zarba bo'ldi. Kecha o'g'illarining tashvishi bilan Sulikoning uyiga sim qoqqan, javob bo'lmagani uchun «biron yoqqa ketgandir», deb gumon qilgan, «birov o'ldirib ketgandir» degan fikr esa xayoliga ham kelmagan edi. Sulikodan darak bo'lmagach, ukasi Ilikoga telefon qilib «Boss Kutaisiga ketgan» degan javobni eshitgan edi. Ilikoning yordamchisi Asadbekni yaxshi tanisa ham fojiani nima uchundir aytmagan edi. «Kutaisiga biron ish bilan ketgandir» deb o'ylagan Asadbek unga Manzura bilan kelinlarini zudlik bilan Moskvadan jo'natib yuborishga yordam zarurligini aytgan edi.

Asadbek kuchli mushtdan zarba yegan odam kabi bir zum karaxt o'tirdi-da:

— Suliko? Datunashvilimi? — deb so'radi.

— Ha, o'sha, eski qimorboz oshnang, — Xongirey shunday deb suyanchiqqa yastandi. — Sen bilan telefonda qachon gaplashdim? Ha, shuning yo ertasiga yo indiniga uyiga kirib chopib tashlashibdi. Undan avval omadi kelib katta pul yutgan ekan. Negadir pulga tegishmabdi. Ilikoni bilasan-a, ha, ukasi. Uning mendan gumoni bormish. Bu bilasanmi, kimlarning ishi? Slavyanlarning ishi. Kavkazliklarni bir-biriga qay-rashyapti.

Po'stakkalla Iliko esa buni tushunmayapti. Slavyanlarning mendan alami bor. Bir-ikkitasining pachag'ini chiqarib tashlagan edim. Shulardan biri — sening Kozloving. Iliko ham Kozlovning yonini olgan edi. Nega Kozlovni himoya qildi, bilmaysanmi?

Asadbek savoldan kelib chiquvchi maqsadni anglab, istehzo bilan jimaydi:

— Bilmayman, azizim. Meni o'rtaga tushgan deb yuruvdingmi? Mening dallollik qiladigan odatim yo'qligini bilmasmiding? Men Suliko bilan oshna edim. Ukasi menga nisbatan senga yaqin. O'zini ko'rmaganimga ham bir yildan oshdiyov.

— Bunisi menga ma'lum, — Xongirey shunday deb chuqur nafas oldi-da, ko'zlarini lo'q qilib Asadbekka tikildi. Asadbek undan nigohini olib qochmadi. Ularning bu o'tirishlari

bolalarning «ko'z urishtirish» o'yinini eslatardi.

To'kin dasturxonning bir tomonida Xongirey, ikkinchi tomonida esa Asadbek — ikkovi o'ziga xos ikki mulkning egasi. O'zini aqlli deb hisoblovchi bu ikki nodon bilmaydiki, ulardan-da avval, ulardan-da zo'rroq sohibi mulklar o'tganlar. Lekin osmon barchasini o'z gardishiga olib, kulga aylantirgan.

Oldinroqmi keyinroqmi lahad tuprog'i bilan to'luvchi bu ko'zlar hozir bir-biriga tikilganicha bir-biriga kafan bichadi:

— Senga jahannam gullari nasib bo'lsin, — deydi Asadbekning ko'zlari.

— Mahmud ukangning o'limini unutm, bitta o'lik siqqan go'rga ikkitasi ham sig'adi, — deydi Xongireyning ko'zlari.

Xongireyning Iliko haqidagi gaplaridan Asadbek bu mehmondorchilikdan maqsadni fahmlaganday bo'ldi. Moskvaga bugun ertalab kelganini qayta-qayta aytishidan maqsadi — «o'g'illaringning mashmashasiga mening aloqam yo'q, men Moskvada yo'q edim» demoqchi. Bunaqa ishni amalga oshirish uchun Moskvada bo'lishi shart emas. Telefon degan beminnat dastyor bor ekan, dunyoning narigi chetida turib bu chetini ostin-ustun qilib yuborish hech gap emas. Xongireyning tagdor gaplari — kichkina bolaning go'llik bilan topgan bahonasi.

Xongireyning asosiy maqsadi boshqa: Asadbekka hujumi hal qiluvchi pallaga kirganda vaziyat o'zgarib qoldi — Iliko unga yovlashganday bo'lib turibdi. U yoqda Mahmudning fojiasi, keyinroq esa Sulikoning o'limi bir-biriga aloqador bo'lmasa-da, Iliko bularni zanjirning ikki halqasi deb bilishi mumkin.

Ilikoda gumon uyg'onganini u Kutaisidan qaytgach bildi. Iliko chindan yovlashdimi yo bu shunchaki xom gapmi, Xongirey hali tagiga yetganicha yo'q. Shunday bo'lsa-da, ehtiyot chorasi shart, deb bildi.

Xongirey Iliko bilan yakkama-yakka tashlashishdan qo'rqmaydi. Ko'nglidagi umidlardan biri — vaqti kelganda Ilikoni ham yanchib tashlash. Ilikoni yanchish degan gap mutlaq hokimlikka bir qadam qoldi, demakdir. Lekin u farahbaxsh kunlarga hali fursat bor. Uni hozir cho'chitib turgani — agar Iliko hamla qilsa yoniga boshqalar qo'shiladi.

Xongireyning Shaxovskiydagi qarorgohida ziyofatini yeb, unga oq fotiha berganlar ham bu vaziyatda Iliko tomonga o'tib olishlari mumkin.

Asadbek Xongireyning xavotirini ilg'aganday bo'ldi. U Iliko bilan juda yaqin aloqada bo'lmasa-da, akasi Suliko bilan og'a-inilar kabi qadrdonligi bor edi. Xongirey buni yaxshi bilgani uchun ham Asadbekni yo'ldan olishda to'g'ridan to'g'ri o'zi hujum qilmay avval Hosilboyvachchadan, so'ng Chuvrindi bilan Kesakpolvonning o'zaro ziddiyatidan foydalanmoqchi bo'ldi. Sulikoning dafn marosimidan so'ng u to'g'ri Moskvaga qaytgan edi. Otasining og'ir xastaligini bilsa-da, Asadbekning o'g'illari kelayotgani uchun ovuliga o'tmadi. Otasini o'zi emas, yigitlaridan biri bugun tongda olib keldi. Onasi esa uning amri bilan «Xongirey kelib otasini olib ketdi», degan gap tarqatishi lozim edi.

— Iliko Moskvaga ertaga qaytadi. Xohlasang ta'ziyaga birga borishim mumkin, — dedi Xongirey oradagi sukutni buzib.

— Yaxshi bo'lardi, — dedi Asadbek undan ko'z olmay.

Xongirey aytmasa ham Asadbek bu yerdan chiqib Sulikoning uyiga borishni o'ylab turgan edi.

Asadbek yangi uylangan kezlari, hali qimorni tashlamagan paytlarda «Tambovda katta o'yin bo'ladi», degan xabarni eshitdi-yu, «O'sha katta o'yinini ham bir ko'ray», deb belni baquvvat qilib bordi. Suliko bilan o'sha yerda, qimor ustida tanishgan edi. Asadbekdan bir oz yoshroq bo'lgan Sulikoning kavkazliklarga xos qiziqqonligi bu o'yinda pand berib, kattaga tushdi. Tushganda ham Asadbekka tushdi. O'yin oxirlaganda hech vaqosi qolmagan Suliko dabdurustdan:



nabirasi o'g'riboshi, yana biri qimorboz edi. Donishmand ahli «Mol tekin kelsa dil berahm bo'ladi», deb bejiz aytishmagan. Tekin molga mahliyo bo'lib yashayotganlarida vaqti kelib o'zlari kabi yana bir berahm dilning qurboniga aylanishlarini o'ylashmaydi. Berahm dillar saltanati fuqarolarida mehr-muruvvat, yaxshilik-yomonlik tushunchalari yo'q demoqlik noo'rin. Ulardagi mavjud mehr ham, muruvvat ham o'z nafslarining amriga ko'ra belgilanadi. Ular bir odamga yaxshilik qilmoq uchun ikkinchisining jonini oladilaru buni muruvvat deb baholaydilar. Yaxshilik va yomonlikni boshqa-boshqa, bir-biridan ayri-ayri narsa deb fahmlaydilar. Yaxshilik va yomonlikni ikki emas, bir tushuncha, ya'nikim, yaxshilik yomonlik qilmaslikdir, deb anglamoqlik ne'mati ularga nasib etmagan.

Bir dasturxon atrofida o'tirib, gapi gapiga qovushmayotgan odamlarning biri ikkinchisiga qanday tuzoqlar qo'yyapti ekan? Ikkinchisi birinchisiga qanday choh qaziyapti ekan? Vallohi a'lamki, balki ayni shu damda shayton alayhila'na o'zining qilmishlaridan iftixor qilgan tarzda maqtanganicha bu ikki odamni ko'rsatib: «Ey o'n sakkiz ming olamni to'liq hikmati ila yaratgan Tangri! Sen ixlos va muhabbat bilan yaratgan Odamning bu bolalarini ko'rib qo'y. Bular aslo sening bandalaring emas endi. Ularni men band etganman. Bittagina bug'doy donasidan boshlagan vasvasalarim mevasini ko'ryapsanmi? Yer yuzidagi ularning adadini o'zim ham sanab sanog'iga yetolmayman. Hademay ko'rib turganing bu ikki insonning biri sening huzuringga jo'naydi. Bu dunyoda qilgan gunohlari ro'parasiga dasturxon qilib yoyilganida shubhasizki, meni eslaydi, mening nomimni tilga oladi. «Shayton yo'ldan urdi», deb meni ayblaydi. Ey, barcha narsalardan boxabar Tangri, o'zing guvohsan, men ularning qo'llaridan mahkam ushlab, zo'rlab yetaklaganim yo'q. Sen ularga ham aql va zehn bergan eding. Men faqat ularning aql ko'zlarini nafs pardasi bilan to'sib ko'r qila oldim, zulm dunyosini ularga chiroyli qilib ko'rsatdim xalos. Mening olamimga ular o'z oyoqlari bilan yurib kirib keldilar, yayrab yashadilar. Sening huzuringga bormoq va hisob bermoqqa majbur ekanliklarini unutdilar. Yaratmish Tangrini unutguvchilarga bu dunyoda qanday ajr bermoq — qanday o'limni ravo ko'rmoq o'zingga havoladir», deyayotgandir...

Haq taolo odamlarga insoniylik jomasini inoyat qilgan ekan, bu libos yirtilmas, iflos ham bo'lmas ekan. Afsus shuki, bu libos barchaga birday nasib etmas ekan. Kim berahm dillar olamiga tobe bo'libdi, bu libosdan mahrum etilibdi, umrini yalang'och holda yashab o'tibdi. Eski kiyimda bo'lgani bilan kishining odamgarchiligi yo'qolib qolmagani kabi ustidagi eng yaxshi libos ham kimsaning insoniylikdan uzoqligini yashira olmaydi. Daryoni ko'zaga qamash mumkin bo'lmaganidek, bu berahm dillardan toshib chiqayotgan zulm oqimini jilovlashning imkoni yo'q.

Aql va nafs bir-biriga ziddir. Aql rad etgan narsani nafs da'vo qiladi.

Ularning nafslari esa zulmga homiladordir...

Yomonlikni kasb qilib yaxshilik umid qiluvchilar qanchalar nodonlar. Ular Tangrining «Fa man ya'mal misqola zarratin xoyron yaroh, Va man ya'mal misqola zarratin sharron yaroh»\* degan amrini bilsalarmi edi... balki qorong'u fikrlariga yorug'lik mo'ralarmidi... Bir-biriga ro'para o'tirgan ikki odam bularni bilmaydi. Umrlari adog'iga qadar ham bilolmay o'tsalar ehtimol.

Xongirey Asadbekdan ko'z uzmagani holda:

— O'zing sog'misan, Bek? — deb so'radi.

— Sog'man, rahmat, — dedi Asadbek tetik ovozda.

— O'tgan safar ko'rganimda ranging past edi. Hozir yaxshisan, ko'rinib turibdi.

— Ha, rangim ba'zi odamlarga g'alati tuyulgan edi, — dedi Asadbek tagdor qilib. —

Ba'zilar «Asadbek o'ladigan bo'ldi», deb janozamni ham o'qib qo'yishibdi.

— O'lish uchun o'ladigan kasal bo'lish shart emas, — Xongirey shunday deb otasiga



qarab oldi: otasi stul suyanchig'iga yastanib, boshini bir yonga qiyshaytirganicha uxlab o'tirardi.

— Qizing tuzalib ketdimi? Hosil kasal, deganday bo'luvdi.

Bu gapni eshitgan Asadbekning beti uchdi. Bu o'zgarishni sezgan Xongireyning yuzini esa mamnunlik yeli silab o'tdi. «Ha, xunasa, buni ham yetkazgan ekan-da», deb o'yladi Asadbek. Sir boy bermaslikka intilib, javobni hayallatmadi:

— Qizim yaxshi, tuzalib ketdi.

— Oilang tinch bo'lsa, xursandman, Bek. Agar yo'q demasang, endi ishdan gaplashsak. Moskvaga nima uchun kelding?

— Pivo tsexi ochsammikan, devdim. Shuning harakatida yurganimda o'g'illarim chet eldan qaytadigan bo'lib qolishdi. Kutish bahonasida bu ishni ham pishirib olarman.

— O'g'illaring kelishdimi?

— Ha. Mehmonxonada turishibdi.

— Olib kelmabsan-da, mehmonim bo'lishardi.

— Shaharni sog'inishibdi.

— Pivo tsexiga tegishli ishlaringga yordam beraymi?

— Masala hal bo'lay deb turibdi. Ish pishmasa o'zingga aytarman.

— Bir-birimizga yordam berib turmasak bu dunyoda yashashimiz qiyin. Slavyanlar bizlarni yanchib tashlashadi. Bek, agar sen menga muhtoj bo'lmasang, menga sening yordaming kerak.

— Qo'limdan kelsa...

— Qo'lingdan keladi. Xohishing bo'lsa bas. Men juda katta ishni boshlab qo'yganman. Oxiriga yetkaza olsam bir vagon pul bo'ladi. Sen qora dori olib o'tishimda yordam berasan.

— Knyaz, adashma. Bu masalaga munosabatimni bilarsan, devdim.

— Bilaman. Endi munosabatingni o'zgartirishing kerak.

— Qo'limdan kelmaydi. Xohishim ham yo'q.

— Hosilning sherik bo'lish ahdi bor edi. Uni o'ldirding. Gapni aylantirma! O'ldirganingni aniq bilaman. Mayli, bitta odam o'lgani bilan dunyo g'ariblanib qolmaydi. Mahmudbey g'ilayni boshlab kelganida menga yoqdi. Sheriklik qilishga va'dasi bor edi. U ham o'ldi. Nega o'ldi, a? Aniqlamadingmi?

— Aniqlayman.

— Balki o'zing o'ldirgandirsan? Menga sherik bo'ladiganlar senga yoqmaydi-ku? Mayli, sen titrama. Mahmudbeyni sen o'ldirganmisan yo boshqami, menga farqi yo'q.

«Sheriklikka va'da berishi mumkinmas. Aksi bo'lgandir», deb o'yladi Asadbek. Ammo xayoliga kelgan fikrni tiliga ko'chirmadi.

— Bilasanmi, biz kimmiz? — Xongirey savoliga javob kutmay gapini davom ettirdi: — Biz g'izillab yurib ketayotgan mashinaning murvatlarimiz. Mashina yaxshi yurishi uchun eski murvatlarni almashtirib turish kerak.

«Demak, men eski murvatman. Almashtirasan. Yangi murvat kim? Haydarmi? Qani, gapiraverchi...»

— Sen qimorboz eding, Bek. Qimorda hadeb omad kelavermaydi, tushunyapsanmi?

— Tushunyapman. Hozir sening omading keldimi?

— Aniqroq aytaymi: sening omading ketdi. Shunga yarasha ish qil. Menga sherik bo'lmasang chetga chiqib tur. O'g'illaringning to'ylarini qilu nevaralaringni boqib o'tiraver. Endi yo'limda paydo bo'lib qolsang, ayash yo'q — yanchib tashlayveraman, — Xongirey shunday deb kafti bilan stolga urib qo'ydi.

Asadbek uning bu qilig'ini ko'rgach istehzo bilan kulib, bir nima demoqchi bo'ldi-yu, o'zining «men gap odami emas, ish odamiman», degan aqidasi sodiq qolib tilini tiydi.

Mo'min qiyofasini o'zgartirmadi. Biroq, aytmoqchi bo'lganini diliga tugdi: «Hali sen meni yanchmoqchimisan? Qani, bir urin-chi? Meni yanch-moqchi bo'lganlarning birinchisi sen emassan. Oxir-gisi ham emasdirsen har qalay. Meni pachoqlab o'tmoqchi bo'lganlarning qanchasi qoqildi, qanchasining oyoqlari sindi, bo'yni egildi. Yana qancha oyoqlar sinishga mahtal bo'lib turibdi. Sening bu chillak oyoqlaring ham shularning old qatorida. Sen befahmlarda andisha degan narsa yo'q. Shuning uchun bizlardagi andishani qo'rqqoqlik deb hisoblaysanlar. Men hozir sening ko'-zingga chorasiz qo'zichoq bo'lib ko'rinyapmanmi? Yaxshi. Lekin bilib qo'y: yo'lbars har qanaqasiga yo'lbarsdir, u hech qachon qo'y bo'lolmaydi!»

«Oqqush qo'shig'i» restoranidagi suhbatda ko'p gaplar aytilmadi. Zulm bulog'idan bahra olguvchi maqsadlar go'yo sirlar pardasiga o'ralgan edi. Go'yo deyilishiga sabab: ohanraboning ikki qutbi kabi bo'lmish bu ikki odam bir-birining niyatini yaxshi anglab turardi. «Bolta tushgunicha kunda dam oladi», deganlaridek, hozircha o'zlarini bir-birlarining qora niyatlaridan bexabar qilib ko'rsatadilar. Ularning har biri o'zini bolta, xarifini esa kundaga qo'yilguvchi bosh deb hisoblashadi.

«Oqqush qo'shig'i» restoranidagi ikki odamning qaysi biri bu kun so'nggi qo'shig'ini ayta boshladi — yolg'iz Yaratganga ma'lum.

---

\* Mazmuni budir: Kim bu dunyoda zarra misqol og'irligida yaxshilik qilsa ham (mukofotini) ko'radi. Va kimki bu dunyoda zarra misqol og'irligida yomonlik qilsa ham (jazosini) ko'radi.

«Zalzala» surasi, 7—8 oyatlar.

## VII b o b

### I

Qaysi bir kuni Jalil Kesakpolvonning qiliqlaridan g'ashi kelib, Asadbekdan:

— Dunyoda uchta narsa yo'q, bilasanmi? — deb so'ragan edi. Asadbek bolalik yillaridan esdalik bo'lmish bu topishmoqni eshitib kulimsiragan, javobni bilsa ham «hozir boshqa gap topadi», degan xayolda indamay qo'ya qolib yanglishmagan edi.

— Hovuzning qopqog'i, osmonning ustuni yo'q, a?— degan edi Jalil. So'ng: — Uchinchisi-chi? Bilmaysanmi? — deb javob talab qilganda Asadbek:

— Uchinchisi — oshpichoqning qini yo'q, — deb osongina qutilmoqchi bo'lib, bu safar adashdi.

Ushlagan joyni kesuvchi Jalil unga sinchiklab tikilgani holda:

— Rostdan bilmaysanmi? Xo'p, osmonga ustun, hovuzga qopqoq qilib bo'lmaydi. Lekin oshpichog'ingga qin qilish qiyinmas. Uchinchisini bilmasang bilib ol: og'ayning Haydar pakanada vijdon yo'q! Bu haromi oshnang dunyoda vijdon nima ekanini bilmay o'tar, — degan edi.

Jalil vijdon tushunchasini o'z aqli qamrovi bilan o'lchar edi. Bu sohada Asadbekning, ayniqsa Kesakpolvonning o'lchovlari ayri-ayri edi. Hatto Jalilga vijdonsizlik bo'lib tuyulgan narsa ular uchun vijdonning yuqori martabasidagi ko'rinish hisoblanardi. Bir tuproq ustida istiqomat qilib, bir havodan nafas olib, bir suvdan ichib kun ko'rganlari holda boshqa-boshqa olamda yashovchi bu odamlarning vijdonga oid o'lchov va tushunchalari bir xil bo'lishi mumkin ham emas.

Chuvrindining o'limida Kesakpolvon gumonsirilayotganidan Jalil bexabar edi. Bilganda

«bu gumon emas, haqiqat! Bu qabihlik faqat uning qoʻlidan keladi», deyishi muqarrar edi.

Asadbek, otasi qamalib, «xalq dushmanining bolasi»ga aylangach, bir yil sinfda qolib, oqibatda «detdom bolasi» hisoblanmish Haydar bilan birga oʻqigan edi. Boʻlajak Kesakpolvonni u paytda hamma «Haydar pakana» deb atardi. Pero oʻgʻirlash voqeasidan soʻng Haydar pakana Asadbekdan uzoqlashmadi. «Detdom bolasi» degan vahimali nomi, yonida buklama pichoqcha olib yurishi ustiga Asadbekning himoyasiga oʻtib olgani unga qalqon vazifasini oʻtagan edi. Bolalar undan zulm koʻrishsa-da, javob qaytarishga botinmay turishardi. Bu masalada faqat Jalil tap tortmasdi. Haydar pakana unga yomonlik qilmasa ham, kunda boʻlmasa-da, kun orami, ishqilib Jalilning tepkisini yeb turardi. Bir kuni Asadbek Haydar pakananing nolalarini inobatga olib, Jalil oʻrtogʻiga: — Nega bekordan bekorga tepaverasan, senga yomonlik qilgani yoʻq-ku? — deb tanbeh bergan edi. Shunda Jalil:

— Shu pakana oshnangning turqi sovuq, basharasini koʻrsam, oyogʻim qichib «Tep!» deb turaveradi. Shu pakanang aslida tepish uchun yaralgan. Yomonlik qilmasa ham tepaveraman, sen aralashma. Yomonlik qilsa, aytib qoʻy, shartta oʻldirib qoʻya qolaman, — degan edi.

Maktabni bitirishganda «endi qorasi oʻchar», deb oʻylovdi, yanglishdi — qorasi oʻchmadi. Keyinroq kissavurlik qilib qamalanganida «endi chiqqan joyiga kirib ketdi, qorasi oʻchishi aniq», deb oʻylab yana adashdi. Haydar pakana deganlari qamoqda oʻziga mos hamtovoq topolmaganmi, yana Asadbek atrofida xira pashshadek oʻralashaverdi.

Asadbek uylanganidan soʻng Jalil kuyovjoʻralik martabasidan foydalanib «bu gʻar koʻz oshnang endi ostonangni hatlamasin», deb shart qoʻydi. Asadbek «xoʻp» dediyu ahdig vafo qilmadi. Haydar pakana shu oilaning yaqin kishisiday kirib-chiqib yuraverdi. Asadbek Tambovdagi oʻyinga ketar mahali Jalilga «keliningdan xabardor boʻlib tur», deb tayinlagan edi. Oshnasi ketgan ondan boshlab Jalil xotini Manzuraning yoniga chiqardi. Ertasi kuni noringa xamir qorish uchun chiqqan xotini darrovgina qaytdi. «Ha, norin qormaydigan boʻldilaringmi?» deb soʻradi Jalil xotinidan. «Mullakamning anov oshnalari kelib qoldi», dedi xotini. Xotini bir marta «Haydar aka», deb uning nomini tilga olganda Jalil «Bu haromi qachondan beri senga «aka» boʻlib qoldi», deb soʻkib bergan edi. Shu bois «mullakamning anov oshnalari» deganda Jalil kim nazarda tutilganini darrov fahmladi-da «Ovsiningni yolgʻiz tashlab chiqaverdingmi, ahmoq!» deb soʻkib, oʻrnidan turdi.

Jalil hovliga kirganida Haydar pakana uy ostonasida toʻgʻon boʻlib turib olgan, Manzura esa ichkarida sayyod toʻrida ilojsiz qolgan gʻazzola kabi jonsarak koʻzlari bilan najot izlardi. Jalil yugurib keldiyu he yoʻq, be yoʻq Haydar pakananing yumshoq yeriga tepib qoldi. Pakana oʻgʻirilishga ham ulgurmasdi — ichkariga qarab munkidi. Jalil esa uning ensa sochlaridan mahkam changallaganicha turgʻizib, hovli tomon tortdi-da yana bir-ikki tepib koʻchaga chiqarib tashladi. Ovoz chiqarib soʻkmadi, Haydar pakana ham «nega tepasan!» deb dagʻdagʻa qilmadi. Manzura xuddi gunoh ustida qoʻlga tushganday, isnod oʻtida yonib ichkari kirib ketdi.

Jalil Haydar pakananing uzoqlashishini kutib turdi-da, soʻng hovliga qaytib, huddi hech qanday voqea yuz bermaganday:

— Manzura, tezroq boʻllaring, qorin tatalab nogʻora chalib yubordi! — dedi. Bu gapni mehribon aka ovozida aytdi. Uning nazarida bu ohang Manzuraga dalda berishi lozim edi. Ammo ichkarida titrab turgan juvonga har bir soʻzi toʻqmoq kabi zarba berganini bilmadi.

Asadbek qaytgach, Jalil aytadiganlari Manzuraga jabr boʻlishini anglab, mashmashani maʼlum qilmadi. «Ursa xotini bir-ikki urardi, ammo bu pakanani yoʻqotardi», deb bu

ishi uchun o'zini keyinroq koyidi.

Eski hovliga qadam bosishdan oldin Jalilnikiga xavotir bilan qaraydigan bo'lib qolgan Haydar pakana Asadbek yangi uyga ko'chgach, bu havotirdan qutuldi. Jalil ham o'rtog'ini nazorat qilishdan tiyildi.

Jalil Kesakpolvonning barcha qiliqlarini bilganida oshnasiga jumboqli savol aytib, vijdon haqida gapirib o'tirmasdi. O'shanda Asadbek «ikki gapingning birida «oshnang odam emas», deysanu vijdondan masala so'qiysan. Agar odam bo'lmasa, unda vijdon nima qiladi?» demoqchi bo'ldiyu «arining uyasini kavlamay qo'ya qolay» deb fikrini tilga ko'chirishdan tiyildi.

Chuvrindining o'limidan so'ng Asadbek hasrat dasturxonini yoyib gumonini aytsami, Jalil eski paxtani chuvigan misol barcha tanbehu dashnomlarini bir-bir eslatib «ana endi esing kirganga o'xshaydi. Lekin kechikib kirgan esning foydasi bo'larmikin? Shu pakanangning razilligini bilishing uchun yaqin odaming-ning o'limini kutishing shartmidi? Ilgariroq esing kirganda shu bola uvol ketmasdi-ya...» degan bo'lardi.

Kesakpolvon Jalilda mavjud nafratni bilardi. Jalil tepmay qo'ygan bo'lsa ham undan tepkidan zo'rroq, tepkidan yomonroq bir narsani kutib yurardi. Ayniqsa ikki oshna xoli qolib gaplashguday bo'lishsa, bu tomonda Kesakpolvonning quloqlari ding turardi. Qabristonda Asadbek g'azabga to'lgan ko'zini qadab «Yo'qol!» deganida bir oz chekindiyu, Jalil yaqinlashib nimalardir deganida xavotirga tushdi. Ikki oshna qabristondan birga chiqib, birga ketib, so'ng mayit chiqarilgan xonadonga qaytib borishmagach, bu xavotir yanada oshdi. Ana o'shanda «sal oshirvoribman, hozircha o'ldirmay boshqa chorasini qilib tursam bo'larkan», deb afsuslandi.

Kesakpolvonda «shu ishni to'g'ri qildimmi?» deb taroziga solib fikrlash odati yo'q edi. Chuvrindining o'limidan so'ng bu odatini kanda qilib o'ylab ko'rdi. «Boshqa chora»ning qanday bo'lishi mumkinligini ko'p o'yladi. Noiloj aqli oxir-oqibat «o'limdan boshqa chorasi yo'q edi», degan xulosada to'xtab, unga tasalli berdi. Vijdon azobi nima ekanini bilmaydigan uning ruhi bu safar ham bezovta bo'lmadi.

## 2

Asadbekni kuzatgan Kesakpolvonda o'zi ham tushunmagan bir his uyg'ondi. Oshnasining taxtini tezroq egallash umidida yashayotgan bu odamdagi tushunuksiz hisni armon demoq-da mushkul, hamdardlik demoq-da noo'rin. Balki muvaqqat tarzdagi achinish demoq joizdir? Ha, voqean shunday. Kesakpolvonning nazarida Asadbek o'g'illarini olib kelish uchun emas, Moskvada o'zi uchun yasab qo'yilgan temir tobutga tushib qaytish maqsadida ketayotganday edi. Bolalik yillaridan beri yaqin bo'lib qolgan odamini so'nggi marta tirik holda ko'rayotganday edi. Ana shu achinishga hamohang tarzda «shu ishlarga qo'shilishim shartmidi, buning soyasida yomon yashayotganim yo'q edi-ku?» degan umri qisqa fikr tug'ilib, o'lishga ham ulgurdi. Asadbek xastalanganda uning tuzalib ketishini istagan odam endi oshnasining temir tobutda qaytishini xohlardi. Ana shu xohish achinish hissini bo'g'ib qo'ya qoldi.

Jalil aytmoqchi, Kesakpolvonda vijdon bo'lmasa-da, unda o'g'rilarga xos ziyraklik mavjud edi. O'g'ri uchun vijdon, adolat, mehr degan fazilatlar ortiqcha yuk, bularsiz bemalol hayot kechiraverishi mumkin, biroq, ziyrakliksiz yashay olmaydi. Chuvrindining o'limidan so'ng ana shu ziyraklik yana bir foyda berdi: oshnasining ko'nglidagi gumonni sezib, etagini yopib olish chorasini qilib qo'ydi — birinchi galda Xumkallani yo'qotdi. Chuvrindining hovlisida Asadbekning bezovta nazari Xumkallani izlayotganini sez- diyu, ertasiga o'zi gap ochib:

— Dayusning bolasi ko'rinmaydimi? — deb Asadbekdan so'radi.

Asadbek «Dayusning bolasi kim?» degan ma'noda qarab qo'ydi.

— Xumkallani aytaman. Kecha ham ko'rinmadi. Uyiga bola yuboruvdim, milisa ham surishtirib kelganmish. Bir ishkal chiqardimi deyman. Sen ish-pish buyurmovdingmi? Asadbek bu savoldan ajablangeday a'yoniga tikildi. Uning gumoni bo'yicha, agar Mahmudni Kesakpolvon o'ldirtirgan bo'lsa, begonaning emas, o'z yaqinlaridan birining qo'li bilan qiladi bu ishni. Bunaqa ishda qotil — asosiy guvohning yashamog'i mumkin emas, sirni o'zi bilan birga narigi dunyoga olib ketishi shart. Kesakpolvon tag'in ham marhamat qildi — Xumkallaga yana bir kun yashashga imkon berdi. Qotil yo'qotilgach, izini ham yopish kerak. Milisa «KamAZ»ning haydovchisini ertalabga qolmay topib, qamab qo'ygan. Bo'kib ichgan haydovchi mastlikda «KamAZ»ni kimga, necha shisha aroq evaziga sotib yuborganini eslolmadi. Xumkalla milisaga kerakmas, uning o'ligini ham, tirigini ham qidirishmaydi. U Asadbekka kerak. Qotilning xojasi bo'lmish Kesakpolvon buni bilmaydimi? Baloni ham biladi u. «Xumkallaning izini yo'qotish uchun shu nayrangni o'ylab topdimi? — deb o'yladi Asadbek. — Mening kavlashtirishimni biladi, bu xunasa. Xumkallaning uyiga milisa yubortirib ishni puxtalab qo'ygandir... Qiziq, bu ilgari ham bez bo'lib qarab turarmidi yo endi shunaqa bo'lib qoldimi?»

Asadbek a'yoniga bir oz tikilgach, afsuslangan odam kabi uf tortib, bosh chayqadi-da: — Bollaring bebosh bo'lib ketdi. Jilovni ja-a bo'sh qo'yvording, — dedi.

Kesakpolvon ham afsuslangan odam kabi iyagini kafti bilan silab:

— Men emas, — dedi. — Bek, xafa bo'lmagin-u, Mahmud bo'sh qo'yvordi. Mayli, yer yetkazmasin-u, lekigin, ko'ngli bo'sh bo'lib qoluvdi ukaxonning. Senam sezmay yurding, bir ish buyursang oxiriga yetkazmasdi. Men bilardimu, jahling chiqmasin, deb aytmasidim. Ukaxon shu Xumkallaga do'xtirni qurit, deb topshirgan ekan, — Kesakpolvon shunday deb Asadbekka sinovchan boqdi. Xojasining yuzlarida o'zgarish sezmagach, osoyishta ohangni o'zgartirmagan tarzda davom etdi:— Xumkalla o'ldirmabdi o'sha do'xtir bolani. — Bu gapdan so'ng Asadbekning qoshlari xiyol chimirildi. Kesakpolvon buni sezmagani kabi gapidan to'xtamadi: — Uni yashirib qo'yibdi. O'zim ham bugun bilib qoldim.

— Kimdan eshitding? — deb so'radi Asadbek yuzini teskari burib.

— Tolmas aytdi, — dedi Kesakpolvon.

— Tolmasing kim?

— Choyxonadagi qozimiz bor-ku, o'sha. Maishat ustida Xumkalla yorilibdi-da, yarim kechada mayda-chuyda qilib borishibdi o'sha do'xtir yashirinib yotgan joyga. Nima qilay, bolalarga aytaymi, do'xtirni tinchitib kelishsinmi?

— Yo'q, — Asadbek shunday deb yana unga qaradi. — Tegmalaring. Bo'ldi, yashirinmasin. O'tgan gap o'tdi. Ishini qilib yuraversin.

Asadbekni kuzatib kelayotganida Kesakpolvon mana shularni bir-bir esladi. Xojasiniing tikilib qolishi, qoshlarining bilinar-bilinmas chimirilishi, yuzini teskari burib olishi... bularning barchasi uning xotirasiga muhrlangan edi. Salkam qirq yildan beri yonida yurgan odam xojasining tik qarashi, qoshlarining chimirilishi va oqibat yuzlarini burib olishi sababini bilmas ekanmi?

Asadbekka «O'qilon» degan laqabni Kesakpolvonning o'zi bergan edi. «Sen chaqmaysan-u, lekin tovondan teshib kirib, miyani o'pirib chiqib ketasan», degan hazil bilan boshlangan gap oqibatida Asadbekka «O'qilon» degan nom tojini kiydirgan edi. Chuvrindi ularning bag'ridan issiq makon topgan dastlabki haftalarda bu laqabdan ajablanib:

— «Kobra» deyilgani yaxshimasmidi, yo «Anakonda»mi?.. — deb so'raganda Kesakpolvon:

— Ko'zoynakli iloning chaqishdan oldin lunjini shishirib hunar ko'rsatadi, tebranib

turaveradi. Ilojini qilib uni tinchitish mumkin. Bo'g'ma iloning ham xatarli emas. Lekigin o'q ilon qachon tashlanishini bilmaysan. Bek akang ham shunaqa. Kallasida qanaqa mo'ljal bor, kimga tashlanadi, qachon tovonni tesha-di — bilib bo'lmaydi. Sen undan mana shu odatni o'rgan. Men ming o'rganay dedim-u, eplolmadim. Tabiatim boshqa mening...

Kesakpolvon uyga qaytaturib shu voqeani ham esladi. U Chuvrindining o'limi tufayli O'qilonning talvasaga tushajagini hisobga olgan edi. Birga bo'lgan yillari davomida u Asadbekning g'ashini keltiradigan, jahlini chiqaradigan ishlarni ko'p qildi. Bu ishlari xojasining qahrli qarashi yoki boloxonador so'kishlari bilan yopdi-yopdi bo'lardi. Chuvrindining o'limini o'sha ishlar sirasiga kiritmasa-da, xojasini larzaga soluvchi katta fojiaga aylanar, deb o'ylamovdi. Fojianing zaminida taxt talashish masalasi yotmaganida, bu ishlardan Xongireyning sovuq nafasi ke-lib turmaganida balki Kesakpolvonning mo'ljali aniqroq chiqardi. «Bek, jon oshnam, ahmoqlik qildim, kechir», desa Asadbek balki uzrini qabul qilardi.

Kesakpolvon adashganini janoza kuni, qabristonda ekanida anglab qoldi. Angladi-yu, dumi bosib olingan O'qilon endi tovonini teshajagini fahmlab cho'chidi. Keyingi kunlarda ehtiyot choralari qilib yurgan bo'lsa-da, ko'ngil bezovtaligi kuchaysa kuchaydiki, arimadi. Shu bois ham xojasining temir tobutda qaytishini juda-juda istadi. Nazarida aynan shu tobut uning xaloskori edi.

U yana ehtiyot chorasini qilib, idoraga bormay, telegrafga kirib Xongireyga qo'ng'iroq qildi. Yangilikdan ogoh etib qo'yish bahonasida Termizdan mol olib, Samarqanddan kuzatilgan mehmonlarning eson-omon yetib olganlari bilan qiziqib, bu xizmati evaziga yangi xo'jayinidan olqish olishga umid qilgan edi. Olqish o'rniga «ha, bo'пти» degan lanj javobni eshitgach, ko'ngil g'ashligi kuchaydi. Ko'chaga chiqib, qo'llarini shimining cho'ntagiga tiqqanicha bir oz harakatsiz turdi. Idorada qiladigan ishi yo'q — borgisi kelmadi, ko'ngil maishatni ham istamadi. Hatto ichishni xohlamadi. «Bi-ir ichsammikin?» degan fikr xayoliga kelishi bilan ko'ngli aynidi. Kamdan kam sodir bo'luvchi bu holatidan o'zi ham ajablanib, beixtiyor ravishda sigaret tutatdi.

Kesakpolvonning kayfiyati buzilganini sezgan Qozi mashina eshigini ochdi-da, bir oyog'ini yerga qo'yib «Huzuringizga borayinmi, xo'jayin?» degan ma'noda qaradi. Kesakpolvon sigaret tutunini bir-ikki chuqur-chuqur tortgach, oxirigacha chekmay chetga uloqtirdi. So'ng nimadandir xavotirlangan odam kabi yon-atrofga alanglab oldi-yu, mashina sari yurdi.

— Aka, bir xumorbosdi qilamizmi? — deb so'radi Qozi mehribonlik bilan.

— Xumorbosdimi? — Kesakpolvon shunday deb yana beixtiyor ravishda cho'ntagidan sigaret chiqarib, labiga qistirdi. — Sen bola, o'pkangni bos. Xumor deydi-ya...

Qozining bu mehribonligi boloxonador «shirin so'kish» bilan taqdirlandi. Qaysi aybi evaziga bunday oliy mukofotga erishganini anglamagan Qozi mashina motorini o't oldirdi-yu, «qayoqqa yuray?» deb so'rashga botinmay, xo'jayiniga qaradi.

— Yurmaysanmi? — dedi Kesakpolvon asabiylashib.

Qozi mashinani joyidan jildirdi-da, bomba ustida o'tirgan odam kabi xavotirlanib, qaysi tomonga yurishi kerakligini so'radi. Kesakpolvon javob berishdan avval yana boyagidek qo'poldan qo'pol so'kinib olib, so'ng:

— Uyga hayda, — deb amr etdi.

Shundan keyin bir necha daqiqa undan sado chiqmadi. Mashina tramvay yo'lini kesib o'tib uning ko'chasiga burilganda, Kesakpolvon Qoziga qarab:

— Bek akang sendan hech nima so'ramadimi? — dedi.

Kesakpolvon kecha ham shu savolni berib «yo'q» degan javobdan qoniqmagan edi. Shu

sababli Qozi «Kecha so'rovdingiz...» degan ma'noda xojasiga bir qarab oldi.

— Nega qarayapsan? — dedi Kesakpolvon zarda bilan. — Akaxonimning miyasi achib qolibdi, kechagi gapini yana so'rayapti, demoqchimisan?

— Xudo ursin, xo'jayin, bunaqa gap kalamga kelmadi.

— Kallang bo'lsa keladi-da... Hali bufetda nega imlab chaqirdi?

Kesakpolvon yo'l haqi to'layotganida Asadbek qahva ichish bahonasida bufetga o'tib Qozini imlab chaqirdi. Uning Qoziga aytadigan zarur gapi yo'q edi. Ayniqsa Xumkalladan gap ochib bularning paytavalariga qurt tushirishni istamagandi. Shunchaki «Bo'tqa bilan billalashib Zaynabning uyidan xabardor bo'lib turlaring», deb tayinlagan, gapirish chog'ida esa Kesakpolvonga o'g'rincha qarab olgan edi.

Asadbekning o'zi faqat yaqin olgan odamlarigagina bir ish buyurardi. «Bek aka, buyuring», deb ilhaq turuvchi yigitlar vazifani a'yonlar orqali olishardi. Bu odatdan boxabar bo'lgan Qozi Bek akasining shaxsan o'zidan «maxsus topshiriq» olganidan mamnun bo'ldi-yu, oradan ko'p o'tmay bu masalada xojasiga hisobot berishi lozimligini fahm etmadi. Qanchadan qancha odamning taqdirini hal etib kelgan uning aqli katta xo'jayin bilan kichigi orasida pinhona urush ochilganini anglab yetishga qosirlik qildi. Shu sababli kattaning topshirig'ini kichigiga oqizmay-tomizmay yetkazmoq vazifasi borligini bilmay, g'azabli nigohga duch keldi. G'azabli nigoh undan o'zini oqlovchi bahona emas, aniq javob kutardi. Qassob bir oz dovdiragan holda Bek akasidan eshitgan gapni aytdida, «Shu ham katta aybmi?» degandek Kesakpolvonga qarab oldi.

«Kuyovi kasalxonada o'laman, deb yotibdi. Qizi uyda bo'lsa... Qarovsiz hovlining nimasini poylaydi?» Kesakpolvon topshiriqdan ko'zda tutilgan maqsadni anglamay:

— Shuning o'zimi? — deb so'radi.

— Boshqa hech nima demadilar.

— Xumkallani so'ramadimi?

— So'ramadilar.

«Qiziq, nega so'ramadi? Gumonini haqiqatga aylanishini istasa so'rashi shart edi. Men o'zim vos-vos bo'lib qoldimmi? Undan bekorga xavotirlanyapmanmi? E, yo'-o'q... uning ko'zlari meni aldolmaydi. Ko'ziga qarab, ichida nima yonayotganini shu paytgacha bilmay yursam, g'irt ahmoq bo'lardim. Xumkallani baribir bu boladan so'raydi. Do'xtirni ham tinch qo'ymaydi. Bekorga «tegmalarining», demadi. Hali sayratadi uni...»

Mashina Kesakpolvonning darvozasi qarshisida to'xtaganida tomchilayotgan yomg'ir jalaga aylandi. Boloxonadagi yigit chaqqon tushib darvozani ochgach, Qozi mashinani ichkari haydab kirib, chap tomonga taqab to'xtatdi. Yigit ildam yurib kelib, old eshikni ochdi. Kesakpolvonga uning bu ishi yoqmay, o'qraydi-da, eshikni zarda bilan tortib yopdi.

— Xumkallani so'rasa nima deysan?

— O'zingiz tayinlagan gapni aytaveraman-da.

— Qani, ayt-chi?

— Shu... uch-to'rt kun oldin maishat qilganimiz, kechasi do'xtirni yo'qlaganimiz...

— Do'xtir qayoqda edi?

— Buni aytmovdingiz, xo'jayin?

— Bek akang so'rasa ham shunaqa deysanmi, e eshak miya! Sen do'xtirni top.

— Xo'p, xo'jayin.

— Qayoqda pisib yotganini uyidagilar bilar.

— Bu yog'ini qoyil qilamiz, hammasi bexit bo'ladi.

— Menga qara, shu dunyoda million do'xtir bormikin?

Qozi yelka qisdi. «Xo'jayin, sanab chiq, desangiz sanab chiqaman, lekin hozir anig'ini bilmayman», deganday qarab turaverdi. Kesakpolvon unga boqmagan holda, o'ziga o'zi

gapirganday davom etdi:

— Million do`xtirdan bittasi qurisa dunyo kambag`allashib qolmas, a? Nima deysan?

Qozi xo`jayinining maqsadini anglab ishshaydi:

— Xo`jayin, asli hisob-kitobni to`g`ri qilib qo`yish kerakmikan? Do`xtirning soni bitta ko`p ekan?

— Unaqada Bek akang kelgunicha hisobni to`g`ri qilib qo`y.

Kesakpolvon shunday deb eshikni ochdi-da, mashinadan tushib uy tomon yurdi.

Xizmatga mahtal yigit esa qo`llarini qovushtirganicha o`zini chetga oldi. Qozi ham mashinadan tushib kalitni yigitga uzatdi-da, «o`rtaga olib, yaxshilab art», deb buyurgach, boloxonaga chiqdi.

### 3

Mehmon kutishga mo`ljallangan katta xonaning oynavand tomondagi oromkursilarni band etgan Kesakpolvonning xotini, qizi, kuyovi va xos sartarosh karta o`yiniga shu darajada berilib ketgan edilarki, hatto eshikning ochilib-yopilganini ham sezmadilar. Kesakpolvon ostonani hatlab o`tib, ularga bir oz qarab turdi. Qaynona bilan kuyov, Monika bilan sartarosh sherik bo`lib, bir-birlarini yengmoq qasdida qarta tashlashardi. Pastak stolning chetidagi og`zi ochiq konyak, billur qadahchalar ham Kesakpolvonning nazaridan chetda qolmadi. Avvaliga baqirib, so`kib bergisi keldi. Lekin shu onda qulog`iga kimdir «birinchi marta ko`rayotganing yo`q-ku, buni» deb shivirlaganday tuyulib, g`azabini yutgandek bo`ldi. «Yutgandek bo`ldi», demog`imiz sababi bor: Kesakpolvon bosh ko`targan g`azabni noumid qaytaruvchi nomardlardan emas. Hozir ham odatiga xiyonat qilmadi. G`azab o`qlarini sal qiyalatib, kuyovi tomonga otdi:

— Vey, menga qara, kuyov bola, sening uy-puying bormi, xotining bilan uyingda o`tirsang o`lasanmi?

To`satdan yangrab, magnitofondan taralayotgan musiqa tovushini bosib ketgan bu ovozdanda to`rttovlari ham cho`chib tushishdi. Monika barmog`ida qistirig`liq sigaretni shoshib kuldonga tashladi-da:

— Oy, papul keldi, — deb o`rnidan turdi. Bunaqa baqirishlarga ko`nikib ketgan kuyov ham erinib, qo`zg`oldi. Monika tez-tez yurib kelib darg`azab otasini quchoqladi.

Kesakpolvon jahli chiqqanini yana bir karra ta`kid etmoq maqsadida qizini odatdagiday o`pib, erkalamadi.

— Papul bugun vne nastroeniyada, — dedi Monika arazlab.

— Papanglar charchaganlar, — Kesakpolvonning xotini shunday deb unga yaqinlashdi:

— Ha, adasi, tinchlikmi?

Kesakpolvon xotiniga o`qrayib qarab, xonasi tomon yurdi.

— Hay, adajonisi, bir minutga to`xtang, u nas novosti. Leningradga parikmaxerlarning mejdunarodniy vistavkasi bo`layotgan ekan.

— Vistavka emas, konkurs, — deb izoh berdi sartarosh.

— Nu da, konkurs. I shu konkursga Gogik borishi kerak.

— Borsa ana katta ko`cha, qo`lidan ushlab turganim yo`q, — dedi Kesakpolvon ming`irlab.

— Kak eto «katta ko`cha»? Bu prostoy konkurs emas, mejdunarodniy axir. I Gogik pobeditel bo`lishi kerak. I Monika ham borishi kerak Leningradga.

— Ha, qizing ham sartarosh bo`lib qoldimi?

— Nu zachem, adajonisi, Gogik Monikaning sochini pricheska qiladi.

Kesakpolvon «Bor-e!» deganday qo`l siltab, xonasiga kirib ketdi. Divanga yonboshlagan



chog`ida eshik ochilib, yuzini burishtirgan Monika ko`rindi.

— Papul, ketaveraymi? — dedi u ostonada turganicha.

Arazchi qizining cho`chchaygan lablariga ko`zi tushgan Kesakpolvonning qahri bir oz yumshab:

— Leningradgami? — deb so`radi.

— Uyimga! — dedi Monika po`pisa ohangida. — Mejdu prochem, biza ko`chada qomaganmiza. I slava bogu, uyimiz bor. Prosto silaga skuchna bo`lmasin, deb kelamiza. Endi skuchat qilsangiz o`ziyz borib ko`rasiz.

— Obbo, bo`ldi, shunga ham arazmi? Oying seni garmdorining ustiga tuqqan-da, a, asalim, — Kesakpolvon turib kelib qizini yonog`idan o`pdi.

— Postoronniy odamni oldida prosto unijat qilib yuborasiz.

— Hazillashdim, qizim, hazillashdim. Postoronniy yo`q-ku, bu uyda. Gogikmi? U ham o`zimizniki hisob. Hazilimni tushunadi.

— Leningrad nima bo`ladi?

— Oying bilan maslahatlash, bilganlaringni qillaring.

— Mersi, papul, — qizi shunday deb erkalanganicha uni o`pdi-da, quvnoqlik bilan iziga qaytdi.

Kesakpolvon qizidan faqat «xo`p» deb qutilishi mumkinligini yaxshi bilgani uchun ham tezgina taslim bo`la qoldi. Qizini birov emas, o`zi erkalatib o`stirdi. Bu o`rinda «tarbiya qildi», demoq nojoiz. Chunki otadan yaxshi tarbiya ko`rgan qiz bunday bo`lmas.

Kesakpolvon «Nima uchun men emas, falonchi kuchayib ketyapti?» «Nima sababdan falonchi mendan boyroq?» deb o`zini savolga tutardi. Biroq, hech qachon «nimaga falonchining farzandi unaqayu, meniki bunaqa?» degan savolni xayoliga ham keltirmagan.

Bunaqa qarta o`ynab o`tirishganini endi ko`ribdimi, hozir kayfiyati chatoqroq bo`lgani uchungina baqirdi. Qizining satarosh bilan Leningradga borishi ham uning uchun ahamiyatsiz bir narsa edi. Agar kayfi chog` paytda bu yangilikni eshitganda «Ie, zo`r-ku, albatta borish kerak», demog`i shubhasiz edi.

Kesakpolvon divanga cho`zilib, yotgan yerida kerishdi. U shiftdagi naqshlarga, devorga chizilgan gullarning rasmiga qarab yotishni yaxshi ko`rardi. Nomdor naqqoshni topdirib kelib ishlatishga pulni ayamagan edi. Naqqosh ayniqsa ro`parani shunday bezaganki, begona odam ming tikilsin, devor orasida po`lat sandiq borligini ilg`ay olmaydi. Po`lat sandiq ichida nimalar borligi faqat Kesakpolvonning o`zigagina ma`lum. Bundagi boylik nevaralarining yeb-ichishi, o`ynab-kulishigacha yetib ortadi. Po`lat sandiq to`lgan, lekin ko`z to`ymaydi.

Asadbek qizi o`g`irlangan kezlari ma`yus ohangda «Topgan-tutganlarimiz nevara-chevaralarimizga ham yetib-ortadi. Bizga yana nima kerak?» deganida Kesakpolvonga bu gap erish tuyulgan edi. «Bizga yana nima kerak? Bu dunyoda nima deb yuribmiz o`zi? Boy bo`lmasang birov seni odam o`rnida ko`rmaydi. Xudo berib turganida to`playversang-chi! Nevara-chevarangga yetadimi-yo`qmi, hisoblab nima qilasan? Hisoblaganing sa-yin baraka qochadi...», degan xayol bilan xojasini tentakka chiqargan edi. «Hisoblab nima qilasan», degani bilan uning o`zi po`lat sandiq ichidagilarni sanab turishni yoqtiradi. Sanayotganida barmoqlari yayraydi, yuragiga esa g`alati bir quvvat oqib kirganday bo`ladi. Hozir ham turib sanagisi keldi. Biroq, yon xonada odamlar borligini eslab, bu rohatbaxsh yumushni ke-yinga qoldirdi.

Devordagi gullar rasmiga tikilib yotgan chog`ida Asadbekning «Bizga yana nima kerak?» degan gapi yodiga tushdi. «Agar tirik qaytsang, nevara-chevarangga yetadigan boyliklaringni ye-eb yotaverasan. Oliftagarchilik qiluvding, mana, Xudo beraridan qisdi. O`lmay qaytganing ham durust oshnam, boylikning qadriga yetasan. Xongirey joningni

olmasa ham taxtingni oladi. Bir paytlar cho'talchi eding, kuning yana shunga qoladigan bo'ldi...», deb o'ylab, kulimsirab qo'ydi. Keyin xayoliga qo'qqis bir fikr keldi: «Maskovga ketgan O'qilon chuvalchang bo'lib qaytadi. Chuvalchangdan qo'rqib o'tiribmanmi?» Mazkur fikr vujudiga rohat berib, bu safar yayrab kerishdi.

Kesakpolvon devor ichiga o'rnatilgan po'lat sandiqdagi boyliklarni, bu uy, bu qimmatbaho jihozlarni... hamma-hammasini o'ziniki hisoblardi. «Shu boyliklarning egasiman», deb huzurlanardi. Nodon banda bu dunyodagi hech narsa uniki emasligini bilmasdi. Ha, hech nima! Hatto o'zining gavdasi: bosh-ko'zlari, qo'l-oyoqlari... O'ziga tegishli emasligini fikr ham qilib ko'rmagan. Bularning barchasi vaqtincha o'ziniki, aslida esa lahad qurtlariniki ekaniga aqli yetmaydi. «Mening boyligim» degan narsa esa jon chiqib, jasad lahad qurtlariga topshirilganda asqotmaydi.

Divanda taltayib yotgan Kesakpolvon bularni o'ylamaydi. Bunday o'y uchun miyasida bo'sh joy ham yo'q. Bu kabi odamlarning og'irligi to'rt yarim kilodan ziyod bo'lgan miyalarida loaqal zarra miqdoridagi ulush oxirat o'yi bilan band bo'lganida edi, hayot o'zgacha tarzda kecharmidi, vallohi a'lam?

Yo'ldagi ko'ngil noxushligi tarqab, Kesakpolvonning ichgisi keldi. Javonda o'n-o'n besh xil ichimlik xizmatga bel bog'lab turibdi. Lekin ulardan birini olib ichmoq uchun divandan turmoq kerak, ikki yarim qadamli uzun masofani bosib o'tmoq zarur, qo'lni cho'zmoq, shishani olmoq, qopqoqni ochmoq, piyolaga quymoq lozim. Kesakpolvon uchun bu yumushlar ancha mushkul tuyulib, osonroq yo'lni topdi. Yotgan yerida:

— Hov, bu uyda tirik jon bormi?! — deb baqirdi. Ikki nafas o'tmay qo'shimcha qildi: — O'lib qoldilaringmi hammang!

Taxminan bir daqiqadan so'ng eshik ochilib, xotini ko'rindi:

— Yetib kelgunimcha chutli olamni buzib yubora-siz-a, — dedi u ostona hatlayotib.

— Lopillamay tezroq yursang o'lasanmi? — dedi Kesakpolvon zarda bilan.

— Keldim-ku? Chut chto darrov baqirasiz. Nima, man sizga yosh kelinmanmi?

— Ha, yaxshi, qariligingni bo'yningga olding.

— Ha, qariman, vaabshe starushkaman. Xo'p, nimaga chaqirdingiz?

— Quy, anavindan.

— Qaysi biridan?

— Erkakning xo'rrozi «Napoleon»dan ichadi-da. Baquvvat qilib quyaver, bufetchilarga o'xshab qo'llaring qaltiramasin.

Xotin piyolaga to'ldirib konyak quyib, tortmadan shokolad olgach, eriga tutdi.

Kesakpolvon ichib, shokoladdan tishlaganida:

— Adajonisi, bugun sal neto'roqmisiz? Uyga kirishga uspet qilmay baqirdingiz-a?

— Baqirishim yoqmay qolgan bo'lsa, ana, javobimni berib qo'ya qol. — Kesakpolvon shunday degach, huzurlanib cho'zildi. Xotini esa oyoq tomonga omonat o'tir-di.

— Menga qarang, chut chto «javobimni ber», deydigan bo'lib qoldiyza. Shoshilmang, qutulib qolarsizam. Avval meni olib borib ko'mib kelingda, ana, uch kundan keyin pojaluysta, uylanavering.

— Shunaqami? — Kesakpolvon zaxarli iljaydi. Xotining jig'iga tegish uchun oyog'ining uchi bilan yumshoq yeriga asta tepdi. — Uch kun kutadigan ahmoqmanmi men. Seni ko'mib, uyga qaytishdayoq uylanaman. Senga janoza o'qigan mulla yarim soatdan keyin meni nikohlab qo'yadi.

Xotin diydiyosini avjga chiqarish bahonasida og'iz juftladi-yu, ammo «vot chto» deganicha qoldi. Kesakpolvon uni gapirtirgani qo'ymadi:

— Bo'ldi, viji-viji qilaverma. Nima deysan, dardingni ayt.

— Dard? Kakoy dard...

— G'ingshima. Sen bekorga ming'irlamaysan. Nima, senam Leningradga

bormoqchimisan?

— Fu! — Xotin shunday deb labini burdi. — Sto raz borganman o'sha Leningradingizga. Vaabshe menga yoqmaydi u shahar.

— Leningrad yoqmasa, ana, Yaltaga bor.

— Yaltaga? Hozir? Вы что, adasi ustimdan kulyapsizmi?

— Ustingdan kulmay, tagingdan kulaymi? — Kesakpolvon shunday deb yana oyog'i bilan turtdi: — Bo'пти, nima deysan?

— Mejdu prochim, Oysanamxon Yaponiyaga ketayotganmishlar.

— Oysanamxoning kim bo'ldi?

— Kak kim bo'ldi? Eri o'ldi-ku? Nachalnik taksoparkmidi? Nu vot, eri bo'lmasayam ketyapti Yaponiyaga.

— Senga qiyin bo'пти-da, a? Ering bo'lsayam o'tiribsan Yaponiyaga bormay.

— Siz... izdevatsya qilmang. Vot, Poshsha opam ham yuribdilar Germaniyada mazza qilib. Birga yuborsayiz bo'lardi, har holda chujoy emasmiz-ku?

— Jinnimisan! — Kesakpolvon endi qattiqroq tepdi. — O'zi taklif qilmasa, «xotimni billa olib keting», deb yalinamanmi? Borging kelib, ichaging uzilay deb turgan bo'lsa, ana, boraver.

— Unda, mayli, Germaniya podojdet. Yaponiyaga birga boraylik. Odamlar zavistdan kuyib ketsin.

— Nima? Birga boraylikmi? Endi qilmaganim Yaponiyada bir qop go'shtni yetaklab yurishim qoluvdi.

— Nima? — Xotin Kesakpolvonning sonini chimchilamoqchi bo'ldi. — Shu meshok go'shtni, mejdu prochem, o'zingiz yaxshi ko'rib olgansiz.

— Ha... unda do'mboqqina eding-da. Bo'пти. Gapni qisqa qil. Yaponiyaga borasanmi, undan narigami, boraver. Boshimni qotirma!

Er-xotinning shirin suhbatini yakun topganini bilgandek, yozuv stoli ustidagi telefon jiringladi. Bu xonadonda ikkita telefon bo'lib, mazkur raqam faqat yaqin odamlargagina ma'lum edi. Shu sababli Kesakpolvon o'rnidan turib, go'shakni o'zi ko'tardi. Kimning-dir gaplarini eshitib, bilagidagi soatga qaradi-da «yaxshi» deb go'shakni joyiga ildi:

— Ana, Xizrni yo'qlasang bo'larkan, Poshsha opang kelyapti.

— Kelinlari bilanmi yo bir o'zlarimi?

— Buni kelganida o'zidan so'raysan.

— Voy, interesnosiz-a, yesli kelinlar bilan kelsalar, mayda-chuyda qilishim kerak-ku?

— Mayda-chuydangni tayyorlayver, baquvvatroq tayyorla, qo'ling qaltiramasin.

Xotini chiqdi-yu, dam o'tmay iziga qaytdi:

— Sizni ko'chada so'rashayotganmish, — dedi nozliroq ohangda.

— Kim ekan?

— Mejdu prochem, bir yosh xotinmish.

— Xotin bo'lsa yaxshi, — Kesakpolvon shunday deb kerishdi-da, ovoz chiqarib esnadi. — Yur, senam.

— Men nima qilaman? — dedi xotini ajablanib.

— Ko'rib qo'y. Xotinlikka nomzodlardan bittasidir-da. Uylansam ham senga yoqadiganiga uylanaman. Yana yotgan yeringda «Voy, savil, kelib-kelib shuni oldingizmi, undan ko'ra o'zim sto raz yaxshimasmidim», deb sasib yotmagin.

— Vuy, vaabshe neterpimo bo'lib ketyapsiz, — Xotin shunday deb mushtimini qisdi-da, po'pisa qilib, orqasiga chekindi.

Kesakpolvonni ayvonda kutib turgan yigit Xumkallaning xotini kelganini aytib baloga qoldi. Xo'ja-yini unga eshakka qanday qarindoshchiligi borligini ma'lum qilgach:

— Yo'qlar, devormaysanmi? Qanaqa qalang'i-qa- sang'i kelsa qo'yaverasanmi? — dedi.

— Yo'qlar, desam, ostonaga o'tirib oldi. «Yarim kechada kelsalar ham poylayman», deydi.

Kesakpolvon yana g'o'diranib so'kindi-da, yigitga ergashib ko'chaga chiqdi.

— Ha, singil, keling. Nima ishingiz bor menda?— dedi uni tanimaganday.

— Men... Mirodil akaning ayollariman, — dedi juvon unga najot ko'zi bilan qarab. U «Ie, ukaxonimizning ayolimisiz, tinchlikmi, nima gap?» degan shirin gap kutgan edi. Biroq boshqa ohangdagi boshqa gapni eshitdi:

— Kim? Mirodil deysizmi? Sen taniysanmi shunaqa odamni? — dedi Kesakpolvon orqasidagi yigitga o'girilib. — Eringiz qaerda ishlaydi?

— U kishi... sizda...

— Menda? Men taksi kooperativining xo'jayiniman. Menda Mirodil degan bola yo'q. Siz adashganga o'xshaysiz, singlim.

— Siz... to'yimizga borgansiz...

— Men kunda o'nta to'yga boraman. Xo'p, nima dardingiz bor, eringizni ishga olaymi?

— Yo'-o'q... adamiz besh kundan beri uyga kelmaydilar. Milisa ham surishtirib qoldi.

— O'h-ho', singlim, milisa aralashgan ish bilan mening oldimga kelmang. Eringiz uyingizga qaytmagan bo'lsa, milisa biladi, darrov milisaga uchrang. Men eringizni tanimayman, bora qoling. Ikkinchi bu ko'chadan o'tmang.

Ayol ro'parasidagi jonzotning odammi yoki shayton ekanini farqlab olmoqchiday unga bir oz tikilib turdi-da, so'ng asta orqasiga o'girildi. Kesakpolvon «qarasang qarayver, kimligimni ikki dunyoda ham bilolmaysan», degandek uning tikilishiga monelik qilmadi. Jala kuchdan qolgani bilan, yomg'ir tinmagan edi. Ayol yomg'ir tomchilarining kuztuvida yurib borardi.

Erining joni arzonga ketdi. Kunda uch-to'rt mahal ovqat, necha o'n yoki yuz yutum aroq, vino... vassalom. U «akaxon, xizmatingizda bo'lay», deb huzuriga kelgan edi. Aslida «muhtaram jon olg'uvchi akaxonim, siz jonimni olingu evaziga meni boqing», desa ham bo'laverardi...

## VIII b o b

### 1

Uyga kechroq qaytgan Zohid jiyanini ko'rdiy yuragi qandaydir noxushlikni sezganday uvishdi. O'g'lini uxlatib chiqqan Fotimaning ko'z qarashlarida ham g'alati besaranjomlikni ilg'aganday bo'ldi. Jiyanidan «opam, pochcham, ukalaring yaxshimlar, katta hovliga o'tib turibsanzmi, buving, opoq dadang sog`-salomatmilar?» deb so'ragach, «Tinchlikmi?» degan so'rog'iga «Tinch-lik, o'zim shunchaki bir aylanib keluvdim», degan ko'ngil tashvishini bosuvchi javob kutdi. Yoshi hali o'n beshga yetmagan o'smirning daladan shaharga «shunchaki aylanib kelishi» mumkinmasligini bilsa ham o'zini shunday javob bilan ovutishni istadi. Jiyani dilga orom bera oluvchi gapni aytishga ulgurmay xotini uning umidini chippakka chiqarib qo'ya qoldi:

— Peshindan bu yog'iga ishxonangizga ming martacha qo'ng'iroq qilgandirman. Voy... — xotini shunday deb ko'kragiga qo'lini qo'ydi. — Hozir yuragim yorilib ketadi.

Barcha ayollarga in'om etilgan vahima kasalidan Fotimaning ham bahramand ekani Zohidga ma'lum. Do'konda bir soat navbatda turib sut yetmay qolsa ham u eriga shikoyat qilib «hozir yuragi yorilib ketajagini» albatta aytadi. Bunaqa paytda Zohid «yurak ham sal narsaga yorilaverar ekan», deb kulimsirab qo'yardi. Yurakning yorilishi haqidagi gapning ohangida hozir xavotir mavjudligi uchun Zohid kulimsiramadi. «Nima

bo'ldi?» deb jiyaniga qaradi. Jiyan so'z aytishga ulgurmay Fotima u olib kelgan xabarni yanada vahimali ohangda ma'lum qildi:

— Dadamlar otdan yiqilib tushibdilar. Yelkalari singanmish.

— Qachon?

Fotima «asosiy gapni men aytdim, bu yog'iga o'zingiz javob beravering», deganday jiyaniga qaradi. Kelinayasining bu lutfidan foydalangan jiyan javobni hayallatmadi:

— Uch kun bo'ldi... shu yakshanbada.

— Uch kun bo'ldi? Endi xabar berasanlarmi?

— Ayb o'zingizda, — dedi Fotima jiyanning yonini olib, — yakshanbada boramiz dedingiz, so'zingizda turmadingiz. Borganimizda shu falokatning oldi olinardi. Uloq o'lgurgayam chiqmasiydilar.

Fotimaning shu gapi dard ustiga chipqon bo'ldi. Zohidning vujudini kuydira boshlagan xavotir o'tiga alam moyi sepildiyu xotiniga beixtiyor ravishda «bir pas vaysama!» deb baqirdi. Huda-behudaga baqiraveradigan erlarning xotinlari bir vaysashga tushsalar tinishlari mushkul. Bu mushkulotni yechmoq uchun ko'pincha erning mushti ishga solinadi. Xotiniga hadeb baqiravermaydigan Zohidning «Bir pas vaysama!» deyishi Fotimaga kifoya qildi.

— Uydamlar, kasalxonadamlar? — deb so'radi Zohid jiyanidan.

— Uydalar. Do'xtirlar gipslab qo'yishdi. Lekin... judayam og'riyotganmish. Bugun Uloqchi buva keluvdilar. Shaharda Moshtabib degan odam bor ekan. Uloqchi buvaning bellari singanda tuzatgan ekanlar. Siz o'sha odamni topib, olib borar ekansiz.

Otasini ko'rgani hoziroq yo'lga chiqmoqchi bo'lib turgan Zohidning shashti qaytdi. To'rtta non ko'tarib borishdan foyda yo'q. Azob chekayotgan otasi tabibga muhtoj. Erining indamay qolganidan taajjublangan Fotima:

— O'sha odamni taniysizmi? — deb so'radi.

Zohid javob bermay, deraza tomonda to'shalgan ko'rpachaga borib o'tirdi.

Moshtabib deganlarini tanishga-ku, taniydi-ya. Uni o'ylantirib qo'ygan barcha mushkulot ham ana shu tanishida edi.

## 2

Depara ichki ishlar bo'limida amaliyot o'tab yurgan kezlari boshliq o'rinbosari chaqirtirdida, xonasida o'tirgan odamni «Kapitan Temirov» deb tanishtirgach, shu nozirning ixtiyorida bo'lajagini bildirdi. Zohid vazifasi nimadan iborat ekanini yo'lda ketayotganlarida nozirdan eshitdi:

— Eski shaharda Moshtabib degan odam yashaydi, eshitganmisiz? — deb so'radi. Nozir Zohiddan «yo'q», degan javobni eshitgach, afsus ma'nosida bosh chayqab gapini davom ettirdi: — Shunday mashhur odamni eshitmaganmisiz? «Moshtabib» degan nom bilan Xudo biladi, ming yillardan beri necha yuz tabib o'tgan ekan. Otadan bolaga o'tib kelavergan-da. Moshtabiblar Amir Temurni ham davolashgan.

Nozir keyingi gapini xuddi «Amir Temur»ni davolashayotganda o'zim ham bor edim, podshoning oyog'ini o'zim ushlab turganman», degan ohangda, faxr bilan aytdi.

— Ming yillardan beri odamlarga xizmat qilib kelgan moshtabiblarning ishi endigi zamonda zararli emish. Shu mahallada bir-ikki g'alamis bor, yuqori idoralarga xat yozgani yozgan. Ular yozadi, kaltak esa mening boshimda sinadi. Yozadiganlarning bittasi do'xtir. O'zim borib gaplashdim o'sha bilan. «Baraka topgur, Moshtabib sening kasallaringni tortib olib, noningni yarimta qilayotgani yo'q. Sen qorin do'xtir bo'lsang, u sindi-chiqdiga qarasa, qo'y endi», desam, «Sen feodalizm sarqitini himoya qilyapsanmi, sen ilg'or Sovet meditsinasining naq dushmani ekansan», deb basharamga dangal aytdi.

Aytsa ham mayli, keyingi xatiga meni ham tiqishtiribdi. Sal qoldi urilib ketishimga. Bitta yulduzni, — Nozir pogoniga ishora qildi, — o`shanda kamaytirishdi. Bu qiztaloqlar pichanga bog`lab qo`yilgan itga o`xshashadi. O`zlari ham yeyishmaydi, birovga ham bergilari kelmaydi. Xo`ja-yinlar ham qiziq, uka, men aniq bilaman, oldingi katta xo`jayinni shu odam shifolagan. Bu odamning yaxshi tabibligini hammalari bilishadi. Lekin baribir g`alamis xat kelsa pitirlab qolishadi. «Xat ro`yxatdan o`tgan, chora ko`rish kerak», deb buyruq beraverishadi. Shifo topgan ular-u, shu xat orqali baloga qolgan menman. Hozir davr shunaqa bo`lib qolgan, uka, bilib qo`ying. Ana endi ikkalamiz uchto`rt kun ko`chada qoqqan qoziqdek o`tiramiz. O`tgan-ketganlar ichlarida so`kadilarmi, har holda nima deyishsa deyishar. Basharamizga tupurib o`tishmagani uchun do`ppimizni osmonga otsak ham arzir. Uka, siz shu sohani tanlabsiz, bilib qo`ying: mana shunaqa ishlar milisani odamlar ko`ziga balo qilib ko`rsatib qo`yadi. Shu jamiyatning ishlariga ham qoyil qolmayman ba`zida.

— Qoyil qolmasangiz ham shu jamiyatga xizmat qilyapsiz-ku? — Zohid shunday deyishga dedi-yu, notanish, sinalmagan odamning xafa bo`lishi yoki achchiqlanishi mumkinligini hisobga olmaganini fahmlab, unga xavotir bilan qarab qo`ydi. Baxtiga nozir ranjimadi, achchiqlanmadi ham, aksincha, yengil «uf» tortdi-da:

— Tirikchilik shu bo`lganidan keyin har qanaqa xizmatni qilaveramiz-da, — dedi. — Aslida men bu kasbni ishqiboz bo`lib tanlamaganman. Harbiydan qayt-ganimda komsomol yuborgan. O`qiy desam, uquvim yo`q edi, biror hunarga ham qiziqmabman. Sizning yo`rig`igiz boshqa. O`zingiz yaxshi ko`rib, o`qib kelyapsiz. Sizga o`xshaganlar ko`paysa mendaqalarga non qolmaydi.

Hali uylanmagan g`o`r yigitga hasratini aytib borayotgan nozirning taqdiri yurib borayotganlari eski shaharning eski ko`chalari kabi edi. Jin ko`chalarning joni yo`q — hademay buzilib, o`rinlarida yangi yo`l tushajagidan xavotirlanishmaydi. Nozirning taqdiri nochorroq...

Jin ko`chalardan o`tib borayotgan Zohid o`z taqdiriga oid bir masalani kashf etdi: o`qishni tamomlagach, shunchaki bo`sh bir o`ringa kelmaydi. Balki xizmatni «tirikchilikda» deb hisoblovchi aynan shu odam o`rniga ham kelishi mumkin. Shunda tirikchilik tashvishi bilan yurgan yana bir boshqa odam unga ola qaramaydimi? Bora-bora Zohidning o`zi ham o`zgarmaydimi? «Adolat uchun kurashaman!» degan shiorini tirikchilik libosi bo`g`ib tashlamaydimi? Vaqti kelib o`rnini yosh yigitga bo`shatayotganida uni qanday his chulg`aydi: «Xudoga shukr, adolatga yetishdim», deydimi yo shu odam kabi «tirikchilik ekan-da, uka», deb xo`rsinadimi? Yoki «yana uch yilgina bo`shatmay turishsa uyning chalasini bitkazib olib, o`g`limning to`yini ham o`tkazib, qutular-dim-a», deb afsuslanarmikin?

Bozordan o`tib, tramvay saroyining orqa tomonidagi ko`chaga burilishganida nozir Temirov:

— Shu muyulishga kapa tikib o`tiramiz. Chapdan ikkinchi eshik Moshtabibniki, — dedi.

— Uylariga kirmaymizmi? — deb so`radi Zohid.

— Nima qilamiz kirib? — Nozir ajablanib Zohidga qaradi.

— «Tabiblikni yig`ishtiring», deyishimiz kerakmi? Vazifamiz shunaqami?

— Vazifa-ku, shu. Lekin kirmaymiz. Eng muhimi — shu yerda qoqqan qoziqdek turishimiz kerak. Xat yozgan g`alamislar formali odamlarni ko`rishlari shart. «Xatim inobatga olinibdi» deb quvonishsin. Besh-o`n kun tinchib o`tirishadi. Xo`jayinlar ham «chora ko`rildi» deb hisob berishadi. Keyingi xat yozilib, kerakli joyga borib tushguncha biz ham dam olvolamiz.

Shu paytda ular yaqinidan yashil «Jiguli» o`tib, tabibning eshigi ro`parasida to`xtadi. Mashinaning old o`rindig`idan tushgan yigit orqa eshikni ochib, yoshi o`tgan ayolga

yelkasini tutdi. Ayol yigitga suyangani, chap oyog`ini bosolmagani sababli, hakkalab yurib ichkari kirdi.

— Siz bilan men hozir borib shularni orqaga qaytarishimiz kerak. Borasizmi? — Nozir shunday deb savol nazari bilan qaradi. Zohid bu savol zamirida sinov borligini fahmlab, «o`zingiz bilasiz» degan ma`noda yelka qisib qo`ydi. Dam o`tmay, haligi ayol yigitga suyanmagan, hakkalamagan holda chiqib keldi. Chap oyog`ini sal ehtiyotlab bosayotgani hisobga olinmaganda hozirgi majruh ayol shu, deyilsa biron ishonmas edi. Zohid ajablanib:

— Bo`ldimi? — deb so`radi.

— Bo`ldi, — dedi kapitan Temirov mamnun ohangda. Uning yorishgan chehrasini ko`rgan Zohid «Xuddi o`zi davolab, qoyil qilganday quvonadi-ya!» deb o`yladi.

— Oyog`i chiqqan ekan-da, — dedi nozir tabobat sirlarini yaxshi biluvchi odamning ohangida. — Singan bo`lganida to`joyiga solib bog`laguncha uch-to`rt daqiqa vaqt ketardi. Endi xohlasangiz borib surishtiring: bergan bo`lsa bir so`m, juda boyvachchaligi tutgan bo`lsa uch so`m bergandir. G`alamislar aslida shunisiga chidasholmaydi. Tabib boyib ketyapti, deb o`ylab ichlarini it tatalaydi. Siz bir so`m bilan boyib ketgan tabibni ko`rganmisiz? Men ham ko`rmaganman. Odamning joni og`rib turganida ko`ziga pul ko`rinmaydi. «Mana, ming so`mni olingu tuzating», deydi. Og`riq to`xtagach, ming so`mni ataganini unutib, «qo`l haqi» deb bir so`mgina tashlaydi. Shunda ham mardlari tashlaydi o`sha so`mni. Bir tanga tashlab ketadiganlarni o`zim ko`rganman. G`alamislarga shuni aytsam ishonishmaydi. Ularning nazarida bu xonadonga bosh urib kelgan odam borki bir-ikki mingdan tashlaydi.

— Belgilab qo`ygan narxlari yo`qmi?

— Qanaqa narx? — Nozir shunday deb unga «esing joyidami, uka?» deganday qarab qoldi.

— Chiqqanni solishga buncha, singanga muncha, — deb izoh berdi Zohid.

— E, — Temirov hafsalasi pir bo`lib qo`l silta-di. — Ba`zi bir xil do`xtirlarda bo`ladi bunaqa gaplar. Tabib berganni oladi. Do`xturga o`xshab ming`irlamaydi, aksincha, shifo tilab duo qiladi.

Zohid bu yerda kun bo`yi kelib-ketuvchilarning sanog`iga yetmay qoldi. Kuniga shuncha odam mayib bo`ladi, deyilsa ishonmasligi tayin edi. Agar boshqa dahalarda ham tabiblar mavjudligi, do`xtirxonalarga ham murojaat etuvchilar soni hisobga olinsa, odamning hayrat to`riga o`ralib qolishi tayin.

Kapitan Temirov moshtabiblarning tarixi, ta`rifu tavsifini o`zi bilgani qadarli aytib tugatgach, «Endi uka, mening bir zarur ishim bor, rov boramanu rov kelaman», deb ketdi. «Rov borib-kelishi»ni Zohid uzog`i bilan yarim soatli muddat deb o`ylab yanglishgan edi. Kun tikkaga kelib, tashnalikka qo`shilgan ochlik zabtiga olganda ham Temirovdan darak bo`lmadi. Shunda Zohid bu ko`chada behuda poyloqchilik qilaverib bezgan nozirning ahvolini tushundi. Ochlik, tashnalikka ham chidash mumkin edi-ku, biroq o`tgan-ketganlarning nazarlariga toqat qilish qiyin kechdi. Kun peshindan oqqan mahalda kapitan qog`oz xaltada somsa, shishada ma`danli suv keltirdi. Zohid taomlanish uchun ham bu ko`chani tark etmoqqa haqqi yo`qligini bilib, ortiqcha savol bermadi.

— To`xtatmay olavering, men qozonboshida to`ydim,— dedi Temirov shishaning tunuka qopqog`ini ochib.

Kapitan olib kelgan somsaning nomi ko`p edi. Ayrimlar lo`nda qilib «quloq-burun-bo`g`iz» deb somsaning nimalardan tayyorlanganini ta`kidlashsa, ba`zilar piching ohangida ulug`lab «dumba-jigar» der, bironlar esa kulki ohangida «itlarning quvonchi» deb ta`rif qilar, boshqalari oddiygina «to`rt tiyinlik» deb qo`ya qolishardi. Zohid bugungi ahvoliga qiyosan som-saning quvonchga taalluqli ta`rifi to`g`riroq, degan to`xtamga kelib,

taqdiriga tan berganicha nozirning «ziyofati»dan bahramand bo'ldi...

O'sha kuni bemorlarni kuzatib chiqqan Moshtabib ular tomon qarab-qarab qo'ydi-yu, e'tibor bermaganday ichkari kirib ketaverdi.

Otasining otdan yiqilib yelkasi singani haqidagi noxush xabardan gangigan Zohidning tashvishi Moshtabibni topib, qishloqqa olib borish topshirig'ini eshitgach, o'n karra oshdi. Ixcham cho'qqi soqolli, ko'k duxoba do'ppi kiygan, qotma, serg'ayrat Moshtabibning qiyofasi ko'z oldiga kelib, vujudi holsizlandi. Nazarida Moshtabib «Ha, o'zing ham kelarkansan-ku», deganday bo'ldi. Fotimaning «Shunaqa odam bormi, eshitganmisiz?» degan savoli uni ezuvchi xotiralar oqimidan qutqardi. Fotima erining «ha», degan ma'noda bosh irg'ab qo'yishiga qanoat qilmay, savolini yana qaytardi:

— Taniyman, — dedi Zohid istamaygina. — Ertalab uchrashib ko'raman. Uzoqqa borish-bormasligini bilmayman.

— Borgisi kelmasa indamay orqangizga qaytmasdan, prokurorligingizni ayting-da.

— Prokurorning boshida shoxi bormi?

Ming'irlab aytilgan bu gapga javoban Fotima bir nima deyishga og'iz juftladi-yu, erining avzoyini ko'rib, oqila ayolning ishini qildi — tilini tiya qoldi. Ammo «Menga nima, azob chekayotgan o'zingizning otangiz-ku» degan ma'noda labini burib qo'yishdan ti-yila olmadi.

Zohid jiyaniga «Sen ketaver, men tabibga uchrab keyin o'taman» deb uni kuzatib qo'ygach, yoshlik yillaridan noxush xotira bo'lib qolgan o'sha eski shaharning eski ko'chasiga bordi. Poyloqchilik qilgan muyulishdan o'tayotganida beixtiyor to'xtadi. Oqlab qo'yilgan kesak devor nazarida uning holidan kulganday tuyulib, oyoqlaridan quvvat ketganday bo'ldi. Bemorni kuzatib chiqqan Moshtabibning xushchaqchaq ovozi eshitmaganda yurmog'i qiyin edi. Ikki eshik orasidagi yo'l Zohid uchun g'oyat uzun tuyuldi. Moshtabibning ichkariga kirib ketmay kutib turishi ham Zohidga dalda berdi. Moshtabib uning salomiga alik olgach, jilmaygan holda:

— Keling birodar, xizmat? — deb so'radi.

— Dadam otdan yiqilibdilar. Vaqtingiz bemalol bo'lsa olib ketsam devdim.

— Olib ketmaysizu, birga borib kelamiz, — dedi Moshtabib kulib. — Men qiblagohimga aytib chiqay.

— Ungacha mashina topib kelaman.

— Topib nima qilasiz? Mana moshina, — dedi Moshtabib eshik yaqinidagi ko'k «Jiguli»ni ko'rsatib. Zohid bu mashinani birorta bemorniki deb o'ylagan edi. Moshtabibning darrovgina ko'nishi uning aqlini shoshirgan bo'lsa, bu marhamati yanada lol qoldirdi. U so'z aytishga ulgurmay Moshtabib ichkari kirib ketib, dam o'tmay qo'lida quticha ushlaganicha qaytdi.

Loy ko'chalardan o'tishayotganda Zohid bir oz xijolat bo'lganicha:

— UZR aka, boradigan joyimizni aytmovdim, sal uzoqroq, — dedi.

— Uzoq deysizmi? Xirotda emasdir? — dedi tabib kulib.

Uning xushchaqchaq tabiati Zohidni tuni bilan qiynagan uyatli holatdan qaytardi.

Uyqusiz tunda moshtabibga uchrashishning bir necha shaklini mo'ljal qilgan edi. Oxiri «Boramanu to'g'risini aytaman, olti-etti yil avval ko'changizda poyloqchilik qilgan milisa men bo'laman. Lekin sizga yomonligim yo'q edi», demoqqa qaror qilgandi. Biroq, Moshtabibning «keling birodar» deyishi bu xom qarorini yo'qqa chiqardi. Yo'lda ketaturib o'sha poyloqchilik voqeasini tilga olib uzr so'ramoqqa taraddudlandi, ammo bunga ham jur'ati yetmadi. «UZR so'raydigan odam boshiga tashvish tushgunicha olti-etti yil kutarmidi», deb o'zini o'zi koyidi.

Moshtabib Zohidni turli xayollar qiynayotganini sezganday o'zi gap boshlab qoldi:

— Birodar, yo'limiz uzoq ekan, jim ketishni jinim yoqtirmaydi. Xo'p desangiz, men sizga



bir nima aytib beraman.

— Yaxshi bo'lardi, — dedi Zohid, so'ng uzrli ohangda qo'shib qo'ydi: — Men asli gapga no'noqroqman.

— Gapga no'noqmasdirlsiz. Hozir adangizning ahvollarini o'ylab, tashvishlanyapsiz. Odam tashvishlanganida tiliga gap kelmaydi. Endi eshiting: Fariduddin Attor hazratlarida rivoyat bor: emishki, mamlakatda odam roppa-rosa o'n yil podsho bo'larkan. O'ninchi yilning so'nggi kuni adog'iga yetgach, podshoni taxtdan tushirib, qayiqqa o'tkazisharkanda kimsasiz orolga olib borib, qip-yalang'och holda tashlab kelisharkan. Shu rivoyatni eshitganmisiz?

— Yo'q, — dedi Zohid aybdor odam ohangida.

— Unda diqqat bilan eshiting: bunaqa ibratli rivoyatlarni qadimgi maktablarda o'qitishgan ekan, hozirgilar bilishmaydi. Mening baxtim chopib, bir aqlli odamdan saboq olganman. Bo'lmasa kamina ham omiligicha qolardi. Xullas, navbatdagi odam podsho bo'lib taxtga o'tirgach, yum-yum yig'larmish. Vaziri ajablanib: «Shohim, nega qayg'urasiz?» deb so'rabdi. «Nega yig'lamay, axir mening ham qismatim salaflarim kabidir. O'n yil o'tgach, meni ham kimsasiz orolga qo'yib keladilar. O'n yillik kayfu safo evaziga azob-uqubat chekaman. Oqibatda ilon-chayonlarga yem bo'laman.» debdi. Shohning baxtiga vaziri dono ekan. U debdiki: «Ey, zukko shohim, hamonki shunga aqlingiz yetibdi, endi bir ish qiling: o'zingizni behuda kayfu safodan ti-yingda buning evaziga o'sha kimsasiz orolni obod etishga kirishing. Daraxt eking, bog' qiling. Shunda sizni azob emas, rohat kutajak». Bu maslahat podshohga ma'qul kelibdi. Rivoyatga tushudingizmi?

— Ha, — dedi Zohid.

— Yo'q, hali to'la tushunmadingiz, — dedi Moshtabib unga qarab olib. — Bu rivoyatning asl mazmuni ruhga taalluqli, juda chuqur. Attor hazratim aytmoqchilarki, har bir odam o'ziga o'zi podshohdir. Rumiyl hazratlarida zo'r bir falsafa bor: «Kishi tushida o'zini shoh sifatida ko'rsa, atrofidagi odamlarning parvona bo'lishiga qarab turib: «hukmdor menman, mendan o'zga podshoh yo'q», deydi. Biroq, uyg'onib, uyida bir o'zini ko'rgach «Bu — menman va mendan boshqa hech kim yo'q», deydi. Bu — haqiqat. Haqiqatni ko'rmoq uchun esa bedor ko'z kerak. Uyquli ko'z ko'rmaydi». Zo'r gap-a!

Zohid «Ha» dedi-yu, unga ajablangan odam ko'zlari bilan qaradi: «bu tabibmi yo olimmi?» deb o'yladi. Undagi o'zgarishni sezgan Moshtabib esa yo'ldan ko'z uzmay gapini davom ettirdi:

— Xullas, podshoh — har bir odamning o'zi. Va- zir — odamning vijdoni. Odam belgilangan muddatini yashab bo'lgach, uni qayiqqa o'tqazadilar. Qayiq — tobut degani. Tobutning odamlar yelkasida qalqib borishi dengiz to'lqinlaridagi qayiqqa o'xshaydi, to'g'rimi? Kimsasiz orolga yalang'och holda tashlab kelish — lahadga joylash degani. Buni oxirat oroli desak ham bo'ladi. Bu oxirat oroli kishining hayotligi chog'idagi yaxshi, savob ishlari bilan obod bo'lar. Vijdon aytyaptiki, «ey inson, hadeb maishatga berilavermay, odamlarga yaxshilik ham qil, shunda boqiy dunyoda seni shu xayrli amallaring kutib oladi. O'zingga boshpana, hamroh bo'ladi. «Rivoyatning asl mag'ziga ko'ra, birodar, bugungi ishimiz bilan siz o'z oxiratingiz oroliga bir xayrli nihol ekingiz. Solih farzandning ota-onasi uchun qilgan har bir xayrli ishi oxiratini obod qiladi. Bu gapni eshitib Zohid boshini egdi. Moshtabibga bir qarab olgisi keldi-yu, botinmadi. «Solih farzand... — deb o'yladi, — otasi to'rt kundan beri azob chekib yotibdi. Bu solih farzand esa endi ketyapti...»

Zohid hamrohining maqtovini hazm qila olmadi — o'zini solih farzandlar qatoriga qo'shmoqqa haqsiz hisobladi. Ayni shu choqda yana bir narsani kashf etdi: avvallari har shanba qishlog'iga borib, yakshanba oqshomida shaharga qaytish odat tusiga kirgan edi.

Keyinroq ikki haftada, so'ngroq oyda bir yo'qlanadigan bo'ldi. «Adolat uchun kurash»dagi ishlari g'oyat ko'payib ketgan o'g'illarining vaqti yo'qligini anglagan otalarining o'zlari kelib turishdi.

Zohidni bemehrlikda ayblash noo'rin. «Vaqti yo'q», deb avaylash ham joiz emas. Yaratgan egam bandasiga kunu tun hisobidan yigirma to'rt soat vaqt berib qo'yibdi. Aql bilan, tadbir bilan ish yuritilsa har qanday yumush uchun vaqt topmoq mumkin. «Vaqtim yo'q», demoqlik noshudlarning bayrog'iga o'chmas bo'yoqlar bilan yozilgan bir shiordir. Shunday bo'lsa-da, Zohidni noshudlikda ayblamoq ham insofsizlikdir. Uning bu sohadagi kamchiligini balki e'tiborsizlikdan deb hisoblash durustdir. Shu e'tiborsizlik oqibatida qaysi bir yumush birinchi, qaysinisi ikkinchi... o'ninchi darajali ekanini farqlamay qoladi. Buni xastalik desak, bu kasallik bilan og'rikan birgina Zohid emas. Zohidning-ku otanasini qishloqda yashaydi. Borib-kelish uchun kamida yarim kun fursat kerak. Ota-onasi bilan bir hovlida yashaydiganlarga ham ana shu xastalik ilashgan bo'lsa nima deysiz? Ertalab yarim soatli uyqudan voz kechib bozorchaga chiqadigan, ikkitagina issiq nonu qaymoq olib kelib otanasini bilan nonushta qiladiganlar ko'pmi? Balki shoshib turib, chala-chulpa yuvinib, choyini apil-tapil ichib «oyi, men ketdim, kech qolyapman!» deb otanasining duosini kutishga ham toqat qilmay chiqib ketadiganlar ko'proqdir? Yoki ishdan kelib, tayyor taomni yeb, so'ng cho'zilib yotib televizor tomosha qiladigan yoki ko'chaga chiqib qo'shnilari bilan yarim tunga qadar nardi tashlaydiganlar ozmikin? «Bolam bilan bir ozgina gaplashay», degan ilinjidagi ota-onani o'ylamaydiganlar yo'qmi? Ayni shu kun, ayni shu soatda otanasini bilan so'ng-gi uchrashuv bo'lishi mumkinligini ko'pchilik o'ylamaydi...

...Ertaga barvaqt ham turar, bozorchaga chiqib qaymoq ham olib kelar... unda shu qaymoqni totib ko'ruvchi mehribonlari bu dunyoda bo'lmaydi...

...Ertaga «Oyijon, duo qiling, xizmatimga eson-omon borib kelayin, Tangri meni yarlaqasin!» degisi kelar, ammo duogo'y bu damda boqiy dunyoda bo'ladi.

...Ertaga ishdan qaytgach, suhbatlashib o'tirgisi kelar, biroq uning gaplarini jon qulog'i bilan tinglovchi, yutug'idan mamnun bo'luvchi, omadsizligidan tashvishlanuvchi mehr egalarning ko'zu quloqlariga tuproq to'kilgan bo'ladi...

Oradan yillar o'tar, umr o'tar, otanasining yoshiga yetar, choyini chala-chulpa ichib ishga shoshilayotgan farzandi izidan mo'ltillab ham qolar...

Yo'q, Zohid bu toifadan emas. Qishlog'iga borganida ko'chaga kam chiqadi. Akasi o'ldirilganidan so'ng bu yerdagilar bilan bordi-keldi qilishni istamay qolgan. Barchadan baravar nafratlanmasa ham, ko'chaga chiqqanida yo qotillarning o'ziga, yo do'stiga yoki qarindoshiga duch kelib g'azabi qo'zg'aydi. Shu sababli ham to-morqadan chiqmaslikka harakat qiladi.

O'zini bemehr farzandlar qatoriga qo'shmaydigan Zohid Moshtabibning hozirgi gapidan so'ng o'zini ayni shu toifada ko'rib, ezildi. Og'ir gunohini bo'yniga olgan tavnago'y singari siniq ovozda:

— Dadamning yiqilganlariga to'rt kun bo'libdi... Men kecha eshitdim... — dedi.

Tabib Zohidning nima demoqchi ekanini anglatdi-yu, unga bir qarab olib tasalli berdi:

— To'rt kundan keyin bilsangiz nima bo'пти? Bunga siz aybdor emassiz. Otalar tabiatan shunaqa bo'lishadi. Farzandlarini ayashadi. O'zlari azob chekishsa ham bolalarini bezovta qilgilari kelmaydi. Hozir borib eshitasiz: qiblagohingiz «o'g'limizga xabar beraylik», deganlar. Adangiz esa qaysarlik bilan «Qo'y, uni ovora qilma, ancha tuzukman, hozir», deb unamaganlar. To'rt kun shu mashmasha bilan o'tgan. Sizga xabar yuborilganini adangiz bilmasalar ham kerak. Hozir borsangiz «Qaerdan eshitding?» deb hayron bo'ladilar.

Tabib shunday deb kuldi.

«Ha, mening dadam shunaqalar, — deb o'yladi Zohid. — Mo'aminlikni ba'zan haddan oshirib yuboradilar.»

Zohidni yaxshi taniydiganlar «otasiga o'xshagan mo'amin-qobil bola», deydilar. Zohid bu ta'rifni inkor etmaydi. Ba'zan hazillashib «yuvoshligim dadamdan, jahlim chiqqanida ayamga o'xshab qolaman», derdi. Chindan ham ayasi dadasiga nisbatan gapga chechanroq, qo'polroq tarzda aytilsa, betga choparroq edi. Inson-ga doir fazilatu kamko'stlar ulashilganida dadasi yuvoshlikdan mo'lgina bahramand bo'lib, qaysarlik, sharttakilik kabi odatlarni peshtaxta ustida unutib qoldirganu ayasi esa «Erimga taalluqli bu «fazilat»larni uvol qilmayin», deb o'ziga qo'shib ola qolgan edi. Zohidning kichik singlisi tug'ilgan damlarda qo'shni «hovlingizni uzunasiga bo'lingu menga soting. Puliga bolalaringizni katta qilib olasiz», deb avrasa, dadasi ko'nibdi. Hovli o'rtasiga qoziq qoqilayotganda gap nimada ekanini bilib qolgan ayasi noroziligini «qorning teshilgur boy» degan lutf bilan boshlagach, qoqilgan qoziqlar ham joyida qolaverdi. Ayasi o'sha kuni zahrining hammasini qo'shnisiga sochmadi. Eriga ham ozgina olib qoldi. Xotining odatini yaxshi bilgan er zahar kosasi bo'shagunicha toqat qildi, oxiridagi javobi esa juda qisqa bo'ldi: «Yer talashma, xotin, bitta odamga ikki quloch yer yetarli». Zohid bu gapning ma'nosini ulg'ayganida angladi.

Tabib to'g'ri aytadi: dadasi uni avaylaydi. Zohid otasining bu odatini bilar, «faqat mening dadamgina mehribonlar» deb ham o'ylardi. «Deyarli barcha ota-ona farzandiga shu qadar mehribon, mana, hatto ko'zingizga ajalning o'qiday ko'rinuvchi Asadbek ham farzandlarining taqdiridan qayg'urib Moskvada yuribdi», deb ko'ringchi, siz bilan murosa qila olarmikin?

Bir oz jim yurishgach, tabib undan:

— Ota-onangizga qarab hech «uf» deganmisiz? — deb so'rab qoldi.

Zohid kutilmagan bu savoldan ajablandi:

— Ochig'ini aytsam... esimda yo'q, — dedi ikkilangan tarzda.

— Ha, esimizda bo'lmaydi, — dedi tabib jiddiy ohangda. Bir gaplari yoki buyurgan ishlari yoqmay «uf» deb qo'yamiz ba'zida. Ota-onasining o'limini kutadiganlar oldida bu arzirli narsa emasga o'xshaydi. Qariganda odam injiq bo'lib qoladi. Bir kuni sog' bo'lsa, uch kuni bemorlikda o'tadi. Hatto hozirgina ovqat yegani, qorni to'qligi ham yodidan ko'tarilib «ochman» deb noliydi. Aqlsiz farzandlar shunisiga chidasholmaydi. Aqlsiz deganimning sababi: qari ota-onaga yaxshimi-yomon qarash — Ollohning ulug' bir sinovi. Balki eshitgandirsiz, rivoyatga ko'ra bir odam qari otasidan bezib, qopga solibdida, «dashtu biyobonga tashlab kelaman», deb yo'lga o'tlanibdi. Charchab, dam olishga to'xtaganda qop ichidagi otasi nuqul kularmish. «Ota, men sizni bo'rilarga yem qilish uchun olib ketyapman, nega kulyapsiz?» deb so'rabdi o'g'il. Shunda otasi «Menam otamni qopga solib olib ketayotganimda ayni shu yerda to'xtab, dam olgan edim, o'g'lim», debdi. Rivoyatning qisqaligini qarangu chuqur ma'nosiga e'tibor bering.

— Ha, — dedi Zohid, — Rivoyat emas, haqiqatga yaqin gapga o'xshaydi. Bolaligimda ayam shunga o'xshagan cho'pchak aytib berardilar. Bir oilada qari otaga yaxshi qarashmas ekan. O'zlari chinni kosalarda taom ichishsa qari otaga eski, yog'och kosada ovqat berisharkan. Bir kuni kichkina o'g'iltoy yog'och o'yayotganmish. «Nima qilyapsan?» deb so'rashsa, bola «sizlarga kosa o'yyapman, qariganinglarda shu kosada sizlarga ovqat beraman», deb javob bergan ekan.

— Yaxshi, yaxshi, buni eshitmagan ekanman, — dedi tabib.

— Ayam buni ko'p marta aytganlar. O'shanda boshqa cho'pchakni bilmas ekanlar, deb o'ylabman.

— Ayangiz dono ekanlar. Bu haqiqatni miyangizga singdirganlar. Ota-onaga bemehr

farzanddan Olloh ham rozi bo'lmaydi. — Tabib gapining davomida arab tilida nimadir dedi. Keyin Zohidga bir qarab oldi: — Tushunmagandirsiz? Men Qur'oni karimdan oyatlar o'qidim. Olloh taborak va taolo aytyaptiki: «Robbing faqat uning o'zigagina ibodat qilishingni va ota-onaga yaxshilik qilmog'ingni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka yetsalar, bas, ularga «uff» dema, ularga ozor berma va ularga yaxshi so'z ayt. Ikovlariga mehribonlik ila xokisorlik qanotingni pastlat va «Robbim, alar meni kichiklikda tarbiya qilganlaridek, ularga rahm qilgin», deb ayt». — Tabib «shularni bilarmidingiz?» degan ma'noda Zohidga qarab oldi.

Ko'p qatori Zohid ham Tangrining kalomlarida nimalar bayon etilganini bilmas edi. Uning nazarida bu ilohiy kitobdagi satrlar inson ongi qabul qila olmaydigan, fahm etolmaydigan, faqat ayrim zukko odamlargina tushunishi mumkin bo'lgan darajada murakkab edi. U Qur'onni biluvchi odamning suhbatidan bahramand bo'lmagani sababli ham adash fikrda yurardi. Bolaligida bobosi «qani, do'ngpeshonalar, beri kellaring-chi», deb chorlab aytib beruvchi rivoyatlar, nasihatlar o'zining gaplarimidi yo Qur'on oyatlarimi yoki hadisi shariflardan misolmidi — Zohid u paytlarda farqlay olmasdi. Yoshi ulg'aygach esa, bularni farqlab olishga harakat ham qilmadi. O'zicha adolat uchun kurashaman, adolat alambardori bo'laman, deb umid qildi-yu, haq yo'li bu tomonda ekanidan xabarsiz qolaverdi. Botirovni tergov qilayotganida uning uchun qo'rong'u bo'lmish bu yo'l boshida bir uchqun ko'rindi-yu, ammo yoritishga qurbi yetmadi. Zohid «Qur'on — mo'minlar uchun nasihat, kofirlar uchun hasrat», degan oyati karimani avvalroq eshitganda bu muqaddas kitobga bo'lgan munosabatining o'zgarishi shubhasiz edi.

Talabalik yillari yotoqxonasida Sasha Klimovich degan yon qo'shnisi bo'lardi. Huquqqa doir har qanday kitobni tahlil qilib, kutilmagan xulosa chiqarishga usta bo'lgan bu yigit palovni, tandirda yopilgan piyozli nonni yaxshi ko'rardi. Zohid yakshanba oqshomida qishlog'idan qaytishi bilan Klimovich hech bir taklifsiz, manzirsiz kirib kelib, qorni to'ygungiga qadar mehmon bo'lardi. Zohidga uning mantiqli suhbatlari yoqardi.

Mehmondorchilik so'ngida Klimovich o'zicha duo qilgandek bo'lib «Xudo bizga sog'liqni bersa bas, qolganini sotib olaveramiz», deb kulardi. Bu odatini hech tark etmasdi. Bir yakshanbada Klimovichdan darak bo'lmagach, Zohid ajablanib uning eshigini taqillatdi. «Marhamat, eshik ochiq», degan taklifni eshitgach, ichkari kirdi. Yozuv stoliga muk tushgan Klimovich qalin kitobdan nimanidir ko'chirardi. U yozayotgan satrini oxiriga yetkazgach, bosh ko'tarib qaradi-yu, sal ajablangan ravishda jilmaydi.

— Ie, keldingmi? Vaqt o'tganini sezmay qolibman. Qara, qanday kitob topdim. Qur'on! Sablukov tarjimasida!

Zohid Sablukovning nomini ham, uning tarjimasidagi qur'on ma'nolari kitobini ham endi eshi-tayotganini yashirish uchun «Zo'r-ku», deb qo'ya qoldi.

— Zo'rki, u yoq bu yog'i yo'q. Bu kitobning chiqqaniga yuz yil bo'lgan. Qur'onning ruschaga tarjima qilingan boshqa nusxalari ham bor. Ammo Sablukovniki eng zo'ri hisoblanadi. O'zbekchasi bormi?

Zohid bu savoldan dovdirab, yelka qisib qo'ya qoldi.

— Men o'zbekchasi borligini eshitmaganman. Nega tarjima qilishmaydi, a? Qiziq! Dunyodagi hamma tillarga tarjima qilingan-ku? Otamning kutubxonasida nemis, ingliz nusxalarini ham ko'rganman.

— O'qiyapsanmi yo ko'chiryapsanmi? — deb so'radi Zohid qalin daftarga ishora qilib.

— O'qib chiqdim. Endi ko'chiryapman. Ko'chirib yozganda esda yaxshiroq qoladi.

«Tavrot» bilan «Injil»ni ko'chirib bo'lganman. Ha, nimaga og'zingni ochib turibsan? Bu ishim senga yoqmadi shekilli? Klimovich ahmoq emas, bu ishni bekorga qilmaydi. Sen bilan men ateistmiz. Xudoni tan olmaymiz. Bu kitoblar ilohiy emas, odam ongining

mahsuli deymiz. Xo'p, bu masalalarda Klimovich bahslashmaydi. Biroq, bir narsaga aniq javob talab qiladi: dunyo odamlari Tavrotga uch ming, Injilga ikki ming, Qur'onga bir ming to'rt yuz yildan beri yashamoqning asosiy qonuni sifatida amal qilib kelyaptilar. Sen bilan men ertaga odamlarning taqdirini hal qilamiz. Ular faqat bizning qonunlarimiz asosida yashamaydilar. Demak, biz ularni bilishimiz kerak. — Klimovich falsafasining Zohidga ta'sir etmayotganini sezdi-yu, gapni bura qoldi: — Palov olib keldingmi? Klimovich ham odam, vaqti-vaqti bilan ovqatlanib turishi shart.

Klimovich ilmiy ishga rag'bat bildirib, o'qishni aspiranturada davom ettirdi. Zohid kissavurlarning iziga tushib, ovloqlarda ularning yo'lini poylab tong ottirgan kezlari Klimovich ilm bilan band bo'ldi. Uch yilga qolmay nomzodlik dissertatsiyasini yoqladiyu Isroilga otlandi. Har qalay indamasdan ketmadi. Palov, piyozli non bilan siylab turgan qo'shnisini qidirib keldi. «Har bir ongli inson o'zining tarixiy Vatanida yashashi kerak». Klimovich bu qonunga amal qiladi, — deb qalin daftar tutqazdi. — Esingdami, Sablukovning tarjimasini ko'chirgan edim. Bu senga, esdalik. Sen buni o'qi, tushunib o'qi. Klimovich o'qib zarar ko'rmadi.

Shunday deb xayrlashdi. Zohid Odessada tug'ilgan, yoshlik yillari O'zbekistonda o'tgan do'stining tarixiy Vatani qaer ekanini undan xat olganidan keyin bildi.

Zohid o'sha kezlari daftarni varaqlab bir-ikki bet o'qigan bo'ldi-yu, bitxat bilan bitilgan sahifalarga ko'z tashlashga toqati yetmadi. Daftarni o'qilmay yotgan kitoblari ustiga qo'yganicha qayta qo'l urmadi.

Hozir tabibdan barcha uchun aniq, tushunarli bo'lgan oyati karimani eshitib, o'sha daftarni esladi. «O'qib qo'ysam bo'larkan», deb o'ziga dashnom berdi.

— Bu oyati karimani faqat siz uchun aytmadim, — dedi tabib yo'ldan ko'z uzmay. — Ko'p joylarda ko'p takrorlayman. Hammamiz bandamiz. Unutib qo'yish illatimiz bor. Unutib qo'ymaslik uchun takrorlab turishimiz joiz.

Tabib bu izohi bilan Zohidning ruhiyatidagi og'ir yukni yengillatdi. Bir oz yurishgach, Zohid suhbatni davom ettirish maqsadida:

— Tabib aka, hali oxirat oroli haqida gapirganingizda «daraxt ekdingiz» deb birlikda aytdingiz. «Daraxt ekmadikmi»? Sizning ishingiz ham xayirli-ku?

Moshtabib kulib, unga bir qarab oldi:

— To'g'ri, lekin ishim xayrlilik martabasiga yetib, oxirat orolida xayrli nihol bo'lib ko'karishi uchun adangiz avval shifo topishlari kerak. Men tuzatuvchi emasman. Shifo beruvchi — Olloh. Agar Olloh iroda qilgan bo'lsa, men bir sababchiman. Eng muhimi — mening xizmatimdan sizlar rozi bo'lsalaringiz nihol amal oladi. Bo'lmasa yo'q. Tabib yanglishmagan edi. Zohid uyga kirib kelishi bilan otasi «ie, sen qaerdan eshitding?» deb ajablandi.

Otasi xona to'ridagi qalin to'shak ustida o'tirardi. Yotishga qiynalgani uchun devor tomonga ustma-ust qo'yilgan yostiqlarga suyanib olgan edi. Bu holati ham joniga orom bera olmayotgani sababli bezovta ravishda tez-tez qimirlab qo'yardi. Uning ro'parasida derazaga orqa qilib o'tirgan ota qadrdon — Uloqchi buva joyidan jilmay, qo'l uzatib ko'rishdi. Zohid uni «ota qadrdon», deb bilsa-da, u odam bu martabaga qanoat qilmay, «Men buvang bilan ham samovorxonada oshxo'rlik qilganman», deb «buva qadrdon»lik darajasini talab qilardi. Gapu muomalasi ham shunga yarasha edi. Otasining «Sen qaerdan eshitding?» degan savoliga Uloqchi buva javob qaytardi:

— O'g'lingga men odam yuboruvdim. Milisa bo'lsa, idorasida milisa. Bu yerda senga o'g'il, boshqa gap yo'q. O'g'il bo'lganidan keyin o'g'illigini qilsin. Uch-to'rt kun ishga bormasa dunyoni o'g'ri bosib ketmaydi. O'g'ri jonivorlar ham bahonada dam olvolishadi. Hov milisa, yana ikki barmog'ingni burningga tiqib kelaverdingmi?

Zohid bu dashnomdan izza chekib, javob bera olmadi. Yo'ldagi bozorchaga

yaqinlashganda tabibdan «bir pas to'xtang, men non-pon olvolay» demoqchi bo'ldi-da, «iltimosim malol kelib, peshonasi tirishmasin, hali jiyanni chiqararman», degan fikrda o'tib kelavergan edi.

Uloqchi buva ayni damda uni buning uchun g'adablamagandi. Zohid o'zini oqlash maqsadida gap izlayotganida, uni bu og'ir yumishdan qutqarib, niyatini ochiq ayta qoldi: — Men sening afti-angoringga zor bo'lib chaqirtirmadim. Jiyaning borib nima dedi? «Moshtabibni topib kelarkansiz» demadimi?

Bu po'pisadan so'ng Zohid sal yengil tortdi. Biroq, xijolatlikdan butkul qutilmagan tarzda tabibga qaradi. Qo'l qovushtirib turgan tabib «izza chekmang, shunaqasi ham bo'lib turadi», degan ma'noda kulimsirab qo'ydi.

— Uloqchi buva, o'tirsak maylimi? — dedi Zohid ham iltimos, ham kinoya ohangida.

— O'tirib nima qilasan? Sen izingga qaytib, Moshtabibni yerning tagidan bo'lsa ham topib kel. Boshqa gap yo'q. Qara, otang azob chekyapti. Sen tomosha qilib o'tirganing bilan yengillab qolmaydi.

Zohid bolaligida «amaki» deganida samovorxonada buvasi bilan oshxo'rlik qilgan bu odam «buva» deyishni talab qilgan edi. Hozir Zohid shu talabga amal qilgan holda:

— Buvajon, — dedi mehribon nabira ovozi bilan, — men sizning gapingizni hech ikki qilganmanmi? Moshtabib keldilar.

— Qani? — Uloqchi buva orqasiga o'girilib, deraza osha hovliga qaradi.

— Taqsir, xizmatingizdamiz, — dedi Moshtabib kulimsiragan holda.

— Senmisan? — Uloqchi buva unga tikilib qaragach, bosh chayqadi. — Senlar borib Moshtabibni ko'rmagan boshqa odamni laqillatlaring. Moshtabib mening singan belimni joyiga solib qo'ygan. Men uni ko'z-larimni yumib turib ham taniyman. Sening oting nima?

— Abdujabbor, taqsir.

— Ha, ana, oting ham boshqacha. Moshtabibning oti... — Uloqchi buva bir oz o'ylandi. — Zokir qori edi.

— Sal adashdingizmikim, Sobir qori emasmi?

— Ha, ha! Sobir qori! Taniysanmi uni?

— U zot mening dadamlar.

— Yo'g'-e, — Uloqchi buva unga yana tikildi. — Ha, o'xshaysan. Qani otang, nega o'zi kelmadi?

— Taqsir... dadamiz dunyodan o'tganlar.

— Ie, shunaqami? Sen tuzukroq o'rganib qolganmisan ishqilib?

Uloqchi buvaning bu gaplaridan Zohid xijolat bo'ldi. Tabib esa malol olmay javob berdi:

— Xudo yuqtirgan darajada, taqsir.

— Unda qarab qo'y, choyni keyin ichaverasan.

— Xo'p bo'ladi, taqsir.

— Hoy, sen buncha meni «taqsir»lab qolding. Men senga mulla emasman. Taqsir dema. Men chavandozman!

Tabib ko'ksiga qo'lini qo'yib «xo'p» ishorasini qildi-da, bemorga yaqinlashdi. Zohid uning tirsakka qo'l yuborganini ko'rdi-yu, nima qilganini sezmay qoldi. Qulog'iga «qirs» etgan ovoz urilib, seskandi. Otasi bir «oh» deb qo'ydi. Tabib «Yana buyuring, taqsir» deganday Uloqchi buvaga qaradi:

— Nima bo'ldi? — dedi Uloqchi buva.

— Tirsaklari ham chiqqan ekan, solib qo'ydim.

— Bo'ldimi?

— Yo'q, bo'lmadi.

— Yana nima qilish kerak?

- Gips noto'g'ri solinibdi, — Tabib shunday deb bemorga o'girilib so'radi: — Qo'ltiqlaringiz tortib og'riyaptimi?
- Bemor tasdiq ishorasini qilgach, tabib Zohidga «nima qilamiz?» degan ma'noda qaradi.
- Do'xtirga olib borib aytish kerak. Rentgen qog'ozga yaxshiroq qarasin.
- Moshtabibning o'g'li bo'lsang o'zing tuzatasan, boshqa gap yo'q. Gips qo'yishni bilmaydigan do'xtiringga boshqa bormaydi.
- Agar rozilik bersangiz urinib ko'raman.
- O'zga chora bo'lmagach, nima qilishsin? Gips olingach, tabibning barmoqlari yelkani silab borib bir nuqtani qattiqroq bosdi. Bemor ingrab yuborgach, Uloqchi buva cho'kkalab olib, tabibning harakatlarini diqqat bilan kuzatdi. Zohid buyurilgan narsalarni keltirgach, tabib Uloqchi buvaga yuzlandi:
- Endi menga ko'maklashib yuboradilar. Sog' yelkalarini mahkam ushlab turadilar. — Uloqchi buva tabibning amriga bo'ysunib, unga yaqinlashgach, Moshtabib bir bog'lam dokani oldi: — Amaki, shuni mahkam tishlang. Ozgina og'riq bo'ladi, chidaysiz.
- Baqirmasin, deb tishlatyapsanmi? Qo'y buningni, oshnam chidamli bola, uncha-buncha dard baqirtirolmaydi. Otang ham menga doka tishlatmagan.
- Bu aralashuv tabibga yoqmay, qoshlari chimirildi. «Buningiz qanaqa odam o'zi?» deganday Zohidga qarab oldi. Izoh berishni yoqtirmasa ham yoqimsiz yordamchisini tinchitish uchun:
- Bexosdan tilni tishlab olishlari mumkin, — deb qo'ydi-da, ishga kirishdi. Tabib chaqqon harakatlari bilan bir necha nafasda muolajani yakuniga yetkazgan bo'lsa-da, otasining azoblanayotganini ko'rib turgan Zohid uchun bu fursat juda uzoq tuyuldi. Yelka bog'lab bo'lingach, tabib bemorning peshonasidagi terni artirdi-da, ko'z qorachig'iga tikildi. So'ng yana qilinajak ishlarni Zohidga tayinlab, qutichadagi malhamni bergach, qaytishga chog'landi.
- Otangga balli, qo'ling yengil ekan, oshnamning ko'zlarini moshdek ochib qo'yding. Endi biz bilan bir piyola choy ich. Boshqa gap yo'q, — dedi Uloqchi buva amr ohangida. Moshtabib uyda onasi betob ekanini, xastalar kelib kutayotgan bo'lishi mumkinligini bu odamga aytishning foydasizligini anglagani uchun «bir piyola choy ichishga» o'tirdi. Uloqchi buva esa choy qaytarayotgan Zohidga qarab:
- Menga qara, milisa bola, — dedi, — sen menga bir narsani tushuntirib ber: uch-to'rt yil burun raisimizni paxtadan o'g'irlik qilgan, deb qamovdilaring.
- Men qamamaganman, adashmang, buva, — dedi Zohid, tabibga choy uzata turib.
- Sen bo'lmasang, oshnalaring qamashgan. Lekin to'g'ri qamovdilaring, o'g'riligi bor edi. Endi zamon o'zgarib, chiqaribsanlar. Endi... nima endi... — Uloqchi buva o'ylandi, — Ivanovmidi? Yana bittasi kim edi?
- Gdlyanmi? — dedi Zohid.
- Ha, o'sha. Xullasi, endi o'shalar muttaham ekan. Qaysi biri to'g'ri?
- Hamma narsaning oxiri to'g'ri bo'ladi-da.
- Sen milisa, meni laqillatma. Haligi Eshim akang bor-ku, maktabingga direktor bo'lgan, o'shanga aytsam, «Siz raisning boyligini ko'rolmaysiz», deydi zang'ar. Meni bilasan-a, «oqmasa ham soy yaxshi, boqmasa ham boy yaxshi», deydigan odamman. Mana, Abdujabbor, sen ayt: otang qori edi, a? Senga ham yuqtirgandir bu ilmdan? Bu qizig'arlarning hammasi boy bo'laman, deb intiladi. Shu raisimiz qamoqdan chiqib tinch yurarmidi? Burniga suv kirgan deb o'ylaysanmi? Be, u yana amalini qaytarib olishga urinadi. Ha, boshqa gap yo'q! Endi sen gapir-chi, Abdujabbor.
- Tabib unga darrov javob qilgisi kelmadimi, choydagi shamaning ohista suzishini kuzatganday tikilib turdi.
- Odamning bu dunyoda boy bo'lishi qiyinmas, — dedi u o'ychan tarzda. — Boyning u

dunyodagi javobi mushkul. Kambag`aldan qay darajada sabr qilgani, qanchalar shukrona aytgani so`ralarkan. Boy esa bunga qo`shimcha ravishda qanday topgani, nimaga sarf etgani, zakotni to`la bergan yo bermaganligidan so`ralarkan.

Uloqchi buva bu gapdan ta`sirlanib «ana!» deb xitob qildi-da, tizzasiga bir shapati tushirib «gapiraver, qorining o`g`li!» deganday unga yanada qattiqroq tikildi. Moshtabib shoshayotgan bo`lsa ham bularga bir nima deb qo`yishga ehtiyoj sezdi:

— Tariximizda ulug` donolar ko`p ibratli gaplarni aytib ketishgan. Shulardan biri deydiki, aqlli odam o`ziga nisbatan talabchan bo`ladi-yu, boshqalardan hech nima istamaydi. U o`zining taqdiridan hamisha rozi, hech mahal nolimaydi. O`zining qismati uchun boshqalarni ayblamaydi. Taqdiriga tan berib xokisor bo`lib yashayveradi. Nodon esa dunyo ne`matlariga berilib, jonini xatarga qo`yadi. Agar o`q nishonga tegmasa, aqlli mergan boshqani emas, o`zini ayblar ekan. Donishmand ham shunday bo`larkan.

Uloqchi buva endi boshini quyi egganicha sehrli ashula eshitayotganday tebrandi.

Moshtabibga uning bu holati ta`sir etib gapini davom etdi:

— Ikkinchi donishmand deydiki, biron bir ayol erishgan javohiri tufayli yaxshiroq bo`lib qolgan, deb o`ylaysizmi? Holbuki, qanchadan qancha ayol jav-harga yetmoq yo`lida buzildi ekan, baxtsiz bo`lib qoldi ekan? Qaysi bir erkak tilla to`la sandiqqa yetishib yaxshiroq bo`libdi? Sandiqlarni to`latish yo`lida qilingan zulm miqdorini kim o`lchaydi ekan?

Bu hikmatlarni jon qulog`i bilan tinglayotgan Uloqchi buva hissiyotlari tizginini qo`yib yubora qoldi:

— Qoyilman, ota o`g`il! Naq otangning o`zi bo`libsan, boshqa gap yo`q! — deb xitob qilgach, Moshtabib qaytishga izn so`radi. Mastavaga guruch solingani haqi-dagi xushxabar kirganiga qaramay ahdida qattiq tu-rib olgach, noiloj ruxsat berishdi. Zohid qolarini ham, ketishini ham bilmay Uloqchi buvaga qaragan edi, u:

— Sening ishing bitdi, ketaver, bu yog`iga biz bormiz, — deb mushkulni oson etdi.

Qishloqdan chiqaverishda Moshtabib Zohidga qarab olib:

— Bir gap aytaymi? — dedi-da, Zohid tomonidan ijozat bo`lishini kutmayoq gapini davom ettirdi: — Siz bugun ikki marta xijolat chekdingiz. Birinchi- si — siz menga ro`para bo`lishdan uyaldingiz. Olti-etti yil avval ko`chamizda turganlaringiz esingizga tushib ketdi.

Zohid bu gapni eshitib, unga yalt etib qaradi:

— Taniganmidingiz?

— Bo`lmasam-chi! Bir hafta uyimizni poylaysizu tanimaymanmi? Siz bu ishdan uyalming, birodar. Milisa sherigingiz menga aytgan. O`shanda talaba ekansiz, a? Omma-lekin, — tabib rohatlanib kuldi: — to`rt tiyinlikka rosa to`ydirganmidi?

— Buni ham ko`ruvdingizmi?

— Ko`rgandaki... Nega faqat to`rt tiyinlik somsa bilan siyladi, bilasizmi? Yo`q, bilmaysiz. U insof yuzasidan shunday qilardi. Insof deganimki, u shu atrofga o`zini xo`jayin deb bilib sotilayotgan narsalardan tekinga olaverardi. Yigirma tiyinlik tandir somsadan olsa gunohim ko`payadi, deb qo`rqib arzonini shilaverardi.

— Men u kishini o`shandan keyin ko`rmadim.

— U milisadan ketgan. Hozir maktabda qorovullik qiladi. Endi ikkinchi xijolatingizni aytaymi? Adangizning birodarlari sal shaldir-shuldirroq ekan. «Tabibning jahli chiqadi», deb o`yladingizmi? Be, biz bundan battarlariga ham duch kelamiz. Lekin ochiq chehramizni o`zgartirmaymiz. Bemorning huzurida peshonamizni tirishtirsak yarashmaydi. Siz bunaqa narsalardan emas, adolatsiz bir ish qilishdan xijolat bo`ling. Birovning ko`nglini nojoiz og`ritib qo`yishdan uyaling. Faqat aqlli odamgina o`zining noma`qul ishidan uyalishi mumkin. Ahmoq odamda uyat bo`lmaydi. Balki uyati



bo'lmagani uchun ahmoqdir, a? Nima deysiz?

To'g'ri gapga Zohid nima derdi? Tabibning gapini tasdiq etgach, ko'pdan beri javobini topolmayotgan bir savolni berdi:

— Tabib aka, ko'p odam adolatdan gapiradi. Mana, siz ham tilga olyapsiz. Nazarimda adolatli bo'lish dam juda og'ir, dam juda yengil ishga o'xshab ko'rinadi. Adolatsiz bo'lish osonmi yoki adolatli bo'lish qiyinmi? Meningcha adolat bilan adolatsizlik o'rtasida juda katta maydon emas, kichkinagina ariqcha bor. Adolat sohilidan noinsoflik qirg'og'iga sakrab o'tish osonga o'xshaydi. Nega shunaqa? Dindan yaxshi xabaringiz bor ekan, shuning uchun sizdan so'rayapman bu savolni: Xudo odamlarning hammasini bir xilda adolatli, bir xilda mehr-muhabbatli qilib yaratsa bo'lmasmidi?

— Oллоh taborak va taolo lozim topmabdiki, shunday qilmabdi. Xo'sh, nega endi lozim topmabdi ekan?

— Shuni so'rayapman-da, — dedi Zohid, undan bama'ni javob kutib.

— Bu dunyo qanday dunyo, bilasizmi?

— O'tkinchimi? Shoirlar foniylar dunyo deyishadi-ku?

— Shoirlarning gapi emas bu. Asli o'zi shunday. Lekin foniyligini bir haqiqat desak, ikkinchi haqiqati — bu dunyo sinov dunyosi. Hazrat Rumiya bir bayt bor, aytaymi?

— Ayting.

— Rumiya hazrat debdilarki:

«Har kase ki dur mond az asli xesh,

Boz jo'yad ro'zg'ori vasli xesh.»

Moshtabib baytni maroq bilan o'qib, rohatlandi. Yo'ldan ko'zlarini uzib, Zohidga tezgina qarab olgach, gapini davom ettirdi:

— Buning ma'nosi: «har kishiki o'zining aslidan uzoq qolsa, o'sha o'tgan tirikchilik vaslini takror istaydi.» Bu sizga oddiy gap bo'lib tuyulmayaptimi?

Tabib gapga berilib mashinani sekinlatganini o'zi ham sezmadi. Orqadagilar asabiylashib signal chala boshlashgach, ro'parasidagi ko'zgu orqali ularga qarab kulimsirab qo'ydi-da, mashinani o'ngroqqa olib:

— O'ta qoling, birodar, shoshayotganga o'xshaysiz. Ishqilib yo'lingiz bexatar bo'lsin, — dedi. So'ng fikrini davom ettirdi: — Rumiya hazratlarining har bir so'zlari javhardir.

Javharni olish uchun dengizning tub-tubiga sho'ng'ish kerak, sadafni topish kerak, ochish kerak. Hozir eshitganingizni ulamolar bunday izohlashadi: «Bashar farzandining asli nima? Asli albatta, ruhoniylar olami. Dunyo esa imtihon sahnasi. Ba'zilar inson vaqtincha qoladigan bir mahbas, ya'ni zindon ham deydilar. Demak, mahbas va zavol mahali hisoblangan bu dunyoda bir kimsaning o'z shahri-vatanidan ayrilib, hijron va g'urbatga giriftor bo'lgach, o'z kindik qoni to'kilgan tuproqni orzu etishi aniq narsadir. Bu degani, aqlli odam asl vatani — ruhoniylar olamini orzu qiladi. Aqlli odam dunyoda vaqtinchalik qolish uchun amr etilganini, va'da qilingan ajal kelguniga qadar zaruriyatda yashayotganini biladi. Bilsa, demak, umrini yaxshilik bilan o'tkazishga intiladi.

Mavlononing baytlaridagi ma'no javhari shu. Tushundingizmi?

— Sal-pal.

— Hozircha shu «sal-pal» ham yetarli. Aslida odamga bu dunyoda ko'p narsa kerakmas. Hozir uyingizda mastava pishgandir, — tabib shunday deb kulimsiradi. — Boylarning uyida ham peshinga taom tayyorlanyapti. Boyning qorni ham, kambag'alniki ham bir xil. Odam uchun kunda bir mahal ovqat, bir sidra kiyim yetarli. Qolgani — bekor. Hazrat Usmondan rivoyat qilinishicha, rasulliloh «dunyoga ahamiyat — qalbdagi zulmat; oxiratga ahamiyat — qalbdagi nurdir», degan ekanlar. Siz bilan bizga yana debdilarki: «Zamon kelur va o'shanda ummatlarim beshta narsani yaxshi ko'rib, beshta narsani unutar: ya'nikim, dunyoga muhabbat qo'yadilar va oxiratni unutaradilar; hayotni sevib,

o'limni esdan chiqaradilar; qasrlarni yaxshi ko'radilar, qabrni unutadilar; molga muhabbat qo'yib, hisob-kitobni yoddan chiqaradilar; xalqni yaxshi ko'radilar va Xoliqni unutadilar.»

Moshtabib «Bu hikmatlarning ma'nosini qalbingizga singdirib olishingiz uchun fursat beraman», deganday so'zdan to'xtadi. Bu sukut Zohidga asqotdi. U ayrim izdihomlarda, ba'zan yoshi ulug'larning suhbatlarida shunga o'xshash hikmatlarni eshitib qolar, biroq, «Yaxshi gap ekan», demoqlikdan nariga o'tmasdi. Keyingi yillarda matbuotda tez-tez chiqa boshlagan diniy mavzudagi suhbatlarning asosan sarlavhalariga ko'z tashlab, kam hollarda u yer-bu yeridan cho'qilab o'qib qo'yardi. Moshtabibning hozirgi suhbatlari qorong'ulik pardasidagi qalbiga xush yoquvchi nur kabi oqib kirdi. Tasavvur etingkim, zulmat og'ushida tentirab yurgan odamning ro'parasida birdaniga oydin yo'l ko'rin-

sa-yu, yana shu yo'ldan javhar topib olsa dunyo ko'zlariga qanday huzurbaxsh, qanday sururli ko'rinarkin? Zohid ayni damda shunday baxtiyor odam kabi edi. Kechagina bu odamga ro'para kelish unga azobli yumush bo'lib tuyulgan edi. Odam farzandlari moddiy boylikni, xususan yemoq-ichmoqqa doir ne'matlarni Yaratganning marhamati sifatida qabul qilib, shukronalar aytadilar. Ma'nolar xazinasini ochib bera oluvchi suhbatdan bahramand bo'lish ham Tangrining mo'jizasi ekani, shu mo'jiza tufayli qalb muhrlari yechilmog'i amr etilgani, Yaratganning bu rahmati barchaga ham nasib etavermasligini o'ylab ko'rmaydilar.

Adolat bog'ini topib, unga inson nihollarini ekib ko'kartirish, mehr mevalaridan bahra olish umidida yashayotgan Zohid akasining o'limidan so'ng shu bog'ni topish maqsadida necha-necha qorong'i ko'chalarga kirib chiqdi. «Hammani bir xilda adolatli qilib yaratib qo'ya qolsa bo'lmasmidi», degan xayolga borib Tangrining ishlariga ham aralashib ko'rdi. Adolat bog'iga yetib bormoq uchun avval zulm sahrosini bartaraf etmoq lozimligini durust idrok qilolmasdi. Holbuki uning kundalik yumushi shu sahro atrofida edi. Ilon ovlovchi sahrodagi ilonlarni tutib ado etolmagani kabi Zohidning ishlarida ham samara ko'rinmadi. Chunki u va u kabi adolat bog'ini qo'msayotganlar zulm sahrosidagilarning jon tomirlarini ko'rmas, aniqrog'i ko'rishga imkoniyat berilmas edi. G'ofillikdan qutqaruvchi tanbehlardan bebahra bo'lganliklari sababli ham bu sahro atrofida sarsari kezmoqdan boshqa ilojlari yo'q edi.

Zohid ko'p ilmiy nazariyalar, ilmiy tahminlar, formulalarni bilardi. Ammo hayotning oddiy formulasidan yetarli darajada xabardor emasdi: adolat bog'i yo'lini to'sib turuvchi zulm sahrosiga zulmat qalblar hukmron ekani uning uchun noma'lum edi. Moshtabib hozir aytgan hikmatlar unga shu haqiqatni ayon etdi. «Odamlar qalbidagi boylikka muhabbat hissini o'ldirmay turib, adolat bog'ini barpo etib bo'lmaydi», degan fikr uning vujudini bir qalqitib oldi.

Akasining o'limidan, ayniqsa sud jarayonidan so'ng uni ilm yo'lidan burib yuborishga majbur etgan kuch, yoshlikka xos o'jarlik, hatto surguga intilish yil o'tgani sayin, hayot so'qmoqlarida qoqila boshlaganidan so'ng asta-asta kuchdan qola boshlagan edi.

Bir suhbatning o'zidayoq o'sha surur mahv etildi, deb ishontirish nodonlik bo'lar. Yoshlikning mevasi — maqsad va unga mayoq hisoblanmish sururning o'zga ko'rinish olishiga hali fursat bor. «O'zga ko'rinish olishiga» deyiluvchi besabab emas: insonlardagi maqsad yoki surur o'lib, butunlay yo'q bo'lib ketmaydi. Maqsadsiz, surursiz tirik jonni tasavvur etmoq mushkul. Maqsad ham, surur ham odamning ongi darajasiga qarab kuchli yoki mundayroq, xayrli yoki g'ayirli bo'lmog'i tabiiydir. Odamdagi maqsad daraxti zulm sahrosida o'sayotgan bo'lsa undan nurli sururni kutmoq qoramoydan sut ayirib olmoqni umid qilish kabi bema'nilikdir. Ayrim daraxtlarning tepa shoxlari qurib, pastda yangi surxchalar o'sa boshlagani singari maqsad va surur yangi ko'rinish kasb etadi. Zohidning taqdirida bu o'zgarish ham bor edi.

Uloqchi buva ijozat bersa-da, Zohid tabibni kuzatgach, qishloqqa qaytmoqchi edi. Ikki-uch kunga ijozat so'ramoq niyatida idorasiga borib, yuqoridan Said Qodirov yo'qlatganini eshitdi-yu, shashtidan qaytdi. «Bir g'alvaga ro'para qilmasa edi», degan xayolda tashqariga chiqqanida mashinasidan tushib kelayotgan rahbariga duch keldi.

— Ahvol qalay, Shokarimovning ishi bo'lyapti- mi? — deb so'radi rahbar ko'risha turib, so'ng amr ohangida ilova qildi: — Tezlating, azizim, tez- lating. Hozir yana eslatishdi. Buguncha eslatishdi, ertaga tanbeh berishadi, indinga po'stagimizni qoqi-shadi.

Rahbar shunday degach, Zohidning izohini kutmayoq idoraga kirib ketdi. «Dadam otdan yiqilibdilar, ruxsat bering», deb so'rashiga hojat ham qolmadi.

Shamolning izg'irinli nafasidan eti junjikib, qo'nishib oldi.

Deraza qiya ochib qo'yilgani uchun Said Qodirovning xonasi salqin edi. Xona sohibi o'rnidan turib Zohid bilan so'rashgach, derazani yopdi-da, «Yana shamollatib qo'ymay», deb jilmaydi. Keyin qaynatgichni to'kka ular ekan: «Sog'intirib qo'ydingiz-ku?» dedi.

— Yuribmiz, davlatingiz soyasida, — dedi Zohid kinoyasiz ohangda.

— Soyada yurganingiz yaxshi. Sillangiz qurimaydi. Bir qahva ichib olamiz-a?

— Aqlni peshlaymizmi?

Said Qodirov «istehzo qilyaptimi?» degan ma'noda Zohidga qaradi. Bu qarashga javoban Zohid jilmaydi. Kinoya qilishga undovchi asabiy holatdan holi, gapi ohangi ham samimiy edi. Shu bois Said Qodirov kulib, payrovni davom ettirayotgan askiyachi kabi javob qildi:

— Mening ustozim hech mahal yanglishmagan: qahva aqlni peshlaydi, deganmi, demak, peshlaydi. Qizdirilgan po'lat suvga solinsa toblanadi-ku, to'g'rimi?

— G'irt to'g'ri. Lekin qahva ichmaganlarning aqli...

— Endi bu yog'iga o'tmang, — dedi Said Qodirov, ikki piyolaga bir qoshiqdan qahva kukuni solar ekan.— Yangiliklardan gapiring. Mahmud Ehsonovni eshitgandirsiz?

— Eshitdim.

— Xo'sh?

Zohid xona sohibining qarashidagi quvlik soyasini ilg'ab, o'zini anqovlik pardasi ortiga olib, dedi:

— Avariya bo'lganmishmi? Kimdir aytuvdi, turklar «aroba qazosida» deyishar ekan. Aroba qazosida qazo qilibdi, bechora. Umri shunaqa qisqa ekan-da.

— Sizga bu qazo g'alati tuyulmadimi?

— Nimasi g'alati? Kunda bo'lmasa ham kun oralab, kun oralab bo'lmasa ham haftadami, oydami bir bo'lib turibdi-ku, bunaqa qazo?

— Har holda Asadbekning odamlari haftada bir o'lmayotgandir? — Said Qodirov shunday deb qaynatgichni to'kdan uzib, shaqillab qaynab turgan suvdan piyolalarga quydi-da, birini Zohidga uzatdi: — Qantni o'zingiz soling.

Qahva ichib olinguncha ikkovlari ham bir-birlaridan so'z o'qlari kutganday indamasdan o'tirishdi. Qahvasini birinchi bo'lib ichib tugatgan Said Qodirov piyolasini stol chetiga qo'yib, quvlik qarashiga xiyonat qilmagan tarzda mehmonga tikildi:

— Durust, — dedi u. — Ancha o'zgaribsiz... Yaxshi tomonga o'zgaribsiz. Shunaqa befarqlik ham ba'zan kasbimizda husn sanaladi. Lekin... o'sha qazoning ertasiga ham befarq qolaverganingizda yanada yaxshi edi. Tergovchiga uchrashishingiz hojatsiz edi.

— Men atay bormadim. Tergovchini tasodifan ko'chada uchratdim, — dedi Zohid qahvaning so'nggi qultumini yutib.

Zohid fojiani eshitgach, o'sha ko'chaga borgan edi. Aslida bu ishga aralashish, surishtirish niyati yo'q edi. Mashinalarning to'qnash joylarini ko'cha xaritasiga

belgilayotgan tergovchi bilan ikki og'izgina gaplashgandi. Tergovchi Zohidni tanimagani uchun shunchaki qiziqayotgan yo'lovchilardan deb bilib, savoliga qisqa ravishda, to'nglik bilan javob qilgan edi. Tergovchi ishini tugatib, yordamchilari bilan ketganidan so'ng ham Zohid atrofni ko'zdan kechirish maqsadida qolgan edi. Xayoli mashinalarning harakati bilan band Zohid sal narida bir juft ko'zning ta'qib qilayotganidan bexabar edi. Asadbekning topshirig'iga ko'ra surishtirishga kelgan Halimjon Zohidning ketishini kutib turgan, so'ng Said Qodirovga qo'ng'iroq qilib ogoh etgan edi. Bundan bexabar Zohid «o'sha tergovchi tanigan ekan-da, darrov xabar yetkazibdi-da», deb o'yladi.

— Bu bir tasodifiy fojia, militsiyaning o'zi shug'ullanaversin, — dedi Said Qodirov ma'nodor ohang-da.

— Shunaqa tasodiflar tez-tez bo'lib tursa, bir-birlarini yeb ado qiladilar. Bizga ham yaxshi, boshimiz og'rimaydi, — dedi Zohid.

— Ularga achinmaysizmi? — Said Qodirovning bu savolidan Zohid taajjublandi.

— Achinmaysizmi? Nega achinishim kerak?

— Har holda ular ham odam. Bola-chaqalari yetim qolgan, axir.

— Ular birovlarining sho'rini quritishganda achinishganmikin?

— Demak... achinmaysiz?

— Bilmadim... balki yetim qolgan bolalariga achinarman.

— Bolalari ham otalarining ishlarini davom ettirishsa-chi?

— Davom ettirishsa... noiloj, otalari borgan joyga borishadi-da.

— Qahringiz qattiq ekan.

— Bu hayotning qonuniyati. Qahrimning qattiq yo yumshoqligiga bog'liq narsa emas. Siz «achinmaysizmi?» deb so'radigiz, a? To'g'ri, kim bo'lsa-bo'lsin, o'lgandan keyin achinishimiz kerakka o'xshaydi. Lekin men bunga boshqacharoq munosabatdaman.

O'lim — haq, shundaymi? Odam bugunmi yo ertami baribir omonatini topshiradi. Men odamning QACHON emas, QANDAY o'lganiga qarab achinish tarafdoriman. Hayvonday umr kechirib, hayvonday o'lim topgan odam achinishimizga arzimaydi. Aksincha, yaxshi odamning vafotidan ko'nglimiz og'riydi. «Yana yashasa bo'lardi», deymiz.

— O'sha yomon odam yana ozgina yashasa yaxshi tomonga o'zgarar balki?

— Men bunaqasini ko'rmadim.

— Men ham ko'rmadim... hozircha. Xo'p, Ehsonovga achinmabsiz, Shokarimovga-chi?

— Shokarimovgami? — Zohid «bundan ham xabarlar bor ekan-da, a?» degan ma'noda hamsuhbatiga qarab oldi-da, uch-to'rt nafas sukut saqlagach, javob berdi: — Yo'q, mutlaqo achinmayman. Yana «nima uchun?» deb so'rarsiz?

— So'rasam ham bo'ladi. Istasangiz ayting, istamasangiz yo'q.

— Har holda bekorga so'ramagandirsiz. Balki bu «ish» ham nazoratingizdadir?

— Shunga yaqinroq.

— Unda aytishim shart ekan. Achinmasligimning bir necha sabablari bor: birinchisi, o'ynashinikida o'ldirilgan, degan gumon mavjud. Bu gumon tasdiqlanmasligi ham mumkin. Lekin o'ynashi borligi aniq. Demak, harom yo'ldagi odamning qismati bundan o'zgacha bo'lmaydi. Ikkinchi sabab, u asadbeklarga aloqador odam. Bu tomonda ham to'g'ri yashamagan.

— Qahringiz men kutgandan ham qattiqroq ekan,— dedi Said Qodirov bosh chayqab. — Odamiylik nuqtai nazaridan fikringiz to'g'ridir. Kasbimiz nuqtai nazaridan-chi? Hayotlik davrlarida kim bo'lishlari biz uchun farqsiz, endi ular jabrlanuvchilar hisoblanadilar. Bizning burchimiz esa o'sha jabr etganni topish.

Zohid bu gapni eshitib, boshini quyiroq egdi-da: «Men og'ir muammoga duch keldim, aqling yetsa sen javob ber», deganday beixtiyor ravishda piyolaga ikki bora chertib qo'ydi. Loyi qalin olingan piyola bokira qizning qah-qahasiday jarang emas, tumov

bo'lgan kampirning yo'tali kabi bo'g'iq ovoz berdi. Xuddi «bu muammoni yecholmay o'zim ham bo'g'ilib o'layozdim», degan kabi bo'ldi. Zohid boshini ko'tarib xona sohibiga tikildi:

— Odamiylik nuqtai nazari boshqa, bizning kasbimiz boshqami?

Said Qodirov stol ustiga shapatilab qo'ydi-da, ayb-dor odamday yelka qisdi:

— Men boshqa ma'noda aytuvdim, siz o'zga tomondan ilg'absiz.

— O'zingiz gap ochganingiz uchun bir masalani aytmoqchiman: Ehsonovga achinish yoki achinmaslikni bir tomonga qo'yib turaylik. «Ehsonov jinoyatchi», degan gumonimiz bor. Agar jinoyatlarini bo'yniga qo'yib isbot qilib bersak, balki sud uni o'limga hukm etardi. Ungacha oradan bir yilmi, ikki yilmi o'tardi. Biz emas, boshqa bir odam yoki guruh bizdan chaqqonroq harakat qilib uni o'limga hukm qildi-yu, cho'zib o'tirmay hukmni darrov ijro etib qo'ya qoldi. Ehsonovning taqdirida nima o'zgardi? Bizning sustkashligimiz uchun yana ozgina yasharmidi? Uning yashashi evaziga nechta odam jon berardi yoki qanchasi jabr ko'rardi? Bu masalaning ikki yechimi borga o'xshaydi. Birinchisi: siz aytgan odamiylik nuqtai nazaridan qarasa, uning oldinroq o'lgani jamiyat uchun foydaliroq. Ikkinchi-si — kasbimiz, burchimiz nuqtai nazaridan qarasa, u chindan ham jabrlanuvchi. Qotilni jazosiz qoldirishimiz mumkin emas. Balki kimyodagi zanjir reaksiyasi kabi bugungi qotil ham ertaga jabrlanuvchiga aylanib qolar?

— Xo'p, bu falsafalarni qo'yib turaylik, — Said Qodirov o'rnidan turdi-da, derazaning bir tabaqasini qiyalab ochdi: — Qahva bu safar xiyonat qildi, aqlimizni peshlamadi, — shunday deb Zohidning qarshisida to'xtadi. — Mirkarimovning ishidan gapiring. Har holda asadbeklarga taalluqli joyi borligini fahmlagandirsiz? Meni ham shu tomoni qiziqtirgani uchun «Ish»ni sizga topshirishlarini so'radim. Agar uning o'limi asadbeklar tomonga tortsa, ko'pam chuqurlashmang. Yana ularning dumini bosmang.

— Sekingina «Ish»ni yopib qo'ya qolaymi?

— Sizga «dumini bosmang», dedim. «Ilonni ko'rish bilan orqaga qoching», deganim yo'q. Ilonni bo'g'zidan olish kerak. Beton zavodi kimning soyasi ostida edi, bilasizmi? Zohid bilmas edi. Buni o'ylab ham ko'rmaganiga sabab, vinzavod, taksopark kabi bu korxonalar ham Asadbekka tobe deb hisoblagandi. Said Qodirovning savolidan so'ng adashganini fahmlab, «bilmayman», deb qo'ya qoldi.

— Bilmasangiz bilib oling: beton zavodi Hosilboyvachcha deganning hukmiga bo'ysunardi.

— Unda qanday qilib?..

— Ha, qoyilman, ana o'sha «qanday qilib?»ga javob topib ko'ring. Balki shu javob yechimga olib borar. Mirkarimov beton zavodida ko'p ishlamadi. Hosilboyvachcha yo'qolmay turib o'ldirildi.

— Bu yerda katta o'yin yashiringanini sezuvdim. Shuning uchun haydovchi bilan o'ynashni hozircha ozod qilsammikin, deb turibman.

— Ehtiyot chorasi sifatida o'tirishgani o'zlari uchun yaxshiroq. Chiqarsangiz izni chalkashtirish uchun ularni ham o'ldirib ketishsa-chi?

— Buni o'ylaganman. Odam qo'yamiz.

— Boshlig'ingiz bilan maslahatlashing. Sizning o'ringizda bo'lsam, ularni hozircha chiqarmay turardim. Yana bittadan qahva ichamizmi?

To'y-ma'raalarda osh yeb bo'linsa ham qimirlashga shoshilinmasa, ayniqsa joy tanqis kezlari xizmat qilib yurganlar «choyinglar bormi?» deb qayta-qayta so'rasalar «tezroq tura qolmaysizlarmi, sizlarga ruxsat», degan ma'no anglashilgani kabi Zohid ham suhbat yakun topganini fahmlab, o'rnidan turdi.

— Aqlni judayam peshlab yuborsak bo'lmas, o'tmasroq aql bilan ham bir ishlab ko'raylik-chi, — deb kulimsiraganicha xayrlashish uchun qo'l uzatdi.

Kinoya emas, samimiy ohangda aytilgan bu hazil gap Said Qodirovga ma'qul kelib, jilmaydi.

## I X b o b

### 1

O'lim yaqinlashayotganini sezgan bir qariya nor tuyasining bo'ynini silab turib, g'amgin ravishda rozilik so'rabdi:

— Norjon, sen bilan ko'p yillardan beri birga edik. Men sendan roziman. Sahroda adashgan mahallarimda necha martalab meni o'limdan saqlab qolding. Sendan sira yomonlik ko'rmadim. Ammo men sening dilingni og'ritgandirman, besabab urib, siltagandirman. Mendan ko'rgan yomonliklaringni kechirgin. Yana qiyomatda uchrashganimizda yuzim shuvit bo'lmasin.

Shunda Nor tuya debdiki:

— Ey hojam, urib-so'kkaningiz, siltalaganlaringiz, hatto burnimni teshib, burundug o'tkazganingiz uchun xafa emasman. Bu sizning mening ustimdagi haqqingiz edi. Men nohaq harakatlaringizning barchasini unutkan, ammo bitta ishingizni sira kechira olmayman.

— Qaysi aybim ekan, ayt, — debdi qariya.

— Esingizdami, falon zamonda sahroda adashib qolgan edik. Men ne mashaqqatlar bilan sizni omonlikka olib chiqdim. Shaharga yaqinlashgan onimizda siz mening burundig'imga bog'langan arqonning bir uchini eshakning dumiga bog'lab qo'ydingiz. Men o'shanda eshakning dumi hukmiga bo'ysinib shaharga kirdim. Mana shu xo'rlikni kechira olmayman, hojam, — degan ekan Nor tuya.

Xongirey huzuridan chiqqan Asadbek o'zini o'sha Nor tuya holida ko'rdi. Xongirey uning burnidan ip o'tqazib bir uchini Kesakpolvon qo'lga tutqazmoqchi edi. Asadbek taqdirning bu shum haziliga itoat etganday bo'ldiyu, o'zidan nafratlandi. Boshiga sho'r tushganidan beri u bu qadar xorlanmagan edi. Mamatbey kuzatuvida mehmonxonaga qaytgan Asadbek zohiran odam kelbatida bo'lsa ham, aslida bir vayrona edi. Biroq u buni tan olgisi kelmadi. Mamatbey bilan bo'lgan muomalasida ham, Jamshid, o'g'illari bilan ko'rishganida ham sir boy bermaslikka urindi. Jamshidga «Maskovda ishimiz bitdi, qaytish harakatini qilaver, men bir pas dam olvolay», deb xonasiga kirdi. Yuz-qo'llarini yuvib, sochiqqa artayotganida ro'parasidagi ko'zguga qarab qoldi. Oppoq sochlariga tikildi. Hali, Xongirey bilan uchrashuvga bormay turib ko'zguga qaraganida sochlarining oqarib ketganiga hozirgiday hayratlanmagan edi. «Shum Mamatbey sezdi, — deb o'yladi Asadbek ko'zgidagi aksidan ko'z olmagan holda. — Xongirey-chi, payqadamikin? Sezmagan bo'lsa, shum aytadi. Keyin «qoyillatibmiz», deb quvonishadimi? Uyga qaytganimda Haydar xunasa ham yayraydi. Manzura... qo'rqib ketadimi? Bo'yatib ola qolsammikin?» Shu to'xtamga kelib daxlizga chiqdi-yu, biroq, darrovgina shashtidan qaytdi. «Balki Xongirey shu topda Haydarga telefon qilib «oqsoch xo'jayiningni kutib ol», deb ishshayayotgandir. U xunasa kessak ham eng avval boshimga qarar. Keyin «uyalganidan bo'yatib olibdi», deb xabar berar. Yo'-o'q... bu xunasalarni in-iniga kirg'izib yuborib, keyin bo'yataman...»

Bir pas hordiq chiqarish niyatida karavotga cho'zilgan Asadbekning tanasi salgina rohatlanganday bo'l-di-yu, biroq, ruhi orom ololmadi. Deraza ortidagi olam shom qorong'uligi hukmiga bo'ysuna boshlagan damda eshik qulfining shiqillashidan sergaklandi. «Yaxshi niyatli odam eshikni bunaqa ehtiyotlik bilan ochmaydi», degan fikr

vujudini qalqitib yubordi. Uning nazarida qulfga qandaydir odam emas, Azroil kalit solib burayotganday edi.

... Hozir kirib keladi.

Suratlarda chizilganday chalg'i ko'tarib, kafanga o'ralib olgan qoqsuyak mahluk ko'rinishida kiradimi...

... Balki

... Mamatbey qiyofasida kirar?

... Boshi chalg'ida olinadimi?

Balki...

Qilarqonda bo'g'ilar?..

Ertalabgacha tili osilib yotadimi? Jag'ini bog'lab qo'yishga bir mehribon topilmaydimi? Bu fikrlar yashin tezligida kelib ketgan bo'lsa-da, shumligini amalga oshirishga ulgurdi: Asadbekning hatto tili ham muzlab qolgandek bo'ldi. Xayolidagi Azroil kirib kelishga ulgurmay, o'lishga tap-tayyor bo'lib qoldi. O'zini himoya qilishga kuch topish u yoqda tursin, nechundir xohish ham uyg'onmadi. Yumuq ko'zlarini bilinar-bilinmas ravishda ochib yotaverdi.

Eshik juda astalik bilan ochildi.

Oyoq sharpasi eshitildi.

So'ng bir bosh ko'rindi...

Kim u? Jamshidmi? «Shunga topshirishgan ekanmi?»

Asadbek ko'zlarini baralla ochdi.

— Jamshid? — Asadbek shunday deb qaddini sal ko'tardi. — Nega mushukka o'xshab pisib yuribsan?

— Bek aka, — Jamshid ichkari kirib, qo'l qovushtirdi, — uxlayotgan bo'lsangiz, uyg'otvormay dedim. O'n ikkidagi samolyotning uchishi ertalabga qoldirilibdi. Aytib qo'ydim, uchadigan paytda xabar qilishadi. Ke-yin...

— Chaynalma, nima demoqchisan?

— Restoranda ham to'rt kishilik joy tayyor. Birga...

— Qornim to'q, o'zlaring o'tiraverlaring. Kenna-yingga aytib qo'ydingmi?

— Aytdim, lekin... Bek aka, chiqsangiz yaxshi bo'lardi. Chehrangizni ochib o'tirsangiz... har holda do'st bor, dushman bor.

Jamshid aql o'rgatishga o'rgatdi-yu, biroq, xojasining yuzlari uchganini ko'rib, nafasini ichiga yutdi. Asadbek esa g'ashlangan ko'yi tirsagiga tiralganicha bir necha soniya harakatsiz yotdi. A'yonining taklifiga na «ha» dedi, na «yo'q». Ko'kragida «Sen bola, menga aql o'rgatma!» degan hayqiriq uyg'ondi-yu, baqiriq shakliga kirishi mumkin bo'lgan bu norozilikni sergak aql bo'g'izdan nariga o'tishiga yo'l qo'ymadi. «Nega sachramoqchisan, bola to'g'ri aytyapti, — dedi aql. — Mushukka o'xshab hurpayib olganing nimasi? G'alaba qilganingda gerdayib yurishni bilarding. Bir mushtlik holing bormi? Sen yig'lasang ular mazza qilib kuladilar. Yo'q, yaxshisi sen kul, ular alamdandod solishsin!»

Aqlga taslim bo'lgan Asadbek o'rnidan turib ki-yindi-da, a'yon hukmiga bo'ysunib, ikki o'g'lini ikki qanotiga olgan holda, qaddini g'oz tutib, restoran tomon yurdi.

Ko'cha tomondan odamlar qo'yilmagan, xos mehmonxonaning nozikta'b mehmonlarigagina xizmat qilgani uchun restoran gavjum emas edi. Ularga deraza tomondan joy hozirlangan ekan. Asadbek yumshoq stulga o'tirayotib tashqarida qoramtir tusda ko'rinayotgan kreml-ning tuya tishlarini eslatuvchi devoriga ko'zi tushdi-yu, o'zi uchun ham kutilmagan tarzda Deputatning gaplarini esladi: «Bek aka, siz bilan bizning taqdirimiz kreml devorlari ortida hal qilinadi. Biz bu devorni buzmas ekanmiz, bag'rimizga shamol tegmaydi...» Bu gapga javoban Asadbek o'shanda

«Hammayoqni senga o'xshagan ishbuzuqilar buzadi», degan edi. Hozir esa boshqacha o'yladi: «Bu devorlarni yiqib bo'larmikin?..»

Asadbek siyosatni durustroq fahm etganida «Bizlar uchun bu devorning turgani ma'qul. Sening bag'ringga shamol tegmasa tegmas, biz shu devorning ichida o'sib-ulg'aydik, qanot yozdik, bizlarning himoyamiz ham shu. Agar bu devor yiqilsa, tagimizga suv ketadi», degan bo'lardi balki.

Asadbek o'zini xushnud tutishga urinib, o'g'illari bilan chaqchaqlashib o'tirishga intildi. Farzandlarining go'dakligidagi qiliqlarini esladi. Jamshid ham chetda turmay, bir-ikki latifa aytib kuldirdan bo'ldi. Ular tomonga qarab-qarab qo'yuvchilar go'yo baxtiyor oilaning mas'ud damlariga guvoh bo'ldilar. Asadbekning nigohi restoran bo'ylab sarsari kezib turishini sezishmadi. Asadbekka Xongireyning odamlari ularni qaysi bir burchakdan turib kuzatishayotganday tuyuldi. Bu gumon haqiqatga aylanayozganida Asadbek g'ashlandi. Ikki soat davomida u restoranda emas, balki tikonlar ustida ishtonchan o'tirganday bo'ldi. Go'yo amr etish huquqi Jamshidga berilganday, ijozat so'rash nazari bilan unga qarab-qarab qo'ydi. Jamshid xojasining bezovtaligini sezib «Yana ozgina kuting», degan iltijoli nigohi bilan javob berdi. Jamshidning maqsadi faqatgina kuzatishi mumkin bo'lgan ko'zlarni shamg'alat qilishgina emas, balki xojasining yolg'iz ezilish balosidan oz fursatga bo'lsa-da, qutqarib turish edi.

Jamshidning ixtiyori bilan uyushtirilgan restoran tomoshasi tugagach, u xonasiga yo'nalgan xojasini to'xtatdi:

— Bek aka, boshqa xonaga joy tayyorlatib qo'yganmiz.

Asadbek bu safar noroziligini yashirmadi:

— Ja oshirvording, bola!

Agar Chuvrindi bo'lganida xotirjamlik bilan «Bek aka, ehtiyot — shart!» — deb qo'yar, Asadbek esa unga itoat etardi. O'zining Chuvrindi martabasida emasligini yaxshi bilgan Jamshid ortiqcha gapirmadi. «Aytdim-qo'ydim, jon shirin bo'lsa, o'zingizni ehtiyot qiling», deganday qarab qo'ya qoldi. Hozir Asadbekka Chuvrindining o'rni bilindi. «Bu bola sodiqlikka sodiq, lekin ikki dunyoda Mahmud bo'lolmaydi», deb o'yladi.

Kengroq xonadagi uchta karavot bilan bitta divanga joy qilib qo'yilgan edi.

— Hammamiz charchadik. Tiniqib uxlashimiz kerak. Uyga ko'zlarimiz kirtayib borsak, onang o'zidan ketib qolmasin, — Asadbek shunday deb pidjagini yechib stul suyanchig'iga tashladi-da, shimini yechmay, o'rin ustiga cho'zildi. O'g'illari ham otalari kabi omonat yotishgach, Jamshid chiroqni o'chirdi.

Bo'lib o'tayotgan voqealarning zamirida bir shumlik yotganini sezular ham, otalaridan so'rashga jur'at etolmayotgan o'g'illar shiftga tikilgan qimirlashmasdi. Asadbek «O'g'illarim qattiq toliqishibdi, uxlash-yapti», deb yanglishdi. Yigitlar besaranjom bo'lsalar-da, karavotni g'ijirlatib otalarini bezovta qilgilari kelmay, xayollari oqimiga mayllarini berib yotishardi. Bu uch jonning joni uchun o'zini mas'ul deb bilayotgan Jamshid esa «tiq» etgan tovushga ham sergak quloq tutardi.

Tiniqib uxlab olish niyatidagi to'rtovlonga bu kech uyqu xiyonat qildi.

Hozir Asadbek ustiga kelgan odam uning ko'zlari yumuq ekanini ko'rardi. Biroq, tabiiyki, qalbi yumuq ekanini bilolmasdi. Abdurahmon tabibnikida ekanida, o'lim farishtasidan bo'sa olay deb turganida Tangri taolo sari ozginagina siljigan edi. Olloh esa, va'dasiga ko'ra, bandasi tomon yurib, uning boshi ustidagi balo bulutini hayday boshlagan edi. Bundan qoniqqan Asadbek Yaratgan sari yurmoqdan to'xtadigina emas, dunyo tashvishlariga bandi bo'lib, asliga qayta qoldi. Ochilmoqqa moyil qalbi yumuqlik balosidan qutula olmadi. Ko'zlari yumuq Asadbek ayni choqda yumuq qalbi bilan chora izlardi.

Donishmand deb ekanki:



*Ilohi, yomon af'olimdin parishonligim cho'qtur,  
Va shum nafsimda pushaymonlik yo'qtur  
Mundoq balolardan qutularg'a umidim sendin o'qtur...*

Shunga ko'ra, Asadbek pushaymonlardan nari ekan, najotga ham umid yo'q ekanini idrok qila olmas edi. Uning ko'r qalbi «Ey Xudo, senga nima yomonlik qiluvdimki, menga bu ofatlarni yuboryapsan», deb xitob qilardi. Bandalarga qilingan yomonlik Tangriga qilingan yomonlik kabi ekanini esa fahm etmasdi. Hozir shu yotishida ham Xudoni savolga tutardi. Pushaymonlik, tavba ko'chalariga kirmoqlikni esa o'ylamasdi.

*Ilohi, dardu xolimni har kimga aytsam  
Rad qilsa, senga tavajjuh etgayman.  
Va agar sen rad qilsang, netgayman,  
va kimga ketgayman...\**

Asadbek dardini birovga aytadiganlardan emasdi. Afsus shuki, Tangriga yuzlanadiganlar safida yo'q edi u. Nadomatkim, rad etilganlar guruhida edi...

---

\* Hazrat Alisher Navoiy bitgan munojotdan.

## 2

Manzura qo'rquv aralash taajjubini astagina «voy» deb, pastki labini tishlash bilan ifoda etdi-yu, bosh-qa sado chiqarmadi. «Voy adasi, u yoqda nima gap bo'ldi, nega sochingiz oqarib ketdi?» deb so'ragisi keldi-yu, mehmonlar, ayniqsa hadixsiragan qushday salomga shay turgan kelinlari oldida erining zaxarli gaplari otilib chiqishidan qo'rqdi. Kelinlarining salomiga alik olib, har birining oyog'iga ostiga bittadan gilam tashlagach, erkaklar uchun yasatilgan xonaga qarab yurdi.

— O'g'illaring balo, — dedi Kesakpolvon, o'tirishgach, — kelinlaring naq shkalatning o'zi.  
— Ko'zingni chaqchaytirma, — dedi Jalil uning gapini bo'lib. Keyin uy sohibiga yuzlandi:  
— Asad, men ketdim.

Asadbek do'stining bu darajada shoshilishidan achchiqlandi:

— Kelmasang ham bo'lardi, ovoragarchilikda ancha aziyat chekkandirsan, — dedi zaxarli piching bilan. — Kelishingda bez-mezing tushib qolgandir, a?

Nasiyaga gap olishni yoqtirmaydigan Jalil bu safar odatiga xilof qildi, piching o'qlarini shirin, ammo tagdor so'z bilan qaytardi:

— Endi og'aynijon, chillalik uy, degan gap bor. Chillalik uyga hatto it ham kirmay turgani ma'qul.

Asadbek uning maqsadini uqib, Kesakpolvonga zimdan qarab oldi. Unda o'zgarish sezmagach, o'rnidan turdi:

— O'tirib tur. Chillalik uyga sen begona emassan. Shu bolalarning amakisisan. Men hozir kelaman.

Kesakpolvon unga ergashmoqchi edi, Asadbek ostona hatlamay turib, o'girildi:

— Sen ham o'tirib tur.

Asadbek yolg'ondan bo'lsa-da «Sen ham amaki qatoridasan», demoqchi edi-yu, biroq, tili bu gapga aylanmadi.

Asadbek hovlida turgan Halimjon bilan Jamshidga imlab qo'yib, darvoza sari yurdi.

Aslida uning uchun yigitlardan biri kifoya edi. Biroq, «Kesakpolvon deraza yonida turib kuzatayotgandir», degan xayol ikkala yigitni ergashtirib chiqishga undadi.

U yanglishmadi: joyiga qaytib o'tirmay deraza yonida turgan Kesakpolvon yigitlarning xojalariga ergashganlarini ko'rgach, ko'ngli g'ashlandi, chap yuzi uchdi.

Asadbek Moskvani tark etar mahali «Borishim bilan onam bilan ukamni ziyorat qilaman, mozorga u-bu atayman», degan niyatni diliga tukkan edi. Bu g'ofil banda ham o'zga adashganlar kabi najotni Yaratgandan emas, qabristondan kutayotgan edi. Dastlabki mo'ljali bo'yicha to'g'ri qabristonga borishi lozim edi. Lekin kutib olgani chiqqan Kesakpolvonni o'ziga ergashtirgisi kelmadi. Kesakpolvon Asadbekni mag'lublik jandasida ko'rmoqni, arazlagan odamning ginali gaplarini eshitmoqni kutgandi. Asadbekning ochiq chehra bilan tushib kelib, «Haydar oshnam, omonmisan», deb quchoqlab qo'yishi uni tamom gangitib qo'ydi.

Kecha kechqurun Xongirey qo'ng'iroq qilib «Ish pishdi. Endi bek — sensan. Asadni istasang ostonangga it kabi bog'lab qo'y. Xohlasang eshak qilib minib yur. Rahm qilsang, tepasiga tuproq tortib qo'yaver. Ha, qulingning oppoq sochlaridan silab, o'pib qo'y. Bekman, deb kerilib, jonlaringni oladigan xo'jayining ishtonini ho'l qilib qo'ydi», degan edi. «Sochlari oqarganini hisobga olmasa, ishtonini ho'l qilib qo'yganini» Kesakpolvon sezmedi.

Hovlidan chiqib ketayotgan Asadbek bilan yigitlar izidan qarab turgan Kesakpolvon deraza ko'zini sindirib, tashqariga uchib chiqmoqqa shay edi, ammo o'zi ham anglamagan bir kuch uni joyida mahkam tutib qoldi. O'zi bilmagan bu kuch — oqibat qo'rquvi edi. Garchi Xongirey Asadbekning bo'ynini (go'yo) bukib bergan bo'lsa ham, Kesakpolvon undan qo'rqardi. It qilib bog'lab qo'yolmasligini, eshak qilib minolmasligini, hatto tepasiga tuproq tortib ham tinchiy olmasligini yaxshi bilardi.

Asadbek biron bir odamning shoxini qayirmoqchi yoki sindirmoqchi bo'lsa, «Sen hamma narsani unutsang unut-u, ammo Bek akangni unutma! Sen hatto mening o'ligimdan ham qo'rq. Chunki men go'rimda ham tinch yotmayman. Tirigimda shu odamni o'ldirib qutulaman», deb niyat qilarsan. Lekin go'rda yotganimda yonimga kelib qayta o'ldirolmaysan, mendan qutula olmaysan. Yotgan yerimdan qo'limni chiqarib, kekirdagingni sug'urib olaman!» deb po'pisa qilardi. Bu po'pisani eshitgan Kesakpolvon «Bek, gapni ham qiyvorasan-da», deb kulardi. Bir kuni navbatdagi o'ljaning popugi pasaygach, Kesakpolvon hazil tariqasida «Bek, bu dunyodagi ishlaringni ko'rib turibman-u, go'rdan chiqaradigan qo'lingga hayronman-da» deganda Asadbek «Hayron bo'lma, go'rdan chiqaradigan qo'lim — sensan», degan edi.

Shaytanat olamidagi kichik bir mamlakat hukmdori Asadbekning taxtiga o'tirish onlari yaqinlashgani sayin Kesakpolvon o'sha suhbatni bot-bot esladi. «Endi men uning go'rdan uzatib chiqaradigan qo'li emasman. Kekirdagi uzib olinadigan o'ljasiman. Qo'l kim? Jamshidmi yo Halim so'takmi?» Shu savollar ichini bir tirnasa, «E, yo'q, Bek bunchalik past ketmaydi. U mard odam. «Olsang olaver!» deb choponni yelkaga tashlab chiqib ketaveradi. Har holda bolalikdan qadrndonmiz. Nima qilgan bo'lsak ham birga qilganmiz», — degan fikr o'zini go'yo ovutardi. Ammo yuki bo'lmagan bu fikrlariga o'zi ham ishonmasdi. Deraza yonida turib xavotir tirnog'i hukmiga tushishi shundan.

Musallama kazzob o'zini payg'ambar deb e'lon qilganida bir ko'zi ko'r, ikkinchisi esa xiralashgan qariya kelib «payg'ambar bo'lsang duo qilib, ko'zlarimning nurlarini qaytar», deb so'rabdi. Kazzob «kuf-suf» qilgan ekan, cholning ikkinchi ko'zi ham ko'r bo'libdi. Kimga e'tiqod qilishni bilmagan nodon cholga o'xshab qolgan Kesakpolvonning noqis aqli bo'lajak falokatni to'la fahm etmasdi, biroq yuragi his etib, jonsiz kuz yaprog'i kabi titrab turardi.

Uchoqda uchib qaytayotgan Asadbek endigi hayoti islohga muhtoj ekanini anglagan, shu yo'lda ayrim ahdga ham kelgan edi. Ko'ngil ba'zan aqlga bo'ysunib «Qo'y endi, bu tashvishlarni, to'ringdan go'ring yaqin bo'lib turibdi, yemoq-ichmog'ing yetarli ekan, boshqasiga qarama», derdi. Biroq afsuskim, inson fitratida nafs degan narsa ham bor. Aql va nafsning bir-biriga zid ekanligi oydindir. Aql rad etmish narsani nafs da'vo

qilaverar. Ayni damlarda nafs Asadbekni boylikka undamayotgan edi. «Asadbek» deb nom berilgan bu vujudga, nainki vujudga, butkul ruhoniyatiga hukmini o'tkazib kelayotgan nafs endi kibrga nikohlandi. Mazkur nikohning mahsuli esa Asadbekdagi mardlikni bo'g'ib, uni o'yindan chiqishiga yo'l qo'ymaydi. To'g'ri, u taxtini Kesakpolvonga topshirib qo'yaverishi mumkin edi. Biroq, mag'lub holida chekinishni istamadi. Endi uni hech kim, hech qanday kuch ahdigga qaytara olmas edi. Daryoni ko'zachaga qamash mumkin bo'lmaganidek, Asadbekning g'azab o'tlarini o'chirishga urinish befoyda edi. Moskvadagi mehmonxonada bedorlik bilan olishib yotgan Asadbekni yo'qlab kelgan Iliko o'tlarga moy sepgan edi. Aslida Asadbek ertasi kuni Ilikodan ko'ngil so'ragani borishi kerak edi. Jamshidga «qaytishning harakatini qil», deb topshiriq bergan Asadbek Xongireyning birga borish haqidagi amrini unutmagandi. Asadbek mehmonxonadan qaytayotganidayoq bu masalani puxta o'ylab, hal qilib qo'ygandi. Iliko bilan uchrashmay o'zini salkam Xudo deb hisoblayotgan bu kibri chechenga javob — tarsaki bo'lardi. Ikkinchidan, u Xongireyning Iliko bilan yarashib olishini istamadi.

Yarim tunda mehmonxonaga kelib Asadbekni yo'qlatgan Iliko ko'p gapirmadi. «Nega kelding, o'g'illaringga nima bo'ldi? Bu yog'ini menga qo'yib ber», demadi. Akasining o'limidan qayg'uda ekanini ayta turib «Xongirey o'lim raqsiga tushishni boshladi. Endi qancha yashashini men hal qilaman», deb qo'ydi. Asadbek uning ahdi ohangidan «Xongireydan o'ch olaman, u bilan olishaman, deb ovora bo'lma», degan ma'noni uqib, gapni cho'zmadi.

Derlarkim, vaqti kelganda ba'zi narsalar uchun jonni fido qilmoq mumkin. Ammo nomus hech bir narsaga fido qilinmas, nomus jondan-da qimmatliroqdir. Asadbek ota-ona mehrisiz ham bu dunyoda yashamoq mumkinligini biladi. Biroq, erkakning nomussiz yashamog'i qanday bo'lishini tasavvur etolmaydi. O'zgalarning nomus-ori toptalganda rohatlangan odam, o'ziga tajavvuz qilinganda chiday olmadi. Uzoq yillar ilgari yangragan, so'ng unut g'uborlari ostida mudrab qolib ketgan bu qarg'ish hech kutilmaganda uyg'ondi. Bu qarg'ish oldida Jalilning «Xudodan qaytibdi», degani arzimas bir gap edi. Hosilboyvachcha tashlab ketgan videokassetadagi manzarani ko'rib ko'z oldi qorong'ilashganda zulmat qa'ridan o'sha ovoz bo'g'iq momaguldirak kabi chiqib kelgan edi:

— Asad, men senga Xudodan o'lim tilayman. Men bugun sening qo'lingdan o'lim topmasam, ertaga joningga qasd qilmayman. O'g'illarim ham qasos olishga urinishmaydi. Yo'q, sen osonlikcha o'lib ketmagin, Asad. Sen bolalaringning xorlanganini ko'rginu so'ng o'lgin...

U damda Zaynab hali tug'ilmagan edi...

Alam bilan aytilgan bu qarg'ish nahot tug'ilmagan qizning qismatiga yozilib qolgan bo'lsa?..

Nahot uning joni-jahoni, suyuqli qizi tug'ilganidayoq o'sha qarg'ish yo'rgagiga yo'rgaklangan bo'lsa?..

Baqirib emas, ingrab aytilgan bu so'zlar shunchalar qudratga ega ekanmi?..

Moskvadagi mehmonxonada yotganida bu qarg'ishni yana eshitdi. Ovoz bu safar bo'g'iq emas, yeru ko'kni larzaga soluvchi momaguldirak yangrash kabi eshitildi.

... Aslida o'sha g'alvani shumqadam Kesakpolvon boshlagan edi. «O'qilon» degan laqabdan boy odamlarning endi-endi cho'chiy boshlagan damlari edi. Markazdagi restoran boshlig'i ularning talabiga ko'ra cho'talni kanda qilmay, kamaytirmay berib turardi. Kesakpolvon qaerdandir hid olib «cho'taliga gadomizmi, shuncha boyligi bor ekan, etakka to'ksin», dedi. Bu fikr Asadbekka ma'qul kelgach, restoran boshlig'iga talab avval yaxshilik bilan aytili. Talab rad etilgach, tunda uyiga bostirib borildi. Asadbek Kesakpolvonning bunaqa ishlariga aralashmas edi. O'sha kuni «sen ham bor, kimligingni

odamlar bilib qo'yishsin», degach, bordi. Asadbek borguniga qadar Kesakpolvonning yigitlari ishni boshlab yuborishgan edi. Kesakpolvonning ta'biri bilan aytilganda «profilaktika ishlari»ning ikki kun avval boshlanganini Asadbek o'sha yerga borganida bildi. Isitgich quvuriga bog'lab qo'yilgan uy egasi urib-kaltaklanmagan, lekin ikki kundan beri qultum suvga zor bo'lib, sillasi tamom qurigan edi. Yon xonadagi xotini, ikki o'g'li, ikki qizi ham shu ahvolda edi.

— Asad, bularingga aytgin, suv berishsin, — dedi uy egasi zorlanib.

— Ko'p suv ichsang siyib qo'yasan, — dedi Kesakpolvon tirjayib. — Bek, bu akaxoningga aytyapman, hozir suvning narxi oshib ketgan. Berkitgan tillalarini chiqarsin, to'ydirib sug'ormagan — nomard!

— Asad, buning valdirayveradi, menda tilla yo'q. Topganimni bitta o'zim yemayman-ku, yuqoridagilarning qanchasiga sochaman. Tilla bo'lsa o'shalarda bo'ladi. Men borimni berdim, boshqa yo'q.

— Qancha berdi? — deb so'radi Asadbek.

— O'ttiz ikki ming, yana xotining uzuk-puzuklari... O', maraz, sen meni laqillatsang ham Bekni laqillataman dema. Berganing bitta tishimning kavagida yo'q bo'lib ketadi. Hozir ko'chaga chiqib «restoran kattasining uyida shundan boshqa pul yo'q ekan», desam odamlar ishtonini yechib orqasi bilan kuladi.

— Asad, menda boshqa pul yo'q. Hech bo'lmasa kennayingga suv berlaring, bechora kasal.

— Ana ko'rdingizmi, bechora kennayim kasal ekanlar. Sizga kennayimnig jonlari kerakmi yo molmi? — dedi Asadbek, uning zorlanishlariga e'tibor ber- may.

— Bek, xotini qo'yaver. Bu marazning qizlari yetilib qolibdi. Buqachalarimni arang ushlab turibman. Shilimshiq, akangga anavi ashulangni aytib ber-chi. Bek, quloq sol, bunaqangi allambalosini eshitmagansan.

Deraza yonida turgan yigit sovuqqina ishshayib qo'yib, sozlanmagan g'ijjak ovozida xirgoyi qildi:

— Tog'da quyon otdim, iyagi yo'q.

Qizlar kuylak kiyibdi, jiyagi yo'q.

Jiyagi yo'q yerlaridan qo'lim solsam,

Bilqillaydi qo'sh anori, suyagi yo'q...

— Dod, jonginangdan akang! — Kesakpolvon shunday deb tizzasiga urganicha qiyqirdi. Uy egasi «shu kichkinagina jasadga bunchalik ko'p zulm sig'ishi mumkinmi?» deganday unga tikilib qoldi. Qandaydir g'oyibona ovoz unga «Mumkin, sen o'ylagandan ko'proq hajmda sig'adi», dedimi, talvasaga tushib, endi najot ko'zlari bilan Asadbekka boqdi.

— Bek, nima desang de, buqachalarni qo'yib yuboraman. Qizchalarni bi-ir sug'orishsin, — dedi Kesakpolvon.

— Yo'q! Asad, sen bilan kelishuvimiz bor. Men aytganingni berib keldim. Meni himoya qilishga va'dang bor.

— Sen g'irrom o'ynading.

Asadbek unga doim «siz»lab gapirardi, hurmatini joyiga qo'yardi. Hozirgi sensirashidan zulm bobida sherigiga yaqinlashganini ma'lum qildi. Buni fahmlagan uy egasi so'nggi ilinj bilan uni insofqa qaytarmoqchi bo'ldi:

— Asad...

Kesakpolvon uning gapini uzdi:

— «Asad» dema! Nima, bu sening o'rtog'ingmi?! «Bek aka», de!

Uy egasi bir yutinib olib, amrga bo'ysundi:

— Bek aka, shartimizda bunisi yo'q edi. Uyingda borini berasan, demagansiz.

— Demagan bo'lsam, endi deyman. Xo'sh, qani tillalaring?

— Tilla yo`q menda...

— Hukmni o`zing chiqarding, mendan domangir bo`lib yurma...

Asadbek «buqachalaringni qo`yib yuboraver», deganday sherigiga qaradi.

Kesakpolvonga shu qarashning o`zi kifoya qildi. Zulm harorati o`tidan sachragan uchqun bir oilaning pokiza gullarini so`ldirdi.

Uy egasi o`shanda qarg`agan edi.

O`shanda Asadbek «men ham qiz ko`rarman, vaqti kelib kimningdir iflos nafasi ardoqlab o`stirganim pokiza gulni so`ldirar», — deb o`ylamovdi. Bu qarg`ishni o`shanda yer yutganday bo`lib edi. Odam o`lib ketaverar ekan-u, biroq, uning qarg`ishi o`lmay, yer yuzi bo`ylab o`ljasini ta`qib etib yuraverarkan. Restoran boshlig`i o`sha voqeadan so`ng ko`p yashamadi. Avval xotini, so`ng o`zi bu dunyoni la`natlay-la`natlay tashlab ketishdi. Asadbek uning janozasiga borgan edi, go`rkov tutgan etakka «meni u dunyoda ham eslab yur», deganday bir siqim tuproq ham tashlagan edi. Ha, unutmabdi, o`zi ko`milsa ham qarg`ishini qoldirib ketibdi. Bu qarg`ish yigirma yildan ziyod Asadbekka soyaday ilashib, payt poylab yurgan ekan.

O`sha restoran xo`jayini tirik bo`lib, pichoq bilan hamla qilsa, Asadbek o`zini himoya qilish chorasini topardi, yoki uni o`ldirib qutulardi. Endi ko`zga ko`rinmas, chopsa chopilmas qarg`ishdan o`zini qanday himoya qilsin?

Asadbek qarg`ishni eslashga esladi-yu, biroq, aybni o`zidan emas, o`zgalardan izladi. Alqissa, hukmni ham o`ziga emas, o`zgalarga chiqardi. Uning qonida o`tgan ishlardan pushaymon qilib o`tirish degan narsa yo`q edi, bilaks, qasos degani istagancha topilardi. Siniq ko`nglida g`am, buzuq xayolida alam hukmron ekan, endi Asadbekdan nimalar kutish mumkin?

Jaholat zulmidan aql ravshanligiga yeta olmay qolgan Asadbekning Oллоh huzurida «birovga qasd qilmayman», degan ahdi bo`limgach, uni kim to`xtata olardi?

### 3

«Oyijon, meni chaqirmay turing, bu dunyoda qiladigan ishim ko`payib qoldi...»

Mozorboshiga qarab yurayotgan Asadbekning ko`nglidan shu so`zlar kechdi.

Kasali og`irlashganda «ota-onam yonlariga chaqi- rishyapti, vaqt yetgan bo`lsa boraman-da, iloj qancha?» deb o`ylagandi. Unda o`g`illari taqdiridan ko`ngli to`q edi.

Zaynabni ham xorijga jo`natib yuborsa, armonsiz, tahlikasiz ketishi mumkin edi. Avval kelganda «meni chorlamang», deb yalinmovdi. Endi bolalarini bunday ahvolda tashlab keta olmaydi. Haqqi yo`q tashlab ketishga!

Xudoga emas, chirib yotgan murdaga yalindi bu g`ofil banda.

U ozgina bo`lsa-da yashamoqni, xonadoni tepasidagi balo bulutini haydamoqni, oilasiga baxtni qaytarmoqni istardi.

Istardi... lekin...

Bu baxti qora baxtli bo`lmog`i uchun tole` yulduzining zulm zulmatidan chiqib, saodat burjiga yuz burishi zarurligiga aqli qosirlik qilardi.

Gunohlar kirini pushaymonlik va tavba yoshi yuva olishini kim bilmaydi? Unda esa tavba ham yo`q, ko`z yoshi ham yo`q.

Jamshid boshlab kelgan go`rkov o`zi bilganicha tilovat qilgach, Asadbek uning cho`ntagiga pul soldi-da, onasiga qo`yilgan qora marmar tosh yonidagi yangi qabr-ga imlab:

— Bu yerga kim keldi? — deb so`radi. Keyin tahdid emas, afsus ohangida qo`shib qo`ydi:

— Bu yerga odam qo`ymagin, devdim-ku?

— Mahalla bir nima deb turganidan keyin qaytar- olmayman-da. Bu yer ularning

xilxonasi ekan, asli.

— Kim ekan, yerning egasi? — Bu safar Asadbek ovozida qahr zohir bo'ldi.

— Suhrob ota deyishdimi?

— Nima? Pochtachimi?

— Unisini bilmadim... bir hafta bo'ldiyov...

«Ha, o'sha, — deb o'yladi Asadbek. — Bu haromi, kelib-kelib shu yerga ko'mildimi? Asadbek qabristonda ekanini unutmadi. So'kib yubormaslik uchun tishini tishiga bosdi.

Tishlarning g'ijirlaganini sal narida turgan Jamshid ham eshitib, sergaklandi.

Pochtachining qiliqlari Chuvrindiga ma'lum edi, Jamshid bilmasdi. Shu sababli xojasining nima sababdan g'azablanganini anglamadi.

Alam jomiga g'azab mayini quyib sipqorgan odam aslida yonib ketishi kerak. Asadbek yonishga tayyor edi. Biroq, onasining ruhini qaqshatishni istamadi. «Agar bu maraz bir hafta oldin qo'yilgan bo'lsa, — deb o'yladi u. — Onam bechoraning arvohlari bir haftadan beri chirqirab yotibdi ekan-da? Yo'-o'q... men bu marazni yo'qotaman. Xilxona emish...

Uning xilxonasi axlatxonada...» Asadbek shu qarorga kelib, yuzini burdi. Xayolini chalg'itish maqsadida marmartosh ortidagi o'rik daraxtiga tikildi. Onasini shu qabrga qo'ygan yili bosh tomoniga o'zi ekan nozikkina niholcha yo'g'on daraxtga aylangan. Daraxtning tanasi bujurlashgan, taram-taram yoriqlar paydo bo'lgan. Go'yo bu yerdan taraluvchi sassiz nolalarni tinglayverib, alamlardan tirishib ketganday... Shoxchalardagi kurtaklar bahorga homilador bo'lib, to'lib turishibdi. Aldamchi iliq shabada ularning ko'zlarini ochib yuborishi mumkin. Ayamajiz qaysi bir kavaklarda xuddi shuni kutib turibdi. Daraxtlar yayrab, gullagan onda u bir hamla qiladi-yu, bitta-bitta yamlab bu chaman gullarning jonini oladi...

Asadbek nima gunoh qilib qo'yganini anglamay dovdirab turgan go'rkovga yana bir bor g'azabli nigohini qadadi-da, iziga qayta boshladi. Darvoza yaqinida qimtinib turgan ayolni ko'rib, qadamini sekinlatdi. Hali kelishayotgan mahalda bu ayol ro'paralaridan chiqib salom bergan, Asadbek uning mungli qarashidan qandaydir sarosimani payqagan edi. «Meni kutyaptimi yo go'rkovda ishi bormi?» deb o'yladi u. Ayolning chehrasi tanish tuyuldi-yu, ammo qaerda ko'rganini eslay olmay Jamshidga qaradi. Qarashdagi savol alomatini fahmlagan Jamshid:

— Sharif Namozovning xotini, — deb izoh berdi.

«Demak, meni kutyapti».

Asadbekning sekinlaganini ko'rgan Nasiba unga peshvoz chiqib, yana salom berdi.

Asadbek alik oldi-yu, «kimsiz, menda nima ishingiz bor?» — deb so'ramadi.

— Men... Sharif akaning ayollariman... — dedi Nasiba sarosimali ovoz bilan. Bilmagan odam bu ovozni eshitib «Sharif akaning xotini bo'lish ham katta gunoh ekan-da, a?» degan xayolga borishi tabiiy edi. Nasiba bu kishi yana «Qaysi Sharif?» deb so'rab qolmasin, degan tashvishda darrov izoh berdi: — Vinzavodda ishlardilar...

— Ha, endi tanidim, ko'zimga issiq ko'rinyatuvdingiz. Tinchlikmi, singlim?

Qovog'i soliq, qarashi qahrli Asadbekdan muloyim ohangdagi gapni eshitgan Nasiba sarosimadan qutuldi.

— Sharif akamni Maskovdan olib kelib... shu yerga qo'ydik, — Nasiba «Shu yerga qo'yganimiz to'g'ri bo'libdimi?» deganday unga qarab oldi.

— Ie... xabarimiz bo'lmabdi-ku? Salom-aligimiz bor edi eringiz bilan. Nega ayttirmadingiz?

Asadbek bu gapi bilan riyokorlik qilmadi. U Sharif Namozovning o'limini eshitgan, biroq kasalligi, keyin yana boshqa tashvishlari bilan andarmon bo'lib, oilasining taqdirini unutgan edi.

— Shoshib qoldik... — dedi Nasiba aybli odam ovozi bilan.

— Bizdan nima xizmat?

— Xizmat yo`q... faqat... o`zingizga uchrashadigan ishim bor edi.

— Uchrashib turibmiz-ku, aytavering.

— Gapiradigan gapmas... omonat bor, berib qo`yishim shart.

Asadbek «Sharif bir nima qoldiribdi-da», deb o`ylab:

— Ertaga soat o`nda idoraga keling. Idorani bilasizmi? — dedi.

Nasiba «ha, bilaman», degan ma`noda bosh irg`adi.

— Yuring, uyingizga tashlab o`tamiz, — dedi Asadbek.

— Yo`q, rahmat, — Nasiba shunday deb tisarildi. — Men... hali bu yerda ishim bor...

Go`rkovga aytadigan gapim bor...

Asadbek ayolning yolg`on so`zlayotganini, ularning mashinasiga chiqishni

istamayotganini sezdi. Shu sababli sovuq tarzda: «Xayr», dedi-yu, darvoza sari tez-tez yurdi.

Uyga qaytishganda xonadonda o`zgacharoq ruh hukmron edi. Magnitofondan sho`x qo`shiq taralgan, hovlida xizmat qilib yurganlar chehrasida xursandchilik zohir, hatto bulutlarni chekintira olgan quyosh nurlari ham faqat shu xonadonga tushayotgandek edi. Ayvon ustuniga suyanib sigaret tutatayotgan Kesakpolvon Asadbekka peshvoz chiqib, jilmayganicha quloqlarini yoydi:

— Endi bu yog`i to`yning bismillosida, Bek! — Kesakpolvon shunday deb «Nima gap, qaerga bordilaring?» degan ma`noda Jamshidga qarab olishni unutmadi.

— Nabi hofizga odam jo`natdim. Xirgoyi qilib o`tirsin-da. Hademay uyingni odam bosadi. O`g`illa- ringning qaytganini eshitganlar qulluq bo`lsinga kelaverishadi.

Kesakpolvon aytganday birovlar astoydil, boshqalar qo`rqqanidan, ayrimlar Asadbekka yaxshi ko`rinish, bahonada yaqinlashib olish niyatida «muborak bo`lsin»ga kelaverishdi. Mehmon kutib charchagan Jalil:

— To`yni tezlatib yubora qol, — dedi. Oshnasi jilmayib yurgani bilan yuragini og`ir dard bosib turganini sezgani uchun hazil bahonasida g`am toshini yengillatmoqchi bo`ldi: — Puling yetmayotgan bo`lsa berib turay.

— Ichimsan-da ichimsan! Jiyanlaringning to`yiga cho`ntakni bir qoqasan-da, oshnam! — Asadbek shunday deb Jalilning yelkasiga qo`l tashlab, bag`riga tortdi.

Asadbek uylanayotganda Jalil to`yona bera turib «Cho`ntakni qoqib, topgan-tutganim shu bo`ldi, boriga baraka», deb qo`ygan edi. «Ha, endi ishchining topgani nima bo`lardi!» degan xayoldagi Asadbekka pulning cho`g`i ko`proq tuyuldi. Holiroq qolganda pulni sanab avval ajablandi, so`ng ko`zlariga yosh keldi. Chunki o`sha damlarda boyvachchalar ham bunchalik ko`p to`yona berishmas edi.

Hozirgi gap bilan Asadbek o`sha voqeani esga soldi. Bir oz fursat holi qolishganda esa qabristondagi ahdini aytdi.

— Jinni bo`lma! — dedi Jalil. Oshnasi ahdini hoziroq amalga oshirishga ketayotganday yengidan ushlab tortdi.

— Men allaqachon jinni bo`lib bo`lganman, sezmayatuvdingmi? — dedi Asadbek.

— Odamlar toshbo`ron qilib tashlashadi. Bunaqa masalada sendan qo`rqib o`tirishmaydi.

— Menam toshbo`roningdan qo`rqmayman. Baribir o`ligini oldirtirib tashlataman.

Odamlaring ablahlik sira kechirilmasligini bilib qo`yishsin.

Donolar «Odamlar uchun xotirda saqlash, unutmazlik naqadar zarur bo`lsa, ba`zi vaqtda unutmaz ham shu darajada zarur», deyishadi. Asadbek nodon bo`lmasa-da, unutmaz zaruratini tan olgisi kelmaydigan toifadan edi. Haqiqat va to`g`rilikni sevadigan odam doimo vijdoni farmoniga itoat etarkan, uning vijdoniga hech kim hokim bo`la olmas ekan. Sarobni, shayotin ko`rsatgan adash yo`llarni haqiqat va to`g`rilik deb hisoblovchi do`stining vijdoni farmonlaridan nimalarni kutishni fahmlagan Jalil uni insof ko`chasiga

burmoqchi bo'ldi:

— Sen kechirimli bo'l. Xudo «bandalarimning gunohini kechiraman», deb turganida sen o'jarlik qilma.

— Xudoning hisob-kitobi boshqa, meniki boshqa.

— Tavba qil, jinni bo'lma.

Halimjon yaqinlashib, mahalladan bir odam so'-rayotganini aytmaganida ularning bahsi Jalilning bo'ralab so'kib qolishi bilan yakunlanishi tayin edi.

Jalil «yo'qlayotgan kim ekan, o'zim bilib kelaman», deb Halimjonga ergashganicha ko'chaga chiqdi-yu, tezda iziga qaytdi.

— Shorasul akaning nevarasi ekan, bir borib kelmasang bo'lmaydi.

— Hozirmi?

— Ha, hozir, bola kutib turibdi. Ukam anavi kuni «Amakim kasalmishlar», devdi.

Og'irlashib qolganga o'xshaydilar. Senda gaplari bormish.

— Birga boramiz.

Jalil «Shorasul aka seni so'rattirgan, menga balo bormi?» deyish o'rniga:

— Men bu yerda keldi-ketdiga qarab turaman, — dedi.

Chopar yubortirgan Shorasul aka Asadbekka ham, Jalilga ham ota qadrdonlardan edi.

Shu sababli Asadbek hozir bormaslik uchun bahona izlab o'tirmaslik barobarinda Jalilning vaj-karsonini ham inobatga olmadi. «Yur, keladigan odam sensiz ham kelib-ketaveradi», deb to'ng'illab qo'yishining o'ziyoq Jalilga kifoya qildi.

Qirq birinchi yil Asadbekning otasi bilan urushga ketib, kelgusi kuzda o'ng qo'lsiz uyiga kirib kelgan Shorasul aka to'rt yilu to'rt oy davomida ularning issiq-sovug'idan xabar olib turdi. Xotini bilan birgalikda non do'konida ishlovchi bu odam ikki burda non orttirib qolsa, bir burdasini ularnikiga tashlab o'tardi. Urush tugab, Asadbekning otasi qaytganidan so'ng ham bu odatini tark qilmadi. Asadbekning otasi «xalq dushmani» tamg'asida qamalganida ko'pchilikning oyog'i ularning ostonasidan tortildi. Dastlab Shorasul aka ham kelmay qo'ydi. Tug'ruqxonadan qaytgan onasi holsizlangani sababli nonga Asadbekning o'zi chiqadigan bo'ldi. Yarim kechada Jalilning otasiga ergashib chiqqan Asadbek ko'p qatori navbatda turar, uning kaftiga ham kattalarga o'xshab navbat raqamini yozib qo'yishardi. Asadbek «Yozuv o'chib qolsa navbatdan chiqarib tashlashadi», deb qo'rqib, kaftini yummasdi, barmoqlari sovqotib, tarashadek qotib qolsa ham chidab turardi. Navbati yetganda bir qo'llab hisob-kitob qilayotgan Shorasul aka bilan, erining yonida chaqqon-chaqqon non kesayotgan opoqi xotin bilan ko'zlari to'qnashardi. Opoqisi bu bechora bolaning ko'zlariga qaray olmasdi. Shorasul aka esa mungli ravishda tikilardi. Asadbek uning «Ha, toychoq, qalaysan», deb erkalab qo'yishini juda-juda istardi.

Aytadilarki, singan umid chinnisi chegalansa ham izi qoladi. Balki kattalarning umid chinnisiga xosdir bu hikmat. Norasidaning umidli nigohi javobsiz qolganda sinuvchi qalb chinnisini keyin chegalashning imkoni yo'q.

«Dada» deb tili chiqqanida otasining diydoriga to'yolmagan, go'daklik chog'larida otaning suyishlari qanday bo'lishini bilmagan, ulg'aygan onida «toychoq» deb erkalashlarga ko'nika boshlaganda yana mehrga zorlik dashtida qolgan bola uchun non do'konida ishlovchi amaki qatoridagi odamning berguvchi nonidan ko'ra birgina shirin so'zi azizroq edi. Asadbek bu aziz narsaga zor bo'lgan kunlarini hanuzga qadar unutmaydi. Yo'q, u Shorasul amakisiga gina saqlamasdi.

Shorasul aka ikki haftadan so'ng shom qorong'usida ularnikiga kelgan, eski gazit parchasiga o'ralgan to'rt kesim nonni berib, «Toychoq, qalaysan, oying, ukang yaxshimi?» deb hol so'ragan, biroq, ostona hatlab ichkari kirmagan edi. Tug'ilgan go'dakning chillasi chiqmay turib kirish mumkinmas, yolg'iz ayolning uyiga shom



qorong'usida kirib-chiqish ham ayb, degan tushuncha Asadbekda yo'q bo'lgani uchun «xalq dushmanining uyiga kirishga qo'rqdilar», deb o'yladi. O'shandan so'ng Shorasul aka xuddi urush yillaridagi kabi har kuni kelishni odat qildi. Faqat avvalgilardek kunduzi emas, shom qorong'usida rov kelib-ketardi. «Toychoq, qalaysan?» deb boshini silab qo'yardi. Odamlardan yashirincha berilayotgan bu mehr bolaning o'ksik ko'ngliga malham bo'la olmas edi.

Shorasul aka har yili farzand ko'rardi-yu, biroq, unga baxt va'da qilib dunyoga kelgan go'dak bir-ikki oygina yashab, ota-onasini hijron oloviga tashlab ketardi. Faqat to'rtinchi qizi To'xtaxon ismiga sodiq ravishda yashab qoldi. Yashashga yashadi-yu, ota-onasini kuydirib, qaritdi. Shorasul aka «qadrdon oshnalarimdan birining o'g'lini kuyov qilsam, kuyov emas, o'g'il bo'lsa», degan niyatda yurganida oydek chiroy ochayotgan To'xtaxon tushmagur bir milisa yigitga ko'ngil qo'yib, to'ysiz, nikohsiz tegib olib, ota-onaning boshini egdi-yu, kuyov bolaning yurtiga jo'nab qoldi. Shorasul akaning xotini bu isnodga chiday olmadi, shu egik boshi bilan armonli dunyoni tashlab ketdi. Xudo bu ayolning rahmini yedi, isnod olovida kuyib yashash azobi esa Shorasul akaga nasib etdi. Yigirma yilning nari-berisida u yolg'iz yashadi. Asadbek bilan Jalil uylab qo'yishga harakat qilishsa ham u ko'nmadi. Ba'zan achchiqlanib, bu taklifni rad etib, ba'zan esa «Hozirgi xotinlarga ikki qo'lli er kerak, bir qo'lli notavonni boshiga uradimi?» degan hazil bilan chap berdi.

Uch yil ilgari Jalil ukasidan «Shorasul amaking yaxshi yuribdilarmi?» deb so'raganida «Bir-ikki kundan beri ko'rinmayaptilar» degan javobni eshitib «Ko'rinmayotgan bo'lsalar yo'qlab qo'ysang o'lasanmi!» deb so'kinib, xabar olgani uyiga kirgan edi. Uch kundan beri isitmalab, tuz totmay yotgan bu odamning tirikmi yo o'lik ekanini dastlab bilmadi. Qo'shnilardan gina qilganida ular «Qaydam, veteranlarning shifoxonasiga yotmoqchiydilar, o'sha yoqqa ketgandirlar, deb o'ylabmiz», degan bahona bilan o'zlarini oqlashdi. Shundan so'ng Jalil Asadbekni ishga solib, Shorasul akani ko'ndirib, To'xtaxonni ko'chirtirib kelgan edi. Militsiyadagi xizmatidan haydalib, ishining tayini bo'lma-yotgan kuyov bolani Asadbek Chuvrindining limonad tsexiga joylab qo'ygandi. Boshqalarga nisbatan to'rt baravar ko'proq maosh oluvchi «kuyov bola» qaynotasining bir paytlardagi yaxshiliklari evaziga bu martabaga erishganini fahmlamasdi. Shorasul aka taqdirga tan berganday ko'rinsa-da, qizi bilan ham, kuyovi bilan ham gaplashmasdi. Bir nima deyish zarurati tug'lsa nabiralari vositasida aytirardi. Shorasul akaning bu odatlarini bilganlari uchun ham ular nabiraning yo'qlab kelganidan ajablanishmadi. Shorasul aka hamishalik o'rni — temir karavotda emas, xona o'rtasida, qiblaga oyoq qilib yotqizib qo'yilgan edi. Buning ma'nosini tushungan Jalil orqasiga o'girilib, ostonada turgan To'xtaxonga ajablanib qaradi.

— O'zlari aytdilar, — deb izoh berdi To'xtaxon.

Jon berayotgan odam yuzini qiblaga qaratib, ibodatini qilib olsin uchun shunday yotqizilishini bilmaydigan Asadbek bu holatga e'tibor bermadi. Shorasul akaning ko'zlari ochiq, nafas olishi ham bir meyor-da — jon berayotgan odamga o'xshamas edi.

— Asad, keldingmi, toychoq bolam, — dedi u tetik ovozda. So'ng Asadbek bilan izma-iz kirib kelgan Jalilga kulimsirab qaradi: — Ha, shalpanquloq, senam keldingmi? Ishqilib Xudo senlarni bir-birlaringdan ayirmasin. Shalpanquloq, bormisan, bu dunyoda? Yuz so'mlik pulday yo'q bo'lib ketding-ku, a? Asaddan ginam yo'q, uning ishi ko'p. Sen salti-svoy odamsan, seni so'ksam ham arziydi.

— Nima bo'lsa ham baloga qoluvchi Jalil-da, a? Bu toychog'ingizni men yetaklab keldim. Oy chiqsa ham shunga chiqsin, kun chiqsa ham shunga, a? Bu qanaqa yotish, otaginam?

— Bu yotishmi... Otalaringni sog'indim. Yog'och otga minib bi-ir yo'lga chiqadigan bo'lib turibman.

- Adalarimizning sizga ko'zlari uchib turgani yo'qdir, biz bilan otamlashib yuravering. Yog'och otni ham qo'ying, bu yoqda ota bo'lib qilib beradigan ishlaringiz chiqib turibdi.
- Xayrli ishmi, ishqilib? — Shorasul aka shunday deb Asadbekka qaradi.
- Xayrli ishlarning dodaxo'jasi, — dedi Jalil. — Toychog'ingiz o'g'illarini uylantiryapti. Endi toychoq demasangiz ham bo'ladi. Ot bo'lib qoldi. Ozgina eshshakligi ham bor-u lekin sizning hurmatingizni qilib «ot» desak ham bo'lar.
- Toychoq, oshnangdan xafa bo'lma, buning onasi garmdoriga bosh-qorong'u bo'lganda.
- Otaginam, onamni qo'ya turing. Kelinlar qaerdan, deb so'rasangiz-chi?
- So'rash uchun sen birovga gap berasanmi, qani aytaver-chi?
- Kelinposhshalar siz yetib borolmagan naq Girmonning o'zidan.
- Girmondan deysanmi? — u o'rnidan bir qimirlab olib, ajablanganini yashirmay Asadbekka tikildi.
- Ha, Girmondan, lekin siz o'ylaganday Gitlarning jiyanlari emas ular. O'sha yerda qo'nib qolgan bir o'zbek boyning qizlari ekan. Aka-uka boja bo'lishyapti. Toychog'ingizning omadi yurib qolgan, hozir xo'rozi ham tuxum qilyapti. Ana endi o'ringizdan «bismillo» deb turasizu bir tog'oragina norin, bir chelak nisholdani ko'tarib, bo'rdoqini sudrab Girmonga to'y olib borasiz. Shalpangquloq bolangizdan or qilmasangiz yoningizga olvolarsiz, qo'yni yetaklab yurar...
- Shorasul aka sog' paytida Jalil bilan uncha-buncha hazil qilib turardi. Hozir hazil gaplarga mayl bildirmadi. Asadbekdan ko'z uzmagan holda Jalildan iltimos qildi:
- Sen chiqib tur, toychoqqa aytadigan gapim bor.
- Jalil iltimos ohangidagi amrga itoat etdi. Dahlizga chiqib, eshik ortida turgan To'xtaxonga «gap poylayapsanmi?» deganday qarab qo'ydi.
- Adangni olib kelarmishsan, rostmi? — deb so'radi Shorasul aka, Jalil chiqib ketgach.
- Aniq bir qarorga kelganim yo'q, — deb javob berdi Asadbek. — Birov olib kel, deydi, birov bezovta qilma, deydi. Hayronman.
- Bezovta qilmaslik yaxshi-ya... lekin olib kelganing ma'qul. Begona yurtlarda yotmasin... Olib kelsang... yonimga qo'y, xo'pmi, toychog'im?
- Keyingi gapni yosh bolaga gapirayotganday shirin ohangda aytdi. Otasi qamalgan kunlari Asadbek non do'konida umidvor bo'lib turganida xuddi shunday shirin ohangga zor edi. Amaki qatoridagi bu aziz odam shirin ohangini o'limi oldidan aytish uchun asrab qolganmidi?
- Ungacha bir ish qilasan: adangning qabridan tuproq olib keluvding, a? Ozginasini onangning qabriga to'kuvdingmi? Qolgani-chi? Qolgani turibdimi?
- Ha, — Asadbek shunday deyishga dedi-yu, o'ylanib qoldi. O'shanda Manzura «Adasi, mozorning tuprog'ini bekorga olib kelibsiz, xosiyati yo'q, mozorga olib borib tashlash kerak» degan edi. Asadbek «bilganingni qil», devdi. Hozir shuni eslab «tashlab yuborgan bo'lsa-chi?» deb o'yladi.
- O'sha tuproqdan bir hovuchini menga ataysan. Ko'mayotganlaringda go'rkovga bersang, boshimga qo'yiladigan guvala ustiga sochadi. U tuproqda adangning hidi borda...
- Asadbek Krasnoyardan qaytganida Shorasul aka uni yo'qlagan, tuproq olib kelganini eshitib:
- Esing bormi, tuprog'ing nimasi? O'zini olib kelishing kerak edi, — degan edi. Hozir o'sha tuproqni sog'inyapti...
- Jalil chiqib ketmaganida bu gaplarni eshitib «E, otaginam, siz hali ko'p yashaysiz», debmi, ishqilib ko'ngilni ko'taruvchi bir narsani aytardi. Asadbekning esa, o'rtog'idan farqli o'laroq, bunaqa odati yo'q edi. Kasal yotgan odamga qarab «rangingiz toza,

ko`rinishingiz yaxshi» deya olmasdi. Ko`p hollarda yonidagi odam gapirib, u qarab turaverardi. Ayni damda bu odatini kanda qilmadi.

Shorasul aka bir-ikki yutinib qo`ygach, horigan ko`zlarini yumdi.

— Xudo nega meni buncha xorladi, nega buncha ko`p azob berdi, bilasanmi? — deb so`radi u ko`zlarini ochmay.

Asadbek «Xudo hammaga jazo berarkan, jazosiz odam yo`q ekan bu dunyoda», demoqchi bo`ldi-yu, gapi qo`pol ohangda chiqishi mumkinligini fahmlab, indamay qo`ya qoldi.

Shorasul aka bu savolni o`ziga ko`p marta bergan. Farzandlari birin-ketin o`laverganida ham, qizi tufayli isnodga qolganida ham, beva qolganida ham... Savolni berardi-yu, qilgan gunohlarini bir-bir eslab, so`ng xuddi taroziga solganday salmog`iga qarab saralardi. «Eng og`iri bu, manavinisi mundayroq», deb o`rinlarga bo`lib chiqardi. Ikkinchi, uchinchi... yigirmanchi o`rinlarda gunohlarning joylari almashinib turardi. Ammo birinchi o`rindagisi joyini bosh-qalarga bo`shatmas edi. Hozir ham shuni aytmoqchi bo`ldi:

— Odamlarning noniga xiyonat qilganman...

Aytishga og`iz juftladi-yu, nogahon uyg`ongan bir faryod fikrini tilga ko`chishiga yo`l bermadi.

«Sen bularga bir-ikki burdadan non bergansan, qolganini o`zing yegansan. Bir burda emas, bitta ushoq ham sen uchun harom edi. Lekin sen bu haromdan xazar qilmading, kuydirgingga rohatlanib yeding, yeb yana rohatlanding. Nega xazar qilar ekansan, axir shu haromni yeb, to`q yurish, nafsingni orom oldirish qasdida kirgan eding-ku bu ishga. Endi haromingga bularni sherik qilmoqchimisan? Agar o`sha non bularga ham harom bo`lsa, sen tufayli gunohga botishadi. Hozir «odamlarning noniga xiyonat qilganman», desang, «Senlarni to`ydirish uchun qildim bu ishni», degan ma`no chiqadi. Shunda «toychoq» deb erkalayotganing bu odam basharangga tupursa ham arziydi. Endi bu odam kechasi bilan zor qaqshab non do`koni yonida navbatda turuvchi bechora bola emas...» — Shu faryod tufayli uni o`chgan Shorasul aka hozir «Iskandarning shoxi bor», degan haqiqatni aytolmay qiynalgan sartarosh holida edi. Sartarosh-ku, bir ilojini qildi, qurigan quduqni topib aytdi dardini. Lekin Shorasul aka topmadi bunday quduqni. Yonida cho`kkalab o`tirgan odam ham quduq emas. Bu haqiqatni indamay yutib keta olmaydi.

Shorasul aka, Yaratganning notavon bandasi, hidoyat yo`lining qanday bo`lishini bilmay shu yoshga yetdi, endi hidoyatdan benasib tarzda bu dunyoni tashlab ketmoqchi.

Bu qadar uzun umri yo`lida bir iymon egasi chiqib unga tavbani o`rgatmadi, sajdaga da`vat qilmadi. Aslida o`zida rag`bat bo`lmadi. O`zi hidoyatga intilganda edi, iymon egalariga yo`liqqan bo`lardi. U tavbani-ku qiladi, biroq, peshona sajdaga tegmasa bu tavbaning qadri qanchalik ekan, vallohi a`lam?

Shorasul akaning ichida bir og`riq uyg`onib, tishsiz milklari bilan tilini tishlab beixtiyor ingradi.

Asadbek u tomon yaqinroq surilib, peshonasiga kaftini qo`ydi. Shorasul aka ko`zlarini bir ochdi-yu, ammo nimadandir qo`rqqanday yana yumib oldi. Mijjalaridan yosh sizib chiqdi.

— Barmoqlarim og`riyapti... — dedi u ingrab. — Zirillab og`riyapti. Xuddi olovda qarsillab yonayotgan o`tinga o`xshab qaqshayapti...

Asadbek ko`rpa ustidagi ozg`in barmoqlarni ikki kafti orasiga oldi. Barmoqlardagi sovuqlik uning vujudiga o`tib, bir titradi.

— Bunisi emas, o`ng qo`lim. Barmoqlarim qaqshayapti... Silab qo`y, bolam...

Asadbek ajablendi: «O`ng qo`lni snaryad yelkadan uzib tashlagan bo`lsa, yo`q barmoqlar qanday og`riydi. Alahsirayapti... Xayol ketgan shekilli...»

— Esingdami, men seni urgan edim. Shu shapalog`im bilan urgan edim. Oshiq

tepayotganingda «qimor o'ynama», deb uruvdim. Shu barmoqlarim qaqshayapti. Sen o'sha shapaloq uchun meni kechir. Mendan rozi bo'l, toychoq. Rozi bo'lmasang, barmoqlarim qaqshayveradi. Do'zaxda ham kuyib qaqshaydi... Urgani yodida... Ularga non bergan bu bir qo'lli odamning orqasidan so'kkani ham esida. Ammo... o'ng qo'li bilan urmagan edi. Chap qo'li bilan qulog'ini ayamay burab, orqasiga astaroq tepgandi.

— Esingga tushdimi, kechirdingmi? — dedi Shorasul aka ko'zlarini ochib. Ko'zlarining qorachig'i xuddi kulga ko'milganday zo'rg'a ko'rinib turardi.

— To'g'ri urgansiz o'shanda. Men sizdan kechirim so'rashim kerak.

— Men sendan roziman. Sen o'zing uchun ham, otang uchun ham mendan rozi bo'l, bolam. — U yana ko'zlarini yumib ingradi. — Otang rozi bo'lmaydi mendan. Esingdami, otangni olib ketishgandan keyin men ikki hafta senlardan o'zimni tortib yuruvdim. O'shanda men ham so'roq berayotuvdim. Men ojizlik qildim, qo'rqqoqlik qildim. Otangni «Bu xalq dushmani emas», deya olmadim. Otang rahmatli «nemisning hammasi fashist emas, yaxshilari ko'p, ilmda, madaniyatda ilg'or», degan ekan. Shu gapni aytmagan, deya olmadim... Xudo urushda qo'limni olmay, tilimni, ko'zimni, qulog'imni ola qolmaydimi?.. Shuncha o'qlar bekorga yog'ilib turganida bittaginasini yuragimga sancha qolmaydimi?.. Barmoqlarim qaqshayapti... Ha, shu barmoqlarim bilan qo'l qo'yib berganman o'sha xatga. Shuning uchun qaqshayapti. Barmoqlarim do'zax olovida kuyishini boshladi.

Asadbek chap qo'lining sovuq barmoqlarini siladi.

— Adam tirik bo'lganlarida sizni kechirardilar, gina saqlamasdilar. O'sha xatga qo'l qo'ymaganingizda ham baribir qamashardi, siz bundan siqilmang.

Bu gapdan keyin Shorasul aka ko'zlarini ochdi. Butkul o'zga ohangda, o'zga mavzuda gap boshladi:

— Ma'arakaga kuyovning bir tiyini ham aralashmasin. O'zimning haloldan topib, atab qo'yganim bor, Jalil oshnang biladi. Keyin... shu uyni Jalil og'ayningga xatlab bera qolsammikin? Katalakda yashamay, mahallaga ko'chib kela qolsin, xo'pmi?

Bu fikr Asadbek uchun yangilik emasdi. To'xtaxonni ko'chirish taklifini aytganida Shorasul aka «Qo'y uni, yaxshisi oshnang Jalil ko'chib kelsin», degandi. Asadbek o'sha suhbatni eslab:

— Aytaman-ku... lekin ko'nmaydi u shalpanqulog'ingiz, — dedi. — Meni eshakka o'xshatadi-ku, asli o'zi eshshakdan ham battarroq qaysar.

— Bu gaping to'g'ri. — Shorasul aka chuqur nafas oldi. — Unda Sohib sariqqa xatlab berasan. O'n ikkita bolasini qayga joylashni bilmay garang, u boyaqish.

Asadbek uning maqsadini anglagani uchun ham «To'xtaxon-chi, qizingiz turavermaydimi?» deb so'ramadi.

— Endi sen boraver, men charchadim, ozgina dam olvolay.

Asadbek Shorasul akaning barmoqlarini yana ohistagina silab qo'yib xayrlashdi-da, o'rnidan turdi. Ostonaga yetganida Shorasul akaning ovozi eshitdi:

— Xudo senga shirin-shirin nevaralar bersin, nevaralaringning to'ylarini ko'r. Otang ko'rmagan baxtni Xudo senga nasib etsin...

Asadbek bu duoni eshitib, orqasiga o'girildi. Shorasul aka bo'ynini burib, uning izidan mo'ltillab qarab turgan edi. Bu holatni ko'rib Asadbekning ko'ngli yanada vayron bo'ldi, ko'zlariga yosh keldi. U ayni damda bir soatgina ilgari pochtachining o'ligini qabrdan chiqartirib tashlataman, deb hukm yuritayotgan diydasi qattiq rahmsiz odam emasdi. Agar hozir Jalil o'sha ahddan so'z ochguday bo'lsa «Gaping to'g'ri, oshnam, o'likda nima gunoh, yotgan yerida yotaversin», deb chekinishi tabiiy edi.

Asadbek dahlizga chiqqach, Jalil bilan To'xtaxonni ko'rib, o'rtog'iga savol nazari bilan

tikildi.

— Asad, To'xtaning bir iltimosi bor ekan, or-qangga qaytasan, endi oshnam...

— Nega? — Asadbek bu ayolga qarashni istamayotgan bo'lsa ham majburan qaradi.

— Siz ayting... bizdan rozi bo'lsinlar...

— Rozilik uchun ham dallol kerakmi? — deb to'n-g'illadi Asadbek undan ko'zini olib. — O'zing so'rayver.

— Biz so'radik, javob bermayptilar...

— Ikki mo'minni yarashtirib qo'yish savob, — dedi Jalil. — Banda rozilik bilan ketgani durust.

— Shu savob o'zingga buyursin, — Asadbek shunday deb deraza tomon o'tdi-da, unga yo'l bo'shatdi.

Gapni cho'zishdan foyda yo'qligini anglagan Jalil ko'p o'ylab o'tirmay oldinga o'tdi-da, ayolga «yur», deb ichkari kirdi. Asadbek esa bu savdoning nima bilan tugashini kutib turmay tashqariga chiqib ketaverdi. U Shorasul akaning fe'lini yaxshi bilgani uchun ham To'xtaxonning kechirilmasligiga ishonardi. Bir marta Asadbek «To'xta bilan gaplashmayapsizmi, kechirib qo'ya qolmaysizmi?» deganida «Onasi kechirmagan qizni men kechiramanmi?» degan javob eshitgan edi. Shorasul aka qizini faqat behayoligi uchun emas, xotining isnodan kuyib, bevaqt o'lishiga sabab bo'lgani uchun ham kechirolmas edi. Asadbek buni o'sha suhbatdan keyin tushungandi.

Shorasul aka qizini kechirsa xotini ruhiga xiyonat qilganday bo'lardi. O'rtada turgan Asadbekning gapini ikki qilmay qizining ko'chib kelishiga rozilik berganidan so'ng o'tgan kunlari unga azobli bo'ldi. Qizi uyiga qaytdi-yu, o'zi azobli, to'lg'oqli dengizga g'arq bo'ldi. To'xtaxon ostona hatlab kirib kelgan daqiqadayoq xotining ruhi chirqillay boshlagan kabi tuyuldi. Uyqularidan halovat qochdi. Tushlarida xotining g'amnok ko'zlariga termilib «Qizimizni kechira qol, yoshlik qilgan-da», deb ham yalindi. Lekin xotinidan sado chiqmadi, demak kechirmadi. Shu sababli ham Shorasul aka qizining rozilik so'rab aytgan zorli so'zlarini javobsiz qoldirgan edi.

Asadbek ko'cha eshigiga qadar kuzatib chiqqan kuyovga «xayr» ham demay, mashinaga o'tirdi. Halimjon «Jalil aka ham chiqadilarmi?» degan savol nazari bilan xojasiga qarab javob olmagach, tavakkal qilib mashinani yurgizmoqchi bo'ldi.

— To'xta, akang chiqmaydimi? — dedi Asadbek uni jerkib.

Jalil uzoq qolmadi. Mashinaga chiqib o'tirgach, Asadbek «Ha, rozi bo'ldimi?» deb so'ramasa ham hisob berdi:

— Chol qaysar, ko'nmadi.

Asadbek o'rtog'iga «Ahmoq bo'lmasang o'rtaga tusharmiding?» — degan ma'noda qarab qo'ydi. Jalil bu qarashdagi ma'nini uqmaganday xuddi o'ziga o'zi gapirgan kabi davom etdi:

— «Onasidan so'ramagan rozilikni mendan so'raydimi, oq sutni men emas, onasi bergan», dedi. Men bir nima deya olmadim. To'xta qo'rqyapti, bu norizolik bollarimga urmasaydi, deb tashvishlanyapti.

Asadbek bu gaplarni eshitmaganday devor bo'yi taxlab tashlangan pishiq g'ishtlarga imo qilib so'radi:

— Kuyov bolang uy qurmoqchimi?

— Shunaqadir. Nima edi?

— Ovora bo'lmasin, aytib qo'y: janozadan uch kun o'tgach, kelgan yerlariga ko'chib ketishadi.

— Sen ham o'jarsan.

— Bu mening hukmim emas. Uy Sohib sariqqa qolarkan.

Bir oz yurishgach, Jalil mashinani to'xtatib, «Ukamda ishim bor», deb tushdi-da, eshikni

yopmay turib:

— Menga qara, senam bir farosatingni ishlatgin, nomahram degan gapni tushunasanmi yo yo`qmi, dayus emassan-ku, axir, — dedi. — Xo`p, ilgari mayli edi, endi kelinlaring bor. Laychangni boshqa yoqqa bog`la, g`ar ko`zini lo`q qilmay yursin.

Bu gapni eshitib Asadbek mashinadan tushdi-da, Jalilga yaqinlashgach bilagidan ushlaganicha bir-ikki qadam nari yurdi. «Laycha» deyilganida kim nazarda tutilganini anglab tursa ham:

— Haydarni aytyapsanmi? — deb bosiqlik bilan so`radi.

— Ha, yana boshqa laychang bormi?

— Endi... oshnam, hadeb unga yopishaverma.

— Namuncha?! — Jalil jirillashini boshlamoqchi edi, Asadbek bilagini qattiqroq qisib, siltadi:

— Gapni eshit: Haydar yomonmi-yo`qmi, sendan ko`ra yaxshiroq bilaman. Haydar bilan oramizda do`stlik yo`q, ish bor. Shuning uchun sen tinch yur. Ilgari osilsang ham endi osilma. Endi u... — Asadbek «xo`jayin» deb yuborishiga salgina qoldi. Gapni boshlashga boshlab qo`yib yakunlashga taraddudlanganini sezgan Jalil unga tik qaradi:

— Ha, tinchlikmi? Gapiraver.

— Endi u boshqa odam, — dedi Asadbek.

— Uning o`lganda ham boshqa odam bo`lmaydi.

— Sen ham odamga o`xshab bir marta «xo`p» degin. Sen uchun u endi yo`q, o`lgan, ko`mib tashlangan, bildingmi?

— Bilmadim. Ochiq gapir, nima bo`ldi? Maskovdan kelishing menga yoqmay turibdi.

— Hozircha «xo`p», deb turaver, qolganini keyin bilib olasan. Endi boraver, ukang sog`inib, ichikib o`tirgandir.

Asadbek shunday deb iziga qaytdi. Jalil esa turgan yerida uning orqasidan qarab qoldi.

## X b o b

### 1

Hammasi ortga chekindi: ota-onasining mungli nigohi ham, Noilasi bilan bahslashuvlari ham endi bezovta qilmay qo`ydi. Bel tomonga azob berayotgan og`riq kamayib, uyquli damlaridan ko`ra uyg`oq soatlari ko`paydi. Behisob dorilarning kuchidan karaxt bo`lsada, o`tmish voqealarni idrok etishga urindi. Ana shunday onlarda Zelixonning «nodonsan, sen bola» degan gapini esladi. Qamoqdan chiqib uchrashganlarida Zelixon bu gapni erkalash ohangida aytgan edi. Asadbekning gapini ikki qilmay eski hovliga kelishi, uning hukmiga itoat etib, uzatilgan to`pponchani olganicha tashqariga chiqishini har eslaganida Zelixon endi erkalash o`rniga jahl bilan «Nodon!» deb so`kayotganday tuyulaverdi. Aslida Zelixon emas, «Qasoskor ham shunchalar ahmoq bo`ladimi!» deb Elchin o`zini o`zi so`kardi. So`ka-so`ka qancha o`ylamasin, Asadbek maqsadining tagiga yeta olmayotgani barobarida Jamshidning paydo bo`lib qolishi sababini anglashga ham ojiz edi. Uy-g`ongan turli gumonlar oqimlari uning esini teskari qilib yubordi. Dastlab «Asadbek jonimni olishga yubordimi buni» deb o`yladi. Qimirlashga ham holi yo`q damda shuning qo`lidan o`lim topmog`i unga alam qildi. «Ey Xudo, mening azroilim shu jallod bo`lsa, mayli, olsin jonimni, ammo ozgina fursat ber menga, o`zimga kelib olay, menga ozgina kuch-quvvat ham ber, o`lsam-da, olishib o`layin!» deb nola qildi.

Zelixon Sochidan telefon qilib «Jamshid tirik» deganidan so`ng asadbeklar olamining nayrangiga tushunmay gangib yurgan Elchin hayronu parishonlik girdobiga yanada

tortildi. Jamshid «Hofiz aka», deb chaqirgach, «o'ldirmaydi shekilli, jon oladigan odam chaqirib o'tiradimi?» deb o'yladi. Jamshid chiqib ketgach esa: «Nega chaqirdi? Biz Zaynab bilan topishdik, siz o'limingizni kutib shu yerda yotavering», demoqchimidi?» degan xom xayoli haqiqat maqomiga ko'tarila boshladi. «Zaynab endi kelmaydi», degan fikr bu haqiqatga quvvat berdi. So'ng taqdirga tan berib Zaynabni oqladi: «Tashlab ketishga haqqi bor. Agar shu maraz unga baxt berolsa, baxtli bo'lishga ham haqli!» Elchin shunday to'xtamga kelishga keldi-yu, biroq, «bir qo'li bilan jonimni olib, meni baxtsiz qilgan odamga ikkinchi qo'li bilan qanday baxt tutsin?» degan savolga javob topa olmadi.

Hamshiraning «gapirmasalar ham kerak» so'zlarini eshitgach «Qani edi, ham kar, ham ko'r bo'lib qolsam», degan armon uyg'ondi. Hamshira aytmasa-da, gapirolmastligi uning uchun yangilik emasdi. Uni hushsiz deb o'ylagan do'xtirning «umurtqa shikastlangan, bir umr harakatsiz yotadi, tildan ham qoladi», deganini eshitgan edi. Shu sababli yo'qlovchilar kelishi bilan beixtiyor ravishda chalajon kabi ko'zlarini yumib olaverdi. Hech kim yo'g'ida esa barmoqlarini qimirlatishga urindi. Oyoq panjalari ham harakatga kelganday bo'ldi. Gapirmoqchi bo'ldi, g'o'diragan tovushini o'zi ham eshitib, yengil tortdi. «Do'xtirlarning hamma gaplari bekor», deb o'zini o'zi ovutdi. Jamshid kelib ketganidan so'ng Zaynabni kutdi. Hatto «ikkovi birga kelsa fотиha berib yuboraman», deb ham o'yladi. U qaynotasining «mening eng katta xatoim — seni o'ldirtirmaganim», degan gapini unutmaydi. Shunga ko'ra, hali bu ahvolga tushmay turib, «mening eng katta xatoyim shular bilan o'chakishganim bo'ldi, qiziga uylanib, past ketdim», degan fikri qat'iydashgan edi. Bu yerda yotib xushi o'ziga kela boshlagach, bu o'yindan, bu davradan chiqish yo'lini izladi. Nazarida birinchi qadami — Zaynabning javobini berish edi. Zaynab ko'nglida iliqlik uyg'ota boshlagan bo'lsa-da, «undan ayrilish azobi yuragimni parchalab tashlamas», deb hisobladi. Asadbek olamidan qutulish baxtining saodati xotindan ayrilish parishonligidan ulug'roq tuyuldi. Zaynabdan ajralish ahdi jon berish hukmi bilan barobar ekanini uning noqis aqli fahm etmas edi.

Elchin uzoq yillar davomida muhabbat olovlari haqida ashulalar aytib yurgani bilan odamlarning qalbini bilmas edi. Ayniqsa ayol qalbining qudratini, undagi ruh to'lqinlarini his eta olmasdi. U «Zaynab alamzada, meni hech qachon kechirmaydi», deb o'ylab yang-lishmagan edi. To'g'ri, Zaynab qalbi to'ridagi umid chinnisini sindirgan, tuproqqa qorgan odamni kechirmas edi. «Muslima kechirimli bo'lmog'i kerak, Ollohning roziligi uchun gunohidan o't, kek saqlash durust amallardan emas»ligini bilganida ham, taqdiridagi mash'um kunlarni unuta olmasdi.

Biroq, unda Elchindan qasos olish rejasi yo'q edi. To turmushga chiqquniga qadar, aniqrog'i, «Siz... o'shami?» deyilguniga qadar unda qasos o'ti mavjud edi. «Otam meni xorlagan yigitni topsalar uni o'zim o'ldiraman», degan ahdi bor edi. Qiynab o'ldirishning turli yo'llarini o'ylab, topib ham qo'ygandi. Lekin o'sha xorlagan odamning qiyshiq barmoqlari nikoh kechasi o'zini oshkor qilgan damda bu ahdi — qarori bo'g'ildi. Bu ahdga nisbatan «Erga itoat etmoq» degan hayot qonuni ustunlik qildi. Jamshidga bo'lgan muhabbati xurujga kirgan damlarda ham o'sha itoat qonuniga omuxta bo'lgan erlik juvon hayosi vujudidagi o'ch olovini o'chirib turdi. Elchin xotiniga xos bu fazilatlarni bilmas, his qila olmas edi.

Shu sababli ham keyingi safar Zaynab yolg'iz kirib kelganida ajablandi. Yarim ochiq eshikka qarab, Jamshidning qorasi ko'rinishini kutdi. Zaynab erining eshikka tikilib qolganini ko'rib, orqasiga o'girilib qaradi. So'ng hayron tarzda «tuzukmisiz?» deb so'radi. Elchinning «rahmat» deyishga qurbi yetardi. Biroq, gapirishni istamay, kiprik qoqib «ha» ishorasini qildi. Ular sog' paytlarida ham uzoq suhbatlashishmas edilar. Shunda Elchin o'zida bir mas'uliyat sezib, Zaynabni qiziqtirishi mumkin bo'lgan voqealarni bayon qilib

o'tirardi. Hozir bunday zo'raki suhbatga xohish ham, quvvat ham yo'q edi.

Hamshira kirib, bir-biriga tikilib turgan er-xotinning unsiz suhbatini uzdi.

— Ertalab eringizning jiyanlari kelishuvdi. Professorga ham uchrashishdi. «Javob tegadigan bo'lsa olib ketamiz», deyishdi. Professor aytdilarki, buni faqat siz hal qilar ekansiz?

Bu gapni eshitib, Elchinning qalbi bir qalqib tushdi. O'zi ham sezmaganda xotiniga najot ko'zlari bilan qaradi. Yaqinginda xotining javobini berib, uni Jamshidning ixtiyoriga uzatishni o'ylab yotgan Elchinning yuragi «Yo'q!» deb faryod urganday bo'ldi. Ayni faryod Zaynabning ko'kragini zirillatdi. Chuvrindining xotini «Boyaqish oyoq-qo'lsiz, tilsiz nima qiladi, bu azoblardan ko'ra Xudo jonini ola qolmaydimi?» deganida Zaynab undan ranjigan edi. «Oyoqsiz-qo'lsiz bo'lsa ham u mening erim-ku?!» degandi. «Endi jiyanlari ega chiqishmoqchimi? — deb o'yladi Zaynab. — Ha... xotini tashlab ketadi, xor qiladi, deyishayotgandir-da...» Zaynab xayolida uyg'ongan bu fikrni hamshiradan eshitganday, unga norozi qiyofada qaradi:

— Bu kishi mening erim, bilasiz, a? — dedi zardali ovozda. Bu ovozda Asadbekning ruhi sezilib, Elchin yengil titrab oldi. Zaynab eridagi o'zgarishni sezmay, hamshiradan, ko'zlarini uzmaganicha gapini davom ettirdi: — Bu kishining uylari bor, oilalari bor. Jiyanlari yana kelishsa shunday deb qo'ying. Ruxsat tekkan kuni o'zim olib chiqaman. Siz esa... — Endi Zaynabning ovozidagi qat'iylik kuchaydi. — Aytilgan ishni qiling: kasalning oldiga har xil qalang'i-qa-sang'ilarni qo'yavermang.

Zaynab «to'g'ri qilamanmi?» deganday eriga qaradi. Undagi otasiga xos mardlik Elchinning ruhini tamomila parcha-parcha qilib tashladi. Ko'zlari yoshga to'lib, kipriklari pirqiradi. Zaynab erining bosh tomonidagi stulga o'tirib olgach, qo'lidagi tugunni yechdi. Qaynog'i salgina bosilgan qaynatma sho'rvadan ichirmoqchi bo'ldi. Zaynab «bu kishi mening erim» deganidayoq ko'kragida uyg'onib, bo'g'ziga qadalganicha turib qolgan faryod sho'rvaga yo'l berarmidi? Zaynabning zo'ri bilan ikki qoshiqni amallab ichdi-yu, bosh chayqab «ichmayman» ishorasini qildi.

— Do'xtir «kuchliroq ovqatga o'tish mumkin», dedi. Ertaga dimlama qilib kelaymi? — deb so'radi Zaynab.

Hamma erkaklar «o'ldirsa ham palovxonto'ra o'ldirsin», deganda Elchin «taomlarning podshosi dimlama», deb hisoblardi. Ba'zan hafsala qilib ikki kishilik dimlama tayyorlardi. Zaynab shifoxonada yotganida ham faqat dimlama pishirib kelardi.

— Sizchalik shirin pishirolmasam ham urinib ko'raman, — dedi Zaynab jilmayib. Bu jilmayish Elchinning ilinib turgan jonini joyiga qaytardi. U shukrona ma'nosida yengil xo'rsindi. Shu xo'rsinish bo'g'zida tosh kabi tiqilib turgan faryodni yo'qotdi-yu, Elchin ham xotiniga jilmayish bilan javob berdi.

Zaynab ketganidan so'ng Elchin o'zini soppa-sog' his qildi, o'rnidan turmoqni, qanot chiqarib uyga qarab uchmoqni istadi.

Tunda esa shirin bir tush ko'rdi: tog'ning lolazor bag'rida Zaynab bilan quvnab yurganmish. Zaynabning qo'lida shirin bir bola emish. «Bu kimning bolasi?» deb so'rarmish Elchin. «O'zimizniki» — Zaynab shunday deb quvnarmish. «O'lik tug'ildi», deyishgandi-ku?» «Sizni aldashgan». Elchin ham quvnab-quvnab yayrabdi...

Uyg'ondi-yu, ko'ngli yana xiralashdi. O'lik tug'ilgan bolasini ko'mgan kuni o'z-o'zidan tilga kelgan marsiyani esladi. Elchin o'sha kuni yolg'iz o'zi uyiga qaytib, beixtiyor tarzda qo'lga tor olgan, o'ziga bo'ysunmagan barmoqlari «Giry»ning pardalarini topishni iroda etgan edi. Kuyga monand ravishda yig'lagisi kelgan, ammo yig'lay olmagan edi.

O'shanda «Giry» tinib, undan-da ma'yusroq kuy tarala boshlagan edi, tilidan esa undan-da qayg'uliroq satrlar uchgan edi.

*Ay, bag'rimni tig'lagan bolam,*



*Ay, dunyoga sig'magan bolam,  
Ay, dunyoning bevafofigin  
Go'daklikdan ilg'agan bolam...*

Elchin bu satrlar qaerdan quyilib kelayotganini bilmadi. Barmoqlari lozim pardalarni o'zlari topganlari kabi, til ham zarur satrlarni o'zi bayon qilardi:

*Qaydan kelib, qayga yo'qolding,  
Achchiq-achchiq o'ylarga solding,  
Onangning yo mening gunohim  
Qay birining kasriga qolding.*

Noilasining o'limidan so'ng qamoqxonada taqdiri hal bo'lishini kutib yotganida xuddi shunga o'xshash marsiya quyilib kelgan edi. Xayolida tug'ilgan marsiyaning so'zlari, kuyi tilga chiqmay, buning evaziga ko'z yoshiga aylanib yonoqlarini yuvgan edi.

Bu safar ham shunday bo'ldi. Ko'z yoshlariga singgan marsiyadan yonoqlari kuydi. Uyg'ongan dardini esa yana qalbiga dafn etdi.

## 2

Erining qarindoshlari aytib ketgan gap Zaynabning hamiyatiga tegib, g'azabini uyg'otdi. U «nogiron erni kim olib ketadi?» degan muammo uyg'onar, deb sira o'ylamagan edi. «Bunaqa notavonni boshimga uramanmi, battar bo'lsin, kim olib ketsa-olib ketaversin. Xudoning o'zi meni undan qutqardi. Yosh umrimni xazon qilib jinnimanmi, endi xohlaganimga tegaman...» deyish u yoqda tursin, bunaqa bema'ni gaplar hatto xayoliga ham kelmagan edi. Otasi kabi o'jarlik g'azab o'tlarida yonib tursa-da, onasi singari tobelik, erga itoat uning hamishalik yo'ldoshi edi. To'g'ri, u Jamshidni sevdi. Ammo hayo qo'rg'onidan chiqmadi. Bu tarzda sevmoq ayb emas, balki juvonning o'zi uchun mislsiz bir azobdir. Qora dorining xumori kuchi bilan Mardona boshlagan botqoqqa qadam qo'ydi, biroq, botmadi. Chunki ona tomonidan ham, ota tomonidan ham yetti pushti toza edi. Kishining aqli bovar qilmas nasl quvvati uni saqladi. Eri o'lib ketgan taqdirda ham uning ruhi ro'parasida vijdoni qiynalmas edi.

Eri o'lmay qoldi. Qo'lsiz, oyoqsiz, tilsiz bo'lsa ham eri bor. Zaynab buning uchun Yaratganga shukr qilmasa ham, xotinlik majburiyati yuzasidan notavon erga qanoat etmog'i lozimligini bilardi. Bila turib, uni parvarishlashga hozirlik ko'rardi. Bo'lajak zahmatlarga o'zini ruhan tayyorlagan damda qandaydir qarindoshlar erini olib ketishmoqchi bo'lishsa? Ularning bu harakatlari Zaynab o'zi uchun haqorat deb bildi. «Kimsan, Asadbekning yolg'iz qizi bo'lsa, erga qaramaydi, xorlaydi» — Zaynabning nazarida ular do'xtirga shunday deb, o'z da'volarini asoslashga urinishgan. Juvonning alami aynan shundan edi. «Erimni olib chiqsammi yo yo'qmi?» deb ikkilanganida ham ularning bu harakatlari, bu gaplari g'azabini qo'zg'otmagan bo'lardi. Bu gap-so'zlar bo'lib o'tganda Manzura Olmoniyada edi. Uning qaytishini sabrsizlik bilan kutayotgan Zaynab hasrat daftarini varaqlab, onasiga dardlarini aytish umidida edi. Akalarini nima sababdandir Moskvada qoldirib kelgan onasi, kelin ayalarining yuzlaridagi ma'yuslik uni bu harakatdan to'xatdi.

Hasrat daftarining ochilmaganiga yana bir sabab bor edi. O'sha kuni erining qarindoshlaridan g'azablanib, ota uyiga qaytdi-yu, yuragi toshib ketaverdi. Uyga ham, hovliga ham sig'madi. G'oyibona bir kuch uni shifoxonaga tortaverdi. Shunda otasi ziyofat berganda xizmat qiladigan oshpazni chaqirtirdi-da, dimlama pishirtirdi. Shomga qolmay qaynoq ovqatni ko'tarib, shifoxonaga jo'nadi. Uning nazarida uydagi dimlama pishguncha erining qarindoshlari ishni pishitib, uni olib ketishganday edi. Eri yotgan xona eshigini ochib, uni joyida ko'rguniga qadar yuragi hapriqib ketaverdi.

Hamshira boya tashlab ketilgan qaynatmani isitib ichirayotgan edi. Shu damda Zaynab erini undan-da qiz-g'andi. Hamshirani chiqarib yuborib, sho'rvani chetga surib qo'ydi-da, erini dimlama bilan siyladi. Elchinning ovqatlanishidan ko'ngli joyiga tushdi. Zaynab lablarini artib qo'yayotganida Elchin o'zi ham kutilmaganda «rahmat» dedi. Past ovozda aytilgan bu so'z Zaynabning quloqlariga ajib bir rohatbaxsh jarang bilan urildi.

Keyin kelganida ham aytildi bu so'z. Undan so'ng esa eri duduq bola kabi tilga kirib, «Zaynab... ke-chiring...» dedi. Shundan so'ng Zaynabning saodat yulduzi chekinmoqdan to'xtab, baxtiyorlik osmonida charaqlay boshlagan bo'ldi.

Onasi, kelin ayalari kelishganda erining taqdiridan so'z ochmadi. Manzura «Ering ko'rinmaydimi?» deb so'raganida «sal toblari yo'qroq», deb qo'yaqoldi. Manzura kuyovining qanday xastalik bilan og'rikanini surishtirmadi. Cho'g' tegib qovjiragan soch tolasiday bo'lib qolgan qizining ko'rinishi uni tashvishlantirdi. «O'zing tuzukmisan? deb bag'riga qayta-qayta bosdi. Zaynabning kulimsirab «Yaxshiman, oyi», deyishidan xavotiri bosilib «balki boshi qorong'udir», deb gumon qildi. Bu nurli gumon xufton dilini yoritib, «eson-omon qutulib olishini» Xudodan so'radi.

Bulutlar bilan olishib charchagan quyosh ufqqa umidsiz ravishda bosh qo'ydi. Zaynab, tabiat odatiga xilof bo'lsa-da, bu safar quyoshning botmasligini, shom, so'ng xufton kirmasligini istardi. Chunki shom kirishi bilan yo'qlovchilarning qadamlari uziladi. So'ng esa shirin so'zlari, shiringina jilmayishlari bilan Zaynabning xufton ko'nglini yoritayotgan kelinlar hordiq chiqarmoq uchun uy-uylariga kirib ketadilar.

Shunda... Zaynab onasi bilan yolg'iz qoladi. Uzoq vaqt diydor ko'rishmagan, har daqiqasi sog'inch azobi bilan o'tayotgan ona bilan qizning yolg'iz qolishlari odatda saodat hisoblanadi. Agar onasi yo'qligida shum ko'rgiliklar balchig'idan o'tmaganida balki Zaynab uchun ham shunday bo'lardi. Bu kech esa onasi bilan yuzma-yuz o'tirish baxtni emas, ruh azobini va'da qilardi. Shubhasiz, onaning sezgir nigohi farzandu arjumandining ich-ichini kemirayotgan dardni payqaydi. Dardga ro'para qilgan sababni bilmog'ini istaydi. O'shanda Zaynab nima deb javob beradi? Mardonaning makriga uchraganinimi yo otasiga sharmandali holda ko'ringaninimi? Yo otasining arqondan sirtmoq yasaganinimi? Balki Mardonani o'ldirish qasdida borib, uddasidan chiqolmaganini bayon qilib berar?

O, yo'q! Ona qiz uchun eng yaxshi hamroz bo'lsa-da, dard daftarining bu qora sahifalari unga ochilmaydi. Bu sirni biluvchilardan to'rttasi tuproq ostida yotibdi. Endi zaqqum daraxtining mevasidan ham achchiqroq bo'lmish g'am bolini faqat ota-bolagina baham ko'radi. To so'nggi nafaslariga qadar o'lchab qo'yilgan bu g'am boliga Manzuraning sherik bo'lishini Asadbek ham, Zaynab ham istashmaydi.

Zaynab Elchin tomonidan o'g'irlanib, uyga tashlab ketilgach, nima voqea yuz berganini onasiga necha yuz ming azob bilan zo'rg'a aytgandi. U voqea qiz uchun sharmandali bo'lsa-da, Zaynabning aybi yo'q edi. Shunda ham bir necha so'zni aytguncha qizning tili go'yo cho'qqa aylanib, kuygan edi. Endi-chi, endi qanday aytadi?..

Sirtmoq yasab, tashlab chiqqan otasi qaytib kelib, uni bag'riga bosgan, bu bilan gunohidan o'tganini ma'lum qilgan bo'lsa ham, Zaynab o'zini o'zi kechirolmas edi. Uzoq yillar Kumush bo'lishni orzu qilgan qiz, so'ng esa kitobdagi Zaynabdan ham battarroq ahvolga tushgan baxtsiz juvon o'z taqdirining tushunuksiz satr-laridan hayronu lol qolardi. «O'layin desam o'lim olmasa, hech bo'lmasa Zaynabga o'xshab aqldan oza qolmaymanmi?» deb o'ylardi. Keyin... uning siniq ko'ngli bir toshga duch kelishni istadi. Toshga qarab: «Yorilgin tosh, yoriltoshim yorilginey, men bag'ringda panoh topayin», desa-yu, tosh uning iltijolariga chiday olmay yorilsa-da, yoriltosh quchog'iga kirib, o'tkinchi dunyo o'tgunicha unda qolib ketsa... Yoshlik sururi tuproqqa qorilgan, Kumushbibi emas, «Tuproqbibi» «martabasi»ga yetgan juvon endi bolalik umidlaridan

panoh izlardi. Umidlari puch ekanini bilsa-da, g'oyibdan mo'jizali panoh kutardi. Bir donishmand hayotni tumshuq tomoni yirtilib, og'zi ochilib qolgan etikka o'xshatgan ekan. Etik och odam kabi og'zini ochib turgani bilan unga birov taom bermaydi. Aksincha, mensimay tepib o'tadi. O'sha etikni baxtga tashna odamga ham o'xshatish mumkindir... Har holda Zaynabning hayotdan baxt kutishi shu holatni eslatadi. U g'oyibdan o'z saodatini kutardi. G'oyibdan keluvchi «sening baxting otangning nafsi uchun qurbon bo'lgan», degan sadoni eshitmas, eshita olmas edi. O'zigina emas, otasi, onasi ham eshitmas, eshita olmas edilar. Chunki g'oyibning bu kabi ovozlari hidoyat yo'lidagilargina eshita olishlari mumkin... Hidoyat yo'lidagilar esa farzandlari baxtini o'z nafs-lari yo'lida qurbon qilmaslar. Zaynab xavotir bilan kutgan kech sel kabi yopirilib kirdi. Mehmonlar tarqalishdi. Manzuraning izni bilan kelinposhshalar yotoqlariga yo'nalishdi. Kelin ayalarini kuzatgan Zaynab mehmonxonaga qaytib, divanda o'tirgan onasining yonidan joy oldi-da, erka qizaloq kabi uni quchdi. Ko'kragiga bosh qo'ydi. Manzura qizining sochlarini silab, o'pdi. Kun bo'yi quyosh eplolmagan yumushni kechki shamol oppa-oson hal qildi: bir ozgina yomg'ir yog'ishga imkon bergach, so'ng bosh ko'tarib, bulutlarni haydab osmonni tozalab qo'ydi. Qizining sochlarini silab o'tirgan Manzura deraza osha osmonga qaradi-yu, yengil xo'rsinib «Yetqizganingga shukr», deb qo'ydi. Zaynab boshini ko'tarib, onasining ko'zlariga boqdi. Yaratgan Olloh onalarning mitti qalbi, qalbidan-da ko'ra mittiroq ko'zlarini o'ziga xos bir qudrat va ajib mo'jiza bilan behad chidamli qilib yaratgan. Agar Tangri taoloning bu mo'jizasi bo'lmasa dunyoga sig'magan g'am-tashvish mitti yurakka, yurakdan-da mittiroq ko'z qorachig'iga sig'armidi... Manzura shu paytga qadar ko'rguliklardan birovga hasrat qilmagan. Aytgandamidi, hasratini eshitgan odam, unga dushmanlik ahdida bo'lsa ham, achinib, «bundan ko'ra kelinlik chog'ingizdayoq eringiz qimorga yutqizib yubora qolsa ming marta yaxshi edi, bunchalik ko'p azob chekmasidingiz», demog'i shubhasiz edi. Hozir ham qizi onaning ko'zlari tubiga yashiringan tashvish vulqonini ko'rmadi. Onasining yengil xo'rsinib qo'yish sababini bilmay: — Hm, oyi? — deb so'radi. — Yangi Oy chiqibdilar, — dedi Manzura, deraza osha osmonga qarab. — O'zlariga tinchlar, elga notinch... Xudo saqlasin hammamizni. Manzura shunday degach, qo'llarini fotihaga ochib, pichirlaganicha uzoq duo qildi. Oy yangilanganida onasining «Yangi Oy chiqibdilar», deb sizlab gapirishi, so'ng duo qilishi Zaynab uchun yangilik emas. Bunday holatni kichikligidan ko'raverib, duo faqat hilol ko'ringanida qabul bo'larkan, mavhumlikka emas, aynan hilolga topinmoq kerak ekan, degan yanglish o'yda, u ham ba'zi-ba'zida Xudodan so'raydiganlarini so'rab olardi. Hozir ham unsiz ravishda onasiga qo'shildi. Duodan so'ng Zaynab onasining savolga tutib qolishidan cho'chib «U yoqning to'yi qandoq bo'larkan, aytib bering», deb qistadi. To'y manzarasi tushirilgan videokassetaning Moskvada qolgan jomadonlarda ekanini eslagan Manzuraning ko'ngli xiralandi-yu, ammo parishonligini qiziga sezdirmaslikka intilib, taassurotlari bayoniga berildi. Zaynab xavotir bilan kutgan noxush holatdan shu taxlitda qutulib qoldi.

### 3

Cho'lponoy ham, Mushtariy ham ota-onalarining ta'riflariga ko'ra, «Sovet Ittifoqi» deb

atalmish mamlakatni ertaklarda tasvir etilgan qizil ajdaho saltanati kabi deb bilar edilar. Ota-onalarining Vatani bo'lmish yurtini bosib yotgan bu ajdahoning boshlarini uzguvchi bir bahodir chiqarmikin, deb ular ham orzu qilar edilar. Faqat suratlarinigina ko'rgan bu yurtga ularning dillarini qandaydir bir kuch tortib turardi. Bir kuni dadalari hasratli ohangda:

— Yulduzlarim, kindik qonlariniz buraya to'kilmish o'lsa-da, chin Vatanningiz O'zbekistondir. O'zbekiston — bizim galbimiz, bizim umidimiz yulduzidir. Olloh jannatdan bir ulush olib, bizim ajadodlarga Vatan qilib vermish ekan. Bu Vatan — O'zbekistondir. Manda tunda Vatan, deb ko'z yumiyurman, subhi sodiqda esa yana Vatan, deb ko'z ochiyurman. Ollohning nomidan so'ng eng suyakli so'z men uchun Vatan — O'zbekiston! Vaqti kelibkim, barcha so'zlarimni yoddan chiqarsalaringizda, mening bu so'zlarimni unutmakdan tiyiliniz, — degan edi.

Muzaffarxon Vatanga yo'l ko'rsatar, degan umidda yo'lchi yulduz — tong yulduziga umid qilib, qizining ismini Cho'lponoy qo'ygan edi. Qizlar bularni bilishardi. Bilishgani uchun ham O'zbekistonga kelin bo'lib borajaklari haqidagi xabarni bir oz xavotir, ayni damda jindek shodlik ila kutib oldilar. Ularning xavotirlari qizil ajdaho egallab yotgan yurtga borishdan bo'lsa, shodliklari «bizim bahonamiz ila ota-onamiz Vatanga yetishurlar, yulduzlari chindan-da chaqnar», degan o'yda edi. Bo'lajak kuyov bolalar bilan tanishib, gaplashishgach, xavotirlari ancha chekindi. Bo'lajak qaynotalarini qanday yumushlar bilan band ekani, Tangri bu yumushlar evaziga qanday ajrlar tayyorlab qo'ygani, ular uchun shubhasiz mavhum edi.

Bu yoruq olamda yashab turgan odam, istiqomat yeridan, sig'inayotgan dinidan qat'i nazar, biron joyga bormoq istasa, aqli yetgan darajada rejalar tuzadi. Biroq, Ollohning istagi tamoman o'zgacha bo'lmog'i mumkinligini o'ylab ko'rmaydi. G'ofil banda mo'ljalidagi tadbiru rejalar amalga oshmasa-da, yana o'z aqlining mahsuli bo'lmish tadbirlaridan umid qilaveradi. Donolar deb ekanlarkim: «Qul tadbir oladi, biroq, taqdirning qaysi markazda bo'lishini bilmaydi. Tadbir esa Yaratganning taqdiri ro'parasida mahv etilajakdir».

Vatan havosining gadosi Muzaffarxon ham, Guluzor begim ham o'z tadbirlaridan baxt kutgan nodon qullardan edilar.

Roviylar derlarkim: Ibrohim Adham Balhda podshohlik martabasida ekanida ovga chiqib, bir jayron izidan ot solibdi. Jayron bechora qochaveribdi, u esa quvaveribdi. Ot charchab, holdan toygach, jayron to'xtab, inson singari tilga kirib, debdiki: «Quvishni bas qilsang-chi, ey g'ofil banda! Sen bu ish uchun yaratilmagansan. Seni Olloh meni ovlamog'ing uchun bor etmadi. Menga yetib olib, ovlagan taqdiringda nimaga yetishasan?» Bu gapni eshitgan Ibrohim Adham haqiqatni anglab, podshohlik liboslarini cho'ponlik kiyimlariga almashtirgan ekan.

Afsus shuki, bu haqiqatni anglamak baxti ham barchaga nasib etavermaydi.

Ota-onalarining tadbirlari tufayli baxtga yetishajaklariga ishongan ikki qiz charchagan bo'lishlariga qaramay uxlay olishmadi. Oy nurida yaltillagan shilliq qurtdan quyosh yasab bo'lmaganidek, ota-onalarining tadbiridan baxtga yetisholmasliklarini anglab yetmagan qizlarning har biri bo'lib o'tgan voqealarni o'zlaricha tahlil etardilar. Qizlarini ko'zlarining ikki gavhari singari avaylagan Muzaffarxon ularga yuqori maqomda odob bermoq maqsadida islomni qabul qilgan nemis ayolini tarbiyachilikka yollagan edi. Fizika ilmidan e'tiborli olimalardan hisoblangan frau Xelga islomning ilmiy mo'jizalari bilan tanishgach, universitetdagi vazifasini tark etgan, hatto ismini «xonim Xadicha» deb o'zgartirgan edi. Tarki dunyo qiluv niyatidan uzoq bo'lmish bu ayol ilmdagi yolg'on, noto'g'ri yo'nalishlardan yiroq yurmoqni istagan edi.

Muzaffarxon ham zamoni, ham islomni biluvchi ayolning qizlariga tarbiya bermog'ini

orzu qilardi. Bu muammoni doktor Xudoyor osongina yechib berdi. Ota-ona bir, hatto tarbiya mezoni bir bo'lgani bilan qizlarning fe'llari ayri-ayri edi. Cho'lponoy ruhan xonim Xadichaga yaqin edi. Uning so'zlarini hamisha butun jonu dili bilan berilib tinglardi. Uning har bir gapini hatto haqiqat tarzidan qabul qilardi. Mushtariy esa, aksar hollarda bu gaplarni zerikish azobi bilan tinglardi.

Asadbekning xonadonida, kelinlik ko'shkida birinchi tunni o'tqazayotgan opa-singillarning xayollari olgan tarbiyalariga monand ravishda edi. Cho'lponoy kuyov to'ralarning Moskvada olinib qolinishlarining asl sababini bilmasa-da, bu harakat zamirida zulm yotganini aqli bilan his etardi.

Cho'lponoy boylik baxt emasligini yaxshi tushunardi. Xonim Xadichaning «Ulug' Oллоh Fir'avnga to'rt yuz yillik umr, mol-mulk, shohlik va uning boshqa turli orzulari adosini nasib etdi. Bularning barchasi farog'at emas, balki uni Oллоh huzuridan uzoqlashtirgan narsalar edi. Fir'avnga hatto bosh og'rig'i ham berilmadiki, oqibat u Haqni eslamay o'tdi. U o'z murodi bilan band bo'ldi va Yaratganni xotirlamadi», deganlarini tez-tez yodlaydi, har eslaganida yangi ma'no uqadi. U boylikni atrofi parishonlik ummoni bilan o'ralgan ojiz orol deb bilib, bu orolning qachondir cho'kib, yo'q bo'lib ketmog'i tayin ekanini ham angelaydi. Orol cho'kib ketmagan taqdirda ham, undagilar parishonlik ummonida tez-tez cho'millarlar, bu suvdan icharlar. Balki jon berar onlarida ham lablariga ana shu parishonlik ummonining afsus suvidan tomizarlar...

Opa-singil bir-biroviga tunning xayrli o'tmog'ini tilab, uy-uyiga kirgach, o'zlarini olam aro yolg'iz qolgandek his etdilar. Bunday hamma narsa ular uchun begona edi. Bu yaltiroq pardalarni, serhasham qandillarni, javon to'la idish-tovoqlarni Ovrupo tarbiyasini olgan qizlarning didlari hazm qilolmas edi. Ortiqcha hashamsiz, latiflik ila uy tutishga ko'nikkan qizlarga bu uydagi bezagu anjomlar og'ir yukday tuyulib, xuddi boshlari ustiga bostirib kelayotganday bo'laverdi. Ham bu og'irlik, ham yolg'izlik ularni dastlabki ondanoq siquvga oldi. Xonim Xadichaning tarbiyasiga ko'ra, ular zerikkan daqiqalarida kitob bilan hamroz bo'lardilar. Ularning xonalaridagi javon bezaklar bilan emas, turli tillarda, turli mamlakatlarda nashr etilgan kitoblar bilan band edi. Opa-singillarning o'zlari uchun ajratilgan kelinlik xonalariga kirgandagi dastlabki ajablanishlari ham javonda birorta kitob yo'qligi bo'ldi.

Qizlar lozim bo'lganda ruhlariga dalda beruvchi kitoblardan besh-o'ntasini olvolgan edilar. Ammo hozir, yolg'izlik omburiga mahkum onlarida xaloskor bo'la olguvchi bu kitoblar erlari bilan birgalikda Moskvada qolgan...

Cho'lponoy bir oz yengil tortish maqsadida ichkariga kirib, yuz-qo'lini muzdek suvga yuvib chiqdi. Xonaning chirog'ini yoqmay, deraza pardasini surdi. Shunda ko'zlari samodagi hilolga tushib, «alhamdulillah!» deb pichirladi. Xuddi sog'ingan kishisiga yetishganday, uch kunlik Oyga suqlanib boqdi. «Bu yerning osmoni biz tomonlardan tamizroq, tiniqroq ekan, — deb o'yladi u. — Oyning nuri-da, yulduzlarning nurlari-da tamizroq. Odamlari-da shunday bo'lsin, inshoolloh» Cho'lponoy yana bir oz osmonga maftun holda tikilib turgach, singlisining huzuriga oshiqdi.

Tungi chiroqni yoqib, yumshoq oromkursida o'tirgan Mushtariy opasining kirib kelishidan quvonib ketdi.

— Bu ne holki, aqlim lol, — dedi u o'rnidan turib. — Ayriliq kishani urilgan mahkuma martabasiga yetushmagimiz muborak o'lsun.

— Zinhor! Aqlingiz lol-u hayron bo'lmasin, yulduzim, — dedi Cho'lponoy, singlisini xuddi onasi kabi erkab. — Beri keling-chi, ko'kka bir boqing-chi...

Bu xona derazasidagi parda ham surilib, Mushtariy hilolga opasi singari sog'inib boqdi. So'ng xuddi o'ziga o'zi gapirayotgan devonavash singari pichirladi:

*Jon qasdi ko'p etti yor hijroni manga,*

*Xirmon o'qin urdi ulchi imkoni manga,  
Gar bo'lsa mute' charx davroni manga  
Yetkurs men ul oyg'a yo oni manga.\**

— Bale, yulduzim! — Cho'lponoy yengil qarsak chalib, singlisini olqishladi. Bu olqish aynan Guluzor begimniki edi. Qizlarini maqtagisi kelsa shunday deb, yengil qarsak chalib qo'yardi. Cho'lponoy uylarida ba'zan atayin, ba'zan beixtiyor taqlidan ravishda onasining gaplarini aytib, qiliqlarini takrorlab turardi. Mushtariy uyda bunga e'tibor bermas edi. Hozirgi ahvolda onasining erkalashlari yodiga tushib, bir entikdi-yu, opasini yengil quchib, yelkasiga boshini qo'ydi.

— Tinglang-chi, yulduzim, hilol biza bir shirin xabar shivirlaydir, — dedi Cho'lponoy singlisining sochidan o'pib. — Bu xabardin ayriliq zindonda tut-qun bo'lganlar taskin topgaylar.

Mushtariy bir oz jim turdi. Xuddi sukunatga quloq tutib opasi aytmoqchi, hilolning shivirlashlarini eshitgandek bo'ldi. So'ng boshini ko'tarib Cho'lponoyga tikildi:

— Oллоh, Oллоh, ayriliq shomining zimziyoligi qanchalar dilni xuftonu jonni sargardon etguvchi emish.

Cho'lponoy singlisining dardli gaplarini eshitib, kulimsiradi-da, qoshlari, yuzlarini silay turib, dedi:

— Vah, vah! Visol tongining ravshanligi qanchalar dilga yoqimligu jonni quvontirguvchi emish...

Mushtariy o'zini majburlab jilmaydi-da, joyiga qaytdi. Opasidan ilgariroq o'tirib, hurmat qoidasiga xilof qilganini angladi-yu, chaqqon turib, Cho'lpon-oyga uzrli nigoh bilan qaradi. Cho'lponoy singlisining yoniga o'tib o'tirgach, Mushtariy yengil xo'rsindi:

— Ko'nglim bir qahva istar. Bunda bir xizmatkor bormi ekan? Zaynab xonimdan so'ramagimiz lozim edi.

— Picha sabr eting, yulduzim. Darrovda biron nimarsa so'ramagimiz odob sanalmas.

— Ajoyib qiziq qurilmish bu uylar. Sayr qilmoqqa bog' hech yo'qtur. Odamlari-da ajoyib qiziqdurlar. O'tirarlar, taom yerlar, so'ngsiz gapirarlar. Gapira-gapira charchamaslar, taom yeya-eya toliqmaslar, uzoq vaqt o'tira-o'tira hormaslar. Ko'rdimki, musulmon yurt bo'lsa-da, bunda namoz qilmaslar.

— Bu menga-da ajab tuyuldi. Nasroniy yurtda namoz qilmaslik bizim uchun ayb edi, bunda ayb emas ko'rinadur. Bu sizning uchun muddaoning o'zi emasdurmi, deb xavotir qilurman.

Mushtariy opasidan farqli o'laroq, uyda ekanida namozga ko'p ham e'tibor bermas, hushiga kelsa o'qir, bo'lmasa yo'q edi. Cho'lponoy hozir uning shu odatiga shama qilib, ayyorona kulib qo'ydi. Umr yo'ldoshlarining doktor Xudoyor ta'sirida o'sha yerda namozga o'rganganlari, ularning ham ibodatda sobit emasliklarini ular ham bilmas edilar.

Asadbek o'g'illari bilan mehmonxonada tong ottirgan azobli kechada uning xonadonida ona va qiz, opa va singil dunyoning sho'rishlaridan parishon o'tirishgan edi.

Ertasiga qaynotalariga salom berayotganlarida suyuklilariga o'g'rincha qarab olishgach, ko'ngil osmonida quyosh charaqladi.

---

\* Hazrat Alisher Navoiydan. Mazmuni: Yor firog'i jonimga ko'p qasd etti, ayriliq o'qi esa tanimni nishon etti. Agar falak mening hukmimga bo'ysunsa edi, o'sha Oyni menga yo meni unga yetkurs edi.

Dastlabki kunlardagi keldi-ketdilar kamaygach, opa-singillar zerika boshladilar. Abdusamad bilan Abdulhamid sog'ingan oshnalari bilan choyxonaldagi o'tirishlarini boshlab yuborishgach, ular avvaliga ajablanishdi. So'ng bu yerlarning odaticha «er-xotin birgalikda sudralib yurmasliklarini» bilib, afsus chodiriga o'ralganча bunga ham ko'nikishdi.

Ular uchun bu xonadonda birdan-bir yupanch — Zaynab edi. Erlari oshxo'rliklarga ketgan damlarda ular Zaynab bilan shahar sayriga chiqdilar. Elchinni ham yo'qladilar. Bir kuni choy ichishib o'tirishganda Mushtariy:

— Zaynabxonim, siz biza kutubxonangizi ko'rsatmaysiz? — deb qoldi.

Zaynab onasi bilan ko'z urishtirib olib, javobga taraddudlandi. Chunki kiyim-kechagu bezaklardan kam-ko'sti bo'lmagan bu juvonning kutubxonasi yo'q edi. To'g'ri, u kitob o'qirdi, ba'zan dugonalari maqtagan asarni uch-to'rt kunga so'rab olardi, ba'zida esa o'zi ham xarid qilardi. Uydagi kitobni birov olgani, qaytib bermagani bilan ishi yo'q edi. Kitoblarni to'plab, kutubxona shaklida tartib berishni esa o'ylamasdi. Kelin ayasining savolidan shu sababli ham xijolat bo'ldi. O'zini mutolaasiz, johil qilib ko'rsatib qo'ymaslik uchun:

— Kutubxona narigi uyimda, — deb og'ir vaziyatdan qutuldi.

— So'ramakka ijoza vering, Zaynab xonum, mumkinmikin bilmagimiz: bunlarda qaysi bir kitob cho'x sevilib o'qiyulur?

Bu savolga javob tayyor bo'lishiga qaramasdan Zaynab «aytaveraymi?» deganday onasiga qarab oldi. Manzura bu qarashni boshqacha tushunib, «yoshlarning gaplariga halal bermay», degan fikrda o'rnidan turib, chiqdi. Qaynonaning hurmati yuzasidan o'rinlaridan turishgan kelinposhshalar joylariga qaytishgach, savolga javob kutib, Zaynabga qarashdi.

— Katta-yu kichik «O'tgan kunlar»ni yaxshi ko'rib o'qishadi, — dedi Zaynab.

— O, cho'x go'zaldir bu! — dedi Cho'lponoy quvonib. So'ng quvonchi sababini izohladi:

— Men ayni shundaydir, deb mulohaza qilib edim. Bu go'zal rumonni o'zbeklarning cho'x suymasliklari mumkin emasdir.

— Siz... o'qiganmisiz? — deb ajablanib so'radi Zaynab.

— Cho'x-cho'x marotabalab, — dedi Mushtariy suhbatga qo'shilib. — Unda zikr etilmish satrlar xayolimizga-da muhrlanmish.

— Siz kitobni nardan oldiniyiz, deb ajablaniyursizmi? — dedi Cho'lponoy. — Bizim bir vatandosh vordur, ism-nasablari Jo'ra Bo'tako'z. Eshitganiyiz vormi?

Zaynab bunaqa odamni eshitmagan edi, yo'q, ma'-nosida yelkasini qisib qo'ya qoldi. Cho'lponoy bu kishini o'zi ko'rmagan, shunday millatparvar vatandoshlari borligini otasidan eshitgan edi. Hozir ana shu hikoyalarni bayon qilib berdi. Jo'ra Bo'tako'zning bu kitobga g'oyat mehri balandligi tufayli «O'tgan kunlar»ni barcha vatandoshlarim o'qisin», degan maqsadda arab alifbosida nashr qildirganini, buning uchun Istanbuldagi mehmonxonasini sotib, barcha mablag'ini bosmaxona xarajatlariga sarf etganlarini, noshir istab Eronu Pokistonga qadar borganlarini hayajonli tuyg'u bilan aytdi. Opa-singilga millat ravnaqi yo'lidagi ulug' fidoyilik va jo'mardlik bo'lib tuyulgan bu vo-qeani Zaynab oddiy ish sifatida qabul qildi. Cho'lponoyning hayajonli hikoyasini ehtirossiz tarzda tingladi. Xonadonida ham, o'qishda, dugonalari davrasida ham millat taqdiri, Vatan ravnaqi haqida so'zlar eshitmagan, «Vatanni suymak», degan tarbiya mezonidan uzoq bo'lgan Zaynab bu voqeadan kelin ayalari kabi iftixor eta olmasdi. Chunki uning uchun Vatanni sog'inib yashash hissi begona edi. Millat uchun borini berish, hatto jondan kechish ham bir baxt ekanini u qaydan bilsin? Uning uchun baxt — Kumushbibini kabi suyganiga yetishmoq edi. Yetisholmaganini baxtsizlikka yo'ydi. Bu olam aro bundan-da

ko'ra ulug'roq baxt, bundan-da ko'ra o'lchovsiz bebaxtliklar borligini u tasavvur eta olmasdi. Shaxs tashvishidan tashqari millat qayg'usi degan fazilatlar borligini Zaynab birovlardan ko'p martalab eshitsa-yu, his qila olmasa, uni ayblash o'rinli bo'lardi. Yaxshiki, kelinposhshalar Vatan taqdiri, millat qayg'usi haqida ota-onalaridan eshitganlarini aytib, Zaynabdan bu borada fikr so'rab, uni og'ir ahvolga solishmadi. Cho'lponoy Jo'ra Bo'tako'zning sarguzashtlarini aytib ado qilgach, samimiy tarzda dedi: — Bunlarning qizlari xuddi Kumushbibi kabi, xuddi Ra'no xonum kabi cho'x go'zal emishlar. Bunda har bir xonumqiz bir Kumushdir, bir Ra'nodur. Bizim yashaganimiz Olmoniyada na bir Kumush vordur, na bir Ra'no. Mirzo Anvarkim, bejiz bayt bitmamishlarkim:

Agar Farhodning Shirin, bo'lsa Majnunlarning Laylosi,  
Nasib o'lmish menga gulshan aro gullarning Ra'nosi.

— Ofarinlar, tashakkurlar! — Mushtariy yayrab kulganicha yengil qarsak urdi. — So'ng opasini quv-vatlash maqsadida gap qo'shdi: — Bunda ko'rdimki men, har bir xonimqiz Kumushdir, vale har yigit bir Farhoddir, bir Qaysdir. Bobur mirzomni eslaymizmi:

Qani Layli bila Shirinkim, alardan ishq o'rgansang,  
Qani Farhod ila Majnunkim, alarg'a ishq o'rgatsam.

Zaynab bu baytning aytiluvidan maqsad — akalarini alqash ekanini anglab, jilmaydi. — Rumonni mutolaa etivum jarayonida Kumush qanday qiz ekan, deb cho'x o'yga tolurdim. Sizni ko'rdim va dedimki: ana, Kumush!

Zaynab bu gapdan so'ng boshini egdi. Kelin ayalari uning bu holatini iymanishga yo'yishdi. Lekin kutilmaganda Zaynab past ovozda:

— Kumush o'lgan... — dedi.

Opa-singillarga bu gap og'ir ta'sir etib, bir-birlariga savol nazari bilan qarab olishdi. Suhbatni shu holda uzilishini istamagan Cho'lponoy:

— Kumushbibi jisman o'lmishlar. Bibiyimiz muhabbatlari tirikdir, o'lmasdir. Uning tuyg'ulari siz ila bizda yashar, — dedi-yu, bu gapi bilan Zaynabning yuragidagi yarani tirnab, tuz sepdi. Zaynabning tiralgan qalbi yarador qush singari potirab, joni bo'g'ziga qadalgandek bo'ldi. Undagi o'zgarishni opa-singillar sezidilar. Mushtariy «nojo'ya so'z aytdingiz», degan ma'noda opasiga tanbeh nazari bilan boqdi-da, oradagi noqulaylik tutunini tarqatmoq niyatida «Men qahva tayyorlayin-chi», deb o'rnidan turdi. Tashqariga chiqish bahonasini qo'ldan bermaslik uchun Zaynab «O'zim tayyorlayman», deb chaqqon turdi. Ammo kelinposhshalar bunga yo'l bermadilar. Mushtariy chiqib ketgach, Cho'lponoy qayinsinglisidan «O'tgan kunlar»ni o'qish uchun berib turishini iltimos qildi. Kitob bu yerda emas, Zaynab narigi uyiga olib ketgan edi. Elchinni ko'rib, shifoxonadan qaytayotganida uyiga atay borib, kitobni qidirdi. Topolmadi. Kimga berganini ham eslolmadi. Shundan so'ng dugonalariga bir-bir qo'ng'iroq qilib so'radi. «O'zingda yo'q, olamda yo'q», deganlaridek, kitob tanishlaridan ham topilmagach, bir-ikki kundan so'ng kutubxonadan olib kelib berdi.

— Bu kitobning xaridori ko'p. Dugonamga beruvdim, u yana bittasiga beribdi. Kitob shu zaylda oyoq chiqarib, yurib ketgan, qaerdaligi noma'lum, — dedi hazil ohangida.

Muzaffarxon bir kunmas bir kun Vatanga qaytishiga ishongani uchun qizlariga ruslarning alifbosini ham o'rgatgan, kitoblar olib kelib bergan edi. Shuning uchun ham Cho'lponoy kitobni o'qishda qiynalmadi. Uch kundan so'ng kitobni Zaynabga qaytarib bera turib:

— Ajab hol, — dedi.

Zaynab nimasi ajablanarli ekan, deb hayron bo'ldi.

— Ajab holki, — dedi Cho'lponoy yana ta'kidlab,— kitobda cho'x sahifalar yo'qtur.

— Birov yirtib olibdimi? — dedi Zaynab afsuslanib.



— Sahifalar o'zlarining o'rnidadir, ammo nashrda cho'x gaplar yo'qtur. Biz Yusufbek hojimning so'zlarini yuraklarimiz ko'zlari ila o'qib, xayolimizga muhrlab olgandirmiz, — Cho'lponoy shunday deb, kitobni varaqlab, bir yerda to'xtadi: — Mana bunda yo'qtur u gaplar, — Cho'lponoy bir oz o'ylanib turdi-da, kitobga kiritilmay, tushirib qoldirilgan satrlarni yoddan o'qidi: — «Burodarlar! O'rus o'z ichimizdan chiqadig'an fitna-fasodni kutib, darbozamiz tegida qo'r to'kib yotibdir. Shunday mahshar kabi bir kunda biz chin yovg'a beradigan kuchimizni o'z qo'limiz bilan o'ldirsak, sen falon, deb qirilishsak, holimiz nima bo'ladi? Bu to'g'rida ham fikr qilg'uvchimiz bormi? Kunimizning kofir qo'lig'a qolishi to'g'risida ham o'ylaymizmi yoki bunga qarshi hozirlik ko'rib qo'yg'anmizmi?!

Hoji o'zini tutolmay, ko'z yoshisini oq soqoliga quyib davom etti: — Mana burodarlar! Siz o'z qipchog'ingiz uchun qabr qazig'an fursatda, sizga ikkinchilar tobut chopadilar. Biz qipchoqqa qilich ko'targanda, o'rus bizga to'p o'qlaydur. Siz dunyoda o'zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko'rsangiz, men boshqa yovni har zamon o'z yaqinimg'a yetkan ko'raman! — dedi va ro'ymoli bilan ko'z yoshisini artib, o'rnidan turdi...»

Shu yerga kelganida Cho'lponoyning ovozi titradi. Devorga osig'liq eroniy gilamda xuddi Yusufbek hojining siymosi tasvirlangandek tikilib qoldi. So'ng dedi:

— Dadam aytib edilarkim, millatning xorligi ayni o'sha harakatdan boshlanmish ekan. Millatning ittifoqda sobit emasligi o'z boshiga qayg'u solmish ekan... Kitobda esa bunlar yo'qtur...

Cho'lponoy boshqa gapirmadi. Kitobni Zaynabning qo'liga tutqazib, o'zi iziga qaytdi. Kitobdan tushirib qoldirilgan satrlar, sahifalar taqdiri uning uchun sir bo'lib qolaverdi.

## XI b o b

### 1

«Ishtonsizning hadigi cho'pdan», deganlaridek, Asadbekning har bir qarashi Kesakpolvonning nigohiga zirapchadek sanchilardi. Asadbek bilan Xongireyning nima haqda, qanday tarzda gaplashganlari unga noma'lum. U faqat suhbat natijasini biladi: Asadbek chekingan, bo'yniga mag'lublik kishanini solib qaytgan. Bu kishanning bir uchi Xongireyning qo'lidami yoki Kesakpolvonga tutqaziladimi — buni bilmaydi. «Oshna, bo'lar ish bo'libdi, endi chetga chiqa qol, oyoqlarim ostida o'ralashmay tur», deydimi yo Asadbekning o'zi «Haydar oshnam, endi sening oshig'ing olchi turibdi, bu yog'iga katta-katta bosaver», deb bo'ynini egadimi — buni ham bilmaydi. Har holda Asadbek bo'yniga arqon bog'lansa ko'zlarini javdiratib turuvchi axta qo'chqor emas, bunday demasligiga Kesakpolvonning aqli yetib turardi. Gapni o'zi boshlasa balolarga qolishiga ham fahmi yetardi.

Asadbek qabristonga borib kelganidan so'ng u ketishga bahona izladi. Ashulachi kelib, xirgoyisini boshlagach, sobiq xo'jayini, bo'lajak tobeidan ruxsat so'rab, ko'chaga chiqdi. Asadbek bu safar odatiga xilof ravishda uni darvozaga qadar kuzatib chiqib «Rahmat, oshnam» deb, uni hayrat to'riga chirmab qo'ydi. Shu paytga qadar Kesakpolvonni bu xonadonda birov kutib olmagan, birov kuzatmagan. U o'z uyiga qanday kirib-chiqsa, bu yerda ham o'zini shunday erkin tutardi. Asadbek kuzatib chiqib «oshnachiligimiz shu onda, shu ostonada nihoyasiga yetdi, endi sen begonasan», demoqchi bo'ldimi? Asadbekda bunday fikr yo'q, beixtiyor tarzda kuzatgan bo'lsa-da, Kesakpolvon uning harakatini begonalik sari qo'yilgan dastlabki qadam deb bildi. Ko'ngil xiralashganicha

mashinaga o'tirganida Qozi unga kutilmagan yangilik aytdi:

— Qozixonada sizni maskovlik mehmon kutib o'tirganmish.

Bu xabar Kesakpolvonga xush yoqdi. «Yaxshi, Xongirey odam yuboribdi. Bek bilan bo'ladigan oldi-berdini o'zi eplashtirib tashlaydi», deb o'yladi.

Shu kayfiyatda qozixonaga kirgan Kesakpolvon Selimni ko'rib, tarvuzi qo'ltig'idan tushgan odamday ajablendi. Shu sababli qisqa salom-alikdan so'ng dabdu-rustdan:

— Seni kim yubordi? — deb so'radi.

— Xongirey, — dedi Selim. — Sizga aytishmadimi?

— Yo'q. Xongirey bilan qanaqa aloqang bor, sening?

— Aka-ukachiligimiz bor, — dedi Selim faxr bilan. Hozir u kechagina Xongireyning huzurida pusib, qaltirab turgan Selim emas, balki o'zidan bir necha pog'ona pastdagi tobedan lutfini darig' tutmay gaplashayotgan xoja martabasidagi odam edi. «Vaqti kelsa burgani ham taqalab bera olaman», deb o'ylovchi Selim yolg'on gapi bilan Kesakpolvonni jilovlab olmoqchi edi. Kesakpolvon «qanaqasiga aka-ukasan, Hosil «pisht» desa dumingni qisib turishingni bilmasmidim, Akademikning do'pposlaganini eshitmaganmanmi?» deb maydalashib o'tirmadi, Selimning gapiga ishonganday bo'lib:

— Xongireyni qachon ko'ruvding? — deb so'radi.

— Uch kun avval.

«Demak, Asad bormasidan oldin ko'rishgan. Bu hech nima bilmaydi», deb o'ylagan Kesakpolvon Selimni sinayotgandek tikilib turib so'radi:

— Xongirey nima uchun seni menga yubordi? Men kichkina bir odam bo'lsam. Bu yerlarning xo'jayini bor?

— Sababini Xongireyning o'zidan so'raysiz. Mening bilganim shuki, bu tomonlar endi Xongireyniki. Boshqalarning tishi o'tmaydi. Men uning vakiliman. Siz bilan birga katta ishlar qilishimiz kerak. Endi tirikchilik boshqacharoq bo'ladi.

— Tirikchilik, degin... Eshitgandirsan, bitta odam majlisda nasihat qilibdi: «Kasal bo'lsangiz do'xtirga uchrang, chunki do'xtirlarning tirikchiligi bor. Do'xtir yozib bergan dorini albatta sotib oling, chunki dorifurushlarning ham tirikchiligi bor. Lekin bu dorilarni icha ko'rmang, chunki o'zingizning ham tirikchiligingiz bor». O'sha majlisda go'rkov ham o'tirgan ekan, shart o'rnidan turib: «O'rtoqlar, bu odamning gapiga quloq solmang, o'sha dorilarni albatta iching, chunki mening ham tirikchiligim bor», degan ekan.

Selim kulib, iyagini qashigan bo'ldi-da:

— Go'rkov boshqalarning hisobidan tirikchilik qilib turar. Bizning ishimiz katta bo'ladi. Limonad sotib yurish joningizga tegmadimi? — dedi.

Bu luqma Kesakpolvonning g'ashini keltirdi:

— Sen bola, aqling yetmagan ishlarga aralashma!

Kesakpolvon bu gapni xuddi Asadbek kabi qoshlarini chimirgan holda, zarda bilan aytdi. Xongirey besh boshli ajdaho bo'lsa, endi bitta boshi menman, deb o'ylayotgan Selimga bu zarda ta'sir etmadi. Xotirjam tarzda:

— Siz bugun Xongireyga qo'ng'iroq qilib, kelganimni aytib qo'ysangiz bas. Men «Leningrad» mehmonxonasida turibman. Bo'sh bo'lsangiz o'ting, bir oshiq tashlaymiz, — dedi-da, o'rnidan turdi.

U chiqib ketgach, xontaxta ostidan telefonni olgan Kesakpolvon Moskvadagi Xongireyning qarorgohi raqamlarini terdi. Xongireyning o'rniga Mamatbey gaplashib, Selimning gaplarini tasdiqladi. Kesakpolvon qo'g'irchoqqa aylanganini anglab, peshonasini tirishtirdi. Qozi bilan bir oz maishat qilib, yuragi siqildi. U Asadbekni yo'lidan olib tashlab o'zlari yaratgan olamga tanho hukmronlik qilmoqchi edi. Oqibat nima bo'ldi? Avvalgi martabasidanda pastlab ketmadimi? Har holda «Asadbekdan keyingi ikkinchi odam», degan nomi bor edi. Endi-chi? «Xongireyning yugurdagi» degan unvonga

yetishdimi? Endi bu xomsemiz Selimning og`zidan chiqadigan gapga mahtal bo`lib o`tiradimi?

Agar Kesakpolvonda nomus tuyg`usi bo`lganida bu holga tushganidan ko`ra o`limni afzal bilardi. Bunday tuyg`udan xoli bo`lgani sababli o`lim o`rniga xorlikni maqbul ko`ra qoldi. Roviylar derlarkim, Hindiston podshohining to`rt vaziri bor ekan. Vaziri a`zam, Xudoning marhamati bilan, tengsiz aql-zakovot egasi ekan. Yaratganning qudratini qarangki, birovga aqldan mo`l bersa, shun-ga yarasha hasadgo`ylarni ham berarkan. Uch hasadgo`y vaziri a`zamni yo`ldan olib tashlab, podshohga yanada yaqinlashmoq chorasini izlashibdi. Subhi sodiqda bir vazir kirib ajib tush ko`rganini bayon qilib debdi-ki:

«Jannatmakon otangiz u dunyoda ham podshohlik davru davronini surmoqdalar. Ammo aqlli vazirga muhtojliklari bor ekan. O`g`limga ayt, vaziri a`zamni huzurimga yo`llasin», dedilar. Bir hasadgo`yning izidan ikkinchisi, so`ng uchinchisi kirib ayni tush ko`rganlarini aytishibdi. Podshoh bundan ajablanib, vaziri a`zamdand maslahat so`rabdi. Vaziri a`zam hasadgo`ylarning maqsadlarini anglab debdiki: «Ey podshohim, otangiz amr qilgan ekanlar, bo`yinsinmoq farzdir. U dunyoga rihlat qilmoq oldidan menga qirq kun muhlat bering. Bu davrni men ibodat bilan o`tkazib, tavbalar qilay, ruhimni poklab olay. Mo`tabar otangiz huzurlariga bu dunyoda topganim — gunohlarni ortmoqlab bormay». Podshoh rozi bo`libdi. Podshoh izn bergach, vaziri a`zam fursatni g`animat bilib, uyidan to`murda yoqiladigan maydonga qadar lahm kavlatibdi. O`ttiz to`qqizinchi kuni esa o`tinlarni o`zi taxlatibdi. Qir-qinchi kuni oppoq liboslarni kiyib podshoh huzuriga kiribdi-da: «Men tayyorman. Ammo olovni o`zim yoqaman. Gunohkor bandalar gulxanga yaqin kelishmasin», deb ogohlantiribdi. Aytganday qilib, olovni yoqqach, tutun ko`tarilishi bilan o`tinlar orasidan pastga tushib, yerosti yo`lagi orqali uyiga boribdiyu bir yil tashqariga chiqmay o`tiribdi. So`ng yana o`sha oppoq libosini kiyib, podshohga ro`para bo`lib debdiki: «Olampanohim, men qaytib keldim. Otangiz sizni behisob ravishda duo qildilar. Va amr ettilarkim, bu uch vaziringizni xizmatlariga yubormog`ingiz joiz ekan». Podshoh o`yladiki, «Men vaziri a`zamni bular ko`rgan tushga inonib u dunyoga yuborgan edim. U xizmatini ado etib qaytib keldi. Nega endi uning so`zlariga inonmayin?» Podshohning shu ahdi bilan uch vazir o`tda yongan ekan...

Kesakpolvon o`sha vazirlar toifasidan edi. U o`zining mayda o`g`rilardan ekanini unutgan, Asadbek panohida yurmaganida sal narsaga qamalaverib iyig`i chiqib ketishi mumkinligini esa fahmlay olmasdi. U ba`zan «Asadbekni odam qilgan menman, shuning xizmatida yurmaganimda allaqachon toj kiyib, qonundagi o`g`rilarning zo`ri bo`lardim», deb o`ylardi. Biroq uning kalta aqli «Qonundagi o`g`ri martabasiga yetish uchun ham farosat kerak», degan haqiqatni hazm qila olmas edi.

Kesakpolvon ayni damda ranjigani bilan Xongireyga, hatto Selimga xizmat qilishga ko`nikib ketaverardi. Uni tashvishga solayotgan narsa Asadbek tomonidan bo`lajak nogahoniy hujum edi. Asadbek Moskvaga ketganida bu tashvish bir oz chekingan, o`ziga dalda beruvchi bahonayu sabablar topgan edi. Asadbek qaytib, ko`z ko`zga tushdiyu xavotir cho`g`i alanga ola boshladi.

Yaydoq daladagi ko`ylakchan odam do`lda qolsa — o`lishi tayin. Kesakpolvonni Asadbekning do`llaridan Xongirey asraydimi yo ko`ylakchan holicha dala o`rtasiga tashlab qo`yaveradimi?

Qozixonadagi eski ko`rpacha ustiga yonboshlagan Kesakpolvon do`ldan himoya qilish choralarni o`ylardi. Xayoliga bir fikr yarq etib urildi-yu, qaddini ko`tarib, chordona qurib o`tirib oldi. Xojasidagi bu o`zgarishdan ajablangan Qozi o`rnidan turib «Xizmat, xo`jayin», deganday qo`l qovushtirdi. Kesakpolvon «nega turib olding?» deganday unga hayronlik bilan qaradi-da:

— Nima buyurgansan, dimlamami yo qozonkabobmi?— deb so`radi.

— Osh deganday bo'luvdingiz... — Qozi shunday de-di-yu, egasidan tepki yeyishdan qo'rqib dumini qisgan it holiga tushdi.

Kesakpolvon Selim bilan ko'rishmay turib, choyxona hovlisidan o'tayotganida osh buyurganini esladi, biroq, sir boy bermay:

— Osh yeyaverib ichaklar press bo'lib ketdi. Chiqib ayt, yog'lroq go'sht bosishsin, — dedi.

Qozi chiqib ketgach, qaddini ko'tarishga majbur etgan fikrga qaytdi. U Asadbekning qahridan qutulish yo'lini topganday bo'ldi: ertaga tongdayoq qaymoq ko'tarib Asadbeknikiga borishni, nonushtada birgalashib qaymoqxo'rlik qilishni, so'ng «Mahmudni men o'ldirtirdim», deb tan olishni reja qildi. Uningcha «Mahmud senga xiyonat qilib Xongirey bilan til biriktirayotganini bilib qoldim. O'zing aytgansan, bizda xiyonatchiga aytadigan gap bitta bo'ladi... Senga bildirmaganimning sababi: uni o'zim topib, o'zim tarbiya qilgan edim. Gunohiga sherikman. Shuning uchun o'zim yo'q qildim», degan gaplariga Asadbek oz bo'lsa-da ishonishi kerak edi. Shubhasiz, u «o'zing-chi, Xongireyga qanday ilakishib qolding?» deb so'raydi. Kesakpolvonning mo'ljalicha, javobning «xo'r-rozi» shu savolga qaytariladi: «Xongirey xitlanib, senga osilmasin, deb nomigagina yaqinlashdim».

O'zining bu kashfiyotidan quvongan Kesakpolvonning chehrasi ochilib, qozonkabobni buyurib qaytgan Qoziga bir-ikki hazil qildi.

Maishatlari yakun topib, ko'chaga chiqishgach, Kesakpolvon «Qaerga borsam ekan?» deb o'ylanib qoldi. Xotining Yaponiyaga, qizi bilan sartaroshning Leningradga jo'nashi haqidagi gap-so'zlarni eslab, uyiga borgisi kelmadi. Xotini bugun ertalab «eri o'lgan Oysanam»ning Yaponiyaga o'tlanayotganini yana gapirganida «shu momaqaymoqni anchadan beri ko'rmadim-a», deb o'ylagan edi. Hozir o'sha armonga barham berib, juvonne ko'rmoq istagida mashina sari yurdi. Haydovchi o'rniga o'tirmoqchi bo'lgan Qozini to'xtatib, so'radi:

— Do'xtirni topdingmi?

— Uyidagilar aytishmayapti.

— Bek akang keldi-ya! Namuncha lallayasan, hebbim! Uyidagilar aytmayotgan bo'lsa bitta bolasini anavi yerga tiqib qo'ygin, sayraganini o'zi ham bilmay qolsin. Nima, shunga ham aql kerakmi?

Kesakpolvon shunday deb so'kindi-da, haydovchi o'rniga o'zi o'tirdi.

## 2

Oysanam... Kipriklari uzun-uzun, qoshlari kamon, yana ming yil yashasam ham chiroyimni boy bermayman, deguvchi latofat egasi Kesakpolvonning xayolini o'ziga tortgan edi. Kesakpolvon Oysanamning onasi Kunsanamni erkalab «qiz o'rtog'im» derdi. U dastlab qamoqqa tushganida o'g'rilik bilan non topish, tirikchilik qilish oson emasligini angladi. «Detdom bolasiman», deb bolalarga zo'rlik qilish zamoni o'tgan, o'g'rilar olamida yetarli obro'ga ega bo'lish uchun lozim zehn, tadbirning o'zida yo'qligi, oxir-oqibat xorlik jandasiga o'rashini ham fahmlab, «sendan boshqa mening kimim bor?!» deb ko'z yoshi to'kib, Asadbekning etagidan mahkam tutdi. Kesakpolvonning umri bo'yi qilgan eng aqlli ishi ham shu edi. Dam-badam uyg'onuvchi «Men yonida bo'lmasam Asad bu martabalarga yeta olmas edi», degan o'yiga o'zi ham ishonmasdi.

O'g'rilikdan uzoqlashib, Asadbek berib turuvchi cho'talga qanoat qilib yurgan kezlari yengil-elpi to'y qilib bo'lsa-da, uylandi. «Detdom bolasiman» deb kerilib yuruvchi Kesakpolvon yigit kishiga boshpana ham zarur ekanini o'shanda tushunib yetdi. Asadbek o'zining eski mahallasiga taqab solingan to'rt qavatli g'ishtin imoratdan unga bir xonani

ijaraga olib berdi. Uch xonalik uyning egasi zavoddagi kutilmagan ofat tufayli ikki qo'lining panjalaridan ayrilgan odam edi. Uning majruhlik uchun oladigan nafaqasi oilaning non-choyiga arang yetardi. Xotini Kunsanam ilmsiz, hunarsiz ayol bo'lgani sababli oilani tebrata olmas edi. Shu bois u ham maktabdagi farroshligiga oladigan ozgina maoshiga qanoat qilishga majbur edi. Er-xotin-ku sabr qilardi, ammo ulg'ayib kelayotgan o'g'il-qizlarining yemoq-ichmoq, kiyinmoqdagi ehtiyojlarini qondirish mashaqqat edi.

Kesakpolvon ijaraga qo'yiladigan xonani ko'rgani kelganidayoq bu chiroyli ayolga xushtor bo'lib qolgan edi. Nazarida eri majruh, oilasi muhtojlikda yashayotgan bu ayol arzimagan «sovg'a-salom» evaziga quchoqqa oson kirmog'i mumkin edi. So'z qarmoqlari ish bermagach, yugurik qo'li belga borganida bir shapaloq yeb niyatga erishmoq oson emasligini bildi. Bildi-yu, baribir maqsadidan qaytmasa-da, Kunsanamni ba'zan «singlim», ba'zan esa «qiz o'rtog'im» deb «e'zozlab» yurdi.

O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas ekan. Asadbekning cho'tallariga qanoat qilmay, unda-bunda o'g'rilik ko'chasiga sho'ng'ib, cho'ntagi sal qappaygach, o'ziga boshpana sotib oldi. Shundan so'ng bu xonadon bilan bordi-keldisi uzildi. Cho'ntak baquvvat bo'lgach, ko'ngilxushlikka bop juvonlarni topish qiyin emas. Kunsanam ham ko'ngil daftaridan osongina o'cha qoldi.

Ammo Oysanam...

Kesakpolvon bir kuni bozorda Kunsanamga tasodifan duch keldi. Avvaliga Kesakpolvon uni tanimadi. Tanigach, ichida «Shaftoliqoqi bo'lib qolibsanku, ahvoling shu ekan, nozingga balo bormidi?» deb qo'ydi. Kunsanam esa uni yaqin odami deb bilib, kuyovi nobop bola chiqqani, qizining turmushi buzilganini afsus bilan aytib, ishga kiray desa durustroq joy chiqmayotganidan nolidi. O'shanda Kesakpolvonning tantiligi tutib, Oysanamni taksoparkka joylab qo'ygandi. O'shanda Ilyosov bosh muhandis bo'lib ishlardi. Erdan chiqqan bu go'zal juvonnini u qanday ilintirdi, Kesakpolvon bilmaydi. Kesakpolvon Oysanamni durkun qizaloq paytida ko'rgan edi. Ilyosov nikohlab olgach, mehmonga borib juvonnini ko'rdi-yu, «Vah!» deb yuborishiga ozgina qoldi. «Qo'limga qo'nib turgan shunday qushchani uchirib yubordimmi?!» deb afsuslandi. Keyin esa «Gilamni o'zimga yaqin odamga sotibman, xohlagan paytimda bir chekkasida o'tirib turaman», deb o'zini ovutdi. Biroq, bu ovutishlari xomxayol bo'lib chiqdi. Onasi kabi hurkak bo'lgan Oysanam uni yoniga yo'latmadi. Uning bu qiligi Kesakpolvonga noshukrlik bo'lib tuyuldi. Unga qonundagi o'g'rilarga xos tantilik yetishmasdi — birovga yaxshilik qilgach, indamay keta olmasdi. U birovning hojatini chiqarganidan so'ng albatta shunga yarasha javob bo'lmog'ini istardi. Oysanamni «yog'li» ishga joylashib qo'yishi uning nazdida ulug' xizmat edi. Shu «ulug' xizmat» evaziga bu noshukr juvon bir kechalik ishvasini unga in'om qilgisi kelmadi. Mazkur muammoning hal etilishida Kesakpolvonning tarozusi bilan Oysanamniki mos emasdi. Kesakpolvon tarozusining bir pallasiga o'zining «ulug' xizmati»ni ikkinchisiga juvonning ishvasini qo'ygan, shubhasizki, pallaning «ulug' xizmat» tomoni bosib turardi. Oysanam esa tarozuning bir pallasiga «arzimas ish»ni, ikkinchisiga esa nomus-orini qo'ygan edi. Shu bois «arzimas xizmat» uchun shiringina jilmayib, «rahmat» deb qo'yishni kifoya deb bildi. U go'zalligini, ko'z suzib qarashi har qanday erkakni behush qila olishini bilardi. Erkaklarning suqlanib qarashlaridan rohatlanardi. Biroq bu qarashlarga bandi bo'lishdan o'zini tiya olardi.

Bir baxtsiz aytgan ekanki: «Bilmayin bosdim tikonni, tortadirman jabrini, bilsam erdim, bosmas erdim, tortmas erdim jabrini».

Oysanam baxtsiz emasdi, tikonni bilmay bosuvchi toifadan yiroq edi. Birinchi turmushi yoshlik o'ynoqiligi oqibati emas, balki ota-onasining istagi mevasi edi. Tag-tugli uzoqroq

qarindoshlarining xonadonida qizlarining baxt topishiga astoydil ishongan ota-onasi tikonni bilmay bosgan edilar.

Yangalar uch kun poylab zerikishdi: kelin-kuyov qo'shila olishmadi. Kuyov bolani domlaga olib borib o'qitish ham natija bermadi. Kunsanam sabr qildi, voqeani majruh eriga bildirmadi. O'g'liga aytishdan ham qo'rqdi, ham uyaldi. Oysanam ham sabr qilardi. Ammo... kichik chillasi chiqmay turib, yarim tunda erining bezovta bo'lib yon xonaga o'tib ketishidan tashvishlandi. So'ng son tomiriga em ignasidan dori yuborayotgan ko'rdi-yu, labini tishladi. Siri oshkor bo'lgan er uni ham dori olishga da'vat eta boshlagach, uyiga qaytdi-yu, bor gapni yashirmay aytdi. Akasining borib kuyov bolani do'pposlab urib kelgani hisobga olinmaganida ular ortiqcha gap-so'zsiz ajralishdi. Bu voqea Kesakpolvonga noma'lum, fikricha, go'zal juvonning erdan chiqishiga boshqa sabab mavjud edi. Har nima bo'lganda ham Oysanam Kesakpolvon uchun zabt etilmagan qo'rg'on bo'lib qolaverdi. Kesakpolvonning maishatbop xotinlarga muhtojligi yo'q, «Oysanami ko'nmasa jonsanam-da» deb ketaversa bo'lardi. Lekin juvondagi kibr (ha, u nomusni aynan kibr deb fahmlagandi) unga tinchlik bermadi. «O'n yil bo'lsa o'n yil, yuz yil bo'lsa yuz yil kutaman. «Akajon!» deb qo'ynimga kirganini o'zi ham bilmay qoladi», degan ahdini bugun esladi.

«Mirkarimovning o'ligi suvdan chiqibdi», degan xabarni eshitib, janozaga borganida hamma tobutni ko'tarish bilan ovora ekanida Kesakpolvon mayitning izidan yig'lab chiqqan xotinlarga qaragan, ular orasidagi Oysanamni ko'rib «yig'lasa ham ofatijon-a, dayusning xotini» deb qo'ygan edi.

Oysanamning Yaponiyaga otlangani haqidagi xabar Kesakpolvonning tinchini buzgan, boshida mingta tashvish, ming bitta g'alva bo'lsa ham, bu yangilikning tagiga yetishni istayotgan edi.

Darvoza biqinidagi qo'ng'iroq tugmasini qayta-qayta bosgan Kesakpolvon ichkaridan javob bo'lavermagach, «Nima balo, Yaponiyaga jo'navorganmi?» deb tashvishlandi. Umidi singan tarzda iziga qaytay deganida Oysanamning «Kim?» degan tovushini eshitib, ko'ngli yayrab ketdi-yu, ichida «ovozingdan akaginang aylansin!» deb qo'ydi. Juvon yana bir karra «Kim?» degach:

— Menman, Haydar akangman, — deb o'zini tanitdi.

Shundan so'ng ham darvoza eshigi darrov ochila qolmadi. Bundan ori kelgan Kesakpolvon zardali ovozda:

— Nima, tanimay qoldingmi? — dedi.

Oysanam eshikni ochib, salom berdi-yu, «keling, kiring», demadi. Orqaga tisarilmadi, yonga o'tib, yo'l ham bo'shatmadi. Bu harakati bilan o'ziga yoqimsiz bo'lgan erkakning ostona hatlab kirishiga mayli yo'qligini oshkor qildi. Oysanamning xohishi bor yoki yo'qligi Kesakpolvon uchun ahamiyatsiz narsa edi. Eng muhi- mi — bu uyga kirmoqqa uning xohishi bor.

— Shu tomonga yo'lim tushgan edi, singiljonimni bi-ir yo'qlay dedim. Seni ko'rmaganimga ham ming yil bo'ldiyov, — Kesakpolvon shunday deb ostona xatlagach, Oysanam tislani, yo'l bo'shatishga majbur bo'ldi.

Ayvon issiq bo'lgani uchun uyga boshlamadi. Kesakpolvon yumshoq oromkursiga cho'kib o'tirgach, sigaret tutatdi-da:

— O'g'ling ko'rinmaydimi, yolg'izmisan? — deb so'radi.

— O'g'lim... oyim bilan kontsertga ketishuvdi, hozir kelib qolishadi.

Oysanam yolg'on gapirdi: o'g'li onasinikida, bugun kelishmas edi.

— Yolg'iz zerikmayapsanmi? — dedi Kesakpolvon ishrattalab nigohini unga qadab.

— Yo'q.

— Sen erga tegishing kerak. Bevalik senga sira yarashmaydi. Seni... o'zim olib qo'ya

qolsammikin, deb turibman.

— Menimi?

— Ha-da, tegasanmi, menga?

— Qo'ying-e, — Oysanam shunday deb ko'zini olib qochdi-da, chetga qaragan holda piching bilan qo'shib qo'ydi: — sizga... onasi o'pmagan qizlar mahtal bo'lib turishibdi-ku, meni nima qilasiz?

Kesakpolvon dastlab Oysanamga osilib, muddaoga yeta olmaganida «Men xohladimu sen noz qildingmi? Bir marta «gah!» desam, onasi o'pmagan qizlarning o'ntasi qo'limga qo'nadi», degan edi. Oysanamning o'sha voqeani eslab piching bilan aytgan bu gapi Kesakpolvonga nozli hazil bo'lib tuyuldi.

— O'sha gap esingda turuvdimi, yomonsan, sen yomonsan. Bilib qo'y: seni rostdanam yaxshi ko'raman. Onasi o'pmaganlardan bo'lmasang ham o'zing zo'rsan. Eringga kuyma. U sening tirnog'ingga ham arzimadi.

— Qo'ying, unaqa demang, bunday gaplarni yer darrov yetkazadi.

— Yetkazsa yetkazaversin. «Shiltalik qilma», deb eringga ming marta aytganman. Shiltaligi boshini yedi. O'ynashi qamalib ketdimi? Bo'yniga olibdimi?

— Yo'q hali.

— Ie, ish haligacha cho'zilib yotibdimi? Akang ham o'tirgandir?

— O'tiribdilar. Ishni endi prokuratura boshidan boshlab ko'rarmish.

— Senga aytishdimi, qaerdan bilding?

— Odam keldi. Hammasini boshqatdan so'rab chiqdi.

— Sendan nimani surishtiradi? Sen jabrlanuvchisan, da'vogarsan. Sen «erimning qotilini topib berlaring», deb ularning yoqasidan olishga haqlisan.

— Haqimni bilaman-ku... lekin... u odam sizni ham so'radi. Asadbek akani surishtirdi.

— Nima?! Nima dedi?

— «Eringiz bilan munosabatlari qanaqa edi? Kelib-ketib turisharmidi?» deb so'radi.

— Sen nima deding?

— To'g'risini aytdim: kelishmasdi, dedim.

— Kallang joyida sening. Kelgan odamning oti nima ekan?

— Esimda yo'q.

Kesakpolvon sigareta qoldig'ini kuldonga ezdi. Jahli chiqqanini yashirmay:

— Aqling oshib-toshib yotibdi-ku, nimaga eslab qololmading? Sen ular bilan mushuk-sichqon o'ynama. Agar qotilni topisholmasa, sirtmoqni aylantirib-aylantirib o'zingning bo'yingga tashlashadi. Keyin yuraverasan voy-voylab, — deb zarda qildi.

Bu gapdan Oysanam chinakamiga cho'chib tushdi:

— Nega menga tashlasharkan sirtmoqlarini? — dedi sarosima bilan.

— Senga tashlashmay buvingga tashlashadimi? Erini o'ynashdan qizg'anib o'ldirgan yoki, to'g'rirog'i, o'ldirtirgan, deyishadi, tamom! Ha, nimaga dovdirab qolding, bo'lishi mumkin emasmi? Masalan men xuddi shunday deb o'ylaganman.

— Unaqa demang.

— Nega demas ekanman? Dang'illama uying bor. Sochingning uchidan oyog'ingning tirnog'igacha tillaga botgandirsan. Endi bunaqa shilta erni boshingga urasanmi? Sening o'rningda bo'lganimda men ham o'ldirtirib yuborardim. To'g'ri qilgansan.

— Unaqa demang, — bu safar juvonning ovozi titradi.

— Demayman. Lekin bunaqa ishda tuhmatga qolish hech gapmas, ehtiyot bo'l. Yana so'roq qilsa gapingni bilib-bilib ayt. Ha, Yaponiyaga ketayotgan emishsanmi?

— Hali aniq emas. Bitta ortiqcha yo'llanma bor ekan...

— Shunaqami? Senga oshiqcha yo'llanma ham topila qoladi-ya! Sen uyingda jilmay o'tiraver. Yaponiyani ko'rging kelayotgan bo'lsa, men bilan birga borasan. Ho'sh, endi

haligi gapga nima deysan?

— Qaysi gapga?

— Menga tegasanmi?

### 3

Kesakpolvon avvalgi ahdi bo'yicha ertalab qaymoq ko'tarib keldi-yu, ammo Asadbek bilan nonushta qila olmadi. Asadbek erta saharda Halimjon bilan chiqib ketganini boloxonadagi yigitdan bilib, yana tashvishga tushdi. Uyga qaytgisi kelmay, jar yoqasidagi xonadonlarda ochilgan yemakxonaga bordi. Boshiga tashvish do'li yog'ilib turganda ham ishtahadan nolimaydigan odamning bu safar tomog'idan ovqat o'tmadi. Kun yoyilganida shahar markazidagi uch qavatli bino yerto'lasiga joylashgan idoraga qarab yurdi. Idora eshigidan har safar Asadbekning yordamchisi sifatida kirar edi. «Bugun so'nggi marta bu martabada o'tyapmanmi, ertaga xo'jayini sifatida kiranmanmi?» deb o'yladi.

Endigina kelgan Bo'tqa qizlarni ishga solib, xonalarni shamollatgan edi. Asadbek «Zamon o'zgaryapti, qadamlaringni bilib boslaring», degach, tungi maishatlarga barham berilgan sababli bu yer ancha osoyishta bo'lib qolgan edi. Kesakpolvon salom bergan Bo'tqaga qarab «Bu bola menga kerak», deb o'yladi-da:

— Rasuljon uka, ahvollar yaxshimi? — deb qo'ydi.

Bo'tqa uning bu muomalasidan ajablendi. Chunki u Kesakpolvon tomonidan «Ha, Bo'tqa, qalaysan?» deb hol so'raluviga ko'nikib qolgan edi.

— Rahmat, akaxon, choy qilaymi yo qizilidanmi? — Bo'tqa shunday deb amrga mahtal ravishda unga qaradi.

— Choyni qo'yatur. Bek akangdan darak bormi, bu yoqqa keladiganmi?

— Bilmadim. Telefonlar jim.

— Mening ozgina ishim bor, halaqit bermay tur,— Kesakpolvon shunday degach, Asadbekning xonasiga kirdi. Uning qiladigan ishi yo'q, bo'lajak suhbat oldidan aytadiganlarini yana fikr tarozusida o'lchab olmoqchi edi.

Xonaga kirib o'tirishga ulgurmay Asadbekning ovozi eshitildi.

Asadbek eshikni ochib, ichkari kirishi bilan, bir ma'no uqish umidida, uning ko'zlariga boqdi: Asadbek kechagiga nisbatan quvnoqroq ko'rindi. Qarashlaridagi kechagi mahzunlik, ba'zan qora bulut kabi bostirib keluvchi qahr endi yo'q. Bugundan e'tiboran «sobiq xoja»ga aylanajak Asadbekning xush kayfiyati Kesakpolvonga ham ko'chib, jilmaydi. Zulm daraxtini birgalikda ekib, endi uning mevasidan kim ko'proq yeyar ekan, degan muammoni hal qilolmayotgan bu ikki banda orada xiyonat ham, o'lim ham, adovat ham bo'lmaganday, bir-biriga oqibati ziyoda odamlar kabi iliq ko'rishishdi.

— Qaymoqxo'rlik qilarman, deb boruvdim, saharbardonda jo'navoribsan. Keting yer iskamaydigan bo'lib qoldi, a? — dedi Kesakpolvon, mehribon do'st ovozi bilan.

— Qadrdonlardan bittasini savobga yo'qlab qo'y-dim, — Asadbek shunday deb, Kesakpolvonni ajablantirgan holda nigohini olib qochdi.

— Kimni?

— Sen uni tanimaysan.

Kesakpolvon «Men tanimaydigan qadrdonlaring ham bormi?» degan ma'noda qarab qo'ydi-yu, gapni maydalashdan o'zini tiydi. Shuning barobarinda kecha xayoliga kelgan fikrni bayon qilish ahdi susaya boshlaganidan g'ashlandi. Yolg'onni ham, rostni ham bir xil ohang-da, ko'zlarini chaqchaytirganicha aytib tashlaydigan odamni dangalchilik tark etganday edi.

— Mahmudning o'rni bilinib turibdi,— dedi Kesakpolvon, yengil xo'rsinib. — Yoningda



o'tirishiga ko'zlarim o'rganib qolgan ekan.

— O'rni hali beri sovumaydi, — dedi Asadbek, tagdor ma'noda, keyin Kesakpolvonning yelkasiga qo'l tashlab, divan tomon yurdi. — Umri qisqa ekan-da. Opichib yurganingni ko'rganimda bir-ikki kunda o'lib qolsa kerak, deb cho'chigan edim. Yana ham shuncha yashadi.

— Ishxonani boshqa yerga ko'chirsakmikin? Xonaga kirganda ko'zga ko'rinaverib, odamni qiynab yuboradi.

«Mahmudning arvohi seni to go'rga kirgunningga qadar ta'qib etib, qiynaydi. Qiynoqqa o'zing xaridor bo'lib, uni o'zing sotib olding», deb o'yladi Asadbek. Til esa boshqa gapni aytdi:

— Ko'chish kerak. Ko'nglingga yoqadigan joy top.

Asadbekning «ko'nglingga yoqadigan» deganiga Kesakpolvon uncha diqqat qilmadi. Chunki ayrim ishlarni topshirayotganda Asadbek «bilganingni qil» yoki «ko'nglingga qara» deb qo'yardi. Hozir Asadbek «ko'nglimizga» emas, «ko'nglingga» deb atay ta'kidlagan, bu bilan «topadigan joyingda o'zing ish yuritan», degan ma'noni singdirmoqchi bo'lgan edi.

Divanga borib o'tirishganda Bo'tqa choynak ko'tarib kirdi-da: «U-bu kerakmasmi?» deb so'radi. Kesakpolvon «u-buga hojat yo'qligini» aytgach, piyolalarga choy quyib uzatdi-da, jimgina iziga qaytdi.

— Maskovda Xongireyni uchratib qoldim, — dedi Asadbek, Bo'tqa chiqib ketgach. — Anavinda to'g'ri aytding: ne bo'lsa ham musulmonligi bor bu bolaning. Kozlov tufayli oramizga sovuqlik tushdi, deb afsuslanib yuruvdim. Ko'ngli keng ekan u chechenning. «O'rtamizda gina-kudurat yo'q», deb aytdi. Mardligiga qoyil qoldim. Sherikka yolchibmiz, oshna. Ana endi osh-qatiq bo'lsak arziydi. Bir-ikkita zo'r ishlarni mo'ljallab qo'ygan ekan, o'zing billalashib yuritan.

Bu safargi «o'zing billalashib» deyiluvchi Kesakpolvonning diqqatini chetlab o'tmadi.

— Mo'ljalidagi ish juda katta, lekin juda nozik, qaltis. Buni faqat o'zing eplaysan. Kesakpolvon endi «o'zing» shunchaki tildan adashib chiqqan so'z emasligini anglab, tahrir kiritdi:

— «O'zimiz» degin.

— Yo'q, endi bu ishlarni sen yuritan. Sen bilan men uchib borayotgan moshinaning murvatlarimiz. Murvat degani eskiydi, ishdan chiqadi. Murvat yangilanmasa, o'zing bilasan, moshina abjaq bo'ladi. Ikkalamiz billa yurib, yomon bo'lmadik. Endi men chetga chiqishim kerak. Mening tashqi ko'rinishim odam. Ichimni hali ham dard kemirib yotibdi. Menga rahming kelsin.

Jumboqning bu qadar yengil hal etilishini kutmagan Kesakpolvon bir oz dovdirab qoldi. Asadbekning ahdi qat'iymi, samimiymi yoki sinash uchun aytyaptimi bu gaplarni — farqlay olmasdan gangidi. Sobiq xojasining qarashlari, gapidagi ohang ichiga yashiringan sirni oshkor qilmadi.

— Ha, nega jimib qolding, gapir, — dedi Asadbek.

— Nimani gapiraman, Maskovda jin-pin chalib ketdimi seni? Gaplaringdan latta hidi kelyapti. Kasal bo'lsang, damingni ol, hollingga qarab yuraver. Sendan birov ish talab qilyaptimi yo davlatning ishxonasiga o'xshab byulleten ko'rsatish kerakmi? Bir yog'ing-ni yozga, bir yog'ingni qishga qo'yib, taralla-bedod qilib yuraver, qancha ish bo'lsa, men borman.

— Shuni aytyapmanda. Hamma ish endi sening gardaningda bo'ladi.

— Gapni aylantirma. Sen — Asadbeksan! Men kissavurdan chiqqan mayda odamman.

— Ilgari mayda bo'lgan bo'lsang, endi yiriklashasan. Masala hal bo'lgan, men Xongirey bilan kelishib keldim.

— Nima, endi Xongirey xo'jayinlik qiladimi?

— Xo'jayin emas, u sening sheriging. Teng sherik! Shuni unutmaginu sira past ketma. Yana boshingga chiqib, o'tirib qo'ymasin.

— Boshni qotirma. Mening sherigim ham, xo'jayinim ham o'zingsan. Meni tashlab, chetga chiqsang, nomardsan.

Asadbek unga kulimsirab qaradi: «Bu gapni endi Xongireyga aytasan. Xursandlikdan yorilib ketay deyapsan-ku...» Asadbek sobiq a'yoniga shunday degisi keldi. So'ng bo'ralab so'kishni, keyin yumshoq yeriga boplab bir tepishni istadi. Ko'ngil jilovi bo'sh qo'yilsa, nimalarni istamaydi. Vaqti-vaqti bilan «portlab» ketuvchi Asadbek bu safar ko'ngli hukmiga bo'ysunmadi, ko'nglini azoblarga qoldirib, kulimsiradi. Til va dil birligini butunlay yo'qotdi.

— Gaplaringni qara, chetga chiqib sen bilan yuzko'r-mas bo'lib ketyapmanmi? O'sha oshnaligimiz, o'sha qarddonligimiz bir misqol ham kamaymaydi. Go'rimga ketgunimcha yoningdaman. Faqat hamma ishni o'zing mustaqil yuritan. Xongirey mo'ljallagan ishda ikkita aqlning bittasi ortiqchalik qiladi. Endi men senga ish buyurmayman. Ha, aytmoqchi, oxirgi marta bitta ish buyuraman, xohlasang ham, xohlamasang ham bajarasan,— Asadbek o'rnidan turib, qo'lida ko'tarib kirib, stoli ustiga qo'ygan gazitga o'rog'liq narsani oldi-da, Kesakpolvonga uzatdi:

— Nima bu? —deb ajablanib so'radi Kesakpolvon.

— Pul. Maskovga ketmasimdan oldin Sharifning xotini beruvdi, — Asadbek gapining yolg'onligini oshkor etib qo'ymaslik uchun hamsuhbatga qattiq tikildi.

...U ertalab barvaqt turib, qabristondagi uchrashuvni eslagan, kun yoyilganda, ayolning idoraga kelishini istamay, uyiga o'zi borgan edi. Kesakpolvon tanimaydigan «qarddonlardan bittasi» shu ayol edi.

Chala qurilishni ko'rib, «hali ham bitirib berishmabdi-da», deb g'ashlangan bo'lsa, eski darvozaga osiqliq qulf uni ajablantirdi. Ko'chaga suv sepib, supurayotgan qo'shni ayoldan bularning qaerdaligini so'rab, «uyni sotib ketishgan», javobini eshitdi-yu, taajjubi yanada oshdi.

Nasiba bolalarini olib, onasinikiga ko'chib ketgan ekan. Asadbek qo'shni ayoldan uning manzilini bilib, qidirib bordi. Sharif Namozovning uyidan ham harobroq bo'lgan uyga bolalari bilan ko'chib kelgan ayolning ahvoli qanday ekanini birov aytmasa ham, Asadbek his etdi. Asadbek ota uyiga turli sabablar tufayli qaytib kelgan ayollarning qismati haqidagi gaplarni ko'p eshitgan. Uylar ko'p, yashash bemalol bo'lgan taqdirda ham bir qorindan tushgan jigarlarning bir hovlida yashamoqlari juda mushkul. Uyni sotib kelgan bu ayolning aka-ukalari bordir, demak, uyning «kelin» deb atalmish norasmiy egalari bordir...

Asadbek shularni o'ylab, mashinada o'tirganida Halimjon Nasibani boshlab chiqdi. Ayol Asadbekni ko'rib, bir to'xtab oldi. So'ng cho'chibgina yaqinlashdi. Asadbek uni bu qo'rquvdan qutqarish maqsadida mashina eshigini ochib, o'tirgan yerida uni qarshiladi.

— Mahallangizga yo'lim tushuvdi, g'alati gapni eshitib qoldim-ku? Singlim, uyni sotibsizmi?

Nasiba titroq barmoqlarini sanayotganday tikilib qoldi.

— Nega sotdingiz?

Nasiba Asadbekka qarab oldi. Uning ko'zlarida g'azab uchqunini ko'rmagach, sal dadillanib, bir xunuk yigitning pul talab qilgani, keyin bolalarini o'g'irlab ketganini aytdi.

— Shunaqa ekan, nega menga borib aytmadingiz? — dedi Asadbek gina ohangida.

— Boruvdim, kasal ekansiz, yordamchingiz «biz bunaqa jinoyat ishlarga aralashmaymiz, boshqa kelmang», dedilar.

Asadbek bu gapni eshitishi bilan ko'z oldiga darrov Kesakpolvon keldi. Chuvrindining bunaqa demasligiga amin bo'lsa-da:

— Bo'yi uzunroq, gavdali, mendan sal yoshroq odammidi? — deb so'radi.

— Yo'-o'q... bo'ylari sizdan ancha past edi...

— Ha... qora chigirtkaga o'xshaganmi?

Ayol «ha» ishorasini qildi.

— Qabristonda menga shuni aytmoqchimingiz?

— Yo'q... hozir... — Nasiba shunday deb tezgina iziga qaytdi-da, sal o'tmay, qo'lida gazetaga o'ralgan bir nimani Asadbekka uzatdi.

— Nima bu? — deb so'radi Asadbek, gazeta o'ramiga qo'l uzatmay.

— Bu... sotilgan uyimizning qolgan puli.

— Nima? — Asadbek «bu xotinning esi sog'mi?» deganday tikilib qaradi. — Bu pulni... nega menga ber-yapsiz? Yo... eringiz vasiyat qiluvdimi?

— Sharif akamning bir og'iz so'zlariga zor bo'lib qoldik-ku... — Nasiba shunday deb xo'rsindi. So'ng Asadbekka dadilroq qaradi: — Bu pul qurdirayotgan uyingizniki. Bugun shu omonatni bergani bormoqchi edim.

Asadbekka Nasibaning bu qiligi malol kelib, achchiqlandi, yuzlari uchdi. Jerkib ham bermoqchi bo'ldi. Ammo jahl uchquni alanga olmay, «bu bechorada ayb yo'q-ku», degan fikrda o'zini tiydi. «Pul o'zingizda qolaversin, bolalarga ishlating», demoqqa og'iz juftladi-yu, ammo xayoliga boshqa bir fikr kelib, bu gapni aytmedi. Faqat... Halimga ko'z qarashi bilan «pulni ol» degan ishora qildi...

...Hozir o'sha pul o'ramini Kesakpolvonga uzatganida Nasibaning titroq lablaridan uchgan so'zlar quloqlari ostida jaranglaganday bo'ldi.

Kesakpolvon Nasibaning najot istab kelganini esladi. «Bek nima uchun buni kavlashtirib yuribdi? Endi shu xotinga yordamlashmaganim uchun siquvga olmoqchimi?» — deb o'yladi. Lekin u kutgan gap aytilmadi. Asadbek:

— Xotin zoti asli aqlsiz bo'ladi, o'zing bilasan. Sharifniki ahmoqlikda hammasidan o'tib tusharkan. Erini ko'mib kelib, uyni sotibdi. Pulning cho'g'iga qaraganda ozginasini ishlatib qo'yganga o'xshaydi. Endi men aralashsam yarashmaydi. Sen uyni sotib olgan odamga yotig'i bilan tushuntir, pulini qaytib olsin. Pulning yetmaganini qo'sharsan, ilojing bo'lmasa, men bera qolaman, — dedi-da, pul o'ramini Kesakpolvonning tizzasi ustiga qo'ydi: — Bu mening oxirgi buyrug'im. Bundan buyog'idagilari endi iltimos bo'ladi. — Sen nima qilayotganingni bilayapsanmi?! — Kesakpolvon achchiqlanib turib ketdi. — Sen meni... pichoqsiz so'yyapsan!

Kesakpolvonning bu holati Asadbekka rohat baxsh etdi. Ko'zlari kuldi. «Qani edi, sen marazni o'tmas pichoq bilan kindigingdan bo'g'zingacha so'ysam», deb o'yladi.

— Haydar, sen hozir lovillayapsan, mayli, bir gurillab ol. Lekin ertaga hovuring bosiladi. O'shanda «Asad to'g'ri qilgan ekan», deysan. Mening gaplarim shu yerda qoladi, a? Do'st-dushman bu o'zgarishni bilmay qo'yaversin. — Asadbek shunday deb o'rnidan turdi-da, yengil kerishdi. — Aslida ikki-uch yil oldin shunday qilishim kerak edi. Hozir yelkamni ezib turgan tog' birdan ag'darildi. Endi uyga borib bola-chaqa bilan g'am-tashvishsiz, bi-ir chaqchaqlashib o'tiray. Ertalabdan xudo xohlasa, to'yni harakatini boshlaymiz. Mahmudning qirqi o'tib olsin, bi-ir to'y qilaylik, a oshna?

Bir-birlarini «oshna» deb ataganlari bilan oralarida hech qachon sof, samimiy do'stlik bo'lmagan, aksincha, Jalilning ta'biri bilan aytganda faqatgina manfaat qoidasiga itoat etib yashagan bu ikki odam dillarini qafasga solganlari holda, faqat til uchida gaplashdilar. Tillardan go'yo bol tomdi, dil esa zaxarli o'qlarga to'ldi.

Qalblar uzil-kesil dushmanga aylangani holda xayr-lashdilar.

Birovi sobiq, birovi esa yangi xo'jayin sifatida ko'chaga chiqdilar.

## XII b o b

### 1

Zohid Hamdam Tolipovning kelishini kutib o'tirgan edi. Va'dasiga xiyonat qilmaydigan Hamdam bu safar nima uchundir kechikayotgan edi. Zohid betoqatlanib, soatiga bir necha marta qarab-qarab olgach, Hamdamning xonasiga qo'ng'iroq qildi. Javob bo'lmagach, navbatchining raqamlarini terdi. «Tolipovning chiqib ketganiga bir soatdan oshdi», degan javobni eshitib, nima qilarini bilmay o'tirganida unga «Mirkarimovning «Ishi» bo'yicha Erkaeva degan ayol kelib, so'-rayotganini» ma'lum qilishdi. Kutilmagan bu tashrif avvaliga Zohidni taajjubga soldi, so'ng esa «tintuvda olingan narsalarini so'rab kelgandir», degan fikrda ayolga ruxsatnoma buyurdi.

Oysanam kirib o'tirgach, Zohid dabdurustdan «nega keldingiz? Menda nima ishingiz bor?» demay, hol-ahvol so'radi. Oysanam bu iltifotga javoban «yuribmiz, Xudoga shukr», deb qo'ydi. So'ng bir nafas sukut qildi-da, muddaoga ko'cha qoldi:

— Men... akamni chiqarish masalasida keluvdim.

— Chiqarish masalasida? — Zohid Oysanamga tikilib qaradi. — Birov chiqaraman, deb va'da qiluvdi-mi?

— Yo'q... — Oysanam bir oz taraddudlanib, qo'lidagi kirish ruxsatnomasini buklay boshladi. Keyin o'ziga tikilib turgan ko'zlarga qarab olgach, siniqroq ovozda maqsadini bayon qildi: — Oradan necha oy o'tyapti. Gunohlari bo'lsa, bo'yinlariga qo'yib qamavormaysizlarmi? U yoqda akam azobdalar, bu yoqda bolalari ezilib ketishdi.

Oysanam «gaplarim ta'sir etyaptimi?» deganday yana bir qarab oldi. Bu safar nigohi tikilib turgan ko'zlarga to'qnashmadi. Zohid «mayli, qancha gapi bo'lsa gapirib olsin», degan maqsadda undan ko'zlarini uzib, stoli ustidagi qog'ozlarga tikilib o'tirardi. Bundan picha quvvatlangan Oysanam gaplarini dadilroq davom etdi:

— Uyimga borganingizda ham aytganman: akamda ayb yo'q. Asli... peshonamiz sho'r bizning. Hamisha har xil balolar izimizdan quvib yuradi. Dadam rahmatli ishxonalarida bir palakat bilan majruh bo'lib qoluvdilar. Oyim bechora bizlarni ming-ming azoblar bilan boqib katta qildilar. Yashayotgan uyimga qarab, menga baho bermang. Biz kambag'allikda, mehnat bilan, it azobida katta bo'lganmiz. Akamning uylarini borib ko'rdingizmi?

Zohid bosh chayqab, «Borganimcha yo'q», dedi.

— Borib ko'ring: ikki uy bir daxlizda olti bolasi bilan o'tiradi. Kennayim kutubxonada ishlaydilar. To'qson so'm maosh bilan olti bolaning qornini o'ylasinlarmi yo ust-boshiga qarasinlarmi? Kecha borsam... yig'lab o'tiribdilar. Boqchada bir tadbir bor ekan, shirinlik pishirib kelishni so'rashibdi. Maktabga esa, bo'yoqqa pul berishlari kerak ekan. Men bu azoblarni aytaversam, bunaqa gaplarni atorning qutisidan ham topa olmaysiz... Siz tekshirib, tagiga yetkuningizcha yana necha oy o'tarkin. Xudo xayringizni bersin, akamni qo'yib yuboring. Ishlab, bolalarini boqsinlar, hech qayoqqa qochib ketmaydilar. Axir tilxat olib, keyin chiqarasizlar-ku, bolalariga rahmingiz kelsin.

«Attorning qutisidagi gaplar» tugadi shekilli. Oysanam yengil xo'rsingach, jim bo'ldi.

Bu kabi xasratlar barcha tergovchilar qatorida Zohid uchun ham yangilik emas.

Birovning sho'rini quritishdan avval hech kim bechoraxol bo'lmaydi. Qo'lga tushib, gamalgach, uning «hayotda ezilgani», ko'p «g'urbat chekkani» «ma'lum bo'lib qoladi». Bunday hasratlarni eshitgan odam jabrlanuvchiga emas, balki zulm qilganga achinishi kerak bo'lib qoladi. «Ha, endi o'lgan o'lib ketdi, bu odamni qamaganingiz bilan murda tirilib qaytib kelarmidi», «Ha, endi bir yoshlik qilib, o'g'irlikka tushibdi-da, narsalarini qaytarib berdi, rahm qila qoling», «Tergovchi uka, bu ham yigitchilikdan-da, bir tepib,

ikkitagina musht urganga ham shunchami? Yorilgan joyi bitib ketibdi, siz ham «ish»- ni yamab qo'ya qoling» — xasratlarning so'nggida ochiq aytilmasa-da, shu kabi iltimoslar yashiringan bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, mazkur «Ish» «bir yoqlik qilingach», «suyunchisi» kutib turgani ham qistirib o'tiladi. Keyin esa... «Shu arzimagan ishni yopdi-yopdi qilib yuborsa ham bo'lardi, tergovchi o'lgurda rahm-shafqat degan narsa yo'q ekan», deb hukm chiqariladi. «Arzimagan ish» tufayli necha kishining jabr tortgani esa tarozi pallasiga qo'yilmaydi.

Uyida xushlamaygina gaplashgan Oysanam o'zgalardan farqli o'laroq, talabini ochiq ayta qoldi. O'sha kuni osmonda edi, ovozlari baland pardada edi, bugun nechun yerga tushdi, nechun hazin ohangda gapiryapti? Nahot kelin ayasining ko'z yoshlari unga bunchalik qattiq ta'sir etdi ekan? Eri qamalganidan beri u ayol xasratlarini endi bayon qilibdimi? Balki erining topgan-to'plaganlarini yeb ado qilgach, ko'zlariga yosh keldimi? Zohidni bu kabi savollar uncha qiynamadi, chunki Oysanamning ko'z yoshlar ta'sirida emas, kimningdir da'vatiga ko'ra kelganiga ko'proq ishonardi. Bunaqa hollarda maslahatchilar ko'p bo'lishini bilgani uchun «Uni huzurimga kim yubordi?» degan muammoga javob izlash ham Zohid uchun aytarli ahamiyatli emasdi. U Oysanamning o'z oyog'i bilan kirib kelganidan foydalanib, kechagi so'roq paytida eshitgan ma'lumotlarini solishtirib, tekshirib olish payida edi.

«Attorning qutisida yo'q gaplar»ning tugab qolgani Zohidni so'roqni boshlashga da'vat etdi.

— Opa, u voqeaga sakkiz oy bo'lyapti. Ko'p narsalar xayolingizdan ko'tarilgandir. Ba'zi narsalarni so'rasamu eslolmasangiz, hijolat bo'lmang, — dedi Zohid mehrlil ohangda. U «samimiy tarzda gapirsam, ayolning ko'ngli yumshab, ko'proq gap olarman», deb yanglishdi. Oysanam birgina shirin so'zga ko'ngli iyib ketadigan toifadan emasdi. Bolaligidagi qiyinchiliklar uni to muddaoga yetmagunicha suv kelsa simirishga, tosh kelsa kemirishga o'rgatgan edi.

Bu xonadagi ayni holatning ajablanarli yeri shunda ediki, tergovchi bo'lmish Zohid ro'parada o'tirgan xushsurat ayolning, huquqshunoslik tili bilan aytilganda hozircha jabrlanuvchi va qisman guvohning ko'ngli yumshashidan umidvor edi.

Yoshlik go'zalligi bilan vidolashishni istamayotgan Oysanam esa, Zohiddan farqsiz o'laroq, qarshisidagi «g'o'r» tergovchining ko'ngli yumshashi oqibatida talabini amalga oshirish umidi bilan o'tirardi. Zohidning gaplarini eshitgach:

— So'roqlaringizga to'ppa-to'g'ri javob beraman. Ke-yin akamni chiqarib yuborasizmi? — deb so'radi.

Zohid «O'zimning ham shunday niyatim bor edi, ammo, akangizning qamoqda o'tirgani o'zi uchun foydali. Balki unda birovning qasdi bordir, balki eringizning qotili akangizni ham daf qilar?» deb niyatini oshkor qilishdan o'zini tiydi. Ayolga tikilib turib, istehzoli jilmaydi-da:

— Opa, bunaqa oldi-berdi bozorda bo'ladi. Bu yer prokuratura, — deb ayolning popugini sal pasaytirgach, so'roqni boshladi: — Akangiz eringizning yo'qolgani haqidagi xabarni sizga qay vaqtda aytdilar? Taxminan peshin paytlari edimi?

— Yo'q, kech kiruvdi. Soat o'ntakam to'qqiz edi.

Oysanamning o'ylab o'tirmay aniq javob qaytarishi Zohidning e'tiboridan chetda qolmadi.

— Demak, yigirmayu ellik. Shu aniqmi? — deb so'radi ayoldan ko'zlarini uzmay.

— Aniq. O'g'lim Maskovdan beriladigan «Xayrli tun»ni yaxshi ko'radi. Stepashka bilan cho'chqachaning gaplari tamom bo'lib, multfilm boshlanganida akam kirib keluvdilar. «To'g'ri», — deb o'yladi Zohid, Eshpo'latovning so'roqdagi javobini eslab. Eshpo'latov uyga kirib kelganida singlisi bilan jiyanining multfilm ko'rib o'tirishganini aytgan edi. Har

ikki javobning bu qadar bir-biriga aniq mos kelishi Zohid uchun muhim bir ilgak kabi tuyuldi.

— Eringiz ertalab ishga bormagan, o'ynashinikida ham yo'q, — Zohid bu safar dangaliga «o'ynashi» de- di-yu, gapi qanday ta'sir etishini bilmoq uchun bir nafas sukut qildi.

«O'ynash» degan so'zdan Oysanam g'ashlanmagach, Zohid gapini davom ettirdi: — Akangiz bu orada uyingizga bir kelib ketmadilarmi?

— Kelib-ketdilar, lekin indamadilar.

— «Nega bir o'zingiz keldingiz, erim qani, kechasi ham kelmadi», deb so'ramadingizmi?

— So'rab nima qilaman? Akam yo'llari tushsa choy-poy ichgani kirib turardilar. Erimning ulfatlari ko'p. Ko'pincha tongotar o'tirishadi. Kelmay qolishlariga ko'nikib ketganman.

— Faqat ulfatlarinikida qolarmidilar?

— Maqsadingizni ochiqroq aytavering: o'ynashi demoqchimisiz?

— O'ynashlari borligini bilarmidingiz?

— Bilardim, lekin boshqalarga o'xshab kuyib-yonmasdim. Xudo insof bersin, derdim.

— Ko'nglingiz keng ekan.

— Keng bo'ldi nima-yu, tor bo'ldi nima? Unisi ham bir balo, bunisi ham. Hozir o'ynash tutmaydigan erkak bormi o'zi?

— Agar dunyoga sizning ko'zlaringiz bilan qaralsa, yo'qdir?

— Keling, bu haqda gaplashmaylik, — dedi Oysanam qo'l siltab. — Men institutlarda

o'qimasam ham, hayotning har qanaqa darslarini ko'rganman. Siz «meni eringizga o'xshatmang, o'ynashim yo'q», demoqchisiz-da, a? To'g'ri, hozir yo'qdur. Hozir yoshsiz. Er-xotin bir-birlaringizning jonlaringizga tekkaningiz yo'q. Yana besh-o'n yildan keyin har qanday suluv xotin ham eri uchun «puf sassiq» bo'lib qoladi. Ko'ngil yangisini tusayveradi. Xotinidan besh battar isqirtroq bo'lsa ham mayli, yangisi topilsa bas! Siz bilan o'shanda gaplashaman, uka.

— Keling opa, bu haqda hozir ham, besh-o'n yildan keyin ham gaplashmaylik. Shu topda ikkalamiz hal qilib oladigan boshqa muhimroq muammo bor. Demak, akangiz

kelganlarida o'g'lingiz bilan televizor ko'ryatuvdingiz, a? Qaysi multfilm edi, esingizdami?

— Multfilmni erimning o'limiga nima aloqasi bor? — dedi Oysanam norozi ohangda.

— Qanday aloqasi borligini keyinroq aytaman sizga. Hozir esa eslashga harakat qiling. — Zohid «bu xonaning egasi menman, savol berdimmi, demak, javob olishim shart», deganday stol ustiga ikki-uch chert-di. Oysanam uning barmoqlariga qarab qo'ydi-da, so'ng nigohini deraza osha tashqariga qadadi.

— «Senimi, shoshmay tur!» emasmidi? — deb yordam bermoqchi bo'ldi Zohid.

— Yo'q, u emasdi. Ha, «Vinni Pux» edi. Akam kirib kelganlarida o'g'lim «Ana, Vinni Pux tog'am keldilar», deb, mendan quloq cho'zma yevdi.

«Bunchalar aniqlik! Bunchalar xotira! Erining yo'qolgani haqidagi tashvishli xabar, so'ng o'likning suvdan topilgani... bu g'am-alamlar ham xotiraga ta'sir etmabdi-da? Xo'p, buning-ku o'g'li «Vinni Pux tog'am keldilar» degan ekan, Eshpo'latov-chi? U multfilmni nega eslab qoldi?» Zohid shu o'rinda kalavanning bir uchini topganday ko'ngli yorishib, savol-javobni shu mavzu atrofida davom ettirdi:

— Multfilmni oxirigacha ko'rdingizmi?

— Men choy damlagani turdim. O'g'lim tog'asi bilan birga o'tirib ko'rdi.

— Demak, akangiz xavotirlarini sizga darrov bildirmaganlar?

— Shunaqa bo'ldi. Meni qo'rqib ketmasin, degandirlar. Bir piyola choyni sovutib ichib, keyin aytdilar.

— Nima deganlari esingizdami?

— «Ering yo'qolib qolganga o'xshaydi, nima qilamiz, milisaga xabar beramizmi?» dedilar.

— Siz nima dedingiz?

— Nima derdim, yuragim shuv etib ketdi. Qo'llarim qaltirab, gapirolmay qoldim. O'zi ertalabdan ko'nglim g'ash edi.

— Demak, sal o'zingizga kelvolib, so'ng militsiyaga xabar qildinglarmi?

— Yo'q, avvaliga o'rtoqlarini chaqirtirdim. Bolalikdan birga katta bo'lgan og'aynilari bor, menga ishonmagan sirlarini ham o'sha kishiga aytardilar.

— Tolmas Xayrievmi?

— Ha, bularni oldingi tergovchiga ham aytganman.

— Bilaman.

Shu payt eshik ochilib, ostonada Hamdam Tolipov ko'rindi. «Ie, band ekansan-ku, chiqib turaymi, nima qilay?» deganday Zohidga savol nazari bilan qaradi. Xona sohibidan bir ishorat bo'lmagach, «gaplari zarurmasdir», degan fikrda ichkari kirdi-da: «Qalaysan, o'rtoq prokuror!» deb so'rashdi. So'ng ziyrak nigohini Oysanamga qadab, u bilan ham salomlashdi. Zohid Hamdamning hech bir lutsiz to'g'ri kirib kelaverishiga ko'nikib qolgani uchun unga «sabr qiling», deb ishora qilmagan edi. So'roqni uning ishtirokida davom ettirgisi kelmay, Oysanamning qo'lidan ruxsatnomani olib, imzo chekdi-da:

— Bir-ikki kundan so'ng yana uchrashamiz, — dedi.

Oysanam suhbatning bu qadar kutilmagan tarzda uzilishiga sababchi bo'lgan Hamdamga norozi qiyofada bir qarab oldi-da, ilojisiz ravishda o'rnidan turdi. So'ng:

— Akamni qachon chiqarasiz? — deb so'radi.

— Vaqti kelganda aytamiz.

Bu gap Oysanamga yoqmadi, shart burildi-yu, «xayr» ham demasdan xonadan chiqdi.

— Kim bo'ldi bu xonim, dimog'iga kuya pashsha o'tirib ketgan-ku, a?

Zohid uning kimligini aytgach, Hamda Tolipov uzun hushtak chalib qo'ydi-da:

— Nega hushtak chalganimni bildingmi? — deb so'radi.

— Bilmadim, — dedi Zohid qog'ozlarini tortmaga sola turib.

— Bir odam «hamma narsaga qodirman», deb maqtanganida Afandi shunaqa hushtak chalib, «shu hushtagimga to'rtta tugma qadab ber-chi», degan ekan. Sen yana hushtakka tugma qadamoqchimisani?

— Kinoyangizga tushunmadim?

— Kinoya emas, bo'ladigan gap bu. Yana asadbeklarning obreziga burningni tiqmoqchimisani?

— Har holda tekshirib ko'rish kerak.

— Mirkarimovning o'lganiga yarim yilcha bo'ldi shekilli, a?

— Sakkiz oy, — deb aniqlik kiritdi Zohid.

— Ana, sakkiz oy! Ilyosov ishni bekorga cho'zmaydi. Senam cho'zaver, boshingni og'ritma.

— E, aka, og'rib turmaydigan boshning kimga keragi bor. Ochig'ini aytsam, bu safar Asadbekning ko'chasiga qarab yurmayman.

— Ie, nechuk?

— Mirkarimovning asadbeklar bilan bog'liqligi bor. Yana bir tomoni Hosilboyvachcha. Lekin Mirkarimovni ularning odamlari o'ldirmagandir, deb turibman.

Hamdam yana bir marta istehzo bilan «Nechuk?» deb qo'yib undan izoh kutdi.

— Kecha o'likni yorib ko'rgan ekspert bilan gaplashgandim. Mirkarimov o'ldirilib darrov suvga tashlanmagan, bir-ikki kun yerga ko'milib qo'yilgan, deb taxmin qilyapti.

— Taxmin qilyapti? Nima, anig'ini bilmas ekanmi?

— Aniq bir qarorga kelolmagani uchun xulosaga yozmagan ekan.

— Obbo... anig'ini bilolmasa o'likni tamosha qilish uchun yoribdimi? — Hamdam shunday deb o'ylanib turdi-da, keyin gapini davom ettirdi: — Unda bir ish qilasan. Xo'jayinlarning

nimasi ko'p, majlislari ko'p. Kunda bir-ikki majlisni ovlashmasa yeganlari ichlariga tushmaydi. Mirkarimovning yo'qolgani haqida qachon xabar berilgan?

— O'n to'qqizinchida.

— Demak, sen o'n beshinchidan to o'n to'qqizgacha bo'lgan majlis axborotlarini titib chiq. Qaysi kundan boshlab majlislarda yo'q bo'lganini bilsang, kalavaning uchini topasan. Keyin mijg'ovlanib, ezilaverma. Senga ming marta aytganman: masalani shartta-shartta hal qil. Bitta-yarimtaning burni qonasa hech nima qilmaydi. Mana, kechagi ishim: yigirma sakkiz yashar yigit boshini devorga uraverib o'lib qolganmish. Afg'onda yaralangani uchun bir xil paytda o'zini bilmay qolarkan. O'likni yoradiganlaring shunaqa xulosa yozib berishibdi. O'likning otasi ham, xotini ham «ichvolib boshini devorga uraverdi», deb turishibdi. O'likning boshini ushlab qaragam, suyak yo'q hisob, maydalanib ketgan. Shunaqa bo'lishi mumkinmi?

— Qattiqroq urgandagina bo'lsa...

— Yo'-o'q... — Hamdam o'zining topqirligidan o'zi mast bo'lib, quvlik bilan kuldi. — Qattiq urganda ham, bitta yoki ikkitada hushidan ketadi. Suyak maydalanib, joni chiqqunicha uravermaydi. Xo'sh, men nima qildim? Shartta xotinini chaqirdimu qamab qo'ydim, homiladorligiga ham qaramadim.

— Shunaqa ishlaringiz bir kunmas bir kun...

Hamdam Zohidning gapini bo'ldi:

— Boshimni yeydimi? Men bir narsaning isini sezmasam, qoidadan chiqmayman. Senga o'xshab savol-javob qilib o'tirsam, ish bitmas edi. Xotinga bir kecha yetarli bo'ldi: ertalab hammasini aytdi: ota-bola orasida urush chiqib, o'g'il otaga hamla qilgan ekan. Ota esa tayoq olib bolasini uravergan. Endi senga maslahatim: «gumondagi shaxs» deginu bitta-ikkitasini o'tqizib qo'y. Qamoqdan o'lguday qo'rqadigan odamlar ko'p bu dunyoda. Bittasi indamasa, ikkinchisi albatta gullaydi.

Zohid bunga o'xshash nasihatlarini avval ham yetarli ravishda eshitgani uchun kulimsirab qo'ya qoldi. Hamdam bu kulimsirashning ma'nosini o'qib:

— Tushunarli, sening vazifang — qamash emas, balki adolat tantanasi! — deb qo'ydi.

So'ng unga savol nazari bilan qaradi: — Kecha oqsoqolni ko'rgani bormabsan-ku? Kecha telefonda gaplashganlarida Zohid mayor Solievni yo'qlab bormoqchiligini aytgan, Hamdam esa bosh qashishga ham vaqti yo'qligini bildirgan edi. Aksiga olib, Zohidning ekspertizaga oid ishlari cho'zilib, kasalxonaga borolmadi. Zohid shu sabab tufayli borolmaganini uzr ohangida aytdi-da:

— O'zingiz o'tganga o'xshaysiz? — deb so'radi.

— O'tdim. Oqsoqolning kayfiyati chatoq, — dedi Hamdam. — Endi ishga qaytolmasligidan siqilyapti. Bu ham mayli, — Hamdam shunday deb chalishtirib o'tirgan oyoqlari o'rnini almashtirdi, — ustozing «Qassob»ga achinyapti. Indamasam, ko'z yoshi qiladigan. Yurak qolmabdi oqsoqolda.

— Qo'ysangiz-chi, ba'zan oshirib yuborasiz.

— Oshirayotganim yo'q. «Yomon o'lim topdi», deydi. «Hayot uni jinoyat ko'chasiga kirishga majbur qilgan», deydi. Qassobning onasi fohisha bo'lgan ekan, bolaligida ko'p ruhiy azoblar tortgan ekan...

— Maqsud akaning gaplarida jon bor. Ko'p jinoyatlarning ildizini aynan bolalikdan izlash kerak. Hayotdan zada bo'lgan bolaning jinoyatga kirishi oson. Lekin tergovda ham, hukm chiqarishda ham bu sabablar, bu ruhiy holatlar hisobga olinmaydi. Hukm uchun jinoyatning o'zi muhim.

— Ana endi o'zing oshirvording. Sening shu olimliging o'zingni qiynaydi. Hayot deysan, a? Nima, dunyo-dagi hamma fohishalarning o'g'illari ulg'ayganida xotinlarni o'ldirib, go'shtidan chuchvara tugib yeb yurishibdimi? Ertaga Mirkarimovning qotilini topgin-



da, keyin «buni hayot majbur qilgan», deb qo'yib yubor. Menam cholning pattasini qo'lga berib qo'ya qolay. Har holda uni ham hayot majbur qilgan.

— Hamdam aka, gapimni to'g'ri tushunmadingiz?

— To'ppa-to'g'ri tushundim, og'ayni. Men uchun ikki odam bor: jinoyatchi va jabrlanuvchi. Orada hech qanaqa hayot yo'q. Agar menga qo'yib berishsa, Mirkarimovingning qotilini qidirib, ovora bo'lib yurmas edim. Nimagaligini bilasanmi?

— Taxminan bilaman.

— Taxminani hisobmas. Sen qotilni topginu ke-yin Mirkarimovni tiriltirgin-da, «O'ringizda qotilingiz yota turadi», degin-chi? Senga rahmat ham demay, ablaxligini kelgan joyidan davom ettiraveradi. Sen qilayotgan ishimizning jamiyatga foydasini gapirishini yoqtirasan. Xo'p, bir ablahning qotilini topishdan qanday naf bor?

— Nima uchun uni ablah deyapsiz?

— Asadbekning nushxo'rdini yalab yurgan odam yaxshi bo'lmaydi. Unga birov qasd qilmagan, uning o'zi o'limini sotib olgan. Nushxo'rdga qanoat qilmay, dasturxondagi laganga qo'l uzatib bo'kkan u.

— Yaxshi taxmin aytdingiz, o'ylab ko'rish kerak.

— O'yla, prokuror. Sen olim bolasan, o'ylamasang hisobmas. — Hamdam shunday deb soatiga qarab olgach, o'rnidan turdi. — Prokuror, bir soat vaqtim bor. Xohlasang, mishmishxonamga o'tib, lag'monxo'rlik qilaylik. Menga atalgan gaplaringni o'sha yerda aytarsan. Keyin men ishimga ketaman, sen esa... — Hamdam istehzo bilan kuldi: — o'ylab o'tiraverasan.

Zohidga bu reja ma'qul keldi.

Lag'monxo'rlik xush yoqib, Hamdam Tolipov Zohid uchun ajratgan bir soatiga yana o'ttiz daqiqa qo'shdi. Har narsada tartibni ma'qul ko'ruvchi Zohidning soatga qarab qo'yganini sezgan Hamdam, yana choy buyurgach:

— Ishga men shoshyapman, sen nega soatingga qarayapsan? — deb so'radi.

— Sizni birov kutayotgan bo'lsa...

— Kutayotgan bo'lsa, kutaveradi, sen tashvishlanma. Hozir borib chol bilan kelinni yuzlashtiradiganman. Mayli, bir oz yuraklari siqila tursin.

— Shu odatingiz hali ham qolmabdi-da, a?

— Qaysi odatim? — dedi Hamdam. — Betartibligimmi?

— Ha.

— Bu odat emas, prokuror, bu — qo'ndoqda tekkan kasal. Bitta odam aytib ketgan ekan: «Yoshlikda odat qilsang — qariguningcha ko'nikasan, qariganingda odat qilsang — ko'nikkuningcha ko'milasan.» Zo'r gap ekanmi? Shunaqa, og'ayni, hali yoshmiz, qarigunimizcha aqlimiz kirib qolar. Qariganda ham quyilmasam, buning dorisi bor: go'rimga olib ketaman. Ih, esdan chiqay debdi-ku, ertalab bo'shmisan?

— Ha, nima edi?

— Bugun yarim kechadan boshlab ochlarning yurishi boshlanadi. Mahmud Ehsonovingning eson-omon ko'milganiga o'n to'qqiz kun to'lishi munosabati bilan katta tantanalar bo'ladi. Qo'rqma, osh bizga ham yetadi, kamida uch-to'rt yuz kilo guruch damlanar, borasanmi?

— Yo'q, — Zohid o'ylab o'tirmay rad javobini aytdi-da, so'ng hazil tariqasida izoh berdi:

— qornim to'q.

— Meniki ham to'q. Lekin men oshxo'rlikka emas, tamoshaga boraman. Bormasam yegan lag'monimni hazm qilolmayman.

Oshxona xizmatchisi damlab kelgan choydan bir piyoladan ichishgach, qo'zg'olishdi. Hamdam yo'lovchi mashina to'xtatib, ketdi. Zohid esa piyoda yurgisi keldi. Kechagi izg'irindan so'ng kun birdan ilib, fasllar kurashida endi bahorning qo'li baland kelganidan

dalolat bergan edi.

Zohid adolat xususida fikr yuritguday bo'lsa, bahor faslini ko'z oldiga keltiradi. «Bahor ham, adolat ham beqaror, — deb o'ylaydi u. — Ularni intiqib kutasan, endi ko'z quvonib, ko'ngil yashnagan paytda ikkovi ham odam zotiga xoinlik qiladi».

Zohidning bunday fikr qilishi bejiz emas. Bahor o'z o'rnini jazirama yozga bo'shatgani kabi adolat ham chekinib, nohaqlik ro'parasida ojiz bo'lib qoladi. Bahor bilan adolatning faqat ramziy ma'nodagina o'xshashligi mavjud. Aslida esa bahorning kelib-ketishi inson hukmida, yoki istagida emas, tabiatning o'zgarmas qonuni ekanini hamma biladi.

Bahordan farqli o'laroq, adolat tabiat hukmida emas, balki u inson aql-idroki, irodasi, maqsadi yo'lidagi xatti-harakatiga bog'liq. Inson bolalari istasalar adolat qiladilar, istamasalar — yo'q. Adolatga yetganlarida suyunadilar, nohaqlik jariga qulasalar faryod chekadilar. Kechagi quvonchlarini unutib, «bu dunyoda adolat yo'q!» deb nolalar qiladilar. Shunday onda «Birodar, nohaqlik jari labida o'zingiz yurdingiz, o'zingiz toydingiz, o'zingiz quladingiz. «To'g'ri yo'ldan yuring», deyilsa «menga shunisi ma'qul» dedingiz. Hadeb jar yoqasida yuradigan kimsa har qancha ziyrak, har qancha tiyrak, chaqqon bo'lmasin, bir kunmas bir kun baribir qulaydi...» deb ko'ring-chi? Zohid bular haqida ko'p fikr yuritgan. Jinoyat qilib qo'yib, aybini bo'yniga olmay «Men tuhmatga qoldim», deb zorlanuvchilarni ko'rganida ularga jar yoqasida yurmoqning xavfli ekanini tushuntirmoqchi ham bo'lgan. Keyinchalik esa bu harakatidan natija chiqmasligini bilib, bas qilgan edi.

Bahorning xush yoquvchi havosidan ko'ngli yorishgan Zohid hozir bularni o'ylamas, xayoli Hamdam Tolipovning taklifi bilan band edi. Garchi «qornim to'q», deb taklifni rad etsa-da, ma'arakani bir tamosha qilgisi keldi. «Har holda Asadbek akalik maqomida turib mehmonlarni kutsa kerak, — deb o'yladi u. — Asadbek tanigan-tanimagan, ma'arakaga taklif etilgan-etilmagan necha yuz to'q odam ta'zim qilib keladi. Bularning orasida qanchasi umrida Mahmud Ehsonovni bir marta ham ko'rmagan. Lekin oshga kelaveradi. «Osh yegani keldim», demaydi, «marhumning hurmati», deydi. Aslida shu oshni yemasa ochdan o'lmaydi. Maqsad — osh yeyish emas, balki Bek akalariga bir ko'rinish berib qo'yish. Gapdan gap chiqsa, bu niyatni ham tan olmaydilar. «Marhumning hurmati» deb tirjayib turaveradilar. Qiziq, marhumning hurmatini osh belgilaydimi? Uch yuz kilo guruch damlansa — o'likning hurmatiga gap yo'q! Yuz kilo damlansa hurmat sal mundayroq, ellik-o'ttizda esa shunga yarasha. «Yigirma oshi» berilmasa marhumning hurmati umuman yo'q bo'ladimi?.. Akam o'lganlarida o'n besh kilo guruch damlab osh damlaganidik. Demak, hurmat ham salkam nol ekanda?..»

Bu fikr Zohidning o'ziga malol kelib, peshonasini tirishtirdi. Yurishdan to'xtadi.

Esida bor, akasining janozasini o'qishdan oldin imom bir oz ma'ruza qilib, «Islomda yigirma, qirq, yil oshi degan gaplar yo'q, bid'atlardan qochingizlar», deb ogohlantirdi. Har narsaga rozi bo'laveradigan otasi bu da'vatga ham ko'ndi. Ammo tog'asi «Voy pochcha, guvala ko'mganimiz yo'q-ku, chog'ingiz kelmasa men beray oshni», deb g'ashga tekkach, mahalla bilan maslahatlashib, o'n besh kilo osh damlatgan edi. «Sabzi to'g'rash» degan marosimga kelgan imomni ko'rib Zohid «O'sha kuni shunchaki bir gapirib qo'ygan ekan-da», deb o'yladi. Ammo imom uzatilgan choyni olmagach, gapiga diqqat bilan quloq tutgan edi. «Birodar, imomning gapini olmas ekansiz, nima qilardingiz janoza o'qitib?»

Bu gapni eshitib otasining rangi oqarib ketgan, Zohidning badanida ham g'alati titroq uyg'ongan edi.

«Biz bilib aytamiz, bilmasak, salla-choponni sizga o'xshagan «dono»larga topshirib, yelkaga ketmonimizni tashlab jo'navoramiz. Beradurgan oshingizning mar-humga nafi bormi? Nafi bo'lsa mayli, o'n besh emas, yuz ellik kilo guruch damlang. «Ehson qilish

kerak», deb o'rgatishgan-da, sizga? Ehsan, birodar, nochorlarga qilinadi. To'q odamlarga emas. Agar ertaga nochor, choponi yirtiq odam kelsa, unga «to'xta, avval bu to'qlar to'yib olishsin», deysiz. Yo demaysizmi? Nochorga yoki gadoga sarqitni berasiz. Shumi, sizning ehsoningiz?»

O'shanda imom shu gaplar bilan kifoyalaniib, chiqib ketgan edi. Oz gapirsa ham yurakni tilib, tuz sepib qo'yganday bo'lgandi. Ko'p og'ir gaplarni ichiga yutuvchi otasi bu malomatni hazm qila olmay, chuqur «uf» tort-gandan keyin xo'rsinib: «Buning gapiga kirsam bir balo, kirmasam yana bir balo» deb qo'ygandi.

Akasining o'sha ma'rakasida Zohidga juda qattiq ta'sir qilgan yana bir voqea yuz bergandi. Zohid u damda o'lim larzasidan qutilmagan, butun borlig'iyu ruhi karaxt holatida edi. Imomning aytgan gaplarini, ma'raka qilish shartmi yo lozim emasmi degan muammoni hazm qilmay turib, ertalab...

Ma'raka oshiga kelayotganlar orasida qotillarning otalari, akalarini ko'rib avval hayratdan dong qotdi. So'ng dod deb yuboray dedi. Dadasiga qaragan edi, u «jim bo'l, o'zingni bos», degan ma'noda labini qimtib qo'ydi. «Bu qanaqasi o'zi, uyalmay-netmay osh yegani kelishyaptimi? Tomoqlaridan ovqat qanday o'tadi?» degan o'yda ularning izidan hovliga kirib osh oshashlarini ko'rmoqchi bo'lgan edi. O'shanda otasining ta'qib etuvchi nigohiga bo'ysunmay ichkariga kirganida ularning nomigagina non tishlab, oshdan bir cho'qimgina yeganlarini ko'rgan bo'lardi. Ana o'shanda ularga naqadar og'ir ekanini tushunardi. Ularning ne hijolatlar bilan bu xonadonga yaqinlashganlari Zohidga noma'lum edi. Yaxshiki, Zohidning otasi vazmin tabiatli odam. Agar o'zini tutolmay «Senlarning o'g'illaring mening o'g'limni o'ldirdi», deb la'natlay boshlaganida, unga Zohid qo'shilganida nima qila olishardi, boshlarini ham qilib izlariga qaytishdan o'zga chora topa olarmidilar? «Mingdan ming rozimiz, ana o'g'illarimizni o'z qo'lingiz bilan o'ldiring, xun oling, xumordan chiqing», deganlarida ham malomatdan qutula olmas edilar-ku?

O'sha manzara ko'zi oldiga kelgach, Zohid Hamdamga qo'shilib ertalab beriladigan oshga borishni istab qoldi. Chuvrindining fojiasi sababini aniq bilmasa ham, «qasddan o'ldirilgan», degan taxminda yurgan Zohidning nazarida nahorgi oshga qotil ham keladiganday edi. Ha, buyurtmachi emas, aynan qotilning o'zi! Balki... aksi bo'lar, qotil emas, buyurtmachilar savlat to'kib kelishar? Tumonat odamlar orasida ularni ajratib olish mumkinmikin?

Mirkarimovning «yigirma oshi» ham shunday bo'lgandir? Birovlarning qo'llaridan ajal topgan boshqalarning ham, endi o'lim topadiganlarning ham ma'raka oshlari aynan shunday bo'lar?.. Qotillar qonga belangan panjalari bilan osh oshab, so'ng oshpazga tasannolar aytib, tishlarini kavlab, kekirib chiqishar?...

Dunyoning mana shu muammolarini yechishga Zohidning aqli qosirlik qilardi.

## 2

Ostonada kutib olgan xotini «Qaerlarda yuribsiz, ustozingiz ikki soatdan beri kutib o'tiribdilar», dedi. Bu gapni eshitgan Zohid mayor Solievni ko'z oldiga keltirib «Kasalxonadan chiqibdilarmi?» deb o'yladi. O'rta xonaga o'tib divanda o'tirgan Habib Sattorovni ko'rdi-yu, avval bir oz ajablendi: ko'pdan beri ko'rishmagan ustozining tashrifini u sira kutmagan edi. Habib Sattorov uning taajjubini sezib, kulimsiradi-da: — Teskari zamon hozir, azizim, kichiklarni ziyorat qilish kattalarga lozim qolgan, — deb ko'rishdi.

Zohid aybdor ekanini tan olib, «ishlar ko'p» degan ma'nodagi uzrini aytmoqchi edi, Habib Sattorov gapirtirmadi:

— Tushunaman, sendan gina qilmayman. O'g'ri-muttahamlar ko'payib boraversa sen bilan uchrashish tobora qiyinlashaveradi. Qara-ya, bu yerda ham matematik yechim bor. Zohid ustozining ro'parasiga o'tirgach, xotini choyni yangilab keldi-da «kutaverib lanj bo'lib ketgan palovni» olib kirishga ruxsat so'radi.

Osh chindan ham lanj bo'lgani sababli ko'p yeyilmadi.

— Ishdan bo'shaganimni bilasan, — dedi Habib Sattorov qoshiqni chetga surib.

— Maskovga ketib qoldingizmikin, devdim, — Zohid shunday deb o'rnidan turdi-da, laganni olib, ostonada paydo bo'lgan xotiniga uzatdi. Habib Sattorov xotinning «voy, yemabsizlarga, domla», degan lutfiga e'tibor bermay:

— Shunaqa fikr ham tug'ilgan edi. Keyin bu kalladagi formulalarini nari surdim-da, odamga o'xshab o'yladim, — dedi, so'ng kulimsirab davom etdi: — Ha, olimlik libosidan chiqib, besh daqiqa rosmana odamga aylandimu o'yladim. Kimga o'xshab o'yladim, bilasanmi? Ukamga o'xshab fikr yuritdim. Rahmatli meni ko'p tanqid qilardi. «Hayot faqat ilmdan, formulalardan iborat emas», dedi. Shunaqa derdi-yu, lekin jinnixonada yotganida o'zi hayot formulasini kashf qilibdi. Senga aytganmidim?

— Haqiqat nolga tengmi?

— Qoyilman, esingda ekan. Lekin bu aksioma emas, bu... shunchaki uning taxmini. Men badbin odamning taxmini deganman. Mening institutdan haydalisim haqiqat nolga tengligining isboti emas. Hatto ukamning o'limi ham formulasining to'g'riligini anglamaydi. Bular — kichik shaxsiy fojialar sanaladi. Haqiqat esa oliy tushuncha.

— Atom zarralarining birlashishi-chi?

— Sen bunaqa chuqurlashma. Sen mening arazlab Moskvaga ketib qolishimga ishongansan, yana boshqa odamlar ham ishonishgan. Lekin men o'yladim: «Sen kimsan?» deb o'zimga o'zim savol berdim. «Seni kim o'qitib, odam qildi? Kim qorningni to'yg'azdi? Dalada zaharli tuproq yalab mehnat qilayotgan dehqonning hisobidan o'qib, shu darajaga yetding. Nega endi to'plagan bilimingni o'sha dehqonning farzandiga emas, Moskvadagi yoki Londondagi bir ta'viyaga berishing kerak?» dedim. Ha, gaplarimdan gazetaning hidi kelyaptimi? Yo'q, sen bunaqa ajablanma. Men rostdan ham shunday o'yladim. O'yladim-da, ro'paramga bir masala qo'yib, uni yechdim. Buning uchun eng avval o'zim o'qigan maktabga bordim. Matematika, fizika muallimlari shu darajada qoloqki, yig'lab yuboray dedim, ishon. Men o'qigan davrdagi saviya qanday bo'lsa, o'zgarishsiz turibdi. Hatto, nazarimda saviya nolga qarab og'ganday tuyuldi. Qara, yana zamonga nisbatan teskari proportsionallik. Fan rivoji qay darajadayu, maktabdagi saviya qanday tubanlikda. Bolalar Bernullini yoki Eynshteynni bilmasa chidash mumkindir. Lekin Xorazmiyni bilmaydi, Farg'oniyni nomini umuman eshitishmagan. Maktabda o'qiyotganimda men ham shunday edim. Bolalarim ham shunday bo'lsa, nabiralarim ham shu tubanlikda qolaversa, Londonga borib ma'ruza o'qiganimdan nima foyda? Yana qancha avlod chala ilmga qanoat qiladi? Xullas, shu tariqa men masalaning eng to'g'ri yechimini topdim. Qanday, deb so'ramaysanmi? Mening darslarimda savolga tutishni yaxshi ko'rarding-ku?

— Savol beraman, avval masalaning mohiyatini tushunib olay.

— Mohiyatni tushunish qiyin emas. Ozgina tuyg'u bo'lsa kifoya ekan. Bilmadim, bu tuyg'u menda qaydan paydo bo'ldiykin? Yo ukam o'lib, tuyg'usi menga meros sifatida ko'chdimikin? Ruhshunoslarda shunaqa taxminlar ham bormikin, bilmaysanmi?

— Shunga yaqin gapni eshituvdim. Qaysi bir din aqidasi ko'ra odam o'lsa ruhi hayvonlarga ko'char-kan.

— E, yo'q, bu gaping o'tmaydi. Ukamning ruhi hayvonlarga ko'chadigan ruhlardan emas. Har holda o'zimga ham g'alati tuyulgan tuyg'u bilan masalani yechdim: hozir maktabda o'qituvchi bo'lib ishlayapman. Bir-ikki og'aynilarim meni hatto telbaga chiqarishdi. Nima,

fan doktori, professor maktabda ishlashi uchun jinni bo'lishi kerakmi? Bolalar menga «ustoz» deb murojaat qilishadi. Institutdagi «Habib Sattorovich» bilan «ustoz» degan so'z orasida farq bormi? Birinchisida samimiyat yo'q, a? Shirin til bilan aytilsa ham, bu shirinlikning ortida ba'zan zahar turadi. Ikkinchisi juda-juda samimiy, beg'ubor. Bu shirin tilning ortida zahar yo'q, munofiqlik yo'q. Bilasanmi, men hozir qanday ahvoldaman? Balchiqdan chiqib, yuvinib, toza havo olayotgan odamga o'xshayman. Hatto ota uyimga ko'chib keldim. Mendagi o'zgarishdan onam ham hayronlar. Faqat... maktabda ishlayotganimni u kishiga aytmaganmiz. Aytsam... — Habib Sattorovich ayyorona jilmaydi, — balolarga qolaman. Mana, mendagi o'zgarishlarning natijasi o'laroq, seni yo'qlab keldim. E'tibor qilgan bo'lsang, shoshilmayapman. Mening o'rnimga sen bezovtasan. «Domla chindan aynibdi, gapini tugata qol- sa-yu, ketsa, men chala ishlarimni bitirib olsam», deb o'tiribsan. E'tiroz bildirma, bu — aksioma! Men o'zgarishimni senga ko'z-ko'z qilgani kelmadim. Ishingga taalluqli bir fikr bor. Endi esim joyidaligida shuni aytay.

— Sizda yana bitta o'zgarish sezdim, aytaymi? — deb so'radi Zohid, mug'ombirlik bilan kulimsirab.

— Albatta, — dedi Habib Sattorov.

— Kinoyaga usta bo'libsiz. Avval unaqa emasdingiz. Masalani qisqa va aniq ravishda aytardingiz.

— Xuddi robotga o'xshab, a? Ukam shunaqa deb tan-qid qilardi. Demak, ayniganim rost.

— Ha, rost, lekin yaxshi tomonga.

— Iltifoting uchun rahmat, azizim, endi eshit: sen matematika ilmidan yuz o'girib, huquq ilmini tanlading. Ikkalasi butunlay boshqa-boshqa olammi?

— Shunaqa.

— Shunaqa emas, azizim. Shunaqaga o'xshaydi. Piramida qoidasi esingdadir? — Habib Sattorov savoliga javob kutmay, yon cho'ntagidan gugurt chiqardi-da, to'rtta cho'pni olib, uchtasining qalpoqchali boshlarini birlashtirdi. So'ng to'rtinchi cho'pni o't oldirib qalpoqchalarga tutdi. «Pov» etib yonishi hamonoq puflab o'chirgach, qalpoqchalar kuyib, bir-birlariga yopishdi-da, piramida shakli hosil bo'ldi. Shundan keyin Habib Sattorov gapini davom ettirdi: — Bu men uchun piramida. Sen uchun-chi?

Zohid ustozining maqsadini anglamay yelka qisdi:

— Men uchun ham piramida-da.

— Yo'q, bu sening boshingni qotirayotgan jinoyatga oid ish. Demak, bu holda sen nima qilasan? Sen avval bitta cho'pni turtkilab ko'rasan. Keyin boshqasini. Lekin piramidani yiqolmaysan. Chunki piramidaning kuchi mana bu uch qismda. Sen avval mana bu birlashtirib turgan boshni ayirishing kerak. Shunda piramida o'z-o'zidan qulaydi. — Habib Sattorov shunday deb birlashib turgan boshchalarga asta chertgan edi, cho'plar sochilib ketdi. — Xo'sh, nima deysan?

— Umuman... to'g'ri.

— Unda bu g'oyani sen shakllantir. Tuzukroq fikr uyg'onsa, xabar berarsan, aqllasharmiz. Bo'pti, men ketdim. — U shunday deb o'rnidan turdi-yu, stol burchagidagi ikki daftar yodiga tushib, qaytib o'tirdi. Daftarlarni qo'lga oldi-da, varaqlab ko'rib, Zohidga uzatdi: — Bu Anvar ukamning xotira daftari ekan. G'alati narsalarni yozgan. Istanang o'qib ko'r, deb olib keldim. Umuman... uning o'limini sizlar nima deysizlar, «baxt-siz tasodifmi?» Lekin... u jinni emasdi. Kimdir uni majbur qildi... Sizlar ruhan majbur qilgan odamni «qotil» demaysizlar, a?

— Ariza bersangiz, tekshiriladi.

— Yo'q, ariza bermayman. Chunki arizaning oqibati ukam o'ylab topgan formulaning yechimiday bo'ladi.

Habib Sattorov mulozimatni yoqtirmagani uchun Zohid «choy-poy ichib o'tiraylik», deb manzirat qilmadi.

Ustozni katta ko'chaga qadar kuzatib chiqqan Zohid qaytar mahalida uning piramida xususidagi gaplarini bir-bir esladi. «G'oyada jon bor, — deb o'yladi u, — umuman jinoyat olamini piramida desak to'g'riroq bo'ladi. Biz uning bir ulushini cho'kich bilan urib yemirmoqni ixtiyor qilgan nodonga o'xshaymiz. Piramidaning uchi — Asadbekmi? Unga mening kuchim yetarmidi? Gugurt cho'plarini chertib tashlash oson...»

Zohid uyga kirganda xotini dasturxon yig'ishtirayotgan edi.

— O'rtog'ingiz Aliqul aka keldilar, — dedi u erini ko'rib.

— Nima deydi?

— Sizda ishlari bor ekan. Ertalab kelaman, devdilar, uyda bo'lmasalar kerak, moshtabibni olib qishloqqa bormoqchi edilar, dedim. To'g'ri aytibmanmi, borasizmi?

— Borishim kerak.

— Mashinalarida olib borib kelarkanlar.

Bu gapni eshitib Zohid g'ashlandi. Eridagi o'zgarishni sezgan xotini:

— Ha, gapimning nimasi yoqmadi tag'in? — deb so'radi.

— Men senga mashina gaplashib qo'y, devdimmi?

— Men so'rabmanmi, o'zlari aytdilar. O'rtog'ingiz-ku, xizmat qilsalar yomonmi?

— Yo'q, juda yaxshi, hatto zo'r! — dedi Zohid achchiqlanib, — shu xizmati evaziga sen uning ukasini qamoqdan chiqarib berasan.

— Voy savil, hali dardi bormidi?..

— Senga ming marta aytaman: mening qachon, qaerga borishim haqida birovga hisob berma. Ertaga ishga boramanmi yo qishloqqami, birovning bilishi shartmi? «Ering qayoqqa boradi, anig'ini ayt», deb seni birov zo'rladimi? «Bilmayman» deb qo'ya qolmaysan-mi?

— Xo'p, bo'пти, tavba qildim, — xotin shunday deb dasturxonni yig'ishtirgach, zarda bilan oshxonaga chiqib ketdi.

Ko'ngli g'ashlangan Zohid esa derazani qiya ochib, ko'cha tomonga tikildi, nechundir bu kech ko'cha chiroqlari yonmabdi.

Zohid yotoqxonaga kirgan edi, o'g'li ko'zlarini chirt yumib olib, o'zini uxlaganday qilib ko'rsatdi. O'g'lining odatiga u ba'zan hayron qoladi: mehmon kelsa, boshqa bolalar kabi dasturxon atrofida aylanmaydi. Onasi karovotiga yotqizib qo'ysa, uyqusi kelmasa-da, qarshilik bildirmaydi. Bu holat ba'zan bir, ba'zan ikki soat ham davom etishi mumkin. Bunaqa paytda Zohid o'g'liga achinib, mehmon ketgach, kech kirib qolgan bo'lsa-da, o'g'lini ko'chaga olib chiqardi. Bugun ham «bir aylantirib kelay» deb o'yladi-yu, ko'cha chiroqlari yoqilmagani sababli fikridan qaytib karavotga engashdi-da, o'g'lining yuzidan o'pdi. O'g'li bundan rohatlanib, ko'zini chirt yumganicha qiqirlab kuldi. Keyin otasining bo'ynidan quchoqlab oldi. «Boqchaga bordingmi, nima yeding, nimalar o'ynading?» kabi savollarga biyron javob bergach, bola otasidan ertak aytib berishni so'radi. Zohid bironta ham ertak bilmasdi. O'g'li ham so'raganida bitta ertak kitob topib o'qib qo'yaman, derdi-yu, ko'chaga chiqqach, unutaradi. Hozirgi talabdan so'ng ham shunday ahd diliga tugilib, bolasiga «hozir oying kirib aytib beradi», deb oson qutuldi. Bola onasidan ham ertak eshitolmasligini bilsa-da, bu va'daga ishondi.

Oshxonadagi ishlarini saranjomlagan xotini kirgach, mehmonxonaga chiqdi-da, ustozni tashlab ketgan daftarlardan birini qo'lga oldi. Avvaliga daftarni hafsalasizlik bilan varaqlab, ayrim satrlarni «cho'qilab-cho'qilab» o'qidi. So'ng undagi ma'nolar diqqatini tortib, divanga joylashib o'tirib oldi-da, bir boshdan o'qishga tutundi. «Xotira daftari» deb atalmish yozuvlarning boshlanishi unga qiziq ertak kabi tuyuldi:

«Bir mamlakatning odil va dono podshosi qarilik yoshiga yetgach, taxtni o'g'liga topshirib debdiki:

— Ey ko'zimning nuri, umidim chechagi, bu obod mamlakatni senga topshiryapman, aql bilan ish yuritgin va uning xorlanishiga yo'l qo'yma. Men mamlakat boyligidan tashqari o'zimning boyligimni ham senga topshiraman. To jonim bor ekan, sen bu xazinaning bir misqoliga ham tegmagin. Ollohning huzuriga jo'naganimdan so'ng bu xazinani ochasanda, miskinlarga ulashib chiqasan. Toki ularning duolaridan ruhim bahramand bo'lgay. O'g'il ham ota kabi dono ekan. Mamlakatni yaxshi boshqarib, yurtni yanada obod qilib raiyat duosini olibdi. Ammo uning bir odati bor ekanki, na saroy ahli va na shahar ahli tushunarkan. Biron bir kishining «Ey podshohim, bu qilig'ingizni tushunmoqqa aqllarimiz qosirlik qilyapti, bizga buning ma'nosini anglatib qo'ying», demoqqa yuragi betlamas ekan. Vaqtiki kelib, keksa podsho sobiq va sodiq mulozimlarini chorlab, o'g'lining holahvolini so'raganida ular yurak yutib, voqeani bayon qilgan ekanlar. O'g'lining qiligidan hayratlangan podsho darhol uni chorlatib, bu harakatning ma'nosini so'rabdi. O'g'il farzandlik burchiga rioya qilgan holda debdiki:

— Otajon, siz menga xazinangizni vafotingizdan so'ng xalqqa ulashishni vasiyat qilib edingiz. Rosti men bu amrni bajarmoqqa majbur bo'lganim tufayli sizga e'tiroz bildirmoqqa jur'at etmadim. Ammo har tun shaharga chiqqanimda fonus-chiroqni oldinda emas, orqa tomonda olib yurmoqni amr etdim. Sababki, vafotidan so'ng ehson ulashmoq qora tunda chiroqni orqa tomonda yoritib bormoq kabi emasmi? Orqa tomondagi fonus yorug'idan yo'lovchiga na foyda, oldinda yoqib bormoq afzal emasmikin?

Ota o'g'lining bu tadbiridan quvonib, xazinani o'zi ulashgan ekan.

Qissadan hissa: bizning tarix qatlarida yashirinib yotgan qancha boyliklarimiz bor? Ularni xalqqa qachon ulashamiz? Fonusni old tomonda yoqib, yorug' yo'l ko'rsatish kuniga qachon yetamiz? Xolidiylar chiroqni oldinga olishga yo'l qo'yisharmikin?»

«Bir kar odamning ho'kizi yo'qolib qolibdi. Ko'chada qidirib yurib yana ham karroq odamga duch kelibdi. Ittifoqo bu odam ertalab eshak topib olgan ekan. Kar odam ho'kizi yo'qolganini aytib, uning shoxlari-yu, dumlarining ta'rifini keltiribdi. Karroq odam unga javoban:

— Ha, to'g'ri, men eshagingni topib qo'yganman, suyunchini berginu olib ketaver, — debdi.

Kar odam esa yana ho'kizining ta'rifini qilaveribdi. Shu holda gap talashib turishganda eshagiga bir juvonne mingashtirib olgan oqsoqol ko'rinibdi. Qarangki, oqsoqol ulardan-da karroq ekan. Yo'lni to'sib, biri ho'kiz, biri eshak haqida tinmay gapirayotgan odamlarga qarab «Xotinni olib qo'yishmoqchi shekilli», deb o'ylab:

— Yaqinda xotinim o'ldi. Bu juvon begona emas, xotinimning cho'risi edi, — debdi. Xullas, uchovi uch xil gapirib, bahslashib, haqiqat istab qoziga kelibdilar. Xudoning qudratini qarangki, qozi ulardan battar kar ekan. Ramazon oyi yaqinlashib qolgan, agar yangi oy ko'rinsa nog'oralalar chalinib, elga ma'lum qilinishi kerak edi. Qozi ularning tinmay, bir-birlariga gap bermayotganlaridan «Ha, ular yangi oy chiqqanini ko'rishibdida», degan qarorga kelib, xizmatkorlariga buyuribdi:

—Hoy, nog'oralarni chalinglar, ertaga sahardan ro'za!

Qissadan hissa: Bizning barchamiz kar bo'lib qolganmiz. Birimizning gapimizni ikkinchimiz anglamaymiz. O'zimizning karligimiz kamlik qilganday tariximizni ham soqov qilib qo'yganmiz. Biz tarixning tiliga kishan urganmiz. O'zimizga kerak paytida kishanni yechib, gapirtiramiz, keyin esa yana mahkamlaymiz. Shunaqa paytda karligimizni ham unutamiz. «Eng kichkina ilmiy xodim» mening bu fikrimni qo'llamadi. «Tog'da bir keksa

chinor ko'ruvdim, — deydi u. — Odamlar gulxan yoqaverib daraxtning badanini o'yib yuborishibdi. Uzoqdan qarasangiz daraxt tili sug'urib olingan odamga o'xshaydi. Bizning tariximiz ham shunaqa.»

Sobirjonning ta'rifida jon bor. Ammo... til o'sib chiqarmikin?..»

«Qayta qurib yotibmiz... Nimani? Buni hech kim bilmaydi. Xalq ashula ham to'qib qo'yibdi: «Mamlakat bo'ylab qilar yurish — Misha, Raya va qayta qurish...» Qayta qurishdan faqat shu ashula qolsa kerak.

Kunlarning birida xo'roz bilan it do'stlashib, o'zlari uchun qishloq qurmoqchi bo'libdilar-da, o'rmonga borib, joy tanlabdilar.

— Men qurishni bilmayman, sen-chi? — deb so'rabdi it.

— Men ham bilmayman, — debdi xo'roz.

— Unda qishloqni qanday quramiz? — deb ajablanibdi it.

— Juda oson: sen vovullayverasan, men tuproq titib qichqiraveraman. U yog'i yana bir gap bo'lar, — debdi xo'roz.

Bu taklif itga ma'qul kelib «ish» boshlashibdi. Bir ozdan so'ng charchashgach, it dam olib, xo'roz poyloqchilik qilibdi. Shu onda tulki xo'rozni ko'rib qolib, unga yaqinlashibdi-da, «nima qilyapsan?» deb so'rabdi.

— Biz bu yerda qishloq quryapmiz, — debdi xo'roz.

— Meniyam ishga olgin, men judayam zo'r quruvchiman, — deb yalinibdi tulki.

— Yaxshi, — debdi xo'roz. — Hov anavi butaning orqasida ishboshi dam olyapti. Borib uchrash, «xo'roz aytdi», desang ishga oladi.

«Ayyor» deb nom olgan tulki shu onda nodonlik qilib itga tashlanib, dumdan ayrilib qochibdi. Bir balandlikka chiqib olgach, «quruvchilar»ga debdi:

— Men-ku, laqmaligim tufayli dumdan ayrildim, endi isnodga qolaman. Sizlarning nodonligingiz oqibatidagi sharmandalik bundan kam bo'lmasov...

Qissadan hissa: Tulki bir ahmoq hayvon, gapiraveradi. Biz ham xo'roz emasmiz. Qayta quramiz, dedikmi, quramiz. Ammo nimani? Qayta qurishga ovora bo'lgandan ko'ra buzib tashlay qolingani afzal emasmikin?

«Bir podsho» hayotni o'rganib kel», deb o'g'lini dunyo safariga yuboribdi. Oradan oylar o'tib, shahzoda saroyga kirib kelib, bir kaftida tuproq, yana birida tosh bilan otasiga ro'para bo'libdi.

— Dunyo kezib topganing shu bo'ldimi? — deb ranjibdi podsho. — Xo'sh, bulardan qanday ma'no uqmog'im kerak?

— Podsho qanchalar ulug', qanchalar qudratli bo'lmasin, u tuproqdan yaralgan va oqibat yana tuproqqa aylangusi. Shunday ekan, to asliga qaytguniga qadar Olohga maqbul ishlarni qilishi, ya'ni ra'iyatga mehr-muhabbatda bo'lmog'i shart ekan.

Toshning ma'nosi esa: xazinadan yaxshilik yo'lida foydalanilmas ekan, undagi oltinu javharlarning qadri bilan bu tosh-ning qiymati bir xildir, — deb shahzoda rivoyat aytibdi:

— Bir odam dalaga chiqib xurjun to'la oltinni ko'mib qo'yibdi-da, xazina ko'milgan yerni har kuni ziyorat qilaveribdi. Qo'shnisi uning bu qiligidan ajablanib, u havas bilan tikilib turadigan joyni kavlab oltinlarni olibdi-yu, o'rnini tosh bilan to'ldiribdi. Boylik egasi kunlarning birida oltinlarini silab, rohatlanish maqsadida yerni kavlasaki, oltin yo'q! Alamdan dod solib turganida qo'shnisi yaqinlashib ne hol yuz berganini so'rabdi.

— Oltinlarimni sarf qilmay ko'mib qo'ygan edim, o'g'irlab, o'rniga tosh qo'yib ketishibdi, — deb javob beribdi boylik egasi.

— Bekorga yig'layapsan, — debdi qo'shnisi. — Sen kuyinmagin-da toshni joyiga ko'mib qo'yaver. Sarf qilmaganingdan keyin bu chuqurchaga oltin ko'milganmi yo toshmi, senga



nima farqi bor?»

O'g'lidan bu rivoyatni eshitgan podsho achchiqlanibdi-da:

— Demak, seningcha boylik to'plab, saqlash shart emas ekan-da? — debdi.

— Boylikka ega bo'lmaslik yomon, boylikka ega bo'la turib undan oqillik bilan foydalana olmaslik undan-da yomonroq,— deb javob qilgan ekan dono shahzoda.

Qissadan hissa: Tarix oltindan qimmat boylikdir. Biz o'z oltinlarimizni ko'mib qo'yganmiz. Ovrupolik olimlar esa uni olib istaganlaricha istifoda etyaptilar. Oltinlarimizdan foydalanish o'zimizga ham nasib etarmikin?..»

Zohid bu yozuvlarni o'qib, o'ylanib qoldi. Ko'z oldiga Anvar keldi. Oxirgi uchrashuvlarida Anvar «Jamshidning o'limi bilan shug'ullanadigan odamga tayinlab qo'ying: Elchidan gumon qilib yurmasin, ig'volarga uchmasin, Asadbekdan har baloni kutish mumkinda. Ko'r hassasini bir marta yo'qotar ekan, ko'zi ochiqlar ikki marta yo'qotmasin tag'in...» degan edi. Elchin otildi, Jamshid esa tirik, Anvar o'zini osdi... «Asadbekdan har baloni kutish mumkin...» Zohidga bu uch taqdir iplarida bir bog'liqlik borday tuyuldi. Lekin qancha o'ylamasin, fikrlarini jamlay olmadi.

«Ikki marta jinnixonaga tushgan. Ikkinchisida o'zini osgan... — deb o'yladi u. —

Shunday aqlga ega odam jinnixonada o'zini ossa, nima bu, aqllilik balosimi?..»

Zohid bu savolga javob topa olmadi.

### XIII b o b

#### 1

Jalil «Shorasul aka ikkovimizni o'z o'g'liday ko'rar edi, bel bog'lamasak ham borib turaylik», dedi. Asadbek o'rtog'ining donoligidan g'ashi kelib «Ehtiyot bo'l, aqling oshib-toshib ketmasin», demoqchi bo'ldi-yu, «Gap talashish fursati emas», degan fikrda tilini tiya qoldi.

— Bir narsaga e'tibor bermagan ekanman, bugun aqlimga kelib qoldi, — dedi Jalil mashinaga o'tirgach. Asadbek «Yana nimaga e'tibor bermabsan?» degan ma'noda unga qarab qo'ydi.

— Shorasul aka ota ulfatdan oxirgilari ekanlar. Adalarimizning oshnalari tamoman o'lib bitdi. Eng ko'p yashagan shu Shorasul aka ekanlar. Eng uzoq umr ham, eng og'ir hayot ham shu Shorasul akaga atalgan ekan.

— Bunaqa uzoq umr bergandan ko'ra Xudo ikkita o'g'il bera qolsa yaxshi edi.

— Sen unaqa dema, Xudoning ishlariga aralashma, tavba qil, — dedi Jalil.

— Xudoning ishlariga aralashayotganim yo'q. Shu odamning ikkita o'g'li yashab qolsa, yaxshi bo'lardi, deya pman. Senga o'xshagan kindigini o'zi kesadiganlardan bo'lsa ham mayliydi.

Bu gapni eshitib Halimjon ko'zgu orqali orqaga qaragan edi, baloga qoldi. Jalil:

— Sen bola menga emas, yo'lga qara, — deb jerkib berdi.

Shorasul akanikiga borishgach, Jalil keldi-ketdi bilan ovora bo'ldi. Asadbek ko'rpacha to'shalgan o'rindiqdand joy oldi. Shorasul akani ko'mib kelganlar uzoq o'tirmay, tarqalishdi. Fotihachilar ham kam keldi. Asadbek siqilib, bir soatga arang chidadi.

O'rnidan turib, «ketyapman» degan ma'noda Jalilga imlab qo'ydi. Uch-to'rt qadam qo'ymay To'xtaxonning eri chaqirdi. Asadbek janozada paydo bo'lganidan beri kuyov u bilan gaplashishga fursat izlardi. Asadbek uning besaranjom ko'zlaridan maqsadini anglagan edi. U chaqiriqqa binoan to'xtab, g'ashlangan holda o'girildi.

— Bek aka, kechirasiz, sizdan bir narsa so'ramoqchiydim. — Kuyov Asadbekdan «Nima gapingiz bor, aytavering», degan sado kutdi. Asadbekning norozi qiyofasidan bunday lutf qilinmasligini anglab, maqsadini aytishga shoshildi: — Bek aka, uch kundan keyin uyni bo'shatishsin debsiz?

— Uyning xo'jayini men emasman. Qaynotangning hohishi shunaqa bo'lgan. Uch kunni men qo'shib berdim.

— Bek aka, biz qayoqqa boramiz, bola-chaqa bilan kimnikiga sig'amiz?

Zorlanish bilan aytilgan bu gapdan Asadbekning g'ashi keldi. «Senam erkakmisan!» deb tupurmoqchi bo'ldi. Darvoza og'zida turgan To'xtaxon bilan Jalilga ko'zi tushib, o'zini bosdi-da:

— Qaerdan kelgan bo'lsang, o'sha yoqqa borasan, — deb orqasiga o'girildi. Asadbekning odatini bilmagan kuyov nodonlik qilib yana gapirdi:

— Bu uyda To'xtaxonning ham haqqi bor.

Bir qadam qo'ygan Asadbek bu gapni eshitib to'xtadi-yu, ammo uning basharasiga qarashni, bir nima de-yishni istamadi. Yo'lida davom etib, yana uch qadam qo'ygach, orqadan To'xtaxonning ovozini eshitdi:

— Asad aka, to'xtang, orani ochiq qilib keting.

Asadbek to'xtab, yarim o'girildi-da, juvonning yonida turgan Jalilga qarab:

— Bularga tushuntirib qo'y: to'rt tomonlari qib-la, — dedi.

— Yuringlar, buni keyinroq gaplashamiz, hozir mavridi emas, — dedi Jalil, ziddiyatni yumshatish maqsadida.

— Yo'q, — dedi To'xtaxon bo'sh kelmay, — otamning uyiga bu odam nega xo'jayinlik qiladi? Sadir sariqqa rahmlari kelsa, ana o'zlarining uylari bo'm-bo'sh, xangillab yotibdi, bersinlar.

Asadbek unga g'azab bilan tikildi-yu, bir yutinib qo'yib, teskari qaradi.

— To'xta bo'ldi, yur, bu ishga Asad akangning dahli yo'q, u sira aralashmagan, bu adangning vasiyatlar.

— Vasiyat bo'lsa qog'oz ko'rsatsinlar.

— Bo'ldi qil-e, buncha shang'illaysan! — Jalil jerkib, juvonning yengidan siltab tortdi: — Bor, uyga kir.

To'xtaxon Jalilning amriga bo'ysinib orqasiga o'girilishga o'girildi-yu, ammo tilini tiymadi:

— Qorinlari to'yib qolgan bularning. Adamning nonlari bo'lmaganida qirilib ketishardi...

Ming'irlab aytilgan bu so'z o'qlarining barchasi Asadbekning yuragiga sanchilib, qalqitib yubordi. Jalil epchillik qilib o'rtaga tushmaganida To'xtaxon shart o'girilgan Asadbekning tepkisini yeb qolishi tayin edi.

— Past ketma! Bular pastkash, sen ularga teng kelma! — deb baqirdi Jalil.

Asadbek g'azabini yutib, o'girildi-da, bu safar tez-tez yurib ketdi. Mashinaga o'tirgach, Halimjonga:

— Akangni chaqir, — deb buyurdi. Jalil kelgach: — Uch kundan keyin bularni shaharda ko'rmay, ko'rsam, uvoli sening bo'yningga, — dedi. Keyin Jalilga bir so'z aytishga ham fursat bermay Halimjonga «Hayda!» deb buyurdi.

Har nechuk To'xtaxon bilan kuyov bolaning taxti bo'lmasa-da, baxti bor ekan. Chol bundan ikki-uch oy avvalroq qaytish qilib, bu mojaro o'shanda yuz berganida ikkovining sho'ri yomon qurirdi. Hozir Jalilning zimmasiga yuklangan vazifa Kesakpolvonga yoki Chuvrindiga aytilardi. Shunda ijro ham boshqacharoq bo'lardi. Asadbek g'azablangan kezlari Kesakpolvonga qay tarzda, qay ohangda amrlar qilgan bo'lsa, hozir o'zi bilmagani holda aynan shu ohangda buyurdi. Mashina bir oz yurib, o'zi sal hovurdan tushgach, «Jalilga bunaqa deyishim kerakmas edi. Baribir eplolmaydi. Lekin gapni ko'paytirib yuboradi. «Shaharga xo'jayin bo'lsang ham bunaqa qilishga haqqing yo'q,» deb

boshlarimni og'ritadi hali. Buni Jamshidga buyurishim kerak, imi-jimida to'g'irlyaydi», deb qo'ydi.

Asadbek o'zicha haqiqat yo'lida bir ish qilib qaytayotgan edi. Ilgarilari ham biron bir masala xususida hukm chiqarsa, yoinki biron bir kishining taqdirini hal etsa «Ish haqiqat yo'rig'icha, vijdonan bo'ldi», deb hisoblardi. Ammo ko'p hollarda u yanglishardi. Chunki u haqiqat degan narsa aslida haqiqat emas, to'g'rilik degan narsa to'g'rilik ham emasdi. U vijdon deb hisoblaydigan narsa aslida insoniy vijdon emasdi. Chunki zulm bilan vijdon bir tanada, bir qalbda yashay olmasligi oyday ravshan.

Bu safargi zulmga Asadbekni ayblamoq insofdan emasdir. Chunki bu zulmni To'xtaxon bilan kuyovning o'zlari befarosatsizliklari tufayli sotib oldilar. Ular haqlarini talab qilib, nohaqlikning achchiq suvini ichib, qiynalishga erishdilar. Agar oradan uch kunni o'tkazib, keyin «Mayli, otamning vasiyatlariga qarshi bormaylik, uyga da'voyimiz yo'q, lekin bola-chaqamiz bilan ko'chada qolmaylik», deyishganida masalaning boshqacha hal bo'lishi aniq edi.

Insonni har baloga giriftor etuvchi til bir oilani boshpanasiz qoldirdi.

Asadbek uyiga ana shu ko'ngilxiralik bilan qaytdi. Avval o'g'illari, so'ng kelinlari chiqib salom berishgach, bu g'ashlik bir oz ko'tarilgandek bo'ldi. Ayniqsa kelinlarning shirin talaffuzda so'zlashishlari, salomni ham dilni erituvchi ohang bilan berishlari Asadbekning qorong'u ko'nglini yoritguvchi chiroqdek edi. Kelinlaridan shodlanishi barobarinda «shunday ajoyib qizlarni uzoq, notanish yurtga uzatgan qudalaridan ajablanardi. Zaynabni uzatganida necha kun bir narsasini yo'qotgan odam kabi garangsib yurgan edi. Zaynabi shundaygina qanoti ostida, istagan onida ko'rib, sog'inch dardiga malham topishi oson edi. Qudalari qanday chidashayotgan ekan?

Janozadan qaytgan Asadbek kelinlarining salomidan rohatlandi, ammo bu safar qudalarining sog'inchini o'ylamadi. Zaynab kasalxonadan qaytgach, Manzura kirib, yoshlarning shahar aylanib kelish uchun ruxsat so'rashayotganini aytdi. Ijzatdan shodlangan yoshlar ketishgach, Manzura «ovqatni suzaveraymi?» deb so'radi. Asadbek kelgan mahalida xuddi shu savolga «qornim to'q» deb javob bergan edi. Bu safar Manzuraning ovqatlanishni kutayotganini fahmlab, ishtahasi bo'lmasa-da, «hozir chiqaman, suzaver», dedi.

Xotining ra'yini qaytarmaslik uchun qozonkabobdan kichikroq bir qovurg'ani olib ermak qildi. Manzuraning ishtahasi ham erinikiga bog'liq edi. Asadbek ishtaha bilan ovqatlansa, u ham ko'ngli tusaganicha yerdi. Bu safar ham odati kanda bo'lmadi, qo'lga olingan qovurg'aning yarmi ham yeyilmadi. «Sen yeyaver, qornim to'q», degan da'vatga «Bolalar bilan yedim», degan yolg'on javob ovqatlanish jarayoniga yakun yasay qoldi. Asadbek qo'lini sochiqqa artgach, Manzura choy qu-yib uzatdi-da:

— Qamar aka chiquvdilar, — deb «nimaga chiqqanlarini aytaveraymi?» deganday savol nazari bilan qaradi.

— Tinchlikmi, nimaga chiqibdi? — deb so'radi Asadbek.

— Sizda maslahatli ishlari bor ekan.

— Senga aytmadimi?

— Bir uchini chiqarganday bo'ldilar.

— Qani, sen ham o'sha uchini chiqar-chi?

— Uyni sotishmoqchimishmi?

— Nega?

— Uchta o'g'ilni uyli-joyli qilishga qiynalishayotganga o'xshashadi. Kenjalarini uylay desalar ortiqcha xona yo'q. Hukumatning uylaridan ikki xona-ikki xonali qilibmi sotib olishsa kerak. Samadingiz gaplashayotgandi. Qamar aka hamma dardlarini unga aytgandirlar, xotin kishiga aytarmidilar.

Asadbek xotining gaplarini eshitib «Bugun faqat uy mojarosi bo'ladigan kun ekanmi?» deb qo'y-di-yu, qo'shnining dardiga oid biron so'z aytmadi.

Choy og'ziga bemaza tuyulib, piyolani dasturxon ustiga astalik bilan qo'ydi. Avvalgi davrlari bo'lganda «nima balo, xashak solib damlaganmisan?» deb to'ng'illar yoki piyolani do'q etib qo'yar, yoinki jahli chiqib turgan bo'lsa, choyni sepib yuborardi. Shunda xotin bechora hadik bilan sapchib turib, boshqa choynakda choy damlab kelardi. Ammo yangi damlangan choydan ham ichilmasdi. Chunki aslida choy bemaza emas, kayfiyatning mazasi bo'lmasdi. Asadbek g'azab otidan tushgani bilan ko'ngli na ovqat, na choy tusardi. Er-xotin dam-badam bir-birlariga qarab qo'yib, jimgina o'tirishardi. Asadbek jag'i-jag'iga tegmaydiganlarga toqat qilolmas, xotining kamgapligidan mamnun yurardi. Biroq, hozirgiday hollarda uning gapirib o'tirishini istadi. «Nimani gapirsa ham mayli, javrab tursa bas», deb xotinigga umid bilan qaradi. Yo'q, Manzura javramadi. Mo'minalik libosini yechmadi. Ilgari ham, ayniqsa Zaynabning to'yidan so'ng mana shu tarzda ikkovlon ko'p yolg'iz o'tirishardi. Lekni unda Asadbek yolg'izlik to'rda siqilmasdi. Hozir siqildi, yomon siqildi.

— Adasi, choyingiz sovidi, qaynog'idan quyaymi? — Manzura shunday deb piyolaga qo'l uzatdi.

Asadbek «Yo'q, kerakmas», degan ma'noda kaftini piyola ustiga qo'ydi. Keyin ma'suma xotinigga qaradi-da:

— Manzur, yoshligimizda biz ham shahar aylangani chiqarmidik? — deb so'radi.

Kutilmagan bu savoldan Manzura gangib:

— Voy, shaharning nimasini aylanardik? — de-di.

— Ha endi, mundog' «aylantirib» deyiladimi yo «o'ynatib» deyiladimi, marojniy-parojniy olib berganmanmi? Mana, bolalaring ketishdi-ku?

— Bularning zamoni boshqa, bizniki boshqa edi, adasi.

— Bo'pti, bor, kiyinib chiq. Biz ham yangi zamoni bir ko'raylik.

Asadbek «Manzur» deb gap boshlaganida u bir ajablangan edi. Chunki eri asosan unga «hey» deb murojaat etar, mehmon huzurida esa «onasi» der, juda kam hollardagina erkalguvchi samimiy ohangda «Manzur» deb chaqirardi. Dastlabki ajablanishi so'nmay turib sayrga taklif etilishi unga g'alati tuyuldi. Eriga «hazillashayapsizmi, adasi?» degan ma'noda qarab, baloga qolay dedi.

— Imillamasang-chi, tur tezroq, — dedi Asadbek po'pisa ohangida.

Bitta mashinani Abdusamad, ikkinchisini Halimjon haydab, yoshlarni sayrga olib ketishgan edi. Manzura amrga itoat etib o'rnidan turdi-yu, «Mashina yo'qligini adasi unutdilarimikin», degan xayolda:

— Mashina... — deb gap boshlagan edi, «Ishing bo'lmasin», degan qo'pol javobni eshitdi.

Asadbekning bu qilig'i Manzuragagina emas, boloxonadagi yigitlarga ham g'alati tuyuldi. Ulardan biri shoshganicha pastga tushdi, ko'chada xotining yonida xotirjam borayotgan xojasi izidan bir oz tikildi. Asadbek hech qachon mashinasiz ko'chaga chiqmasdi. Biror yoqqa ketayotgan bo'lsa darvozadan chiqish oldida ularga nimadir deb qo'yardi.

Yigit picha tek turgach, sodiq mulozimlik vazifasini bajarib, sakkiz-o'n qadamlik masofani saqlagan holda izma-iz yura boshladi. Buni sezgan Asadbek to'xtab, orqasiga o'girildi. Yigit ham to'xtagan edi, imlab chaqirdi-da, u yaqinlashgach:

— Izimdan yurma, — dedi. — Halim akang kelsa, ayt, uyiga ketaversin. — Asadbek bir oz o'ylandi-da, qo'shib qo'ydi: — Akalaring kelishganidan keyin senlar ham uy-uy'laringga ketaverlaring. Ertalab Haydar akangga uchrashsalaring, bundan bu yog'iga nima ish qilishlaringni aytadi.

Yigit «xo'p» dedi-yu, ammo hayronligini yashirmay, qarab turaverdi.

— Ha, gapimga tushunmadingmi? — dedi Asadbek, qoshlarini chimirib.

— Tushundim, Bek aka... Hovli... yolg'iz qoladimi?

— Sen tashvishlanma, ketaver, bizni bo'ri yermidi, akasi.

Yigit iziga qaytgach, er-xotin katta ko'chaga chiqishdi.

— Mashina to'xtat, — dedi Asadbek, keyin kulimsirab qo'shib qo'ydi: — xotinlarga to'xtashi oson- roq.

Mashinalarning to'xtashi oson bo'lmasa-da, chetroqda turgan Asadbek g'ashlanmadi. Kuzatib turaverdi. Aksincha Manzura «Noshud!» deb so'kib qolmasalar edi, deb tashvishlandi.

Nihoyat, bir mashina to'xtagach, Asadbek yaqinlashib, manzilni aytdi:

— Anhor bo'yiga.

— Qancha berasiz? — dedi haydovchi.

Asadbek unga javob bermay, Manzura uchun orqa eshikni ochdi-da, o'zi old o'rindiqqa o'tirdi.

— Akajon, kira haqqini kelishmadik-ku? — dedi haydovchi.

— Sen avval olib borib qo'y, kelishaveramiz, — dedi Asadbek eshikni yopib.

— Hisobli do'st ayrilmas, degan gaplar bor.

— Menga do'stmisan hali, unda tekinga olib borib qo'yasan. Men do'stlaringa pul bermayman.

— Endi aka...

— Bo'ldi, mijg'ovlik qilma. Pul ishlaydigan odam shunaqa imijiqi bo'ladimi, e so'tak! — Asadbek achchiqlanib, cho'ntagidan o'n so'mlik chiqardi-da uning tizzasi ustiga tashladi. «So'tak» deyilganiga ichi og'rib bir nima demoqchi bo'lgan haydovchi o'n so'mlikni ko'rib, tilini tishlay qoldi. O'zicha hisobni to'g'rilab qo'ydi, ikki so'mi kira haqqi, sakkiz so'mi «so'tak» deb haqorat qilgani uchun jarima...

Anhor bo'ylab yurish Manzura uchungina emas, Asadbekning o'ziga ham dastlab g'alati tuyuldi. Atrofqa qarab yengil tortdi: quchoqlashguday bo'lib bir-birining pinjiga kirib borayotgan yoshlardan tashqari chol-kampirlar ham, bolalarini o'ynatgani olib chiqqan juvonlar ham sayr qilishardi. Birovning boshqasi bilan ishi yo'q... Hech kimning, jumladan, Asadbekning soyadek ilashib yuradigan qo'riqchilari ham yo'q.

Shunday yashasa ham bo'lar ekan-ku?

Erkin hayot deb shunga aytilmaydimi?

— Manzur, bundan bu yog'iga boloxonada odam o'tirmaydi, — dedi Asadbek.

Bu yangilikni eshitib, Manzura beixtiyor «voy» deb yubordi.

— Qo'rqasanmi? — deb so'radi Asadbek.

— Yo'g'-a, nimadan qo'rqaman, — dedi Manzura.

— Endi kelinlar bor, tepadan ko'zlarini lo'q qilib o'tirishi menga yoqmayapti.

— To'g'ri qilasiz, adasi, kelinlaringiz ham «bu-lar nima qilib o'tirishadi», deb hayron bo'lishuv- di.

— Shunaqami? Sen nima deding?

— Bular qarindoshlarimiz, institutga kirishga dars tayyorlab o'tirishadi, dedim.

— Boplabsan-ku, shu paytda institutga kiradimi?

— Nima deyishim kerak edi?

— Ha, mayli, institutga kirmaydigan bo'lib, qaytib ketishdi, deb qo'yasan endi, — dedi Asadbek kulib.

Shundan so'ng gap xaltasi bo'shab qolganday indamay ketishdi. Bunday yurish Asadbekka yoqmay:

— U tomonlarda hayot qanday ekan, aytib ham bermading, a? — dedi.

- Mavridi bo'lmadi-ku, — dedi Manzura aybli ohangda.
- Odamlarining muomalasi qanaqa ekan?
- Tillariga tushunmasam... Lekin qo'ni-qo'shni bir-birini tanimas ekan, oqibat ham qilmas ekan.
- Qo'ni-qo'shnilarning bir-birlarini tanimaganlari ham ma'qul. Tinch yashashadi, g'iybat qilishmaydi.
- Voy qo'ying-e, yomon bo'lsa ham qo'shnining bori yaxshi.
- Sen o'sha tomonlarda qolib yashagan bo'larmi- ding? — deb o'smoqchilab so'radi Asadbek.
- O'lsam ham yashamasman.
- Kelinlaring o'yimizga ketamiz, deyishsa, o'g'illaring ularga qo'shilib jo'nashsa-chi?
- Voy, nafasingizni issiq qiling-a, tavba deng, o'zim yuragim hilvillab turibdi. Bunaqa gaplarni boshqa gapirmang, — keyingi so'zlarni aytayotganida Manzuraning ovozi titradi. Asadbek uni ovutish maqsadida yelkasiga qo'lini tashladi. Manzura bundan cho'chib, o'zini chetga oldi:
- Voy, nima qilyapsiz?
- Ha, nima qilibman, — dedi Asadbek, — o'zimning happai-halol xotinimsan. Ana, qara, hamma shunaqa yuribdi.
- Qo'ying-e, qariganda...
- Men hali qarimadim. — Asadbek shunday deb xotinini qo'ltiqledi. Bu safar Manzura o'zini olib qochmadi.
- Kun bo'yi mashriqda ivirsib yurgan qo'ng'ir bulut parchalari shomga yaqin birlashib, quyoshni bag'riga oldi. Shuni kutib turgan izg'irin qo'zg'olib, bahorning totli nafasini bo'g'di. Izg'irin anhor sohili bo'ylab cho'zilgan sayrgohga ham hukmini o'tkaza boshlagach, bolalarini o'ynatgani olib chiqqan juvonlar uylariga shoshildilar. So'ng keksalar ko'rinmay qolishdi. Unda-bunda, daraxt panalarida qorong'u tushishini intiq kutayotgan juft-juft yoshlarga qolishdi.
- Erining yonida asta yurib borayotgan Manzuraga bu sayr xush yoqayotgan bo'lsa-da, ko'nglining bir chekkasini g'ashlik so'nasi kemirib yotardi. U eridagi bu o'zgarish sababini bilishni istardi. «Bir tog'ning o'z o'rnidan qo'zg'alib, boshqa yerga ko'chganini eshitsangiz ishoning-u, biroq, odamning fe'l-tabiati, qalbi o'zgaribdi, deyilsa inonmangiz», deyilmish ekan. Shunga ko'ra eridagi bu o'zgarishning yaxshilik nishonasi ekaniga Manzurada gumon bor edi.
- Xotinlar davra quruvchi ziyofatlarda ayrim juvonlar «Shunday odamning xotini-ya! Yegani oldinda, yemagani ortida, aytgani aytgan, degani degan. Munchalar baxtli ekan-a, bu ayol!» deb havas qilishsa, Manzura chindan ham baxt egasi singari jilmayib qo'yardi. Holbuki, baxtlimi yoki baxtsiz ekanini o'zi ham aniq bilmasdi.
- Agar ayolning ustara tig'i ustida yashashi baxt de-yilsa — Manzura rostdan ham baxtli. Erining har bir xatti-harakatini hadik bilan kuzatish, kechki payt eri ostona hatlab hovliga kirib kelguniga qadar ming turli havotir tikanlari ustida yalangoyoq yugurmoq agar baxt deyilsa — Manzuradan o'zga baxtliroq ayol yo'qdir.
- Agar eri uyga qaytmagan tunlari beshikni quchoqlab, tiq etgan tovushga hadik bilan quloq tutish, tong-ni o'zi beva, bolasi yetim hoida kutib olmasligi uchun Xudoga nolalar qilib chiqmoqlik baxt deyilsa — haqiqiy baxt egasi aynan Manzuradir.
- Agar baxt faqat yemoq, ichmoq, o'ynamoq, kulmoqdan iborat bo'lsa — Manzuraga havas qilsa yarashadi.
- Shunday tarozi bo'lsa-yu, uning bir pallasiga yemoq, ichmoq, kiyinmoq saodati, ikkinchisiga turmush tashvishlari-yu, g'am ko'lankalari qo'yilsa balki baxt haqiqati ayon bo'lar?

Agar dunyo aylanib, Manzuraning kelinlik onlari qaytsa-yu, deyilsakim: «Tanla, umring shu eski hovlida o'tsinmi yoinki yangi, dang'illama imoratda, zebu ziynatlar ichida yashashni istaysanmi?»

Manzura shubhasiz, qaynona-qaynotasining umri o'tgan, erining kindik qoni to'kilgan shu eski hovlini, bir tishlam nonni betashvish yemoq baxtini tanlagan bo'lardi. Ne g'amki, insonga, ayniqsa o'zbek ayoliga bunday tanlash huquqi berilmagan...

Hozir ham bu kutilmagan sayrga erining xohishi bilan chiqdi. Qovushmagan suhbat bilan ovunib borayotgan Manzuraning zimiston ko'ngli shomni dog'da qoldirgan qorong'ulikka monand ravishda yanada qoraroq chodirga burkalayotgan edi. O'g'illarini Moskvada qoldirib kelganidan beri tutqun qush singari potirla-yotgan yuragi tag'in ham yorilib ketmaydi. Xudo tag'in ham sabr beryapti. Bugundan e'tiboran hovlilarida poyloqchilarning bo'lmasligi ham uning bezovta yuragini timdalayverdi. U erining gapiga ishonganday ko'rinsa-da, bu harakat zamiriga kutilmagan shumliklar yashiringanini sezib turardi. Asadbek «Sen o'sha tomonlarda yashagan bo'larmiding?» deb o'smoqchilab so'raganida go'yo eri «hozir uyga borib narsalarni yig'ishtir, erta-indin o'sha yoqqa ko'chamiz», deb buyurganday yengil titrab oldi. Qo'shnilarning beoqibatligi xususidagi taassurotidan so'ng gaplari tugab qolganday bir oz jim yurdi. So'ng muhim narsani eslaganday:

— Restoranlarda ovqat yeyishni yaxshi ko'rishar- kan, — deb qo'ydi.

— Xotinlarini avaylashadi-da, — Asadbek shunday deb Manzuraga qarab qo'ydi. Xuddi xotini «Siz nima uchun meni avaylamaysiz?» deganday bo'ldi. Asadbek qudalaridan farqli o'laroq, restoranlarga Manzurasiz borardi. Restoranda o'tuvchi to'y-hashamga birga kelishsa ham ayri-ayri o'tirishardi. Yangi uyga ko'chib o'tishganida Asadbek Manzuraning og'irini yengil qilish maqsadida xizmatchi yollagan edi. Uy tutishda o'zining yo'rig'i bo'lgan Manzuraga, xizmatchi qanchalar chaqqon, qanchalar sarishtalik bo'lmasin, baribir ishlari yoqmadi. Ayniqsa yetti yot begona ayolning uyida ivirsib yurishi malol kelib uch kundan so'ng javobini berib yuborgan edi. Erining «nega bunday qilding?» degan savoliga «Qo'ying, bolalar bilan o'zimiz eplaymiz. Hamma ishni xizmatchi qilsa, bolalar tanbal bo'lib o'sishadi», deb javob qaytargan edi. Zaynabni uzatishgach, Asadbek yana xizmatchi yollamoqchi bo'lganida Manzura rad etdi, Asadbek «mayli, uydagi ishlar bilan ovunadi», deb uning ra'yiga qaradi.

Hozir restorandan gap ochilganidan Asadbek xotinini siylagisi keldi. Ko'prikka yetishganida o'ylab o'tirmay narigi sohilga, undan esa markaz tomonga yo'l boshladi. Restoran sari yurishganida Manzura eriga savol nazari bilan qaradi.

— Qornim ochdi, bir nima yeb olaylik, — dedi Asadbek bu qarashga javoban.

Restoranda odam ko'p emasdi. Ichkari kirgan Asadbek bir zum to'xtab, atrofga nazar tashladi. Yoshlari o'tibroq qolgan bu er-xotinga birov e'tibor qilmadi. Burchak tomondagi stol atrofida davra qurib, sigaret tutatib o'tirgan xizmatchi juvonlardan biri ularga ko'z qirini tashlab qo'ydi-yu, «istagan joylariga o'tirishsin, shunga qarab bittamiz o'rnimizdan jilamiz», deganday yana o'z davrasi bilan mashg'ul bo'ldi.

Bu holda turish Asadbekning o'ziga ham erish tuyuldi. Uzoq emas, kechagina restoran ostonasiga yetmayoq uni ta'zim bilan kutib oladiganlar qani? «Bek aka, to'rga o'ting...», «Beka aka, qanaqasidan quyay?», «Bek aka, bedana kabobni olib kelaveraylikmi?», «Bek aka, ashula yoqmayaptimi? Hozir ovozi o'chiradi»... Qani bu izzatu ikromlar? Otdan tushganidan keyingi ahvol shu bo'ladimi bundan bu yog'iga?..

Asadbek g'ashlanganini xotiniga sezdirmaslik uchun uni bilagidan asta ushlab, derazaga taqab qo'yilgan bo'sh stol sari boshladi. O'n daqiqa chamasi vaqt o'tgach, bo'liqqina xizmatchi ayol yaqinlashdi-da, qanday ovqatlar borligini ma'lum qildi. Asadbek tilga olinmagan taomni so'radi.

— Manpar yo`q, umuman suyuq ovqat yo`q, — dedi xizmatchi bir oz ensasi qotgan tarzda.

— Unda toboqi jo`ja olib keling, — dedi Asadbek.

— Bunaqasini uyingizga borganda yeysiz, bizda umuman toboqi bo`lmaydi, — dedi xizmatchi endi qo`rsroq ohangda. Manzura «bu qo`rslikdan erim sachrab ketmasin», degan hadikda unga qarab:

— Kievcha kotlet beraversin, mayli, — dedi.

Xotining muloyim ohangdagi bu so`rovi bo`lmaganda Asadbek chindan ham bir-ikki «shirin» gap aytishdan o`zini tiymagan, xizmatchi juvon esa shu bahonada onasining qaysi mahluqqa qo`shilishi oqibatida dunyoda kelganini bilib olgan bo`lardi. Asadbek «Umring bo`yi kievcha kotlet yeyishni orzu qilib, endi shu yerda yetishdingmi?» degan ma`noda Manzuraga qaradi-da, xizmatchiga:

— Ikkita kievcha kotlet. Xotining boshi shunga qorong`u bo`lgan, — dedi.

Juvon bu hazilga e`tibor bermay, daftarchasiga buyurtmani yozdi-da, «Yana nima?» deb so`radi.

— Bo`ldi, — dedi Asadbek.

— Salat... vino?..

Xizmatchining takliflari chala qoldi. Asadbek qo`pol ravishda:

— Nima kerakligini senga aytdim, — dedi.

Xizmatchi juvon ensasi qotganini yashirmay burilib ketgach, Asadbek so`kinib qo`ydi.

— Uyga bora qolsak bo`lardi, — dedi Manzura, yalinish ohangida.

— Yo`q, kotlet, dedingmi, endi yeysan shu kotletni, — dedi Asadbek.

— Voy, qornim to`q, — dedi Manzura og`ir jazoga hukm bo`lgan odam kabi cho`chib.

Xotining bu sarosimasini ko`rib Asadbek kulib qo`ydi:

— Ke, endi sen ham bir yayrab o`tirgin. Bizning qudalarindan kamimiz bormi? Biz ham yeb ko`raylik o`sha kotletni. U yoqlardagi xizmatchilar qanaqa ekan, shunaqa lopillagan xotinlarmi?

— Yo`g`a, u yoqda yosh yigitlar xizmat qilisharkan. Shamolday yelib-yugurishadi, baraka topgurlar. Dasturxonga bitta ushoq tushsa darrov tozalashadi. Men o`zimizning odatimizni qilib qoshiqni sochiqqa artsam, Hamidingiz «unaqa qilmang, xizmatchi yigitni baloga qo`yasiz», deydi.

— Nega? — deb ajablandi Asadbek.

— Xo`jayin ko`rib qolsa «qoshiqni yaxshi tozalamay qo`ygan ekansan», deb uni ishdan haydab yuborarkanda...

Nihoyat, kievcha kotlet ham keldi. Asadbek sanchiqda bir tishlam uzib olib, og`ziga soldi-yu, tuflab tashlashni yoki yutishni bilmay, javdirab qoldi. Manzura erining holini fahmlab kuldonni u tomon surdi-da:

— Ko`nglingiz tortmasa yemang, adasi, — dedi.

Asadbek chala chaynalgan qiymani tashladi-da, baland ovoz bilan xizmatchi ayolni chaqirdi. Manzura janjalning hidi kelib qolgani sababli turishga taraddudlandi.

— Adasi, yuring, ketaqolaylik, bolalar ham qaytishgandir.

— O`tir, — dedi Asadbek amr ohangida. — Men bu yerga ovqat yegani kelganman.

Ikkinchi chaqirishdan so`ng xizmatchi keldi-da «Buncha betoqatsiz?» deganday qoshlarini chimirdi.

— O`tir, — dedi Asadbek.

— Mijozlar bilan o`tirish mumkinmas, — dedi xizmatchi.

— Men sening mijozingmasman, o`tir degandan ke-yin o`tir.

Oppoq sochli bu odamning ko`zlarida chaqnayotgan qahr-g`azab uchquni xizmatchini omonat tarzda bo`lsa-da, o`tirishga majbur etdi.



— Mana shu kievcha kotletni senga ilindim. Ol, ye! — deb amr qildi Asadbek.

— Qornim to'q, yemayman, — dedi xizmatchi.

— To'q bo'lsang ham ye.

— Yaxshi pishmabdimi, sizga yoqmadimi?

— Yeyaver, zo'r pishgan.

Xizmatchi bu mijozdan oson qutula olmasligini fahmlab qiymadan ozgina ushatib oldi. Xuddi totli taom yeyayotganday chapillatib chaynab, tezgina yuta qoldi.

— Xo'sh, yoqdimi? O'lgan eshakning go'shtimidi bu?

— Yomon emas-ku, sizga nimasi yoqmadi? — dedi xizmatchi bir yutinib qo'yib.

Taomning yomon emasligiga o'zi ham ishonmagani uchun bu gapni popugi pasaygan tarzda, Asadbekning ko'zlariga qaray olmagan ravishda gapirdi.

— Itga bersang it yemaydi buni, yana yomonmas deysan-a! — Asadbek shunday deb bo'ralab so'kdi-da, likopchani uning oldiga surdi: — Oxirigacha yeysan. Yemasang emchakxaltangga solib beraman, uyga borganingda kechasi bilan kavshab chiqasan.

— Siz menga qo'pollik qilmang, — xizmatchi shunday deb o'rnidan turmoqchi edi, Asadbek uni bilagidan ushlab tortib, joyiga o'tqazib qo'ydi. Bunga ko'zlari tushgan xizmatchilardan ikkitasi yugurib kelishdi:

— Natali, nima gap?

— Grajdanin nega to'palon qilyapsiz?

Asadbek ularga bir xo'mrayib qaradi-yu, indamadi. «Natali» deyilguvchi xizmatchiga esa yana amr qildi:

— Ye!

Ko'zlari javdirab Manzura o'rnidan turmoqchi bo'ldi:

— Adasi...

— O'tir joyingga!

Xizmatchilardan biri tez-tez yurib qalin parda ortidagi oshxona tomon o'tdi. Dam o'tmay o'sha tomonda restoran xo'jayinining muovini ko'rindi. U avvaliga sochlari oqarib ketgan Asadbekni tanimadi. Dadil yurib kelayotib, Asadbekning o'tkir nigohi bilan ko'zlari to'qnashdi-yu, birov oyog'iga o'roq urganday taqqa to'xtadi. Shu nafasning o'zida tizzasiga qaltiroq yugurdi. Ammo turli odamlarni ko'raverib, muomalaning ming bir turini o'zlashtirgan muovin tezda o'zini qo'lga oldi. Noxushlikdan xabar berib, endi ergashib kelayotgan xizmatchiga o'girilib, bir nima deb shivirladi. Xizmatchi «ma'qul» ishorasini qilgach, epchillik bilan oldinga o'tib, dugonalarining himoyasiga shay turgan ikki ayolni asta turti-da, nariga boshladi.

«Nega bir o'zlari? Nega bizni hech kim ogohlantirmadi?» — Muovin shu savollar to'riga o'ralib Asadbekka ro'para bo'lgach, ta'zim bilan salom berdi.

— Bek aka, g'aflatda qolibmiz, uzr...

«Ha, hali ham Bek akangman. Bek akangligimcha qolaman! «Asadbek shu gapni ko'nglidan o'tqazib unga qaradi-yu, tanimadi. Yaqin uch-to'rt yil ichida bu restoranga kirmagani uchun xo'jayini kim, shotirlari kim bilmasdi. Buni yo Chuvrindi yo Kesakpolvon yaxshi bilardi.

— Xo'jayin senmisan bu yerga? — deb so'radi Asadbek.

— Yo'q... xo'jayin... o'zingiz bilasiz, Norbo'ta akangilar. Sal toblari yo'qroq edi, izg'irinda belni oldirib qo'yibdilar.

— Senlarni beldan emas, kalladan olgan.

— Bek aka, bu yoqda joy tayyor edi, o'taylik. Natali, tur, ishingni qil.

Xo'jayini talabi bilan qo'zg'olgan xizmatchini Asadbek qahrli qarashi bilan joyiga mixladi-da, hamon ta'zimda turgan muovinga buyurdi:

— Sen ham o'tir, Natali jononingga qarashib yuborasan. Buning o'zi tirsillab turibdi,

yana bo'kib qolmasin.

— Bek aka, joy tayyor edi-ya...

— Senga o'tir, dedim. Shu kotletning bittasini yeb berasan.

Muovin o'tirgach, Asadbek Manzuraga atalgan kotletni u tomon surib qo'ydi. Muovin «seni deb men ham baloga qoldim-ku, ol ye», degan ma'noda xizmatchiga qaradi-yu, sanchiqqa qo'l uzatdi.

Manzura bu mojaro erining foydasiga hal bo'lganini bilib tursa ham igna ustida o'tirganday halovatini yo'qotdi. Asadbek esa ko'zini kotletxo'rlardan uzmay jim o'tirdi. «Yaxshiki bu bo'g'irsoq meni tanib qoldi,— deb o'yladi u.— Bo'lmasa oshxonadan ikki barzangi chiqib, ikki qo'ltig'imdan olib, ko'chaga tashlarmidi? Ha, oppoq sochimning hurmatidan rahmi kelsa shunday qilardi. Berahmrog'i xuddi axlatga tashlanadigan lattaday sudrab chiqardi. Balki xotinimning ko'zi oldida bir-ikki tepki yeb sharmanda ham bo'larmidim? Keyin-chi? Alamimdan Jamshidni yoki boshqasini yuborarmidim? Unda nima foyda?.. Endi yolg'iz yuraman, bundan bu yog'iga ahvol shumi? Odamlar izzat qiladi, deb taltayib yuravergan ekanman-da... Yonimda yigitlarim bo'lmasa Asadbek deganlari sariq chaqadek gapmi? Boloxonadagi yigitlar ketishgach, uyimga it ham, bit ham bostirib kiraveradimi? Bu bo'g'irsoq hali o'rnimni Haydarga bo'shatib berganimni bilmaydi. Bilsa shu kotletni basharamga otishdan toymasmidi? U kechagi Asadbekdan qo'rqqyapti, bugungisining orqasiga tepishdan toymaydi...»

Shu onda Asadbek yanglish fikr yuritayotgandi. Bu fikri o'zi yaxshi ko'rib aytib yuradigan «yo'lbars-yo'lbarsdir, hech qachon qo'zichoq bo'lmas», degan gapiga zid edi. To'g'ri, biron idora rahbari ishdan ketsa, unga poyi patak bo'lib, laganbardorlik qilib yuruvchilar darrov to'nni teskari kiyib oladilar. Ammo shaytanat olamida bunday holat kam uchraydi. Bunda yo'lbars-ning yo'lbarslik, bo'ring bo'rilik «guvohnomasi» olib qo'yilsa ham u beozor jonivorga aylanmasligini barcha biladi. Bu olamda «guvohnoma» shunchaki olib qo'yilmaydi, balki go'rkovga topshiriluvchi «o'lim haqidagi dalolatnoma» bilan almashtiriladi. Bunday dalolatnoma berilmas ekan, chetga surilgan odamdan baribir qo'rqqulik. Shunga ko'ra «Asadbek o'yindan chiqibdi», degan gap tarqalgan taqdirda ham, «O'qilon»ning avvalgi shuhrati atrofdagi odamlarni talvasadan qutqarmaydi.

Ham chandir, ham hidlangan go'shtdan tayyorlangan kotletni chaynayotgan muovin ham bundan mustasno emas. Ayni damda birov kelib unga: «Jinni bo'lmasang-chi, bu odam endi hech kim emas», desa ham u «Shu qiymani yeb o'lmasman, lekin yemasam o'lishim ehtimoli bor», degan ehtiyotda Asadbek amridan baribir bo'yin tovlamasdi. Likopcha bo'shagach, muovin ichkarida joy tayyor ekanini yana eslatdi. Manzura esa «adasi ketaqolaylik» degan ma'noda yalinib qaradi. Asadbek har ikkala taklifni e'tiborsiz qoldirib indamay o'tiraverdi. U bezatilgan dasturxon uchun past ketib, joyni o'zgartirishni istamadi. Muovin dasturxon shu yerda bezalishi shartligini uqib, ta'zim bilan iziga qaytdi. Avval dasturxon almashtirildi. Ular kirganda e'tiborsiz ravishda sigaret tutatib, bez bo'lib o'tirganlarning barchasi chaqqon tarzda xizmatga kirishdi. Faqat Natali deganlari ko'rinmadi. Muovin «seni ko'rsalar Bek akamning g'ashlari keladi», deb uni oshxonadagi xizmatga qoldirgan edi.

O'ziga oro berib kiyingan uch yigit dasturxon usti noz-ne'matlar bilan bezalayotgan paytda restoranga bepisandlik bilan kirib kelib o'rtada to'xtashdi. Oldinroqda turgani o'tirganlarga bir-bir qarab, kimnidir qidirganday bo'ldi. So'ng to'rdagi stol atrofida o'tirgan uch erkak, ikki juvondan iborat davra sari yurdi-da, uni ko'rib sarosima bilan o'rnidan qo'zg'olgan chiroyli juvonga tarsaki tushurdi. Buni ko'rgan Manzura cho'chib yoqasini ushlaganicha najot ko'zlari bilan eriga qaradi. Asadbek xotinining xavotirini sezmagandek, xuddi zerikarli kinoni esnab tamosha qi-layotgan odam singari

bamaylixotir o'tiraverdi.

Tarsaki urgan yigitning ikki sherigi davradagi erkaklarning orqasiga o'tishganida juvon: — Bular bilan birga ishlaymiz, bugun mening tug'ilgan kunim edi, — deb ularni himoya qilmoqchi bo'ldi. Yigit o'rnidan jilishga, ayolni himoya qilishga urinmayotgan erkaklarga qaradi-yu, sheriklariga «urlaring», deb imlamadi. Juvonning bilagidan mahkam ushlab, barmog'idagi uzukni tortib oldi. Keyin «soatni yech!» deb buyurdi. Juvon titroq barmoqlari bilan soatni yechib uzatgach, yana tarsaki yedi. Bu safar zarba qattiqroq bo'lgani uchun qalqib ketdi. Yigit uni yana urmoqchi bo'lib xezlanganida oshxona tomondan yugurib chiqqan xizmatchi oraga tushib, unga nimadir dedi. Yigit shu onning o'zida shashtidan tushib, Asadbek tomonga qarab oldi-yu, shoshqich ravishda iziga qaytdi. Urushga shay turgan sheriklari nima voqea yuz berganini anglamay taajjub bilan unga ergashdilar.

Bu tomosha Asadbekka yoshlik yillarini eslatdi.

Restoranga kirgan paytlarda Kesakpolvonning shunaqa qilig'i bo'lardi. Ba'zida o'ziga yoqqan juvonga ega chiqishni istab qolardi. Ko'cha-ko'ydami yoki bozordami ovi yurishmagan kezlari esa restoranga o'ynashlari bilan kirganlarni shilib olish harakatini qilardi. Restoran, mehmonxona atroflariga in qo'ygan fohishalarning ko'pini yaxshi biluvchi Kesakpolvon xuddi hozirgiday tamoshani ko'rsatardi. Kesakpolvon bilan til biriktirgan fohisha bir-ikki tarsaki yerdi-yu, keyin ulushni olgach, mukofotiga uning to'shagini obod qilardi. Asadbek, o'sha kunlarni eslab «bu tamoshani hozir ham bor ekan-da», deb o'yladi.

Dasturxon shohona ko'rinish olgach, muovin yana ta'zim bilan paydo bo'lib, shishalarning qopqog'ini ochmoqchi bo'ldi.

— Ochma, — dedi Asadbek.

— Odamdan aziz bo'libdimi, Bek aka. Tabarruk qilib bering, o'zimiz otamiz, — Muovin shunday deb turib qadahlarga konyak quydi. Asadbek uzatilgan qadahga qo'l uzatmagach, nima qilishini bilmay noqulay ahvolga tushdi. Asadbekning:

— O'zing ich, — deyishi uni bu ahvoldan qutqardi. Qadahni Bek akasining sog'lig'i uchun ko'tarib, yana oshxonaga qaytdi.

Ko'p o'tmay ikki kosada manpar keldi. Asadbek xotiniga «ko'rdingmi, bularni», degandek qarab, istehzo bilan jilmayib qo'ydi, biroq, qo'lga qoshiq olmadi. Manzura ham «endi bu yog'i nima bo'larkin» deb harakatsiz o'tiraverdi. Manpar sovushga ulgurmay toboqi jo'ja ham keltirilib, yoqimli hidi ishtahani qitiqladi. Ana shundan keyin Asadbek cho'ntagidan pul chiqarib sanagach, dasturxon ustiga tashlab ustiga kon'yak shishasini bostirib qo'ydi-da, o'rnidan turdi. Asadbekning bu qilig'idan talvasaga tushgan muovin:

— Bek akajon, bizni uyaltirmang, — deb yalindi.

— Haligi yigitlarni taniysanmi? — deb so'radi Asadbek uning gapiga parvo qilmay.

— Birinchi ko'rishim... tanimayman, — dedi muovin dovdirab.

— Cho'tal berishmaydimi senga, shunaqa laqmamisan? Ertaga Jamshid degan yigit keladi, o'sha bolalar shu yerda bo'lishsin.

Kuzatib chiqqan muovin ularning piyoda ketishayotganini ko'rib ajablandi, lekin «mashina chaqiraymi?» deyishdan qo'rqib, indamay turaverdi.

## 2

Ertalab Asadbek nonushta qilib bo'lgach, Manzura to'ydan gap ochdi:

— Mahmudning qirqi o'tgandan keyin deganman-ku? — dedi Asadbek unga javoban.

— Yigirmalari o'tdi... Mayli, siz nima desangiz shu. Lekin.. kunini belgilab, to'yga aytaversak bo'larmidi... bilasiz-ku, odamlar tillari bilan yuradigan bo'lib ketishgan...

— Yaxshi... Bor, Samadingni chaqir.

Manzura gapni ko'paytirmay o'rnidan chaqqon turdi-da, o'g'lini boshlab qaytdi. U to'yning maslahati bo'lar, degan fikrda yana erining ro'parasidan joy oldi. Lekin Asadbek hozirgina to'y haqida gap bo'lganini unutganday o'g'lidan butunlay boshqa narsani so'radi:

— Kecha Qamar amaking chiqibdilarmi? Nimalarni gaplashding?

Manzura Abdusamadni boshlab kelayotganida yo'l-yo'lakay «adanglar to'y kunini belgilamoqchilar, tortinmay gapingni aytaver», deb shipshib qo'ygan edi. Shu sababli o'g'il otasining savolidan ajablanib, onasiga qarab qo'ydi. Manzura «qaydam, o'zim ham hayronman, bu kechagi gap edi...» deganday pastki labini asta tishlab, nigohini olib qochdi. Abdusamad esa mujmalroq tarzda:

— Uyni sotmoqchimishlar, puldan qiynalib qolishganmish, — deb javob qildi.

— Sen nima deding?

— Adamlar bilan maslahatlashaman, dedim.

— Durust... — Asadbek shunday deb o'g'luga sinovchan tikildi. — «Sotaman», deb boshqalarga ham aytibdimi?

— Yo'q. Birinchi biznikiga chiqibdilar. Gaplarining mazmunidan bizga sotmoqchiga o'xshaydilar.

— O'zing nima deysan?

— Siz nima desangiz...

— Men sening fikringni bilmoqchiman. Senam bitta oilaga bosh bo'lyapsan. Chetning hayotini ko'rding. Qani, bir nima degin-chi?

Bu gapdan so'ng ona-bola ko'z urishtirib oldilar.

— Oyingga qarama, men sendan so'rayapman, menga qarab gapir.

— Sotishga astoydil ahd qilishgan bo'lsa... olganimiz ma'qulroqmikin?

— Sen unaqa mijg'ovlik qilma. Kechadan beri o'ylangandirsan, aniq bir fikrga kelgandirsan? Sotib olganimiz ma'qulroqmi yo sotib olishimiz kerakmi?

— Adasi, bunaqa gaplarni bilmaydi hali... — shunday deb oraga tushgan Manzura «Sen aqling yetmagan ishlarga aralashma», degan tanbeh bilan jim bo'la qoldi.

— Oying senlarni hali ham yosh bola fahmlaydi,— dedi Asadbek o'g'luga, so'ng xotiniga yuzlandi: — baloni bilishadi bu bollaring. Chetda o'qiganlarni sen anoyi dema.

Asadbek keyingi luqmasini jindak mehr bilan ayt-gan bo'lsa-da, Abdusamad aniq fikrini bildirishga jur'at etolmadi. Otasi talabini yana qaytargach:

— Olganimiz yaxshi, — dedi.

— Qamar amakingga shunday dedingmi?

— Yo'q, «adam biladilar», dedim.

— Yaxshi, yaxshi... uy sotilsa biz olishimiz kerak...— Asadbek o'g'lidan ko'z uzmagan holda piyolaning chetiga chertib qo'ydi. — O'g'lim, uyimiz torlik qilib qoldimi, sig'mayapsizmi?

Sizlashga o'tilishi yaxshilik alomati emasligini bilgan Manzura bezovtalanib, erini chalg'itish maqsadida:

— Adasi, choy quyaymi? — deb so'radi.

Asadbek bu gapga e'tibor qilmay, o'g'luga qattiq tikilganicha javob kutdi:

— Sizdan so'rayapman, sig'mayapsizlarmi? Boshqa uy-joy qilib beraymi?

Abdusamad boshini eggan holda o'zini oqlamoqchi bo'ldi:

— Ada, unaqa deganim yo'q-ku...

— Bitta qoringa siqqan aka-uka bitta uyga sig'masligini bilaman. Siz o'qishingizni bitirib

kelguningizcha bundan yaxshiroq uy-joy qurdirib qo'yaman. Ammo yon qo'shnimizning uyini sotib olmaymiz, o'g'lim. Nimagaligini bilasizmi? Bilmaysiz. Chunki juda-juda kalta o'ylaysiz. Hali onangiz «odamlar tillari bilan yuradigan bo'lib ketishgan», dedilar. O'sha tili bilan yuradigan odamlar «Asadbek qo'shnisining mushkulini oson qilibdi», deyishmaydi. «Asadbek — zolim, yon qo'shnisini chiqishtirmay, siqib chiqarib, o'g'liga joy solibdi, erta-indin butun mahallani egallaydi», deb nog'ora-karnay chalishadi.

Shunaqami? Nega indamaysan, gapir?

— Ada, kechiring, buni o'ylamabman.

— Ha, ana, endi o'zingga kelding. Ilmning izidan tushganing yaxshi, lekin hayotning g'alamis tomonlarini unutishga haqqing yo'q. Bizga ta'zim qilib, tirjayib turganlarning qo'llariga qara, sal teskari bo'ldingmi, panjalarida changallab turgan loyni basharamizga chaplashadi. Germaniyada balki bunaqamasdir, sen ilmni o'sha yoqda olginu hayotni bu yerda o'rgan. Tushundingmi?

— Tushundim, ada.

— Tushungan bo'lsang, bor, Jalil amakingni olib kel. Uyiga quruq kirib borma, bozorga tushib mayda-chuyda olvol.

Abdusamad tobelik bilan o'rnidan turib chiqib ketgach, Asadbek Manzuraga qarab:

— Hamid haliyam uxlayaptimi? — deb so'radi.

— Ertalab turuvdi. Sal mazasi yo'qroq.

— Nima bo'пти?

— Shamollaganga o'xshaydi, «badanim qaqshayapti» deydi. Asal choy ichirib yotqizdim.

— Sen Qamar akani chaqirchi.

Manzura amrni bajarish uchun qo'zg'olganda Asadbek uni to'xtatdi-da, «o'zim chiqa qolaman», deb o'rnidan turdi.

Bu hovli sotib olinib qurilish boshlanayotganida o'zini o'zi ishboshi qilib tayinlagan Kesakpolvon shu qo'shnining hovlisiga ham xaridor bo'lgan edi. «Hech bo'lmasa yarmisini soting», degan taklifni Qamariddin «O'g'illar birin-ketin yetilay deb turishibdi. Ularga uy qursak, hovli katalak bo'lib qoladi», deb unamaganda Kesakpolvonning g'ashi kelgan edi. Oshnasi «shu qo'shningni iniga kirg'izvormasam yurgan ekanman...» deganida Asadbek «Tinch qo'y uni, menga shu hovli ham yetadi», deb qaytargandi. Kesakpolvon xojasining gapini ikki qilmay, Qamariddinni tinch qo'ydi-yu, biroq, bu yondagi qo'shnini avray-avray avval hovlisining yarmisini sotib oldirdi. Keyinroq «ikki qizingiz bilan hovlida nima qilasiz qiynalib», deb yurib, qolgan yarmini shahar markazidagi to'rt xonali uyga almashtirdi-yu, so'ng ko'ngli orom topdi. Asadbekning «bekor qilding shu ishni», degan gapiga «Sening obro'ying mening obro'yim, sen bilan bir ish qiladigan odam avval uyingga qaraydi. Katalakda o'tirsang birov afitingga boqmaydi», deb javob qaytargan edi.

Kecha Manzura «uyni sotishmoqchimishmi...» deganida Asadbek Kesakpolvonning o'sha paytdagi ahdini esladi. «Bu maraz yana menga yaxshi ko'rinish uchun Qamar akani siquvga oldimikin?» deb o'yladi. O'g'lining fikridan g'ashlanishining ikkinchi sababi shu edi.

Asadbekning qo'shnichilik burchini bajarishi to'y-ma'ralarga birrov chiqib qo'yishdan iborat edi. Ko'chada ko'rishib qolishgudek bo'lishsa ham asosan salom-alik bilan kifoyalanardi. Asadbekning hovliga kirib kelishi Qamariddin uchun kutilmagan bo'lgani bilan maqsadi ma'lum edi. Darvozaxonaga taqab chol-kampir uchun solingan pastak uyga kirib o'tirishgach, duoyi-fotihadan so'ng Asadbek gapni cho'zib o'tirmay muddaoga o'tib qo'ya qoldi. Bir paytlar hovliga xaridor bo'lgan odam, bugun yo ertaning o'zida sotib oladi, degan ishonchdagi Qamariddin ham chaynalib o'tirmay, niyatini ayta qoldi:

- Shu hovli begona bo'lmasin, o'zingiz oling, — dedi u.
- Mening uyim bor, — dedi Asadbek.
- Men o'g'illaringizning biriga vatan bo'larmikin, devdim.
- Sizning o'g'illaringizga vatan kerakmasmi?
- Keraklikka kerak... qo'l kalta-da, Bek aka.
- Qamar aka, sizga bu ishni birov o'rgatdimi, yo bitta-yarimta zo'r «sotasan», deb zo'rladimi?
- Meni kim zo'rlardi, hayotning o'zi majburlab qo'yarkan.
- Zavodda necha yildan beri ishlaysiz? O'ttiz yil bo'lgandir, a?
- O'ttizingiz nimasi, qirq besh yil bo'ldi. Urush vaqtida o'n to'rt yoshimda boshlaganman ishni. Dastgohga bo'yim yetmasdi, oyog'imning tagiga g'isht qo'yib berishardi.
- Shuncha ishlab qo'yibsiz, uy so'ramaysizmi?
- Vaqtida navbatga turib qo'ymagan ekanman. Omi odamman-da.
- Hozir navbatingiz bormi ishqilib?
- Borlikka bor-ku, lekin ellikning naryog'ida. Bu yil zavod bitta uy quruvdi, navbat yaqinlashib qolarmikin, desam, Rossiyadan ishchilar keladigan ekan, uy o'shalarga berilarmish. Katta o'g'lim ham ishxonasida navbatda turibdi. Tunovinda hisoblasak, navbati o'ttiz yilda kelarkan.
- Ota-bola ikkita uy olsalaringiz masala hal-mi?
- Qamariddin Asadbekning maqsadini anglab o'ng'aysizlandi:
- Bek aka, shu joyni olib qo'ya qolganingiz yaxshi edi bizga.
- Menga uy kerakmas, — dedi Asadbek qat'iy tarzda, keyin samimiy ohangda qo'shib qo'ydi: — Menga qo'shni kerak.
- Rahmat, Bek aka, o'zi... sizning oldingizda hijolat edim.
- Nega hijolat bo'lasiz? Siz bilan bizning oramizda gap-so'z bo'lishi mumkinmas.
- O'rtanchamni yaxshi somsaxonaga joylab qo'yuvdingiz. Tirikchilik tuppa-tuzik o'tib turuvdi. Bola tushmagurning somsapazlikka sirayam toqati yo'q-da. Mendan bemaslahat avtobazaga borib ishga joylashib olibdi. Bir shalaq aravani berib qo'yishgan, bir kun yursa o'n kun qora moyga belanib tuzatadi. Shunda ham shashtidan qaytmayapti. Juda o'jar-da.
- Karate bilan shug'ullanadigani shu bolamidi? Tashlab yuborgandir?
- Be, qayoqda! Karate degani uning joni-ku! Ikkita bolali bo'lding, qo'y endi, desam ham «otammisan sen, kimga gapiryapsan» demaydi.
- Shu o'g'lingizni menga bering, menda ishlasin.
- Bu taklif Qamariddin uchun ham kutilmagan, ham yoqimsiz bo'ldi. Shu sababli hamsuhbatiga bir oz tikilib, darrov javob qaytarmadi, so'ng:
- Qanaqa bo'larkin... avtobazasiga ancha o'rganib qoluvdi, xo'jayinlari «yangi moshin kelsa, sen olasan», deb va'da qilishibdi...
- Asadbek bu mujmal gapning asosida qanday xavotir yashiringanini fahmlab, afsus bilan kulimsirab qo'ydi:
- Qamar aka, shu gapingizga qoyil qolmadim. Necha yillik qo'shnimiz-u, lekin siz ham boshqalarga o'xshab har xil mish-mishlarga ishonasiz. Xuddi men o'g'lingizning qo'lga bolta berib jallodga aylantirib qo'yadiganday qo'rqasiz-a?
- Unaqa emas, Bek aka, sizni hurmat qilaman.
- Hurmat qilasiz-u, lekin qo'rqasiz. Sizga aytmagandirman, o'zingiz odamlardan eshitgandirsiz balki, men bolaligimdan boshlab qimorning xadisini olganman. Gapning dangalini, naqdini, halolini, xullas, o'g'il bolasini yoqtiraman. Ilgari ham bolalaringizni bering, deganimda mijg'ovlik qiluvdingiz. Men pul topishni bilaman. Agar xohlasangiz o'g'lingizga kooperativ taksilardan bittasini berib qo'yay, istasangiz uzoqqa qatnaydigan

KamAZlar bor.

— Bek aka, uzoqning ishi qiyin. Borib kelguncha xavotirdan yorilib ketarman.

— Unda o'zimning moshinamni haydaydi. Doim ko'z oldingizda bo'ladi. O'ylab ko'ring, ko'nglingizda ozgina gumonmi, xiralikmi bo'lsa — men taklif qilmadim, siz eshitmadingiz. Orada ginalik yo'q. Men «uyni sotmang», deb chiqdim, siz shunga ko'ndingiz — boshqa gap-so'zimiz yo'q.

Asadbek shunday degach, o'rnidan turdi.

Ko'chaga qadar kuzatib chiqqan qo'shnisini taomilga ko'ra uyiga taklif qildi. Qamariddin bu lutfga «Xudo xohlasa to'ylarda chiqarmiz», deb yaxshi niyat bilan javob qildi.

Erining hovliga kirib kelayotganini ko'rgan Manzura oshxonadan chiqdi-da, «Haydar aka kelganlar», deb mehmonxona tomonga qarab qo'ydi. Asadbek Kesakpolvonning bugun albatta kelishini bilardi. Shu bois xotini aytgan yangilikdan ajablanmadi. Eri bilan Haydar akasi orasida qanday gap o'tganidan, oxiri ikkovidan birining yoki ikkovining o'limi bilan yakunlanuvchi yo'lga qadam qo'yganlaridan bexabar Manzura Kesakpolvonning kirib kelishida g'ayri tabiiy holatni sezmedi, uning qaymoq, issiq non ko'tarib kirib kelishini odatdagi tashriflardan deb bilgani sababli eriga aytgan xabarida taajjub ohangi yo'q edi. Mehmonxonadan chiqib kelayotgan Mushtariyga ko'zi tushgan Asadbek xotiniga «kelining nega kirdi u yoqqa?» degan ma'noda savol nazari bilan qaradi.

— Choyni olib kira qoling, devdim, — dedi Manzura.

— Bu uyda erkak zoti yo'qmi, xizmat qiladigan?

Manzura «Samadjonga o'zingiz ish buyurdingiz, Hamidjonning tobi yo'qligini aytdim-ku», deb o'zini oqlashga jur'at qilolmay, eriga mo'ltillaganicha qarab turaverdi. U erining so'kib berishini kutgan edi. Mushtariy yaqin kelib qolgani uchun Asadbek xotinini siquvga olmadi. Keliniga:

— Qizim, bizda kelin begon erkak o'tirgan uyga kirmaydi. Mehmonga atalgan narsani shunday ostonaga qo'yib sekin ovoz beradi. To'g'ri aytyapmanmi, onasi, sen shunaqa qilarding, a?

— Ha, begonalariga shunaqa qilinadi. Haydar aka amaki qatori bo'lganlari uchun...

Erinnig avzoyi birdaniga o'zgarganini ko'rgan Manzuraning gapi og'zida qoldi. Asadbek «Bularga amaki bo'ladigan ukam o'lib ketgan», deb to'ng'illamoqchi edi-yu, kelin huzurida noqulay ahvol yuzaga kelishi mumkinligini fahmlab, indamay qo'ya qoldi. Kesakpolvon derazaning o'ng tomonida, har doim o'tiradigan joyida yonboshlaganicha qaymoqxo'rlikni boshlab yuborgan edi. Kosadagi qaymoqqa botirilgan non bo'laklarini choy qoshiqda bittadan olishga qanoat qilmay beminnat barmoqlarini ishga solib qo'ya qolgandi. Asadbek ostonada paydo bo'lishi bilan Kesakpolvon qaymoq yuqi barmoqlarini yalab o'rnidan turdi-da, ko'rishmoq uchun bilagini tutdi. Asadbek kayfiyati durust bo'lsa, Kesakpolvonning bu qiligi e'tiborisiz qolar, bir nimadan g'ashlanib, yoki achchiqlanib turgan bo'lsa, «Qo'lingni artsang o'lib qolasanmi», «Burninggacha qaymoq chaplabsan-a, buncha isqirt-san», «Kuchuk bolaga o'xshab chappillataverma» kabi zaharli tanbehlarni eshitardi. Eshitardi-yu, «qaymoqxo'rlikning asl mazasi shunda-da», deb o'z bilganidan qolmas edi.

Kesakpolvonning barmoqlarini yalab, ko'rishmoq uchun bilagini tutishi Asadbek uchun yangilik emasdi. Ilgarilari buni befarosatlik ramzi sifatida qabul qilgan bo'lsa, hozir mensimaslikning bir ko'rinishi deb bilib g'ashlandi. Qandaydir ovoz (balki shayton alayhila'nadir) «zaharli so'zlaringni sanchib-sanchib olsang-chi, indamay qo'yaverasanmi», dedi. Boshqa ovoz esa (balki Yaratganning farishtalaridir) «Sen endi bu bilan o'chakishma, sir berma, o'zingni bir pog'ona past ol, kam bo'lmaysan. Shunday qilki, uni g'aflat bossin...» deb shashtidan qaytardi, ko'ngil g'ashligini sezdirmedi. Kesakpolvon go'yo qaymoqxo'rlik bilan band bo'lsa-da, oshnasining ko'z qarashlaridan,

so'zlaridan bir nimani ilg'ab olishni istardi. Ayni choqda kecha boloxonadagi yigitlarnig qo'ng'irog'idan keyin uyg'ongan navbatdagi talvasasini oshnasiga sezdirmaslikka tirishardi. Faqat o'zigagina ma'lum o'tda qovrilayotgan Kesakpolvon choydan bir-ikki xo'plab xo'rillatib ichdi-da, oshnasidan hol so'ragan bo'ldi:

— Qayoqda yuribsan, birga qaymoqho'rlik qilarmiz devdim.

— Shunaqa niyati bor odam ertaroq keladi, — dedi Asadbek unga javoban.

— Vaqtli kelmoqchiydim, — Kesakpolvon shunday deb og'zini qaymoqli nonga to'ldirdi-da, kosani Asadbek tomonga salgina surib «Ol, ye» deb manzirat qildi. Keyin luqmasini chala-chulpa yutib izoh berdi: — Bugun uyqudan kechroq tursang kerak, deb o'ylabman.

— Kun yoyilguncha biqsib yotganimni ko'rganmiding?— dedi Asadbek zardali ohangda.

— Restorandan keyin boshing og'rib yotgandirsan, debman-da, — Kesakpolvon «qoyilmisan» deganday ayyorona kulimsirab qo'ydi.

Boshqa odam bo'lganida balki «Ie, shundan ham xabar topdingmi!» deb ajablangan bo'lardi. Asadbek esa bu gapni e'tiborsizlik bilan tingladi.

Muovinning restoran xo'jayinini topib noxush voqeadan xabardor qilishi, uning esa yarim kechadami yoki erta tongdami Kesakpolvonga uchrab, «Bek akalari huzurida uzrli bo'lib qolganlari»ni aytmog'ini Asadbek hisobga olib qo'ygandi. Kesakpolvonning bugun albatta kelishiga ishonchi borligining birinchi sababi shu edi. Ikkinchi sababi esa, garchi boloxonadagi yigitlar «Ertalab Haydar akalaringga uchrashlaring, bundan bu yog'iga bajardigan ishlaringni aytadi», degan amrni olsalar-da, ertani kutib o'tirmay o'sha zahotiyog akalariga sim qoqib, «uydan chiqlaringu Bek akalaringga sezdirmay ko'chada poylalarig», degan buyruqni olishlari aniqligi edi.

Asadbek kechqurun restorandan qaytganida avval boloxona derzasiga boqdi: hamisha yonib turuvchi chiroqning o'chirilgani yigitlarning yo'qligidan darak edi. Shunday bo'lishini o'zi xohlagan bo'lsa-da, yuqoridagi chiroqning o'chishi davru davroni, shuhrati mash'alasining so'nishidan darak berganday yuragi bir uvishdi. Ayni nafasda muyulishda ikki kishining qorasini ko'rib, Kesakpolvondan amr bo'lgani, oshnasining ertalab yetib kelajagini angladi.

— Bo'tavoy qashqani pichoqsiz so'yib kelibsan- ku, — dedi Kesakpolvon, dasturxonga tomgan qaymoqni jimjilog'i bilan yalab.

— Qashqang kim? — deb so'radi Asadbek.

— Tanimaysanmi? — Kesakpolvon «rostdanam tanimaysanmi yo meni laqillatmoqchimisan?» deganday unga sinovchan boqdi. Hatto lablari bir pas chaplashdan to'xtadi.

— Restoranning xo'jayinini tanimaysanmi? Mahmud oraga tushib qo'ydiruvdi-ku?

— Esimda yo'q... nima, oldingga emaklab bordimi?

— Emaklaydigan odamni uchib boradigan qilib qo'yibsan-ku. Yomon ezibsan bola paqirni. Agar ovutib qo'ymasam unga ishton chidamay qolardi.

Kesakpolvon shunday deb kuldi, oshnasidan «nima qilibmanki, bunchalar ezilsa», degan mazmunda gap kutdi. Asadbek esa oshnasining gapini uqmaganday javob qaytarmadi. Uzoq yillar mobaynida oralarida sir bo'lmagan, bir-birini do'st deb bilgan, qilingan gunohlarga teng sherik hisoblanmish bu ikki odamning o'zga-o'zga olamga chekinib o'tirishi ajabtovur edi. Sharafli hadisda aytilmish ekanki, «birovga haddan ziyod ishonch bilan sirdosh do'st tutinmangki, vaqti kelib u dushmanga aylanishi ehtimoli bordir, dushman hisoblanmish kishi bilan haddan ziyod yovlashmangkim, vaqti kelib u sizga do'st bo'lib qolar...»

Dushmanga aylanish alhol ehtimol emas, haqiqatga aylandi. Bu haqiqatni ikkovi ham yaxshi biladi. Ammo bir-biriga sir boy bermaydi. Dushmanliklarini, bir-birlaridan xavotirlari mavjudligini gap-so'zlari oshkor qilib qo'ymasligi uchun tillariga ehtiyot



bo'ladilar. Kesakpolvonning xoinligiga shak-shubhasi qolmagan Asadbekning hukmi tayin, faqat ijro uslubi va vaqti aniq emasdi. Aslida Asadbek uchun uning izini quritish murakkab muammo emasdi. Yo bittagina o'q bilan, yo yarim quloch chilvirni yo bigizmi, yoki uch-to'rt tomchi zahar bilan bu masalani yechishi mumkin, faqat yigitlardan biriga ishora qilib qo'yisa kifoya: Kesakpolvon Xumkallaning taqdiriga sherik bo'lib ketaverardi. Lekin qaymoq yuqi barmoqlarini yalayotgan Kesakpolvonning taqdiri faqat Asadbekning hukmiga emas, Xongireyning marhamatiga ham bog'liq edi. Nas-roniylarning ta'biri bilan aytilganda, Xongirey — cho'qintirgan ota — tutingan o'g'lini o'lim changaliga osongina topshirib qo'ymasligini Asadbek yaxshi bilardi. O'rtada o'zining emas, farzandlarining taqdiri garovda ekani uni har qanday ochiq hamladan tutib turardi. U «tutingan o'g'il»ning «cho'qintirgan ota» qo'lidan o'lim topishini istardi. Buning uchun esa fursat kerak. Ana shu fursat ichida barmoqlarini yalab, chapillatib chaynab g'ashiga tegish nima ekan, yelkasiga chiqib olib, tahorat ushatib yuborsa ham chidaydi. Bosh-qa iloji yo'q.

Oshnasining payt poylayotganini sezib yurgan Kesakpolvon Asadbekning sodiq yigitlaridan hadiksirardi-yu, zarbaning Moskva tomondan kelajagini taxmin ham qilmasdi.

Kosa bo'shab, qaymoq yuqlari barmoqlar vositasida yalangach, choy quyilib, xo'rillatib ichildi-yu, bir tomonning nafi orom oldi, ikkinchi tomonning esa ko'ngli aynidi.

Kesakpolvon barmoqlari, so'ng labini sochiqqa artgach, yon cho'ntagidan pul chiqarib Asadbekka uzatdi. Asadbek pulga qo'l uzatmadi, «nima bu?» deb so'ramadi ham. — Restorandagi ziyofatning haqqini tashlab ketgan ekansan, — deb izoh berdi Kesakpolvon, pulni dasturxon ustiga qo'yib, so'ng yonida turgan gazetaga o'rog'lik taxlamni ochib bir dasta pulni ko'rsatdi: — Bunisi suyunchi. Anchadan beri bu restoranga kirmay yurib birdan borib qolganingga quvonib ketishibdi. Sening nomingdan ularni o'zim kechirib qo'ya qol- dim, — Kesakpolvon bu pullarni ham dasturxon ustiga qo'yib, tepasiga sochiq tashladi. — Bugun ikkalamizni ziyofatga chaqirishyapti. Sasigan kotletni bergan befarosatning shkalat qizi bor ekan, senga ilinib turishibdi, bir tabarruk qilib berarkansan.

Kesakpolvonning «sasigan kotlet»ni tilga olishi «mensiz yursang kuning shunaqa sassiq taomlarga qoladi», degan ma'noda jaranglab, Asadbekning izzat-nafsiga tegdi. Indamay o'tiraverish o'ziga ham malol kelib:

— Qizi shkalat ekanmi? — deb so'radi.

— Shkalatki, u yoq bu yog'i yo'q, — deb ta'rif berdi Kesakpolvon.

— O'zing tabarruk qilib bergandirsan?

— Qo'ysang-chi, men senga shilta narsani ilinamanmi? Hali soat oltida o'zim kelib olib ketaman. Sen o'zingni u yoq bu yoqqa tashlab, noz qilma. Bitta do'xtir aytdi: uzoq yashayman degan odam onasi o'pmagan marjalar bilan muomala qilib turishi kerak ekan. Men sening yuzga kirishingni istayman, oshnam.

— O'zing boraver, mening ishlarim bor, — Asadbek bu haqda gaplashishni istamaganini ma'lum qilish maqsadida butunlay boshqa mavzuga ko'chdi: — Idorabop joy tanladingmi? Kechagi kun xonamizga kiruvdim, meniyam yutvoray deyapti, Mahmudning o'rni bilinib turibdi.

— Joy qidirapman, markazdan ko'ngilga yoqadigani chiqmayapti.

— Markazga yopishaverma, chetroqdan bo'lgani tuzuk.

— Bir-ikkita joyni ko'z ostiga olib qo'yuvdim, bir borib ko'rsang bo'larmidi?

«Bu ham bir o'yin-da. Menga ko'rsatasan-u, o'z bilganingni qilasan. Menga ma'qul joyga ikki dunyoda kelmaysan. Men orqangdan ergashib yurib, laqillab qolaveraman. Sen esa men bilan yaqinligingni o'zingcha isbot qilgan bo'lasan, a?» Asadbek shunday deb

o'yladi-yu, ammo tili boshqa gapni aytdi:

— Yaxshi. Avval so'rab-surishtirib bir qarorga kelavergin-chi... Endi senga maslahatim: bir gap bo'lsa oson qutulib ketish yo'lini ham hisobga ol. Bu idoramizda hisobini olmagan edik, qopqonga tushgandek o'tirardik. Zamon bizga tinch edi, bilinmadi, xavotirimiz yo'q ham edi. Avvalo Xudo asrasin-u, lekin ehtiyotini o'ylab qo'y.

Bunday jo'yali maslahatni ayamay aytishiga asosiy sabab: oyog'i ostidagi tikonni ko'rmay qadam bosuvchi sobiq a'yonini hukumat ta'qibidan asrash edi. Agar Kesakpolvon nodonlik qilib shu tikonni bossa, hukumat tuzog'iga ilinsa, Xongirey «Ha, o'zi ahmoq ekan», deb qo'ymaydi, aksincha Asadbekdan ko'radi. Fursatdan foydalangan Asadbek bu maslahati bilan yana nishonga urdi: mehribon do'st libosini hali yechmaganini, unga nisbatan dushmanligi yo'qligini bildirib qo'ymoqchi edi. Kesakpolvon maslahatni sobiq xojasi istagan tarzda qabul qilib, iyib ketdi:

— Bu gapingda jon bor, — dedi u. — O'rni kelib qoldi, endi yana bitta maslahating kerak Mahmudning bollariga javob berib yuborsammikin? Bu yoqda Hosilning bollari ham laqillab yurishibdi. Shunga nima deysan?

Asadbek sobiq a'yoniga sinovchan tikildi: «Ularga qo'shib menga sodiq yigitlarning ham dumlarini tugarsan?» dedi uning ko'zlari. Kishining ko'ziga qarab dilidagini bilib olish qobiliyatidan mahrum Kesakpolvon «savolim kutilmagan bo'ldi, oshnamni qiynab qo'ydi», deb o'yladi.

— Dushmanlaring kammi, yana ko'paytirmoqchimisani? — dedi Asadbek undan ko'z uzmay.

— Nega unday deyapsan?

— Bollarni qo'yib yuborsang, keyin ular nima qilishadi? Bitta zo'rrog'i, farosatlirog'i chiqib qolganlarni atrofiga to'plasa-chi? Hosilboyvachchanning o'rniga yana o'ntasi paydo bo'ladi. Keyin bu yog'i urchib ketaveradi.

— Sen hamma narsadan cho'chiyverma. Hosildaqasidan mingtasi menga ro'para kelsin, jig'ini ezib, dabba qilib qo'yarman, — Kesakpolvon shunday deb o'rnidan turdi.

— Katta ketma, — Asadbek boshqa gap aytmay, uni kuzatish maqsadida o'rnidan turgan damda hovlida Jalilning ovozi eshitildi.

— Akaxon keldilar-ku,— dedi Kesakpolvon piching bilan. So'ng bir narsani eslaganday ostonada to'xtadi:— Ha, aytmoqchi, yigitlarga bir nima debsanmi?

Asadbek Kesakpolvonning shu ondagi ustaligiga tan berib, jilmaydi:

— Meni bo'ri yermidi... — Bu javob Kesakpolvonni qoniqtirmay, ensasini qotirdi, shu sababli Asadbek Manzuraga aytgan gapini qaytardi: — Kelinlik uyda tepadan baqrayib turishlari menga yoqmayapti. Sen bilan meni Xudo asrayman, desa shu poyloqchilarsiz ham asraydi. Xudoning joniga tekkan bo'lsak, atrofimizni ikki ming qo'riqchi bilan o'rasak ham azroil jonimizni sug'urib olaveradi.

— Xudoning joniga tegmaslik uchun odam o'zini ehtiyot qilishi kerak, — tiliga kelib qolgan bu falsafasidan Kesakpolvonning o'zi ham mamnun bo'lib boshini g'oz ko'targanicha ayvonga chiqdi-da, gapini davom etdi: — Bu bahonang o'tmaydi oshna, ko'changga bitta uycha qurdirib poylataman. Dod desang ham, faryod desang ham shu, oshnajon. Ildizimiz bittaligini unutayotganga o'xshaysan. Bilib qo'y: sening tinchliging — mening tinchligim, sening obro'ying — mening obro'yim.

Jalil ayvon zinasidan ko'tarilayotgani uchun Kesakpolvon gapini tugatib, unga jilmayib qaradi:

— Akaxon, qaynonasi suygan odamsiz-da, sal vaqtliroq kelganingizda billalashib qaymoqxo'rlik qilardik. — Kesakpolvon shunday deb Jalilga qo'l uzatdi. Jalil noxushlik bilan ko'risha turib:

— Sen bilan bir-ikki marta hamtovoq bo'luvdimmi? — deb to'ng'illab qo'ydi.

— Formadasiz akam, formadasiz, bitta chaqib olmasangiz ko'ngil tinchimaydi, a? — dedi Kesakpolvon o'zini hushchaqchaq tutishga intilib, keyin Asadbekka o'girildi: — bo'ldi, kuzatma, shu yerda xayrlashamiz.

U ko'chaga chiqib ketgunicha ikkovlari ham izidan qarab turdilar.

— Uyingda pashshaxo'rda bo'lmasin, devdim-ku, aytmovmiding? — dedi Jalil uning qorasi o'chgach.

— Men ham senga «bu bilan o'chakishma, sassiq gaplaringni yig'ishtir», devdim shekilli?

— Asadbek o'rtog'ining tanbehiga tanbeh bilan javob berib, uni ichkariga boshladi.

Jalilning dasturxon ustidagi pulga qarab qo'yganini sezib taxlamni olib ko'rpacha ostiga qo'ydi.

— Tinchlikmi o'zi, nega sening obro'ying uning obro'yi bo'lib qoldi? — dedi Jalil to'rga chiqib joylashgach. Asadbek javob o'rniga «qo'yaver uni», deganday jilmayib qo'ya qoldi. Manzura kirib dasturxon ustini sarishta qilib chiqib ketgach, Jalilning donoligi tutib gap boshladi:

— Bitta shaharda ikkita imom-domla bo'lgan ekan It bilan mushuk murosa qilsa qilarkanki, bular ittifoq bo'la olishmas ekanlar. Ulardan bittasi senga o'xshagan marjaboz ekan. O'shanisi bir kech o'ynashi bilan qo'lga tushib, zindonga solinibdi. Bundan xabar topgan ikkinchi imom-domla uning xotinig borib voqeani tushuntiribdi. Oh-voh qilgan xotinni tinchitib, zindonga boshlab kelibdi. Zindonbonning jig'ildonini moylab, ovqat berish bahonasida xotinni erining yoniga kiritibdi, o'ynash esa xotinning chodiriga o'ralib zindondan chiqibdi. Ertasiga ertalab marjaboz imomni qozining oldiga olib kelishibdi. Qozi uni toshbo'ron qilishga hukm qilaman, deb turganida ikkinchi imom «Qozi pochcha, odam o'z shar'iy xotini bilan qo'shilsa ham zino hisoblanadimi, shunga jazo o'limmi?» debdi. Qozi xotinni chaqirtirib qarasaki, imomning gapi to'g'ri. U mirshablarni so'kib, urishibdi, marjabozni esa ozod qilibdi. Shunda marjaboz xaloskoridan:

— Meni ko'rarga ko'zing yo'q edi, nega qutqarding? O'lib ketsam o'zingga yaxshi emasmidi? — deb so'rabdi.

O'shanda xaloskori:

— Sen ham imomsan, men ham. Agar sening buzuqliging isbotini topsa, odamlar orasida «imomlarning hammasi ham shunaqa», degan tushuncha tarqaladi. Men sening hayotingni emas, o'zimning obro'yimni saqlab qoldim, — degan ekan. Shunga o'xshab kessaging obro'yini senga yuklayaptimi?

— Be, unda obro' degan narsa bormi o'zi?

— Bo'пти, tilimni qichitma, qo'y o'sha so'xtasi sovug'ingni. Bo'ladigan gapingni gapir, nega chaqirtirding, tushingga kirdimmi?

— Tushimga kirsang qo'rqqanimdan lablarimga uchuq toshardi. Aka bo'lib o'zing maslahatga kelmasang, chaqirtiraman-da. Mening to'yimga kim bosh bo'lishi kerak?

— Hali men to'yboshimanmi? Tuzuk, odam qatoriga qo'shilib qolibman-da, a? Tur, xotiningni chaqir.

— Avval o'zimiz maslahatni pishirib olaylik.

— Maslahatni Manzura bilan birga pishiramiz. Sen ikkita o'g'il tug'dirib qo'ydim, deb boyvachcha bo'lib kerilib yurgansan. O'g'illaringni Manzura odam qildi. Mana endi to'y uning ko'ngliga qarab bo'ladi. Chaqir. Gapimga ko'nmasang, ana, kessagingni to'yboshi qilib tayinlaginu o'shaning bilan maslahatni pishiraver.

— Obbo... chumak ari ham senchalik jizzillatmay-di,— Asadbek shunday deb tobelik bilan o'rnidan turdi. O'tirgan yerida «Onasi!» deb baqirib chaqirmay o'rnidan turganini ko'rgan Jalil «suyak-suyagiga qadaladigan qilib gapiribman-da», deb o'zidan o'zi quvondi.

Maslahat deganlari uncha cho'zilmadi. Jalil Manzuraga «To'y sen istagancha bo'ladi»,

degan edi, u «adamiz nima desalar shu», dedi-yu, vakolatini eriga opa-osongina topshirib qo`ya qoldi. Shundan keyin to`yning qay tartibda o`tishi lozimligini Jalil erinmay bayon qildi, Asadbek esa siqilmay, sabr bilan tingladi. Jalilning maslahatlari o`zining qarichiga mos edi. Uning nasihati qarindoshlari-yu, yor-do`stlari yig`ilganda sanog`i yuztadan oshmaydigan xonadonga to`g`ri kelardi. Asadbekning o`ttiz, nari borsa qirq kilo guruch damlab, elga osh tortish, to`yni katta restoranlarda emas, shu hovlida o`tqazishi lozimligi kulgili hol bo`lsa-da, Asadbek kulmadi, oshnasidan ranjimadi ham. Nasihatlar poyoniga yetgach, to`y kuni belgilandi.

Maslahat majlisi «nasihatlarni tinglayver-                      gin-u, bilganingdan qolma» degan yashirin shior ostida o`tdi. «Oshnamga ancha nasihat qildim, u qulog`iga oldi», degan to`xtamga kelgan Jalil esa uyiga mamnun qaytdi.

## XVI b o b

### I

Birovlar taqdir yozug`iga ishonishadi. Boshqa birovlar esa «Bo`lmagan gap!» deb qo`l siltab qo`yishadi. Kimdir taqdiridan noliydi, yana kimdir tobora boyib borishini taqdiridan deb biladi, «peshonaga yozilgan ekan, to o`lgunimcha shunday farog`atda yashayman», deb ishonadi. Bulardan tashqari yana shunday toifa borki, shoir: «Yo Rab, loyimni-ku qorgan o`zingsan, o`rish-arqog`imni o`rgan o`zingsan, yomonmanmi-yaxshi, men qandoq qilay, taqdir manglayini bergan o`zingsan», deb aytganiday barcha gunohlarini, yomonliklarini, zulmlarini, fasodlarini taqdirga to`nkab qo`ya qoladi.

Eron gilamlari bilan bezatilgan keng xonada sigaret tutatib, navbatdagi zulm rejasini tuzib o`tirgan uch kishi ana shu toifadan hisoblanadi.

Bular o`zlariga o`xshash minglab, balki undan-da ko`p inson bolalari kabi bilmaydilarki, taqdir yozug`idagi tug`ilmoq va o`lmoqqa doir muammolarni inson hal etmoqqa qodir emas, ammo halol yoki harom yashamoq uning izmidadir. Yaratgan tug`ilmish inson bolasining taqdirida ikki yo`lni belgilab berdi: biri — Rahmon, yana biri shayton yo`li. Bu ikki yo`lni bir-biridan farqlamoq uchun unga zehn, aql, idrok, fahm-farosat kabi fazilatlar ham berdi. Ayni choqda har ikkala yo`lning oxiri nimalardan iborat ekanini ham ma`lum qilib qo`ydi. Odam bolasining taqdiriga faqat buzuqlik, faqat zolimlik, faqat va faqat fosiqlik yozib qo`yilsa-da, shafqat, mehr-muruvvat, umuman yaxshilik ko`chalari esa tamoman berkitilib tashlanishi mumkinmi? U holda banda mahshar kuni hisob-ki tob qilinayotganda «menga to`g`rilik yo`lini tanlash imkoniyati berilmagandi, shayton yo`lidan yurmakdan o`zga choram yo`q edi», desa-chi?

Eron gilamlari bilan bezatilgan keng xonada sigaret tutatib, navbatdagi zulm rejasini tuzib o`tirgan bu uch kishining shunday demog`i tayin. To`g`ri, ular hozir, ertaga, undan keyin ham — to jonlari chiqquniga qadar mahshar kunida hisob bermoqliklari shart ekanini o`ylamaydilar, unga tayyorgarlik ham ko`rmaydilar.

Bu uch odamni ayni damda bir maqsad qovushtirib turgan bo`lsa-da, uchavi uch olam edi. To`plagan boyliklari umrlarining oxiriga qadar yetib-ortgani kabi to`plagan gunohlari ham do`zax o`tida abadiy kuymoq uchun yetib ortadi. Iblis ularning taqdir iplarini bir-biriga tugib, shu xonada uchrashtirdi.

Bir buzuq ayol faxsh yo`lidan qaytmoqqa niyat qilibdi. Ammo nafs qurg`urning «So`nggi marta safarga chiqib, ayshingni surib qol, tavbangni keyinroq qilaverasan», degan maslahatiga kirib dengiz sayohatiga chiqibdi. Ittifoqo, kema falokatga uchrab, cho`ka boshlabdi. Shunda fohisha tavba qilib debdiki: «Ey Xudoyim, to`g`ri, gunohim ko`p, lekin

bitta meni jazolayman, deb shuncha odamni suvga cho'ktirasanmi?» Uning nolalariga javoban: «Ey gunohkor banda, sen «bular mening kasrimga qolishdi», deb kuyinma, bu kemaga xuddi senga o'xshaganlar to'plangan», degan ovoz kelgan ekan...

Bu uch odam ham shunday. Ularning hayot kemalari allaqachon falokatga uchrab cho'ka boshlagan, ammo g'ofillar sezmaydilar. Fohishaga-ku, insof kirib, tavba qilibdi, ammo bularning qotgan tillariga tavba kalimasi o'limdan bo'sa olgunlariga qadar kelmas...

Uch odamning biri — Kesakpolvon. U Asadbeknikidan chiqib, mashinasini qozixonada tomon burdi. (Qozini ko'rib Asadbek g'ashlanmasin, degan fikrda uni choyxonada goldirib, mashinani o'zi haydab kelgan edi.)

Qozining ichkarida emas, choyxonaning panjarali darvozasi yonida turishi Kesakpolvonni sergaklantirdi. «Bir gap bo'lganov» degan fikrda mashinadan tushmay o'tiraverdi. Qozi ildam yaqinlashib, «Nima gap?» degan savolni kutmay hisob berdi:

— Selim degan odamdan xabar keldi. Maskovlik mehmon bilan kutishayotganmish.

— Maskovlik? — «Xongireymikin?» — Kesakpolvon xayoliga kelgan gumonini haqiqatga aylanishini istab: — Kim ekan? — deb so'radi.

— Otini aytmadi.

— Otini aytmadi, deb og'zingga pashsha qo'ndirib o'tiraver, — Kesakpolvon so'kinib, qozi uzatgan bir parcha qog'ozga ko'z tashladi. Qog'oz parchasiga qing'ir-qiyshiq xarflar bilan bir uyning manzili yozilgan edi. «Mehmonxonada turibman, devdi, bunisi qanaqa uy bo'ldi?» Kesakpolvon shu xayol bilan eshikni yopmoqchi bo'lganida Qozi xushxabar aytdi:

— Bolalar do'xtirni topishibdi. Siz aytganday tuxum bosib o'tirgan ekan, tuxumini quritib qo'ya qolishibdi. Xumkalla bilan achom-achom qilib yotishibdi. Kecha kechqurun axlatxonadagi itlarning bazmi bo'lgan,— Qozi shunday deb suyunchi ilinjida tirjayib qo'ydi. Kesakpolvon bir nafas o'ylandi-da, bosh chayqadi:

— Bekor o'ldiribsanlar, bizga xalaqit bermas edi.

Qozi «o'zingiz buyurgan edingiz», demadi. Yuzidagi sovuq kulgi yo'qolib, «aybdorman» deganday bo'ynini qisdi.

Kesakpolvon qog'oz parchasiga yozilgan manzildagi uyni qiynalmay topdi. Tashqi ko'rinishi diqqatni tortmaydigan bu uyda kim yashashini o'zicha taxmin qilib «Selimning shotiri tursa kerak», degan to'xtamga keldi. Ichkaridagi hashamni ko'rgach esa fikridan qayt-di. U manzilga yetib kelgunicha ham «Mehmon — Xongireydir», degan umidda edi. Nazarida Xongireyning keluvi uning obro'-martabasini ancha yuqori ko'tarib qo'yuvi mumkin edi.

Hatto Kesakpolvonning xushini o'g'iraydigan tarz-da shohona bezatilgan keng xonada Selim bilan Mamatbey qahva ichib o'tirishardi. Kutgani, umid qilgani Xongirey o'rniga Mamatbeyni ko'rgan Kesakpolvonning xafsalasi pir bo'ldi.

— O'-o', jan qardash, yo'llaringga ko'z tikib, ko'zlarimiz to'rt emas, to'rt yuz bo'lmish. Omonmisan, qardosh, qaylarda yuribsan?

— Bek bilan choyxo'rlik qiluvdik, — dedi Kesakpolvon gapni aylantirmay.

— Asadbek bilanmi? — deb ajablendi Selim.

— Men bitta bekni bilaman,— dedi Kesakpolvon.

— Oh, go'zal, g'oyat go'zal, — dedi Mamatbey kulimsirab. — Bekning ahvol-ruhiyasi nechukdir? O'g'li sog'-mi?

— Hammasi soppa-sog', — Kesakpolvon Mamatbeyning bu savolidan ajablansa-da, «Nega o'g'ilning sog'-lig'i bilan qiziqib qolding?» deb so'ramadi.

— Asadbek bilan uzilishib ketmadilaringmi? — deb so'radi Selim.

— Nega uzilishamiz? Hamma ish oppa-oson hal bo'ldi. Xongirey oshni yaxshi pishirib yuborgan ekan. Bekning o'zi suzib berdi. — Selimning xo'jalarcha savolga tutishi

yoqmagani tufayli Kesakpolvon Mamatbeyga qarab gapirdi. Asadbek bilan bo'lgan savdoning bayonini eshitgan Mamatbey ayyorona kulimsiradi.

— Sening o'q ilonni unutmog'ing mutlaq lozim emas, — dedi u. — Bek sendan ham mendan ham ayyor. Uning jon bermog'i mushkul.

— Ayyorlikka ayyor, — dedi Kesakpolvon, — u meni ahmoq qilaman, deb poyloqchilariga javob berib yuboribdi. Men esam uning ro'parasidagi uyni sotib olib, poyloqchi qo'yaman. U shoxida yursa, men bargida yuraman. Oshiq tepib, yutqizib, mishig'ini oqizib yurganida uni men odam qilganman. Bu yog'idan xotirjam bo'lavering.

— Xongireyning senga muhabbati juda yuksakdir. Borliq yumushlaringni shunga yarasha qilaver, — dedi Mamatbey unga sigaret uzatib. Selim esa yoqqichni yoqib tutdi. Bu marhamatdan iyigan Kesakpolvon oromkursiga yastandi. Uning bu qiligi Mamatbeyga malol kelib, Selim bilan ko'z urishtirib oldi.

— Bugun seni ancha qidirdik. Bundan bu yog'iga qaerdaligingni aniq bilib turishimiz kerak. Bizning ishimizda bir daqiqa ham joningni yo nari, yo beri qilib qo'yishi mumkin. Bu tanbeh Kesakpolvonning qonini qaynatdi.

Asadbek ba'zan og'ir gap qilganida u jirillab berardi, xojasi bunga javoban yana zahrini sochar yoki indamay qo'ya qolardi, uning erkalgini ko'tarardi. Kechagina Hosilboyvachchani ko'rganida dumini qisib yuruvchi, endi esa Xongireydan vakolat olib o'zini xo'jayin hisoblayotgan Selim ham, Xongirey nomidan ish ko'ruvchi Mamatbey ham uning erkalgini ko'tarmasligi aniq. «Ikkovi ham mikrofonga yopishib chiranuvchi ovozi yo'q ashulachiga o'xshaydi. Mikrofonini tortib olsang, bu ashulachining bahosi sariq chaqa. Bularning qo'lidagi ko'zir Xongirey. Ertaga ko'zirdan ajralishsa mikrofonisiz ashulachining o'zi bo'la qolishadi. Bu xaromilar bilan o'shanda gaplashaman.» — Kesakpolvon shu qarorga kelib, tobelik libosida «xo'p» dedi.

— Xongirey bizga muhim topshiriq berdi. Krasnoyardagi xaridorlarimizning ishtahalari yaxshi. Lekin ularning so'ragan narsalarini darrov yuborib bo'lmaydi. Avval ozrog'ini yuborish kerak. Kurerlikka yaraydigan ishonchli odam bormi?

Kesakpolvon o'ylab o'tirmay «bor» deb javob berdi. Bular uchun eng ishonchli odam uning nazarida Jamshid edi. Bular balki Jamshidni o'zlaricha belgilab qo'yib, sinash maqsadida so'rashayotgandir? Agar shunday bo'lsa, Jamshidning yolg'iz o'zini yubormaydi, Qozini yoki boshqasini yoniga qo'shadi. Kesakpolvon shu to'xtamga kelib turganida Selim «Odam ishonchli bo'lsin, lekin yo'qotsang, achinmagin», deb fikrini buzib yubordi.

— Angladingmi, qardosh? — deb so'radi Mamatbey.

— Ishning xatari bor, — dedi Selim Kesakpolvonning javobini kutmay. — Lekin oqib keladigan foyda bitta-ikkita odamning joniga arziydi. Bugun kech o'nda odaming Krasnoyarga uchishi kerak. Mol anavinda, — Selim shunday deb eshik yonidagi yangi jigarrang diplomatni imlab ko'rsatdi. — Qulfini ochishni xaridorning o'zi biladi. Odaming ertalab xaridorga telefon qiladi. «Bir soatda yetib boraman», deydi. Lekin bir soatda ham, o'n soatda ham bormaydi. Ertasiga telefon qilib, ana undan keyin boradi, — Selim yon cho'ntagidan surat chiqarib, Kesakpolvonga uzatdi, — Xaridor shu odam. Turadigan joyi, ismi, telefoni orqasiga yozilgan.

Kesakpolvon bir suratga, bir Selimga qarab, ajablendi:

— Kozlov-ku? — dedi taajjubini yashirmay.

— Ha, Kozlov, — dedi Selim xotirjam ravishda.

— Buning izi yo'qolgan, deb eshituvdim, — dedi Kesakpolvon Mamatbeyga qarab.

— Biz iz yo'qotmaymiz, biz izni quritmagimiz mumkin, — dedi Mamatbey. — Kozlov Xongirey huzuriga bosh egib bordi. U endi Krasnoyarda bizlarga xizmat etajak, angladingmi?

Kesakpolvon bu reja asosida bir shumlik yotganini sezib, «tushundim», deb gapni kalta qila qoldi. «Kozlov bosh egib borsa Asad bilardi. Yo u xabarsiz qoldimi? Yo bilsa ham menga aytmadimi? Axir bizning Kozlovda anchagina olarimiz bor-ku?» Kesakpolvon bu muammoga javob topmay turib, Mamatbey:

— Qardashing bugun uchmagi lozimdur, — deb ta'kidladi. Bu bilan u borajak kurerning kimligini hozir bilishni istayotganini ma'lum qildi.

— Uning ko'p narsani bilishi shart emas. Buning ichida nima borligini aytni. Omonatni Kozlovga yetkazishi shartligini bilsa kifoya.

Shu onda, Kesakpolvon uchun kutilmagan tarzda xayoliy bir fikr keldi-yu, bundan o'zi ham quvonib ketdi. «Xitlarning odami» deb gumon qilinayotgan Halimjonni sinab olish uchun ayni vaziyat yetilganini anglab, uning nomini tilga oldi-da, o'zina ta'rif ham berdi. Maslahat pishgach, Kesakpolvonga, ijozat berildi. U xo'jalaridan topshiriq olgani kelgan malay holidan o'rnidan turdi. Selim uni xona eshigiga qadar kuzatib, diplomatni qo'lga tutdi. Nari borsa to'rt-besh kilodan oshmaydigan diplomat Kesakpolvon uchun g'oyat og'ir tuyuldi. Mamatbeyning kam gapirib, kuzatib o'tirish, asosiy topshiriqni Selim aytishi, nihoyat, yukni tutqazishi «Bu yerda men xo'jayinman, sen esa dastyorimsan», degan ishora edi. Kesakpolvonning Selim bilan birinchi uchrashuvidagi xavotiri amalga oshdi — u beklilik tojini kiymay, yugurdaklik chorig'iga munosib ko'rilganini angladi-yu, o'zining peshonasiga qarsillatib urgisi keldi.

Ko'chaga chiqqach, o'zicha bir kashfiyot qildi: «Asad shuning uchun ham Xongirey bilan ishlagisi kelmay, meni ro'para qilibdi-da...»

## 2

Krasnoyarga uchajagini Halimjon havoalaniga kelganda bildi. U Kesakpolvon bilan yo'lga chiqqanida «Yangi xo'jayinni kuzataman shekilli», — deb o'ylagan edi. Chuvrindining o'limidan so'ng ikki oshna munosabatlarini kuzatib, oralarida jarlik paydo bo'layotganini sezgan, Asadbekning idoraga kam borishi, ishlarga aralashmay qo'yishidan amal kursisi Kesakpolvonga o'tganini taxmin qilib, bundan kerakli joyni boxabar etgan edi. Shu taxminiga asoslanib Kesakpolvonni o'zicha «yangi xo'jayin», deb atayotgandi. Qo'lga diplomat bilan surat tutqazilib, vazifa topshirilgach, nima deyishini, nima qilishni bilmay garangsib qoldi.

— Ha, nimaga dovdarayapsan? — deb so'radi Kesakpolvon.

— Uyga aytmay ketaveramanmi? — dedi Halimjon.

— O'zim aytib qo'yaman. Sen bola o'zingni taroziga solma. Bizda «uyim-puyim» degan gap bo'lmasligini hali ham bilmaysanmi? Esingdan chiqqan bo'lsa ikkala qulog'ingga quyib ol: bizda «nega?» deb so'ralmaydi. Biz «xo'p» deydiganlarni yaxshi ko'ramiz. Seni ikkita jonga qarz qilib qo'yganmiz, a?

Bunisi Halimjon uchun yangilik bo'ldi:

— Ikkita jon deysizmi?

— Balki uchta... — dedi Kesakpolvon yon tomoniga qarab chirt etib tupurib. — Manqangni oqizib kelganingni unutingmi? Biz qutqarmaganimizda g'ilay qoningni icharmidi, joningni Hosil tabarruk qilib berganidan keyin qo'lma-qo'l bo'lib ketarmidi? Agar xotining hozir ikkiqat bo'lsa, uchinchi jon o'sha-da.

Hali tug'ilmagan go'dakning jonini ham garovga osongina, huddi oddiy gapni aytayotgandek tirkab qo'yishi Halimjonni seskantirib yubordi. «Uchta jonning taqdiri shuni egasiga yetib borishiga bog'liqmi?» deganday ko'zini Kesakpolvondan olib qochib, qo'lidagi diplomatga qaradi.

Pattani belgilatish uchun yurishgan damda qoshu ko'zlariga qadar malla bir yigit xuddi qadrdonlarini uchratib qolganday kulimsirab kelib ular bilan ko'rishdi.

— Haydarbek aka, omadni qarang, bu oshnam bilan birga ucharkanmiz, — deganidan so'ng Kesakpolvon uning kim tomonidan yuborilganini angladi. Halimjonning «Kim bu?» degan ma'nodagi qarashiga javob bermadi. «Kerak bo'lsa yo'lda tanishib olarsanlar», deganday u bilan ko'z urishtirib oldi. Halimjon yolg'iz emasligini, kerakli joyga xabar qilib qo'yish imkoni yanada og'irlashganini bilib, g'ashlandi.

Uchoqqa chiqib o'tirishgach, malla o'zini «Safter» deb tanishtirdi-da:

— Sizga ham aytishgandir, biz bir-birovimiz bilan ko'rinmas zanjir ila bog'langanmiz. Ovqatni ham birga yeymiz, sartirga ham birga boramiz. Siz bun- ga, — Safter Halimjonning tizzasidagi diplomatga shapatilab qo'ydi, — javob berasiz, men sizning eson-omon qaytib borishingizga.

— Gap yo'q, kemaga chiqqanning joni bir, — dedi Halimjon taqdirga tan berib.

Avvaliga «diplomat ichi pul bilan to'ladir», deb o'ylagan edi. Lekin uning yengilligi, ehtiyot chorasining esa g'oyat kuchliligi «qoradori» degan to'xtamga olib keldi.

«Atrofidagi sodiq yigitlariga topshirmay, nega menga yukladi?» degan muammoni esa Kozlovning uyini qidirib borgach, yechdi.

Safter vazifasini yashirmay, to'g'risini aytgan edi. Halimjon uchuvchilar xonasiga kirib, ikki og'iz gap aytib chiqish evini ham qilolmadi. Krasnoyarga yetib borishgach esa Safter adashib qolishdan qo'rqib onasining etagidan ushlab olgan boladay qariyb izma-iz yurdi. Vazifada belgilanganday birinchi kuni Halimjon xaridor bilan bog'lanib, ikkinchi kuni bordi. O'n ikki qavatli uyning sakkizinchi qavatiga chiqishgandagina Safter undan uzildi. Halimjon qo'ng'iroq tugmasini bosganida «Men yettinchi qavatda liftni ushlab turaman. Bir ishkal bo'lsa o'zingni shu yoqqa qarab otaver», deb zina tomon yurdi.

Eshikni keksa bir ayol ochib «Kiravering, o'g'lim vannada, hozir chiqadi», deb Halimjonni ichkariga taklif qildi. Halimjon ostona hatlab o'tishi bilan eshik qarsillab yopilib, shu onning o'zida gaprdaniga to'pponchaning sovuq og'zi tiraldi-da «qimirlama!» degan qat'iy buyruq yangradi. Ro'parasida to'pponcha o'qtalغان ikki yigit ko'ringach, «diplomatni asta qo'yib, qo'lingni orqaga qil», degan buyruq berildi. Itoatkorlik bilan buyruq bajarilishi hamonoq Halimjonning bilaklariga kishan solindi. Shundan keyin yigitlar chekinishib, militsiya polkovnigi kiyimidagi o'rta yashar kishi ko'rindi. U qo'llarini orqasiga qilganicha asta yurib kelib Halimjonning ro'parasida to'xtadi-da, go'yo uning yuzlariga nimalardir yozib qo'yilgan-u, shu yozuvlarni o'qiyotganday obdon tikildi.

Gardaniga to'pponcha tiralganida «tuzoqqa ilinganiga» ishongan Halimjon polkovnikni ko'rgach «Hayriyat, o'zimizniki ekan», deb yengil nafas oldi. Uning tikilishida yomonlik ko'rmay o'zini yengil tutdi. Lekin kutilmaganda qornidan musht yeb bukchaydi. Keyin gardaniga tushgan to'pponcha dastasining zarbidan hushini yo'qotdi.

Xushiga kelganida o'zini keng xonada ko'rdi. Uni deraza ostidagi qovurg'asimon po'lat isitgichga suyab qo'yishgan edi. O'rtadagi stol ustida diplomat turibdi. Polkovnik to'rga o'tirib olgan, yonida esa eshikni ochgan kampir bilan yana bir yoshroq juvon turishardi.

— Ana, botir janoblari o'zlariga keldilar, — dedi polkovnik piching bilan. So'ng yonidagilarga qarab olgach, gapini davom ettirdi: — Leytenant, guvohlar huzurida yozib qo'ying: qo'lga olish paytida qarshilik ko'rsatdi, qochmoqchi bo'ldi. Shunaqa, a? — ayollar polkovnikning bu savoliga javoban ishonchsiz ravishda bosh irg'ab qo'yishdi. — Ana endi qulfning raqamlarini ayt, janob Kozlovga qanday sovg'a olib kelganingni ko'raylik.

— Men bilmayman, — dedi Halimjon. — Kozlovning o'zi bilarkan.

— Kozlov bilarkanmi? Qani o'sha Kozel? Sen Kozlov bilan oxirgi marta qachon va qaerda uchrashgan eding?



— Men uni tanimayman, bugun telefonda gaplashgan edim.

— Dovdirama, kecha ham gaplashuvding. Kelishga va'da beruvding, a? Nega kelmading? Biz seni kutdik. Ayt, nega kelmading?

«Topshiriq shunaqa edi», desa gap chuvalashib ketishini bilgan Halimjon «Yo'lda charchagan ekanman, ikkita pivo ichib uxlab qolibman», deya qo'ya qoldi. Polkovnikning ishorasi bilan xonadagi yigitlardan biri diplomatning raqamli qulfini bir-ikki buragan bo'ldi-da, osongina ochdi. «O'zimni tanitsammikin?» deb ikkilanib turgan Halimjon bu tezkorlikdan ajablanib, tilini tiydi. Bular chinakamiga militsiya xodimlarimi yo kiyimini kiyib olib nayrang qilish-yaptimi — buni aniq bilmay turib o'zini fosh qilishi mumkin emasdi. Bular haqiqiy militsiya xodimlari bo'lsalar ham biron bir to'da bilan bog'lanmagan deb aytish mumkinmi? Harholda bularni bu yerda tasodifan uchratmadi. Malla Safter ham bekorga o'zini olib qochmadi. Bular kimlar? Maqsadlari nima? Gardanidagi og'riqdan azoblanayotgan Halimjon bu savollarga javob topishga ojiz edi. Diplomat ichi g'ijimlanib tashlangan gazeta parchalari bilan to'la edi.

— Bu botir yigit shahrimizga gazeta olib kelibdi. Nima, sen pochtachimisan? — Polkovnik Halimjonga shunday savol berib, diplomatni ochgan yigitga buyurdi: — Yaxshilab qara, nahot faqat gazeta olib kelgan bo'lsa?

G'ijimlangan gazetalar stol ustiga sochilgach, ixcham kitob hajmidagi o'ram ko'rindi. Polkovnik buyurmasa ham yigit o'ramni ochdi.

— Bu nima, bilasizlarmi? — deb so'radi polkovnik ayollardan. — Ha, bilmaysiz. — Bu — qoradori! Mana shu ko'rib turganlaringiz kamida yuzta yigitni til torttirmay o'ldiradi. Yoki nogiron qilib qo'yadi. Ha, bu botir yigit pochtachi emas ekan, yanglishibmiz. Buning mansabini «narkokurer» deyishadi. Yuzta yigitning joni evaziga bu janob mana bundaqa diplomatdan ikkitasini pulga to'latib olib ketishi kerak edi. Pulni esa muhtaram qo'shnilaringiz Kozlov janobi oliylari to'lashlari shart bo'lgan.

Dastlab Halimjonga achinish bilan qaragan ayollarning ko'zlarida endi nafrat zohir bo'ldi. Polkovnik buni sezmaganday Halimjonni so'roqqa tutdi:

— To'g'ri aytyapmanmi, qanchaga kelishgan edilaring?

— Mening vazifam faqat mana shuni berish edi.

— Ha, albatta, sen diplomat ichida nima borligini bilmagansan, a? Narkokurerlarning hammasi shunaqa laqma bo'lishadi. Molning hammasi shumi?

— Men mol haqida hech nima bilmayman.

— Leytenant, boshqarma bilan bog'laning, qo'shimcha kuch yuborishsin. Mehmonxonani bosamiz. Men sezib turibman. Men katta ovni hamisha oldindan sezaman. Xonimlar, sizlar ham biz bilan birga borasiz. Rad etishga haqqingiz yo'q. Men xavfsizliklaringizni to'la ta'minlayman.

Polkovnik shunday deb o'rnidan turdi. Bu orada suratkash ham ishini bitirgach, Halimjonni sudraguday qilib tashqariga olib chiqishdi.

Mehmonxonada, Halimjon egallagan karavotning bosh tomonidagi javoncha ichida bir xil hajmdagi, bir xil rangdagi yana ikkita diplomat turardi. Ular ochilganda biri pul, ikkinchisi qoradori bilan to'ldirilgani ma'lum bo'ldi.

Leytenant yengil-elpi tarzda bayonnoma yozgach, ayollarga imzo chekdirildi-yu, «katta ovni oldindan sezish qobiliyatiga ega» polkovnik amri bilan qamoqxona sari yurildi.

Halimjon bunday holatdagi odamning haq-huquqlarini yaxshi bilsa ham, masala talashmadi. Ikki kungacha uni tergovga chaqirishmadi. Keyin esa nomi tergov deb atalgan, aslida qiynoqdan iborat jarayon boshlandi. Poyabzalini yechib qo'yib tovoniga rezina tayoq bilan har urishganda joni miyasidan chiqib ketay derdi. Ammo «Birodar, men ham o'zingizdanman, ishonmasangiz qo'ng'iroq qiling», deyishdan o'zini tiyardi. Bularning jinoyat olami bilan aloqasi borligiga shubhasi yo'qligi uchun ham o'zini

tanitmadi. U yoqdagi ishlarning ostin-ustun bo'lib ketishidan xavotirlangani sababli emas, balki joni ko'ziga ko'rinayotgani uchun o'zining kimligini fosh qilolmasdi. Agar maxsus topshiriq bilan jinoyatchi to'daga kirib ishlaganini bilib qolishsa, bu azamat hamkasblari tovoniga urib, lazzatlanib o'tirishmaydi. «Choyshabni yirtib, o'zini osibdi», degan xulosani yozib, «yirik narkokurer»ning «Ish»ini yopib qo'ya qolishadi.

### 3

Manzura «kuyovingizni bir marta ham borib ko'rmadingiz-a», deb xarxasha qilaverganidan keyin Asadbek kasalxonaga otlandi. Avvaliga o'limini istagan, so'ng rahmi kelib olib qolgan odamni yo'qlashni o'zi uchun past ketish deb hisoblayotgan Asadbek kasalxona darvozasiga yetmayoq iziga qaytgisi keldi. Garchi «shu odam yashasin», deb marhamat qilgan bo'lsa-da, kuyovining gunohini hali kechmagan edi. Suyukli qizi Zaynabning qora kunlari uchun Elchinni kechirish mumkin ham emasdi. U taqdirning qora o'yinlari bilan murosa qilishga majbur edi. Orada qizining taqdiri bor ekan, har qanday ablahning mal'unliklariga chidashdan o'zga chorasi ham yo'q edi. Hamshira bilak tomirini topolmay igna sanchaverib Elchinning tinkasini quritgan damda Asadbek boshtabib kuzatuvida kirib keldi. Hamshira ularni ko'rib, ishini chala tashlaganicha chiqdi.

Qaynota bilan kuyovning ko'zlari to'qnashdi.

— Bilib turib atay qildingiz-a? — dedi Elchinning ko'zlari. — Bunchalik makkorligingizni hisobga olmagan ekanman. Bir qo'lingiz bilan boshimni silab, ikkinchisi bilan jonimni sug'urib olmoqchi bo'ldingiz-a?!

— Sen bola bundan battar azoblarga loyiqsan, — dedi Asadbekning ko'zlari. — Men umr bo'yi azob tortgin, deb seni o'limdan saqlab qoldim. Sen mening yuragimni tilib, tuz sepgansan. Bu yara o'lgunimcha meni azoblaydi. Sen ham o'lguningcha qaqshaysan. Shunda hisob-kitobimiz to'g'ri bo'ladi...

Ko'zlarining suhbatini tilga ko'chmadi. Boshtabib huzurida bunday tikilib turaverish noqulay bo'lgani uchun Asadbek:

— Qalaysiz hofiz, opoqmisiz? — dedi. U mehribon ota kabi hol so'ramoqchi edi, ammo mehrdan mahrum dildan tilga shirin so'z chiqmas ekan.

Elchin lablarini behol qimirlatib «rahmat» deganday bo'ldi. Qaynota bilan kuyovning suhbatini asosan shu bilan cheklendi. Bularning o'rniga boshtabib gapirib «Elchinbekning ahvol-ruhiyasi yaxshi tomonga o'zgarayotganini» ta'riflab ketdi. Hatto tabobat tarixidan ozgina gapirib o'tdi. Bir-biriga unsiz ravishda tikilib turgandan ko'ra bu odamning sayrashini ma'qul deb bilgan Asadbek luqma ham tashlamadi, gapini kesib ham qo'ymadi. Elchin horigan tarzda ko'zlarini yumgach, Asadbek o'rnidan turdi.

Qaytishda shahar markazidagi uch qavatli imorat yerto'lasiga joylashgan, «videobar» niqobidagi idorasiga kirdi. Dahlizda Bo'tqa bilan Jamshid televizor ko'rib o'tirishgan edi. Eshikka orqa qilib o'tirishgani uchun ikkovlari ham Bek akalarining kirib kelganini sezishmadi. Asadbek:

— Birov kelib dastmoyalaringni kesib ketsa ham bilmaysanlar-a! — deb baqirib bergach, baravariga sapchib turdilar. — Bo'tqa, bu yer idorami, yo amma-xolangning tavonxonasimi?!

O'zini oqlashga urinish, kechirim so'rashning foydasizligini bilgan Bo'tqa «Bek aka...» deganicha boshini egib turaverdi.

Asadbek xonasining eshigini ochib, orqasiga qaramay «Jamshid» deb chaqirdi-da, ichkari kirdi.

Chuvrindinining o'limi, Kesakpolvonning xiyonatidan so'ng Jamshid Asadbekning eng yaqin odami martabasiga ko'tarilgan bo'lsa-da, xojasining yonida o'tirish u yoqda tursin, o'zini erkin tutishga ko'nika olmayotgan edi. Hozir ham Bek akasining izidan kirib «Buyuring, xizimatingizga tayyorman», degan mulozim ko'rinishida qo'l qovushtirib turaverdi. Divanga o'tirgan Asadbek unga bir qarab qo'ydi-da, yonidan joy ko'rsatdi.

— Halimdan darak bormi? — deb so'radi Asadbek, Jamshid o'tirgach.

— Aniq bir gap yo'q. Qozining aytishiga qaraganda Haydar akam bilan aeroport tomonga ketishgan ekan. Surishtirib bilsam, u Krasnoyarga uchgan. Haydar aka kuzatib qo'yganlar.

— Krasnoyarga? Haydar akang kuzatibdimi? — Asadbek shunday deb o'ylanib qoldi: «Xongirey Kozlovga taalluqli biron ish topshirdimi». — Xalimning xitlar bilan aloqasini surishtirdingmi?

— Surishtirdim. Iz bor.

— Akangga ham shunaqa dedingmi?

— Hali aytganimcha yo'q. Haydar akam gumonsiragan bo'lsalar baribir tinch qo'ymaydilar. Yana bir-ikki bolaga «o'ldirasan» deb qo'ygandirlar.

— Ha, qiladi bu ishni. Sen yana surishtir, ish aniq bo'lsin. Halim o'lmasligi kerak. Men bilan ko'rishib turganingga akang g'ashlanmayaptimi?

— Sezdimayaptilar. Lekin oldingiday yaqinliklari yo'qqa o'xshaydi. Hozir akaxonning eng yaqinlari — Qozi.

— Sen Qozidan uzoqlashma.

Eshik ochilib, Bo'tqa ko'rindi:

— Bek aka, Petrenko degan o'ris so'rayapti. Ertalab ham bir so'rovdi, — dedi.

«Petrenko» deyishi bilan Asadbek Bo'tqaga yalt etib qaradi. Petrenko — Kozlovning oz odamlargagina ma'lum bo'lgan laqabi edi.

— Ertalab telefon qilgan bo'lsa, nega darrov aytmading? — Asadbek shunday deb unga o'qrayib qara- di-da, telefon go'shagini ko'tarib, qulog'iga tutdi: — Men — Asadbekman, eshityapman.

— Salom Bek, gaplarimni eshitgin-u, savol berma. Yaqin kunlarda senga ashxabodlik Durdi «quyon» odam yuborishi yo telefon qilishi mumkin. U menga tegishli narsalarni so'raydi, unga ishonma. Ikkalamizga qadrdon odamga va'dasi bor uning.

— Bilaman, uch kun oldin kelib ketdi. U so'ragan narsa biz tomonlarda yo'q.

— Bek, senga bugun bir odam uchrashadi. Qolgan gaplarni o'shandan eshitasan. Xayr. Asadbek go'shakni joyiga qo'yib, «bu yog'i qandoq bo'ldi?» deganday Jamshidga qarab oldi.

Asadbek Ashxabodda Durdi «quyon» degani borligini eshitgan, biroq o'zini ko'rmagan edi. Durdining o'smirlik chog'i o'g'irlikka borganida sheriklarini tashlab qochgani uchun «quyon» laqabini olgani ham unga noma'lum edi. Uning tap tortmay, to'g'ridan to'g'ri uyga chaqirib kelishi Asadbekka yoqmadi. Ilgarigi vaqti bo'lganda Kesakpolvonga bir ishora qilib qo'yardi, uning esa «sapchadek boshginangdan akang aylansin sening, avval o'zing kimsanu kimga ro'para kelmoqchisan, yaxshilab bilib ol. Ashxabodning zo'ri bo'lsang ham sendaqa ellikta Durdi bitta Asadbek bo'la olmaydi. Bor akasi, ashulangni aytib, kelgan joyingga qarab ketaver», demog'i aniq edi.

Asadbek mehmonning hurmatini qilib ichkariga taklif qildi. Durdi «quyon» Kozlovdan, uning oilasidan gap ochib, maqsadini oshkor qildi. Yaqinda Kozlovni ko'rgani, «oilamdan xabar olib tur», deb undan iltimos qilganini ham aytdi.

Asadbek uning gaplarini eshita turib o'zicha «Shu farosating bilan Ashxabodda kerilib yuribsanmi? Xongirey senga o'xshagan ahmoqlarni yaxshi ko'rarkan. U yoqda sen, bu yoqda Kessak...» deb qo'ydi. Durdi «quyon» Asadbekni ishontirganiga shubha qilmay

«Kozlovning oilasi qaerdaligini aytsangiz, xabar olib ketardim», dedi.

— Kozlov degan odam bilan qarindosh-urug`chiligim yo`q, — dedi Asadbek, — Ozigina oldi-berdi ish qilganmiz, hisob-kitobimiz to`g`ri bo`lib ketgan. Bir yilning nari-berisida uni ko`rganim yo`q.

Durdi «quyon» yana bir oz gapni aylantirib o`tirgach, ketishga ijozat so`radi. Asadbek «osh tayyor edi-ya» deb manzirat qilmay, darvozaga qadar kuzatib qo`ydi.

U Durdi «quyon»ning tashrifi tavakkalchilik bilan olib borilayotgan qidiruvning bir ko`rinishimidi yo is olishdimi, degan savolga javob topishga harakat qildi.

Muhiddin ota Kozlovning oilasini boshlab kelib Marg`ilondagi oshnasinikiga joylashtirganini aytgan kuniyoq Chuvrindi ularni bexavotir yerga ko`chirish haqida buyruq olgandi. Asadbek Abdurahmon tabibnikiga borganda Kozlovning oilasi Olmaliqdagi uch xonali uyga joylashib ulgurgandi. Bu uyni faqat Chuvrindi-yu, Asadbekkina bilishardi. Qo`shnilar diqqatini tortmasligi uchun, Asadbekning taklifiga ko`ra, Kozlovning xotini kimyo zavodiga ishga ham kirgandi. Undan Chuvrindining o`zi xabar olib turardi. Uning o`limidan so`ng Asadbek o`zining tashvishlari bilan ovora bo`lib, Olmaliqqa borolmadi. Durdi «quyon» kelib ketgach, borishni rejalashtirib turganda Kozlovning o`zi qo`ng`iroq qildi.

Asadbek bu yerga kelayotganida idorada uzoq o`tirmay uyga ketishni o`ylagandi. Kozlov tomondan odam kelishini bilgach, kutishga qaror qilib, Jamshidga ruxsat berdi. Jamshid ostonaga yetganda uni to`xtatdi:

— Sen uyga kirib o`tgini, Hamidning isitmasi tushsa ham lanjligi ko`tarilmayapti.

Erkajonovmi degan professorlarning bo`lardi-ku, o`shanga olib borgin, bir ko`rib qo`ysin.

To`yga aytadigan odamlarini yo`l-yo`lakay taklif qilaverlaring.

Jamshid vazifani olib, chiqib ketgach, yolg`izlik dardi qo`zg`oldi. Devorlar xuddi siljiganday, xona torayganday tuyulib, Asadbekning yuragi bexalovat ura boshladi. Chap ko`kragida yaralangan qushcha potirlaganday bo`ldi. Ana shu potirlash asnosida go`yo yuragidan danakday parcha ajralib chiqdi-yu, bo`g`ziga kelganda qadalib qoldi. Asadbek chuqur-chuqur nafas olib o`rnidan turdi-da, Bo`tqa o`tirgan xonaga chiqdi. Xojasining tanbehidan keyin sergak turgan Bo`tqa uni qo`l qovushtirgan tarzda qarshi olib, «choy qaynab turibdi-ya, damlaymi?» deb so`radi. Asadbek televizor qarshisidagi oromkursiga cho`kib o`tirib:

— Choyingni qo`y, oqidan ellikta quy-chi, — deb buyurdi.

Bo`tqa bo`tqa bo`lib shu dargohga kelibdiki, Asadbek hali biron marta bu xonada o`tirmagan, o`zi «ellikta quy», deb so`ramagan edi. Shu sababli Bo`tqa amrni anglamaganday xojasiga qaradi.

— Nimaga angrayasan, oqidan ellikta quy, deypman.

— «Napoleon» yaxshimasmi, Bek aka, o`n ikki ming tomirdagi qonlarni yurg`izvoradi.

— Yo`q, yuragim sal o`ynaganday bo`lib turibdi, oqi durust. Qani, tuzukroq tomoshangdan qo`y-chi.

— Qanaqasidan bo`lsin, qitiqlaydiganlaridanmi? Buyam bir ko`ngil-terapiyada, Bek aka. Nozik tomirlaringizni o`ynatib yuboradi.

Asadbekning bu taklifga qovoq uyub qarab qo`yishi Bo`tqaga kifoya qildi. Karatechi bolalarning sarguzashti haqidagi tamoshani qo`yib, Bek akasi xush ko`radigan gazakni tayyorlagach, billur qadahga, aytilganday ellik emas, yuz gramm aroq quyib ehtirom bilan tutdi.

Shom qorong`usiga qadar vaqt shu tarzda o`tdi. Asadbek ketishga chog`langan paytda eshik ochilib, bir yigit shim kiygan qizni boshlab kirdi-da:

— Videobar ishlaydimi? — deb so`radi.

— Ishlamaydi, bo`ldi, yopildi, — dedi Bo`tqa unga javoban.

Yigit bu gapdan keyin iziga qaytish o'rniga Asadbekka qarab olib, yana oldinga yurdi. Bo'tqa o'rnidan turib, uning yo'lini to'sdi:

— Berk deyapman-ku!

— Bitta qahva bering, sovubroq qolgan bo'lsa ham mayli.

— Qahvani Braziliyaga ekib qo'yishibdi, pishganda kelasan.

Yigit yana Asadbekka qarab oldi:

— Bu amakimizdan bir narsa so'rasam maylimi?

— Maylimas, amakingning boshi og'rib turibdi, bo'ldi, chiqqlaring, — Bo'tqa shunday deb yigitning yelkasidan tutdi.

— Xo'p, ketamiz, — yigit shunday deb yana Asadbekka qaradi: — Amaki, men sizning suratingizni uyimizdagi albomda ko'rganman. Men Petrenkoning o'g'liman. Eslaysizmi, armiyada birga xizmat qilgan ekansiz.

Bu gapni eshitib Bo'tqa «Ertalab telefon qilgan senmiding yo adangmidi?» deganday qarab qo'ydi. Asadbek esa kutgan odami kelganini anglasa ham sezdirmaslikka harakat qilib bosh chayqadi:

— Petrenko? Bunaqa tanishim yo'q. Armiyada ham bo'lmaganman. Lekin sening yuz-ko'zlaring menga kimnidir eslatyapti. Qani, bu yoqqa o'tib o'tir-chi. Qizing ham o'tirsin.

— Ular o'tirgach, Asadbek ajablanib turgan Bo'tqaga muloyim ovozda buyurdi: — Rasul, bular mehmonga o'xshashyapti, qahva qaynatib bergin, — Bo'tqa amrga itoat etib oshxona tomon yurgach, yana yigitga qaradi: — Xo'sh, mehmonlar, qaeliksizlar?

— Biz mehmon emasmiz, shu yerlikmiz, aylanib yurib bir qahva ichmoqchidik. Dadam hozir Tomskdagi qarindoshlarnikida dam olyatuvdilar. Men ham ertaga o'sha yoqqa ketyapman. Safardan oldin Yulya bilan sayrga chiquvdik. Siz Tomskda bo'lganmisiz?

— Yo'q, bunaqa shahar borligini endi sizdan eshit-yapman.

— Voy, — deb ajablendi qiz, beixtiyor suhbatga qo'shilib, — geografiyadan o'qimaganmisiz?

— Men maktabda ikkichi edim, — dedi Asadbek kulimsirab.

— Axir...

— Yulya, iltimos, aralashmay turgin. Amaki, siz Tomskka albatta boring, zo'r shahar! Dadam u yerda tug'ilmagan bo'lsalar ham «ikkinchi vatanim» deydilar,— yigit shunday deb pidjagining ich cho'ntagidan bir nechta foto surat chiqardi: — mana qarang-a, chiroylim?

Asadbek shahar manzarasi aks etgan suratlarni qiziqib tamosha qilganday bo'ldi.

— Bular sizga esdalik, — yigit shunday deb suratlarni Asadbekka uzatdi.

Yigit sergap ekan, qahvani ichib bo'lgunicha ham gapdan tinmadi. Bo'tqa uni gardanidan changallaganicha ko'chaga sudrab chiqqisi keldi. Asadbek esa uning quvligiga tan berib, kulimsirab o'tiraverdi. Yigit mehmondorchilik uchun rahmat aytib, qizini yetaklab chiqib ketgach, Bo'tqa:

— Bir siltovi kamroq-ku bu bolaning, qandoq chidab o'tirdingiz? — deb so'radi.

— Bunaqa almoyi-aljoyi gaplarni anchadan beri eshitmovdim. Gapi nima bilan tugashiga qiziqib o'tiraverdim.

— Qizi shkalat ekan, bitta imo qilganingizda bolani chiqqan joyiga kirg'izvorardim.

— Qo'y, boyaqish ertaga otasining oldiga ketayotgan ekan. Sen bilan meni Tomsk degan shaharga taklif qildi, boramizmi?

— Be, sovuq joylarda nima bor, iliklarni to'g'natib nima qilamiz. Bizga Yalta yarashadi.

«Puling bo'lsa xaltada — boravergin Yaltaga, puling bo'lmasa xalta- da — pishirib qo'yibdimi senga Yaltada?» — Bo'tqa shunday deb huzurlanib kuldi.

«Ilgari ro'paramda titrab turishardi. Tuzuk-ku, maqolni ham bilarkan. Yana ozgina bo'shshasam boshimga chiqib olar?» Bu fikrdan g'ashlangan Asadbek qovoq uydi.

Quyushqondan chiqib noo`rin hazil qilganini ang-lagan Bo`tqa darrov lab-lunjini yig`ishtirib oldi.

— Bo`tqasanda bola, haqiqiy bo`tqasan, — Asadbek shunday deb zaxarli tarzda kuldi-da, o`rnidan turib eshik tomon yurdi.

## XV b o b

### 1

Deyilmishkim, aqlan oliy maqomga yetishganlar uch narsaga: Tangri taolo belgilamish taqdirga, o`zi kabi va o`zidan ulug`roq kimsalarga, donolarning so`zlariga bosh egarmishlar. Maydakash odamlar esa taqdir yozug`i nima ekanini fahm etmaydilar, undan qo`rqmaydilar, ulug`larni mensimaydilar, donolarning so`zlarini eshitib, ularni masxara qiladilar.

Dunyodagi har narsa o`z jufti bilan, yana o`z muqobili bilan yaralmish ekan. Ya`nikim, oqning muqobili qora, shirin ro`parasida achchiq, mehrning ziddida qahr, shafqat qarshisida zulm mavjud. Eng ulug` muqobillik esa — o`lim va hayotdir.

Olamda aqlli odamlar bor.

Aqlsizlar kam emas.

Ajab haqiqat shuki, hech kim o`zining ahmoqligini tan olmaydi.

Aqllilik va aqlsizlik... Buning o`lchovi bormi? Me`yori mavjudmi?

Hayot ne`matlaridan har ikki toifa ham bahramand bo`ladi.

O`lim sharbati har ikki toifaga nasib etadi.

Odamlar aqllilarning uzoqroq yashashlarini istashadi.

Lekin aksi bo`lib chiqaveradi:

Tor bo`lib qoladi zamon donoga...

Baloga aylanib qoladi aqllilik...

Zohid Anvarning kundaliklarini o`qib shu fikrga keldi. Anvarning fikrlari uni bir necha kun davomida ta`qib etib yurdi. Ayniqsa kundalik so`ngidagi bir to`rtlik xotirasiga osongina muhrlanib qoldi:

«Afsuskim, bekordan bekor so`ldik biz,

Falakning dastidan kukun bo`ldik biz.

Ko`z ochib yumguncha ko`rgan alamdan

Tilakka yetolmay, oxir o`ldik biz...»

«Falakning dastidan kukun bo`ldik...» Aslida bu har bir odamning qismatida bor.

Tuproqdan yasalmish odam bolasi oxir-oqibat tuproqqa qorishmaga aniq. Ammo unga qadar... Bekordan bekorga so`lish bor.

Anvarning yozuvlaridan ta`sirlangan Zohid ko`proq o`sha «bekordan bekor so`lish» haqida o`ylardi.

Yuzakiroq qaraganda Zohid bilan Anvarning yashamoqdan maqsadlarida yaqinlik bordek ko`rinadi. Unisi ham bunisi ham adolat, holi hayotda haqiqat izlab sarsari kezuvchilardan edi. Ajab-ajabki, birovining orzusidagi adolat va haqiqat ikkinchisinikiga uncha o`xshamasdi. Yana ajabki, birovi haqiqatni sirtmoqda ko`rdi, ikkinchisi kurashdagi azobda, orzudagi rohatda deb bilib, hamon sarob sari odimlaydi. Tilakka yetolmay o`tib ketishini anglab tursa ham qaysarlik bilan qadam bosadi.

Yana ajab-ajabki, dunyo dunyo bo`lganidan beri hali hech kim «tilaklarimga yetib jon beryapman», demagan. Chunki tilak deganlari hamisha homilador. Biriga yetilsa,

ikkinchisi urchib, bolalab turadi. Hidoyatda yurganlarning so'nggi tilagi bir-biriga o'xshaydi. Fosiqlarniki esa o'z nafslari darajasiga mos ravishda turlicha bo'ladi. Zohid haqiqat tilagida o'tgan Anvarni o'ylaganda uni jinnixonaga tiqish qudratiga ega odamni ko'rgisi kelaverdi. Anvarning ma'rakasida Elchin bilan uchrashganda u Xolidiy degan odamni aytgan edi. Ustozi Habib Sattorov garchi uning nomini tilga olmagan bo'lsa-da, ukasining o'limida bu odamning qo'li borligiga shama' qilgan edi. Do'stining janozasida o'sha odam xuddi o'sha hojatxonaga osilishi kerak deb qasd qilgan Elchin harakatsiz yotibdi. Habib Sattorov zimdan ayblagani bilan unga qarshi chora ko'rishga urinmaydi. Zohid esa chorasiz. Elchinning ham, Habib Sattorovning ham gaplari, pichinglari o'rinli: Xolidiy qotillikda ayblay olishmaydi. Demak u ayshini surib yashayveradi. G'ashini keltirgan odamni pashshani yanchgandek yanchaveradi. Shunday edi...

Nahot yana shunday bo'lib qolaversa?

Axir zamon o'zgaryapti-ku?..

Adolat istovchi Zohidning hayot haqidagi tushunchasi zaif edi. Yamoq to'nni yechib tashlab, yangisini kiygan odamni yaxshi bo'lib qoladi, deb hisoblardi. Gap odam ustidagi to'nda emas, ko'krak qafasidagi qalbda ekani haqidagi oddiy haqiqatni anglashiga picha fursat bor edi.

Anvarning ma'rakasidagi uchrashuvda Elchin «yana Xolidiy ichburug'dan o'lib qolsa, mendan ko'rib yurmang», deb piching qilgan edi. O'shanda Zohid bu gapga yetarli e'tibor bermagandi. Anvarning yozuvlarini o'qigach, o'sha suhbatni bexos esladi. Chindan ham Xolidiy yuqori qavatdan yiqilib o'lsa yoki murdasi suvdan chiqsa tekshir-tekshir boshlanadi. Necha-necha odam shubha to'riga o'raladi. Bu to'rga Elchin ham ilashib qolishi hech gapmas. Bu sohadagi haqiqat yuzaga chiqquniga qadar qancha odamning halovati buziladi.

Xuddi Mirkarimovning ishiga o'xshab...

Kim biladi, murdasi suvda irigan Mirkarimov ham tiriklik chog'ida necha-necha odamning yuragiga zaharli so'z xanjarlarini sanchgandir?

Kim biladi, uning o'ligi suvdan topilganda necha-necha odam quvongandir, «battarroq bo'lsin edi», degandir.

Kim biladi, balki Mirkarimovning zaharli so'z xanjaridan o'lim topganlar uning boshiga guvala qo'yilib, lahad og'zi berkilganda do'zaxning olov toshlari bilan qarshilagandirlar. Kim biladi, balki Xolidiyning qismati ham shunday bo'lar...

Balki hammasi aksinchadir...

Agar Zohid niyatini amalga oshirib, Xolidiy huzuriga borsa-da, aytsaki: «Siz bilan Mirkarimov bir xildasizlar». Bu gapdan, shubhasizki, Xolidiy ajablanar, to'g'rirog'i g'azablanar va aytarki: «Bu qanday nodonlik! Men olim odamman, jamiyatga falon miqyos-da foydam tekkan. U esa puldan boshqa narsani o'ylamagan odam...»

Xolidiyning fatvosida zohiran jon bor. Kasb, turqu tarovat — ko'zga ko'rinuvchi jihatlar farqlanadi. Ammo nazarga tushmas bir illat borki, uni «nafs» deydilar. Aynan shu nafs bir-biriga zoxiran o'xshamagan odamlarni botinan bir xil ko'rinishga keltiradi.

Mirkarimovning nafsi maishatni istardi. Buning uchun u hayotini pul topishga sarf etdi. Xolidiyning nafsi ham maishat istardi. Buning uchun u hayotini amal egallashga sarf etdi. Bunda biron farq ko'rinadimi?

Zohid o'ylab-o'ylab farq topmadi.

Ko'p masalalarda Anvar bilan hamfikir bo'ldi. Faqat... So'nggi chorani aqlsizlik deb baholadi.

Zohid Said Qodirovning bu safargi yo`qlovidan asosiy maqsadni durust anglamadi. U odatdagiday Mirkarimovning o`limi asadbeklar to`dasiga bog`lanyaptimi yo yo`qmi, deb qiziqdi. Zohid gumonlarning biri zaif bo`lsa-da, hamon shu to`daga bog`lanib turganini ayt- di-yu, biroq yangi tug`ilgan shubhalarini bayon qilib o`tirmadi.

— Mahmud Ehsonovning o`limidan keyin to`dada biron o`zgarish sezilmayaptimi, mish-mishlar nima deydi?

Zohid Said Qodirovning bu ilmoqli savoliga darrov javob bermadi. «Meni mish-mish yig`ib yuradi», deb eshituvdingizmi, demoqchi ham bo`ldi-yu, tilini tiydi-da:

— Asadbeklar bilan shug`ullanmay qo`yganman, — deb qo`ya qoldi.

— To`da ichida qora mushuk g`imirlab yurganga o`xshaydi, — dedi Said Qodirov xuddi o`ziga-o`zi gapirayotganday. So`ng «Nahot qiziqmay qo`ydingiz?» degan savol nazari bilan qaradi-da, gapini davom etdi: — «KamAZ»ning haydovchisidan foyda yo`qqa o`xshab turibdi. Boshi katta, bo`yi kalta odam esa izsiz yo`qolgan. Mirodil Boyqo`ziev deganini eshitganmisiz?

— Yo`q.

— Uning xotini militsiyaga arz qilgan: eri yo`qolibdi. Ehsonovning janozasidan keyin uni hech kim ko`rmagan. Hozircha tirik odamlar orasidan qidirish-yapti. Bugun umid bor... bilmadim... ertaga balki qab-ristonlardan izlashga to`g`ri kelar... Ularning orasidan yana kimlar yo`qolayotgan ekan...

Said Qodirov aslida shu savolga javob topish maqsadida Zohidni yo`qlagan edi. Doimiy ravishda ma`lumot yetkazib turuvchi Halimjonning to`satdan yo`qolib qolishi uni xavotirga sola boshlagan, ehtiyot chorasi sifatida Xalimjonning oilasini boshqa joyga ko`chirtirgach, «biron gap eshitgandir», degan umidda Zohidni chaqirgandi. Chaqirishga chaqirdi-yu, «to`dadagi odamimiz yo`qoldi, surishtiring» demadi. Xalimjonni oshkor etishga hali fursat bor, deb o`ylab, suhbatini chuchmal tarzda yakunladi. Zohid mana shundan ajablandi.

Moskvadan javob keldimikin, degan ilinjda shahar prokuraturasidagi xonasiga kirdi. U Oysanam Erkaeva bilan akasining ko`rsatmalaridan shubhalanib Moskvaga so`rov yuborgan, Mirkarimov yo`qolgan kecha bolalarga qanday multfilm ko`rsatilganini aniqlab berishlarini iltimos qilgan edi. Bundan avvalroq shahar elektr tarmoqlari idorasi bilan bog`lanib, o`sha kech Mirkarimovning mahallasida elektr quvvati o`chirib qo`yilgan yoki o`chirilmaganini surishtirgan edi. Shaharni elektr quvvati bilan ta`minlashda qiyinchilik mavjud bo`lgani sababli mahallalarda navbatma-navbat chiroq o`chirib qo`yilardi. O`sha hafta Mirkarimovning mahallasida chiroq o`chirilmagani haqidagi ma`lumot Zohiddagi bitta shubhani yo`qqa chiqardi. Ikkinchi shubhaning isboti Moskvadan kelajak ma`lumotga bog`liq edi.

Zohidning sezgisi aldamabdi: Moskvadan xabar kelibdi. Unda yozilishicha, o`sha kech rasmiy majlisdagi Gorbachevning ma`ruzasi kutilgandan ko`proq cho`zilgani sababli bolalar uchun ertak ko`rsatuvi umuman efirga chiqmagan, multfilm ham ko`rsatilmagan... «Bu yog`i qandoq bo`ldi», — deb o`yladi Zohid, — shuncha paytdan beri Erkaeva to`qigan ertakka ishonib yurildimi? Endi... hammasini boshidan boshlash kerakmi?..»

Zohid ishni qanday davom ettirishni o`ylay-o`ylay birinchi galda Oysanam yashayotgan uyni kuzatish kerak, degan qarorga keldi. Shu qarori bilan rahbariyat huzuriga kirib, ijozat oldi. Yaqin kunlarda Mirkarimovning uyida tintuv o`tkazish niyatini esa oshkor etmadi. Uyni kuzatish bo`yicha militsiya idorasi bilan bo`ladigan rasmiyatchiliklarni bajargach, Zaripova bilan uchrashish uchun shahar turmasiga bordi.

Zaripova — chiroyda Oysanamdand qolishmaydigan xushro`y ayol — so`roq xonasiga kirib



«hamma gaplarni aytib bo'lganman, yana keldingizmi?» deganday Zohidga bir oz qarab turdi. So'ng uning qarshisiga o'tirib, iboli ayollarga xos bo'lmagan tarzda oyoqlarini chalishtirib oldi. Avvalgi uchrashuvdagi suhbat asabiy ravishda tugagan edi. Bu safar samimiyoq tarzda gaplashishni istagan Zohid:

— Kelaverib joningizga tegdimmi? — deb kulimsirashga harakat qildi.

— Kelib turganinglar yaxshi menga, — dedi Zaripova. — Kelsalaring qamoqda chirmasligimga ishonaman.

— Gapingizga uncha tushunmadim?

— Kelaversalaring bittalaring bo'lmasa, ikkinchilaring begunohligimga ishonarsizlar? Oddiy narsani tushunishni nega istamaysizlar?

— Tushunishni istaganimiz uchun kelamiz.

— Bo'lmagan gap! — Zaripova shunday deb qo'l siltadi. — Har safar yangi sirtmoq yasaysizlar. Kelaverib, kelaverib sirtmoqni tortaverasizlar. Oxiri bo'g'ilib o'lay deganimda «Mavlon akani men o'ldirganman», deb tan olishimni xohlaysizlar. Lekin shunaqa deganim bilan darrov ishona qolmaysizlar. «O'ldirishga bir o'zingning kuching yetmaydi, o'ynashing yordam bergan, o'sha o'ynashingni ayt!» deb yangi sirtmoqlar yasaysizlar. Mayli, siquvga olaveringlar, bir boshga — bir o'lim. Hammasiga chidayman. Men siz kutayotgan iqorni aytmayman, — Zaripova xo'rsinib, oldi-da, qalin panjarali darchaga qaradi: — Oldin so'roq qilgan odam qo'rsroq edi. Siz ishni madaniychasiga yuritar ekansiz. Ikkovlaring ikki olamga o'xshaysizlar. Lekin maqsadlaring bir. Nahotki shuncha oydan beri shubhalanadigan boshqa odam topilmagan bo'lsa?

— Zaripova, tushunadigan ayolga o'xshaysiz. Biz shuncha oydan beri nima ish bilan shug'ullanayotganimiz bo'yicha sizga hisob berishga majburmasdirmiz?

— Albatta majbur emassiz. Jahlingiz chiqmasa sizdan bir narsani so'rasam.

— So'rang.

— Siz... mantiq degan fan borligini hech eshitganmisiz? Men atay «o'qiganmisiz?» deb so'ramayapman. Mantiq ilmini o'qigan odam bunaqa bo'lmaydi.

— Qiziq... — Zohid beixtiyor ravishda stolni chertib-chertib qo'ydi: — Mantiqdan bexabarligimni isbot qilib bera olasizmi?

— Albatta. Lekin siz so'roq qilgani kelgan odamsiz, falsafadan masala so'qishga toqatingiz yetmas?

— Yetadi, tashvishlanmang, gapiravering.

— Yaxshi, unda eshiting: dunyodagi barcha narsalar, hodisalar «mantiq» degan ko'rinmas zanjir bilan bog'langan, degan fikrga qo'shilarsiz? — Zaripovaning savoliga javoban Zohid bosh irg'ab qo'ydi. — Lekin hamisha ham shunday bo'lavermaydi. Faqat bizga hamma harakatda mantiq borday ko'rinaveradi. Biz mantiq bilan mantiqsizlikning aniq chegarasini ajratib ololmaymiz, bunga nima deysiz? — Zohid «qani, davom etavering-chi», deganday yelka qisib qo'ydi. — Mana, masalan, siz bilan mening bu holda o'tirishimizda mantiq bormi?

— Yo'q deb o'ylaysizmi?

— Albatta yo'q. Siz «haqiqatni oydinlashtirish uchun mantiqiy majburiyat bor», dersiz? Men esam aynan shuni eng katta «mantiqsizlik» deyman. Agar begunoh bir ayolni ikki yuz o'ttiz kun qamoqda ushlab turishni «mantiqiy majburiyat», hisoblasangiz, xafa bo'lmangu, hech narsa bilmas ekansiz.

— Siz o'zingizni begunoh hisoblayapsiz. Bu yerda o'tirganlarning deyarli barchasi shu fikrda.

— Bu masalada siz bilan bahslashmayman. O'zimga tegishli gapni ayta: jinoyat o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, a? Kutilmaganda, to'satdan yuz berdi, deb hisoblangan fojia ham aslida ancha ilgari boshlangan bo'ladi. Misolga Mavlon akaning taqdirlarini olaylik:

o'sha kuni bexos suvga tushib ketib o'ldilarmi yo o'ldirildilarmi? Agar o'ldirilgan bo'lsalar, qotil o'sha kuni qasd qilib o'sha kuniyoq maqsadiga yetmagandir? Tasavvur qilaylik, sizning shubhangiz to'g'ri chiqdi, qo-til — menman. Mantiqan olib qararak, Mavlon akani o'ldirishga tayyorgarligim u kishi bilan tanishgan kunimizdan boshlangan bo'ladi. Bir-birimiz bilan uchrashganda atrofimizda hech kim yo'q, deb o'ylardik. Aslida oramizda o'lim bor ekan-u, sezmadim. Kunlar, oylar ichi ana shu o'limning qachon va kimning qo'li bilan yuzaga chiqishi masalasi beixtiyor ravishda hal etilgan. Shunaqa desak mantiqqa to'g'rimi? Ha, — Zaripova ayanchli tarzda kulimsiradi. — Bu bir taxmin. Yana haqiqat deb yopishib olmang. Lekin gapimda ozgina haqiqat ham bor. Mening bu ko'rguligim, gunohlarimga yarasha tuhmat bilan mukofotlanishim Mavlon aka bilan tanishgan daqiqamdan boshlangan ekan, — Zaripova boshini egib bir oz sukut saqladi. So'ng Zohidga qarab kulimsiradi: — Gapni ham rezinkaday cho'zib yubordimmi, ajablanmang, men azaldan ezmaroqman. Xo'p, yana ozgina toqat qiling, asosiy gapni aytvolay: Meni qotil deb gumon qilganingizda «bu xotin shunday boy o'ynashini nega o'ldirdi?» deb o'zingizga o'zingiz savol berib ko'rmadingizmi? Bu yerda mantiq qani? Mavlon akaning o'limidan ko'proq men jabr chekdim-ku?

— Moddiy manfaatni nazarda tutyapsizmi?

— Faqat bu emas. Mavlon aka meni... yaxshi ko'rardilar. Yolg'iz ayol uchun bu yaxshi ko'rishning qadri qandayligini siz his qila olmaysiz. Siz xuddi shu nuqtada menga mantiqni topib bering-chi? Agar Mavlon akaning o'limidan biron foyda olsam, bu ishga qo'l urishim mumkin edi. Bu gapim ham taxmin, men birovning o'limidan foyda kutadigan ablah emasman.

— Savolingizga hozir javob berishim shartmi?

— Mutlaqo shart emas. Gapdan gap chiqqani uchun ozgina ezmalik qildim, kechirasiz.

— Fikrlaringiz menga ma'qul. Savolingizga esa albatta javob qaytaraman, faqat bugun-erta emas, qotilni aniqlagan kunim.

— Shunday deyishingizni bilardim. Savolimga javob bersangiz ham, qotilni topib jazolasangiz ham mening bu yerda chirigan kunlarimni qaytarib bera olmaysiz, bu yerdan chiqib men texnikumdagi o'quvchilarimga dars o'ta olmayman, bu shaharda, umuman bu hayotda bosh ko'tarib yurishim mumkin bo'lmay qoladi.

— Sizdagi ilm, farosat bilan bu azobni yengish mumkin, deb o'ylayman.

— Yo'q, yengish uchun ilm bilan farosatning o'zi kifoya qilmaydi. Hatto irodaga ham ishonib bo'lmaydi. Mening kelajagim — o'zimning bosh og'rig'im, siz o'ylamay qo'yavering. So'raydiganingizni so'rang.

Zohid, prokuratura tergovchisi, gumondagi shaxsdan «so'rang» degan ijozatni olsa-da, darrov so'roqqa tutmadi. «Zaripova hayajonini bosib olsin», deb sukut saqladi, xuddi savol axtarayotganday ko'rsatgich barmog'i bilan chakkasini siladi. Zaripovaga bu sukut yoqmay «so'ramaysizmi?» degan ma'noda tikilgach, Zohid dastlabki savolini berdi:

— Eshpo'latovning aytishicha, xo'jayinini olib kelganida siz yolg'iz bo'lgansiz. Siz esa odam bor edi, Eshpo'latov hech kimni boshlab kelmagan, deyapsiz. Kimning gapiga ishonishim kerak?

— Eshpo'latovning o'zi ham, xo'jayini ham kelmagan.

— Uyingizdagi o'sha odam buni tasdiqlashi kerak. O'sha odam kim, ayting. Aytsangiz o'zingizga foyda.

— Men uning kimligini aytolmayman.

— Qo'rqasizmi?

— Ha, qo'rqaman, oilasining buzilib ketishidan qo'rqaman.

— Oilasi buzilib bo'lgandir balki?

— Nega unday deyapsiz?

— Ayollar tabiatan sezgir bo'lishadi. Erlaridagi o'zgarishni tez fahmlashadi. Ularda gipofiz yaxshi shakl-langani, deyishadi. Gipofiz nimaligini bilasizmi?

— «Uchinchi ko'z» demoqchimisiz? Bilmadim, siz bu gapni qaerdan oldingizikin. Balki siz aytganday shakl-langandir, lekin bu ko'rinmas uchinchi ko'zda aql bo'lmaydi. Erkak bilan ayol uchrashsa o'sha gipofiz xuddi siz kabi ahmoqona xayolga boradi.

— Aniqroq gapira olasizmi?

— Anig'i shuki, men bugun Mavlon aka bilan, ertasiga boshqasi bilan yotadigan fohisha emasman. Mavlon aka bilan munosabatimiz quruq nafsdan iborat emas edi. O'sha kuni uyimga kelgan odam siz o'ylagan ilinjda o'tirmagandi. Samimiy do'st sifatida, hatto aka-singil sifatida gaplashib o'tirganimizga siz ham ishonmaysiz, boshqalar ham. Shuning uchun uning kimligini aytmayman. Gaplarimga ishonsangiz ishoning, ishonmasangiz — o'zingiz bilasiz. Mening boshqa so'zim yo'q, ayting, olib ketishsin.

— Shoshilmang, o'zingizni bosing. Sizning aytadigan so'zingiz bo'lmasa, mening so'raydigan savollarim bor. Bu yerga shu maqsadda kelganman. Falsafadan dars eshitish uchun emas, — Zohidning keyingi gapi sal dag'alroq chiqib, o'ziga ham erish tuyuldi. Bu dag'allik Zaripovaga ham ta'sir etdi. U «Ana endi asl qiyofangga kirding, boyatdan beri mo'min o'quvchiday o'tiruvding», deganday Zohidga bir oz tikildi-da, so'ng mutelik bilan boshini egdi. Zohid uning ko'ngli og'rikanini sezsa ham, sir boy bermay, rasmiy ohangidan chekinmay so'radi:

— Agar gapingizga to'g'ri tushungan bo'lsam, Mirkarimov bilan munosabatingiz asosida nafs yotmas ekan. Unda... oralaringizda, shoirlar tili bilan aytganda... muhabbat bo'lganmi? Mirkarimov sizga uylanmoqchimid?

— Shunday fikr bor edi. Lekin qaror darajasida qat'iy lashmagandi.

— Nega? Biron to'siq bormidi?

— Bor edi.

— Oilasimi?

— Yana qanday to'siq bo'lishi mumkin? Ikki marta uylangan. Ikkinchisini qo'yib, uchinchisiga uylansa partiyadan o'chadi.

— Partiyadan o'chsa — ishdan haydaladi, — Zohid shunday deb Zaripovaning gapini davom ettirdi: — Yog'lik joy qo'ldan ketadi. Bunaqa er kimga kerak?

— Men Mavlon akaning boyliklariga uchmaganman.

— Lekin Mirkarimov sizga tilla taqinchoqlar sov-g'a qilib turgan. Avvalgi tergovchiga shunday degansiz.

— Deganman. Tintuv qilib taqinchoqlarimni olib qo'ygansiz. Xohlasangiz davlatga topshirishim mumkin.

— Shaxsan men xohlamayman. Ularni o'g'irlamangansiz, sizga sovg'a qilingan, o'zingizga buyursin.

Zaripova «chin dildan, samimiy aytyapsizmi?» deganday unga savol nazari bilan qaradi. Keyin yana boshini quyi egib, avvalgi gapini takrorladi:

— Men boyliklariga uchmaganman.

Ikki marta turmush qurib, ikki marta og'zi kuygan, ishxonadagilari, qo'shnilari «halol, pokiza», deb ta'rif bergan ayolning bu gapiga Zohid shubha qilmadi. Agar kun ora bo'lmasa-da, hafta yoki oy oralab o'ynashlarini almashtirib turganida buni qo'shnilar sezishar va bu voqeadan so'ng «asli buzuq edi», deb ta'rifini o'n chandon oshirib bayon etib berishardi. Bir ayolni, ayniqsa yolg'iz bevani qo'shni ayollar buzuqlikda ayblashmadimi, demak, u chindan pokiza ekan. Beva ayol, ayniqsa chiroyli juvonning har bir qadami, har bir so'zi, har bir kulgusi qo'shni xotinlarning ziyrak nigohi ta'qibida bo'ladi. Qo'shni xotinlarning har biri erini undan qizg'anadi. Agar tanish erkaklar, Zaripova aytganday, to'g'ri ma'noda tez-tez kelib turishsa ham u allaqachon

yomonotliqqa chiqib bo'lardi. Xotinlarning bu qiliqlari ma'lumligi uchun Zohid «Zaripova Mirkarimovning o'ynashi», degan yozuvini qora to'rtburchak chiziq orasiga olib qo'yan edi. Shu bois ham «uyingizdagi begona erkakni ayting», deb qiyin-qistovga olmadi. «Agar mening samimiyatinga ishonsa, ertami-kechmi, o'zi aytadi», degan ishonch bilan boshqa narsalarni so'rayotgan edi.

— «Bunaqa erkak kimga kerak?» deganimda faqat sizni nazarda tutganim yo'q. Mirkarimov «ayollarga mening boyligim kerak, pulsiz erkakning kimga keragi bor?» deb o'ylagan bo'lishi mumkinmi?

Bu savolni eshitib, Zaripova «Voy Xudoyim-ey», deb xo'rsinib qo'ydi. Keyin boshini ko'tarmagan tarzda, xuddi o'ziga-o'zi gapirayotganday dedi:

— Nima uchun hamma narsani boyluk bilan o'lchaymiz? Boylikdan boshqa o'lchov yo'qmi bu dunyoda? Bir sidra kiyim-kechak, kunlik yeyish uchun bir burda noni bilan odamning baxtli bo'lishi mumkinmasmi? Bo'yni tilla zanjir ko'rmagan ayollar baxtsizmi? Qo'sha-qo'sha tilla bilakuzuk taqib yurganlarning hammasi baxtlimi?

Zaripova yana xo'rsinib, jimib qoldi. Uning xasratli gaplari Zohidga ma'qul kelgani bilan suhbatni bu mavzuda davom ettirishni istamadi. Boshqa joyda, ayblanuvchi va ayblovchi martabasida emas, ikki ozod inson sifatida ko'rishishganida balki hayot falsafasi xususida uzoq suhbatlashgan, ayolning ma'noli fikr-laridan bahra olgan bo'lardi. Alhol... ayol tutqun. Uning dardli falsafasi ham tutqun.

Bunday paytlarda tergovchi — Zohid bilan inson — Zohid o'rtasidan farq chizig'i o'tishi natijasida inson — Zohid qalbida uyg'ongan mehr-shafqat yo'li to'silib, u rasmiy muomala qiluvchi, qonunning qattiqqo'l himoyachisiga aylanishga majbur bo'lardi. O'zidagi ikki xil bu ko'rinishdan qiynalib ustoziga noliganida mayor Soliev «Kasbimizning eng nozik tomoni ham shu. Jinoyatchining oh-vohiga quloq solib, rahming kelsa, unga shafqat ko'zi bilan qarasang undan jabr ko'rgan odamga xiyonat qilgan bo'lasan», degan edi.

Zohid «Zaripova yana gapirarmikin?», degan xayolda sabr qildi. Ayol bosh egib jim o'tiravergach, so'roqni davom ettirdi:

— Siz Oysanam Erkaevani tanisangiz kerak. U bilan hech ro'para kelganmisiz?

Bu savoldan keyin Zaripova boshini ko'tardi:

— Ro'para kelib, er talashib, yulishganmisizlar, demoqchimisiz? Yo'q, bunaqa bo'lmagan. Men Mavlon akaning birinchi xotinlari bilan ko'rishib turardim.

Bunisi Zohid uchun yangilik bo'ldi. Sobiq xotin bilan xotin bo'lish orzusidagi ayol orasida qanday yaqinlik bo'lishi mumkin? Sobiq va bo'lajak xotinlarning Oysanam Erkaevaga qarshi ittifoqimi bu? Zohid xayoliga kelgan bu savolni tiliga ko'chirmay, boshqacharoq qilib so'radi:

— Qanaqasiga?

— Men oldingi tergovchiga aytganman, Mavlon akaning katta qizlari bizda o'qirdi. Anavi qog'ozlaringizga yozilmabdimi? Mavlon aka bilan shu qiz o'qishga kirayotganida tanishganmiz. Ajrashib ketgan bo'lsalar ham bolalaridan xabar olib turardilar.

— Buni Erkaeva bilarmidi?

— Bilmasa kerak.

— Bilsa... g'ayirligi kelarmidi, janjal ko'tararmidi?

— Buni o'zidan so'raysiz.

— Birinchi xotin... albatta alamzada bo'ladi, kundoshi haqida nima derdi?

— Biz g'iybat qiladigan darajada yaqin emasdik. Keyin... u xotindan shubha qilmang, iltimos. U farishtadek sabrli, pokiza ayol. Ochig'ini aytsam, shunday xotinni xo'rlagani uchun Mavlon akadan ba'zan nafratlanib ketardim. «Seni yaxshi ko'raman», deganlariga ishongim kelmay qolardi. Agar yaxshi ko'rish kerak bo'lsa, erkak odam «uyim-joyim,

erim-bolam», deydigan o'shanaqa xotinni yaxshi ko'rishi kerak.

— Erkaeva «uyim-joyim» demasmidi?

— Bilmayman.

— Balki eriga kundoshidan ko'ra mehribonroq bo'lgandir?

— Bilmadim.

— Mirkarimov xotini haqida hech gapirmasmidi? Masalan, Erkaeva bir nima bahonasida janjal qilsa, siqilib, sizga yorilgandir?

— U kishi hasrat qiladigan erkaklardan emas edilar.

— Erkaeva erining siz bilan uchrashib turishini bila turib indamagan, deb o'ylaysizmi?

— Buni ham o'zidan so'raysiz.

— Mirkarimovning haydovchisi Erkaevaga kim bo'lardi, bilarmidingiz?

— Ha.

— Singlisini boshlab kelib, g'avg'o ko'tarar, deb cho'chimasmidingiz?

— Yo'q.

— Nima uchun?

— U yigit o'lgur qaynog'a emas, malay edi. Malayning ahvolini o'zingiz bilarsiz.

— Har xolda singlisining taqdiriga befarq qaramagandir?

— Befarq qaramagani aniq. Kallasi baloday ishlaydi uning. G'avg'o ko'tarilsa singlisiga qiyin bo'lishiga aqli yetardi.

— Singlisiga... nega qiyin bo'ladi?

Zaripova «shunga aqlingiz yetmayaptimi yo meni laqillatib o'tiribsizmi?» deganday Zohidga tikilib qaradi. Zohid Oysanam Erkaevaga nima uchun qiyin bo'lishini taxmin qilayotgan bo'lsa-da, chin sababini ro'parasidagi mahkuma ayoldan eshitishni istadi.

— Agar g'alva qilsa, singlisi boy erdan, o'zi ham boy kuyovdan, ham ishdan ajralib, quruq qolishi mumkin edi.

— Siz Mirkarimovning yaqin tanishlarini bilarmidingiz?

— Yo'q.

— Hech gapirmasmidilar?

— «Kimlardan norozi bo'lib gapirgan?» deb so'ramoqchimisiz? Oldingi tergovchi ham so'ragan buni. Javobini aytganman: Mavlon akaning noliydigan odatlari yo'q edi.

Zohid stol ustidagi qog'ozga so'roqqa berilgan javoblarning mazmunini yozgunicha Zaripova uning barmoqlaridan mo'jiza kutganday tikilib o'tirdi. U yozuv nihoyasiga yetishi bilan so'roq ham tugaydi, yana qamoqdagi joyimga qaytaman, deb o'ylab yanglishdi.

Zohid yozuvni tugatgach, unga tikildi. Ana shunda Zaripova kutgan mo'jiza yuz bermadi, balki kutilmagan savol eshitildi:

— Noil Zaripov ukangizmi?

— Ha... — Zaripova «Yigit o'lgurning fisqu-fasodiga ishondingizmi? Endi ukamdan ham shubha qilyapsizmi? Uni ham qamadingizmi yo endi olib kelasizmi?» degan savol nazari bilan tergovchiga qaradi.

— Mirkarimovning qo'lida ishlagan ekan. Mirkarimov uni nima uchun bo'shatib yubordi?

— Bilmayman, men ularning ishlarini tushunmayman.

— Balki biron qing'ir ish qilib qo'yib, Mirkarimovning jahlini chiqargandir?

— Beton zavodida qanaqa qing'ir ish bo'lishi mumkin?

Bu javobni eshitgan Zohid miyig'ida kulib, stol ustini chertib qo'ydi.

— Mantiqdan yaxshi o'qibsiz-u, hisobdan qoqilgan ekansiz-da, a? Axir qing'ir ish qilmasa Mirkarimov shunchalik boyirmidi? Ukangiz ham yomon yashamagandir?

— Bu ishlarga rostdanam aqlim yetmaydi. Ukam adashgan bo'lishi mumkin, lekin qing'ir ish qilmaydi. Dadam bunga yo'l qo'ymaydilar.

— Dadangiz uyda to'g'rilik haqida nasihat qilib o'tirsalar ehtimol. Lekin uydan to zavodga

yetib borilgunicha bu nasihatlar tushib qoladi. Dadangiz «o'g'lim, «nol yetti jiguli»ni qaysi pulga olding» deb hech so'ramaganmilar? Siz-chi? Siz so'raganmisiz?

— Men uning topar-tutariga qiziqmaganman.

— Nega qiziqmaysiz? Mirkarimov ukangizni ko'chadan topib kelib, daromadli o'rniga o'tqazib qo'ymagandir? Biologiya o'qituvchisini hamma ham beton zavodiga joylamas, a? Har holda orada sizning iltimosingiz ham bo'lgandir? Shu yerga kelganda mantiq yopishmay qolyapti, Zaripova.

Ayol bir narsani izlaganday ko'zlarini javdiratib, panjarali darchaga qaradi. Uni siqindilikdan qutqaruvchi najot aynan shu darchadan oqib keladiganday bir necha nafas tikildi.

— Zaripova, Mirkarimov bilan xotini haqida gaplashmagan ekansizlar, do'st-dushmanlarini ham tilga olmagan haqiqatdir. Ukangiz haqida ham gaplashmaganmisizlar?

— Balki... gaplashgandirmiz... umumiy gaplar...

— Ukangizni ishdan bo'shatgandan ham indamaganmidi? «Ukang beton plitalarini sotayotganida ikki marta qo'lga tushdi, falon ming berib qutqarib oldim, endi bu yog'iga chidash qiyin», ham demaganmidi?

— Siz yigit o'lgur Eshpo'latovning gaplariga ishonib shunday deyapsizmi?

— Biz Eshpo'latovning gapiga emas, dalillarga ishonamiz. Bu dalillarni qaerdan olganimni sizga aytib o'tirmayman. — Zohid «bu ish bo'yicha militsiyadagi o'rtoqlar shug'ullanishyapti, Mirkarimovdan pora olib, ukangizni qo'yib yuborgan OBXSS vakili hozir so'roq beryapti», demasa ham Zaripova ukasining ahvoli yaxshi emasligini anglab bir titrab oldi. «Ukamni ishga oling» deb iltimos qilgan tillarini chaynab tashlagisi keldi. Ukasi ko'p qatori maoshiga qanoat qilib yashab yuruvdi. Kelini ham yetishmovchiliklardan ko'p qatori nolib, g'ashlanib, ba'zan g'alva ko'tarsa-da, oxir-oqibat qanoatga bandi bo'lib yashayatuvdi. Ikki yil avvalmikin, er-xotinning g'alvasi ustidan chiqqan Zaripova ukasiga rahmi kelib, uning puldor odamga aylanib qolishini istab qolgan edi. U paytda ozod edi. Boylikning totli nafasidan mast edi. Endi mahkuma holatida o'sha totli kunlarini la'natlaydi.

— Mirkarimov yo'qolgan kuni uyingizda ukangiz bilan birga emasmidingiz?

Bu savol yashin kabi urilib, Zaripovaning vujudini parchalab, ko'mirga aylantirib yuborganday bo'ldi. U tergovchining qay tomonga burilganini aniq fahm etdi: «O'sha kuni ukang ikkoving o'ldirgansanlar, demoqchimi? Ukang ishdan haydalgani uchun alamdand o'ldirgan, deb ayb qo'ymoqchimi?..»

— Ukam yo'q edi... Ukam menikiga kam kelardi. Umuman... Mavlon aka uni ishdan bo'shatib, ko'chaga tashlab qo'yganlari yo'q.

— Bilaman, kooperativ limonad tsexiga joylaganlar. Biologiya o'qituvchisi uchun beton zavodidan ko'ra shunisi tuzuk. Ukangizning yangi xo'jayinini bilarmidingiz?

— Yo'q.

— Mahmud Ehsonov degan odam. Xudo rahmat qilsin uni.

— O'libdimi?

— O'ldirib ketishibdi, — Zohid «nahot bu yangilik panjaraning u tomonida qolib ketgan bo'lsa, nahot bu ayol eshitmagan?» degan xayolga unga sinovchan tikildi.

Zaripova «Voy bechora, Xudo rahmat qilsin», deb pichirlab, titray boshlagan barmoqlariga tikildi. «Buni nega menga aytyapti? «O'ldirib ketishibdi...» Ukamning bunga nima aloqasi bor?»

Zohid bu xabarni aytish bilan so'roqni yakunladi. «Keyingi so'roqqa qadar bu ayol ko'p narsani o'ylaydi, aytgisi kelmayotgan gaplarni endi aytadi.» — Shu fikrda ayolning izidan qarab qolgan Zohid garchi undan biron yangi gap eshitmagan bo'lsa-da, so'roqdan

ko'ngli to'lib qaytdi.

## XVI b o b

### 1

Asadbek o'g'li Abdusamad bilan tong qorong'usida yo'lga chiqib, Kozlovning oilasidan xabar olib qaytganda maydalab yomg'ir yog'ayotgan edi. Abdusamad mashinani darvozaga to'g'rilab to'xtatishi bilan qo'shni eshik ochilib, Qamariddin chiqib keldi-da, Asadbek bilan ko'rishib, uyiga taklif qildi:

— Bir piyola choyimiz bor edi, — dedi u iltijoli ohangda.

Asadbekning bu kunga mo'ljallagan ishlari ko'p edi, shu sababli iltimosni rad etdi. Qamariddin yana bir yalingach, «atay kutayotgan ekan, gapi zarurdir», degan fikrda unga ergashdi. Chol-kampirga mo'ljallangan xonadonga dasturxon usti shoxona bo'lmasa-da, qo'l uchida kun ko'ruvchi xonadonga xos ravishda tuzalgan edi. Shoshib kirib, shoshib chiqib ketish mensimaslik alomati sifatida qabul qilinajagini bilgan Asadbek hurmati uchun sindirilgan patirdan bir chimdim ushatib oldi. Achchiq choydan uch-to'rt ho'plagach, vaqti ziq ekanini pisanda qildi. Ana shunda Qamariddin ozgina hijolat, undan sal ko'proq qo'rqish holatida chaqiruvdan maqsadini bayon qildi.

— Qo'shni bo'lganimizdan beri sizdan ko'p yaxshiliklar ko'rdik, baraka toping, ota-onangizni Xudo rahmat qilsin, jannatlardan joy bersin, — Qamariddin gapni duo bilan boshladi-yu, maqsadga yaqinlashganda tilning aylanishi qiyinlashdi.

— Qamar aka, nima gapingiz bo'lsa aytavering, orada hijolatlik yo'q,— deb Asadbek unga dalda berdi.

— U kungi gaplarni maslahat qiluvdik. Maslahat shu bo'ldiki... hovli-joyni sotish zarurati bor ekan. O'g'limning ham avtobazadan bo'shagisi yo'q, bir nima deyishga hayronman, boshim qotib qoldi. Qariganda ota-bolaning gapi to'g'ri kelmasa qiyin ekan, — Qamariddin shunday deb og'ir dard azobida to'lg'anayotgan odam kabi xo'rsinib qo'ydi. Asadbek qo'shnisining bunday be'mani xulosaga kelishini sira kutmagan edi. Shu paytga qadar undan marhamat ko'rganlar hamisha ta'zimda bo'lganlar. «O'la-o'lgunimcha qulingizman», deydiganlar ham uchrab turardi. Asadbek ularning qulliklariga muhtoj bo'lmasa-da, ana shunday minnatdorchiliklarga o'rganib qolgan edi. Qilajak yaxshiligi uchun bu qo'shnisidan qullikni talab qilmovdi.

Xo'rsinib, qarashga botinolmay boshini xam qilgan Qamariddinga tikilgan Asadbekning qoni qaynadi: «Bu gaplar o'zining kallasidan chiqdimi yo biron ahmoqdan aql o'rgandimi? Bundaqalarga yaxshilik qilaman, deganning o'zi ahmoq. Battar bo'li!» — Asadbek shu g'azab bilan o'rnidan turib ketmoqchi bo'ldi-yu, g'arib holida o'tirgan qo'shnisiga rahmi kelib, o'zini o'zi bosdi. Bu safar rahm g'azabni yengib, bosiq va mehrlı ovozda dedi:

— Bu bollar siz ko'rgan qiyinchilik-azoblarni ko'rishmagan. Shuning uchun uyni sotish — og'izlarining bir chekkasidan chiqib ketaveradi. Siz o'zingizni siqmang. Men «soting», desamu siz «yo'q» desangiz hijolat bo'lsangiz yarashardi. Ko'ngilga qarab ishingizni qilavering. O'g'lingiz ham istaganidan qolmasin. Siz bilan biz yaxshi qo'shni edik. Xudo xohlasa yaqinligimiz uzilmaydi. Men uy masalasida bir-ikki odamga tayinlab qo'rganman. Chaqirib «navbatingiz keldi», desa ajablanmay, tortinmay olavering.

— Rahmat, baraka toping.

— Bu mening xizmatim emas, uy olishga xappai-halol haqqingiz bor. Siz «uy sotiladi»,

deb ovoza qilavering.

— Siz... olmaysizmi?

— Ovoza qilaveringchi, odamlar kelib ko'rishsin, baholashsin. Oxirgi qarorga kelishingizdan oldin menga xabar berarsiz.

Asadbek «maslahat yakuniga yetdi, qani, duo qiling», degan ma'noda qo'llarini fotihaga ochdi.

Asadbekning qaytishini kutib nonushta qilishmagan ekan. Barchalarining jam bo'lib o'tirishlari, ayniqsa Abduhamidning tetiklashib, ishtahaga kirayotganidan Asadbekning ko'ngli ravshanlashdi. Dasturxon atrofida to'yga taalluqli ayrim gaplarni ham gaplashib olishdi.

Kelinlar dasturxonni yig'ishtirishayotganda Asadbek ikki kunga Tblisiga borib kelajagini ma'lum qilib, Manzurani hayron qoldirdi.

— Voy o'lmasam, — dedi Manzura hayratini yashirmay. — To'yni o'tqazib, keyin bora qolmaysizmi?

— Sulikoning bobosini borib aytmasam bo'lmaydi. To'yning tashvishini qilmay qo'yaver, hammasi tayyor. Samad bilan billalashib to'yga aytib chiqsang bo'ldi. Hamidga ish buyurma, damini olsin. O'zing hadeb u-bu deb tashvishlanaverma. Meniyam yuragimni siqaverma. To'y bir kunda o'tib ketadigan narsa. O'zimizning to'yimiz esingdami? ZAGSga yangang bilan birga tramvayda kelgan eding. Taksida kuzatib qo'yganimga hayron bo'luvdilaring.

Eslamay bo'ladimi? Ayniqsa kelinposhshaning taksida qaytishi qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug' orasida gap-so'z bo'luvdi. Birovlar «taksida kuztgan bo'lsa, kuyovning topar-tutari yaxshi ekan», deb ozgina g'ayirlik ham qilishgan edi. Kuyovning topar-tutari nimadan iborat ekanini u paytda hech kim bilmasdi...

— Bitta sandiq, to'rtta ko'rpa bilan kelin bo'lib tushuvding. Mebeling yo'q ekan, deb haydaganim yo'q- ku? — dedi Asadbek tegishib.

— Voy, adasi u paytda mebel degan narsa yo'q edi,— dedi Manzura o'zini oqlab. Uning soddaligidan Asadbek kuldi.

— Shuni aytaman-da. Mebel-gilamsiz ham to'ylar bo'lardi, kelin-kuyovlar rohatlanib yashashardi. Endi taraq-turuqlar ko'payib ketdi. Qo'yib bersang ertaga kelin-bilan kuyovni filga o'tkazib ZAGSga olib borish kerak, degan gap chiqarishadi. Bu ham bir oliftagarchilik-da.

— Ming urinsangiz ham odamlar to'ydan bir kamchilik topib gap qilishadi.

— Shuni bilarkansan, hadeb tirishaverma. Dabdabani o'ylama.

Asadbek shunday degach, telefon go'shagini ko'tarib, raqamlarni terdi. Erining bu harakatidan «qarorimni muhokama qilishning hojati yo'q», degan ma'noni uqqan Manzura sekin o'rnidan turdi.

Telefonda Bo'tqaning ovozini tanigan Asadbek salom-alik qilmayoq buyurdi:

— Bugun Tblisiga uchaman, tayyorgarlik ko'rib qo'y.

Bo'tqa «tayyorgarlik ko'rish»ni o'zicha tushunib:

— Men ham birga boramanmi? — deb so'radi.

— Senga nima bor? — dedi Asadbek qo'rslik bilan.— Sen hozir aeroportga bor.

Asadbek bu ishni Jamshidga topshirsa ham bo'lardi. Yoki hech kimga indamay yo'lga o'tlanishi ham mumkin edi. Uning aynan Bo'tqaga vazifa topshirishi bejiz emasdi.

Asadbek undan gumonsiramasi, lekin Kesakpolvon surishtirguday bo'lsa gap yashirolmasligini aniq bilardi. Bo'tqa Asadbekni yoqtirmagani yoki unga nisbatan hiyonati uchun emas, xojalariga sadoqati tufayli ham shunday qilardi. Agar Bo'tqa biron masalada Kesakpolvonga hisob berib bo'lgach, Asadbek tomonidan so'roqqa tutilsa, yangi xo'jayini haqida bilganlarini yashirmay aytishi aniq edi. Bu odatini u «gap tashish»



deb emas, xojalariga xolis xizmat qilish deb bilardi. Asadbek uning aynan shu odatidan foydalanish uchun vazifa topshirib turardi.

Hovlida Jamshidning ovozi eshitilib, Asadbek deraza orqali tashqariga qaradi. Yomg'ir tinib, parcha-parcha bulutlar yorug'idan quyosh ko'rinayotgan edi. Shiypon zinasi yonida kelinayalari bilan suhbatlashib turgan Zaynab darvozaxonada turib ovoz bergan Jamshidni ko'rdi-yu, gapirayotgan gapini ham chala qoldirib, oshxonaga yo'naldi. Bundan ajablangan kelinlar ovoz kelgan tomonga qarab, Jamshidga salom berdilaru gap nimadaligini bilmasalar-da, Zaynabga ergashdilar.

Bu holatni deraza orqali kuzatib turgan Asadbekning ko'ngliga sovuqlik oraladi. Ayollar oshxonaga o'tib, hovli bo'shagan bo'lsa ham Jamshid ichkari tomon dalil yurib kelmadi. Uydan shoshilib chiqqan Abdusamad qarshilagandan keyingina unga ergashib, Asadbek o'tirgan xonaga kirdi. Xojasi bilan ko'rishdi-yu, «o'tir» degan taklifga javoban:

— Ko'chada Samatoxun aka turibdilar, — dedi.

— Boshlab kiravermadingmi?

— Unamadilar. «Bek akamiz uydamlar, avval bilib chiq», deb ajablanib turibdilar.

— Nega ajablanadi?

— «Ilgarilari yigitlar kutib olishardi, endi nega hech kim yo'q», deydilar.

— Bo'пти, bor, chaqir.

Bashang kiyingan Samatoxun hovliga kirib ham bir narsadan cho'chiganday atrofga olazarak qarab oldi. Ichkariga kirib tavoze bilan ko'rishgach, Asadbek ko'rsatgan joyga o'tirib, uzoq duo qildi. Shundan so'ng gapni nimadan boshlashni bilmay o'tirganida Asadbek boloxonada o'tiruvchi yigitlarga javob berib yuborganining sababini aytdi. Bu gap Samatoxunning qulog'iga yetgan, ammo ishonmagan edi. Sababni Asadbekning o'zidan eshitib, «durust bo'libdi», deb qo'ya qoldi. Bu orada Abdusamad choynak ko'tarib kirib poygakka, Jamshidning yoniga o'tirdi.

— Kuyov bola, to'ylar qutlug' bo'lsin, — dedi Samat-oxun unga qarab, so'ng cho'ntagidan ikkita quticha chiqarib uzatdi: — Xudoyim ota yurtimga borishni nasib qilgan edi. O'sha yerdagi zargarlik do'koniga kirib tillo isirg'alarga hushim ketdi.

Qizlarimga, kelinimga atab olib tashqari chiqdimu ko'nglim bo'lmay yana qaytdim.

«Baxti kulganlarga nasib etar», degan umidda yana ikki juftini oldim. Uyga qaytib suyunchli xabarni eshitdimu qanot chiqarib siz tomon uchdim. Xudoning ko'nglimga solganini qarang, shu kunlarda to'y qilishingiz menga noma'lum edi. Ayniqsa birdaniga ikki kelin tushirishingizni qarang! Shu isirg'alarning egasi, baxti kulgan qizlar sizning kelinlaringiz ekan. Olloh muborak qilsin.

Samatoxunning duosidan so'ng Jamshid bilan Abdusamad o'rinlaridan turib, tashqariga chiqishdi.

— Ha, oxun, mashqingiz sal pastroqmi? — dedi Asadbek, holi qolishgach,

— Mashqim joyida, Bek aka... — Samatoxun Asadbekning sinchkov nigohiga dosh berolmay dasturxon ustidagi piyolaga tikildi, — asli maqsad muborak bo'lsin, deb ketish edi. Bir gap bor-u, hozir o'rni emas, to'ydan keyin bafurja gaplasharmiz.

— Gapiravering, to'y o'tguncha qiynalib yurasizmi.

— Unchalik muhim gapmas edi...

— Chaynalmang, sizga dadil gapirish yarashadi.

— Gap shuki... balki bizlarga noto'g'ri xabar yetgandir... Siz Haydarjonga vakolatni sal kattaroq berib yuborganmishsizmi?

— Ha, shunga yaqin gap bo'ldi. Kasallik meni ancha toldirib qo'ydi. Haydar begona odam emas, tashvishlanmang.

— Shunaqa deysiz-u, begonadan o'zingniki yomon chaqadi.

— Siz chaqdirib yurmang-da. Uni bugun ko'rib turibsizmi, qiliqlarini bilasiz-ku?

— Qiliqlarini bilganim uchun sizga yorilyapman. Asli... sizning ishingizga aralashishi noma'qul. Lekin... birodarlar bilan bamaslahat iltimos qilishni lozim topdik. Biz bu shaharda sizdan boshqa odamni tanimaymiz. Tanishni istamaymiz. Asadbek javobga shoshilmadi. Kulimsirab qo'yib, choydan ho'pladi.

— Choydan iching, oxun, sizni bu ahvolda ko'rgan odam Asadbekning janozasida o'tiribdimi, deb o'ylaydi.

— Hay, hay! Sovuq nafas qilmang, Bek aka.

— Arzimagan pashshaday gap sizlarga filday vahimali bo'lib yetib borganga o'xshaydi. Men Haydarni hammalaringga boshliq qilib qo'yib, o'zim qochvorganim yo'q. Agar u yoq-bu yoqqa toyadigan bo'lsa, to'g'irlab qo'yishga kuchim yetadi.

— Shunday bo'lgani durust. Bek aka, yana bir uzrli iltimos bor.

— So'rayvering, bugun astoydil so'rong'ich bo'lib kelganga o'xshaysiz, — dedi Asadbek hazil ohangda.

— Iltimos shuki, — dedi Samatoxun jilmayib qo'yib, — to'yda dasturxon bezashni, yemoq-ichmoqni bizga yuklasangiz.

— Yaxshi-ku, — dedi Asadbek kulib. — Unda «men to'y qildim!» deb kerilmasam ham bo'laverarkan.

— Unaqa emas, Bek aka, ixlosimizning xolisligini bilasiz-ku?

— Bilaman. Ming rahmat sizga, oxun, birodarlaringizga ham rahmat.

— Qizchangizning to'yida shunaqa niyat qilganimizda «bu yoqda o'g'illarning to'yi bor», deb qaytargan edingiz.

— Oxun, niyatingiz yaxshi-ku... lekin topganimni to'yga ishlatmasam yana nimaga sarf qilaman. Hammasi bu qoringa sig'maydi-ku?

Samatoxun uchun shu gapning o'zi kifoya qilib, uzr so'radi-da, duo qilib o'rnidan qo'zg'oldi. Asadbek shu paytgacha qilmagan ishini qilib, uni ko'chaga qadar kuzatib chiqmoqchi ham bo'ldi. Keyin «Bek akamiz otdan ham, egardan ham tushib, o'zimiz qatori bo'lib qolibdilar», degan xayolga bormasin, deb uy ostonasida xayr-lashib qo'ya qoldi.

## 2

Videobar niqobidagi idoraga qahva so'rab kirgan yigitning gaplari Bo'tqaga almoyi-aljoyi tuyuldi. Asadbek esa undan Kozlovning Tomska ekanini, erta-indin yetib borishi zarurligini uqib oldi. Suratlardan birining ortidagi belgidan bildiki, uni shu uyda kutishadi. Birdaniga Tomska o'tlanishi Kesakpolvonni, u orqali Xongireyning tinchini olishi shubhasiz, oqibatda kavlab-kavlab Kozlovning iziga tushishlariga imkon yaralishi mumkin edi. Shuning uchun ham Sulikoning bobosini to'yga taklif etish bahonasida Tblisiga o'tlandi. Moskvaga qo'ng'iroq qilib maqsadini Ilikoga bildirgan edi, u ham Tblisiga kelib turishini aytdi. Tblisida kutib olajagini aytdi.

Samatoxun ketgach, Asadbek o'ylab qo'ygan rejasi bo'yicha Kesakpolvonning uyiga qo'ng'iroq qildi. Ilgarilari a'yonida gapi bo'lsa shotirlaridan biriga «Haydar akangni top», derdi vassalom. Hech qachon uning uyiga qo'ng'iroq qilmas edi. Shu sababli go'shakni ko'targan Kesakpolvonning xotini avvaliga uni tanimadi, keyin «Voy Bek aka, sizmidingiz?» deb ajablandi, so'ngroq esa «o'zlari telpon qilyaptilar-a, tinchlikmikin?» deb havotirlandi. Asadbek uning salomiga alik olgach, Kesakpolvonning bunaqa paytda uyida o'tirmasligini bilsa ham:

— Ering uydami? — deb so'radi.

— Voy, yo'g'idilar-a, — dedi xotin achinish bilan.

— Telpon qilib qolsa, yo kelsa aytib qo'y, men bir joyga ketadigan bo'lib qoldim. Uydan xabar olib tursin, senam kelib opangga qarashgin. To'y yaqinlashib qoldi-yu, qorangni ko'rsatmaysanam. Sendaqa singilni bobovlarga berib yuborish kerak, — Asadbek bu gaplarni mehribon akaning ginali ohangida aytdi. Bu bilan sobiq a'yonining oilasiga qadrdonligi saqlanganini bildirib qo'ymoqchi edi. Uning rejasi juda sodda bo'lishiga qaramay, amalga oshishi ishonchli edi. Ya'ni, mehribonlik bilan aytilgan gaplar xotinga moydek yoqib, eriydi. Bu mehribonlikni ikki-uch karra bo'rttirib eriga ta'riflaydi. Sergak dushmandan ko'ra g'aflatdagisini ma'qul ko'ruvchi Asadbekka bu ham kerak.

Bir ozdan so'ng Jamshidni chaqirib, safarga ketayotganini bildirdi.

— Bir o'zingizmi yo Rasul bilanmi? — ajablanib so'radi Jamshid.

— Bo'tqa kuzatib qo'yadi. Sen uydagi ishlarga qarash, ziyrak bo'lgin.

— Yolg'iz bormasangiz bo'lardi.

— Tbilisida Iliko kutib oladi, yolg'iz emasman. Ha, aytmqochi, sen Jalil akangga uchrashgin. Muhiddin akani olib kelinglar. Ota qadrdonimiz to'yga bosh bo'lib tursinlar. Keyin Jalil akang bilan Samad borib Abdurahmon tabibni to'yga aytib kelishsin. To'y kuni tabibga moshina yuboramiz.

Jamshid topshiriqlarni olayotganida mutelik holatida turdi. Biron narsani aniqlashtirish maqsadida qo'shimcha savol bermadi. Asadbekka uning aynan shu fazilati yoqardi. Chuvrindi ham shunaqa edi. Hozir Jamshidga qarab a'yonini esladi-yu, yuragi bir o'rtandi. Ayni damda Jamshidning o'ychan boqishlari Chuvrindining qarashlariga juda-juda o'xshashligini kashf etdi. Nazarida a'yon bu dunyodan barvaqat ketarini bilib, yaxshi fazilatlarini unga singdirganday edi. Balki... o'shanda «mendan keyin Bek akamga xizmat qiladi», deb o'limdan olib qoldimikin?..

Asadbek shularni xayolidan o'tkazib, o'zicha «Xudo asrayman, desa mendaqadan mingtasi daf qilsin, hech qanaqa balo urmaydi. Xudo mening rahmimni yeb buning jonini saqlab qolgan ekan. Buning joniga qo'shib meni katta gunohdan ham asrabdi...» deb qo'ydi.

— O'tir, nimaga tikka turibsan? — dedi Asadbek, mehribonlik bilan.

— Agar xizmat bo'lmasa, bora qolsam... Qozi bilan uchrashadigan va'dam bor edi.

— Qozi bilan ancha chiqishib qoldilaringmi?

— Eski qadrdonlarmiz-ku?

— Qanaqasiga?

— Birga o'tirganmiz.

— Esimda yo'q ekan. Haydar akang topgan mayda o'g'rilardan, deb yurarkanman.

Nimaga qamalgan?

— O'zining aytishicha, hazillashib turib, o'rtog'ini suvga itarib yuborgan ekan. Men chiqadigan paytimda bitta bolani hazillashib so'yib qo'yuvdi. Shunaqa hazillari bor. Uni Haydar akamga men ro'para qiluvdim.

— Ehtiyot bo'l, yana senga ham hazil qilib qo'ymasin.

— Bek aka, Selim qaytib kelibdi.

— Kim deding? Selimmi? Farg'onadagi anavi turk-mi? Nimaga qaytibdi? Hozir qaerda? Farg'onadami?

— Yo'q, shu yerda? Haydar akam bilan oldi-berdisi borga o'xshaydi.

— Uning oldi-berdisi nimaligini bilasanmi?

— Sal-pal bilaman.

— Bilsang, uni nazardan qochirma. U o'zicha qaytib kelolmasdi. Balki... Xongirey yuborgandir? — Asadbek savolni o'rtaga tashladi-yu, Jamshiddan javob kutmay unga ijozat berdi: — Sen boraver, choyxonada Haydar akangni ko'rsang, ketayotganimni aytib qo'y. Yana jazavaga tushib qolmasin.

Kesakpolvon bu paytda Asadbekning ketayotganini Bo'tqadan eshitib ulgurgan edi. U «nega menga aytmay ketyapti, to'y qilayotgan odamga Tbilisida nima bor ekan? Mayli, indamay turay-chi, borsa borib kelsin», deb o'zicha arazlaganday bo'ldi. Lekin bu araz uzoqqa cho'zilmadi, indamay turolmadi. Ichini qiziqish o'ti kuydirib Asadbeknikiga oshiqdi. U darvozaxonada Jamshidga ro'para kelib:

— Akaxoning uydami? — deb so'radi.

— Uydalar, — dedi Jamshid.

— U yoq-bu yoqqa ketvormadimi?

Jamshid bu savol zamirida zahar yashiringanini fahmlab:

— Hozir sizga xabar bergani ketayotuvdim, — dedi.

Kesakpolvon Jamshidga o'qrayib qarab, so'kindi. Bu so'kinish Kesakpolvon tilidan o'zimizning so'zlashuv tilimizga o'girilsa taxminan «Bu xabaringni endi bir narsaga qo'shib pishirib ye!» degan «shirin» ma'no kelib chiqadi. Jamshid Haydar akasining tilini tarjimasiz ham yaxshi tushungani uchun «iltifotingiz uchun rahmat», deganday o'ng qo'lini qorni ustiga qo'yib joyida qotib turaverdi.

Kesakpolvon Asadbek o'tirgan uyga kirib salomlashgach, to'rdan, deraza tomondan joy oldi.

— Ha, bahay? — dedi u fotiha qilishni ham unutib. — Sayohatchi qurbaqaga o'xshab joyingda o'tirolmay qoldingmi?

Bu gap Asadbekka yoqmay, yuzi uchdi. Kesakpolvon ilgarilari ham shunga o'xshash quyushqonga sig'maydigan gaplarni aytib turardi. Lekin unda Asadbek — xo'ja-yin, iltifot qilib Kesakpolvon — xizmatkorining bu qiligi'ni kechirardi. Agar bu gap o'sha damlarda aytilsa Asadbek «Atrofimda shilliqqurtlar g'ashimga tegdi, bir aylanib kelay», deganga o'xshash ilmoqli javobni hayallatmasdi. Hozir bunday degisi kelmadi. Qurbaqaga o'xshatilganidan og'rinsa-da, alamini ichiga yutib, Tbilisiga qanday maqsadda ketayotganini aytdi.

— Telegramma berib qo'ya qolmaysanmi? — dedi Kesakpolvon.

— Bilasan-ku, gruzinlar nozik bo'lishadi. Ayniqsa oqsoqol juda izzattalab. Zaynabning to'yida xafa bo'lgan edi. Bu safar ham borib aytmamam «O'zbeklar oqibatsiz ekan», deb yuradi.

— Shunaqa darding bor ekan, oldin menga aytmaysanmi?

— Seni telefonda qidiraverib qo'llarim qavarib ketdi-ku. Xotiningdan so'rab ko'r-chi?

Ta'bing juda nozik bo'lib ketibdimi, a?

— Gap unda emas, bir bo'tqa bilgan narsani men bilmay lallayib o'tirsam alam qilarkan.

— Alam qilmasin, mayda-chuyda ishlarni senga aytmamam darrov jirillama.

Bu tanbehdan so'ng Kesakpolvonning hovuri sal bosildi. Bo'tqa kelgach, Asadbekning e'tiroziga qaramay kuzatgani chiqdi.

### 3

Tbilisida uchoqdan tushgan Asadbekni bu yerlarda «Anakonda» laqabi bilan dong taratgan Anzor kutib oldi.

Asadbek dastlab Gurjistonga kelganida Suliko uni o'g'rilar olamida tanila boshlagan do'sti Anzor bilan tanishtirgan edi. U damlarda Asadbekka «o'qilon» degan laqab berilmagan, Anzor esa «Anakonda» sifatida quloch yoymagan edi. Shunday bo'lsa-da, Asadbek otasini ming to'qqiz yuz qirq to'qqizinchi yilning so'nggi kunida uydan olib chiqib ketganlardan birining izini Yerevandan topgach, hukmni ijro etishda aynan shu Anzor yordam bergan edi. Sulikoning xotinini qimorda yutib olgan bu o'zbek yigitning

mardligi Anzorni ham qoyil qoldirib, «Sen faxriy gruzinsan!» degan edi. O`shanda hayajon bilan aytib yuborilgan bu gap Asadbek uchun unvon bo`lib qoldi.

Zinadan tushib Anzor bilan quchoqlashib ko`rishayot-gan Asadbekning ko`zlari Ilikoni qidirdi. Buni sezgan Anzor «Iliko shu yerda», deb uni tinchlantirdi.

Ular uchoqdan yuz qadamcha narida turgan, oynaklari qoraytirilgan oq «Mercedes» tomon yurdilar. Mashina eshigi ochilgach, orqa o`rindiqda o`tirgan Iliko ko`rindi. «Bu ham o`zining soyasidan qo`rqib qolganmi?» Asadbek ko`nglidan shu gapni o`tkazib, Ilikoning yonidan joy oldi.

— Bek og`a, tushib kutib olmaganim uchun ranjima. Bu atroflarda bizni birga ko`rmay turganlari ma`-qul, — dedi Iliko so`rashib bo`lgach.

Anzor «Mercedes»ga o`tirmadi. U orqadagi mashinada yetib boradimi yo Tbilisida qoladimi, Asadbek surishtirmadi.

To shahardan chiqqunlariga qadar ikkovlari uchun ham ahamiyatsiz bo`lgan gaplardan gaplashdilar. Odatda hamsafarlar jim ketmaslik uchun nimalarnidir gapirib ketadilar. Shu «nimalarnidir»ga ob-havoning o`zgarishi ham, Kanadadagi avtobus halokati ham, Vezuviy vulqonining uyg`onishi ham kiradi. Bunaqa paytda «Tbilisidagi bozorda olma narxining oshishiga Vezuviy vulqonining nima dahli bor?» deb so`rab o`tirilmaydi. Asadbek bilan Ilikoning suhbatlari ham shunga o`xshash bo`ldi.

Tog`ning ilon izi yo`llaridan borishayotganda Iliko:

— To`yingni sal orqaga sursang bo`lardi, sening bahonangda men ham bobomning yonida qolib, ozgina dam olardim. Bobomga ancha dalda bo`lardik. Hozir unga qiyin, — dedi. So`ng xo`rsindi-da, qo`shib qo`ydi: — Juda qiyin.

— Qolishning hech iloji yo`q. Bugunoq Tomsikka uchishim kerak, — dedi Asadbek.

— U yerda nima qilmoqchisan? — deb ajablendi Iliko.

— Kozlov o`sha yerda emish.

— Tomskdami? — Iliko boshidagi novvotrang shlyapasini qo`liga olib, xuddi changini qoqqanday bir-ikki chertib qo`ydi. — O`zim ham shunaqadir deb o`ylovdim. Demak, Balabuxaning yonida ekan-da?

Asadbek faqat Tomsdni emas, balki uning atrofida gilarni ham bir so`zi bilan yotqizib-turg`izishga qodir Balabuxa degan odam borligini eshitgan, ammo o`zini ko`rmagan edi. Uning ta`rifidagi gaplar mish-mishmi yoki haqiqat ekanini ham aniq bilmasdi. Kozlov bu kunlarda aynan uning panohidami yoki boshqa birovningmi — buni ham aniq aytolmasligi sababli:

— Bilmadim, balki yonidadir? — deb mujmal javob berdi.

— Ha, o`sha yerda, — dedi Iliko ishonch bilan, — uni Balabuxadan boshqasi himoya qila olmaydi. Sulikoning o`limidan sal oldin Xongirey zo`rlarning zo`rini to`plab, Shaxovskiydagi bog`ida ziyofat beruvdi. Shu ziyofat bahonasida Kozlov bilan sening o`yindan chiqishingga ruxsat oldi. Balabuxa Kozlovni himoya qildi. Lekin «unga tegma!» deb qattiq talab qilmaganiga hayron bo`luvdim. O`zining bir rejasi bordir. Bilib qo`y: ziyofatda hech kim sening yoningni olmadi. Men ham indamadim.

— Indaganingning foydasi bo`larmidi? — dedi Asadbek. — U yerda asosan o`g`rilar yig`ilishgandir. Ular qimorvozlarni yomon ko`rishadi.

— Buni o`zing to`g`ri tushunasan. U yerda gap talashishning mutlaqo foydasi yo`q edi. Biz ishimizni bilib qilaveramiz. Xongireyning taqdiri bitta — mag`lub bo`lish. Taqdiridagi oxirgi so`zni biz yozamiz. Ishonching komil bo`laversin.

— Sulikoning o`limida uning qo`li borligi isbotlandimi?

— Menga isbot kerak emas. Men o`zim ishonaman, shuning o`zi yetarli. Xongirey «qimorbozlarga tegmayman», deb so`z bergan edi. U kavkazlik erkak emas, allaqayoqlik qanjiq! U va`dasini buzdi — Tinyan qimorbozni bosibdi. Tinyan qimorbozning Suliko bilan

sherikchiligi bor edi. Xongirey buni bilardi. Bilib turib atay bosgan. Mening g'ashimga tegmoqchi bo'lgan. Suliko esa mendan avvalroq uni ko'pchilikning orasida qattiq so'kkan. Sulikoni xuddi o'sha kechasi o'ldirib ketishgan. Senga yana qanday isbot kerak? — Iliko... — Asadbek aytar so'zlarini yana bir o'ylab olgach, gap boshladi: — Ikkoving ham Moskva uchun begona odamsanlar. Bir-biringga tish qayrasalaring slavyanlar senlarni chaynamay yutishadi.

— Bu sening gaping emas, Bek. Bu — Xongireyning falsafasi. Menga ham aytgan buni. Bunda ikkita xatolik bor: Xongirey hech qachon menga el bo'lmaydi. Uning tili boshqa, qalbi boshqa. Gruzinlar bunaqalarni odam o'rnida ko'rmaydi. Ikkinchi xato: Men Moskvaga begona emasman, xo'jayinman. Men nima istasam shu bo'ladi. Ruslar Kavkazni urush bilan olishgan edi, biz uning poytaxtiga urushsiz ega chiqqanmiz. Shuning uchun sen bizning taqdirimizdan tashvishlanma.

Moskvadagi uchrashuvlarida ham Iliko Xongirey bilan hisob-kitob qilajagini aytgan edi. Hozir ham takrorladi. Asadbek bu gapdan keyin o'zini ko'chada kaltak yeb akasiga arz qilib kelgan mishiqi bola holatida ko'rib, g'ashlandi. Chunki u Xongirey «chetga chiq» degani bilan bir zumdayoq tobega aylanib qolmagan, fursati kelishini kutib ozgina chekingan edi xalos. Eng muhimi — Ilikoga «qasdimni olib ber» demovdi, o'la qolsa ham bunday demasdi. «Mening tashvishimda yurgani yo'qdir. Akasi uchun qasos olmaganicha tinchimaydi. «Qonga — qon, jonga — jon!» dedimi, vassalom... Uning dardi menikidan og'irroq... Men qo'limdan ketganini ertaga qaytarib olaman. Buning yo'qotgani esa qaytmaydi...» — Asadbek o'zini shu gaplar bilan ovutgan bo'ldi.

Tog'li qishloqqa nonushta mahali yetib kelishdi. Bu tomonlarda hali qor erib ulgurmagan, ayniqsa mag'rur cho'qqilar oq papoq kiygan mo'ysafidlar singari go'yo mudrardi. Ilikoning bobosi xuddi ularni kutayotganday ayvon ustuniga suyanganicha yo'lga tikilib turardi. Avval nabirasini, so'ng mehmonni ko'rgach ham yuzida quvonch nishonasi sezilmadi, g'amgin qiyofasi o'zgarmadi.

Orqadagi mashinada yetib kelgan Anzor chol bilan ko'rishgach, yordamchi yigitlari bilan birga dasturxon tuzashga kirishdi. Chol ularning harakatlariga monelik qilmay, zarang hassasini qo'ldan qo'ymasdan hovliga tushdi. Asadbek unga ergashib, hol-ahvol so'radi. Chol unga javoban «Xudoga shukr», deb qalin soqolini tutumlab qo'ydi. Asadbek «chol yana biron gap aytarmikin», deb kutdi. Lekin chol «o'zing yaxshi yuribsanmi?» deb ham so'ramadi. Shunda Asadbek o'zbeklarga xos tarzda «Oshnamni berib qo'yibsizlar», dedi. Bu gapdan ke-yin chol yonida turgan mehmonga qaradi. Asadbek hamisha chaqnaq turuvchi nigoh o'rniga botiq, nursiz ko'zlarni ko'rib, yuragi g'alati bo'lib ketdi. Cholga yana bir nima deb tasalli bermoqni istadi, lekin shunga loyiq gap kelmadi tiliga.

— Anavi cho'qqini ko'ryapsanmi? — dedi chol bir ozlik sukutdan so'ng. — Cho'qqi yolg'iz, men ham yolg'izman. Cho'qqi mendan oldin ham bor edi, mendan keyin ham yashaydi. Cho'qqi bexato yashaydi, men esam xatoyu gunohlarga boyib umr kechirdim. Vano o'g'lim urushga ketaturib ikki o'g'lini menga ishonib topshirgan edi. Men o'g'limning omonatiga xiyonat qildim... Sulikoni asrab qololmadim...

Chol shunday deb yo'lga qaradi.

Bu tun tush ko'rib edi: o'zi ayvonda turgan emish. Yo'ldan esa o'g'li Vano bilan nabirasi Suliko yugurib kelayotganmish. «Ota, siz Sulikoni yo'qotib edingiz, men uni topdim!» deb quvonarmish Vano. Faqat Suliko ellik yoshdagi odam emas, balki uch yoshli go'dak emish... Otasi urushga ketganda shu yoshda edi Suliko... Qush qanotlarini yoygani misol chol quchog'ini ochib ularga peshvoz chiqdi. Ular esa chekindilar, chekindilar, so'ng qora nuqtaga aylandilar...

Yarim tunda nafasi bo'g'ilib uyg'onganicha chol bedor edi. Suliko bilan Iliko bobolarini yolg'iz qoldirmay, o'zlari bilan birga yashashga ko'ndira olishmadi. Kutaisida turishganda

chol rozilik berganday bo'ldi, ammo shaharda ikki kunga ham chiday olmadi. Qishloqdagi qabristonda yotgan ajdodlarini, xotinini, nabiralarining onasi bo'lmish kelinini yolg'iz qoldirolmasligini aytgach, Suliko ham, Iliko ham noiloj qolishdi, bobolarini shaharga ko'chirish haqida boshqa so'z ochishmadi.

Chol chetan devor bilan o'ralgan hovlisiga taqalgan yo'l tomon bir-ikki qadam qo'yib, to'xtadi. Keyin yana cho'qqiga tikilganicha, xuddi o'ziga o'zi gapirganday dedi:

— «Uning issiq ko'z yoshlarin hayvonlar yalar yo'lda,

Olov esa to'xtamayin avj oladi ko'ngilda...»

Chol yana sukut qildi-da, so'ng Asadbekka qarab «Bu— Rustaveli!» deb qo'ydi. Keyin uning bilagidan ushladi.

— Iliko «akam kasaldan o'ldi», deydi, men bu gapga ishonmayman. Bizning urug'dagi erkaklarning hech qaysisi ellik yoshida kasallik bilan o'lmagan. To'satdan ham jon bermagan. O'lim bilan olisha-olisha ke-yin o'lishgan. Ayb menda... Men bularni shaharga qo'yvormasligim kerak edi. Bularni shaharga boylik ishqi chaqirgan, deb yursam o'lim yetaklab ketgan ekan. Sen gruzinmisan, o'zbekmisan, musulmonmisan yo nasroniymisan — farqi yo'q, boylikka qo'yilgan ko'ngilning oqibat ishi shu bo'ladi. Mana bu tosh kulbaga qara: ota-bobolarim shu uyda tug'ilishib, shunda yashashgan, mening kindik qonim ham shunda to'kildi. Vano ham, uning o'g'illari ham shu uyda tug'ilganlar. Biz siqqan bu uyga nima uchun Suliko bilan Iliko sig'ishmaydi?— Chol «men savol berdim, sen javob qaytarmaysanmi?» deganday tin oldi. Bu savolga cholning o'zi ham javob topa olmagach, Asadbek nima desin? Alhol chol mehmondan so'z kutmayotgan, ichidagi g'alayonni bosmoqqa urinayotgan edi. — Bir odamning yashashi uchun nima kerak? Oz, juda oz narsa kerak. Sen bularning Kutaisidagi uylarini ko'rgansan. Mana shu tog'larni uch xonali uyga almashishdi-ya! O'sha uylarga qalashtirgan lash-lushlarini mana bu archalardan afzal ko'rishdi. Men ularning qalblariga boylik urug'ini ekmagan edim, bilmadim, boylikka qanday ishqlari tushdi? Men qachondir g'aflatda qolganman. Ha, g'aflatdan bo'ldi bu, — chol chuqur xo'rsindi. — Hazrat Iyso deydiki, «Dengiz to'lqini ustiga kim uy qura oladi? Bu dunyo hayoti shuning o'zidir? Uni abadiy qarorgoh qilaman, deb o'ylamang». Suliko shunday o'ylagan edi. Ilikoning fikri ham shu. Sen ularning do'stisan, demak, sening turush-turmushing ham shu. Qarorgohlaring cho'kajagini bilmaysanlarmi?

Chol «bu savolimga javob bermoqqa majbursan!» deganday Asadbekka tikildi. U ilgari ham ko'p gapirardi. Dono gaplarni bir-biriga ulab ketishga usta edi. O'rta savol tashlab, javobni begona qilmas edi. Donoligidan o'zi ham zavqlanardi, ko'zlarida olov yonar-di. Hozir zavq ham, olov ham yo'q. Siniqlik bor. Asadbek «Sulikoning o'limi oqsoqolni sindiribdi», deb o'yladi, uning atrofida soyadek ilashib yurgan o'lim sharpasini esa sezmedi.

— Qarorgohlaring cho'kishini bilmaysanmi? — deb savolini takrorladi chol.

Asadbek, uning nigohiga dosh berolmay, ko'zlarini olib qochdi.

Qarorgohi cho'kajagini nega bilmasin, biladi. Faqat qaerda, qachon cho'kishigina unga noma'lum xolos. Oqibat cho'kishini bilsa-da, «balki omon qolarman», deb umid qilaveradi.

Chol savolini takrorlaganda Asadbek Muhiddin otaning ovozini eshitganday bo'ldi. Yo'q, ovoz uniki emas, otasiniki edi... Agar bir mo'jiza bo'lib, otasi tirilib kelsa, shunday deb so'rardi... Shuni o'ylab Asadbekning vujudini yengil titroq kesib o'tdi.

Chol astoydil javob kutayotgan edi.

— Cho'kish har bir odamning peshonasida bor, — dedi Asadbek horg'in holda.

— Barcha bir xilda cho'kmaydi. Sulikoning cho'kishi boshqacha bo'ldi-ku? Ilikoga ayt, endi esini yig'ib olsin. «Ey Muso, oxiratingni unutadigan tarzda dunyo sevgisiga mayl

etma. Agar huzurimga dunyo sevgisi bilan keladigan bo'lsang, bundan ham kattaroq gunohing bo'lmaydi!» Bu kimning gapi bilasanmi?

Chol shoirdan misol keltirishni yaxshi ko'rgani uchun:

— Rustavelimi? — dedi.

Bu javobni eshitgan chol g'azablanib, xassasini yerga zarb bilan urdi-da:

— Ahmoq! — dedi. So'ng o'zining tilida nimadir deb g'udurandi. Keyin bir oz yumshagan tarzda davom etdi: — Bunchalar ahmoq bo'lmasalaring. Axir bu Xudoning hazrat Musoga buyrug'i-ku!? Eshit: Xudo vahiy yo'li bilan hazrat Musoga yana shunday xitob qiladi: «Ey Muso! Zolimlarga xos dunyo hayotining senga nima keragi bor? Zolimlarga o'xshab yashash senga yarashmaydi. Ulardek yashash fikrini xayolingdan chiqarib ot! Aq-lingni ishlatib, bunday yashashdan qoch! Zolimlik bilan o'tkazilgan bu dunyo hayoti naqadar tuban! Go'zal amallar bilan o'tkazilgan dunyo hayoti esa naqadar go'zal!» — Bu gaplarga diqqat qilyapsanmi? Yana Xudo deydi: «Men mazlumning haqqini zolimdan olib berish uchun bu zolimni qadam-baqadam kuzataman... «Angladingmi? Zolimlarga o'xshab yashash fikrini xayoldan chiqarib otish kerak. Xudo yahudiyga ham, nasroniy, musulmonga ham, hatto butparastga ham shunday buyurdi. O'zing anglagan bo'lsang, Ilikoga ham anglat. Men endi tushuntirmoqqa ojizman. — Chol shunday deb ohistalik bilan qadam tashladi. Asadbek undan ortda qolmay yonida bordi. O'ttiz qadamlar yurilgach, chol to'xtadi. Keyin o'girilib, iziga qayta boshladi. Shundagina Asadbekdan hol-ahvol so'radi. Asadbek fursatdan foydalanib uni to'yga taklif qilish maqsadida atayin kelganini bildirdi. Chol taklifdan quvonganday bo'lib, jilmaydi:

— Men o'g'illaringga eng yaxshi tulporlardan sovg'a qilaman.

— O'zingiz borsangiz, bizga eng ulug' sovg'a shu bo'ladi, — dedi Asadbek.

— Yo'q! — dedi chol qaysarlik bilan: — Er yigitga ot kerak, xanjar kerak, papoq kerak, bo'rk kerak! O'g'illaring men kabi uzoq umr ko'rsinlar, men kabi halol yashasinlar, ammo farzand hajridan yiroq bo'lsinlar, angladingmi?

Dasturxon atrofida uzoq o'tirmadilar. Asadbek Tomsikka uchishi shart ekanini eslatgach, Iliko unga ijozat berdi. O'zi esa bobosi bilan qoldi. Asadbekning Tblisiga kelishidan maqsadi faqat to'yga taklif qilish emas, balki Tomsikka borish yo'lidagi bir niqob ekanini anglagan Iliko «Qaytishingda Anzorning o'zi kutib olib, kuzatadi. Men ertalab Moskvada bo'lishim kerak», deb uzr so'radi. Asadbekning niyati ham Tbilisi orqali qaytish edi. Biroq, vaziyat uyiga Moskva orqali qaytishga majbur etdi.

## XVII b o b

### 1

Odam tug'ilishi bilan yashay boshlaydimi?

Bu savol har bir inson bolasiga bema'ni tuyulishi tabiiy. Odam yashamoq uchun bu dunyoga keladi, degan ojiz haqiqat barchaning ongidan muqim o'rin olgan. Ayrim olimlarning aytishicha, chaqaloq tug'ilishi hamon «Ana endi o'ladigan bo'ldim», deb yig'lar emish. Agar bunga ishonilsa, odam bolasi tug'ilishi bilan o'limi onlarini kutish navbatiga turadi. Asli bu yorug' dunyo Azroil do'koni eshigiga tizilgan navbat zanjiridan iborat. Ajabki, o'lim navbatida turib ham ba'zilar boshqalarni o'ldirishni istaydilar. Tirikliklarida birovlarini oyoqosti qilib, o'lganlarida o'zlarining oyoqosti bo'lmaklarini go'yo bilmaganday yuradilar. Azroilning do'koni ko'zga tashlanib, navbat yetgach esa qochmoqqa go'r ham topolmay qoladilar.



Xongirey ayni shu toifadan edi.

Bir kuni Jalil Asadbekka zaharli soʻz nishlarini sancha turib: «Agar olamning kuni senlarga topshirilsa, yer yuzida halollik ham, vafo ham, mehr-oqibat ham qolmaydi. Senlar kurtak ochgan niholni sindirib tashlashdan, boychechakmi yo polaponlarnimi ayamay toptashdan toymaysanlar. Hatto bir-birovingni ayamay yanchasanlar. Senlarning huzur-halovatlaring shu yanchishdan. Nima uchun Haydar kessaging bilan doʻstsan, aytaymi? Ikkovingning halquming bir, nafsing bir», degan, Asadbek bu haqiqatga qarshi joʻyali javob qaytara olmagan edi.

Agar Jalil Xongireyni tanisa, qilmishlaridan xabar topsa unga ham ayni shu gaplarni aytib, balki undan «Dunyo oʻzi yanchish uchun yaralgan, sening uzilib tushgan xazonday ham qadring yoʻq», degan javobni eshitarmidi...

Xongireyning turish-turmushi faqat yanchishdan, oʻlimga hukm etishdan iboratdir, deyish ham insofdan emas. Bir kuni Zelixon unga «Odam oʻldirish boʻyicha chempion boʻlmoqchimisiz, sal orqa-oldingga qarab fikr qil», deb tanbeh berganida u «Men dushmanlarimni oʻldiryapman, dushmanlarim koʻp boʻlsa men aybdormanmi?» deb oʻzini oqlagan edi.

Otasini yerga topshirib qaytgach, oʻlimga hukm etiluvchi odamning unga dushmanligi yoʻq, aksincha sadoqati mavjud edi. Aniqroq aytilsa, tasodif bilan qoʻlga tushib qolgan yigitini qamoqdan qochishiga oʻzi yordam bergan edi. Xongireyni kutib olgan Mamatbey qamoqdan qochgan yigitning Moskvaga yetib kelganini aytib, «xabarning chalasi bor, uni ham aytaveraymi?» deganday unga qarab qoldi.

— Yana nima darding bor, gapir, — dedi Xongirey.

— U bir oʻzi qochmabdi, sherigi bor, — dedi Mamatbey.

— Kim?

— Tanimaysiz, men ham tanimayman.

— Kim deyapman?! — Bu safar Xongirey zarda bilan soʻradi.

— Mentlardan ekan.

— Nima bilan oʻtiribdi?

— Zoʻrlash.

— Shu yoqqa boshlab kelibdimi?

— Yoʻq. Birga qochib chiqishganu Tyumenda ajralishgan.

Xongirey unga qovoq uyub qaradi-yu, boshqa gap ayt-madi. Idoraga kelishganda Mamatbey uzilib qolgan suhbatni davom ettirdi:

— Aytishicha, ment yaxshi yigitga oʻxshaydi. Xizmatga olsak ham boʻlarmish.

— Shunaqami? — Xongirey sigaret tutunini yuqoriga qarab pufladi-da, kulini yonida oʻtirgan Mamatbeyning tizzasiga qoqdi. Xoʻjayinining kayfiyati buzilganini sezgan Mamatbey kulni qoqishga shoshilmadi. Tagʻin ham Xongirey hozir unga nisbatan marhamat qildi. Agar sigaret choʻgʻini yuziga bosganida ham Mamatbey churq etmasdan oʻtirgan boʻlard.

— Demak, xizmatga oladigan boʻlib qolibsanlar-da, a? — dedi Xongirey, — Balki unga toj ham kiydirib qoʻygandirsan?

— Men unaqa demadim, — Mamatbey oʻzini oqlamoqchi boʻldi.

— Aqling zanglabdi, — dedi Xongirey, — u ahmoq senga tavsiya etibdi, sen ahmoq esa bir shilta mentni xizmatga olish mumkin, deb oʻtiribsanmi? Qachondan beri mentlarni xizmatga oladigan boʻlib qoldik?

— Axir...

— Nima, «axir»? Gapir!

— Mentlar xizmatimizni qilishadi-ku?

— Rostdanam aqling zanglabdi. Mentlar bizga xizmat qilishmaydi, men ularni xizmat

qildiraman. Far-qi bormi? Sen xizmatga loyiq ko'rayotgan ment qamalmasdan avval nega kelmadi? Qamalib, shiltasi chiqib ketgandan keyin aqli kiribdimi? Sen shunga ishon-yapsanmi? Ichimizga kirib olish uchun qilinayotgan nayrang bo'lsa-chi?

— Men ham shuni o'yladim.

— O'ylaganing yo'q, o'ylaganingda menga aytmas eding. MUR\*dagi Rushaylo xizmatimizni qiladigan bo'ldi, desang ishonardim o'ylab ish qilishingga, — Xongirey shunday deb mulozimining tizzasiga yana sigaret kulini to'kdi.

Mamatbey xo'jayinining hovuri pasayishini kutganday sabr qilib, so'ng so'radi:

— Bola nima qilsin?

— Ment bilan birga bo'lganning qismati bir: endi uning yashashga haqqi yo'q.

— Balki...

— Nima, «balki»? Qonunni o'zgartirmoqchimisani? Gapir!

— Qonun o'zgarmaydi. Joyiga qaytarib qo'ya qolaylik. Tinchisa o'sha yerda tinchiydi.

Lager teletaypiga qo'yamiz.

— Mujmallik qilma.

— Krasnoyardagi ish yaxshi bo'ldi. Lekin u yerdagilarga yana bitta va'damiz bor.

— Qanaqa va'da?

— Biz ularga ikkita kurer ro'para qilishimiz kerak edi.

— Buni bilaman. Lekin ketma-ket yuboriladi, de-yilmagan. Orada o'zimiz ham ish qilib olishimiz kerak.

— Ishni boshladik. Hozir Krasnoyarda bizga hech qanday qarshilik yo'q. Mentlar va'dada turishibdi.

— Ularga qattiq ishonvorma. Ehtiyot bo'l. Molni faqat Haydar orqali yubor. Ketsa o'sha ketsin, bu tomonlarga kavlab kelishmasin. Haydarning yurish-turishi qanaqa?

— Siz o'ylaganday. Selimga toqati yo'q, lekin sir boy bermayapti. Faqat... Asadbek bilan munosabatiga tushunish qiyin. Asadbekning osongina chetga chiqishi menga yoqmayapti.

— Bek aqlli odam, o'g'illarini o'ylaydi, bolalarining garovda ekanini yaxshi biladi. Lekin... payt poylaydi. Indamay ketaversa men uni aqlli demas edim. Lekin... aqlli odamning uzoq yashashi ham durust emas. Shuni Haydarga yaxshilab tushuntirib qo'y. Bu yog'ini o'zi eplasin, eplolmasa Selimga qo'yib bersin, unga shunday de, — Xongirey sigaret qoldig'ini unga uzatdi-da, o'rnidan turib kerishdi.

Mamatbey tizzasidagi kulni ehtiyotlik bilan kaftiga olib kuldonga tashladi.

— Haydar ta'ziyaga kelmoqchi edi, joyingda o'tiraver, dedim. Fotihaga kelib-ketishmasa tinchishmaydi, ularning odati shunaqa.

— Odatini uyida qilaversin. Aytib qo'y: bu tomonlarda umuman o'ralashmasin. Kerak bo'lsa o'zim chaqiraman. Sen esa bugun meni Markaziy bankdagi odam bilan uchrashtirasan. Ishni cho'zib yubordi. Uni «Lebedinaya pesnya»ga olib bor.

— U yer uncha to'g'ri kelmas deyman. «Pekin»\*ga ta-yinlab qo'ysak-chi?

— Yo'q. Begona ko'zlardan xoliroq bo'lsin.

Mamatbey boshqa e'tiroz bildirmadi. Telefonda kim bilandir gaplashdi-da, Xongireyga qarab yelka qisdi.

— Bugun iloji yo'q ekan, xotining tug'ilgan kuni emish.

— Shunaqami? — Xongireyning ko'zlarida cho'g' yaltilladi. — Qaerda nishonlar ekan, bilchi, balki bizni ham taklif qilar, a? Shunday tantanadan quruq qolmaylik.

Mamatbey xo'jayinining xayolida bir reja tug'ilganini fahmladi.

Xongirey keyingi paytlarda omadi yurishayotganidan quvonib, qadamni yanada kattaroq tashlashni mo'ljallayotgan edi. Xongirey «Shaxsiy bank ochmoqchiman, nomi «Girey xon» bo'ladi», deganida Mamatbey «Knyaz, bank ishonchsiz narsa», deb ajablangan edi.

Bankning ishonchsiz ekani Xongireyning o'ziga ham yaxshi ma'lum. Shu paytga qadar omonat kassaga sariq chaqa ham qo'ymagan. Changaliga tushgan odamlarning uyidan jamg'arma daftarchalarini olganda ularning laqmaligidan kulardi. Yarim yilcha muqaddam bir iqtisodchi bankdan olinishi mumkin bo'lgan foydaning miqdorini aytganda Xongirey bu ishga qiziqib qoldi. Mo'ljalicha, uzog'i bilan ikki oy ichida hal etilishi lozim bo'lgan ishning yarim yilga cho'zilishiga boshqa toqat qilolmadi. Ayniqsa har bir hujjatdagi imzo uchun haq to'lash uning izzat-nafsiga tegardi. «Kuch bilan bitadigan ish uchun haq to'lash ahmoqlikdir», deb so'kinardi. So'kinardi-yu, kuch hamisha ham natija beravermasligiga aqli yetib, o'zini tiyardi. Oqim asosiy to'g'onlardan biriga kelib to'xtaganda uning toqati toq bo'ldi. Mamatbey xo'jayinining kallasiga qanday shumlik kelganini bilmasdi, bilganida ham to'xtatishga qurbi yetmasdi. Chunki Xongirey xuddi Hosilboyvachcha kabi yonidagilardan maslahat so'rardi-yu, lekin o'z bilganidan qolmas edi. Baygildin — ustoz, Mamatbey — yaqin yordamchi hisoblanganlari bilan vazifalari buyruqni bajarish, amrga so'zsiz itoat etishdan iborat ekanini yaxshi bilardilar. Mamatbey xo'jayinining amri bilan tug'ilgan kun nishonlanadigan joyni aniqlagach, belgilangan vaqtdan yarim soat avval «Praga» restoraniga keldilar. Xongirey yigirma kishiga mo'ljallangan dasturxonga ko'z yugurtirib, yana o'n stul qo'yishni, dasturxon ustini yanada to'kinroq bezashni buyurdi.

— Ha, gapimga tushunmadingmi? — dedi Xongirey buyruqni bajarishga shoshilmayotgan restoran xo'jayiniga qarab.

— Tushundim, — dedi restoran xo'jayini, — lekin... egalari norozi bo'lisharmikin?

— Egalari deganing bankdagilarmi?

— Ular mehmonlar. Dasturxonni «Orxideya» buyurgan. — Restoran, xo'jayini «shuni ham bilmaysizmi?» deganday qarab oldi. Xongirey o'z navbatida xuddi shu savol nazari bilan Mamatbeyga qaradi. Mamatbey «xabarim yo'q edi», degan ma'noda yelkasini qisdi. Temir buyumlar sotish bilan shug'ullanadigan bu firma Xongireyga ma'lum edi. Bugay laqabli o'g'riboshi kasbini o'zgartirib, savdo firmasi tashkil etayotganida Xongireyning maslahatini, aniqroq aytilsa, roziligini olgan edi. To'da kichikroq, kuchsizroq bo'lgani sababli Xongirey ularga to'siq yasamadi. «Praga» restorani ko'p yillardan beri Bugay ixtiyorida ekani, unga cho'tal to'lab turishini ham yaxshi bilardi. Mamatbey tug'ilgan kun «Praga»da nishonlanishini aytganda «bu tasodifmi yo Bugay bilan aloqasi bormi bularning» deb o'ylagandi. Restoran xo'jayinining gapidan keyin buyrug'ini bekor qilib, o'zi uchun hozirlab qo'yilgan joyga borib o'tirdi.

— Bugayning bular bilan qanday oldi-berdisi bor?— dedi Xongirey Mamatbeyga o'tli nigohini qadab. Xo'jayinining g'azablanganini sezgan Mamatbey nimadir deyishga majbur edi. Shu sababli haqiqatni emas, taxminini ayta qoldi:

— Balki Bankdan qarz olmoqchidir?

Xongireyga bunaqa mujmal javob kerak emasdi. U o't oldirgan sigaretini ro'parasida o'tirgan Mamatbeyga qarab otdi-da:

— Shu ziyofat tugaguncha aniq bilib ol, ahmoq! — deb amr etdi.

Mamatbey sigaretni kuldonga astalik bilan qo'yib, o'rnidan turdi. Tashqarida qolgan yigitlarning biriga amrni yetkazib, joyiga qaytdi.

Shodiyonaga aytilganlar birin-sirin kelib, ziyofat boshlangach, Xongirey ularga qarab turib:

— Maoshga yashaydigan halol odamlar shularmi? — dedi piching bilan.

— Ha, bu bechoralarga qiyin, — dedi Mamatbey bu piching ohangini quvvatlab.

— Biz muttahamlarmiz, bular esa halol odamlar. Qara, xotini menbop ekanmi?

— Sal qarilik qiladi.

— Bugun uyiga mehmon bo'laman.

Mamatbey «tushundim» deganday bosh irg'ab qo'ydi-da, cholg'uvchilarga yaqin stol atrofida o'tirgan yigitlarga ishora qildi. Ulardan biri yaqinlashgach, qulog'iga shivirladi. Ziyofatda odam kam ekanligidan shubhalanayotgan Xongireyning xayoliga yana bir fikr kelib, hali ko'chaga chiqishga ulgurmagan yigit qo'shimcha topshiriq oldi.

Ular ziyofatning oxiriga qadar o'tirmadilar. Vazifani bajarib qaytgan yigit Mamatbeyga hisob bergach, qo'zg'olishdi. Mashinaga o'tirgan Mamatbey amrga mahtal haydovchiga qaramagan holda:

— Arbatga, — deb qo'yib, Xongireyga hisob berdi: — bu bechora kambag'alning xotini har oyda bir tug'ilib turar ekan. Yaqinda «Rossiya»da nishonlashibdi.

— O'tirishlaridan shunaqaga o'xshovdi. Bular kanaga o'xshagan narsa, odamlarni siqib, qonini ichib turishmasa yeganlari ichlariga tushmaydi.

— Bugay Avstriya bilan oldi-berdi qilmoqchi ekan, ish valyutaga qadalib qolibdi. Bu ziyofat o'sha to'g'onni buzarkan.

— Bugay o'g'irligini esdan chiqaribdi. Ishni madaniychasiga hal qilmoqchi bo'libdi-da. E, yo'q, — Xongirey esnab, kerishdi. — Bular bilan madaniy tilda gaplashib bo'lmaydi. Bularning taqdirini o'g'rilardan boshqa hech kim hal qilish huquqiga ega emas. Men o'g'riman, o'g'ri ekanimdan faxrlanaman. Bular ham aslida mendan battar o'g'ri, lekin «o'g'risan», desang jazavaga tushadi. Qarab tur, sening hujjatlaring uzog'i bilan indinga tayyor bo'ladi. Bugay esa ziyofatga kuyib qolaveradi.

— Knyaz... — Mamatbey «bular o'limga hukm qilindi», deb o'ylab, e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi.

— Ovozingni o'chir, — dedi Xongirey barmoqlarini qisirlatib. — Men ularni hatto chertmayman.

— Knyaz, uyida qaynonasi bilan ikkita bolasi ham bor.

Xongirey «bo'lsa nima?» deganday qarab qo'ydi-yu, javob bermadi.

Xo'jayinning amri bilan yo'l-yo'lakay bir savat gul olvolishdi.

Yoshi ellikdan oshib, pardozga zo'r bergan ayol gul ko'tarib kelgan odamlardan hadiksiramadi. Qimmatbaho sovg'alar qabul qilib olishga ko'nikkani uchun savatdagi noyob gullarga mensimaygina qarab olib, kiyimilgich tomonni ko'rsatdi-da, «shu yerga qo'ying» deb buyurdi. Mamatbey gulni qo'yib:

— Charlotta Moiseevnani tug'ilgan kunlari bilan tabriklaymiz, — deb qanday maqsadda gul keltirganini yana takrorladi. Ostonada turgan Xongirey esa ayoldan ko'z uzmay tikilib turdi. Undan «Ie, qizimning tug'ilgan kuni emas-ku», degan gapni kutdi. Ayol kiprik qoqmay tikilib turgan Xongireyga qarab-qarab qo'ydi-yu, Mamatbeyga:

— Boravering, gullaringizni berib qo'yaman, — dedi.

Shundan so'ng Xongirey ostona xatladi. Uning izidan ikki yigit ham kirib, eshik yopilgach, ayolning ko'zlari javdirab, tislandi.

— Sizga nima kerak? — dedi. Keyin ovozini ko'tarib, qichqirdi: — Sanya, militsiyaga qo'ng'iroq qil!

Mamatbey Xongireydan buyruq kutmayoq, tezlik bilan ichkari xonaga o'tdi.

— Margarita Iosifovna, sizni bolaligingizda yaxshi tarbiya qilishmagan ekan. Birov gul olib kelsa, avvalo «rahmat» deyish kerak, — Xongirey ayoldan ko'zlarini uzmagani ravishda bostirib kela boshladi. Ayol esa beixtiyorlik bilan tislanib, chekindi. — Undan tashqari, «Bu ajoyib gullar kimdan sovg'a?» deb so'rash kerak, shundaymi? Siz qo'rqmang.. Meni... tanimayapsiz shekilli, a?

— Tanimadim... — dedi katta xona o'rtasida to'xtagan ayol, so'ng bolalar o'tirgan xona tomonga xavotir bilan qarab qo'ydi-da, titroq ovozda «Bolalarga tegmang», deb yalindi.

— Bolalarga nega tegarkanmiz? Biz yaxshi bolalarni hatto chertib ham qo'ymaymiz. Sizga ham tegmaymiz, qo'rqmang. Biz bosqinchi emasmiz. Siz nega meni tanimadingiz,

hayronman?

— Qaerdadir ko'rganman,— dedi ayol ishonchsiz tarz-da.

— Ha, albatta ko'rgansiz, men sizning o'g'lingizman. Gruzin o'ynashingizdan tug'ilganman. Meni Suxumidagi tug'ruqxonaga tashlab ketgansiz, — Xongirey eshikning chap tomonidagi oromkursiga o'tirib, oyoqlarini chalishtirdi, so'ng cho'ntagidan sigaret olib, labiga qistirdi. Ayol esa bu gapdan ajablanib, «mening bunaqa o'ynashim bo'lmagan», deganday javdiraganicha turaverdi. Undan sado chiqmagach, Xongirey sigaretasini tutatib, g'oyat xotirjam ravishda gapini davom et-di: — Men o'gay singlim bilan kuyovimni ko'rgani keldim. Lekin, onajonginam, singlimni qachon tuqqaningizni unutib qo'yibsiz. Axir bugun uning tug'ilgan kuni emas-ku, to'g'rimi?

— Ha...

— Lekin «Praga»da nishonlashyapti. Biz hozir o'sha yerdan kelyapmiz. Biz — yaxshi odamlarmiz, yomonlikni istasak, uyingizga kelib o'tirmas edik. Shuning uchun siz titramang, onajonginam, choy berasizmi yo qahvami, mayli, himmatingiz. Faqat titramang, singlimning peshonasidan o'pib, kuyovim bilan tanishamanu ketaman. Ayol Xongireyning gaplariga bir tushunib, bir tushunmay hayronu lol qarab turdi. Dastlab, Xongirey bostirib kirayotganida u qo'rqdi. Ayniqsa Mamatbey ichkariga o'tganda nabiralaridan xavotirlanib, joni chiqib ketay dedi, tili gapga aylanmay ham qoldi. «Baqirib, yordamga chaqirsam-chi?» degan fikrini o'zi bo'g'ib qo'ya qoldi. Avvalo baqirig'i bu qalin devorlarni teshib o'ta olarmikin? Qolaversa, uning nolasini eshitib kim yordamga chiqadi? Bu atrofda jonidan to'ygan mard bormi?

Puldor oilalarni o'g'rilar bosayotganidan u xabardor edi. Ham moldan, ham jondan ayrilayotganlarni eshitganda «biznikiga ham shunaqalar kelib qolishar», deb cho'chimagandi. U pul evaziga odam o'ldirib beruvchi, «kiler» deb nom olgan kasb paydo bo'lganini ham eshitgan, biroq, o'sha kilerlardan biriga men ham duch kelarman, deb xayol ham qilmagandi. Chunki u xonadonini kambag'al bilan boynig o'rtasida — «o'rtahol» deb bilar, nazarida bosqinchilar faqat oshib-toshib yotganlarnigina bosishar edi. Dastlab Xongireyning o'shanday bosqinchilardan deb o'yladi, so'ng esa uning yumshoq ohangda gapirishidan «militsiyadandir», degan fikr uyg'ondi. Lekin uning birdaniga qandaydir o'ynashdan bo'lgan o'g'ilga aylanib qolishi ayolni taajjubga soldi. «Bu bo'hton nima uchun kerak ekan?» deb ajablendi. Xongirey bu gapni aniq bir maqsad bilan emas, shunchaki tiliga kelib qolgani uchun aytib yuborgan edi.

Ayol qahva tayyorlash uchun oshxonaga kirganida Xongirey o'tirgan yerida ovozi balandlatib:

— To'rtinchi qavatda bir xotin o'lib, ikki yilgacha hech kim bilmabdi, shu to'g'rimi? — deb so'radi.

— Ha, — dedi ayol, — kampir yolg'iz yashardi.

— Oshxonaga kirganida o'libdimi? — deb yana so'radi Xongirey.

— Ha...

Ayol shunday dedi-yu, qo'rquvdan badaniga muz yugurdi: «Nega buni eslab qoldi, yana oshxonada... Shu yerda o'ldirmoqchimi meni?..»

— O'lik sasib ketardi-ku, hididan ham bilmadilaringmi? — Xongireyning navbatdagi savoli uni bu xayollar changalidan yulib oldi.

— Deraza ochiq ekan...

— Ha, oshxonaning derazasini ochib qo'ygan yaxshi...

Bu gapdan keyin ayol beixtiyor derazaga qaradi. Hali bolalarga quymoq pishirganda derazani qiyalatib ochib qo'ygan edi. U endi eshik og'zida turgan yigitga xavotirlanib qaradi. Nazarida yigit cho'ntagidan to'pponcha yoki tig' chiqarganday tuyulib, qaltirayotgan oyoqlarini jon tark eta boshladi. Yigit uning ahvolini sezib:

— Derazani yopib qo'yaymi, sovqotyapsizmi? — deb so'radi.

Ayol «ha», demoqchi bo'ldi-yu, ammo ovozi chiqmadi, bosh irg'ab qo'ya qoldi. Yigit derazani yopgach, ayolga yaqinlashdi.

— Qahvangizni bering, o'zim qaynataman. Xo'jayin mening qahvamni yaxshi ko'radi. Bu gapdan keyin ayol o'lmasligini bilib, yengil tortdi. Biroq, sarosimadan qutula olmay ro'parada turgan qahvani ko'rmadi, tokchalarni timirskilab qidirdi.

Xongirey yigiti tutgan qahvani olib ichayotib:

— Onaginam, endi ichkariga kirib jiyanlarimga qarang. Ovoz chiqarmay o'tiringlar. Jiyanlarimga «oltin baliqcha» ertagini aytib bering. Teshik tog'ora bilan qolish juda qiziq, a?

Oradan yarim soat o'tgach, eshik ochilib, avval gul ko'targan Sharlotta, uning izidan esa eri kirib keldi. Juvon savatdagi gulni ko'rib, eriga savol nazari bilan qaradi:

— Mehmon bor shekilli? — dedi eri ichkariga imo qilib.

Katta xonaga o'tib, bemalol sigaret tutatib o'tirgan Xongireyni ko'rishdi-yu, bir-birlariga savol nazari bilan qarashdi.

— Kechirasiz, bu uyda chekish mumkinmas, yosh bolalar bor. Erim ham balkonga chiqib chekadi, — dedi juvon ensasi qotganini yashirmay.

— Avval salomlashish kerak, — dedi Xongirey pinagini buzmay. — Undan tashqari men sening ering emasman, shu yerda chekaveraman. Men sening o'gay akang-man. Mening otam sening onangning birinchi o'ynashi edi.

— Nimalar deb valdirayapsiz, esingiz joyida- mi? — dedi ayol dag'al ohangda.

— Mening esim joyida, singilginam, ammo sening esing kirdi-chiqdi bo'lib qolibdi. Sen qachon tug'ilganingni unutib qo'yibsan. Onaginam seni yigirma oltinchi iyunda tuqqan edilar, a? Mark Abramovich, xotiningizning pasportiga hech qaramaganmisiz?

— Siz kimsiz, sizga nima kerak? — dedi Mark keskin ohangda.

Savoliga javob o'rniga xonada ikki yigit paydo bo'lgach, qo'polligidan afsuslandi. Xotini esa salkam talvasaga tusha boshladi.

— Singilginam, ichkarida onang bilan bolalaring kutishyapti. Kichigingni bugun emizganmisan, yo emchakdan chiqqanmi? Sen o'sha xonaga o'ta qol. To'xta, sumkachangni eringga berib ket.

Juvon buyruqni bajarib, bolalari yotadigan xonaga o'tdi. U yerda yig'lamsiragan ovoz eshitildi-yu, tezgina tindi.

— Mark Abramovich, kuyovim bo'lganingiz uchun sizga yaxshilik qilmoqchiman: «Orxideya»ning sovg'asiga uchmang. Qani, nima sovg'a qilgan o'zi? Yigitlardan biri Markning qo'lidagi sumkachani olib, Xongireyga berdi. Xongirey uni ochib, ichidan tilla soat bilan yoqut ko'zli uzukni oldi-da, chiroqqa tutib qaradi. — Past ketishibdi.

Avstriyadan oqib keladigan pullar evaziga tuzukroq sovg'a qilishsa ham bo'lardi, — Xongirey shunday deb sovg'alarni cho'ntagiga solgach, sumkachani Markning oyoqlari tomonga tashladi.

— Siz kimsiz? — dedi Mark bu safar tobelik bilan.

— Kimligimni hali ham bilmadingmi? Qaynog'ang-man. «Orxideya»ning ishi bilan o'rtoqlar shug'ulla- nishyapti. Kamida o'n yilga uchib ketasan.

— Men ularga hech qanday yordam qilganim yo'q. Va'da ham bermaganman.

— Lekin ziyofatini yeding. Sovg'asini olding. Endi sen menga ayt: «Girey xon» bankining hujjatlarini nega bosib o'tiribsan?

— Bu faqat menga bog'liq emas. Yana xo'jayinlar ham bor.

— Haqqini oldingmi? Bu yog'i sening bosh og'rig'ing, kimlarga bog'liqligi bilan ishim yo'q.

— Vaqt kerak.

— Vaqtning boshini o'zing yeb bo'lding, kuyov. Endi bunday qilasan: ertadan qoldirmay

hujjatlarga hamma qo'llarni qo'ydirib, bizdan olgan pulingni uchga ko'paytirib, topshirasani. Karra jadvalni bilarsan-a, indinga qolsa, uchga emas, o'nga ko'paytirasan. Savatdagi gullarni ko'rdingmi, o'sha yerda mozorga qo'yiladigan gulchambarlar ham bor ekan. Meningcha, savatdagi gul yaxshi, a? Men senday kuyovim borligidan faxrlanaman. Bugundan e'tiboran endi sen bilan tez-tez uchrashib turamiz. Men seni himoyamga olaman. Sen esa sovg'alarni arra qilasan. Kelishdikmi? Dovdirama, sen Bugayga ishonma, u seni himoya qila olmaydi.

Xongirey o'rnidan turib, Markning ro'parasida kerishdi-da «Misha!» deb chaqirdi. Bolalar xonasidan Mamatbey chiqib kelgach:

— Qara, qanday kuyovim bor mening? — deb zaharli tirjaydi. Ostonaga yetganda to'xtab, Mark tomonga o'girildi: — Qara-ya, kuyov, to'rtinchi qavatdagi kampirning o'ligi ikki yilgacha oshxonasida yotibdi-ya — deb qo'ydi. Mashinaga chiqib o'tirishgach, Mamatbeyga: — O'sha kampirning o'lganini menga yaxshi aytding. Bular endi ertalabgacha ishtonlarini ho'l qilib chiqishadi,— deb kuldi.

Chindan ham bu gap Markning xonadoni tinchligini oldi. Ertalab eshiklari yoniga tizib qo'yilgan qora matoli beshta motam gulchambarini ko'rishgach esa, taqdirga tan berishdi. Mark oqshomga qolmay Mamatbeyga qo'ng'iroq qilib, vazifa bajarilganini bildirdi.

---

\* Moskovskiy ugolovniy rozisk — jinoyatga doir qidiruv bo'limi.

\* Moskvadagi restoran nomi.

## 2

— Bu yog'i musulmonchilikdan bo'lmadi, — dedi Kesakpolvon norozi ohangda. — Har holda begona emasmiz. Odamlar begonalarnikiga ham fotihaga boradilar. Bitta samoletda borib, keyingisida qaytib kelardim. Mamatbeyga qoyil qolmadim. Selim nard toshlarini yumuq kaftida aylantir-gan bo'lib, taxtaga tashladi. Ikkita oltilikni ko'rib, Kesakpolvonga «qoyilmisan», deganday tirjaydi. Donalarni joylashga shoshilmay: — Mamatbey to'g'ri qilibdi. Sen bu yerdagi ishingni qoyillatsang ham katta gap, — dedi. Keyin birinchi donani bo'sh katakka joylab turib, qo'shib qo'y-di: — Maskovda senga pishirib qo'yibdimi?

Bu gapdan Kesakpolvonning g'azabi qaynab, hozirgina qo'lga olgan nard toshchalarini Selimga qaratib otdi.

— Sen bola, haddingdan oshma! Xudoning o'zidan vakolating bo'lsa ham bir kunmas bir kun mendan tepki yeb qolasan. O'ladigan dunyoda seni bi-ir tepib o'larman, — Kesakpolvon bu safar alamini nard taxtadan oldi — qavatlarini shart yopib, chetga uloqtirdi.

Selim Kesakpolvonning vajohatidan astoydil qo'rqdi, chegaradan chiqqanini anglab, go'yo o'zini himoya qilishga shaylanganday o'rnidan turdi.

— Jahling chiqmasin, bu mening gaplarim emas. Men ham bormoqchiydim, Mamatbey menga shunday javob qildi.

— Senga javob qilgan bo'lsa, bu sassiq gapni o'zing hazm qilib yuravermaysanmi? Menga dasturxon qilasanmi, so'tak! Sening borishing boshqa, mening borishim boshqa. Sen fotiha bahonasida bolalaringni ko'rib kelmoqchi bo'lgansan. Ular ahmoqmi, buni tushunishmaydimi?

— Bolalarimni sog'insam, ulardan so'ramayoq borib-kelaveraman.

- Endi bu yog'i cho'pchak bo'lib ketdi, oshna.
- Mamatbeyning nimadan achchiqlanganini sezmasan.
- Sen sezdingmi, qani ayt-chi?
- Yuborgan odaming ishning ishkalini chiqargan. Mol qo'ldan ketgan.
- Bu yangilik Kesakpolvonni taajjubga solmadi. «Krasnoyarga odam yuborish kerak», deyishgandayoq, ishdan kuygan latta isi kelayotganini sezgan edi. Lekin o'yindagi kaltakning bir uchi baribir o'zining boshiga tegajagini esa hisoblamagandi.
- Krasnoyarda odamingni mentlar kutib turishgan ekan, — Selim aytgan yangiligiga shunday izoh kiritdi.
- Qaerda, samolyotdan tushadigan joydami?
- Kozlovning uyida bo'lsa kerak.
- Unda men bu ishda farishtadek oppoqman. Agar odamimni aeroportda kutib olishsa-yu, u diplomatni «Mana, Selim afandim berib yubordi», deb topshirsa men aybdor bo'lardim.
- Bu ishkalning tagiga yetishadi hali. Nima bo'lganda ham ikkalamiz o'yindamiz. Xarajatlarning bir ulushi bizning bo'ynimizga ilinadi. Shu bilan qutulsak katta gap.
- «Qutulsak» dema, «qutulsam» deyaver.
- Sen Xongireyni yaxshi bilmaysan. Mamatbeyning yangi buyrug'ini ham bilmaysan. Aslida seni shuning uchun chaqiruvdim.
- Qanaqa buyruq? — Kesakpolvon unga sergaklanib qaradi.
- Xongirey bank ochmoqchi ekan.
- Bank? — Kesakpolvon ajablandi. — Bankni nima qiladi?
- Buni o'zidan so'raysan. Lekin so'rashdan avval bitta limonni tayyorlab qo'y.
- Nimaga?
- Bankka qo'yasan yoki aksiyalarini sotib olasan.
- Mamatbeyning gapimi bu yo sendan chiqqan aqlmi?
- Bu Xongireyning buyrug'i. Hamma yigitlaringga soliq solingan. Eng kami uch yuz ming. Hisob-kitobini qilib menga berasan, men yig'ib, egasiga uzataman.
- Menga «limon»mi? Senga-chi? Yo bunaqa soliqdan ozodmisan? — Kesakpolvonning o'tkir nigohiga Selim dosh berolmay, yerda sochilib yotgan nard donalariga qaradi. Aslida Mamatbey har ikkovining bo'yniga besh yuz mingdan ilgan edi. Mamatbey vositachi ekanidan foydalanib, o'zining hissasini ham Kesakpolvonnikiga qo'shib qo'ya qolgan edi.
- Sen dallollik qilma, men bollardan yig'ib, Mamatbeyga o'zim yetqizaman. Bir million pul berajagini eshitib, sal gangigan Kesakpolvon darhol o'zini o'nqlab ololdi. Shu yoshga yetgunicha yonidan bir so'mni chiqarib o'ylab sarf etgan Kesakpolvon bir million cho'z, desa, indamay berib qo'yadigan ahmoq emasdi. Agar bu rostdan ham Xongireyning talabi bo'lsa, so'raganini beradi. Faqat yonidan chiqarmaydi, yigitlar uch yuz emas, to'rt yuz mingdan to'lashadi, vassalom! Masalani shu tarzda yechgan Kesakpolvon Selimdan ko'zini uzmay, tirjaydi:
- Sen men bilan nard o'ynasang o'ynayvergin-u, ammo o'ynashma! Kesakpolvon Selim qo'ngan mehmonxonadan chiqib, Sharif Namozovning uyi sari yo'l oldi. Garchi Asadbekning so'nggi buyrug'ini bajarishga mayli yo'q esa-da, o'zini majburlab bordi.
- Ustalar yangi uyga so'nggi pardozi berish bilan, mardikorlar esa eskisini buzish bilan band edi. Kesakpolvon ishlarni tashqaridan bir oz kuzatdi-da, loy kechib darvozaxonaga, undan hovliga o'tdi. Chap tomondagi xona eshigi ochilib, peshonasini oq ro'mol bilan bog'lagan, kiyimi tomgan bo'yoqlardan ola-chalpoq bo'lib ketgan, kalta soqol-mo'ylabli usta chiqib kelib, salom berdi.



O'zbeklarda salom-alikdan keyin «hormanglar», deb qo'yish fazilati borligini unutgan Kesakpolvon u bilan qo'l uchida, mensimagan tarzda ko'rishib:

— Ha, ishlar ketyaptimi? — deb so'radi.

— Ollohimga shukr, kam qilmayapti, — notanish mehmonning qo'rsigidan ko'ngli og'risa-da, usta sir boy bermay jilmayib qo'ydi. «Siz kimsiz, sizga nima kerak?» deb ham so'ramadi. Uning o'rniga Kesakpolvon so'radi:

— Bo'yoqchimisiz?

— Ha, uncha-muncha bo'yab turamiz, asli kasbimiz naqqosh, ganchkor, Xudoga shukr, — dedi usta hilm bilan

— Qanchaga kelishdilaring bu ishlarni?

Bu savol ustani hayron qoldirdi. Odamlar uning ishini ko'rib tahsin aytishardi-yu, ammo «qancha pul oldingiz?» deb so'rashmas edi. Bu kishi esa ishni ko'rmay turib puldan gap ochyapti, maqsadi nima ekan?

— Xudoning rizqi-da, — dedi usta hilmlikdan chekinmay. — Taqsir, imorat quryaptilarmi, bizga lozim yumushlari bormi?

— Hech qanaqa yumush yo'q, — dedi Kesakpolvon sovuq ohangini o'zgartirmay, — xo'jayinlaring qaerda?

— Xabarim yo'q, taqsir, xizmatda bo'lsalar ehtimol.

— Hozir xizmatga borasizmi, uyigami, menga baribir, qaerda bo'lsa ham toping. «Haydar akam kelib ketdilar, tez choyxonaga borar ekansiz», deb ayting.

Tushundingizmi?

— Tushundim, «qaysi choyxonaga ekan?» deb so'rasalar-chi?

— O'zi biladi, — Kesakpolvon shunday deb iziga qayta boshladi. Darvozaxonaga yetganida «ovsarroq odam bo'lsa bilmasligi ham mumkin» degan o'yda to'xtab, kuzatib kelayotgan ustaga qaradi: «Asadbek akang odamlar bilan gaplashadigan choyxonaga», desangiz o'zi tushunadi.

Sharif Namozovning uyini sotib olib, ko'chib kelishga tayyorlanayotgan odam hayallamadi. Asadbek akasining choyxonasiga yo'qlanayotganini eshitishi bilan yuragi taka-puka bo'lib tezgina yetib keldi. U shaharning kunbotar tomonida shunday choyxona borligini, bunda aqlga sig'mas ishlar bo'lib turishini eshitgan, «bunaqa joyga duch kelishni dushmanimga ham ravo ko'rmayman», deb yurardi. Chaqirilgan joyga yetib kelgunicha «Xudoga nima yomonlik qiluvdimki, meni bularga ro'para qilyapti», deb o'ylab bordi. O'yladi-yu, savolga javob topa olmadi. Agar oshxonasidagi taomga tushishi lozim go'shtning teng yarmi «urib» qolinishi, somsalarga kalla go'shti tiqilishi, ba'zan esa tashlab yuborilishi shart bo'lgan, qurtlagan jigarmi, boshqasimi, qiymalanib, ishlatib yuborilishini eslaganidami, savoliga javob topardi. Ukrainadan keltirilib, radiatsiya nurlanishi kuchli bo'lgani sababli kuydirib tashlashga tayyorlangan go'shtni arzon-garov sotib olib ishlatib yuborganini eslamasa ham boshqa qiliqlari tarozuning jazo pallasiga o'tirishi uchun kifoya qilardi.

Kesakpolvon ikki yonog'i qip-qizil bu odamga tikilib qaradi-yu, tanimadi. Shuning uchun gapni oddiy savol-javobdan boshladi:

— Oting nima, qaerda ishlaysan?

— Otim Ma'murxo'ja, kichkinagina oshxonam bor.

— Shunaqa degin? O'sha kichkinagina oshxonang qaerda?

Ma'murxo'ja tilga olgan joy Hosilboyvachcha ixtiyorida edi. Shu sababli Kesakpolvon unga savol nazari bilan boqdi:

— Cho'talni kimga berarding? Hosilgami?

— Shunday, Hosilboyvachchaga, ammo o'zlari emas, odamlari kelib turardi.

— Kim, g'ilaymi?

- Ha, bilarkansiz, Shomiljon.
- Namuncha lattachaynarsan! — Kesakpolvon achchiqlanib, qo'lidagi piyolani stol ustiga tashladi: — falonchi boyvachcha, pistonchijon... boyvachchang bilan joning chiqqan joyiga kirib ketgan, eshitmovdingmi?
- Uzunquloq gaplarni sal-pal eshitganday bo'luvdim.
- Eshitganday bo'luvdingmi, a? Zo'rsan-ku? Cho'tal-chi, kimga beryapsan?
- Hech kimga. Atalganga xiyonat qilmay to'plab qo'rganman.
- Tuzuksan. To'plaganlaringni kechga qolmay anavi akangga olib kelib berasan, — Kesakpolvon shunday deb eshik tomonda turgan Qozini ko'rsatdi. — Bu g'ilayga o'xshagan gadoy emas, cho'tal ber, deb oldingga bormaydi. Vaqtida o'zing kelib turasan.
- Xo'p bo'ladi, shunday qilganim aslida durust.
- Yangi uyni kimdan sotib olganingni bilasanmi?
- Bir beva ekan, eri qamoqda o'libdi...
- O'sha qamoqda o'lgan bizning odamimiz edi. Sen ko'chib kirmoqchi bo'lgan uyni Bek akang qurdirayotuvdi. Sen uni zo'rlab olibsan!
- Astag'firulloh! Xudo saqlasin, unday emas.
- Bir ish qilsang, seni Xudo saqlaydi. Bo'lmasam cho'tal bergan akalaring bilan achomlashib yotasan.
- Nima qilay, ayting.
- Uyning xat-hujjatlarini to'g'irladingmi?
- Hali to'la bo'lgani yo'q.
- Gap shu: uy egasida qoladi. Ularni shu hafta ichi o'zing ko'chirib qo'ytasan. Ha, yaxshi niyat bilan eski uyni buzib, yangisini qurishni boshlabsan, a? Endi, xo'ja, savob qilsang butun qil, shu ishni o'zing oxiriga yetkazib qo'y, Bek akangni bi-ir quvontirgin... Ha, agar anavi beva xotin g'idi-bidi qilsa, Sharif akaxonimdan qarzim bor edi, deysanmi, xullas, bir nima deb tinchitasan. Xo'sh, nega jim qolding, ish pishdimi?
- Ma'murxo'ja ichidan qirindi o'tayotgan bo'lsa-da, jilmayishga harakat qilib:
- Pishdi, akaxon, pishdi, — dedi.
- Qani, men bilan ellikta-ellikta olasanmi?
- Siz bilan olish biz uchun baxt akaxon, lekin jigarning sal mazasi qochgan, parhezdamiz.
- Jigardan qo'rqma, ishdan chiqsa yangisini qo'ydirib beraman. Parhezman, deb yurib yana hez bo'lib qolmagin.
- Kesakpolvon bo'sh piyolaga aroq quydi-yu, lekin uzatmay «ol!» degan ma'noda imo qildi. Ma'murxo'ja bu marhamatdan iyib ketganday qulluq qildi-da, bir ko'tarishda piyolani bo'shatdi. Gazak taklif qilinmagani uchun labini chapillatib qo'ya qoldi.
- Ha, o'g'il bola! — dedi Kesakpolvon uni erkalaganday.
- Ma'murxo'ja hozir hovli-joyini shu bir piyola aroqqa almashganday edi. Agar shayton yo'ldan urib shu fikrini Kesakpolvonga aytsami, u shubhasiz «Yo'q, akasi jonidan, sen uyni o'zingning, bola-chaqangning joni evaziga beryapsan», degan bo'lardi.
- Kesakpolvon o'ljasining vujudini qanday g'am-alam kuydirayotganini bilib turardi. Uning tilidan kamdan-kam hollarda «Xudoga shukr» degan kalima uchardi. Agar ko'nglida Yaratganga shukronalik tug'ilsa, birinchi galda bergan boyligi uchun emas, balki bu dunyoda qo'rqoqlarni yaratgani uchun aytish kerak edi. Qo'rqib-qo'rqib to'plangan boyluk qushi qo'rquv tufayli qo'ldan uchardi.
- Endi sen boraver, — deb marhamat qildi Kesakpolvon. — Moldan ayrildim, deb iching ketmasin. Bola-chaqangning bosh-ko'zidan sadaqa. Sadaqa qilib turish kerak-ku, to'g'rimi?
- Achingan nomard, akaxon, menga buyurmagan ekan, egasiga buyursin.

— Vey, g'irt o'g'il bola ekansan, menga yoqding! — dedi Kesakpolvon suygan otaning mehrlil ovozi bilan. Keyin piyolaga yana aroq quydi: — Juft qilib keta qol. Sen xo'ja, boshqa bir imorat sol, uy to'yingga o'zim toy yasatib boraman. Otarchilarning xo'rrozi ham mening bo'ynimga. Qani, qo'lni tashla!

Qo'l tashlandi. Aroq ichildi. Uy qo'ldan ketdi. Jon foydaga qoldi.

Ma'murxo'ja ko'chaga chiqqach, chuqur-chuqur nafas oldi. Avvaliga xo'rliigi keldi. Keyin boshi-ko'zidan qilingan sadaqa evaziga jonlari omon qolganidan shukr qildi.

Kesakpolvon Asadbekning so'nggi buyrug'ini shu tarzda, o'zining nomini o'rta qo'yib, xamirdan qil sug'urganday oson hal etdi. «Bu ishdan rahmat kelsa ham, la'nat kelsa ham Asadning o'ziga uraveradi», deb o'yladi u Ma'murxo'ja chiqib ketgach.

Ishni oson hal qilgani bilan Selimning huzurida boshlagan ko'ngilg'ashligi tarqamadi.

Bolaligi yetimlikda o'tgan bu odam shu kunga kelib, yonidagi eng yaqinlaridan ajrab yana yetim holiga tushganini anglay boshladi. Chuvrindining o'limi, Asadbekning undan uzoqlashuvi uni yolg'izlik sahosiga hukm etdi. «Asadbekni men odam qilganman», deb yuruvchi odam Asadbeksiz yashashi qiyinligini bila borgani sayin bu haqiqatni tan olmaslikka tirishardi.

Qozi ko'tarib kirgan bir lagan moshkichirining hidi ishtahasini qitiqlab uyg'otdi. Uch-to'rt qoshiq yegach:

— Dum solmadingmi? — deb so'radi.

Bu tanbehni eshitgan Qozi og'zidagi luqmani chaynashni ham, yutishni ham bilmay, baqrayib qoldi. «Xo'jayin, o'tgan safar «kallang bormi, moshkichiriga ham dum soladimi?» deb urushuvdingiz-ku?» deya olmadi. Chala chaynalgan luqmani yutib:

— Bozorda tuzukrog'i uchramadi, — deb qo'ya qoldi.

— Og'zingga pashsha qo'ndirib yotsang, senga yaxshisini oldirib qo'yishadi, — Kesakpolvonning bu tanbehi javobsiz qoldi.

Shoir «Har nimaga g'am yema — g'am ko'p durur, aysh birla o'zni ovutmoq kerak», degan ekan. Garchi Kesakpolvon shoirning bu hikmatidan bexabar bo'lsa-da, o'zni ovutmoq chorasini izladi. O'ylay-o'ylay bu farog'atni Oysanamning qo'ynida ko'rish mumkin, degan qarorga keldi. Oysanamdan yosh, undan chiroyli va ishvalilarga emas, aynan unga ko'ngli chopaverishidan o'zi ham ajablandi.

## XVIII b o b

### 1

«Faraon, sen va'dangda turmading» — dedi «Qassob» xuddi ajdaho kabi og'zidan o't purkab.

Bu o't mayor Solievning yuziga urilib, haroratidan nafasi qaytdi.

«O'limingga men aybdor emasman,— dedi Soliev,— O'zing hukm chiqarib, o'zing ijro etding. Taslim bo'lganingda boshingga bu ko'rgulik tushmas edi».

«Tirik qolarmidim?» — deb so'radi «Qassob» yana o't purkab.

«Hech bo'lmasa yana bir-ikki oy yasharding».

«O'limni kutib yashashning qanchalik og'ir ekanini sen bilmaysan. Men o'zimning qismatimni yengillatdim. Seni esa o'limni kutib yotishga hukm qildim. Istasang, bu ko'rgulikdan ozod qilaman».

«Qassob» shunday deb o't purkashdan to'xtamay, unga yaqinlashdi. Bu harorat Solievning butun vujudini kuydirib, bo'g'ila boshladi. Ko'krigida sanchiq turib,

seskanganicha ko'zlarini ochdi. Yaqindagina hamshira bilak tomiriga igna sanchib, tomgich dorini qo'ygan edi. Kasalxonada hushiga kelganidan beri ko'rgani — shu tomgich dori. Chalqanchasiga yotganicha dori tomchilariga tikiladi. Ba'zan shu tomchilar uning bekatda uchib chiqib ketgan jonini asta-asta qaytarayotganday tuyuladi. Kayfiyati tushkunlik to'riga o'ralganida esa bu tomchilar xuddi yorug' dunyoda qolgan kunlarini bir-bir sanayotganday bo'ladi. Hozir ham shunday boshlandi. Xayolini chalg'itish uchun tomchilarni sanab yotib, ko'zlariga uyqu ilinibdi. Ko'zlari uyquda bo'lsa ham daxlizdagi ovozlarni eshitib turardi. Ana shu holda tush ko'ribdi. Tushida «Qassob»ning «onamni o'ldirishga va'da bergan eding, nega va'dangni bajarmaysan?» deb da'vo qilaverishi g'alati edi. Nazarida bekatdagi voqeadan so'ng shu yoshga yetguniga qadar ko'rgan-kechirganlarining hammasini unutgan, xotirasida faqat «Qas-sob»gina qolganday edi. Soliev dastlab bu xotiradan qutulishga urinib ham ko'rди. Lekin bu odamxo'r odamning turqini ko'z oldidan xayday olmagach, «buning shifosi — vaqt, bora-bora xayolimdan chiqadi», deb o'zini ovutdi. U faqat bir narsaga tushuna olmas edi. «Qassob» undan onasini o'ldirishni emas, o'zini odamga o'xshab ko'mdirib, go'riga but qo'ydirishni iltimos qilgan edi...

Qush uyqusidan uyg'ongan Soliev ko'krigidagi sanchiqni, vujudining lovullay boshlaganini o'tkinchi, deb o'ylab sabr qildi. Keyin hamshiraning «Bu yangi dori, amaki, ozgina chaqadi, agar yoqmasa, darrov ayting», degan gapini eslab, chaqiruv tugmasini bosdi. Hamshira kirdi-yu, Solievning betlaridan qon qochganini ko'riboq, «Nima bo'ldi?» deb so'rab o'tirmay, ignani shoshilganicha tomirdan sug'urib oldi. Keyin choynakda sovub qolgan choydan uch-to'rt ho'plam quyib, bemorning boshini sal ko'targach, piyolani bemorning labiga tutdi. So'ngra «tilingizning tagiga tashlang», deb validol berdi. Hamshira har safar shunday ta'kidlayvergani uchun avvalgi kuni Soliev hazillashib «validolni tilning ustiga tashlasa nima qiladi?» deb so'raganida, u hazilni anglamay, buning sira-sira mumkin emasligini erinmasdan tushuntirgan, shundan ke-yin Soliev «hazilni ham eplay olmay qolibman», deb o'kingan edi. Hozir o'sha hazilni eslab, hamshirani xijolatdan qutqarish uchun kulimsirab qo'ydi. Bu kulimsirash hamshiraga chindan ham dalda bo'lib, dori idishlarini ko'tarib chiqib ketdi.

«Tomirlarim qonga emas, shu dorilarga to'ldi,— deb o'yladi Soliev.— Endi doriga joy ham qolmabdi...»

Ikki kun oldin Hamdam Tolipov kelganida Solievga o'rindan turib xonada yurishga ijozat berilgandi. «To'shakning changalidan qutuldimmi, endi Azroilga bo'yin egish yo'q», deb o'zining ko'nglini ko'targan Soliev Hamdam bilan anchagina gaplashib o'tirgan edi.

Odamlar bilan suhbatlashishga usta Hamdam bekatdagi voqeadan gap ochmaslikka, kasallik haqida, tuzalib chiqqanda kutilayotgan nogironlik nafaqasi haqida so'zlashmaslikka intildi. Soliev bular haqda gap boshlashi bilan chalg'itib yuboraverdi. Shunga qaramay, Soliev muddaosini aytdi:

— «Qassob»ning murdasi nima qilingan, bilib qo'ygin, kuydirilganmi yo ko'milganmi?

— Buning nima ahamiyati bor?

— Ko'milgan bo'lsa qabriga but qo'yish kerak edi.

— Foydasi bor ekanmi?

— Shundan umid qiluvdi... — Soliev «va'da beruvdim», deyishga istihola qilib shunday deya qoldi.

— Foydasi yo'q, — dedi Hamdam, — but Xudoga ishonganlarga qo'yiladi. Bunaqa odamlarda din degan narsa bo'lmaydi.

— Qahring qattiq-da sening... — dedi Soliev tanbeh ohangida.

Hamdam Tolipov gapni ortiqcha cho'zmaslik maqsadida «Na iloj, turgan-bitganim shu mening», deganday yelka qisib jilmaydi.

Soliev istagini unga aytganidan afsuslanib, «Zohid bo'lganida meni tushunardi», deb o'ziga o'zi tanbeh berdi.

Oradan ikki kun o'tib, Zohid yo'qlab kelganida shu istagini unga aytdi. Zohid Hamdamga o'xshab darrov qayirib tashlamadi. Bir oz o'ylangandek bo'ldi-da:

— Siz buni o'ylamang, tezroq tuzalib chiqishning harakatini qiling, — dedi.

— Istagimning salomatligimga hech bir daxli yo'q. Ochig'ini aytaver, iltimosimni bajaring kelmeyaptimi?

Zohid ustozining ranjiganini sezib, vaziyatni yumshatish niyatida kulimsiradi.

— Siz aytasizu men yo'q deymanmi... Lekin...

— Ha, senda ham, Hamdamda ham ana shu «lekin»lar ko'p. Onalaring senlarni ana shu «lekin»lar ustiga tuqqan.

— Bo'пти, «lekin-pekini»siz bajaraman, — dedi Zohid yana kulimsirab.

— Yo'q, endi «lekin»ing ichingda qolmasin, ayt, men bilay.

— Mening ustozim, — Zohid «ustozim» so'ziga alohida urg'u berdi, — dono odamlar.

Ustozim «Kasbimiz nozik, jinoyatchining oh-vohiga quloq solib, rahming kelsa, unga shafqat ko'zi bilan qarasang, undan jabr ko'rganga xiyonat qilgan bo'lasan», deb qulog'imga quyganlar.

O'zining gaplarini shogirdining tilidan eshitgan Soliev kulimsiragan bo'ldi.

— Senlarning quloqlaring ham o'z foydalariga ishlaydi. Mening u gapim jinoyatchiga nisbatan aytilgan. Men «odamgarchilikni birato'lasini yig'ishtirib qo'y», demaganman.

Menga qara, senam bu kasalimga bekatdagi o'sha voqea sabab deb o'ylaysanmi?

— Bilmadim... har holda...

— «Har holda»ngni qo'y. Hamma shunaqa o'ylayapti. «Bombadan qo'rqib infarkt bo'lgan», deyapti.

— Bunaqa o'y umuman xayolimga kelmadi, boshqalardan ham eshitmadim. O'zingiz ham eshitmagansiz, iltimos, shunaqa gumon qilmang.

— Eshitmagan bo'lsam ham odamlarning ko'nglidan qanday gaplar o'tishini his etaman.

Ko'l tomchilardan to'planadimi? To'planib-to'planib keyin to'g'onni surib tashlaydimi? Mening kasalim ham shunaqa. To'g'ri, qo'rqdim, tan olaman, lekin...

— Keling, boshqa gaplardan gaplashaylik.

— Boshqa gaplarni boshqa odamlar bilan gaplashaman. Hamma ham meni tushunvermaydi. Sen yuragi siqilib qoladi, deb qo'rqyapsanmi? Yo infarktdan keyin miyasi aynib qolgan, deb o'ylayapsanmi?

Zohid o'zini oqlash maqsadida e'tiroz bildirgisi kelsa ham sukut saqlashni ma'qul ko'rdi.

— Meni ishimizdagi adolatsizlik yedi. Hali u katta tog'aning, hali bunisining qo'ng'irog'i bilan qancha «ish»ni yopganimni sen bilmaysan. Har yopganimda jabr-lanuvchiga xiyonat qildim. Har yopganimda yuragimning bir tomiri uzilaverdi. Buyruq bergan odamni hech kim bilmaydi. «Pora olib, «ish»ni imi-jimida qildi», deb meni qarg'aydi. Men shu qarg'ishlarga qoldim.

— Qarg'ishlar o'sha buyruq berganlarga tegadi, — dedi Zohid.

— Yo'q, — dedi Soliev, qat'iy tarzda. — Ijro- chi — menman. Iymonim ojiz ekanki, bo'ysunibman. Odamlar adolatni sevishlari uchun ularga adolatsizlikning oqibatlarini ko'rsatib turish kerak, deb o'zimni aldab yurdim. Kim aytgani esimda yo'q, bir donishmand «Adolat kuchli, kuch esa adolatli bo'lishi kerak», degan ekan. Mening ishlarim boshqacharoq bo'ldi: kuchsiz adolat va adolatsiz kuch — ikki dahshat murosa qildi. Sening ham boshingdan o'tyapti bu. Lekin bu dahshatlarning ham o'ladigan kuni bordir, a? Biz eng katta rahbarning turli toifalarini ko'rdik. «Xo'ja-yin bizni gipnoz qilib qo'ydi», deganini ham, «janjal qulupnaydan chiqdi» deganini ham ko'rdik. Hozirgi yangimiz boshqacha emish. Kecha yuqoriga taalluqli oshnam kelib umidli gaplarni aytdi.

Qaysi bir majlisda kattamiz vazirimizni tik turg'azib qo'yib: «odamlarning osoyishtaligini ta'minlay olasizmi, jinoyatchiga «jinoyatchisan!» deb dadil ayta olasizmi?» deganmish. Ishimiz shu tomonga burilaversa sen bilan biz adolat nimaligini ko'rarkanmiz. Bunday gaplarni Zohid ham eshitayotgandi. Ustozining gapidan uning ko'ngliga ham umid quyoshi mo'raladi.

Soliev sal hovuridan tushgach, Zohidning ishlarini so'rab-surishtirdi. Zohidning bayonini, taxminlarini eshitib, so'z qo'shmadi, savol bermadi. Oysanamning uyini kuzatayotgan xizmatchi bugun ertalab bir xabar yetkazgan edi. Zohid shuni aytganida Soliev picha o'ylab qoldi-da, so'ng so'radi:

— Kesakpolvonligi aniqmi?

— Agar Haydar Asrorov Kesakpolvon bo'lsa, o'shaligi aniq.

— Nimaga borishi mumkin?

— Erkaeva juda go'zal juvon.

— Go'zal bo'lishi mumkin. Lekin o'n olti yoshlilar bilan maishat qiladigan odam chiroyga emas, yoshga qaraydi,— Soliev yana ozgina o'ylab, qo'shib qo'ydi: — Yana kim biladi, ko'ngilning qoidasi yo'q. Unda... zanjir yana Asadbek atrofida bog'lanyaptimi?

— Shunaqaga o'xshaydi.

— Unda yana «ishni yop!» deb buyruq berilasmikin? Sen anavi kavkazliklar bilan keyin qiziqmading, a? Nima edi, Petrashvilimi? U Leningraddagi qamoqda o'tirib buyurtma bo'yicha odamlarni o'ldirib beravergan. Kamida yettita qotillik o'shaning bo'ynida ketdi. O'ylab topishganini qara, besh-olti soatga chiqarishadi, buyurtmani bajarib qaytgach, yana qamoqning sho'rvasini ichib o'tiraveradi. Meni hayron qoldirgan narsa — uning bu tomonlarga tashlanishi. Nega tashlashdi? Nega o'ldirtirib yuborishdi? Ularning arzimagan ishga ko'nishi ham taajjubli.

Zohid «salomlashamanu chiqaman», degan va'da bilan kirgan edi. Hamshira eshikni ochib, «salomlashish» yarim soatdan oshganini aytgach, gapni uzishga to'g'ri keldi. Petrashvilining taqdiri hozirgi ishlarga aloqasiz bo'lgani uchun Zohid u qadar e'tibor bermadi. Holbuki, Soliev bu voqeani bekorga eslamagan edi. «Surishtirib ko'r, balki bu atrofdagi qamoqxonalarda ham shunaqa odam o'ldirib beradiganlar bordir», demoqchi edi. Gapning tagidagi gap ma'nosini Zohid tushunmadi.

## 2

Daryo yoqasida turib, suv ostidagi qumning miqdorini aniqlash mumkinmi? Shunga o'xshash, Zohid shaytanat olamini ko'rib tursa-da, uning jinoyatlarini bo'yniga qo'yib isbot etmoqqa ojiz edi. Zohid ruhini azob iskanjasiga olayotgan ham aynan shu edi. Donishmand deb ekanki, «Ya Tangrim, sen mendan «huzurimga qanday amallar bilan kelding?» deb so'raysanmi? Undan ko'ra «Ey bandam, sen qilgan gunohlar mahshar maydoniga sig'adimi?» deb so'raganing ma'qulroqmasmi?» Aslida bu savolni iymon ko'chasidan o'tmayotgan bandalarining bermog'i joiz. Afsuskim, ularning noqis xayollariga bunday hikmat kelmaydi. Kelganda edi, gunohlari evaziga olajak jazolaridan qo'rqib, yaxshilik xulqini odat qilar edilar. Mahshar maydoniga sig'movchi gunohlarni ko'rib, bilib turgan Zohid ojizligidan siqilsa-da, bugun bo'lmasa ertaga muddaosiga yetish niyati bilan yashardi.

Mirkarimovning o'limiga doir gumonlar zanjirining bir uchi Oysanamga, ikkinchisi Zaripovaga bog'lanib turganida Kesakpolvonning paydo bo'lib qolishi zanjirni asosan Oysanam atrofida mahkamlashga ehtiyoj tug'dirdi. Zohid eng avvalo jasad suvga tashlanishdan avval ko'mib qo'yilgan joyni aniqlashga asosiy e'tiborini qarata boshladi:

«Mirkarimov qaerga ko'milgan bo'lishi mumkin? Ko'milgan o'likni nima uchun qazib olishib, suvga tashlashdi? Bir narsadan qo'rqishdimi?» Masala shu nuqtaga taqalganda Zohid «Asadbeklar o'ldirtirishgan», degan gumondan chekinardi. Uning nazarida Asadbekning odamlari bunday xom ish qilishmaydi. Ular o'likni biron eski go'rga tiqib qo'ya qolishadi, yoki biron bir merovning bo'yniga ilvorishadi yoinki qalqib, yuzaga chiqmaydigan qilib cho'ktirishadi. Uning fikricha, bu ishni jinoyat olamiga endigina qadam bosgan tajribasiz odam qilgan. Odam o'ldirish aytishgagina oson. Birinchi marta o'zganing jonini olgan odam ma'lum muddat telbaga o'xshab talmovsirab yuradi. Xuddi murda ta'qib qilayotganday o'zining soyasidan ham cho'chiydi. Bunday qotillarning qo'lga tushishi oson. Qiynalib yura-yura ba'zan o'zlari bosh egib keladilar. Ba'zan esa odam o'ldirilgan joyga beixtiyor ravishda kelaveradilar, kelaveradilar... Mirkarimov o'ldirilgandan beri ancha vaqt o'tdi. Qotil avvaliga qo'rqan bo'lsa ham, endi o'zini bosib olganligi aniq.

Zohid avvaliga Oysanamdan mutlaqo gumonsiramagan edi. Uning akasiga qo'shilib yolg'on guvohlik berishi gumonning uyg'onishiga sabab bo'ldi. Dastlab kibr bilan kutib olib, so'ng «akamni qo'yib yuboring», degan talab bilan kelishi ham Zohidning diqqatidan chetda qolmadi. Keyingi so'roqlardan so'ng Zohidning ro'parasida ajib surat paydo bo'lgan edi:

...bir-biridan go'zal ikki juvon.

...biri qonuniy xotin.

...ikkinchisi... «o'ynash» degan so'zni tan olgisi yo'q. U — bo'lajak xotin.

...birining yonida akasi, ikkinchisining qanotida ukasi...

Juvonlarning o'zlari Mirkarimovni o'ldirishmas. Aka yoki uka-chi?

Agar Mirkarimov chindan ham Zaripovanikiga kelgan, shu uyda o'ldirilgan bo'lsa, qaerga ko'mish mumkin? Ko'p qavatli uylarining hovlisida bu ishni qilib bo'lmaydi. Murdani butunicha olib chiqib ketishning ham iloji yo'q. Imkon bo'lgan taqdirda ham uzoqroq yerga olib borib ko'milsa, yana kavlab olishga hojat bo'larmikin? U holda... o'z uyida o'ldirilganmi, o'z hovlisiga ko'milganmi?

Oysanam Erkaevaning uyiga Zohidni shu muammo olib keldi. Uni so'raydigan muhim gapi yo'q edi. Hovliga kiringach, atrofga o'g'rincha, ammo sinchkov nazar tashladi.

Uningcha hovlining biron-bir yerida, biron bir daraxtning atrofida cho'kkan joy bo'lishi kerak edi. Oysanam uning yugurik nazaridan xavotirlanib, chalg'itish maqsadida:

— Xo'jayinim bog'ni yaxshi ko'rardilar. Shu daraxtlarning hammasini o'z qo'llari bilan ekanlar, — deb qo'ydi.

Zohid, o'g'rincha qarashi oshkor bo'lganini fahmlab, o'zini sal noqulay sezdi, biroq, sir boy bermaslik maqsadida, diqqatini aynan shu daraxtlar tortganday ko'rsatish uchun juvonning gapini davom ettirgan bo'ldi:

— Didlari zo'r ekan...

Zohidning Oysanam bilan bo'lgan suhbatini eski savol-javobdan iborat bo'ldi. Zohidning xabar yetkazilgan vaqt haqidagi savolidan so'ng yana «Vinni-pux» multfilmi tilga olindi. Zohid ortiqcha maydalamay, suhbatni tezda yakunlab, iziga qaytdi. Oysanam esa bu qisqa tashrifdan muddao ne ekanini anglamay, gangidi.

### 3

Prokuratura tergovchisi kelib-ketmasidan oldin Oysanamning mahzun ko'ngli tor qafasda nola qilayotgan qush kabi edi. G'am-alamlardan forig' bo'larmikinman, deb xorij safarini orzu qilgan edi, bu ham chippakka chiqdi. Hamma uchun yo'l ochiq bo'lgan Yaponiyaga

borib-kelishga ijozat berilmadi. «Hujjatlaringizda chalkashlik bor ekan», deyishdi-ku, biroq, bu chalkashlik aynan nimadan iborat ekani tushuntirilmadi. Ular izoh berishmasa ham Oysanam bu monelikni erining o'limi bilan bog'ladi.

Ko'nglining mahzunlik to'rida nola chekishiga yana bir sabab bor edi. U Kesakpolvonning maslahati bilan prokuraturaga bordi-yu, qaytib chiqishining o'zidayoq adashganini fahmladi. Akasi qamoqqa olingani-da uyga kelishib tintuv qilishgan edi. Yangasining muhtojlikda yashamasligi bularga oyday ravshan ekanini hisobga olmagan ekan. Oysanam bu tergovchi ham borib tanishar, degan fikrda prokuraturadan chiqib akasinikiga yo'l oldi. Ko'zga tashlanishi mumkin bo'lgan qimmatli jihozlar yig'ishtirilib, qudaxolanikiga jo'natildi. Oysanam avvalgi kelganida yangasi «Erim sening eringning kasriga qoldi, bekordan bekorga azob chekib o'tiribdi», degan ma'noda g'ishava qilgan edi. Oysanam «Senlar mening erimning soyasida yayrab yashadinglar», degan gap bilan uzib-uzib olmoqchi edi, lekin kichik g'alva katta janjalga aylanib ketmasin deb tilini tiygan edi. Bu safar ham yangasining ming'ir-ming'irlari pichoqqa aylanib, suyakka qadalsa-da, chidadi.

Akasinikidan qaytgandan keyin ko'chaga chiqishlardan bezib, o'zini o'zi uy qamog'iga hukm etdi. Hatto non do'koniga chiqishga ham oyog'i tortmay, qo'shni bolalarni ishga soldi.

Erining o'limidan so'ng nazarida bu uy og'zi ochiq ajdahoga o'xshab qolgan edi. Ayniqsa shom qorong'uligini yurak hadigi bilan qarshilardi. Xonadonga mavjud barcha chiroqlarni yoqib qo'ysa-da, qorong'ulik qo'rquvi chekinmasdi. Onasi kelib tursa ham, o'zi onasinikiga borganida ham bu ahvol o'zgarmas edi. Qorong'ulik go'yo go'rdagi erini uyg'otardi. Hayotligida xo'rsinmagan eri o'lganidan keyin kelib har tun xo'rsinardi. Oysanamning uyqusi kelsa-da, uxlolmasdi. Shirin uyqudagi o'g'luga tikilib o'tiraverardi. Bu uyda yashay olmasligini bilib, sotishga qaror qildi, biroq, erining o'limiga taalluqli ish bir yoqlik bo'lmaguniga qadar qarorini amalga oshirishni keyinga surdi.

Kecha, dunyo ko'zlariga qorong'u va tor ko'rinayotgan damda Kesakpolvon kelib, ko'ngli yanada xufton bo'ldi. Kesakpolvon avvalgi safar muddaosiga yetolmagach, uni haqorat qilib chiqib ketgan edi. Oysanam bu xorlikka chidolmay yig'lagan, so'ng «so'kib, yuragini bo'shatib oldi, endi daf bo'ladi», degan xayolda o'zini o'zi ovutgan edi. Kesakpolvonning yana kirib kelishi uni og'ir ahvolga soldi. Kesakpolvon o'zini mehmon emas, uy xo'jasi kabi tutib, avvaliga choy buyurdi, so'ng konyak so'radi. Aytganlari muhayyo bo'lgach, juvonga yonidan joy ko'rsatdi. Ikkinchi qadahni uzatib, ichishni amr etdi. Oysanam ichmas ham, ayrim zamonaviy ayollarga qo'shilib, chekmas ham edi. Qaysi bir ziyofatda o'sha o'zlarini madaniyatli sanagan xonimlar davrasida sigaret tutilganda u olmagan, «voy, qanaqasiz, chekmaysizmi?» degan tanbehli savolga «yaqinda tashlaganman», deb javob berib qutulgan edi. Hozir Kesakpolvonga bunday deya olmasdi. Shu sababli qadahni olib, labiga tekkizib qo'ydi. Kesakpolvonning shilqimligi boshlangach, ko'krigidan itarib, o'rnidan turib ketdi. Bu safar ham quruq qaytishini anglagan Kesakpolvon yana tiliga erk berdi. Avval Oysanamning o'zini balchiqqa bulg'ab tashladi, keyin «ering unday edi, bunday edi», deb tiliga kelganini qaytarmadi. Bu gaplar orasida Oysanamga yangilik bo'lgani — erining taksoparkda katta xatoga yo'l qo'yib Bek akasi oldida gunohga botgani, Kesakpolvonning mehri-oqibati tufayli afv etilgani, yana aynan Kesakpolvon marhamati bilan Hosilboyvachcha qo'lidagi zavodning olib berilgani edi. Bu marhamatlar «Mavlonning chiroyli qoshu ko'zlari uchun» emas, balki Oysanamga bo'lgan ishq muhabbati tufayli ekani ham shu haqoratlar orasida ma'lum bo'ldi.

Kesakpolvonning ketar chog'ida «Aslida o'zing ham eringning yonida chirishing kerak», degani juvonga hukm kabi eshitilib, oyoq-qo'llari bo'shshib ketdi. Dastlab o'zining joni ko'ziga ko'rinib, tashvishlangan bo'lsa, keyinroq yana «o'g'limga daf qilsa-ya!» degan



fikr uygʻonib, talvasaga tushayozdi. Hatto «nafsing goʻrda chirigur»ni chaqirib, «nafsingni qondir, ammo oʻgʻlimga tegma!» degisi ham keldi. Lekin iffat qudrati qoʻrquv kuchidan baland turdi.

Bugun uyqusiz tundan soʻng picha mizgʻib, tiniqib turganday boʻldi. Nonushta tayyorladi. Bir tishlam non bilan ikki hoʻplam choy bu dunyoda tirik yashab yurmoq uchun kifoya qiladiganday, tomogʻidan boshqa hech nima oʻtmadi. Baʼzan ovunchoqday tuyuluvchi, baʼzan esa yurakni battar siquvchi televizorni yoqdi: zar doʻppi kiygan ashulachi qoʻllarini qovushtirganicha xonish qilardi. Oysanam bunaqa ashulalarni yoqtirmasdi. Oʻchirgisi keldi. Biroq, bir bayt qulogʻiga boshqacha eshitilib, ahdidan qaytdi.

Naylaram, dardu alam

tortmoqdan oʻzga chora yoʻq...

Bu bayt xuddi oʻzining qalbi qaʻridan otilib chiqqanday tuyuldi. Ashulachi unga hamdardday koʻrindi: Bu jahonga kim kelubdur Boʻlmasun baxti qaro... Qoʻshiq dardu alam tortmoqdan oʻzga chorasi qolmagan Oysanamning hasratlarini toʻzitib yubordi. Erining oʻlimidan soʻng oʻzini dunyoda eng baxti qaro ayol deb hisoblayotgan Oysanam maʼsud kunlarining qaytishini juda-juda istardi. Bu istaklarning amalga oshuvi yomgʻir tomchilarini iziga qaytarish kabi ekanini esa fikr qilmasdi.

## XIX b o b

### 1

Oʻzbekistonda hukmini oʻtkaza olmagan qish Tomsikka koʻchgan ekan. Bu shahar Asadbekni izgʻirin nafasi bilan qarshi oldi. Asadbekni birov rasman kutib olmagan boʻlsa-da, izidan kimningdir poylayotganini his etdi. Unga qoʻlidagi suratlar yoʻl koʻrsatib, avval mehmonxonaga bordi. «Bugun mehmonxonamizda joy yoʻq» degan eʼlon osib qoʻyilganiga qaramay, Asadbekka eng shinam xona tegdi. Uning ixtiyorida bir necha soatcha vaqt bor edi, ozgina dam olib, soʻng kerakli odamlar bilan uchrashib, tongda esa shu uchoqning oʻzida iziga qaytmogʻi zarur edi. Yuvinib, bir oz yotgan boʻldi. Ke-yin koʻchaga chiqib, yoʻlovchi mashina yolladi-da, suratda aks etgan koʻchadagi uyni moʻljallab bordi. Chamasi oʻn besh daqiqa uy atrofida yurdi. «Suratga ishonib, adashgandirman», deb xayol qila boshlaganida toʻr xaltasiga ikki shisha qatiq, bitta non solib olgan qariya unga yaqinlashdi-da: «Sartaroshxonaning roʻparasidagi oq «nol toʻqqiz»ni koʻryapsanmi, seni oʻsha yerda kutishyapti», deb nari ketdi. Asadbekka bu ehtiyot chorasi malol keldi. «Balabuxa zoʻr boʻlsa oʻzining shahrida ham soyasidan qoʻrqadimi?» deb mashinasi sari yurdi. Koʻchani kesib oʻtayotganida mashina motori oʻt oldirildi. Old oʻrindiqdagi yigit qimirlamagani sababli Asadbek orqa eshikni oʻzi ochib, indamay oʻtirdi. Mashina qoʻzgʻolib, nari ketgach, haydovchi ham, yonidagi yigit ham orqasiga oʻgirilmay salom berdilar. Ularning bu qiliqlari Asadbekka yanada malol keldi. Ular salomdan nariga oʻtishmadi, Asadbek ham gapga tutmadi.

Asadbekni shahar tashqarisidagi qarorgohda kutishayotgan edi. Kozlov salom-alikdan soʻng Balabuxani tanishtirdi-da, Asadbekning gʻashini keltirgan ehtiyot chorasi uchun uzr soʻradi.

— Biz bilan aloqa oʻrnatganingni hozircha birov bilmagani maʼqul, — deb izoh berdi Balabuxa.

Kozlov oilasini panohiga olgani uchun Asadbekka minnatdorlik bildirib, Muhiddin otaning hol-ahvolini soʻradi.

— Uylarini yoqib yuborishibdi, eshitdim, — dedi u. — Ayb menda, u yoqqa bormasligim kerak edi. Sen oqsoqolga uzrimni yetkaz, bu ishlar tinchigach, birinchi galda uylarini qurdirib beraman.

— Shart emas, — dedi Asadbek, — ota endi u yoqqa qaytib bormaydilar.

— Baribir uzrimni yetkaz. Bizning o'yinimiz deb yaxshi odamlar jabr chekmasliklari kerak. Oxirgi vagonni deb ikkalamiz kuyib qoldik, Bek. Uning haqqi to'laligicha mening bo'ynimda, tiyin-tiyinigacha to'layman, xavotir olma. Istasang... oilamni garov sifatida ushlab tur.

Bu gapdan so'ng Asadbek Kozlovni birinchi marta ko'rayotganday qattiq tikildi. Balabuxa esa «Bu taklifga qanday javob bo'lar ekan», degan o'yda Asadbekka zimdan qarab o'tirardi.

— Sen esingni yeb qo'yibsan, Lyosha, — dedi Asadbek Kozlovdan ko'zlarini uzmay. — Agar oilangni shunaqa arzon-garovga qo'yishingni bilganimda ularni bir soat ham ushlab turmas edim. Garovga qo'ying bor ekan, Xongireyga berib yuboravermaysanmi? Nima qilarding ularni sarsonlikka giriftor etib.

Asadbekdan aynan shunday tanbeh kutgan Kozlov jilmayib, minnatdorlik sifatida uni asta quchdi.

— Sen haqsan, — dedi Balabuxa. — Hammamiz shunday bo'lishimiz kerak. Pul — topiladigan, yo'qotiladigan narsa. Oila esa — muqaddas! Mening xotinim, farzandlarim yo'q. Men yolg'izman. Shu tufayli oilaning beqiyos darajada muqaddas ekanini men senlardan yaxshiroq bilaman. Bek, men senga qoyilman, chaqiruvimizni to'g'ri tushunib, manzilni adashmay topib kelding. Tbilisi orqali kelganing ham menga ma'qul bo'ldi. Asadbek Tbilisiga qanday maqsadda kirib o'tganini tushuntirib o'tirmadi.

— Aleksey Petrovich bilan maslahatlashib, kuchlarni birlashtirish qaroriga keldik, — dedi Balabuxa.

— Qaysi kuchlarni, nima maqsadda, kimga qarshi?

— Xongireyga qarshi, — Balabuxa «Javobim seni ajablantirdimi?» deganday Asadbekka savolomuz qaradi.

Uning maqsadini anglab turgani uchun ham Asadbek javobdan taajjublanmadi.

Qo'shimcha savol ham bermadi, mezbonning gapini ham bo'lmadi.

— Xongirey qoidani buzib o'ynayapti, — dedi Balabuxa. — Chegaradan chiqaveradigan odam jazolanishi kerak. Sen bizlarga qo'shilsanmi?

Asadbek Kozlovdan elchi kelib, Tomskka otlanganida Xongireyga taalluqli biron gap chiqishini kutgan edi. Ammo kuchlarning birlashuvi haqidagi gap uning uchun yangilik bo'ldi. U fursati kelganda Xongireyni jazolashni istardi, ammo shu kunlarda ochilajak urushga tayyor emasdi, aniqroq aytilsa, bunday istak yo'q edi unda. «U yoqda Iliko tish qayrayapti, bu yoqda bular. Ikki o'rtada mening vazifam nima bo'larkin? Bular bir-birlarining maqsadlaridan xabardormikinlar?» Asadbek Kozlovni yaxshi bilgani, unga ishongani bilan sir aytishni ma'qul ko'rmadi.

— Qaysi kuchlar birlashishi kerak? — deb takror so'radi Asadbek.

— Men, Aleksey Petrovich va sen. Hozircha shuni bilsang yetarli.

— Menda hozir kuch yo'q, o'yindan chiqqanman. Hamma ish sherigimning bo'ynida, — dedi Asadbek.

— Haydarmi? — deb ajablendi Kozlov. — Sen unga ishondingmi?

— Unga Xongirey ishondi, shuning o'zi kifoya.

— Sen adashibsan, — dedi Kozlov.

Asadbek u bilan bahslashishni istamay, xotirjam ravishda:

— Ba'zan adashib turish ham kerak, — deb qo'ydi.

— Ba'zan mumkin, lekin hozir xato qilishga haqqing yo'q, — dedi Balabuxa.

— Xongirey Haydarga ishongan bo'lsa... demak, sheriging qoradoriga aralashibdi, — dedi Kozlov bir oz o'ychan tarzda, so'ng nimadir esiga tushganday Asadbekka savol berdi: — Halim degani sening yigiting emasmi?

Kozlovning bu savoli Asadbek uchun kutilmagan bo'ldi:

— Ha, uning izini yo'qotib yuruvdim.

— Izini Krasnoyarskdan topasan, — dedi Kozlov ma'nodor ohangda, keyin izoh berdi: — Haliming narkokurer ekanini bilarmiding? Uni militsiyaga ro'para qilishgan. Militsiya uni mening uyimda kutib, shu yerda qamoqqa olgan. Hozircha u hech kimning nomini tilga olmagan.

— Istasang, biz uni qutqarib olishimiz mumkin,— dedi Balabuxa.

— Yo'q, istamayman, — dedi Asadbek, — Kim yuborgan bo'lsa, o'zi qutqaraversin.

— Gaping to'g'ri, — dedi Balabuxa, — biz qutqarsak, uyga borganida omon qolmaydi.

Yaxshisi ozgina chidab o'tirgani ma'qul. Ular bir o'q bilan ikki quyovni urishmoqchi. Bittasi — narkokureri ro'para qilib, militsiyaning ko'nglini olishdi. Endi bu yog'i ko'kchiroq — bemalol kelib ketaverishadi. Ikkinchisi — endi qadrdonimiz Kozlov janoblarini militsiya ham qidiradi. Erta-indin ittifoq qidiruvi e'lon qilinsa men ajablanmayman.

Mo'ljallari yomon emas, a? Krasnoyarskda «Shurka lo'li» degani bor, eshitganmisan?

Qoradoriga ishing tushmagan bo'lsa, uni tanimaysan. Uning butun urug'-aymog'i yaralganidan beri ot o'g'risi bo'lgan. Bobosi Kolchakdan ot o'g'irlab qizillarga sotarkan, qizillardan o'marib, kolchakchilarga pullarkan. Oxiri Kolchakning qo'lga tushib osilgan ekan. Krasnoyarskda grajdanlar urushi qahramoni Makar Kvasov nomidagi ko'cha bor. Makar — Shurka lo'lining o'sha o'g'ri bobosi. Bir yumalab qahramonga aylangan. Shurka lo'li ham bir yumalab ot o'g'risidan «narkobaron»ga aylandi-qo'ydi. Alekseyning ildiziga aslida o'sha bolta urdi. Men ko'p aytdim, lo'li bilan pachakilashma, dedim. Xongireyning ishi endi shu bilan pishyapti. Sening sheriging ham shu zanjirning bir halqasi. O'yindan chiqdim, deb xomtama bo'lma, bizning ishimizda faqat o'lgan odam o'yindan chiqadi. Odam yo'qmi, demak, muammo ham yo'q. Sel kelsa, barchani baravar olib ketadi. Bu kishi o'yinda yo'qlar, deb o'zanni o'zgartirmaydi. Sen taklifimizga hozir javob berma. O'ylashing uchun fursat yetarli. Biz — o'g'rilmiz, halol odamlarmiz, sen buni yaxshi bilasan. Uyingga qaytganingda senga uchrashgan yigit yana huzuringga kiradi. U Alyoshaning oilasini bu yerga olib kelishi kerak. Sen ehtiyot chorasini qilib qo'y. Ertalab Tbilisiga uchmoqchimisan? Yaxshi. U yerdan Moskvaga uch. Xongireyning otasi o'lgan, ko'ngil so'rab qo'y. Hozir bu ham muhim. Balki... biron nima deb gapidan ilinar. Payti kelganda seni yana yo'qlaymiz.

Shu bilan ishga doir masalaga yakun yasalib, uchrashuvning ziyofat qismi boshlandi.

## 2

Moskvaga uchib kelgan Asadbek uyga qaytish chorasini qilib qo'ygach, Xongirey bilan bog'landi. Xongirey qadrdonini orziqib kutib, niyatiga yetgan baxtiyor odam ohangida gaplashib, uchrashish niyati borligini, uch soatdan so'ng «Budapesht» restoranida kutajagini bildirdi. Uch soatdan so'ng Asadbek Moskvadan uchib ketishi lozim edi. Xongirey buni bilib turib atay shu soatga belgiladimi yo tasodif bo'ldimi — Asadbekka qorong'u edi. «Barvaqtroq uchrasha qolaylik», deb iltimos qilishni o'ziga ep ko'rmay, ko'ndi.

U belgilangan vaqtdan besh daqiqa avval bordi. Xongireyning yigiti uni kutib olib, odamlardan xoli bo'lgan kichik xonaga boshladi. O'n kishiga mo'ljallangan stol usti did bilan bezatilgan edi. Buni ko'rgan Asadbek «yana boshqa odamlar ham bor ekan-da»,

deb o'yladi. Xongirey roppa-rosa bir soat kechikib keldi. Restoran xizmatchisining «nima buyuradilar», deb kirib turgani hisobga olinmaganda Asadbek yolg'iz o'tirdi. Xongirey kechikkanining sababini ham aytmadi, uzr ham so'ramadi. Asadbek bilan quchoqlashib, yuzini yuziga bosib omonlashdi-da, o'tirishga ulgurmay, amrga mahtal turgan xizmatchiga «quy» deb imo qildi. Xizmatchi ikki qadahni to'ldirgach, Asadbekka «gapirasanmi?» deganday qaradi. Asadbek telefonda ta'ziya bildirgan edi, hozir o'sha gapni takrorladi:

— Otangni xudo rahmat qilsin.

— Ha, albatta. Qani, ol! — Xongirey shunday deb qadahni oldi-da, havolatib cho'qishtirgach, bir ko'tarishda bo'shatdi.

Asadbek Kesakpolvonning «musulmonchiligi bor-da shu yigitning» degan gapini eslab g'ijini qo'ydi.

— Ichmaysanmi? — dedi Xongirey.

— Bizda ta'ziyaga kelganlar ichishmaydi, — dedi Asadbek.

— Ahmaqona odatlaring ko'p senlarning. O'lgan odam o'lib ketdi, sen tiriklarni o'yla.

— Xongirey! O'zinga tegishli da'volaringni gapirsang gapir, ammo odatlarimizni haqoratlama. Biz — o'zbeklarmiz, odatlarimizni hamma narsadan ustun ko'ramiz.

Indamas, mo'min ekan, deb boshga chiquvchilar ko'p yanglishishgan.

Asadbekka Xongireyning gapi qanchalik yoqmagani bo'lsa, Xongirey ham uning ayniqsa so'nggi jumlasidan shunchalik achchiqlandi. Ammo suhbatni asabiy tarzda boshlamaslik uchun sir boy bermadi.

— Men chiroyli gapirishni bilmayman, jon qardosh. Ko'zinga ahmaqona ko'ringan narsani ahmaqona deyaveraman.

— Chechenlarda ahmaqona odatlar yo'qmi?

— O', qardosh, sen endi maydalashma. Bu biz talashadigan narsa emas. Buni ana, faylasuflarga, shoirlarga qo'yib ber. Sen meni chechen, o'zingni o'zbek deb ajratma, sen bilan mening millatim bir, biz bitta olamning fuqarolarimiz. Farqimiz faqat bir narsada — sen qimorbozsan, men o'g'riman!

Xongireyning tilidan uchgan bu so'zlar haqiqat bo'lsa-da, Asadbek buni tan olgisi kelmadi. Agar Xongirey fikrini davom ettirib «sen bilan mening borar yerim ham bir — do'zax» deganida Asadbek buni ham tan olgisi kelmas edi. Kimdan eshitgani yodida yo'q — Jalilmi yo Sobitxonmi, yo boshqasimi, «do'zax qavat-qavat bo'ladi. Odam gunohlarining miqdoriga qarab joylashaveradi», degan edi. Agar do'zax haqida so'z ochil-sa Asadbek shubhasiz: «Ey Xudo, do'zaxga loyiqligimni bilaman, faqat meni bu maraz bilan bir qavatga qo'ymagin, mayli, meni eng tuban, eng azobli qismiga tashlagin, bu itdan tarqagan bilan birga bo'lmasam bas», degan bo'lardi. Agar odamlarga emas, o'z nafsiga zulm qila olish saodat ekanini bilganida edi, Yaratgandan boshqa narsani so'rardi, «Ojiz iymonimga quvvat ber, bu olamning fuqaroligidan chiqarib Hidoyat yo'lga boshla, do'zaxda u bilan uchrashtirma», deb munojot qilgan bo'lardi. Iymoniga quvvat kimgach esa, «bu birodarimga ham hidoyat ber, uni do'zaxlardan qilma», deb duolar qilishi mumkin edi. Afsuslarkim, bu kabi duolar unga begona edi... U o'zini banda sifatida Xongireydan ustun qo'yadi, zulmdan ko'ra shafqatga yaqinlardanman, deb hisoblardi. Vaqtiki kelib, zulm bilan shafqat tarozi pallalariga qo'yilganda qanday holat yuzaga kelmog'ini tasavvur eta olmasdi. Birovga adolat qilish, boshqasining nohaq sotilgan uyini qaytarib berish savoblari shafqat pallasining og'ir kelishini ta'minlaydimi yoki yo'qmi, buni siz biz bilmaymiz. Bu yolg'iz Ollohning o'ziga ma'lum.

Hozir esa ikki gunohkor banda bir-biridan nafratlanib o'tiribdi. — Bek, — dedi Xongirey asosiy maqsadga o'tib, — sening odaming menga xiyonat qildi. Men juda kattaga tushdim. Asadbek gap Halimjonga taqalganini anglasa ham, tushunmaganday yelka

qisdi:

— Qaysi odamim? Qanaqa xiyonat qildi?

— Halim degan odaming bormi? U anqov katta mol bilan qo'lga tushgan.

Asadbek kulimsiradi.

— Men kulgili gap aytdimmi?

— Agar arava qulasa olib tashlangan eski murvat aybdor bo'ladimi yo yangi qo'yilganimi?

Xongirey o'zining gapini eslab, g'ijini qo'ydi.

— Avvalgi uchrashuvimizdan keyin, — dedi Asadbek gapini davom ettirib. — Men butun hokimiyatni, shuning orasida odamlarni ham Haydarga topshirganman. Halimning qayoqqa, qanaqa mol bilan borganini bilmayman.

— Nahot bilmasang? — Xongirey unga kiprik qoqmay tikildi.

— Bilmayman knyaz, bilishni ham istamayman.

— Agar xohlasang u bolani chiqartirib yuboraman.

— Xohlamayman. Bu sening ishing. Sen bilan ish haqida gaplashishni istamayman. Men seni to'yga taklif etgani kelyatuvdim, yo'lda otangning o'lganini eshitdim.

— Kimdan eshitding?

— Anzor «Anakonda»dan.

— Tbilisiga nega bording? Anzorda ishing bormidi?

— Men Anzor bilan hech qachon birga ish qilmaganman. Hozir ham chatog'im yo'q. Men Sulikoning bobosini to'yga aytgani bordim. Ta'ziya ham bildirdim.

— Men to'ying o'tib ketdi, deb o'ylabman.

— Biz do'stlarsiz to'y qilmaymiz.

— Sen meni do'st deb bilasanmi? — Xongirey zaharli kuldi. — Rahmat, rahmat. Mendan arazlab dushmanga aylangandirsan, deb o'ylovdim.

— Men arazlaydigan yoshdan o'tganman.

— Umuman, Bek, sen bekorga chetga chiqding. Chin do'st bo'lib ishlayversak bo'lardi.

Sen meni tushunmading. Bobolarimga qilich solganlarning zurriyodini qora dori bilan «siylayman». Senlar ham jabrdiydasanlar-u, ammo senda g'urur yo'q.

— Sen hali qilayotgan ishlaringni g'urur deb o'ylaysanmi?

— Sen-chi? Nima deb o'ylaysan?

— Begunoh odamlarni qirish g'ururga kirmaydi, yovuzlik bo'ladi. Sening qoradoring kofirni musulmondan, slavyanni chechendan ajratib o'tirmaydi. Sen g'urur deb o'zingni aldama, menga ham ta'na qilma. O'zing so'rading, endi ochig'ini aytaman, ranjima, sen aytgan g'urur — oqib keladigan pul, boshqa narsa emas. Pul oqib kelmasa g'ururing ham so'nadi. Sen adashyapsan, knyaz, oqibati yaxshi bo'lmaydi.

— Hm... oqibatni sen belgilaysanmi?

— Yo'q.

— Ha yaxshi, ko'ramiz. Ochiq gapirganing uchun rahmat. Bu gaping chindan ham do'stona bo'ldi. Men oqibatni sen bilan birga ko'rishni istardim. Mening haqligimni sen ham ko'r. Ungacha o'lib qolma. Bek, xo'pmi? Qani, endi to'ying qachon, aytmaysanmi?

Asadbek to'y kunini aytgach, Xongirey uzun hushtak chalib qo'ydi:

— O'sha kuni men Polshada sayr qilib yurgan bo'laman. Mening amakim Krakovni ozod qilishda halok bo'lgan ekan, otamning vasiyati bilan ketyapman. Se-ning to'yingga esa... Mamatbey boradi. Ranjima, jon qardosh.

Xongirey o'rnidan turib, Asadbekni quchdi. Bir ozdan so'ng mehmonni kuzatib qaytgan Mamatbeyni Xongirey norozi qiyofada qarshiladi:

— U to'y qilyapti. O'g'illari sog'lomga o'xshaydi-ku?

— Unchalik emas, men xabar olib turibman.

Bir turib, bir yotyapti. Uzoqqa

bormaydi, bu yog'i ishonch-li.

— U ancha dadillashib qolibdi. Menga aql ham o'rgatdi. Bunga nima deysan?

— Knyaz, u ertaga butunlay sinib, chilparchin bo'lib ketadigan odam.

Mamatbey unga shu tarzda tasalli bermoqchi bo'ldi. Bu gaplar Xongireyga tasalli uchun kifoya qilmadi.

Yasatig'liq dasturxon yasatig'lig'icha yana mehmon kutardi. Dasturxon Asadbek uchun tuzalmagan, xos mehmonlar endi kelishlari lozim edi. Uchrashuv vaqti ham ular bilan kelishuv asosida belgilanib, Asadbekning «meni yo'ldan qoldirish uchun atay shu soatga chaqirdi», degan gumoni o'rinsiz edi. Xongirey uning Tbilisiga uchganini eshitgan, biroq, Moskvaga kelib, yo'qlashini kutmagan edi. Shuning uchun ham Asadbekning soat nechada uchib ketishidan xabarsiz edi. Uning aslida Asadbek bilan suhbatlashishga ko'zi uchib turmovdi.

Faqat o'yindan chiqqan «O'qilon»ning rangi-ro'yini o'zi bir ko'rib qo'ymoqchi edi. Shu sababli jahli chiqsa ham sir boy bermay, gapni ko'paytirmay unga ijozat bera qoldi. Asadbek o'tirgan mashina shahar hududidan chiqmay turib restoranga Xongirey kutgan mehmonlar kirib kelishdi. O'n kishilik joyning teng yarmini Xongirey, Baygildin, Mamatbey va har baloni qaytarishga shay bo'lgan ikki soqchi egalladi. Kutilgan mehmon — Bugay ikki soqchisi bilan kelib, Xongireyning ro'parasiga o'tirdi. Tashqaridan qaragan odam o'g'rilar olamining ikki vakili janjalli masalani hal qilishga to'plangan, deb o'ylamasdi. Aksincha, quyuq ziyofat ustidagi do'stlar davrasiga havas qilgan bo'lardi. Davra chinakam ziyofat tarzida boshlanib, ikki soatga yaqin davom etdi. Bir-birlariga yaxshi tilaklar bildirildi, latifalar aytili. Yaxshi tilaklardan erib ketgan Bugay o'rnidan turib borib Xongirey bilan quchoqlashib, o'pishib ham oldi. Yolg'on lutfu karamlarning uzoq davom etmog'i mumkin emasdi. Davra sovuy boshlagach, Bugay maqsadga ko'cha qoldi:

— Knyaz, — dedi u ehtirom bilan, — «Orxideya»ni ochayotganimda o'zing menga oq yo'l tilagan eding. Men senga o'xshagan chapdast emasman, no'noq o'g'riman. Shuning uchun ham ishlarim toshbaqa yurishda ketyapti. Yana sening daldangga muhtoj bo'lib qoldim.

Bugay bu so'zlarni shunday osoyishta ohangda aytdiki, go'yo Xongirey «Praga» restoranida o'tirmaganday, go'yo Markaziy bank xizmatchisining uyiga bostirib kirmaganday, uni qo'rqitib olmaganday edi.

— Men Xudoga bo'ysunmasligim mumkin, lekin birodarlik qonuniga xiyonat qilmayman. Bizning oramizda muruvvat qilish yo'q, majburiyat bor. Shuning uchun bo'yniga tasma taqqan oliftalarga o'xshab min-g'irlamay, gapning dangalini ayt. Men erkaklar bilan gaplashishni yaxshi ko'raman.

— Chet bilan katta ishni boshlab qo'yuvdim. Ish bankka taqalib qoldi, sen aralashmasang kuyib qolaman.

Kechagina Xongireyni burdalab tashlashni istayotgan Bugay dardini shunday madaniy tarzda bayon etdi. «Sen tumshug'ingni tiqqaning uchun ishim to'xtab qoldi, bankdan qarz ololmayapman», deb da'vo qilmadi. Xongirey uning ayyorligiga tan berdi-yu, lekin erkakchasiga «men atay to'xtatdim, mening ham nafsım bor», demadi.

— Foydani chamalab ko'rdingmi?

— Foyda yomon bo'lmaydi.

— Endi do'stim, o'g'rilikdagi birodarlik boshqa, tijoratdagi sherikchilik o'zgacha, — dedi Xongirey tagdor ohangda.

— Shartni ayt, — dedi Bugay. Ichida esa «birodarlik haqida gapirgan it senmiding?» deb so'kindi.

— Shaxsan men birodarlikni hamma narsadan ustun qo'yaman, — dedi Xongirey xuddi

Bugayning xayolidan kechgan gapni o'qiganday: — O'g'ri o'g'rini qo'llagani uchun ham barchaning taqdirini hal etishga qudrati yetadi. Lekin tijoratda sarf-xarajat degan gaplar bor. Menga sening bir tiyining kerakmas.

— Shartni ayt.

— Yigirma foiz.

— Knyaz, unda men ikki barmog'imni burnimga tiqib qolaman. Mening xarajatlarim ko'p, sen besh foizini ol.

— Bugay, biz bozordagi anqov chayqovchilar emasmiz-ku, men sen uchun xizmat qilaman, kerak bo'lganda himoyamga olaman. O'n besh.

Xullas, chet elga chiqariladigan temir evaziga olinguvchi foydaning o'n foizi Xongireyning cho'ntagiga oqadigan bo'ldi. Uning roziligi o'sha kuniyoq bankdagi Mark Abramovichga yetkazilgach, Bugayning ishlari ham yurishib ketdi.

### 3

Asadbekni Jamshid kutib oldi. Xongirey bilan telefonda gaplashmay turib, uyga qo'ng'iroq qilgan, borar vaqtini bidirib qo'ygan edi. Oraga restorandagi uchrashuv suqulib kirib, keyingi uchoqda uchishini esa ma'lum qilmagandi. Jamshid salkam to'rt soat kutgan bo'lsa-da, «Bek aka, kechikib qoldingizmi?» deb so'ramadi. Mashinaga o'tirishgach, Jamshid odatiga ko'ra «Qayoqqa boramiz?» degan ma'noda xojasiga qaradi. Ilgarilari safardan qaytgan Asadbek ko'pincha uyiga emas, idorasiga borardi. U damlarda yonida Chuvrindi bo'lardi... Asadbek Jamshidning qarashidagi savol alomatini o'qib, o'sha damlarni esladi. Ko'z oldiga Chuvrindi kelib yuragi bir oz ezildi. Keyin:

— Uyga hayda, — deb buyurdi. Mashina o'rnidan qo'zg'olgach: — Sen to'g'ri fahmlagan ekansan, Halim Krasnoyorda ekan, — dedi.

«U yoqda nima qilib yuribdi?» deb so'rab xojasini so'roqqa tutish odob doirasidan chiqishday tuyulib, Jamshid:

— Uzoq qolib ketdi-ku? — deb qo'ydi.

— Qo'lga qoradori berib, milisaga ro'para qilishgan. Hali-beri qaytmaydi, bola.

— O'zi mentlardan bo'lsa ham o'tiribdimi?

— Shunga hayronman. Yo sen adashgansan, yo u yoqda kimligini aytmagan. Balki bu yoqqa qaytib vazifasini oxirigacha yetkazishni mo'ljallagandir. Sen ehtiyot bo'lib yur, Endi Haydar akang ko'ziga yomon ko'ringan bolalarni o'sha yoqqa ro'para qilaveradi. Esingda tursin: Krasnoyorda «Shurka lo'li» degan narkobaron bor. Agar mol o'shaning odamlariga berilishi kerak bo'lsa, tinch borib, tinch kelasan. Undan boshqasi — qopqon. Haydar akangni shu ish yeydi. Lekin ungacha besh-olti bolani nobud qiladi. Sergak bo'lib yur.

— Bek aka, Halimning uyidan xabar olib qo'yaymi?

— U tomonga sira yaqinlashma, ishing bo'lmasin.

Jamshid «ma'qul» ishorasini qilib bosh irg'adi. Bir oz yurishgach, yo'ldan ko'z uzib, xojasiga qaradi-da, uning jimib qolganidan foydalanib, hisob berdi:

— Bek aka, aytgan yigitlaringizning kimligini aniqlab qo'ydim.

— Qaysi yigitlar edi?

— Restorandagi... aytuvdingiz-ku, qizlar bahonasida janjal chiqarganlar.

— Ha, ularmi? Xo'sh?

— Sizning taxminingiz to'g'ri chiqdi. Fohishalarni ro'para qilib, tentaklarni kattaga tushirarkan.

— Kim ekan ular?

— Zo`rining laqabi «Tarzan» ekan. Atrofida yetti-sakkizta itbaliqlari bor.

— Yetti-sakkizta, degin? Zo`ri bilan gaplashdingmi?

— Yo`q, avval oldingizdan o`tay dedim.

Bu xabar Asadbekni o`ylantirib qo`ydi: «Bir zo`r chiqib, yetti-sakkizta yigitning boshini qovushtirgan bo`lsa, yomon emas. Bitta Hosilning o`rniga yangisi kelibdi. Hozir tizgini tortilmasa, ertaga boshga chiqib olishadi. Kecha restoranda meni tanib, qochib qolishdi, ertaga tap tortmasdan to`g`ri ustimga bostirib kelishadi-da; «Yo`ldan qoch!» deyishadimi? Men-chi? «Oxirgi nafasim qolganida ham senlarni urib, gardanlaringni sindiraman», deymanmi? Unda bu quruq gapdan kim cho`chiydi?..»

— Sen u bolani menga ro`para qil, — dedi Asadbek, — o`tirgan ekanmi, aniqlamadingmi?

— «Tarzan» o`tirmagan. Otasi kattalardan ekan, har qo`lga tushganida quruq chiqargan. Otasining mashinasini uch marta olib borib urgan. Bittasida mashina ag`darilib, to`rt-besh marta yumalasa ham hech yeri tilinmabdi bu bolaning. Shuning uchun «Tarzan» deb laqab qo`yishibdi.

— Ninaga o`tirmaganmi?

— Bu tomondan toza, surishtirdim. Bolalarining ikkitasi qurug`idan tortar ekan.

— Yaxshi tekshirmabsan. Ikkita bolasi tortsa, o`zi chetda o`tirmaydi. Menga ro`para kelganda ko`zlari javdirab turuvdi. Yana tekshir.

— Xo`p, — Jamshid bir oz sukut qilgach, yana xojasiga qarab oldi. Asadbek uning nimadandir xavotirdaligini sezdi.

— Gaping ichingda qolmasin, ayt.

— Hozir indamasam, baribir ertami-indin eshitasiz. Qo`shningiz Qamariddin akaning uyni sotishlari bejiz emas ekan.

— Sen sotishini qaerdan bila qolding?

— Samad bilan gaplashganlarida qulog`imga chalinuvdi.

— Endi sababini bildingmi?

— Bildim. Qozidan eshitdim.

— Qozidan? — Asadbek yomonlikning nafasini sezib, sergaklandi, — Qani, ochiq aytavergin-chi?

— Qamariddin akaning o`g`illari ninaga o`tirgan ekan.

— Qaysi biri?

— Kenjasi, uylanmagani. Sizing nomingizni sotib, «Bek akamning jiyaniman», deb avtobazaga ishga kirgan ekan. U yerdagi laqmalar bunga ishonib, yangi moshina berishgan ekan, bir haftada urib, majaqlabdi. Bo`shatib yuborishga qo`rqib, endi eski moshina berib qo`yishibdi.

«Buni otasi bilmasmidi? Menga boshqacha gapiruvdi?» — deb o`yladi Asadbek.

— Bola qulog`igacha qarzga botgan, — deb gapni davom etdi Jamshid.

«Demak, bilgan. Maqsadi uyni sotib boshqa uy olish emas, qarzdin qutulish... Meni nega aldadi? Qo`rqdimi? Yo uyaldimi?»

— Bugun Qozi ota-bolani choyxonaga chaqirtirgan. Hisob-kitob bo`ladi.

— Haydar akang biladimi?

— Ha. Sizing yo`qligingizda gaplashib olishmoqchi. Bunaqada uy ham ketadi, bola ham ketadi. — Jamshid xojasining o`yga botganini ko`rib, jim bo`ldi, so`ng so`radi: — Qozixonaga haydaymi?

Asadbek unga yalt etib qaradi, ko`zlari yondi:

— Qozixonada nima bor?! Uyga hayda! — dedi zarda bilan.

Jamshid bu xabarni «agar aralashib, to`xtatmasangiz, gap aylanib kelib, sizning nomingizni bulg`aydi», degan ma`noda aytuvdi. Asadbek avvaliga «battar bo`lsin, bularga odamgarchilik qilaman, degan odamning o`zi ahmoq», deb g`azablandi. Keyin



Jamshid aytolmagan fikr o'zining xayoliga kelib, jahl o'tini o'chirishga urindi. «Menga chiqqani besabab emas. Uncha-buncha boyvachchanning menga qo'shni bo'lishga yuragi dov bermas. Ayniqsa bunaqa gapdan keyin, biron yaqinlashmaydi. Ha... Haydar olishi mumkin. Olib menga sov-g'a qiladimi?!» Shu fikrda to'xtagan Asadbek buyurdi:  
— Choyxonaga hayda!

Asadbekning kutilmaganda qozixonaga kirib kelishi qozini ham, Qamariddin, uning o'g'lini ham dovdiratib qo'ydi. Da'vogarning esa hushi uchib, talvasaga tushayozdi. Asadbek salomlarga alik oldi-yu, biroq, hech kim bilan qo'l berib so'rashmadi. Xona to'riga ham o'tmadi. Xojasining istagini fahmlagan Jamshid usti yog' dog'lari bilan «bezalgan» stul ustiga ko'rpacha tashladi-da, poygakka, eshikka yaqin joyga qo'ydi. Asadbek o'tirishdan avval aybdorlarga, da'vogarga sinchiklab razm soldi. Qamariddin nigohlar to'qnashuvidan qochib, yerga qaradi. Chap yuzi shilingan o'g'li esa nima voqea yuz berayotganini fahmlamayotganday karaxt o'tirardi. Da'vogarning ko'zlari olma-kesak terardi. «Bek akang kelgunicha yo u yoqli, yo bu yoqli qil bu ishni», degan topshiriqni bajarayotgan Qozi esa ajinadan qo'rqib ishtonini ho'l qilib qo'ygan bola kabi so'ppayib qolgan edi. Asadbek o'tirib «davom etsin», degan ma'noda Jamshidga qaradi. Jamshid bu unsiz buyruqni ko'z qarashi bilan Qoziga yetkazdi.

Qozi avvalgi shashtini yo'qotgan holda so'rog'ini davom etdi. Insof yuzasidan qaraganda giyohvand bolaga emas, ota — Qamariddinga rahm-shafqat qilinmog'i darkor edi. O'zi yemay yedirib, o'zi kiymay kiydirib ulg'aytirganda, endi rohatini ko'raman, deb umid qilib turganida bu ahvolga tushmog'i chindan-da achinarli edi. Beayov hukmni kutib turgan Qamaridin alhol alamdanda o'z ko'ksiga mushti emas, tosh bilan ursa-da, xumordan chiqmas edi. Aksincha, qo'shnisi Asadbek g'azabli ko'zlari bilan qarash o'rniga kira solib tepkilay boshlaganida ruh azobidan qutulardi. Bundan bir necha daqiqa avval o'g'li kaltaklanganida jonholatda himoyaga tashlanib, «bolamni urmanglar, hammasiga men aybdorman», deyishi shunchaki tildan uchgan nola emas, balki qalbning faryodi edi. Agar Asadbek ozgina barvaqt kelib uning bu nolasini eshitganida «Chindan ham aybdor mana shu ota», deb hukm chiqargan bo'lardi.

Qo'shnisining g'arib ko'rinishi Asadbekda shafqat uyg'otmadi.

Qimorni tashlagan paytlari bu yerda emas, boshqa joyda Asadbekning shunday qozixonasi bo'lardi. Najot istaganlar iymon mulki g'arib, nafs mulki to'la bu go'shaga umid bilan kelishib ba'zan armon bilan qaytardilar. Iltijoli boqishlar, erkakning ko'z yoshlari, faryodlar, qasamlar... inobatga olinmas, qabul qilinajak hukmga zarracha ta'sir etmas edi. O'shanda Asadbek barcha hukmlarini adolatli deb hisoblardi. Bir tomonning quvonishi, ikkinchi tomonning esa qozixona ostonasini hatlab tashqariga chiqishi hamon qarg'ay boshlashi esa uni mutlaqo qiziqtirmasdi.

Qoziga qarab o'tirgan Asadbek o'zining qozilik damlarini esladi.

Qozi chaynala-chaynala hukmini e'lon qildi:

— Bir haftada pul shu yerda bo'lsin. Bir haftadan bir soat o'tsa ham kuniga o'n foiz qo'shilaveradi. Pul topiladi, bratan, bola topilmaydi, — Qozi «shu hukm yetarlimi?» deganday Asadbekka qaradi. Xojasidan biron ishora bo'lmagach, da'vogarga ham, aybdorlarga ham ketishga ijozat berdi. Ular xayrlashib chiqishayotganda Asadbek da'vogarga qarab: «Sen ketmay poylab tur», dedi.

Uchovlari qolishgach, Qozi «Bek aka, nariga xonada dasturxonimiz bor edi», deb iltifot qildi. Asadbek taklifga javob bermay, unga o'qrayib qaradi-da:

— Har doim shunaqa xotinchalishlik qilasanmi? — deb jerkib berdi.

Qozi bo'ynini qisib, yerga qaradi. U yaqindagina o'zini burgut, boshqalarni chumchuq his qilib, ko'zlarni cho'qiguday bo'layotgandi. Bilmadi, kimningdir qar-g'ishi tegdimi, o'zi patlari yulingan chumchuqqa aylandi-qoldi.

— Nega bir hafta berding?

Qozi avvalgi savoldan keyin sukut saqlay olgan bo'lsa-da, bunisiga javob qaytarishga majbur edi. Faqat xojasining maqsadini fahmlamay gangidi: Asadbek bularga bir hafta kamlik qiladi, demoqchimi yo aksinchami? Javob tilga kelmay turib, savol yanada g'azabli ohangda takrorlandi.

— Bek aka, sizning hurmatingiz...

— Mening hurmatimmi? Senga bir nima devdimmi? Boshqalarga qanchadan vaqt berarding?

— Har xil... ko'pi bilan uch kun...

— Bularga nega bir hafta berding, ammingning erimidi?

— Bek aka...

— Yana mening hurmatimmi? E, o'g'il bola, eplasang qil bu ishni! Bunaqa ishda amma-xola, hurmat-purmat degan gap bo'lmaydi. Haydar akang qani? — Asadbek avvalgi hukmdorlik martabasida turib so'ragani uchun Qozi yana chaynalib qoldi:

— Bilmasam...

— Qozixonani yoplaring, demaganmidim?

— Yopganmiz... Bu... bir bo'lib qoldi-da...

— Undirganingdan keyin qanchasi senga qoladi?

— To'rttdan biri.

— Kam-ku, — dedi Jamshid gapga aralashib. — Sendan oldin milisaga borgan-ku?

— Xudo ursin, buni bilmas edim, — dedi Qozi sarosima bilan.

— Borgani aniqmi? — deb so'radi Asadbek Jamshiddan.

— Aniq. Milisadagilar «hurmatli odamning qo'sh-nisi ekan, murosa qilib qo'ya qollaring», debdi.

— Milisada bor aql senlarda yo'q, a? Chaqir anaviningni!

Qozi xojasining amrini bir zumda ado etdi. Da'vogar kirishga ulgurmay, Asadbek uni so'roqqa tutdi:

— Milisaga borganing rostmi?

— Undirish qiyin bo'lganidan keyin...

Da'vogarning gapi og'zida qoldi.

— Men sendan undirish qiyin bo'ldimi, deb so'ramadim. Milisaga bordingmi?

— Bordim.

— Bu akang pulning to'rttdan bir qismini olmoqchimidim? Milisaga borganing uchun endi teng yarmini berasan. Qoidasi shunaqa, o'g'il bola. Sen qarz qilgan odam mening eng yaqin qarindoshim, ammamning o'gay o'g'li bo'ladi. Mening hurmatim yo'qmi, qolgan yarmidan ham kechib qo'ya qolmaysanmi?

Asadbek kelmasidan avval qo'ldan ketgan pulni ikki baravar qilib qaytarib olishga yetishay deb turgan da'vogarning tili aylanmay qoldi. «Bek aka, sizning hurmatingiz oldida bu pul sariq chaqa», desa joni omon qoladi, lekin «pul jigar qonidan bo'ladi», deganlaridek, bular o'ldirishmasa-da, pulga qo'shilib jon ham chiqib ketishi hech gapmas.

— Qani, sen so'rab ko'r-chi, mening gapimga tu- shunmayapti bu nusxang, — dedi Asadbek Qoziga qa-rab.

Qozi urmadi-ku, lekin urgandan battar qilib turt-di. Da'vogar, bir qalqidi-yu, jonholatda:

— Mayli Bek aka, — deb yubordi. Hartugul joni qattiq ekan, puldan ayrilsa ham qilt etmadi. Ammo ko'z oldi bir oz qorong'ulashdi.

— Puldan osonlikcha kecharkansan, nima qilarding odamlarning boshlarini og'ritib? Sen u bolani qaerdan tanirding?

— Jiyanim bilan karatega birga qatnashgan ekan.

— Jiyaning ham qoradoridan tortib turadimi?  
— Yo`g`-e, Xudo saqlasin.  
— Shuncha pulni birdaniga bermagandirsan? Nima uchun hadeb so`rayveradi, deb o`ylamadingmi?  
— O`yladim-ku... lekin... hojatini chiqaray devdim.  
— Yana qancha bola sendan qarz olib turadi?  
— Endi... so`rab kelishadi... ustiga ozgina qo`shib beraman. Tirikchiligim hozir shu...  
— Sen laqma bolaga o`xshamayapsan. Kallang yaxshi ishlaydi, a? Ko`zingni olib qochma, menga tik qara. Qara, deypaman! Xo`sh, men laqmaga o`xshaymanmi? Yosh bolalarga qoradori uchun pul berib turishingni sezmasam haqiqiy laqma bo`lardim, shunaqami? Shu ishing uchun seni oyog`ingdan osish kerak. Bolalaringning kattasi necha yoshda?  
— Bek aka, rahm qiling...  
— Yoshini ayt.  
— O`n ikkida.  
— Ha, uch-to`rt yildan keyin ninaga o`tirsin, ke-yin bilasan qarz berish qanaqaligini.  
— Xudo saqlasin, Bek aka.  
— Saqlamaydi! — dedi Asadbek ovozini ko`tarib. — Sendaqalarni saqlashi hecham mumkinmas. Jo`na, tur-qing qursin, ko`zimga ko`rinma! Agar boshqa kasb qilmasang, o`ldim deyaver.  
Da`vogar chiqib ketgach, Asadbek o`rnidan turdi- da:  
— Haydar akangga kelganimni aytib qo`y, — deb tashqariga chiqdi. Darvozaga yetmay to`xtab, kuzatib kelayotgan Qoziga qaradi: — Bu qarorni faqat uchalamiz bilamiz. Qo`shnimga ham indamalaring, uyini sotsa sotsin. Xor bo`lsa, bo`lsin. Shunda boshqalarning ko`zi ochiladi.  
Asadbek shu hukm bilan qozixonani tark etdi.  
— Bu odam Hosilning sarqitlaridan bo`lishi kerak, bir tekshirib ko`r. Faqat pulni emas, qoradorini ham qarzga beradiganga o`xshaydi, — Asadbek shunday dedi-yu, ammo xayolidagi fikrini oxirigacha aytmadi. Uningcha agar da`vogar chindan ham Hosilboyvachchaga tegishli bo`lsa, endi Kesakpolvonning qanotidan panoh izlaydi. Balki panoh topishga ulgurgandir, bugungi hisob-kitob ana shu panoh ostida bo`lgandir. U holda bugunmi, ertagami Kesakpolvon o`rtaga tushadi...  
Itining fe`li egasiga ma`lum, deganlaridek, Asadbek bu safar ham yanglishmagan edi. Faqat muddatni belgilashda bir oz xatolikka yo`l qo`ydi: Kesakpolvon da`vogarning bekordan bekor jabr chekayotganini to`ydan keyin aytdi.

#### 4

Jalil oshnasining buyrug`iga itoat etib, Muhiddin otani olib keldi. Sibirdagi nomsiz-nishonsiz qabristonda yotgan birodarlarini tashlab kelishi ruhini parchalaganmi yo ota makonning havosiga ko`nikishi qiyin kechdimi, har nechuk u ilgarigidek dadil emasdi. Shunga qaramay, to`yning daragini eshitib, bahonai uzrini aytib o`tirmasdan otlana qoldi. Jalil uni to`g`ri Asadbeknikiga boshlab keldi. Manzura Cho`lponoy bilan Mushtariyni kelinsalomga olib chiqdi. Muhiddin ota xuddi o`z nabiralarning baxtini ko`-rayotganday to`lqinlanib, ko`zlariga yosh oldi-da, duo qildi. Keyin Manzuraga qaradi:  
— Rahmatli qaynotangiz «uyga qaytaman, o`g`illarimni uylantirib, kelinlarimning qo`llaridan bir piyoladan choy ichsam butun g`am-anduhlarim tarqab ketadi», deb ishonardi. Uning bu saodati menga nasib etdi. Oloh birodarimning umrini ham menikiga qo`shib, nabira kelinlarning salomiga alik olish baxtini ham berdi.

Muhiddin ota shunday degach, tilovat qilib, o'tganlarning pok ruhlarini esladi. To'y tadorigi bilan yurgan aka-uka kuyov to'ralar osh pishgunga qadar kelib, bobolarining qiyomatli birodari bilan quchoqlashib ko'rishdilar.

— Dunyoning ishlari ajabtovur-da, — dedi Muhiddin ota ularni duo qilgach, — rahmatli bobongiz Olmonda yuz ochgan urush zulmidan aziyat chekkan edilar. Sizlar esa unda bilim olmoqdasizlar. Sizlarga bilim berayotganlarning otalari yoki bobolari harb maydonida balki sizning bobongiz bilan to'qnashgandirlar, bir-birlarini tanimagan, bilmagan holda o'ldirmoq qasdida bo'lgandirlar, vallohi a'lam. Sizlarga ko'z tegmasin. Olloh sizlarni harb maydoniga ro'para qilmasin...

Muhiddin ota bu gapdan so'ng ularga bobolari haqida so'zlab berdi.

Palov yeyilib, dasturxonga duo qilingach, Jalil uyga qaytishga izn so'raganda Muhiddin ota «Men-chi?» deganday unga ajablanib qaradi.

— Bolalar sizga ruxsat beradiganmas, — dedi Jalil otaning maqsadini tushunib.

— Bo'tam qaytganlarida kelarman, — dedi Muhiddin ota.

— Uyda yigitlar bor-ku?

— Ularning yo'rig'i bo'lak. Xonadon xojasi bo'lmasa, qolishim durust emas. Men biron mehmonxonada tura turarman.

Bu gapdan Jalil «uyingizga taklif qilmasangiz ko'chada qolmasman», degan ma'noni uqib izza chekdi. Sir boy bermaslik uchun:

— Voy otam, voy otaginamey, — deb kuldi. — Bo'pti ketdik bo'lmasa. Sizni eng zo'r mehmonxonaga olib boray.

Muhiddin ota uning gapiga ishongan edi. Jalil uyiga boshlab borgach, o'zining soddaligidan kuldi.

Asadbek Muhiddin otaning kelib, so'ng Jalilnikiga ketib qolganini eshitib, oshnasidan achchiqlan-di. Manzura bir piyola choy ichishga da'vat etsa ham o'tirmay, Jalilnikiga qarab ketdi. Yo'lda bozor yaqinida to'xtashib, Jamshid uchta qog'ozxaltani to'ldirib chiqdi.

Asadbek Muhiddin ota bilan quchoqlashib ko'rishdi, oshnasiga esa qo'l uchini berdi. Holahvol so'ralgach, kutilmagan shoshqich safar tufayli o'zi borolmagani uchun uzr so'radi. Ana shundan keyingina Jalilga qoshlarini chimirib qaradi.

— Ha, yana nima bo'ldi, menga zahringni sochmoqchimisani, sochaver, otam sening fe'lingni biladilar, uyalma, — dedi Jalil.

— Otamni boshlab kelganing uchun rahmat. Lekin oshnajan, kulbadekkina bo'lsa ham uyimiz bor edi, yo uyimdan ilon chiqqan ekanmi?

Jalil shiringina javobini tayyorlab turgan edi. Muhiddin ota bunga yo'l qo'ymay, Asadbekka o'zining uzrini aytdi-yu, ikki oshna orasidagi masalani oppa-oston hal etdi.

Asadbek bir pog'ona pastga tushib, ginaxonligini bas qilgach, «qani, ketdik», deb o'rnidan turdi. Ana shunda zaharli so'z ignalarini sanchish navbati Jalilga tegdi.

«Ha, ukaxon, kambag'allarning uyidan ilon chiqdimi?» deb, xumordan chiqquncha gapirdi. Asadbek uning kinoyali, zil-zambil gaplarini tinglashdan o'zga chorasi yo'q edi. Muhiddin ota ikki o'rtoqning g'arazsiz istehzolarini, qochirimlarini kulimsiraganicha eshitib o'tiraverdi. Oqibat — Asadbek hali moshi ochilmagan moshxo'rdaning pishishini kutishga majbur bo'ldi.

— Otamni ko'ch-ko'ronlari bilan ko'chirib kelavermabsan. Aytaman, deb xayolimdan ko'tarilibdi, — dedi Asadbek Jalilga. So'ng Muhiddin otaga qaradi. — Ota, o'zingiz to'yboshisiz, to'ydan keyin ham siljish yo'q, nabiralaringizni duo qilib shu yerda yashaysiz.

— Xuddi otangizga o'xshagan mehribonsiz, bo'tam. Hamonki bu yoqlarga qaytdimmi, endi kindik qonim to'kilgan joyda yashay.

- Mening bir niyatim bor, yo`q desangiz, qattiq ranjiyman.
- Qani, ayting-chi?
- Mahallamizdagi masjidimiz bitib qoldi. Endi unga yaxshi bir imom kerak. Nima deding, Jalil, otam imomlik qilsalar uzukka ko`z qo`ygandek bo`ladimi?
- Jalil ma`qul ishorasini qilishga ulgurmay, Muhiddin ota inkor etdi:
- Hay, hay, bo`tam, asti-asti bo`lmaydirgan yumushni yuklamoqchisiz. Imom — olim bo`lishi kerak. Bandada bunaqangi ilm yo`q. Meni gunohga botiraman, demang.
- Jalil, sen gapirgin: ikkita kichkinagina sura bilan to`rtta hadisni dastmoya qilib yuradigan imomlar kammi? Otam ularning oldida professorlar-ku?!
- Asad to`g`ri aytyapti, — dedi Jalil o`rtog`ini quvvatlab. — Qaysi bir jumada eski shahardan sal naridagi mahallaga yo`lim tushib, masjidga kiruvdim. Sen aytgandaqa imomi bor ekan. Nima emish, odamning sochlari antennamish, narigi dunyodagi to`lqinlarni qabul qilib olarkanda, shunda odam tush ko`rarkan. Shunda yonimdagi bir namozxon «Ie, bunisi qiziq bo`ldi-ku, kal boshlarda antenna yo`q-ku, tush ko`rmaydimi?» deb mendan sekingina so`radi. Mening shaytonim qo`zib, «ularning kal boshi — parabolicheskiy antenna!» deb qo`ya qoldim. Bema`ni gapi tugarmikin, desam, Xudoning mo`jizalaridan gapira turib «o`rik nima uchun sariq, bilasizlarimi?» deb o`zi javob beryapti: nima emish, o`rikni ko`p yegan odam ichketar bo`larmish. Shuning uchun o`rik sariq rangda yaratilganmish.
- Asadbek buni latifa sifatida qabul qilib kuldi. Muhiddin ota esa «Astag`firulloh!» deb bosh chayqadi.
- Shunday shohona masjidga o`shanaqa telba-teskari odam imom bo`lib kelsinmi? — dedi Asadbek.
- Nasib qilgan odam kelib qolar.
- Hech bo`lmasa so`filik qilarsiz?
- Bu gapdan Muhiddin ota kuldi.
- Mendaqa qari odamning so`fi bo`lganini qaerda ko`rgansiz? O`zimning ovozimni o`zim zo`rg`a eshitaman, men azon chaqirsam masjidning devoridan nariga o`tmas.— Xo`p, unda qorovul bo`lasiz. Jalil, sen nima deysan?— Xudoning uyida qorovul bo`lmaydi.
- Obbo, sen ham juda tor olasan-da. Masjidning yonidan o`tadigan odamlarning hammasi Xudodan qo`rqadi, deb o`ylaysanmi? Bittasining bo`lmasa ikkinchisining ko`ziga gilam chiroyli ko`rinsa, buklaydi-yu, oladi-ketadi. Yo bo`lmasa Xudoning uyidan tabarruk deb ko`taradi. Nomi qorovul bo`lmasa ham qarab turadigan odam kerak. Haj qilinadigan payt yozdami? Ana, ke-yin Hajga ham boramiz.
- «Boramiz» deganing kimlar? — deb so`radi Jalil.
- Otam, sen, men.
- Sen? Sen Makkai mukarramaga borasanmi? Avval peshonang joynamozga tegsin.
- Bunisi ham vaqti bilan bo`ladi, oshna. Senam tug`ilishing bilan namoz o`qimagansan. Makkaga borilsa butun gunohlar yuvilarkan.
- Ol-a, — dedi Jalil qo`l siltab. — Makkai mukarrama senga hammommi, gunohlarni yuvib tashlaydigan. Sen gunohlaringdan shu yerda qutulib, u yoqqa pokiza bo`lib borishni niyat qil. Bu yil otamni yuborish kerak.
- Muhiddin otaning shunday niyati bor, safar xarajatlariga loyiq mablag`i ham yetarli edi. Shu sababli «qo`yinglar, bo`tam, qo`yinglar», deb bahsga yakun yasadi.
- Bu orada Jalilning xotini kosalarda qaynoq moshxo`rda olib kirdi.
- Ovqatlanib bo`lib ko`chaga chiqishayotganda Asadbek Jalilni chetga tortib:
- Rahmon tabibnikiga o`tmadingmi? — deb so`radi.
- Jalil shu savolni kutib turgan edi, jahl bilan uning yengini siltab tortdi-da:
- Xudo senga million boylik bergan-u, tariqcha aqldan qisgan, — dedi, — bilib qo`y,

sening kerilishingni men ko'taraman, boshqalar hazm qilisholmaydi. Laychang buyrug'ingni menga yetkazdi, Bek akaxon. Biz qulingizimiz-da, aytasizu ketaverasiz. Biz bajarib turamiz. Otamga rahmat, malol olmadilar. Tabibga o'zing borasan. U meni emas, seni davolagan, men emas, sen to'y qilyapsan. Sal otdan tushing, hov boyvachcha...

Hozir javob qaytarishning o'rni emasdi. Undan tashqari Jalil to'g'ri gapirayotgan edi.

## XX b o b

### 1

— To'yonani gaplashib olsak bo'lardi, birpas o'tirishga ham toqatingiz yo'g'-a?

Kesakpolvon to'yona masalasini allaqachon hal qilib qo'ygan: kuyov to'ralarga in'om etilajak ikkita oq «jiguli» egalariga mahtal edi. Shu sababli u xotining g'ishavasiga e'tibor bermay:

— Latta-luttalaringni o'zing bilasan. Boshimni qotirma, — dedi.

— Vabshe to'yni neudobna paytda qilishyapti. Chut keyinroq surishsa, Yaponiyadan klassniy materiallar olib kelardim.

— Borib aytgin, bir-ikki oyga surishadi. O'zi senga o'xshagan bitta ahmaq maslahatchiga muhtoj yurishibdi.

— Fu, darrov ustimdan kulishni boshlaysiz. Sizga vabshe gapirish kerakmas.

Xotini burilib chiqib ketayotganida telefon qo'ng'irog'i jiringlab, Qozi Bek akasining kelib ketganini ma'lum qildi. Bu xabarni eshitgan Kesakpolvon sapchib tushayozdi. U

Asadbekning Moskvaga o'tganini eshitib, tashvishlanib yurgandi. Mo'ljalicha sobiq xojasi ertaga ertalab kelmog'i lozim edi. Barvaqt kelishi, ustiga-ustak qozixonaga bostirib borishi uni bir oz gangitib qo'ydi. «Nega? Nega?» degan qator savollarga javob izlab boshi qotdi. Keyin aniq bir qarorga kelolmagan bo'lsa-da, Asadbeknikiga otlandi.

Manzuradan «keldilaru bir piyola choy ham ichmay chiqib ketdilar, qayoqqaligini aytmadilar», degan gapni eshitib, bir pas hovlida yurdi, so'ng kutishga ahd qilib, uyga kirdi. «Aqlini o'ziga amir, nafsu havosini esa asir qilgan kishi qanday yaxshi odamdir, nafsu havosi amir, aqli esa asir kishining holiga voy», deguvchilar naqadar haq edilar.

Kesakpolvonning hayoti shomi haqiqat chirog'i bilan yoritilsa, bilagidagi tilla soatning millari o'limi sayin ilgarilayotgani yaqqol ko'rinar qolar edi. Kesakpolvon boshi uzra suzib yurgan o'lim bulutining sovuq nafasini sezardi. Ammo shayton yoqqan chiroqdan ko'zlari shamg'alat g'ofil banda buni tan olishni istamasdi. U nazarida Asadbek taxtini zabt etgandi, biroq bu mulk hali qo'lga kirmaganini anglamasdi. Bugunmi-ertami boshqa taxt tiklanib, uni yer bilan yakson qilajagi mumkinligini xavotir bilan his etardi-yu, bu vahshat selidan omon qolishni umid qilardi.

Moskvadan bir baloni boshlab kelib g'imirlab yuribdi, deb tashvishlanayotgan

Kesakpolvon Asadbekning Muhiddin otani boshlab kelganini ko'rgach, «to'y tashvishida chiqqan ekan», deb bir oz tinchlandi. Muhiddin otaning huzurida ishdan gap ochilmadi.

Oqsoqol namozga turganida Kesakpolvon boshiga og'ir kulfat tushgan odam kabi dardli ovozda:

— Asad, maslahating kerak, — dedi.

Kesakpolvon Asadbekning ilgarigiday «Qani, dardingni ayt-chi» deyishini kutdi.

Asadbek «qozixonadagi mash-mashadan gapirar», deb o'ylab, sobiq a'yonining gap boshlashini unsiz ravishda kutdi.

— Asad, — dedi Kesakpolvon g'amli ko'rinishini o'zgartirmay. — Halimni bir ish bilan Karsnoyarga yuboruvdim, qo'lga tushib qolibdi...

— Ha, tulki, — deb o'yladi Asadbek, — ishkalingning isi chiqqanidan keyin yorilyapsanmi? Maskovdagi xo'jayinlarning telefon qilib aytishgandir-da, a? Qani, aravangni quruq olib qochaver-chi?

Kesakpolvon bir necha nafas sukut saqlab ojiz uf tortdi-da, ilova qildi:

— Nima qilishga hayronman.

— Qanaqa ish bilan yuboruvding? — deb so'radi Asadbek.

— Ozgina mayda-chuyda olib ketuvdi.

— Ko'pga tushdingmi?

— Gap tushishda emas, bola nobud bo'lmasin, deyman, har holda senga yaxshi xizmat qilib yuruvdi.

— Krasnoyarda qo'lga tushgan bo'lsa boshingni og'ritib yurma. Bu bola menga uncha yoqmas edi. Ish-pish chiqib qolsa Jamshidga buyura turaman.

— Maskovga ham o'tibsanmi?

— Xongireyni to'yga aytay deb o'tuvdim, otasi o'libdi, sen eshitmovmiding?

— Kechroq eshitdim. Borishning iloji bo'lmadi.

— Ikkalamizning nomimizdan ko'ngil so'rab qo'ydim. Xongirey sendan xursand, «ishning ko'zini biladigan» ekan deb maqtadi.

Ikki yolg'on do'stning yolg'on lutfi shu tariqa qisqa bo'ldi. To'yga doir bir-ikki masala haqida bundan-da qisqaroq tarzda gaplashib olingach, Kesakpolvon ketishga taraddudlandi. Asadbek «O'tir, qayoqqa shoshasan», demadi. Darvozaxonaga qadar kuzatib borgach Kesakpolvon «Bu yog'iga o'zim yo'lni topib ketaman», deganday xayrlashdi. So'ng bo'shab yotgan boloxonaga qarab bir entikib qo'ydi.

... Hamma ishlari sip-silliq ketayotuvdi. Boloxonadagi yigitlar qulluq qilib turishardi. Xongirey degan shaytonvachcha qayoqdan paydo bo'ldi, qanday qilib suqulib kirdi?.. Endi bundan buyog'i xuftonmi?..

Kesakpolvon Xongireyni «shaytonvachcha» dedi-yu, ammo uning shaytoni bilan o'zining yo'l ko'rsatuvchi shaytoni aka-uka ekanini o'ylab ko'rmadi.

Ko'chada mashina oynaklarini artayotgan Jamshid Kesakpolvonni ko'rishi bilan ishini tashlab, peshvoz chiqib ko'rishdi.

— Ha, erkak, akaxon keldilar, deb qo'yishga ham yaramay qodingmi?

— O'zim ham yarim soat oldin bilib qoldim, — deb yolg'onladi Jamshid.

— Bu yerdagi ishingni tugatib, qozixonaga o't, gap bor.

Jamshid mashinani artib ulgurmay Abdusamad chiqib:

— Ketaverarkansiz, ertalab azonda kelsangiz, tabibnikiga borilarkan, — dedi.

Jamshid yangi xojasining izidan ketma-ket yetib borishni istamay, kasalxonaga o'tib, otasini ziyorat qildi. Otasi unga nimadir deb g'o'dirandi. Uning maqsadini o'gay onasi tushuntirdi:

— Uyga ketgilari kelyapti. O'tirishga ham madorlari qolmadi.

— Do'xtirlar yaxshi qarashmayaptimi?

— Boqishlari yomonmas, lekin uyning havosi boshqachada.

— Ertaga bir joyga borib kelishim kerak, indinga o'zim kelib, olib chiqaman.

Jamshid mashinaga o'tirdi-yu, kasalxonaning panjara devori ortida ma'yus qarab turgan o'gay onasiga ko'zi tushib, yuragi ezildi. Otasi bu xotinga uylangan kezlari ikkovini la'natlab yurganini esladi. Uning nazarida otasi uylanib, onasining ruhiga ulug' xiyonat qilgan edi. Otasi ko'z ochib ko'rgan ahli ayolining xotirasi oldida o'zini gunohkor deb bilardi, biroq dardini ichiga yutardi. O'gay onasi esa yigit yoshiga yetib, qamoqxonaning sho'r sho'rvasini totib ko'rgan o'gay o'g'li huzurida o'zini noqulay sezardi. Shu sababli er-

xotin Jamshidning bevosh yurishlaridan norozi bo'lishsa-da, tanbeh berishmadi, to'g'ri yo'lga tortishga urinishmadi. Ko'ngli yarimta o'g'ilning ko'ngliga qarashga majbur bo'lishdi. Jamshidni o'z holiga qo'yib berishlariga yana bir sabab bor edi: ular «Qamalib chiqqan yigit tamoman buzilib bo'lgan, unga nasihat kor qilmaydi», deb o'ylashardi. Kunlarni, haftalar, oylar, yillarni bu er-xotin bir-biriga suyangan holda o'tkazishdi. Xongireyning huzuridan qaytganidan so'ng Jamshidda yaxshilik tomonga o'zgarish sezildi. U otasi va o'gay onasining yolg'izlikdagi hayotini his qildi. Ayniqsa to'shakka mixlangan bemorga o'gay onasining mehribonligi uni lol qoldirdi. Otasi bu xotinga yoshlik chog'ida beqiyos muhabbati tufayli uylanib, uzoq baxtiyor yillarni birgalikda o'tkazsa ham bu vafoga ajablanmasa ham bo'lardi. O'lgan xotinning o'rniga xotin, bevosh bolaga o'gay ona bo'lib kirib kelgan edi bu xonadonga. Sog'lom er bilan qancha yashadi, necha yildan beri kasal boqadi? «Tuzalmas kasal erni boshimga uramanmi?» deb tashlab ketishi mumkinmidi? Axir o'rtada farzand yo'q, ehtirosli ahdu-paymon, qolaversa, mol-mulk yo'q-ku? Uni nima ushlab turibdi?

Jamshid bu savolga aniq javob bera olmasdi. Chunki u hech qanaqa o'lchovi yo'q mehr-muhabbat, odamiylik, vafo degan fazilatning mohiyatini anglay olmasdi. Keyingi paytlarda o'gay onasini kuzata turib «oyim tirik bo'lsalar ham adamga shunday qarardilar», degan xulosaga kelib, o'gay onasiga munosabati o'zgardi.

Hozir kuzatib chiqqan o'gay onasining dardli boqishiga parvo qilmay keta olmadi. «Ko'ngillari bir nimani sezdimi?» degan o'y xayoliga kelib yuragi «shuv» etdi. «Nega ikki kundan keyin olib ketishim kerak? Hozir-chi?» degan xayolda mashinadan tushdi.

— Hozir keta qolamiz, — dedi Jamshid, — men do'xtirga uchrashib chiqaman, siz tayyorlanib turing.

Otasi bir hafta uyda bo'lsa, yigirma-o'ttiz kun kasalxonada yotardi. Uni hozir olib ketishga chog'langan Jamshid «Bo'ldi, endi bu yoqqa olib kelish yo'q, do'xtirlar uyga borib boqishadi», deb qaror qildi.

## 2

Jamshid otasini uyga qo'yib, ko'chaga chiqayotganida o'gay onasi uni ostonada to'xtatdi: — Jamshidjon, — dedi u siniq ovozda, — Xudodan umidimiz ko'p-ku, lekin... uzoq qolib ketmang.

Jamshid tushundi. «Xo'p» demoqchi edi, tomog'iga nimadir tiqilib bosh irg'ab qo'ya qoldi. Qozixonaga borishga oyog'i tortmasa ham, ortiqcha gap ko'paymasin, degan fikrda amrni bajardi. U qozixonaga kirganda Kesakpolvon yonboshlab olib nok yeyayotgan edi. Qozining yaqinida turgan konyak shishasining hali yarimlamaganiga qaraganda yangi xojaning maishatga ko'ngli yo'qroq edi. Jamshid kirgach, Kesakpolvon «Kel» ham demadi, «Buncha uzoq qolib ketding?» deb gina ham qilmadi. Jamshid o'tirgach, Qoziga qarab:

— Oshnangga baquvvat qilib quy. Hozir u to'yboshi, charchagandir, — dedi.

Jamshid bu gap zamirida pichingni sezmaganday o'ng kaftini ko'kragiga qo'yib, qulluq qildi. Qozi kon-yak quyib uzatgan piyolani qo'lga olib «yolg'iz o'zim ichaveraymi?» degan savol nazari bilan xojasiga qaradi. Kesakpolvon «birga ich» degan ma'noda Qoziga ishora qilgach, ikki og'ayni akaxonlarining salomatliklari uchun bo'shatdilar. Kesakpolvon nokni yeb bo'lib, labini sochiq bilan artdi.

— Sen bola, u yoqlarga borib kelganingdan ke- yin ayniding. Ayniganingni o'zing ham sezasanmi? — dedi u.

Jamshid uning o'tkir nigohiga dosh berolmay yerga qaradi.



— Gapirmaysanmi? — dedi Kesakpolvon zarda bilan.

— Agar xato qilgan bo'lsam... ayting. Xatolarimni aytib-aytib tarbiya qilgansiz.

— Seni Mahmud tarbiyalagan. Mahmud akang kindigini o'zi kesganlardan edi, hamma aql o'shanda, ba'zan aqli toshib ham ketardi. Senam akaxoningga o'xshagansan. Seni, odam bo'larmikin, deb o'limdan olib qolgan edim. Sen nimangga kerilasan?

Jamshid bosh egib, indamay o'tiraverdi. Kesakpolvon alamdand chiqish uchun so'kishni boshlaganda ham boshini ko'tarmadi. Faqat onasining nomi haqoratga qo'shilganida bir seskandi-yu, bu jikkak odamchani yanchib tashlagisi keldi. So'kishlar poyoniga yetgach, tuhmat saroyining darvozalari ochildi.

— Men senga bir ish buyuruvdim, «ha» ham demading, «yo'q» ham demading, a? Yo esingdan chiqdimi?

Bu savoldan so'ng Jamshid bosh ko'tardi:

— Qaysi ish edi?

— Halimni tekshirishing kerakmidi?

— Ha.

— Xo'sh?

— Hali tagiga yetolmadim. Gaplaridan milisaga o'xshaydi, lekin milisaning idorasidagi ro'yxatda bunaqa nomdagi odam yo'q. Agar milisa bo'lganida ham bizning ichimizda boshqacha nomda yurgandir?

— Men senga nima deb buyuruvdim?

— Milisaning odami bo'lsa o'ldir, devdingiz.

— O'ldirdingmi?

— Yo'q.

— Unda qayoqqa g'oyib bo'ldi?

Jamshid Qoziga qarashdan o'zini arang tutib qoldi. Qozi Jamshidning Halimjondan gap ochib surishtirganini xojasiga yetkazgani aniq. Agar hozir unga yalt etib qarasa, fosh bo'lib qolishi mumkin edi. Shuning uchun hech narsa bilmaganday:

— Uch-to'rt kundan beri ko'rinmay qoldi. Uyidan xabar olaymi? — deb so'radi.

— Sen uni yo cho'chitib qo'ygansan, yo qochirib yuborgansan. Axir ikkovingning ustozing bir-ku, a?

— U ko'rinmay qolganiga...

— Xo'sh, gapiraver, ichingda qolmasin.

— Sizmi yo Bek akammi ish buyurgandirsizlar, deb o'ylovdim.

— Men unga hecham ish buyurmaganman. U milisaning odami edi, ko'nnglim sezib turardi. Sen uni qaerdan bo'lsa ham topasan.

— Xo'p...

Jamshid shunday deb qutulmoqchi edi, bo'lmadi. Kesakpolvon navbatdagi arining uyasini kavhladi:

— Bek akangni nima uchun bu yerga boshlab kelding? Bu sen aralashadigan ishmidi?

— Men to'g'ri uyga olib bordim. Bolaning onasi kennayimga arz-dod qilib chiqqan ekan. Kennayim Bek akamga aytdilar. Keyin Bek akam bir piyola choy ham ichmay bu yoqqa yurishni buyurdilar.

Kesakpolvon Manzuraning shunga o'xshagan gapini eshitgani uchun bu yolg'onga ishondi. Lekin bo'sh kelmadi:

— Pul bergan xunasaning milisaga borganini nega aytding?

— Cho'tal ko'proq bo'lsin, devdim...

— O'sha pulning hammasini bo'yingga ilvorsam nima deysan?

— Xatoyimga yarasha jazolang, mayli.

— Sen shunaqa mo'mintoyliging bilan hammani yengib kelgansan. Bu qiliq menga

o'tmaydi, bilib qo'y. Men seni odam deb yonimga oluvdim. Hammani ham yaqinimga yo'latavermayman, bilasan a? Hozir biz uchramiz. Uchalamiz bir zo'r ish qilishimiz kerak. Bek akang birinchi galda men uchun aziz, keyin senlar uchun qadrli. Agar uning sochidan bir tola soch to'kilsa, mening yuragimda bitta tomir uziladi. Sochi oqarib ketganini ko'rganimda men o'lib qolay dedim. Gapimga tushunyapsanmi? Bek akang bilan oramizda xusumat yo'q. Faqat u hozir Xongireyga o'chakishib, yanglishyapti. Biz uni ehtiyot qilib saqlab qolishimiz kerak. Adashgan yo'lidan qaytarmasak hammamizga yomon bo'ladi. Shuning uchun ham men uning bosayotgan qadamini bilib turishim kerak. Bek senga ishonadi.

— Tushundim, — dedi Jamshid.

Jamshid shunday dedi-yu, ammo avval ham aytilgan bu gaplarning nima uchun qaytarilayotganiga tushun-madi.

— Menga qara, sen bunday sanqib yurma, Uylan, uy-joy qil.

— Men bopi uchrab qolsa, o'zingiz bosh bo'lasiz.

— Endi halol gapni ayt: Zaynabni yoqtirarmiding? Ha, yoqtirarding. Shunga uylana qolmaysanmi?

— Zaynabning eri bor.

— Eri o'lay-o'lay deb yotibdi. Xohlasang ertalabgacha o'lib qolishi ham mumkin.

— Yo'q, o'lmasin, biz Zaynab bilan aka-singil tutinganmiz.

— Zaynabning ikkita akasi bor, seni boshiga uradimi? Sen bola, mahmadanalik qilmagin-u, taklifimni o'ylab ko'r?

### 3

Kesakpolvon Elchinning taqdirini hal qilib, Zaynab bilan Jamshidga o'zicha nikoh to'nini bichayotganida Asadbekning uyida o'zgacha masala yechilayotgan edi.

Xufton namozini o'qib bo'lgan Muhiddin otaning ko'zlari uyquga moyilligini sezgan Asadbek u bilan uzoq suhbatlashmay, yotoqqa boshladi. Keyin yelkasiga to'nni tashlab, hovliga chiqdi. Ko'zi beixtiyor boloxonaga qadaldi. Kimsasiz boloxona so'nayotgan shon-shuhratining ramzi sifatida ko'ziga xunuk ko'rindi. Asta o'sha tomon yurdi. Tepaga ko'tarildi. Chiroqni yoqdi. To'rtta karovot, o'rtadagi xontaxta ustida yangi dasturxon. Atrofida toza ko'rpacha. Avval bir chiqqanida dimog'iga sigaret tutuni hidi urilib, ko'ngli aynigandi. Hozir bunday hid yo'q... Yengil oyoq tovushini eshitib, o'girildi. Xavotirlanib, erining izidan chiqqan Manzura unsiz ravishda «Adasi, nima bo'ldi, nega bu yoqqa chiqdingiz?» deb so'radi. Bu savolga Asadbek ham unsiz ravishda «Sen nega orqamdan yuribsan?» deb savol bilan javob qildi. Keyin «Yasatib qo'yibsanmi?» deb so'radi.

— To'yda yotib qoladigan mehmonlarga tayyorlab qo'ydim. Ko'rpa-yostiqlargacha almashtirdim, — dedi Manzura.

Uzoqdan keluvchi birodarlar uchun markazdagi mehmonxonadan joy hozirlab qo'yilgan, boloxonaga muhtojlik bo'lmasa-da, Asadbek xotining ko'nglini ko'tarish maqsadida:

— Yaxshi qilibsan, — dedi.

— Adasi, qizingiz so'rashga uyalyapti. Kuyovingizni to'yga olib chiqsakmikin?

Asadbek buni ham o'ylagan, Elchinning to'yda yarimjon holatida o'tirishini istamayotgan edi. Bu xohishini xotiniga ham, qiziga ham bildirgisi kelmay:

— Do'xtirdan so'rash kerak, — dedi.

— Do'xtiri bilan maslahatlashdik. Aravachaga o'tqazib olib yurish mumkinmish.

— Do'xtar bilan gaplashdingmi? Ishni pishirib qo'yib, endi mendan so'raysanmi? Menga desa, aravachada emas, boshingga o'tqazib olib chiq. To'rga o'tqazginda «shunaqa

ajoyib kuyovim bor», deb maqtan.

Manzura aytgan gapidan afsuslanib, pastki labini tishladi-da, erining yelkasini silagan bo'ldi:

— Adasi, darrov jahlingiz chiqmasin. Zaynabning ham ko'ngliga qaraylik-da.

— Zaynabning ko'ngliga?.. — Asadbek shunday de-di-yu, jimib qoldi. Bu sukutdan foydalangan Manzura Zaynabning kunda ikki, ba'zan uch marta kasalxonaga borayotganini, Elchinning jiyanlari kelgani, ularga javoban «U mening erim, uni o'zim olib chiqaman», deganlarini aytib berdi. Bu gaplarni eshitgan Asadbek «Erini yomon ko'rardi-ku? Endi Jamshiddan ko'ngli sovub, unga muhabbatli bo'ldimi?» deb o'yladi.

— Zaynab bu yerda ancha siqilib qoldi, — dedi Manzura. — Kennayilari bilan akalari kulishib turishsa uning ko'zlarida yosh miltillaydi. Kuyovingizni uyiga olib chiqsak...

— To'ydan keyin, — dedi Asadbek uning gapini uzib. — Hozir olib chiqsang, hamma to'y harakati bilan ovora bo'lib, qarovsiz qoladi.

Onasi bilan suhbatlashganda Zaynab «Elchin akam chiqmasalar men to'y bazmida nima qilaman? Beva xotinga o'xshab shumshab o'tiramanmi?» degan edi. Manzura eriga bu gapni aytay dedi-yu, jur'at etolmadi.

Ikkovlari birgalashib pastga tushib, uyga kirdilar. O'zining xonasidagi derazadan hovlidagi ota-onasiga qarab turgan Zaynab xo'rsinib qo'ydi.

Zaynab nimani istasa onasi darrov rozi bo'lar, otasidan esa ijozat tegishi mushkul vazifa edi. Erining to'y bazmiga olib borilishi boshqalar uchun arzimas masala bo'lsa-da, Zaynab uchun g'oyat muhim edi. U to'yda xizmat qilib yurgan Jamshid bilan ro'para kelishdan yoki ko'zlari to'qnashishdan qo'rqardi. Yarimjon erinnig yonida o'tirishi uni shayton vasvasasidan qutqarardi. Jamshid o'ldiga chiqarilganida Zaynab bir o'lib, bir tiriluvdi. Yoshlik sururidan esdalik bo'lmish bu yigit hovlida har paydo bo'lganida u yana o'lib, yana tirilaverdi. Ruhi qayta-qayta azoblanmog'i uchun ham tirilaverdi. Asadbek xotining gaplarini eshitib «Jamshiddan ko'ngli qolibdi», deb o'ylab yanglishgan edi. Yoshlikka xos chin sevgidan qutulish mumkin emasligini u bilmasdi. Chunki Asadbek bu kabi sururli damlarni boshidan kechirmagan edi. Dunyoda «muhabbat» deb atalmish ilohiy tuyg'u borligini anglash yoshida fikru zikri qimor bilan band, uning muhabbati ham, sadoqati ham o'shanda qimor edi.

Yaqindagina xayolan Kumushbibiga aylanib, o'z Otabegi bilan baxtiyor bo'luvchi qiz baxtini sovurib, juvonlikning zimiston olamiga o'tib qolganday edi. Bu olamda saodatdan umidvor qiluvchi bitta uchqunni ham ko'rmas edi. U endi Kumushbibi emas, ertakdagi tosh malikaga aylanib qolishni istardi. O'n yilmi, yuz yilmi o'tgach, asliga qaytsa, atrofidagi g'am-anduhni ko'rmasa... U ba'zan bir yoriltoshga uchramoqni orzu qiladi. Suygani bilan o'sha toshga borsa-da aytsa:

«Yorilgin tosh, yorilginey,  
olgin bizni o'z bag'ringga...»

So'ng toshga aylanib yashasalar. O'n yilmi, yuz yilmi...

Shafqatsiz dunyo, alamli dunyo bu orzularga yo'l berarmidi?

O'n yilmi, yuz yildanmi keyin bu dunyo shafqatliroq, baxtga mo'lroq bo'lib qolarmidi...

## XXI b o b

### 1

Manzuraning maslahati bilan Abdulhamid ham tabibnikiga boradigan bo'ldi. Asadbek

«uzoq yoʻlda urinib qolarmikinlar», degan hijolat bilan Muhiddin otani mujmalroq ohangda taklif etgan edi, u «birodarimni yoʻqlab kelay, bu yerda oʻtirib nima qildim?» deb otlandi.

Manzilga yetib borishganda Abdurahmon tabib uyda yoʻq edi. Peshindan keyin osmonda tosha boshlagan bulut toʻdalari birlashib, atrofni goʻyo zulumot qopladi. Soʻng izgʻirinli kuchli shamol turib daraxt shoxlarida qolgan-qutgan barglarni tortqilab uzmoq istadi. Ke-yin yomgʻir savalay ketdi. Nihoyat, bahor fasli ekanini unutgan tabiat xatolikka yoʻl qoʻydi: laylakqor yogʻa boshladi.

Egasiz uyga kirishni beodoblik sanab, barchalari mashinada oʻtirdilar. Qor yogʻishi avjga chiqqan mahalda muyulishda Abdurahmon tabib koʻrindi. U darvozasi qarshisidagi mashinani koʻrib, ajablandi. Mashina eshigi ochilib Muhiddin ota koʻringach, sovuqda qizargan yuzlarini xursandchilik yeli silab oʻtdi.

Ichkari kirib oʻtirishgach, xayrli duodan soʻng Abdurahmon tabib oʻrnidan turib, qoʻl qovushtirganicha «Xush kelibsizlar» dedi. Unga javoban avval Muhiddin ota, soʻng boshqalari ham turib «xushvaqt boʻling», dedilar.

— Birodar, siz meni ancha hijolatga qoʻydingiz, — dedi Abdurahmon tabib, barcha oʻtirib, joylashib olgach. — Eshigim ochiq boʻla turib koʻchada kutganingiz kamina uchun isnod.

— Taqsir, dovrugʻi yetti iqlimga ketgan sizdek moʻtabar zotni ozgina kutsak kutibmiz-da, — dedi Muhiddin ota hilmlik bilan.

— Hay, hay, birodarim, bunday gaplarni sira ayt-mang. Bandaning maqtovlardan yiroq ekanini avval kelganingizda sezmabmidingiz?

— Sezish nima ekan, koʻrib-bilganman. Sizni oʻylasam hukamolardan meros bir rivoyat yodimga tushaveradi. Buni siz bilarsiz, oʻrni kelib qoldi, bu inilarimizga ibrat sifatida aytayin.

Abdurahmon tabibning nabirasi dasturxon, katta patnisda meva-cheva koʻtarib kirgani uchun bir oz sukut saqlandi. Dasturxon yozilib, patnis joyiga qoʻyilgach, Muhiddin ota gap boshladi:

— Amal qilguvchi amalida qoʻy boquvchidan oʻrnak oluvi lozim ekan. Axir qoʻy boquvchi, agar namoz oʻqisa, qoʻylaridan namoziga maqtov olishni oʻylamaydi-ku? Xuddi shunga oʻxshab, amal qiluvchi insonlar unga qarashlarini koʻngilga keltirmasliklari lozim.

Insonlar oldida va yolgʻiz qolganida ham Olloh taolo uchun bir xil tarzda amal qiladi. Insonlarning maqtovini talab etmaydi. Taqsirimda men shunday fazilat koʻrib, oʻrgandim. Shoyadkim, Yaratgan tangrim moʻminlar qatorida bizlarni ham jannat ahlidan qilsa...

— Olloh Adn jannatini yaratib «Gapir» deb amr qilganida jannat tilga kirib uch marta «Moʻminlar najot topadi», deb soʻng esa «Men baxilga, munofiqqa, riyokorga haromman», degan ekan. Odam farzandi shunga koʻra yashasa, insha Olloh, najot topar. Men Yaratgandan ixlosimga quvvat soʻrayman. «Ixlos nima?» deb savol berilganda donishmand «Odamlar seni maqtashlarini sevmasligingdir» deb javob bergan ekan.

— Kun oʻtgan sayin Ollohning rahmatiga borish onlarini koʻproq oʻylarkansan kishi. Sahobalar Rasulullohdan «Biz hammamiz oʻlimni nega yomon koʻramiz?» deb soʻrashganida Nabi alayhissalom debdilarki: «Bu yomon koʻrishlik emasdir. Agar moʻmin kishi oʻlim toʻshagida yotgan boʻlsa, Olloh taolo uning huzuriga yaxshilardan boʻlib qaytishligi haqida oʻsha bandaga xushxabar keladi va unga Olloh diydoridan yaxshiroq biror narsa boʻlmaydi va Olloh ham uni uchratmoqni yaxshi koʻradi. Agar fojir yoki kofir oʻlim toʻshagida yotgan boʻlsa, Olloh taolo uchun yomonlardan boʻlganligi, yomonlardan hisoblanganligi aytilib, qoʻrqitib, ogohlantirish keladi va u Olloh bilan boʻladigan uchrashuvni yomon koʻradi. Olloh ham u bilan koʻrishmoqlikni xohlamaydi...»

— Muhiddin ota shunday deb bir oz tin oldida, keyin umidli ohangda fikriga yakun yasa-

di: — Oллоh shunaqalardan qilmasin bizlarni...

Nabira kirib choynak-piyolani bobosining yoniga qo'ydi. Abdurahmon tabib choyni qaytarish uchun qo'lga piyola olganida Asadbek «Choyni sen quy», degan ma'noda o'g'lga ishora qildi. Abdurahmon tabib «menga bera qoling» degan yigitning ra'yini qaytarmadi. Choy quyilib, bir ho'plamdan ichilgach, Asadbek muddaoga o'tay deganida tabib o'ziga xos bosiq ohangda so'z boshlab, Muhiddin otaning fikrini davom ettirdi: — Meni bir narsa ajablantiradi: begunoh ham — gunohkor ham, Xudoga, uning jannati mavjudligiga ishonuvchi ham — ishonmaydigan ham o'limidan so'ng jannatdan joy tegishini istaydi. Ba'zan odamlarga jannatga yetishish juda qiyinga o'xshaydi. Meningcha, buning mashaqqati yo'q, odam bolasi nafsini tiysa, boshqalarga yomonlik qilmay, yaxshilikni kasb etsa kifoya. Uning bu dunyosi ham jannat kabi rohatli bo'la-di. Zulmni o'ziga harom qila olmasa, — Abdurahmon tabib shunday deb Asadbek bilan Jamshidga o'g'rincha qarab oldi, — uning jahannami shu dunyodayoq boshlanadi. Men dadam rahmatlidan eshitgandim. Rasululloh sallallohu alayhi vasallamdan muhaddislar shunday rivoyat qilishgan ekan: «Qiyomat kuni bir toifa odamlarga jannatga borishlik buyuriladi. Ular jannatga yaqinlashib, hidini hidlab, jannatdagi qasrlarni va Oллоh taolo jannat ahliga tayyorlab ko'rgan narsalarni ko'rganlaridan so'ng: «Ularni olib ketinglar, ularga jannatda nasiba yo'qdir!» deb nido qilinadi. Ular shunday hasrat-nadomat bilan qaytadilarki, ulardan oldin ham, keyin ham, hech kim bunchalik hasrat-nadomat qilmagandir. Ular aytadilar: «Ya Oллоh! Do'stlaringga tayyorlab qo'ygan ne'matlaringni ko'rsatmay turib bizlarni do'zaxga kirgizganingda bunchalik hasrat-nadomat qilmasdik». Shunda Oллоh taolo: «Men bunday qilmoqlikni xohladim, chunki sizlar katta-katta gunohlar bilan insonlardan yashirincha Menga qarshi chiqdingiz, insonlar ko'zida esa pokiza, viqorli ko'rinar edingiz. Qalblaringizda yo'q narsani riyo qilar edingiz. Odamlardan qo'rqar edingiz, mendan qo'rqmas edingiz, insonlarni ulug'lar edingiz. Meni ulug'lamasdingiz. Insonlar uchun ba'zi narsalardan qaytar edingiz. Men uchun qaytmas edingiz. Endi bugun savobimni ayirganim barobarida qattiq azobga mahkum etgayman...» deydi».

Nabira kosalarda qaynoq sho'rva ko'tarib kirgach, bir-birini sog'ingan ikki qariyaning amri ma'rufi poyoniga yetdi. Asadbek ularning gaplariga quloq tutib «Menga tekkizib aytishyapti», deb o'yladi. Holbuki, ularning bunday niyatlari yo'q, gap shu mavzuga burilgani uchun beixtiyor tarzda suhbatlashishayotgan edi. Shunga qaramay, Asadbekning gumonida jon bor, u ham jannat harom qilingan bandalardan edi... Taomdan so'ng Asadbek to'yga aytib kelganini bildirdi. Abdurahmon tabib yoshlar haqiga duo qilgach:

— Bir ko'rib qo'yarmikinsiz, deb kuyov bolani ham boshlab keluvdim, sal tobi kelishmayroq turibdi, — dedi.

Tabib Abdulhamidning bilak tomirini ushlab, ko'zlariga tikildi, keyin kaftidagi chiziqlarni silab-silab nimanidir o'qiganday bo'ldi-da:

— Men bir dori tayyorlab beraman, — deb gapni qisqa qildi.

Asadbek «Nima bo'libdi, qanaqa kasal?» deb so'rashdan o'zini tiyib:

— Tilla tangani olib kelganman, — dedi.

— Bu muolajaga tilla tanga lozim emas, — Abdurahmon tabib Asadbekning o'zini ham ko'rib qo'yib: — Siz dorilarni yarimlatmay, ichishdan to'xtabsiz, shundaymi? — deb so'radi.

— Ish bilan bo'lib... — Asadbek o'zini oqlamoqchi bo'ldi.

— Tabibning aytganini qilmaydigan odam tabibga uchramagani ma'qul. Siz o'zingizni yaxshi his qilib, batamom tuzalдим, degan xulosaga kelgansiz. Kasalning ildizi qurimagan, payt poylab yotibdi. Bugun bo'lmasa ertaga siquvga olishi mumkin.

Namoz vaqti bo'lgani uchun ikki qariya qo'shni xonaga chiqishdi. Abdurahmon tabib ibodatdan so'ng joynamozdan jilishga shoshilmay, Muhiddin otaga qaradi:

— Yodingizda bo'lsa, xuddi shu yerda o'tirib, inimizdagi ruh xastaligining chekinmog'iga umid qilib edik. Umidimiz sarob bo'lib chiqibdi. Inimiz zulmni avvalgidan kuchliroq holda kasb qilibdilar. Ojiz iymonlari yanada ojizlashibdi, — dedi.

Muhiddin ota darrov javob bermadi. To'palonchi farzandini deb muallimdan tanbeh eshitgan ota misol boshini quyi egdi.

— Zamon bularning tilini ham, dilini ham tosh qilib qo'ygan... Na iloj... har holda Ollohdan umidimiz bor...

— Ollah noumid qilmasin. Men kuyov bolamizga dori tayyorlab beraman. Ammo... otasi bilmasin, sizga ma'lum bo'lsa kifoya, yigitmizdagi xastalik ne ekanini aniq bilolmadim. Menga noma'lum bir xastalikdan aqlim lol. Nimadir uning yuragini yalab ado qilay debdi. Ishqilib yanglishayotgan bo'lay, folbinlikdan Olloh asrasin, yigitimiz ko'pga borolmaydigan ko'rinadir...

Bu xunuk xabar Muhiddin otaning a'zoyi badanini muzlatib yubordi. Tili gapga aylanmay, tabibga qarab qoldi. «Taqsir, adashmayapsizmi? Ayting, jon taqsirim, ayting, adashdim, deng. Bolaning umri uzoq bo'ladi, deng...» Muhiddin otaning iltijo bilan boqayotgan ko'zlarida shunday ma'nolar zohir edi.

Ular mehmonxonaga qaytishganda Muhiddin ota Asadbekka ham, Abdulhamidga ham qaray olmadi. Uning ruhidagi tushkunlikni Asadbek sezdi. Tabib dori tayyorlash uchun chiqqanida «Ota, nima bo'ldi, tobingiz qochdimi?» deb so'radi. Muhiddan ota unga javoban «Sal toliqibman, bo'tam», deb qo'ya qoldi.

Abdurahmon tabib tunda yo'l yurmoqlikning xosiyatsiz ekanini, dovonni qalin qor bosganini ro'kach qilib, ularning qaytishlariga izn bermadi. O'rin solinib, yotishga hozirlanganlarida Abdurahmon tabib Asadbekni qo'shni xonaga chorladi. Muhiddin ota «bolaning ahvolini yashirmaslikka qaror qildimi?» deb o'ylab Asadbekni xavotir nazari bilan kuzatdi. Uning tashvishi o'rinsiz edi. Tabib Asadbekni mutlaqo bosh-qa bir sabab bilan chorlagandi.

— Dev akaning hujrasi esingizdami? — deb gap boshladi tabib. — Hali o'sha yerdan kelayotuvdim. Dev akaning vafotidan keyin qishloqdagilar hujrani buzib tashlaylik, deyishuvdi. Men go'ri sovumay turib buzmaylik, devdim. Har bir joyning bir yaxshisi, bir yomoni bo'ladi. Bizdan bir yomon chiqib, kallakesarlikni kasb qilib olgan edi. Qaysi bir yili qamalib ketuvdi, otuvga hukm bo'ldi, deb ham eshituvdik. Otilmabdi, tirik ekan. Bir hafta ilgari qishloqda ko'rinib qoldi. Kecha o'ziga o'xshagan yana uch-to'rtasi paydo bo'lib, Dev akaning hujrasini makon tutishibdi. Ko'nglim yomonlikni sezib, o'sha yerga bordim. Nashani chekib, aroqni ichib yotishibdi. Qamoqdan qochishgan desam, qo'rqib, berkinish harakatlari yo'q.

Abdurahmon tabibning havotirli gaplarini eshitib, Asadbek Zelixonni esladi. O'tgan yili Farg'onada fojialar boshlanmay turib u ham tabib kabi havotirli gumoni bilan unga murojaat etgan edi. Bu yil yana qaytariladiganmi bu fojia? Buning tepasida kim turibdi? Maqsadi nima? Asadbek jon talvasasidagi jamiyatning siyosatini tahlil qilmoqqa, makr-hiylalarini kashf etmoqqa ojiz edi. Shu sababli Abdurahmon tabibga hamdard bo'la olmadi. Tayinli gap ham aytoilmadi.

## 2

Abdusamad, so'ng Abdulhamid dunyoga kelishganida Manzuraning, Asadbekning qalblarida orzu-umidlar ham tug'ilgan edi. Bu olamda hisobsiz, o'lchovsiz narsalar ko'p.

Shulardan biri — ota-onaning farzandi baxti-saodatiga xos orzulardir. Barcha ota-onalar kabi Manzura bilan Asadbek go'daklarini qanday avaylab voyaga yetkazsalar, orzu-umidlarini ham yillar mobaynida shunday ehtiyot qildilar Ularning yetisholmagan orzulariga ko'ra ushalganlari ko'proq edi. Uzoq vaqt kutilgan nikoh bazmiga yetishganlari shular sirasidan bo'ldi.

Bir kun oldin Sulikoning bobosi va'da qilgan sovg'a yetib keldi. Zulukdek ikki ot ko'rganlarining hushini olayozdi. Hatto otlarni ko'rganda ko'z oldiga faqat qazi keluvchi Kesakpolvon ham bu go'zallik oldida lol qoldi. Mardonavor gurji yigitlarining ust-boshi ham ajabtovur edi. Mamatbey Xongireyning sov-g'asi — qiniga oltin suvi yuritilib yoqutlar bilan bezatilgan ikki xanjarni tortiq qildi. Ertalab esa Asadbekning uyi qarshisidagi yo'l chetida Kesakpolvonning sovg'asi — ikkita oppoq «Jiguli» paydo bo'ldi. Xursandchilik bilan o'tishi lozim bo'lgan kun bir oz tashvish bilan boshlandi. Nonushtada Abdulhamid ko'rinmagach, Manzura uning yotog'iga kirib chiqdi-da, o'g'lining yana isitmalayotganini eriga ma'lum qildi. Manzuraning «do'xtir chaqiraylik» degan gapiga Asadbek «shoshilmay tur», deb javob qildi. U «Tabibning dorisi kasalni bir qo'zitib oladi, isitma shu dorining em bo'layotganidan nishonadir, bugun tabibning o'zi kelib qolar», deb o'yladi. Peshinga qadar ko'zlari yo'lda bo'ldi. Ikki marta Muhiddin otaga «birodaringizdan darak yo'g'a?» deb qo'ydi.

Peshinda darvozadan ancha narida eskigina «Moskvich» to'xtab, undan oxori to'kilgan kiyimli bir kishi tushib, orqa o'rindiqdan kattagina tugun oldi. Yumush bilan ko'chaga chiqqan Jamshid mashinaning tartib raqamiga qarab «Abdurahmon tabib kelibdi», deb o'ylab, iziga qaytdi-yu, bu yangilikdan xojasini ogoh qildi. Asadbek shoshilib ko'chaga chiqqanida tugun ko'targan mehmon darvozaga yaqin kelib qolgan edi. Asadbek uni tabibnikida ko'rgan, hamisha otlar bilan ovora bo'lgani uchun uni otboqar deb o'ylagan edi. Mehmon tugunni Jamshidga berib, o'zi Asadbek bilan qo'shqo'llab so'rashdi-da, «to'ylar qulluq bo'lsin», deb qo'ydi.

— Abdurahmon aka qanilar? — deb so'radi Asadbek «Moskvich»ga qarab olib.

— Pochcham uzrlarini aytib yubordilar. Qishlog'imiz bir oz notinchga o'xshab qoldi, tashlab kelaverishga ko'ngillari bo'lmadi.

Bu gapni eshitib Jamshid «Nima bo'lgan ekan?» degan savol nazari bilan xojasiga qaradi. Abdurahmon tabibning xavotirli gaplarini eslagan Asadbek bu qarashni javobsiz qoldirdi-da, mehmonni ichkariga taklif etdi.

Sel kabi oqib kelayotgan qimmatbaho sovg'alar orasida tabib yuborgan maydaqaviq ikki to'n, qiyiq, do'ppi, ikki kiyimli xonatlas g'aribgina ko'rinardi. Shuning uchun ham tavonxonadagi xotinlar tugunning bir uchini ochib ko'rishdi-yu, «kim olib keldi?» deb so'rab o'tirmasdan bir burchakka qo'yishdi.

Abdurahmon tabibning qaynisi bu hashamatli uyda, shoxona dasturxon atrofidagi dimog'dor odamlar orasida o'zini begona his qildimi yo chindan ham shoshqich ravishda iziga qaytmog'i lozimmidi, har holda bir piyola choydan iborat ziyofatdan qoniqib, o'rnidan turdi. Unga birov «Nega turdingiz?» demadi. Bundan uning ko'ngli bir oz cho'ksa-da, «to'ychilikda aybi yo'q, tanimaganni siylamas», deb o'zini o'zi ovutdi. Ko'chaga chiqqanida masjiddan qaytayotgan Muhiddin ota bilan Jalilni ko'rib «Tanishlarim ham bor ekan-ku», deb ko'ngil chirog'i yorishdi. Jalil tabibning uzrini eshitib bo'lgach:

— Siz qayoqqa otlandingiz? — deb so'radi.

Shomga qadar dovondan o'tib olishni niyat qilgan mehmonning uzri qabul bo'lmadi. Jalil uni qochib ketishiga yo'l qo'ymaydiganday bilagidan ushlab, ichkari boshladi. Hovliga kirgach, xizmatda yurgan Jamshidni chaqirib «Mehmon senlarga xor bo'ldimi?» deb koyidi-da, shiypon yoniga qo'yilgan ixcham so'riga qarab yurdi. So'ng «Shotirlarningning

bittasiga ayt, faqat bizga qarasin. Hadeb to'nganlarningning atrofida girdikapalak bo'lavermalaring», deb buyurdi.

Bir kosadan manpar ichilgach, mehmon qaytmog'i zarurligini aytib, duoga qo'l ochdi. Muhiddin ota hovlining o'zida xayrlashdi. Jalil uni to mashinasiga qadar kuzatib bordi. Mehmon mashinasiga o'tirib, eshikni yopishga shoshilmadi:

— Pochchamning bir topshiriqlarini bajara olmadim, agar malol olmasangiz... shu xizmatni o'zingiz uddalab qo'ya qolsangiz, — dedi.

— Tortinmay aytovring, qanaqa xizmat?

— Pochcham kuyovlarga atab to'n tiktirgan edilar. O'zing yelkalariga tashlab, xayrli xos duoyimni yetkaz, Olloh ularni yomon shamollardan asrasin, devdilar.

Jalil topshiriqni bajarishga va'da bergach, mehmon iziga qaytdi. Jalil esa hovliga qaytib, Jamshidni chaqirdi-da:

— Kuyov to'ralar qani? — deb so'radi.

— Sochlarini taratgani sartaroshga chiqib ketishuvdi, — dedi Jamshid. — Hozir kelib qolishadi.

— Sochni uyda tarasa bo'lmas ekanmi? — deb to'ng'illadi Jalil.

— Tarashda ham tarash bor-da, yuvadi, qurutadi...

— Burunlaring oqsa ham birovga arttirilaring. Haligi mehmon to'n olib kelgan ekan, qaerga qo'yding?

Jamshid «tovonxonaga beruvdim», degach, Jalil o'sha tomon yurdi. Burchakka tashlab qo'yilgan tugunni olib xotinlarga «senlar ham nazarga ilmadilaringmi? Senlarga faqat tillayu javohir bo'lsa, a?» deb ikki-uch og'iz shirin so'z aytib chiqib, Muhiddin otaning yoniga o'tirdi. Darvozaxonada kuyov bolalar ko'ringach, o'rnidan turib ularni chaqirdi-da, tugunni yechib to'nlardan birini oldi.

— Qani, qiblaga qarab turib kiy-chi, — dedi avval Abdusamadni chorlab. Keyin Abdulhamidni chaqirib oqargan yuziga qaradi-da, peshonasiga kaftini qo'yib, boshini chayqadi:

— Isitmang bor-ku, bolam, yana kostumda yurishingni qara. — Abdulhamid to'nga yelkasini tutgan edi, Jalil amakisidan dakki eshitdi: — Betahorat odam to'nni yelkaga tashlab yuradi. Kiyib ol. Yechma. Bu tabarruk to'n. Senlarni yomon shamollardan asrasin, deb tabib bobolaring berib yuboribdi. Senlar ham tabarruk insonning yoshlariga yetlaring, iymonli, e'tiqodli bo'llaring.

Duodan so'ng uyga kirib ketayotgan Abdusamad to'nini yechgan edi, Jalildan baloga qoldi. Jalil turgan yerida hammaga eshitarli qilib baqirdi:

— Tabarruk degan narsaga fahm-farosatlaring yetadimi? Senlarning beo'xshov zar choponlaringdan bu to'n ming marta afzal.

Asadbek oshnasining tanobini sal tortib qo'yish maqsadida unga yaqinlashib «qo'y endi, yoshlarning didi boshqa» dedi-yu, u ham baloga qoldi:

— Bollaringni o'zingga o'xshatma. Sen tilla bahosidan qimmat to'yonlarga mahliyo bo'lyapsanmi? Xolis niyatda berilyaptimi bu to'yonalar, buni hech o'ylaysanmi? Minnatli narsadan qo'rqmaysanmi?

Asadbek «bo'ldi, bo'ldi, seniki ma'qul», deb nari ketishdan o'zga chorasi qolmadi.

Manzura xavotirlanavergach, vrach chaqirtirildi. Manzura kechasi o'g'lining isitma otashida alahsiraganidan bexabar edi. Shunday bo'lsa-da, kelinining ko'zlaridagi iztirobni ko'rib, ahvol yaxshi tomonga o'zgarmayotganidan siqildi. Vrach Abdulhamidni ko'rayotganida Asadbek ayollarni chiqarib yubordi.

— Qimirlamay yotishlari kerak, — Vrach shu xulosani aytdi-yu, «Bu mumkinmi?» deganday Asadbekka qarab qoldi.

— Buning iloji yo'q, — dedi Asadbek.



— Dorining kuchi bilan isitma sal ariganday bo'ladi, lekin yana ko'tarilaveradi, — dedi vrach.

— Siz ketmang, shu yerda qoling. Ikki-uch soat kelinning yonida o'tirmasa bo'lmaydi. Abdulhamid otasini tashvishdan qutqarish maqsadida:

— Ada, xavotirlanmang, ahvolim uncha yomon emas. O'rnimdan turaman, — dedi. Uning gapi Asadbekka dalda bo'lib, hovliga chiqdi.

Abdusamad onasiga o'xshash bo'shshaganroq, Abdulhamid esa otasi kabi irodasi mustahkam yigit edi. Karnay-surnay ovozlari yangragach, u akasi va kuyov jo'ralari hamrohligida nikoh bazmi bo'ladigan restoranga borib, mehmonlarni qarshiladi. Kelinlar mashinadan tushayotganida hamma kuyovlarning qanday qarshilashlari, kelinlarning oyoqlarini bosib qo'yishlarini kutib, qiziqib qarardi. Manzura bilan Asadbekning ko'zlari esa asosan Abdulhamidda edi. Kelinlar mashinadan tushib, kuyovlar uzatgan benazir guldastalarni olib, tanlaganlari yonida to'yxona sari odimlashgach, Kesakpolvon paydo bo'lib o'yinga tusha ketdi. Kimdir buni qadrdon do'stning quvonchi ifodasi deb qabul qildi, boshqa kimdir «kayfi oshib qoldimi?» deb o'yladi. Ba'zilarining esa ensasi qotdi. Asadbek bu holatni g'ashlik bilan kuzata turib ancha vaqt ilgari ko'rgan tushini eslab, yuragi qalqib ketdi.

...Tobut oldida karnay-surnay, baka-bakabum avjida. Tobut ichida kafanlangan Asadbek. Oldinda esa to'n kiyib belini bog'lagan Kesakpolvon yer tepinib o'ynab boryapti. «Hoy axmoq, — deydi kafanlangan Asad-        bek, — bel bog'lagan odam ham tobut oldida o'ynaydimi?» Kesakpolvon qah-qah otib kuladi: «To'y bo'lganidan keyin o'ynayman-da... Bizga to'y... Senga esa aza...»

Ko'rinmas barmoqlar Asadbekning tomog'idan bo'g'di. Yonidagi Jamshidga qarab «ol uni!» deb ishora qildi. Jamshid ildam borib, Kesakpolvonning qulog'iga «Bek akam chaqiryaptilar», deb shivirladi. Kesakpolvon cheksiz-chegarasiz shodon odam ko'rinishida Asadbekka ro'para bo'ldi. Asadbek sir boy bermaslik uchun:

— Mamatbeyni yaxshi joyga o'tqazdingmi, xabar olib tur, — dedi.

«O'yinim Asadga yoqmadi», degan fikrdan yiroq Kesakpolvon ichkari kirib ketdi.

Kelin-kuyovlarning izidan kelayotgan Chuvrindining xotinini Asadbek to'xtatdi-da:

— Kelganing uchun rahmat, — dedi. — O'g'illaringning to'yini xuddi shu yerda, bundan ham afzalroq qilib o'tqazamiz.

Chuvrindining xotini titroq lablari bilan «rahmat» deb qo'yib, boshqa so'z aytmay xotinlar oqimida ichkariga qarab yurdi.

Nikoh bazmidan sal oldinroq yetib kelgan Iliko uzoq o'tirmadi Asadbekni ranjitmaslik uchun ketishi sababini yashirmay aytdi:

— To'yda xunuk xabar aytish yaxshi emas, lekin sen bizga begona emassan... ertaga bobomni so'nggi yo'lga kuzatishim kerak.

Asadbek beixtiyor ravishda uni bag'riga bosdi. Ruhi tushkun qariyaning so'nggi gaplarini esladi.

Ilikoni kuzatib ichkari kirganida Kesakpolvon chap qo'lida mikrofon, o'ng qo'lida ikkita mashina kalitlarini ko'z-ko'z qilib ushlaganicha do'sti Asadbek sha'niga maqtovlar yog'dirardi. Maqtovlar yakun topib, mashinalarning kalitlari kuyovlar qo'lga topshirilgach, Kesakpolvon mashshoqlarga «chal», deb ishora qilib, yana o'yinga tushib ketdi.

Asadbek ensasi qotsa ham o'ziga tikilib turgan o'nlab nigohlarni his qilib, o'rtaga tushdi, shu paytgacha qilmagan ishini qildi: Kesakpolvonning ustidan pul sochdi...

To'y bazmi avjga chiqqanida Jamshid Asadbekka yaqinlashib:

— Bek aka, Hamid charchadi, kuyov-kelinlarga javob berishsinmi? — deb so'radi.

Jamshid aytmasa ham Asadbek dam-badam o'g'luga qarab uning holsizlanayotganini

sezib turardi.

— Hech kim bilmasin, avval kelin yangasi bilan sekin chiqishsin. Ketidan Hamidni o'zing olib chiq. Samad o'tiraversin, — dedi. Keyin tayinladi: — Kennaying ergashmasin. Mehmonlarga qarasin. Biz borguncha do'xtir Hamidning yonidan jilmasin. Asabdek aytganday bo'ldi. Ularning chiqib ketishganini birov bildi, birov e'tibor bermadi. Nima voqea yuz berganini Mamatbeygina sezdi. Sezdi-yu, mamnunlik bilan kulimsirab qo'yib, Kesakpolvonni chaqirdi-da, cho'qishtirib ichdi. Shu onda Asadbekning nigohi o'ziga qadalib turganini esa bilmadi.

### 3

Abdulhamidning xastaligi Manzura bilan Asadbek uchun bir tashvish bo'lsa, Zaynabning nikoh bazmiga kelmagani tashvish ustiga noxushlik edi. Asadbek bazm boshlangunga qadar ham qizining kelib qolishiga umid qilib yo'lga qarab-qarab qo'ydi. Kesakpolvon Mardona o'ldirilganidan keyin «qizing o'zingga o'xshaydi», deganida Asadbek achchiqlangan edi. Qizining o'zi kabi o'jar, cho'rtkesarligiga mana endi ishondi. Elchinni to'yga olib borish taklifi rad etilga-nini Manzura yumshoqlik bilan tushuntirsa-da, Zaynab otasining maqsadini angladi va o'zining aytganidan qaytmadi. Bazmda ishtirok etmaslikka uzil-kesil ahd qilib, sartaroshxonaga otlangan akalari bilan ko'chaga chiqdida, kasalxonaga qarab ketdi. Jalil sochlarini tarattirib kelgan kuyov to'ralarga to'n kiygizayotgan paytda Zaynab kasalxonaning mashinasida erini uyiga olib kelgan edi. Qo'shnilar yordamida zambildagi bemor yangi aravachaga o'tqazilgach, mehmonxonaga kirdilar. Mehmonxonadagi yasatig'liq dasturxonni ko'rgan Elchin qaynotasi kelmasa ham qaynonasining kelib qolishiga umid qildi. Zaynab choy damlab, eriga quyib uzatdi-da, ayvonga chiqib onasiga qo'ng'iroq qildi. Qizining bu ishidan hayratga tushgan Manzura: — Voy qizimey, bugun shartmidi, a? — deyishdan boshqa gap ayta olmadi. «Insofga kirib qolarmikinlar», degan umidda Asadbekka to'g'risini aytdi. Asadbek bu xabarni eshitib, qoshlarini chimirib qo'ydi. «Mayli, kuyovni to'yga olib kelinglar», demadi.

Zaynabning ko'rinmay qolganidan eng avvalo kelinlar havotirlanishdi. «Ularning «Zaynab bonu nechuk ko'rinmaydilar?» degan savollariga «Eri og'irlashib qolibdi», deb, ichida tavba ham qilib qo'ydi: Yolg'onni Xudo kechirsin!»

To'ydan bexabar Elchin qaynonasining kelmaganiga ajablandi. Bugun ertalab ham kasalxonadan chiqish haqida gap yo'q edi. Zaynab «javob tegdi, ketamiz», deb kulimsiragan bo'lsa ham Elchin uning yuziga soya tashlayotgan tashvish bulutini sezdi. Vaqt o'tib, kun botganda ham er-xotin yolg'iz o'tirardilar. Tilsiz, harakatsiz qoladi, deb tashxis qo'yilgan Elchin vrachlarning kutganlarini puchga chiqarsa-da, hali bemalol gaplashib o'tirish darajasiga yetmagan edi. Tili burro bo'lgani bilan nimalarni gaplashib o'tirardi?

«Mening tirik qolishim sening komronlig'ingmi yo baxtsizligingmi?» deb so'raydimi? «Otang mening o'lishimni istagan edi, tirik qolishim xonadoning uchun baxtsizlikdir? Umuman... o'lsam nimani yo'qotardim, tirik qolib nima yutdim? Sen meni jiyalarimdan tortib olding hisob. Birga yashab, xush baxt bo'lishimizga ishonasanmi?» dermidi. Bu gaplar tilga ko'chmasa ham ko'z qarashlarida zohir edi. Zaynab erining tuyg'ularini to'la bo'lmasa-da, his etardi. Go'yo o'sha mash'um voqea yuz bermagandek, go'yo qalbida intiqom cho'g'i yo'qdek, go'yo chalajonga aylangan bu odamni azal-azaldan yaxshi ko'radigan baxtiyor juvondek ko'rsatishga urinardi.

Elchin esa baxtiyorlik niqobi ortidagi tog'dek dard-ni qalb ko'zi bilan ko'rib turardi. Bu

nozik jism bu dard tog'ini ko'tarib turishga yana qancha chidarkin, deb chamalardi. U qoradori balosidan qutulishga kuch topgan juvonning bu dard tog'iga chidashgina emas, uni yiqishga ham qodir ekanini xayoliga ham keltirmas edi. Elchin Zaynabni oddiy ayollardan deb bilib, uning iroda kuchini hisobga olmayotgandi. Balki boshqa ayollar dard oldida egilib qolarlar? Lekin Asadbekning qizi egilmas, dardga yengilmas...

Zaynab laganchaga ikki kishilik taom suzib kirgach, Elchin:

— Oying kelmaydilarmi? — deb so'radi.

Zaynab «Kelishlari kerakmidi?» degan savol nazari bilan javob qaytardi. Erining bu unsiz javobdan qoniqmaganini bilib:

— Qarindoshimiznikida to'y, — deb izoh berdi.

— Sen nega bormading? Men ertaga chiqsam ham bo'laverardi, — dedi Elchin.

Zaynab undan ko'zlarini olib qochib:

— Men ertaga borsam ham bo'ladi, — dedi.

Taomdan so'ng televizor ko'rishdi. Har ikkovining ko'zlari tamoshada bo'lsa-da, xayollari boshqa yerlarda sarsari kezardi.

Akalari bilan kelinayalarining baxtiyor chehralari Zaynabning ko'zi oldidan nari ketmadi.

«Xudo baxt beraman, desa beraverarkan-da, — deb o'yladi u. — Bu qizlar dunyoning nariga chetida edi. Shunda ham xohlaganlariga yetishishdi. Meniki shunday yonginamda edi...»

Zaynabning taqdiriga dil maqsudiga yetolmaslik yozilgan ekan, na iloj qilsin? «Noumidlik yomon, dunyo umid bilan qoyimdir», deyishadi. Zaynab dardni umid bilan yengishga urinardi. Lekin... qurigan umid daraxti qayta gullashi mumkinmikin?.. Bu g'am manzilida unga nelar qolmish yana? Zaynabning yura- gida yaralangan surur bu savolga javob topolmay ingradi.

Televizordagi tamosha tamom bo'lib, qo'shiq boshlanganida Zaynab oshxonada edi.

Ma'yus ohang diqqatini tortib, so'zlariga quloq tutdi:

Sho'rpe shona ishqni tolega yo'yib,

Jimgina taqdirga berganimda tan.

Ishonchu, sevgingni qo'limga qo'yib

Dovdir hayotimga kirib kelding sen...

Zaynabning ko'z oldiga Jamshid kelib beixtiyor titrab, qo'lidagi likopchani tushirib yubordi. Likopcha tushdi-yu, lekin negadir sinmadi. Singanida «Kelgan balo-qazo shunga ursin», deb qo'yardi. Endi balo-qazo nimaga uradi?..

Elchinning ko'zlari televizorga qadalgan bo'lsa-da, xayoli to'zonli shamol singari tentirardi.

U Zaynabni g'amga solgan edi, endi g'am uning o'zini yeyarmi? Yeb-eb ado etarmi?

Kasalxonada ekanida vrach yuragi ustiga kaftini qo'yib, barmoqlari bilan urib-urib qo'yardi. Xuddi birovning eshigini taqillatayotgandek bo'lardi. Uning qalb darvozasi ochilsa nimalarni ko'rmoq mumkin? Zulumot va o'limdan bo'lak yana ne qolgan bu yurakda?

Zaynabning qo'lidagi likopcha tushgan paytda Elchin ham qo'shiqni diqqat bilan eshitayotgandi. Uni ajablantirgan narsa — Anvar jinnixonada o'zini osmay turib shu she'rni yozgan, qog'ozning bir chetiga esa «Dardli do'stinga bedard Anvardan esdalik», deb imzo chekib bergan edi. Elchin ancha paytgacha ohang izlab, o'zicha hirgoyi qilib yuruvdi.

Anvarning akasi uning daftarda qolgan she'rlarini gazetaga olib borgan, bu qo'shiqqa asos bo'lgan she'r ham e'lon qilingan edi. Elchinni hayratga solgan narsa qo'shiqning so'zlari emas, balki aynan u hirgoyi qilgan kuyning yangrayotgani edi. Bu qo'shiqni o'zidan bosh-qa hech kim eshitmagan edi. Hatto Zaynab ham...

*Inongil, bu sevgi emasdi aslo,  
Aldanib o'rtangan dard edi biroq,  
Yolg'iz sendan— yolg'iz tasalli— sevinch,  
Yolg'iz sendan— yolg'iz bedavo— alam.  
Axir sen-la birga bo'lolmasman hech  
Axir seni tashlab ketolmasman ham...  
...Yolg'iz osmondandir yupanch— tasallo...*

Oshxonadan qaytgan Zaynab erining charchaganini sezib, aravachani karavot yoniga olib keldi. Kech kirib qolgani uchun qo'shnilarni chaqirishga iymandi. Elchin uning bo'yniga osilgan holda surila-surila karavotiga o'tdi. Yostiqqa bosh qo'yayotgan damda ko'zlari namlandi. U shu topda yuragining yorilib ketishini istardi. Juda-juda istardi.

## XXII b o b

### 1

Dunyoda million o'g'ri bo'lsa, birining uslubi boshqasidan farq qiladi. Xongireyning esa o'g'irlik, bosqinchilik uslubidan tashqari yana bir qilig'i ortiqcha: yolg'on gapirish bo'yicha u ja'miki o'g'rilarni dog'da qoldirishi mumkin edi. Kattalar qamoqxonasiga tushgan Aftondil hali Xongirey laqabini olmasdan ancha ilgari ustoz Zelixonning diqqatini aynan shu odati bilan tortgan edi. Zelixon vaqtida ishonarli yolg'onni to'qib, yov changalidan qutulib ketishni o'g'ringning fazilati deb bilardi. Keyinchalik Zelixon shogirdidagi bu fazilatning keragidan ortiq ekanini sezib, ko'p tanbeh bergan edi. Hatto bir kuni «Hov bola, sen shaytonni dog'da qoldirib, bir martagina rost gapirsang-chi», degandi. Ba'zilar yolg'oniga bosh-qalarni ishontirish uchun ko'p o'ylashadi, turli bahonalarni izlashadi. Xongirey esa bu bosh og'riqlardan xoli: tili hech qachon yolg'on gapga muhtoj bo'lmaydi.

Markaziy bank xodimining qaynonasiga «Men o'ynashingdan bo'lgan o'g'lingman», degan Xongirey «Bu gapimga ishonadimi yo yo'qmi?» deb o'ylab ham ko'rmagandi. Chunki xotinning ishonish yoki ishonmasligi u uchun mutlaqo farqsiz, unga muhimi — xotinning boshi qotadi.

Asadbekka otasining vasiyatini bajarish uchun Polshaga ketayotganini aytganida ham «yolg'onim fosh bo'lsa-chi?» degan o'yi yo'q edi. U Polshaga otasining vasiyatini bajarish uchun ketyaptimi, rostdanam amakisi Krakovda xalok bo'lganmi — bularni bilish Asadbek uchun ham farqsiz edi. Shu sababli Xongireyning safar haqidagi gapiga uncha e'tibor bermagandi. Xongireyning nima uchun aynan Krakovga borishini u ke-yinroq o'ylab qoladi.

Xongirey Shaxovskiydagi qarorgohida birodarlarini ziyofat qilgan kuni o'zi kutmagan holda qarmog'iga tilla baliq ilinib qolgan edi. Yarim tunga qadar davom etgan ziyofat poyoniga yetib, mehmonlar tarqalgach, yaqinda «jinni» degan tashxis bilan qamoqdan chiqib kelgan birodari ketishga shoshilmadi. O'z otasini chavaqlab tashlagani uchun «Gamlet» laqabini olgan bu mehmon qolishining sababini darrov aytmadi. Maishatni tongga qadar davom ettirib charchagan Xongirey «Endi dam olamiz», degach, Gamlet muddaoga ko'chdi:

— Sen qoradoriga astoydil aralashibsan, — dedi u. — Hozir eng to'g'ri yo'l shu. Bir qo'ling Krasnoyarga bir qo'ling Lvovga borgani yaxshi. Lekin qulochni yana ham cho'zishing mumkin. Lvovdagilarning nayrangini bilasanmi?

— Ha, — dedi Xongirey, — Polsha bilan Ven-griyaga oshirib sotishadi.

— Bilar ekansan. Ular Polshadan men qamoqdaligimda vaqtincha foydalanishdi. Endi u yoqqa borish- sa — o'lim topishadi. Men yaqinda Kanadaga ko'chib ketaman. Agar kelisha olsak, senga Polshani beraman. Yana qoradorining behisob xazinasini ham bor. Uni ham senga topshirgim kelyapti. Kelisha olsak bas.

Bu taklifdan so'ng uyqu ham o'chdi, charchoq ham unutilib, shartlar, narxu navolar kelishilgach, birgalashib Polshaga borishga ahdlashishdi.

Asadbekning to'yidan bir kun avval Xongirey Gamlet bilan birga Varshavaga yetib kelgan, ikki kundan keyin esa Krakov yaqinidagi saroymonand uyda muzokarani boshlab yuborgan edi.

Gamlet «pan Lyubomirskiy» deb tanishtirgan odamning yoshini aniqlash mushkul edi. Siyrak sochlari, baroq qoshi oppoq oqargan, bir oz bukchayib yuruvchi, ammo o'zini tetik tutuvchi bu odamni birov yetmishdan oshgan demasdi. Gamletning aytishicha, urushdan oldin ham, nemislar xo'jayinlik qilgan yillarda ham, sovetlar egallab turganida ham pan Lyubomirskiy o'z kasbiga sodiq qolgan noyob odamlardan edi. Turli jamiyatlar, turli qonunlarga bo'yin egmagani uchun ham u «O'lmas Kashchey» laqabi bilan mashhur bo'lgandi.

Gamlet Xongireyni tanishtirayotgan mahalda maqtov so'zlariga baxillik qilmadi. Pan Lyubomirskiy — o'lmas Kashchey bu maqtovlarni Xongireydan ko'z uzmagan holda tingladi. Uning o'tkir nigohiga xatto Xongireyning chaqchaygan ko'zlari ham dosh berolmadi. Gamletning maqtovlari o'zining ham joniga tegib, «tezroq tugataqol» degan ma'noda unga qarab-qarab qo'ydi.

— Yangi do'stimiz bizga qancha miqdorda mol yetkazib bera oladi?— deb so'radi pan Lyubomirskiy Gamletning gaplari poyoniga yetgach.

— Buyurtma beruvchi — siz. Qancha kerak bo'lsa, shuncha olamiz. O'rta Osiyodan oqadigan yo'l shuniki. Xitoyning sun'iy dorilarini Sibir orqali yetkazishi mumkin.

— Menga sun'iy dori kerak emas. Men yangi do'stimning o'z og'zidan eshitmoqchiman: birinchi galda yigirma kilo yetkazib kela olasanmi?

Xongirey «Ko'p-ku?» deb Gamletga tezgina qarab oldi. Gamlet va'da beraver, degan ma'noda o'ng ko'zini salgina qisib qo'ydi. Qariyaning sergak nigohidan bu chetda qolmagan bo'lsa-da, tanbeh bermay, Xongireydan javob kutdi:

— Men yaxshi tushunmadim, — dedi Xongirey pinagini buzmagani ko'rinishda, — yigirma kilomi yo yigirma tonnami?

Pan Lyubomirskiy Gamlet bilan ko'z urishtirib olib, kulimsiradi:

— Qanday shartlaringiz bor?

— Shart yo'q, faqat ayrim masalalarni kelishib olish kerak. Birinchisi: molni olishga odamingiz qachon boradi?

— Odamim bormaydi. Men «Yigirma kilo yetkazib kela oladimi?» deb so'radim. «Odamim borib keladi», demadim.

— Hisob-kitob-chi?

— Hisob-kitob shu yerda bo'ladi. Molni qo'yasiz, pulni olasiz. Xohlang dollarda, yoki funt sterlingda, yoki markada oling. Istayangiz Shvetsariya bankiga o'tkazamiz. Ha, shart og'irlik qilyaptimi? Bilaman, bu ish og'ir, lekin shunga yarasha haq to'layman.

Bu yerga kela turib Gamlet «shartlashishda juda chuqurlashma, asosiy masala hal etilsa bas, mayda-chuydalarga e'tibor qilma», deb ogohlantirgan edi. Shunga ko'ra, Xongirey gapni cho'zmasdan, kelishganining ramzi sifatida o'rnidan turib, qo'l uzatdi. Pan Lyubomirskiy yoshi ulug'ligining imtiyozidan foydalanib, o'tirgan yerida qo'l uzatdi.

— Biz Gamlet bilan yaxshi ishladik, — dedi u. — Siz tomondagi ba'zi odamlar «Polshalik hamma narsasini sotishi mumkin», deb gapirib yurishadi. Polshalik boshqa narsalarni

pullasa ham ahdga sadoqatini sotmaydi. Gamlet buni bilardi. Siz ham shu haqiqatni unutmangiz ikkalamiz birgalikda uzoq yashaymiz.

Ular Krakovda yana ikki kun mehmon bo'lishgach, Moskvaga qaytishdi. Va'dasining birinchi bosqichini bajargan Gamlet ahddagi belgilangan haqini olgach, ikkinchi bosqichga o'tishdan oldin «O'lmas Kashcheyni dog'da qoldiraman, boshqa shaharlar bilan ham o'zim gaplashaman», deb o'ylama. U tirik ekan, Krakovdan nariga sen uchun yo'l yo'q» deb ogohlantirdi.

## 2

Moskvadan «Tez yetib kel!» degan buyruqni olgan Selim bu chaqiruvdan bir oz sarosimaga tushdi. U Kesakpolvondan yashirincha eski tanishlari orqali kamroq bo'lsa-da, oldi-sottisini boshlagan edi. Kesakpolvondan maxfiy tutilgan ish u tomonga ma'lum bo'lib qoldimikin, degan tashvishli o'y uni Xongireyning huzuriga kirgunicha ham tark etmadi. Ochko'zligi uchun o'zini o'zi la'natlab, bundan bu yog'iga halol xizmat qilishga qasam ichib bordi. Qarorgohda emas, «Lebedinaya pesnya» deb ataluvchi restoranda kutilajagi ham uni anchagina tashvishlantirdi. Taksichi so'rab-surishtirib, uni manzilga tashlab ketgach, u «Lebedinaya pesnya» degan yozuvga tikilganicha bir oz harakatsiz turdi. So'ng «Tavakkalchining ishini Xudo o'nglaydi», degan fikrda pastga olib tushuvchi zinaga oyoq qo'ydi.

Katta xonadagi dasturxon atrofida o'tirganlarga bir-bir qarashga botina olmadi. To'rda o'tirgan Xongireyning yonidagi polkovnikni ko'rishi bilan yuragi urishdan naq to'xtaganday bo'ldi. Moskvaga shoshqich chaqirilganining sababini anglab, Xongireyga «Rahm qiling, jonimni olmang», deganday mo'ltillab qaradi.

— Odobli bolalar kirganda salom berishlari kerak, — dedi Xongirey uni o'tli nigohi bilan qarshilib.

Duduqlanib qolgan Selimning salomiga faqat Mamatbeygina alik olib, o'rnidan turdi-da, uni Xongireyning ro'parasidagi stulga o'tqazdi. Xongirey hol-ahvol so'ramagani uchun Mamatbey ham indamadi. Selimning qarshisidagi katta qadahga to'ldirib aroq quygach, past ovozda «ich» deb buyurdi. Selim qadahni yarimlaganda Xongirey:

— Polkovnikni tanidingmi? — deb so'radi.

Kutilmaganda berilgan bu savoldan Selim qalqib ketib, yo'taldi. Labiga sochiqni bosib, o'ziga kelgach, «taniyapman», dedi.

— Shunday ajoyib qahramon bilan tanishligingni bizga aytmovding? Nega aytmovding, a?

Selim «bilmadim», deganday yerga qaradi.

— To'g'risini aytaver, sen buni o'lib ketgan deb o'ylagansan, a? Ha, umuman... to'g'ri o'ylagansan. Polkovnik sen tiqib qo'ygan qamoqxonada o'lgan edi. Biz uni tiriltirib olib chiqdik. Buni qaraki, polkovnik seni o'lgan, deb yurgan ekan. Sen qanday qilib tirik qolding, bunga aytib ber. Axir tobutni ochganingda portlab ketuvding-ku, to'g'rimi? Selim aybdor bola kabi yerga qaradi.

— Tobut portlaganmidi, deb so'rayapman?!

— Ha...

— Sen buni qamatding, qamoqda o'lib ketadi, deb o'ylading, bu esa tobut minalashtirilganini senga aytmadi. Ikkoving ham g'irrom o'yin qilgansanlar. Birinchi galda sen o'lishing kerak. Nafsi nahangnikidan battar ablah o'lsa, yer ham mazza qiladi.

Selim asta qaddini ko'tardi, so'ng stulni surib tashlab, tiz cho'kdi-da, jazavaga tushib,

tavba qila ketdi. Uning bu qiligi Xongireyga yoqmay, Mamatbeyga qarab qo'ygani edi, u Selimning gardanidan ushlab turg'izib, joyiga o'tqazdi. Xongirey unga nafrat bilan tikildi. Selim uning tilidan o'lim xabarini kutib, nafas yutdi. Xongirey uni lol qoldirib, hukmini oshkor qilmadi, Gamlet bilan ko'z urishtirib olgach, o'rnidan turdi. Gamlet bu qarashning ma'nosini anglab, qadahini yarimlatgan holda tashlab ketgisi kelmay, bir ko'tarishda bo'shatdi-da, u ham o'rnidan turib mezbonga ergashdi. Ular chiqib ketishgach, endigi taqdiri nima bo'lishini bilolmayotgan Selim polkovnikka qaradi. Polkovnik xumorbosdi qilolmaganidan garangmidi, har holda esi og'ib qolgan odam kabi o'tirardi.

Selim uni dastlab shu holda ko'rganidayoq qoradorisiz turolmaydigan toifadan ekanini sezgan edi. Hordiq chiqarish maqsadida Qora dengiz sohiliga kelgan Selim mehmonxonaning eng yaxshi, eng qimmatbaho xonasida maishat qilardi.

Afg'onistondagi qahramonona xizmatlari uchun ta'til berilgan polkovnik ham sanatoriydagi davolanishini tugatgach, iziga qaytishga shoshilmay, mehmonxonaga joylashib, ayshini surib yurgan edi.

Taqdirning o'yinini qarangi, dahlizning bir tomonidagi eshik Selimniki, ro'parasidagi esa polkovnikniki edi. Ular dastlab ayni shu dahlizda uchrashdilar. Ikkovi ham kun yoyilgan mahalda, ayni bir xil yumush bilan — tungi mehmon «qushcha»ni kuzatgani eshikni ochgan edilar. O'sha kuni peshinda restoranda uchrashdilar. Keyin bir-birlariga ro'para kelganlarida salomlashdilar. Shu zaylda bo'lajak hamkorlikning eshigi qiya ochila boshladi. Bir kuni kechasi polkovnik Selimning eshigini taqillatdi. Ko'zlari kirta-yib, bezgak tutganday titrayotgan polkovnikni boshqa odam ko'rsa «bechoraning tobi qochib qolibdi», deb o'ylashi mumkin edi. Lekin bunaqa xolatlarni ko'p uchratgan Selim uning maqsadini darrov angladi. Polkovnik u damda Selimning qoradori bilan shug'ullanishini bilmas edi. U tunda qoradori ilinjida emas, pul so'rab chiqqandi. Selim «yarim tunda pulni nima qilasiz?» deb o'tirmay, so'raganini berdi. Qoradorini shu mehmonxonaning o'zidan topish mumkinligini bilgani uchun ham gapni aylantirmadi.

Ertasiga peshinga yaqin polkovnikning eshigini taqillatdi. Ichkaridan javob bo'lavermagach, xonasiga qaytib, telefon qildi. Go'shakda polkovnikning uyqusiragan ovozi eshitib:

— Polkovnik, yaxshi damlarni uyqu bilan o'tkazib yuborish gunoh, eshikni oching, — dedi.

Polkovnikda bir oz karaxtlik sezilsa ham, tundagi ahvoliga nisbatan ancha tetik edi. Bitta olma bilan, yarim shisha aroq ko'tarib kirgan Selim qadahlarni to'ldirib, bittasini so'zsiz, iltifotsiz tarzda ko'tardi. Polkovnik esa qadahni afsun qilayotganday tikilib turgach, u ham bir ko'tarishda bo'shatdi. Selim tungi chorlovdan gap ochmadi. Aksincha, bu yerdagi maroqli kunlarni ta'riflab o'tirdi-da, polkovnik uchun sira kutilmaganda gapni qoradoriga burib yubordi:

— Polkovnik, afg'onidagi ko'p yigitlar nashavand, giyohvand bo'lib qolarkan, shu rostmi? — deb so'radi.

Polkovnik «rost, mening ahvolimni ko'rmayapsanmi», deganday unga so'zsiz qarab turgach, asta ochila boshladi. Selim polkovnikning qitiq patini to'g'ri topgan edi. U afg'onidagi zobitlarning ayrimlari hech tap tortmasdan qoradori olib o'tishayotganini bilardi. Uning mo'ljalicha, bu polkovnik ham shundaylardan edi. Chunki polkovnikning maishati uchun o'nta zobitning maoshi ham kamlik qilardi. Selimning mo'ljalicha, polkovnik bu yerga qoradori bilan kelgan, bir qismini sotgan pulni sovurib yuborgan. O'ziga olib qo'ygani tugab qolganiga ahamiyat bermay, tunda xumorning jazavasidan uyg'ongan...

Polkovnikdan sir olish uchun uni yana ikki kun mehmon qilishga to'g'ri keldi. Ular bir-birlaridan hadiksiragan holda asta-sekin bir-birlariga yaqinlashdilar. Oqibat shu bo'ldiki,

polkovnik Selim yashaydigan joyga yaqin bir qishloqdagi qabrda katta boyligi borligini bildirdi. Jangda halok bo'lgan yigitning jasadini temir tobutga solishdan oldin uning qorniga o'n kilodan mo'lroq qoradori joylaganini ayt-di. Marhumning ismi-nasabini, qabrning tartib raqamini ham yashirmadi. Bu boylikka teng sherik bo'lish haqidagi og'zaki ahdomaga qo'l tashlashdi.

Hosil boyvachcha Selimni qayirib olmoqchi bo'lganida «Sen mayda baqqolsan, katta ishlarga fahming yetmaydi», deb yanglishmagan edi. Polkovnikdan sir olgach, befahmligi tufayli shoshib qoldi. Ahdomadagi boylkning yarmiga qanoat qilmay, barchasiga ega chiqqisi keldi. Bu ishni osongina uddalash mumkinday tuyulib, polkovnikning jomadoniga qoradori solib qo'ydi-yu, o'sha zahoti militsiyaga qo'ng'iroq qildi. Qo'llari kishanlangan polkovnikning olib ketilishini eshik tirqishidan kuzatib, «Xudoga shukr», deb qo'ydi. Xonasiga militsiya bostirib kirib, jomadondan qoradori topgach, polkovnik kim tomonidan xoinlik bo'lganini darrov angladi. Shu bois ham qo'li kishanlangan holda dahlizga chiqqanida Selimning tirqishdan mo'ralab turganini sezganday, ayanchli ravishda kulimsirab qo'ygan edi.

Selim bu kulimsirashning ma'nosini keyinroq tushundi.

U shoshqinch ravishda uyiga qaytib, aytilgan mozoristonga bordi, aytilgan qabrni topib, quvonchdan yuragi toshib ketay dedi. U katta boylkdan bir quloch yuqorida turardi, temir tobut qazib olinsa bas... Boylikdan emas, o'limdan sal nari turganini u keyinroq bildi.

Qo'shni shaharga borib bir mayxo'r payvandchini topdi. Avval hovlisidagi tok so'rilarini yangilatdi. Ishdan keyin saxiy to'ra kabi payvandchini obdon siyladi. Payvandchi galdirab qolgan paytda katta pul va'da qilib, mozoristonga boshlab bordi. Qabr ochilib, belkurak temirga «taq» etib urilganda hovuch-hovuch tillalar cho'ntagini to'ldirib qo'yganday quvondi. Temir tobut usti tuproqdan tozalangach, uni yuqoriga ko'tarish muammosi tug'ildi. Shunda payvandchi «tepaga chiqarib nima qilamiz, joyida ochaman, keyin ko'mib qo'yaveramiz», deb pastga tushdi. Mayitning qornini mo'ljallab, temir tobutning o'rtasini kavsharlagichning o'tli tili bilan doira shaklida kesa boshladi.

Qishloqning kimsasiz mozoristonida, yulduz to'la osmon ostida vahshiylik deyilsa vahshiylikdan-da yuksakroq, hayvonlik deyilsa undan-da ustunroq, haromilik deyilsa undan-da tubanroq bir yumush bilan band edilar. Temir tobut bilan olovli til orasida sachrayotgan uchqunlar shaytonlar shodiyonasida otilayotgan mushak kabi edi...

Payvandchi bir oz ishlagach, yuqoriga qaradi:

— Xo'jayin, yuzta otib olmasam bo'lmaydi, qo'lansa hid tomog'imni g'ip bo'g'di, — dedi u.

— Ozgina chida, oldingga yuz shishani terib qo'yaman, ichaverasan, — dedi Selim.

Payvandchi yana ozgina ishlagan bo'ldi-yu, yana zorlandi. Uchinchi marta yalingach, Selim ko'chada qoldirib kelgan mashinasi sari yurdi. Muzoristondan chiqishga ulgurmay, kuchli portlashdan exonasi chiqib ketdi. Qo'rquvdan o'tirib qolganini o'zi ham sezmedi. Bir necha daqiqa hushsiz o'tirdi, keyin nima voqea yuz berganini anglab, shoshilganicha mashinasiga o'tirdi-yu, qishloqni katta tezlikda tark etdi.

Qabristondagi portlash haqida turli mish-mishlar tarqaldi. Militsiya bir qancha vaqt jinoyat izini qidirganday bo'ldi. Ashyoviy dalil sifatida yig'ib olingan odamning bo'lak-bo'lak a'zolaridan biron-bir xulosa chiqarish imkoni bo'lmadi.

Oradan kunlar o'tib, Selimning vahimasi bosildi. Jonini saqlab qolgani uchun bir qo'y so'ydirib, xudoyi qildi. Bu dunyoda polkovnikning turqini ko'rmasam kerak, deb yurardi. Polkovnik bilan Gamletning bir qamoqxonada uchrashib, til topishib qolishlarini u qaerdan bilsin? Qoradori bilan qo'lga tushib qamalgan zobitda gap ko'pligini sezgan Gamletning muddaoga yetishini Selim o'ylab ham ko'rmagan edi.



Alhol, «Lebedinaya pesnya» restoranidagi dasturxonning narigi betida garangsib o'tirgan polkovnikka tikilib qolgan Selim uning bu yerda paydo bo'lishi tafsilotlarini bilmas edi. Oralarida noz-ne'matga to'la dasturxon emas, balki o'lim jari ustiga tortilgan qil ko'prikk mavjudligini, bu qil ko'prikkdan avval kim qulashi Xongireyning marhamatiga bog'liq ekanini uning kalta fahmi idrok etolmasdi.

Selim polkovnikning bema'no boqayotgan ko'zlariga tikila turib, unga la'nat o'qlarini yog'dirdi. Boshiga tushgan ko'rgulik uchun uni aybladi. Tobut portlagan paytda ham shu fikrda edi. O'shandan beri «bu ko'rgulikka polkovnik emas, o'z nafsini aybdor», degan haq fikr xayolini yoritmadi. Agar birov, aytaylik, Xongireymi yoki Mamatbeymi shunday desa ham bu haqiqatni tan olmagan bo'lardi. «O'liming oldidan bir so'z ayt», deb so'nggi imkon berilsa, o'shanda ham nafsini emas, polkovnikni la'natlay-la'natlay jon bergan bo'lardi.

Mamatbey «sog'inib qolgan bo'lsa maza qilib tikilib to'yib olsin», deganday indamasdan turdi. So'ng bu manzara g'ashini keltirib, eshik og'zidagi yigitga ishora qilgan edi, u polkovnikni boshlab chiqib ketdi. Shundan keyin Mamatbey Selimning qadahini yana aroqqa to'ldirdi.

— Ich, qorningni to'yg'azib ol.

Selim bir-ikki qultum ichdi-yu, qadahni yana jo-yiga qo'yib, Mamatbeyga qaradi:

— Mamatbey, axir... u paytda sizlarni yaxshi bilmasdim... Men yolg'iz ishlardim. O'tgan ish o'tib ketdi... Men sizlarga xiyonat qilmadim-ku?

— Senga birov «xiyonat qilding?» dedimi? Ol, ichib qo'y.

— Men...

— Dovdirama. Shunchalik quyonyurak ekansan, nima qilarding katta ovga osilib. Seni o'ldirmaymiz. Seni bizga Hosil sovg'a qilib ketgan. Biz sovg'ani bekordan bekorga tashlab yubormaymiz. Bundan bu yog'iga qada-mingni bilib bos.

— Men.. bolalarimdan xabar olib kelay.

— Ahmoq ekansan! Knyaz sening joningni qaytib berdi. Bu mukofot uchun xizmat qilishni o'ylamay, bolalarim, deysan, a? Sen bolalariningni unut. Hozir izingga qaytasan.

— Bir o'zimmi?

— Agar yo'q demasang birga borardim.

Bu piching zamirida «endi sen yolg'iz yurmaysan, shunga aqling yetmadimi?» degan ma'no yotardi.

Moskvadan qaytishgan kunning ertasiga Mamatbey xo'jayiniga qo'ng'iroq qilib, undan topshiriq oldi-da, go'shakni joyiga qo'ygach, bosh chayqaganicha, afsus bilan:

— Knyaz xunuk xabar yetkazdi — polkovnikning o'libdi. Yuragi chatoq ekan-da, a? Aytmoqchi, sening yuraging ham bezovtalanib turadimi? — dedi.

Selim bu aytilmish gapning yopinchi'gi ostida qanday ma'no yashirinib yotganini anglasa-da, biron nima demoqqa chorasizligi tufayli tilini tiyishga majbur bo'ldi. Selim Moskvaga chorlanib, uchib borayotgan mahalidayoq, Xongirey tomonidan taqdiri hal etilib qo'yilganini bilmasdi. Iziga qaytilib, Haydar yo'qlangach, Xongireyning biron topshirig'i aytilar, deb o'ylab, yanglishmadi.

Kesakpolvon kelgach, Mamatbey undan hol-ahvol so'ragan bo'ldi-da, Asadbekning aytgan gapiga zid ravishda, Xongireyning undan norozi ekanini bayon qildi. Narkokurer tanlashda asosan Kesakpolvon adashgani, Mamatbey bilan Selim unga to'la ishonib, xatoga yo'l qo'ygani uchun Xongirey tomonidan tanbehga loyiq ko'rilgani ham bildirildi. Norasmiy xo'jayinning shoshqich ravishda Moskvaga chorlanganidan xavotirda yurgan Kesakpolvon «Selim shu maqsadda chaqirilgan ekan-da?» degan o'yda tashvishini bosdi. Mamatbey xo'jayinining marhamati tufayli bu safar hech kim jazolanmasligini aytgach, yangi narkokurer tanlashda adashish qimmatga tushajagidan ogohlantirdi. «Qani, bular

o'ylashsin-chi, kimni taklif etisharkin», degan fikrda ulardan javob talab qilib, shoshirmadi. Ulardan sado chiqavermagach, ikkovini hayrat dengiziga uloqtirib: — Xongireyning fikricha bu safar tavakkal qilmay, ikkovlaringdan birlaring borishlaring kerak,— dedi.

Bu kutilmagan taklif Selimni ham, Kesakpolvonni ham dovdiratib qo'ydi. Ayniqsa o'zini bu tomonlarning xo'jayini deb yurgan Kesakpolvon dastyorlikka tushib qolishini hazm qila olmadi. Ichida «Xongireyningni ham, o'zingni ham...» deb so'kindi-da, «Bu senbop ish ekan», degan ma'noda Selimga qaradi. Selim ham o'z navbatida «Men Xongireyning bu yerdagi vakiliman, demak, bu ishni senga yuklayman», degan ma'noda unga tikilib oldi.

Mamatbey ichki talvasadagi bu ikki odamning holatidan o'zicha kulib qo'ydi-da, ajrim chiqardi:

— Haydar bu sohani yaxshi bilmaydi. Selim, sen bunaqa ishda har qanaqa itni tiriklayin yutvoradigan bo'lib qolgansan. Knyazga bir xizmat qilib, o'zingni oqlab olmaysanmi? Haydar ishonchli yigitlaridan birini senga dastyorlikka beradi.

Mamatbey muloyim ohangda gapirgan bo'lsa ham, Selim taklif emas, buyruq berilganini, itoat etishga majburligini anglab, bu fikr Kesakpolvondan chiqqanday unga o'qrayib qarab qo'ydi. Kesakpolvon beradigan yigit dastyor emas, uni bir qadam nari-beriga yurishga yo'l qo'ymaydigan qo'riqchi ekanini angladi.

### 3

Selimning yonida kim borishi o'ylanayotgan paytda Jamshid Tarzanni Asadbekka ro'para qilib, uchrashuv natijasini ko'chada kutib turgan edi. Xojasi atrofiga ishonchli yigitlarni to'plash niyati borligini aytmasa-da, Jamshid uning maqsadini uqib, Tarzanni ham, uning yigitlarini ham avval o'zi chig'iriqdan o'tkazib ko'rgan edi. Tarzanning Asadbekka ma'qul kelishiga ishonib, yanglishmagan ekan. Asadbek Tarzanga ijozat bergach, Jamshidni chaqirib «bu bollardan o'zing ko'z-quloq bo'lib tur, hozircha jim yurishsin. Xarajatlari mening bo'ynimda», deb tayinladi.

Jamshid otasining ahvolidan xavotirlangani uchun ruxsat so'rab uyga barvaqtroq qaytgan edi. O'gay onasi bilan ikki-uch og'iz so'zlashishga ulgurmay, Kesakpolvondan chopar keldi.

Jamshid Mamatbeyni Asadbekning to'yida ko'rganida u tanimaganday o'tib ketgan edi. Hozir esa Jamshidni o'rnidan turib qarshiladi. Uzoq vaqt ko'rmay, sog'inib qolgan ukasining diydoriga yetgan baxtiyor akaday so'rashdi. Zarur topshiriq berish uchun emas, shunchaki so'rab qo'yish uchun chaqirganday gaplashib o'tirdi. So'ng soatiga qarab oldi-da:

— Ikki soatdan so'ng Krasnoyarga uhasan, — deb unga sinovchan tikildi.

Asadbek tomonidan ogohlantirilgan Jamshid bu amrni xotirjam ravishda qabul qildi.

— «Nimaga?» deb so'ramaysanmi?

— Haydar akam «nimaga?» degan savolni yomon ko'radilar. «Xo'p», deyishni yoqtiradilar, — dedi Jamshid Kesakpolvonga qaramay.

— Bolaning tarbiyasi menga yoqdi, — dedi Mamatbey kulimsirab, so'ng o'rnidan turib, Jamshidni yon tomondagi eshik tomon boshladi-da, pardani sal tortib, qo'shni xonaga ishora qilib: «qara», dedi. Jamshid oromkursida yastanib o'tirgan Selimni ko'rdi-yu, Mamatbeyga «qaradim, endi bu yog'i nima bo'ladi, aytavering», deganday boqdi.

— Taniysanmi?

— Sal-pal.

— Yaxshi. Yo'lda durustroq tanishib olarsan. Sen shu akangni Krasnoyarga kuzatib borasan. Kiprik qoqmay kuzatasan, sal nari-beri bo'lsa, ayab o'tirmay yo'qotasan. Krasnoyarga borib, «Sibir» mehmonxonasiga joylashasanlar. Uning qo'lidagi molga ehtiyot bo'lasan. Kechasi u uxlasa uxlasin, sen uxlamaysan. Tongda ko'chaga chiqasanda manavi raqamga telefon qilib Nikita Varshavskiyini so'raysan, — Mamatbey shunday deb unga bir parcha qog'oz berdi. — Unga «molni olib keldim, sizni qiziqtiradigan qog'oz aeroportdagi avtomat yukxonaning qirq oltinchi katagida» desang bas. O'sha zahoti temiryo'l bekatiga borasanu Novosibirga jo'naysan. U yerdan bu yoqqa uhasan. Qolgan gapni keyin gaplashamiz.

Mamatbey topshirig'ini aytib bo'lgach, Kesakpolvonga «chaqir», deganday qarab qo'ydi. Kesakpolvon ziyrak va chaqqon dastyor kabi o'rnidan turib eshikni ochdi-da, Selimni chaqirdi.

Yo'lda Selim o'zini mo'mintoy bola singari tutdi. Jamshidga og'irligi tushmadi. Mehmonxonaga joylashishgach, restorandan yemoq-ichmoqqa lozim narsalarni buyurib, yaqindan tanishganday bo'lishdi. Mo'ljalidan ko'proq ichib olgan Selim bu yigitga hasrat daftarini ochmoqni istadi. Portlagan temir tobut, kutilmaganda paydo bo'lib qolgan polkovnik haqida gapirib, o'zining jabrdiyda ekanini aytib rahm-shafqat uyg'otishni mo'ljal qildi. U Jamshidga berilgan topshiriqdan bexabar, ertalab mijozga qo'ng'iroq qilish bilan vazifasini uddalab iziga qaytishdan umidvor edi. Mijozning Kozlovga tegishli yigit ekani, uning allaqachon hibsga olingani esa, shubhasiz, Selimga ma'lum emasdi. Dastlab hasratini ochishni istagan Selim fikridan qaytib, tilini jilovlashga harakat qilgan bo'lsa-da, aroqning kuchi bilan chuldiray-chuldiray, gap orasida Afg'ondan kelgan temir tobutning portlaganini aytib qo'ydi. Jamshid buni muhim jiddiy gap sifatida qabul qilmadi. Uyga qaytgach, zimmasiga yangi vazifa yuklatilganda Selimning mastlikda aytib qo'ygan bu gapini o'zicha tahlil qildi.

Aroq kuchini ko'rsatib, Selimni qulatib qo'ya qoldi. Jamshid uni arang sudrab karavotiga yotqizib «rostdanam qattiq uxlayaptimi yo nayrang qilyaptimi?» degan gumonda tez-tez qarab turdi.

Jamshid belgilangan vaqtda ko'chaga otlandi. Selim qo'ldan qo'ymay ko'tarib kelgan diplomatga qarab oldi-da, uyqudan uyg'onganida ko'rajak tomoshalarni ko'z oldiga keltirib, unga achindi.

Krasnoyarda ham, Novosibirda ham Asadbekka qo'ng'iroq qilish imkoniyati bo'lsa-da, Jamshid bundan o'zini tiydi. Qaytganidan keyin ham unga uchramay, Mamatbey qo'noq tutgan joyga kelib, hisobot berdi.

Mamatbey uning gaplarini e'tiborsizlik bilan tingladi. Jamshid arzimagan yumushni bajarib qaytib, ko'pirtirib maqtanayotgan boladay o'zini noqulay sezdi. U gapdan to'xtagach, Mamatbey Kesakpolvonga qarab:

— Krasnoyardagilar qo'ng'iroq qilishdi, Selim ham qo'lga tushibdi, — dedi. Keyin arzimagan narsani eslaganday ilova qildi: — Bechoraning yuragi kasal edi, ularning qiynashlariga chidarmikin?

Jamshid ham, Kesakpolvon ham bu achinish zamirida qanday ayanchli oqibat yotganini anglab, bir-birlariga ma'nodor qarab oldilar.

Mamatbey yon cho'ntagidan qizil jildli guvohnoma chiqarib, Jamshidga uzatdi:

— Sen endi afg'on urushining faxriysisan. Markaziy kengash a'zosi sifatida afg'onda o'lgan uch-to'rt quoldoshingning oilasidan, qabrlaridan xabar olib kelasan. Esingdan chiqmasin, ularning qabrlari atrofi obod bo'lsa ham, qarovsiz qolibdi, deb tanbeh berib kelasan, — Mamatbey stol ustida turgan gazeta parchasiga o'rog'lik pulni ko'rsatib, qo'shib qo'ydi: — Bu pullarni o'lganlarning ota-onalariga bo'lashib berasan. Kiyimlaringni o'zgartir, ularda yaxshi taassurot qoldirishga harakat qil. Yaqinda Moskvadan maxsus

vakil kelishini ham ayt. «O`g`illaringga orden berilgan ekan», deb quvontirib qo`y. Jamshid boradigan manzillarni yozib olgach, ketishga ijozat so`radi.

## XXIII b o b

### 1

Qish chillasida qaynoq qor yog`ishini kutgan kabi Asadbek ham, Manzura ham o`g`illarining sog`ayib ketishiga umid qilishardi. Chaqirilgan vrachlar aniq tashxis qo`yolmay Asadbek qarshisida mulzam bo`lishardi. To`yning ertasiga Abdurahmon tabibnikiga borib kelgan Jalil ham tayinli gap aytmadi. Tabib berib yuborgan turkana dori ozgina em bo`lganday tuyuldi, hatto Abdulhamidning betlariga qizillik yugurdi. Lekin oradan kun o`tgach, avvalgi ahvoliga qaytdi. Abdulhamid ota-onasi, ahli ayoli huzurida o`zini tetik tutishga harchand urinmasin, turaridan yotari ko`payib borardi.

Asadbek Abdurahmon tabibning kasallik haqidagi mujmal javobidan, ko`rgani kelmaganidan noxushlik isini sezib, yuragi poralandi. «Xudo xohlasa otdek bo`lib ketadi», deb Manzurani yupatsa ham, bu yupanch so`zlariga o`zi ham ishonmay borardi. Vrachlardan biri «Bu kasallik bizga noma`lum, Moskvadan do`xtir chaqirganingiz ma`qul», degach, Asadbek Ilikoga qo`n-g`iroq qildi. Tavsiya etilgan vrach Abdulhamidni ko`r-gach:

— Hamkasblarim adashishmagan, — dedi. — Bu tropik bezgak emas, lekin shu turdagi kasallikning bizda hali yaxshi o`rganilmagan turi. Moskvada sakkiz kishining og`rigani qayd etilgan.

— Tuzalishganmi? — Asadbek shunday deb so`ra- di-yu, keyin afsuslandi. Undan «Yo`q, hammasi o`lgan, sizniki to`qqizinchisi», degan javobni kutib, yuragi poralandi. Vrach uning savolini eshitmaganday, javob qaytarmadi.

— Bu kasal yuqumli emas, faqat qondan o`tishi mumkin.

— Qondan? Qanday qilib?

— Masalan igna orqali... yoki biron doriga aralashib...

— Nima qilish kerak?

— Eng yaxshi dori – umid, azizim, — dedi vrach. — O`g`lingiz yosh, baquvvat, kasalni o`zining quvvati bilan ham yengishi mumkin. Olayotgan dorilarini esa davom ettirish zarur...

Moskvalik vrachni kutib olgan Bo`tqa uni izzat-ikrom bilan kuzatdi.

Asadbekning ko`ziga dunyo qorong`u bo`lib turganida Jamshid kirib keldi. U xojasining ahvol-ruhiyasini ko`riboq iziga qaytishga oshiqdi. Lekin Asadbek unga ruxsat berishga shoshilmadi. Hozir yonida sirdosh bo`lmasa ham, bir odam o`tirishini istardi. Xuddi motamni boshlab yuborganday tumtayib o`tirish o`ziga ham ta`sir qilib:

— Qayoqlarda yuribsan? — deb so`radi.

— Krasnoyarga borib keldim...

Bu gapdan keyin g`amnok Asadbek asl Asadbekka aylanganday bo`ldi. Jamshid safari haqida batafsil ma`lumot bergach, afg`onda halok bo`lganlarning qabrlarini ziyorat qilib qaytganini ham aytdi.

Bu yangiliklarni eshitgan Asadbek o`yga toldi. Qabr-lar bilan qiziqqan Xongireyning maqsadini anglaganday bo`ldi. U qoradorini shahardan shaharga, mamlakatdan mamlakatga olib o`tishning turli yo`llarini eshitgan edi. Hatto qo`ylarga nasha barglari yedirib, qumaloqlarini olib o`tuvchilarni ham bilardi. Lekin bunaqasi... Hatto o`likni tinch

qo'ymasliklari... Asadbekning vujudi bir to'lg'onib oldi-yu, ammo o'zini bosishga kuch topdi.

Jamshid yangiliklarini bayon etish jarayonida Xongireyning maqsadini anglaganiga ishora qilgandi. Shu sababli Asadbek o'ylaganlarini, gumonlarini, xulosalarini unga oshkor qilmadi. Faqat «Sergak bo'lib tur», deb ogohlantirdi.

Jamshid ketgach, Asadbek uning gaplarini yana fikr tarozusidan bir-bir o'tkazdi. Uning Selim bilan yaqin salom-aligi bo'lmasa-da, qoradori bilan shug'ullanishini yaxshi bilardi. Hosilboyvachcha bilan kelisholmay yurishidan ham xabardor edi. O'tgan yilgi g'alvalardan so'ng uning izini yo'qotgan edi. Bu yil kutilmaganda paydo bo'lishi, yana Kesakpolvon bilan osh-qatiq bo'lishligi sabablarini Asadbek hali tushunib ulgurmay, ish bu tomonga aylanibdi. Mamatbey «yuragi chatoq» degan bo'lsa, demak, Selimga birinchi so'roq ham nasib etmaydi. Militsiyaga ko'p gaplarni aytishi mumkin bo'lgan odamning ko'p yashashiga yo'l berilmaydi.

Bu masalada Asadbek yanglishmagan edi.

Jamshid Novosibirdan uchgan paytda bir kishilik qamoqxonada o'tirgan Selimning baquvvat yuragi urishdan to'xtagan edi...

Selim Xongireyning qahrli nigohiga ro'para kelgan ondayoq uning ko'zlaridan o'lim hukmini o'qigan edi. Restorandagi talvasasi bejiz emasdi. Lekin Mamatbeyning gapiga ishonib, shafqatga umid qildi. Krasnoyarga jo'natilishida ham bir zulmni sezib tursa-da, yana umidga aldandi. Hatto militsiya mashinasiga o'tirayotganida, qamoq xonasiga kirganida ham umidini uzmagandi. Xongireyning atrofida zir qaqshab yashagandan ko'ra, turmada umr kechirish unga rohatday ko'rinib, bu qismatidan rozi bo'ldi.

Boshidagi garanglik chekinib, xayoli bir oz ravshanlashgach, ko'rguliklarini idrok etmoqchi bo'ldi. U Mamatbey aytganiday, katta ovga bir martagina qo'l urmoqchi bo'luvdi. Og'zi kuyib, tavba qilib, qatiqni ham puflab ichadigan bo'lib qolsa-da, baribir hali u tomondan, hali bu tomondan turtkilayverishlariga u hayron edi. «Onangni ko'rsataman», deb yurgan Hosilboyvachchaning o'zi ko'radiganini ko'rdi. Zelixon ham o'ldirmoqchi edi, u ham nasibasiga yarashasini oldi. Endi Xongirey... U «o'ldiraman», degani yo'q... Selim shunisidan qo'rqdi...

U «So'roq qachon boshlanarkin, qiynasa ham chidashim kerak, Xongireyni sotsam, shu yerda chiritadi», deb o'ylab o'tirganida eshik ochilib, ikki yigit kirib keldi-yu, ura boshladi. Selim buni «so'roq oldidan tayyorgarlik», deb bilib, bukchayib, boshini qo'llari orasiga olganicha chidadi, ovoz chiqarmadi. Yigitlar tez charchashdimi yo birinchi galdagi «ishlov» shunday kamroq belgilanganmidi, urishni bas qilishib, chiqib ketishdi.

Selim shundan keyingina ixranishini boshladi. Shunday keyingina kaltak zarblari o'z kuchini ko'rsatdi. Ko'ngli ag'darildi. «Ichimda bir nima yorildi», deb o'yladi u. Oradan yarim soat o'tmay, yigitlar qaytib kirishdi. Selim avvalgi safar e'tibor bermagan edi, yigitlar uning yuziga tegishmay, faqat qorni, biqiniyu ko'kragini mo'ljallab urishardi. «Selim «nega shunday?» deyishga ulgurmadi. Hushidan ketdi. Shu asnoda yana qancha tepki, qancha musht yeganini bilmadi.

...Og'riqlar vujudini tark etib, qush kabi yengil tortdi. Hatto ucha boshladi. Dalalar, tog'lar ustidan uchib o'tdi. Rohatlandi. Farg'onadagi uyigacha bordi. Qo'ndi. Lekin... Uyga qo'ndim, deb o'ylab quvonuvdi. Yo'q... qarasa, qamoq xonasiga qo'nibdi... Eshik og'zida kimdir turibdi. Urgan yigitlarga o'xshamaydi. Diqqat bilan tikildi: Zelixonmi? Ha, Zelixon...

— Boshingga itning kuni tushibdi-ku? — dedi Zelixon kulib.

— Men bunchalik bo'larini kutmagan edim, — dedi Selim.

— Qanaqa bo'ladi, deb o'ylovding?

— Bilmayman.

— Sen non berganlarga xiyonat qiluvding. Endi haqini to'la.  
— Ayb menda emas.  
— Mening bobomga, Ismoilbey og'amga kafanni o'zbeklar berishgan edi. Sen esa kafanga zor bo'lib o'lasan. Shu narsaga aqling yetadimi sening?  
— Ha, tushunaman.  
— Tushunmaysan. Sen nafsingga qul bo'lib yashagan eding, endi kafanliging ham nafs bo'ladi.  
— Meni o'ldirasizmi?  
— Ha. Esingdami, Farg'onadan qochayotganingda qayoqqa borsang ham izlab topib, otaman devdim.  
— Zeli og'a, unday demang, men sizni hurmat qilaman.  
— Ha... o'shanda ham shunday devding. Sen meni hurmat qilolmaysan. Chunki men o'lganman. Eshitmovdingmi?  
— Eshitganman.  
— Oxirgi ko'rishganimizdagi gapim esingdami? «Sen meni kutgin, bir kunmas bir kun uyingga kirib boraman. Agar bir balo bo'lib qamalib ketsam, odam yuboraman. Seni o'ldirish – men uchun qiyomat qarzi!» demaganmidim? Men seni topdim. Endi qarzni uzish kerak. To'pponchadagi o'q seni kutaverib zanglab ketdi. Zelixon shunday dedi, ammo qo'lida to'pponcha ko'rinmadi. Panjalarini ochgan ravishda unga yaqinlashdi. So'ng bo'g'di...  
Xaridorgir do'zax ahli qatorida umr kechirgan Selimning hayoti shu tarzda poyoniga yetdi. Shoir aytmoqchi:  
Seskanmay shum nafsning xohishlaridan,  
Mast bo'lib shaytonning olqishlaridan,  
Qo'rqmasdan mazlumning qarg'ishlaridan  
Umri ham o'tdi...  
Selimning so'nggi nafasi shu tarzda kechib, «yurak xurujidan jon berdi», deb rasmiylashtirildi.  
Asadbek Selimning Xongirey qarmog'iga qanday ilinganini o'ylab o'tirgan paytda «shaxsi noma'lum» deb topilgan narkokurerning jasadi kuydirishga tayyorlanardi...

## 2

Jalil Abdulhamidning kundan kun so'lib borayotganini ko'rib, Asadbekka bildirmay, Muhiddin otani olib keldi. «Hozir oshnamning yonida suyanadigan bir odam bo'lishi kerak. Mening tilim yomon, suyanaman, deganida bir gap aytvorib, dilini battar xira qilaman», deb qo'ydi. Otaning kelishi Asadbek uchun ayni muddao bo'ldi. Suhbatlashib o'tirgan choqlari Asadbek g'am-tashvishdan bir oz uzoqlashgan bo'lardi-yu, lekin yolg'iz qolganida iztirobli xayollar yana band etaverardi. U moskvalik vrachning kasallik haqidagi gapini ko'p o'yladi. O'ylay-o'ylay gumonlari oqimi Xongirey tomonga burilavergach, Abdusamadni chaqirib, gapga tutdi. Abdusamad xorijda ekanliklarida do'xtir zotiga yaqinlashmaganlarini ayta turib, Moskvada tut-qun bo'lgan kechasi bilak tomiridan qon olishganini aytdi. Asadbek esladi: o'shanda ham aytishuvdi, qoradori iste'mol qilinganini aniqlash uchun olishgan ekan. O'shanda bunga ishongan edi. Abdusamadning gapidan so'ng gumon haqiqatga aylanib, Asadbek Ilikoga qo'ng'iroq qildi. «O'g'limga yomon kasallik yuqqan. Moskvadagi qamoqxonada qon olishganda yuqtirishgan», deyishining o'ziy oq Ilikoga kifoya qildi. Asadbekning «ikki-uch kundan keyin borayinmi?» degan taklifini butunlay rad etdi.

Moskvalik vrach «eng yaxshi dori – umid», deb bu xonadondagilarning umidiga quvvat berganday edi. Biroq, umid saroyi go'yo muzdan barpo etilganday kun sayin erib borardi.

Manzura tunu kun mijja qoqmay o'g'lining qoshida o'tirmoqni istardi. Asadbek «bolasining rangiga qarayverib kuyib kul bo'lmasin», degan fikrda uni chaqirib, turli yumushlar buyuraverardi. Xotinining qo'li ishda-yu, xayoli bolasida ekanini ko'ravergach, uni o'z holiga qo'ydi.

Asadbek o'g'lining yoniga kirganida unga ko'ngil ko'taruvchi gaplarni aytishni istardi. Lekin tilga gap kela qolmasdi. Mo'ltillab o'tirish o'ziga ham yoqmay, o'qishdan gap ochaverardi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Uning domlari haqidagi gapiga o'g'li kutilmagan javobni berdi:

— Ada, bizga berilgan ta'til cho'zilib ketdi. U tomonlarda «ha, hechqisi yo'q», deyilmaydi. Doktor Xudoyor ham ayamaydilar. Akam bilan yangamga ijozat bering, xo'p desangiz, kelingiz ham birga ketsin. Men sal o'zinga kelvolsam, yetib boraman. Asadbek bir oz o'ylanganday bo'ldi, biroq, aniq qarorga kelmadi. O'g'lining javob kutib, tikilib yotganini ko'rib:

— O'zlari bilan maslahat qilay-chi, — deb qutulmoqchi bo'ldi.

— O'zlari bilan maslahat qilmang, — dedi Abdul-hamid. — Ertaga yo'lga chiqishsa, indinga u yoqqa uchishlari mumkin. Bo'lmasa, yana bir hafta yo'qotishadi.

Asadbek «gaping to'g'ri», deganday o'g'lining boshini silab qo'ydi.

— Ada, — dedi Abdulhamid, — Moskvalik do'xtir «umid qiling», dedi, a? Agar ustozimiz doktor Xudoyor bo'lganlarida «Ollohning rahmatidan umid qiling», derdilar. Bir sharafli hadis bor ekan: Olloh-taolo rahmatini yuz qismga bo'lib, to'qson to'qqiztasini o'ziga olib qolib, faqat bittasini yer yuziga tushirgan ekan. Yaralganlar, ya'ni butun odamlaru jonli zotlar bir-birlariga rahm qilishlari uchun shunday bo'lgan ekan. Ot tuyoqlarining bolasiga tegib ketishidan qo'rqib, tuyoqlarni ko'tarib yurishi uchun ham shunday ekan...

Asadbek o'g'lga «sen shunaqa gaplarni ham bilasanmi?» deganday ajablanib qaradi. Abdulhamid otasining bu qarashidagi yashirin ma'noni uqib, kulimsiradi.

— Doktor Xudoyor bizga dunyoviy ilm berardilar. Bir kuni «siz eng asosiy ilmdan uzoqsiz», dedilar. Biz ajablandik. Shunda hadis aytib berdilar. Abdulloh ibn Musavvir Hoshimiydan rivoyat qilingan ekan: Bir kishi Payg'ambarimiz huzurlariga kelib, «menga ilmning g'aroyiblaridan o'rgatmog'ingiz uchun huzuringizga keldim», debdi. Shunda unga: «Ilmning avvalida nima ishlar qilding?» debdilar. U: «Ilmning avvali nima?» deb so'rabdi. «Ulug' va qudratli Robbingni tanidingmi?» debdilar. «Ha» deb javob beribdi. «Ollohning haqqiga nima ishlar qilding?» deb so'rabdilar. «Olloh hohlaganicha ishlar qildim», deb javob beribdi. Keyin «O'limni bildingmi?» debdilar. «Ha», debdi u kishi. «O'lim uchun nima hozirlik ko'rding?» debdilar. «Olloh xohlaganicha», debdi. «Borgil va u yerda ham shu tarzda davom et, keyin kelsang, senga ilmning g'aroyiblarini o'rgataman» debdilar. Bir necha yillardan keyin u kishi yana kelganda Payg'ambarimiz unga: «Qo'lingni qalbingga qo'y, o'z nafsing uchun rozi bo'lmagan narsani musulmon birodaring uchun ham rozi bo'lma, o'zingga ravo ko'rgan narsani musulmon birodaringga ravo ko'rgin, mana shu ilmning g'aroyibidir», degan ekanlar... — Abdulhamid toliqib, ko'zlarini yumdi. Qurigan labini tili bilan namlagan bo'ldi. Asadbek ilib qolgan choydan quyib ichirdi. Shundan so'ng Abdulhamid gapini davom ettirdi: — Yana bir hadisda Payg'ambarimiz va'z aytgan ekanlar: «Besh narsadan oldin besh narsani g'animat bil, — debdilar u zot, — qariligingdan oldin yigitligingni, bir ishga mashg'ul bo'lib qolishingdan oldin bo'sh vaqtingni, faqirligingdan avval boyligingni, o'limingdan oldin tirikligingni, kasal bo'lmasingdan oldin sog'lomliging-ni g'animat bil...» Payg'ambarimiz aytgan shu besh narsada ko'p ilmlar jam qilingan ekan...

Abdulhamid «men bu ilmlarni egallay olmadim», degan afsusini tiliga chiqarmadi. Buning o'rniga chuqur nafas oldi.

Asadbek o'g'lining armonini anglab, ko'ngliga malham bo'lguvchi so'z aytmoqni ixtiyor etdi-yu, shunday so'z tiliga kelmadi. Buyruq berishga, ba'zan haqoratlashga o'rganib qolgan til o'z farzandiga tasalli so'zlarini aytmoqqa ojizlik qilib qoldi.

Umri kuzagining adog'iga yetib qolganini anglab yetgan Abdulhamid yolg'iz qolgan kezlari o'y o'ylab ota-onasiga ba'zi gaplarni aytmoqlikni istardi. U onasini qanday ovutishni bilmasdi. Onalik baxti nimaligini endi ko'raman, deb turgan ayol kulfat bo'roniga duch kelganda uni qanday yupatish mumkin?

«Oyijon, mendan rozi bo'ling. Sizday onaga o'g'il qilib dunyoga keltirgani uchun Ollohga hazor-hazor shukrlar aytaman. Sizning xizmatigingizni qilish qismatda yo'q ekan... Xudo sizga sabrni mo'l-mo'l qilib bergan. Oyijon, keliningizning boshi qorong'u, agar Xudo qiz bersa unga «Yodgora» deb ism qo'ymanglar. O'zingizga o'xshasin, «Manzura» deb qo'ying... Keliningiz istagan yerida yashasin. Turmush qursin, meni deb yolg'iz o'tmasin, gunoh bo'ladi...»

Abdulhamid shunga o'xshash allaqancha gaplarni hozirlab qo'yardi-yu, onasi kirib kelishi bilan o'ylari bug' kabi ko'tarilib ketardi. Bu gaplaridagi har bir so'z zaharli o'qqa aylanib, onasi yuragiga sanchilib, uni yaralab, beadoq azoblarga giriftor etmog'iga aqli yetarli.

Ona o'g'lini quchoqlab, o'pib, ko'z yosh to'kardi.

O'g'il onani quchoqlab, o'pib, ko'z yosh to'kishdan o'zini tiyardi...

Dunyoga kelganida olam-olam quvonch baxsh etgan farzand onasini olam-olam anduhi furqat dengiziga g'arq qilib, tarki jon qilishga hozirlanardi.

Abdulhamid ayniqsa otasiga ko'p gaplarni aytmoqni istardi. U otasi haqidagi mish-mishlarga uncha ishonmasa ham, bu boylik, bu e'tibor haromlik soyining oqavalari ekaniga aqli yetib turardi. Xorijga ketmasidan avval, ayniqsa doktor Xudoyorning qanoti ostiga o'tmasidan oldin bu boylik, bu shon-shuhratni Xudo tomonidan berilgan tabiiy ne'mat deb bilardi. Keyin-keyin Xudo emas, shayton alayhila'na mukofoti ekanini anglay borib, ko'p siqildi. O'g'il haddida turish uning uchun g'oyat og'ir kechdi. Uning ruhi ikki o't oralig'ida jizg'anak bo'ldi. Shaytonning mukofotlaridan shodon yashaganliklari evaziga Yaratganning ajri halitdan berila boshlaganini Moskvadagi turmada o'tirganidayoq his etdi u.

Abdulhamid otasiga aytar so'zlarini Muhiddin ota vositasida yetkazmoqni xayol qildi.

Muhiddin ota kirganida u o'zini ancha yengil his etardi. Xuddi doktor Xudoyor huzurida ruhiga quvvat olganday.

Asadbek o'g'lini yupatuvchi so'zlarni izlab o'tirganida Muhiddin ota kirib, mushkulini oson etdi.

— Ada, ishingizga boravering, bugun ancha tetikman. Otam bilan gaplashib o'tiraman, — dedi Abdulhamid jilmayishga harakat qilib.

Jilmayishga uringan lablar bilan hayot nuri so'nayotgan ko'zlar orasidagi masofa juda qisqa, ota bilan farzandning ayriliq onlari esa bundan-da yaqin edi. Asadbekning g'ash ko'ngli nimanidir sezganday bo'l-di-yu, lekin ayriliq omburi ishga kirishganini idrok eta olmay, o'g'lining gapiga ishondi. Hovliga chiqqanida Manzuraning odatdagiday «ahvoli yaxshimi?» degan savol nazari bilan qarshilandi.

— Ishga borib kelavering, deyapti, bugun ancha tetik, a? — dedi Asadbek.

Bir necha daqiqa avval o'g'lining huzuridan chiqqan Manzura unda tetiklik nishonasini ko'rmagan bo'lsa ham, erining gapiga ishongan bo'lib:

— Xudoga shukr! — deb qo'ydi.

Hakimlar aytadilarki: to'rt narsaning qadrini to'rt kishi bilgay: yoshlikning qadrini yoshi o'tib qolganlar, tinchlik-xotirjamlik qadrini boshiga balo tushganlar biladi. Sog'liq-



salomatlik qadrini xastalanib, hech narsaga yaramay qolganlar, tiriklik qadrini o'tganlar bilgaylar. Agar bularga qo'shimcha joiz bo'lsa, farzand qadrini farzandining so'nggi nafaslarini kuzatayotganlar biladi, demoqlik balki mumkindir?

Asadbek Zaynabni sharmandali holda uchratganida otib tashlangan yigit ham kimningdir farzandi edi. Hosilboyvachcha, Elchin ham... Elchinga ro'para qilingan Shilimshiq ham, o'limga hukm qilinish, tirik qolgan Jamshid ham... O'z o'g'lining qayg'usiga bandi Asadbek bularni o'ylamasdi. Jalilning «Xudodan qaytibdi», degan gapi ham qulog'i ostida jaranglamay qolgan. Bu ko'rgulikni Xudodan emas, Xongireydan ko'radi. Undan o'ch olish rejalarini tuzadi. Ba'zan insof uyg'ongan paytlarida esa «o'g'lim tuzalib ketsa bas, hech kim bilan hisob-kitob qilmayman», deb o'zicha ont ichadi.

Abdulhamid «ishga boravering», degani bilan Asadbekning boradigan ishi yo'q edi. Shu sababli nima bilan mashg'ul bo'lishni bilmay, shiyponga chiqib o'tirdi.

Bu paytda Abdulhamid Muhiddin otaning yordami bilan yostiqlarni kamaytirib, bamaylixotir cho'zilib olgan edi.

— Umr yonayotgan shamga o'xsharkan. Bir puflasa o'charkan... — dedi Abdulhamid.

— Hay-hay, bo'tam, asti bu gapni tilga olmang. Bu umrini yashab bo'lgan keksalarga atab aytilgan, — dedi Muhiddin ota.

— Tez yonib, tez o'chadigan shamlar ham bo'ladi-ku?

— Bu Ollohning irodasiga bog'liq, bo'tam. Odamning ko'ziga sham tez yonganday ko'rinishi mumkin, aslida esa o'zgacha bo'ladi.

— Siz ustozim doktor Xudoyorga o'xsharkansiz. U kishi bilan uchrashib, bir suhbat qursangiz, biz bu suhbatdan bahramand bo'lsak...

— Shunaqangi saodatli kunlarga Olloh yetkazsin.

— Doktor Xudoyor aytib beruvdilar: Olloh Yusha' ibn Nuh alayhissalomga vahiy qilibdi: «Albatta men sening qirq mingta yaxshi ummatingni o'z ixtiyori bilan xalok qilg'uvchiman va yomon ummatingdan ham oltmish mingtani!» Shunda Yusha' alayhissalom «Yomonlarni jazolashing mumkin, ya Rabbim, yaxshilarga nega bunday jazo berajaksan?» deb so'rabdi. Shunda Olloh «Ular mening g'azabim keladigan ishlardan g'azablanishmadi. O'shalar bilan birga yeyishdi, ichishdi», deb javob bergan ekan. Ota, biz shundaylardanmizmi? Biz o'zimizni yaxshilardan deyishga haqlimizmi? Ollohning rahmatiga umid qila olamizmi?

Kutilmagan bu savol Muhiddin otaning butun vujudini zirillatib yubordi. Hushini yig'ib, javob qaytarishga ulgurmay Abdulhamid gapini davom etdi:

— Payg'ambarimiz «Albatta odamlarning bir toifasida yomonlikni yopuvchi yaxshilik kalitlari bordir, — degan ekanlar. — Odamlarning ba'zisida yaxshilikni yopuvchi yomonlik kalitlari bordir. Yaxshilik kalitlarini Olloh ularning qo'llariga tutgan kishilar qanday ham yaxshi odamlardir! Vayl bo'lgay, Olloh-taolo yomonlik kalitlarini qo'llariga tutgan kishilarga!» Bu hadisdan mening tushunganim — yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytaruvchilar mo'minlardan bo'lishar ekan.

Abdulhamidning tin olganidan foydalangan Muhiddin ota uni quvvatladi:

— Ustozingiz go'zal xulqlarni o'rgatgan ekanlar. Har bir ongli inson birodarini yomonlikdan qaytarishi kerak. Olloh taolo aytadiki: «Val mo'minuuna val mu'minoat ba'duhum avliyau va ba'din ya'muruna bilma'rufi va yanhavna anil-munkari...» ya'nikim, mo'min va mo'minalar bir-birlariga do'stdirlar. Ular yaxshilikka buyuradilar, yomonlikdan to'xtatadilar...

Bu gapdan so'ng Abdulhamid Muhiddin otaga yalinuvchi bolaning ko'zlari bilan tikilib qaradi. Ke-yin:

— Jon otajon, siz shunday do'stlardan bo'ling. Tavba fasli o'tib ketmasin, hech kimning boshiga Fir'avnning kulfati tushmasin, — deb chuqur nafas oldi.

Uning «adamga shunday do'st bo'ling, tavbaga yetaklang, iymonsiz ketmasinlar» demoqchi ekanini Muhiddin ota tushundi. So'nggi nafaslarini olayotgan yigit otasining zulm yo'lidan qaytishini istab, bobo qadrdoniga vasiyat qilayotganini ham angladi... Muhiddin ota ayvonga chiqishi bilan Asadbek unga yalt etib qaradi: otaning salla o'rniga do'ppisi atrofiga bog'lab yuruvchi oq chit ro'molning yo'qligi unga yomonlikdan xabar berib, tanasidan jon chiqib ketganday bo'ldi. Qimirlashga ham, so'z aytishga ham holi qolmadi.

Mehmonxonada ivirsib yurgan Manzura ayvonga chiqib turib qolgan otani ko'riboq, «Voy, bolam!» deb yugurib qolganini o'zi ham sezmedi.

Muhiddin ota er-xotin kelgunicha joyidan jilmadi. So'ng:

— Olloh sizlarga sabri-jamiil ato etsin. Inna lillahi va inna ilahi rojiu'n\*, — dedi-da, ilova qildi: — Olloh farzandu arjumandingizga imon kalimasi bilan jon taslim etmoq baxtini berdi...

O'sha onda na Asadbek, na Manzura bu baxtning ma'nosini angladilar...

---

\* Ma'nosi budir: «Biz barchamiz Ollohnikimiz va unga qaytguchimizdir.

### 3

Kamalak — chiroyli, lekin isitmaydi. Astoydil yoki til uchida aytilgan hamdardlik so'zlari qanchalar ko'p bo'lsa-da, qalb yarasiga malham bo'la olmas edi. Asadbek zaif jismiga quvvat, majruh va dardli ko'ngliga sihat yetishmay bu dunyoni tashlab ketgan o'g'li hajrida o'rtangan kezlari o'zicha bir haqiqatni kashf etdi: har qancha qiyinchilikka duch kelsa bayon etarga bir mehribon do'st, boshiga har qanday qattiqchilik yetsa izhor qilarga sirdosh o'rtoqlar zarur ekan. Birgina Jalil uning yarasiga malham bo'la olmas ekan. Har kim aybsiz do'st qidirsas, do'sti kamayaverarkan, do'stlarini ranjitaversa, dushmani ko'payarkan. Asadbek shundaylardan ekaniga ishondi. Bir kuni Jalilga hazil aralash «Sen meni yaxshi ko'rasanmi?» deganida, oshnasi jiddiy tarzda «Yaxshi ko'raman, lekin Xudoni ko'proq yaxshi ko'raman», deb uni mulzam qilgan edi.

Donishmandlar «dunyo nadir?» deb so'rashganida, u «bir ohga arzimam matoh», degan ekan. O'g'lining o'limidan so'ng butun topgan-yiqqanlari yarimta ohga arzimasligini tushundi. Hayot bor joyda o'lim ham muqarrar mavjudligini barcha bilsa-da, xuddi bundan bexabarday dunyodan ko'ngil uzmay, tirishgandan tirishadi. Bilmaydiki, barcha xatolarning asli aynan shu dunyoga muhabbatdir.

Asadbek xastalanib, hayotdan umidini uzib qo'ygan paytda, aniqrog'i, Jalil Buxorodan tilla tanga olib kelgan kuni, ikki oshna hayot haqida ezilib suhbatlashishgan edi.

— Shu tilla tanga necha yil avval quyilgan ekan. Nechta qo'ldan o'tgan, nechta odam shuni deb bir-birini o'ldirgan ekan. Agar hozir ko'chaga chiqarib tashlasang, yana nechta odam shuni deb bir-birining go'shtini yerkin?

— Odamlar tilla uchun olishmaydilar, aslida yashash uchun olishadilar. Bu tilla yaxshi yashashning bir vositasi, — deb javob bergandi.

— Birovni abgor qilib yaxshi yashashdan ko'ra, birovning qarg'ishiga qolmay kambag'allikda umr kechirgan a'lo emasmi? Payg'ambarimiz «kambag'alligim – faxrim» degan ekanlar. Eshitmaganmisan?

— Odam o'zini majburlab kambag'allikda yashashi shartmi? Men kambag'al odamning baxtli bo'lganini ko'rmaganman.

— Unda sen baxtli ekansanda, a?

— Mening o'zimga yarasha baxtim bor.

— Ana endi o'zingga kelding. Sen baxt deb yurgan narsa, aslida baxtsizlik, oshnajan. Chunki sen hayoting-da sira ham baxt izlamading. Sen qasos izlading. Qasos izlab shu baxtsizligingni topding. Bolalikda adangni qamoqqa olib ketishayotganda «Men ularni o'ldiraman», deganing hali ham qulog'im ostida ja-ranglab turibdi.

— Qasos olishim shart edi. Boshqacha yashashim mumkin emasdi.

— Bir donishmandning gapiga qaraganda, agar kerak bo'lsa, zaharni asal, cho'chqani tog'a, eshakni amaki, deyish kerak ekan.

— Eshakni amaki deydigan dono senmisan?

— Gapni boshqa yoqqa aylantirma. Sening yana bitta xatoing – do'zax azobidan qo'rqmading.

— Do'zax azobidan deysanmi?.. Jalil, oshnam, boshimga tushgan balolarni, azoblarni boshqalar bilmasa ham sen yaxshi bilasan. Sen meni do'zax bilan qo'rqitma. U yerda odam kuysa balki kuyar, lekin «xalq dushmanining bolasi» deb aftiga tupurishmas, a? Men ko'rgan azoblar oldida do'zaxing hech gap emasdir?

— Do'zax meniki emas... Sen azob, azob, deysan-u, lekin senga dushmanlaringdan ko'ra ko'proq do'st deb yurganlaring zarar yetkazdilar. Chunki dushmandan ehtiyot bo'lasan, ammo do'stning dushmanligidan qutulish qiyin...

— Gapiyish oson. Sening hayoting boshqa, meniki boshqa...

— Sen hali shuni hayot deb bilasanmi?..

O'shandagi bu suhbat osoyishta tarzda kechgan edi. O'shanda Asadbek qalbida imonga moyillik uyg'onay degandi. Lekin «tun zulmati muvaqqat, qalb zulmati abadiy» deganlaridek, Asadbek qalbi ko'r sho'rliklar toifasidan yulqinib chiqolmadi...

Nomus kuchlilik qilib, Asadbek qiziga «o'zingni os», degan maqsadda arqon tashlab chiqqanida farzand dog'i nima ekanini idrok qilolmasdi. Balki o'shanda Zaynab imillamay, ota amrini bajarganida Asadbek hozirgiday azob chekmasmidi, o'zini oqlashga bahonalar topa olarmidi...

Endi o'zini oqlay olmaydi.

Ayniqsa Iliko kelib-ketganidan keyin...

Hamdardlik bildirgani kelgan Iliko Asadbekning ahvolini ko'rib, topshirig'ining natijasini aytishni lozim ko'rmagan edi. Asadbek «iltimosim nima bo'ldi?» deb ikki qayta so'ragach, turmada qon olgan hamshiraning kim ekanini aniqlagani, lekin uning izziz yo'qolganini aytishga majbur bo'ldi. Shuning o'ziyoq Asadbekdagi gumonning to'la haqiqatga aylanishi uchun kifoya bo'ldi. Olovni olov bilan o'chirish mumkin emasligini Iliko rad etmas edi, ammo qonni qon bilan yuvish mumkinmasligini tan olishni istamasdi. Shunga qaramay, u qasos o'tida yonayotgan Asadbekni to'xtatishni xohlardi. Asadbekka bu on nasihat kor qilmasligini bilib bemaslahat bir ish boshlamay turishni so'radi.

Abdulhamidning janozasi kuni yomg'ir bir maydalab o'tganicha havo ochilib ketdi.

Shundan so'ng osmon bulutdan holi bo'ldi.

Kunduzlari quyosh porlardi.

Lekin Asadbekning xonadoni zulmat ichra qolaverardi.

Kechalari Asadbek hovlisi ustidan suzib o'tuvchi Oy chehrasida motam, yulduzlar ko'zlarida esa alam zohir edi.

Odam taftini odam olishini Asadbek kunduzlari his etardi. Tun kirdi, deguncha uning isitmasi ko'tarilib, alaxsiray boshlardi. Manzuraga farzand dog'i azobi kamlik qilib, erining tungi talvasalari ming g'amiga yana g'am qo'shardi. Manzura qaynonasining hajri qarobatga chidolmay aqldan ozganini eshitgan edi. Erining kech kirishi bilan o'zgarishi uni tashvishga solib, Jalilga aytdi. Jalilning ko'nglidan ham «onasiga o'xshab jinni bo'lsa-

ya?» degan tashvish o'tsa-da, sir boy bermay «tashvishlanma, bu o'tkinchi narsa», deb qo'ydi. Do'stining yonida yotib qolishini aytganida Muhiddin ota «bo'tam battar qiynaladilar», deb shashtidan qaytardi. O'zi esa Asadbekning qorovul bo'lish haqidagi taklifini qabul qilgan bo'lib, masjidga ko'chib chiqdi.

Asadbek o'ziga ham xayrixohlik, ham tashvish bilan tikilayotgan ko'zlarni his etib turardi. Ammo tungi talvasadan qutulishga o'zida kuch topolmasdi. Qorong'u tushishi hamon qorasoch kecha kokillari bilan uni bo'g'a boshlardi. Uyga kirdi, degunicha burchakda ko'zoynakli ilon lunjini shishirib turgandek bo'laverardi. Sukunatdan panoh topish umididagi Asadbekni sharpalar ta'qib etar, kimdir uning orqa tomoniga kelib olib, «ux» tortaverardi. Avvaliga «onamlarmikin», deb o'yladi. Keyin bolaning tovushi keldi.

— Samandar! — deb chaqirib, orqasiga o'girildi: hech kim yo'q...

Yana xo'rsindi. Yana bola...

Kim bu? Abdulhamidmi? Yuragi potrayotgan Asadbek yana o'girildi: hech kim yo'q...

So'ng... ko'zoynakli ilon o'rnida otasini ko'rib, u tomon yurdi. «Adajon!» deb quchoqladi.

— Menman, toychoq, men keldim, — dedi otasi.

— Adajon, sizdan tuproq isi kelyapti.

— Nega ajablanasan? Axir men qabrdan chiqib kel-yapman-ku?

— Ada, siz menga yog'och chana yasab qo'yuvdingiz, bolamni olib ketdingiz...

— Bolangni olib ketuvchi men emasman... — Otasi shunday deb stol ustidagi ne'matlardan yeya boshladi.

— Qorningiz ochdimi, ada?

— Ochdi. O'lik to'ysa — tirik to'yadi. Arvohlarni ziyofat qilmaysanmi?

— Albatta, albatta mehmon qilamiz. Hammani chaqiring. — Asadbek shunday deb ochiq deraza yoniga kelib chaqirdi: — Manzura, tez kel, adamlarni mehmon qilamiz... Ada, keliningizning qo'lidan bir piyola choy iching. Nevara kelinlaringizni ham chaqiraymi?.. Birdan hammasi yo'qoldi: otasi ham, ilon ham, stol ustidagi ne'matlar ham... Atrofni zulmot bosdi...

Bomdod azonini eshitib, ko'zlarini ochdi: shiyponda yotibdi. Yonida qayg'uli ko'zlaridan yosh to'kayotgan Manzura. Asadbek nima voqea yuz berganini idrok etolmay xotiniga tikilib yotdi.

Masjid tomondan Muhiddin otaning tovushi eshitildi:

— Hayya alal falax...

Najotga chorlangan Asadbek joyidan jilolmadi.

Kun yorishganda Jalil bilan Muhiddin ota kirib kelishdi.

— Isitmang bor-ku, ukaxon, — dedi Jalil, Asadbek bilan ko'risha turib, — shamolladingmi, deyman?

— Shunaqaga o'xshaydi, — dedi Asadbek.

Kichik xontaxta atrofida nonushta qilishdi.

— Jalil, tushimda adamlarni ko'ribman, — dedi Asadbek, dasturxonga fotiha o'qilgach.

— Tushida o'lik ko'rgan, o'ngida tirik ko'radi. Sog'ingan odaming kelib qoladi, — dedi Jalil.

— Arvohlarni ziyofat qilish kerak...

— Nima?! Nima deding? — Jalil «isitma aralash valdirayaptimi?» degan ma'noda Muhiddin otaga qarab oldi.

— Shunaqa gap bor-ku? — deb izoh berdi Asadbek.

— Gap bo'lsa, bu bir bid'at! Nima dedingiz, otaxon?

— Ha, bo'tam, arvohlarni yo'qlash duo bilan bo'ladi.

— Meni adam anchadan beri chaqirar edilar, aslida men ketishim kerak edi.

— Bas qil, goʻrdan chiqib, goʻrga kiradigan gaplarni aytma.

— Ha... toʻgʻri aytding, goʻrga kiradi...

— Boʻtam, Ollohga tavakkul qiling, Ollohdan najot soʻrang.

— Hadeb Olloh, Olloh deysiz... Ollohga soʻzingiz oʻtsa, ayting, oʻgʻlimni qaytarsin.

Bu gapni eshitgan Muhiddin ota beixtiyor ovozi koʻtarib «Astagʻfirulloh!» deb yubordi.

Jalil esa «Voh!» deb nido qilganicha — boshqa gapirmasin, degan maqsadda uning ogʻziga kaftini qoʻydi:

— Tavba qil, bunaqa ahmoq gapni ayta koʻrma, tavba qil!

— Boʻtam, shaytonga boʻsh kelmang, shaytonni yenging, — dedi Muhiddin ota. —

Shaytoni magʻlub etishning eng oson yoʻli — masjidga chiqing. Masjid qurdirishning oʻzi kifoya emas, unga kirib, sajdaga bosh qoʻying.

Asadbek doʻstining qoʻlini chetga surib, Muhiddin otaga qaradi. Uning koʻzlari gʻalati javdiradi:

— Ota, mening Xudo bilan shartnomam bor: endi men uning uyiga qadam bosmayman, u menikiga kirmaydi.

Bu gapdan Muhiddin ota seskanib ketdi. Jalil esa shapaloq tortib yubordi. Soʻng yelkasidan ushlab silkidi:

— Tavba qil, ahmoq! Darrov tavba qil!

Jalilning vajohatini koʻrgan Muhiddin ota oʻrnidan turib, uni ajratdi-da, Asadbekning yelkasini siladi.

Bu bosh, bu yelka necha yillar mobaynida silovchi bir mehribon qoʻlga muhtoj edi. Shirin soʻz nondek arzanda boʻlgan kezlari haqorat eshitdi. Otaning mehribon qoʻllari silashi kerak bu betlarga «xalq dushmani»ning oʻgʻli deb tupurildi. Hozir silanayotgan yelka ne malomatlarini, ne tashvish togʻlarini koʻtarmadi. Jalilning oʻzi baʻzan doʻstining bu dunyo alamlariga dosh berishiga qoyil qolib, «oʻrtogʻim tuproqdan emas, temirdan yaralgan», deb qoʻyardi. Hozir oʻsha taʻrifni eslab, «temirligi rost, yuragi ham temirga aylanib qolibdi», deb afsuslandi. Temir yurakni eritish yoʻlini bilolmay oʻzining boshini changallab, tebranib oʻtirdi.

Bu manzarani koʻrib turgan Manzura shiypon tomonga bir intildi-yu, qizi bilan kelinlarining ham shu yoqqa tikilib turganlarini koʻrib, joyida qotdi.

Vujudida mehribon qoʻlning taftini sezgan Asadbek ota qadrdonining koʻksiga bosh qoʻyishni, toʻyib-toʻyib yigʻlashni istadi. Ammo yolgʻizligida bostirib keluvchi yigʻi bu safar unga xiyonat qildi.

— Sabr qiling, boʻtam, toqatliga togʻlar bosh egarkan. Ollohning «ey Odam farzandi, sabrli boʻl va oʻzingni past tut, seni oʻzim oliy darajaga koʻtaraman», degan vaʼdasi bor. Bu koʻrgulik siz bilan biz uchun Oldohning bir sinovi.

«Faqat sinov emas, qilgan gunohlari uchun olgan mukofoti» deb oʻyladi Jalil. Muhiddin ota esa yigʻloqi bolani yupatayotganday mehribonlik bilan davom etdi:

— Olloh biz, gʻofil bandalarga aytadiki: «men bir moʻmin kishini biron musibat yetkazib imtihon qilsam, u menga hamd aytib, mening imtihonimga sabr qilsa, gunohlardan onasi tuqqan kunidagidek pok boʻlib turadi...» Ollohning shu marhamatiga yetishmoq siz bilan bizga nasib etgan.

Jalil bu gapdan soʻng armon bilan bosh chayqadi-da, yalindi:

— Jon oshna, bir marta «tavba» deb qoʻygin...

— Ha, boʻtam, «astagʻfirulloh» deng...

Ular Abdurahmon tabibnikida shifo topayotgan Asadbekning iymonga kirishiga ishonib, Yaratganga shukrlar aytishgan edi. Undan sal ilgariroq gap talashib qolishganda Asadbek iymonga daʼvat etilishiga javoban yarim hazil, yarim chin ohangida «Koʻramiz, sening iymoning kuchlimikin yoki mening shaytonim qudratliroqmikin?» deb javob qaytarib,

Jalilning dilini xufton qilgan edi. O'shanda ham Jalil tavbaga undagan, biroq do'sti gapni hazilga burib yuborgan edi. Bu gap Jalilning yuragiga qirrali toshcha kabi o'rnashib qolib, gohi-gohida qo'zg'olib azob berardi. Tabibning uyida do'stining ruhi ham shifo topayotganini bilgan ondan bu toshcha eriy boshladi. Jalil uni butunlay erib bitdi, deb yanglishgan ekan. Asadbekning hozirgi gapidan so'ng toshcha yana qo'zg'olib, shaytanatdan diyonatga o'tmoq oson emasligiga imon keltirdi. Bu safar qirrali toshcha Jalilning yuragini qattiq tildi. Uning ruhi qaqshagandan qaqshadi. Agar oshnasi dard iskanjasida ezilmayotganida uni do'pposlab qolishdan qaytmasdi, xumordan chiqish uchun ham do'pposlardi.

Agar bu onda Ollohning kalomini mukammal biluvchi olim ular huzurlariga kelib:

— Siz shayton yetovidagi shu muhabbatsiz qalbgaga achinyapsizmi? G'aflat uyqusidagi bu bandaning iymon sari yurishi aldamchi manzara edi. U Islomdan faqat foyda ko'zladi. U iymon yo'li bilan tijorat yo'lini chalkashtirib yubordi. Manfaat va ziyon tarozusiga qarab yurmoqni ixtiyor etdi. Siz bilmaysizmiki, Olloh: «Odamlardan Ollohga bir tomonlama ibodat qiladiganlari ham bor. Agar unga yaxshilik yetsa, ko'ngli to'lur. Agar unga balo yetsa, yuz o'girib ketur. U dunyoda ham, oxiratda ham ziyon ko'rur. Ana o'sha ochiq-oydin ziyondir\*», deganida aynan shu birodarimiz kabilarni nazarda tutgan, — desa Jalil ham, Muhiddin ota ham unga zid gap aytolmagan bo'lishardi.

Muhiddin ota ikkinchi marta tavbaga da'vat etganidan so'ng Asadbek xayolini jamlab, aytgan gapining ma'nosini angladi-yu, o'zi ham qo'rqib ketib, tavba kalimasini aytmoqni ixtiyor qildi. Biroq, «Azzz...» dedi-yu, u yog'iga tili aylanmadi. Buni sezgan Muhiddin ota uni quvvatladi:

— Xudoyim o'zing kechir, deng, bo'tam.

Asadbek duduq bola kabi aytdi.

Jalil bundan bir oz yengil tortib, o'rtog'iga qaradi-yu, uning terga botganini, og'zida ko'pik paydo bo'lganini ko'rib qo'rqib ketdi. Muhiddin ota ham cho'chib, shoshilganicha unga dam soldi.

---

\* «Haj» surasining 11-oyatidan ma'no tarjima. («Tafsiri hilol»-dan)

## XXIV bob

### I

Asadbek dastlab Halimjonni tanimadi, uni fotihaga kelganlardan, deb o'yladi. Ozib ketgan, ko'zlari kirtaygan, yuzlari, qo'llariga toshgan yaralar hali butkul tuzalmagan bu yigitdan «boshingdan qanday savdolar o'tdi?» deb so'rashga hojat bo'lmasa-da, Asadbek:

— Ancha mazangni qochirishibdi-ku? — dedi.

— «Kurort»ning qanaqaligini o'zingiz bilasiz-ku?— dedi Halimjon, keyin Asadbekning «Men qayoq-dan bilaman, bir-ikki marta qamalibmidim?» degan ma'nodagi qarashiga javoban izoh berdi: — Tergovni birdan to'xtatib, jinnixonaga o'tkazishdi. Keyin chiqarib yuborishdi.

— Seni men chiqartirmadim, — dedi Asadbek.

Halimjon «unda kim?» deb so'ramoqchi bo'ldi-yu, botinmadi. Unga Asadbekning o'zi izoh berdi:

— Men bunaqa ishlarga aralashmayman. Sen qanaqa laqmasan, o'zing? Mol olib bor, desa indamay ko'tarib ketaverasanmi?

— O'ylab ko'rishimga ham fursat berishmadi, — Halimjon bo'lib o'tgan voqealarni so'zlab berdi. Asadbek uning gaplarini diqqat bilan eshitsu-da, «bu yigit militsiyaning odamimi yo yo'qmi?» degan gumonini ajrim qilolmadi. O'zining «odamga butunlay ishongandan ko'ra, ishonmayroq turilgani ma'qul», degan aqidasiga amal qilib, ko'p so'rab-surishtirmadi. Halimjon hikoyasini tugatgach, faqat:

— Haydar akangga uchrashgandirsan, nima deyapti?— deb so'radi.

— Hozircha dam ol, — dedilar.

— To'g'ri aytibdi. Endi ko'zingni ochib yur, bola. Ularga o'chakishma. Ko'rganlaringni xatto xotiningga ham aytma. Seni qozonga solib bir qovurib, tortib olishibdi. Keyingi safar qozonda jizg'anak bo'lib qolib ketishing ham mumkin.

— Xizmat bo'lsa aytavering.

— Damingni ol.

Halimjon Asadbekning ehtiyotkor bo'lib qolganini sezdi. Garchi qamoqda barcha azoblarga chidab, birovning nomini tilga olmagan bo'lsa-da, Kesakpolvon ham unga ishonqiramay qaradi. Halimjon aynan mana shunga tushunmadi. Bekorga azob tortibmanda, degan xayol bilan Asadbekning uyini tark etdi.

Asr namozini masjidda o'qigan Jalil Muhiddin ota bilan kelayotganda darvozadan chiqib ketayotgan Halimjonga duch keldi. Abgor holatdagi yigitning salomiga alik oldi-yu, orqasidan ajablanib qaradi.

Tunov kungi tavbadan so'ng Asadbek o'zini qo'lga ola boshlagan bo'lishiga qaramay, ular xavotirlaridan qutulmagan edilar. Kunda bir xabar olish odatlariga xilof qilmay kirib keldilar. Ular hol-ahvol so'rashishga ulgurmay darvozaxonada avval Kesakpolvon, so'ng Xongirey bilan Mamatbey, keyin Jamshid ko'rinishdi.

— Obbo, kaltakessaging keldi-ku, ko'zing uchib turuvdimi? — dedi Jalil. — Kimlarni boshlab kelyapti?

Asadbek darvozaxona tomon qarab, bir titrab oldi. Yuzlari uchdi. Mushtumini qisdi. Undagi o'zgarishni Jalil ham Muhiddin ota ham sezishdi. Shuning uchun Asadbekni mehmonlar bilan yolg'iz qoldirishmadi.

Xongirey kelib, Asadbek bilan quchoqlashib ko'rishib, hamdardlik bildirdi. Asadbek uni shu onning o'zida bo'g'ib o'ldirgisi keldi, hatto uni bir oz qisdi ham. Lekin ilojsizligini bilib, Xongireyning o'lim topadigan baxtiyor kunini nariga ko'chirdi. Xongirey Asadbekning qattiqroq quchganini sezdi, buni yomonlik emas, yaxshilikka yo'yib, xushnud bo'ldi. Mamatbey, uning izidan Kesakpolvon ham quchoqlashishdi.

Kesakpolvondan aroq hidi gupurib, Asadbek yuzini chetga burdi. Jamshid salom berib so'rashdi-yu, iziga chekinib, uch-to'rt qadam narida, amrga mahtal mulozim kabi qo'l qovushtirib turdi.

Xongirey qadrtonining boshiga tushgan kulfatdan g'oyat alamda ekanini, otasi o'lganida ham bunchalik qayg'urmagani, vaqtida kelolmagani uchun hijolatda ekanini aytayotganida Asadbek uning so'zlarini eshitmas, ma'nosiz boqayotgan ko'zlarini ro'paradagi atirgul g'unchasiga qadab olgan edi.

Birovlarning yuragida ilon mudraydi, birovlarning yuragida sher na'ra tortadi.

Asadbekning yuragida esa bularning barchasi mujassam: ilon uyg'onssa, sher hamlaga intiladi. Ularni jilovlash uchun Asadbekdan qanchalar kuch talab etilayotganini o'tirganlarning hech biri xis etolmasdi.

Asadbekning baxtiga mehmonlar uzoq o'tirishmadi. Xongirey o'rnidan turib «sog' bo'l», deb qo'l uzatdi. Uning bu tilagi Asadbekning qulog'iga «yo'q bo'l» kabi eshilib, vujudiga titroq yugurdi.

Kesakpolvon «sizlar o'tiraveringlar, o'zim kuzataman», deb mehmonlarni boshlab ketdi. Asadbek orqasiga o'girilayotgan Jamshid bilan ko'z urishtirib olishga ulgurdi. Bir hafta bo'ldimikin, Jamshid daraksiz edi. Bular bilan boshlashib kirib kelishidan Asadbek bir balo boshlanayotganini sezdi.

Muhiddin ota mehmonlarning tashrifi mezbonga yoqmaganini sezdi. Bosh egganicha sukutga berilgan Asadbekni turli xayollar oqimidan tortish maqsadida so'z qotdi:

— Haydar oshnangiz ko'p icharkan, chamasi, a?

— Ko'p emas, tinmay ichadi, u haromi, — dedi Jalil. — O'tgan yili ramazondan oldin «baliq yeb, xalqumni tozalayapman», devdi. «Sen Qora dengizning barcha baliqlarini pishirib yesang ham halquming toza bo'lmaydi», dedim.

— Hay-hay bo'tam, bandani bunday haqoratlamang.

— Men uni haqoratlamadim. Siz uning qiliqlarini bilmaysiz. Agar Abu Jaxl tirilib kelib shu kaltakessakka ro'para bo'lsa, «olamda mendan o'tadiganlar ham bor ekan-ku», deb ko'ngli ancha taskin topardi.

Muhiddin ota «hay-hay, astag'firulloh», deb Asadbekka qarab oldi. Jalil bir kuni Kesakpolvon bilan jig'illasha turib «senlar ko'p qon to'kkansanlar», deganida uning tirjaygancha «qon yorug'lik, akaxon», deb javob berganini ham aytmoqchi bo'ldi-yu, oshnasiga gap yoqmayotganini bilib, indamadi.

Asadbek Jalil bilan Muhiddin otaning gaplariga be'etibor edi. Agar xayoli joyida bo'lganida «Abu Jaxl deganing kim?» deb so'rar, Jalil esa chala ilmuni jamlab, musulmonlarga, xususan Ollohning rasuliga qilingan yomonliklardan gapirib berarmidi... Ular shom yaqinlashganini bahona qilib o'rinlaridan turishdi.

— Shomni machitda o'qib, o'shanaqasi uyimga ketaman. Menda gaping yo'qmi? — deb so'radi Jalil.

— Samad olib borib qo'yadi, — dedi Asadbek.

Jalil odatiga ko'ra «avtobusda ketaveraman, onam meni mashinada tug'maganlar», demoqqa og'iz juftladi-yu, mavridi emasligini fahmlab, «Rahmat, oshna», deb qo'ydi.

Asadbek Jamshidni shu kecha kelib qolar, deb kutdi. Lekin undan darak bo'lmadi.

Ertasiga ham kelmadi. Tunlarni bedor o'tkazib, vujudining qaqshab og'rishidan xorigan Asadbek tongga yaqin mizg'ib olardi. Xongireyning tashrifidan so'ng bu ham yo'qqa chiqdi. Bu safar subhi kozibda ham, subhi sodiqda ham Asadbek bedor edi. Tong otdi, ammo uning vujudidagi zulmatga nur oralamadi.

Peshinga yaqin Jamshid keldi. Asadbek maydalab so'rab-surishtirmasa ham, bir haftaga yaqin nima uchun ko'rinmaganini tushuntirib berdi. Gapni Xongireyning atayin fotiha o'qish uchun kelmaganidan boshladi.

## 2

«Polkovnikning yuragi kasal ekan, o'ldi», deb Xongirey navbatdagi yolg'onini ishlatgan edi. Polkovnikning o'lishi yoki tirik qolishi o'zi uchun ahamiyatsiz bo'lgani sababli Mamatbey bu gapning chin yoki yolg'onligini surishtirib ko'rmagan ham edi.

Xongireyni kutib olgani chiqqanida yonida polkovnikni ko'rib, «ie, o'lgan edi-ku?» deb ajablanmadi ham. Kesakpolvon «Xongirey avval fotiha o'qigani borar», degan maqsadda «oshnasining g'oyatda qayg'uda o'tirgani»ni aytdi. Xongirey mamnun holda Mamatbey bilan ko'z urishtirib olgach:

— Oldin ishni qilaylik. Fotiha qochmaydi, — degach, shaharda qolmay, yo'lga tushishdi. Jamshid ularni Afg'on urushidan o'liklari kelgan askarlardan birining uyiga boshlab bordi. Marhumning ota-onalari maskovlik aziz mehmonlarni izzat-ikrom bilan kutib olishdi.



Polkovnik «internatsional burchini bajara turib qahramonona halok bo'lgan vatan o'g'loni orden bilan mukofotlanganini, tushunmovchilik tufayli orden vaqtida topshirilmaganini» aytib uni SSSR Mudofaa vaziri nomidan topshirdi. Yaralari yangilangan ota-ona farzandi yuzini silaganday ordenni silashdi. Ular bilishmasdiki, Moskvaning Arbat deb atalmish eski ko'chasidan bunaqangi ordendan istaganchasini sotib olish mumkin, guvohnomasini esa kompyuter degan beminnat dastyor aslidan ham yaxshiroq qilib tayyorlab berardi. Ordenni topshirish paytida Mamatbey bilan Kesakpolvon qabristonda edilar. Izma-iz yetib kelgan odamlari yuk mashinasidan qabrtoshni tushirishdi. Ish shoshqich ravishda amalga oshirilib, qabr ochilib, temir tobut teshilganini go'rkov ham sezmay qoldi. Polkovnik temir tobut minalashtirilmaganiga qa-sam ichgan bo'lsa ham Mamatbey unga yaqinlashishga qo'rqdi. Qabriston darvozasi yonidagi chog'roq xonada go'rkovni gapga solib o'tirdi. Oq marmardan ishlangan qabrtosh tuproq ustiga o'rnatilib, ish bir soatga qolmay yakunlandi. Ana shundan keyin Mamatbey marhumning uyiga xabar yubordi. Shu tarzda boshqa qishloqlarga ham borishgach, ishning zo'r darajada uyushtirganlari uchun Mamatbey, Kesakpolvon, Jamshid xo'jayinlaridan olqish eshitdilar.

— Qabrtosh o'rnatishni zo'r topibmanmi? — dedi Xongirey, — o'lik bo'lishsa ham ular bizning sheriklarimiz. Men sheriklarimning o'ligini ham hurmat qilaman.

Ish oxiriga yetgach, Asadbeknikiga fohiga kelishdi.

So'ng Mamatbeyning qarorgohida ziyofat bo'ldi.

Ziyofatdan keyin Jamshid polkovnikni mehmonxonaga boshlab ketdi. Polkovnik u yerda ham aroqxo'rligini davom ettirdi. Jamshidga uni tashlab kelish emas, ertalabgacha yonidan jilmaslik topshirilgan edi. Yarim kechagacha polkovnikning jag'i tinmadi.

Afg'onidagi ishlarini aytib, maqtanib, shuning orasida o'zi bilmagan holda temir tobutlarga qoradorini qanday mahorat bilan joylashtirganini ham oshkor etib qo'ydi.

— Sen kim bilan ishlayotganingni bilasanmi? — dedi polkovnik Jamshidning bo'yniga qo'l tashlab olib.— Xongirey! U haqiqiy erkak! Selimni bilarmiding? U meni laqillatmoqchi bo'ldi. Men esam unga minalashtirilgan tobutni ro'para qildim. Menga qara, ahmoqqa o'xshaymanmi, a? Ha! Men o'ljaga bir to'da odamning tashlanishini bilardim. Xongirey mardlik qildi. Selim bilan teng sheriklikka kelishuvdim. Xongirey o'ttiz foiziga ko'ndi. Menga yetmish foiz tegadi. Tushunyapsanmi? Men eng boy polkovnik bo'laman. O'sha yetmish foiz hisobidan Xongirey menga Shaxovskiydagi uyini berdi. Men seni o'sha yoqqa birga olib ketaman, uyni yuvamiz...

Tun yarimlaganda Mamatbey qo'ng'iroq qilib, polkovnikning ahvoli qandayligi bilan qiziqdi. Jamshidning «ichib, sayrab o'tiribdi», degan javobini eshitib amr qildi:

— Ziyrak bo'lib tur, mazasi qochsa, «tez yordam» chaqir. To'rtinchi kasalxonaga olib borasan.

Oradan bir soat o'tmay, polkovnik yuragi qattiq sanchayotganini aytgach, Jamshid «tez yordam»ni chaqirdi. Bemor kasalxonaga yetkazilganidan so'ng ham Jamshid iziga qaytmadi. Ertalabga yaqin vrach chiqib, polkovnikning «uzilgani»ni aytgach, Mamatbeyga qo'ng'iroq qildi-da, «o'sha yerdan jilma», degan buyruq oldi...

Jamshid shu voqealarni Asadbekka batafsil bayon qilgach:

— Polkovnik uchun maxsus tobut yasatibdi. Uni Xongireyning o'zi olib ketdi, — dedi. — Nazarimda yig'ilgan qoradorilarning yarmi shu tobutda ketdi. Polkovnikning ixtirosi o'zining boshini yedi.

— Yarmi ketganini qaerdan bilasan, ko'rdingmi?— deb so'radi Asadbek.

— Ko'rmadim, meni bu ishga yaqinlashtirishmadi. Qaerga yashirishganini ham bilmayman. Xongirey ketadigan paytda Mamatbeyga «qolgan yarmi uchun boshing bilan javob berasan», deganini eshitdim.

— Nima uchun hammasini olib ketmadi?

- Tobut og'ir bo'lib ketarmikin?
- Yo'q... unday emas... Mamatbey shu yerda bo'lsa, demak, ishning chalasi bor.
- Bu ishning bir uchini Halimga aytaymi?
- Nega?
- Agar xitlarga xizmat qilishi aniq bo'lsa, darrov xabar yetkazadi. Ular Moskovga darak berishadi. Maskovliklar o'likni ochib ko'rishadi.
- Keyin-chi?
- Keyin?.. — Jamshid «bilmayman» deganday yelka qisdi.
- Keyin Xongirey senga yopishadi. Hozircha indama...  
Asadbek bedor tunda o'ylay-o'ylay, chekinib xatoga yo'l qo'yganini anglab yetgan edi. Harna bo'lsa ham o'rnida mahkam turmagani uchun o'zini la'natladi. Endi paysalga solmay xujumga o'tishni mo'ljallab, qarorgohini shahar markazidan Eski jo'vadagi vassajuftli uyga ko'chirishga ahd qilgan edi. Hozir o'sha ahdiga binoan Jamshidga topshiriq berdi: Eski jo'vadagi uyni qanday topishni tushuntirib, Tarzanni yoniga olishni buyurdi.

### 3

Elchin aravachada yurib o'zini o'zi eplab qolgani uchun Zaynab kunduzlari onasining yonida bo'lardi. Tunda esa otasi kabi qiynalib chiqardi. «Men hayotdan to'ygan edim, jonimni olmading. Akam yashashi kerak edi, o'limni yubording», deb u ham Yaratganga da'vo qilardi. Da'volari tilga ko'chmagani sababli uni tavbaga da'vat etuvchi yo'q edi. Zaynab otasining xohishiga ko'ra, peshinga qiymali sho'rva qildi. Ovqatlanib bo'lishgach, Asadbek Abdusamadni chaqirdi-da, «kelinlar uyda siqilib o'tiraverishmasin, shaharni aylantirib kel», dedi. Ular ketishgach, Zaynab onasi bilan birga shiyponni yig'ishtirdi. Ko'rpachalarni qoqib, qayta solishayotganida Asadbek chiqib, ona-bolaga «o'tiringlar», dedi.

— Kecha kechqurun doktor Xudoyor qo'ng'iroq qiluvdi, — dedi Asadbek Zaynabga qarab. Manzuraga bu ma'lum edi. Doktor Xudoyorning nima deyishi mumkinligini ham bilardi. Shuning uchun kechadan beri «u kishi nima dedilar?» deb so'rashga yuragi betlamayotgandi. Asadbek esa Manzuraning so'rashini kutayotgandi. Xotinidan sado chiqavermagach, Zaynabga qarab gap boshlagan edi.

— Doktor Xudoyor sal xafa bo'lib gapirdi.

— Nega? — dedi Manzura.

— Senga nima deb tayinlaganidi? Bir oyda qaytishsin, deganmidi?

— Voy, adasi... — Manzura e'tirozini boshlay olmadi, Asadbek uning gapini shart uzdi:

— Ularga bahonang o'tmaydi... Men Hamidni... aytmadim. Shu hafta bularni jo'natishga va'da berdim.

— Shu hafta? — eri bilan bahslashishga odatlanmagan Manzura chorasizlikdan bosh egdi.

— Hamid ham aytuvdi... Ozgina chidagin endi... o'qishlari chala qolmasin.

Keyingi gapni Asadbek yalinish ohangida aytib, Manzuraning ko'nglini battar vayron qildi. Asadbek — Asadbekligini qilib, qat'iy tarzda xohishini bayon etganida Manzura ham, Zaynab ham ezilishmas edi. Manzura piqillay boshlaganidan keyingina avvalgi Asadbekning ovozi chiqdi:

— Bo'ldi qil.

— Kelin ham ketadimi?

— Ularning ham o'qishi bor-ku? Xohlasang birga keta qol.

— Voy... — Manzura «o'g'limning arvohini chirqiratib tashlab ketamanmi?» deganday eriga qaradi. Asadbek xotining bir qadam nariga jilmasligini bila turib, bu taklifni aytgan edi. Shu sababli uning qarashiga e'tibor bermadi. Abdusamadning ham, kelinlarning ham shahar aylanadigan kayfiyatlari yo'q edi. O'talarining xohishiga ko'ra chiqqanlari uchun uzoq yurishmadi. Ular qaytib kelishgach, Zaynab akasini xoli xonaga chaqirib, adasining gaplarini yetkazdi.

— So'rashga uyalib yuruvdim, yaxshi bo'libdi, — dedi Abdusamad.

— Ketishni xohlayapsizmi? — dedi Zaynab.

— O'qishni chala tashlashim kerakmi?

— Adam bilan oyimni shu holda tashlab ketaverasizmi?

— Sen borsan-ku?

— Ketmang.

— Nega?

— Adamni yolg'iz qo'yish mumkinmas.

— Nega?

— «Nega, nega?» deyaverasizmi?! Tushunmayapsizmi? Hamid akam o'zlaricha kasal bo'ldilarmi?

— Nima deyapsan?

— Hamid akamni adamning dushmanlari o'ldirishgan...

Abdusamadda ham shunday fikr bor, ammo bu gumon aniq tasdig'ini topmagani uchun ishonmaslikka harakat qilardi. Singlisidan bu haqiqatni eshitib, lol qoldi.

— Kimdan eshitding?

— Birovdan eshitishim shartmi? Men aniq bilaman. Siz bosh o'g'ilsiz, qasos olish kerak!

— Zaynab, senga nima bo'ldi, bunaqa gaplarni gapirma.

— Qasos olmasak, Hamid akam go'rida tikka turadi.

Zaynabning xuddi otasi kabi keskin gapirishi Abdusamadga ta'sir etdi. Singlisiga bir nima demoqqa qiynaldi. So'ng so'z topishga urindi:

— Zaynab, bunaqa demagin. Agar dushmanlarning ishi bo'lsa ham adam nima qilishni o'zlari biladilar. Bizni bunaqa ishlarga baribir yaqinlashtirmaydilar. Agar aralashishimizni istasalar bizlarni o'qitmasdilar. Sen bilan men nimani bilamiz? Limonad tsexlari bor, taksi kooperativlari bor. Yana nima? Qolgan gaplarni mish-mishlar orqali bilamiz. Adam bizning oldimizda ishdan hech gapirmaganlar. Demak, bizni bosh-qa odam bo'lishimizni istaydilar.

— Qanaqa odam?

— Masalan, olim bo'lishimizni...

— Qasos-chi?

— Bu gapni xayolingdan chiqarib tashla.

— Hech qachon! Agar siz ketsangiz, o'rningizga o'zim qolaman!

Zaynab shunday deb chiqmoqchi edi, Abdusamad yo'lini to'sdi. Kesakpolvon «Asadbekning asl qizi», deb yanglishmagandi. Yumshoq ko'ngilli Abdusamad singlisining yo'liga g'ov bo'lolmadi.

Abdusamad bilan kelinlar safar tadorigini ko'rishayotganida Zaynab Jamshidni uchratish harakatida bo'ldi. Uchrashdi ham. Maqsadini aytdi ham. Biroq, Jamshiddan o'zi kutmagan javobni eshitdi:

— Bu erkaklarning ishi. Agar men o'lsam, mening o'rnimga sen kelasan. Ungacha bu gaplarni xayolingdan chiqarib tashla. Bek akamning yonlarida men borman, ko'nglingni hotirjam qilaver.

Abdusamad ham «bu gapni xayolingdan chiqarib tashla», devdi. Zaynab chorasiz qoldi. Ahdidan otasi ogoh bo'lsa, o'zining uy qamog'iga mahkum etiluvini anglab, Jamshiddan

«Adamga aytmang», deb iltimos qildi.

## XXV b o b

### 1

Oysanam Erkaevaning uyiga poyloqchi qo'yish kutilgan natija bermadi. Kesakpolvon bu uyga boshqa kelmadi. Asadbekning davrasidagi bo'lak odamlardan ham darak bo'lmadi. Shundan so'ng Zohid mo'ljalidagi ikkinchi ishni amalga oshirishdan oldin haydovchi Eshpo'latovning uyiga borib, uning xotini bilan gaplashdi. Avvaliga Zohid uchun yangilik bo'luvchi biron yangi gap chiqmadi. Oldingi tergovchining bayonnomasidagi gaplardan nariga o'tmadi. Shunda Zohid so'radi:

— Eringizni tuhmat bilan o'tiribdi, deb o'ylaysizmi?

— Unda nimaga o'tiribdilar?

— Eringizning chiqib kelishini istaysizmi?

— Voy, nega xohlamas ekanman? Bolalarim «adam qachon chiqadilar?» deb siqilib ketishdi.

— Unda yaxshilab eslang: Shokarimov yo'qolgan kunlari eringiz uyga vaqtida kelgan ekan. Keyin-chi? Kechki payt uni hech kim chaqirmadimi?

Xotin o'ylanib turib:

— Chaqirdi, — dedi.

— Kim chaqirdi?

— Qayinsinglim, Oysanam.

— Nega chaqirdi?

— Bilmadim.

— Oldin ham chaqirib turarmidi?

— Ha. Mashinasiz bir qadam yurmaydi. Sal narsaga yakshanba kuni ham chaqiraverardi. Boyaqish adamiz dam olish nimaligini bilmasdilar.

— O'shanda qaysi kiyimda borib-keldilar, eslang.

— Ishga kiyadigan kiyimlari.

Zohidning talabi bilan xotin o'sha kiyimlarni javondan olib ko'rsatdi. Zohid uning ijozati bilan boshqa kiyimlarini ham ko'zdan kechirib, ayrimlarini tekshirtirish uchun oldi.

Tekshirish natijasi o'sha kuniyoq ma'lum bo'ldi: pidjakning yengidagi qon dog'i, shimdagi tuproq qoldiqlari Zohidni gumon sahrosidan haqiqat vodiysi tomon boshlaganday bo'ldi.

U shosh-qich ravishda tintuvga ruxsatnoma olib, qidiruv guruhi bilan Shokarimovning uyiga bordi. Yerto'ladagi kavlab, jasad ko'mib qo'yilgan joy uning barcha savollariga javob berdi.

Erining o'sha kuni barvaqt kelgani, so'ng orada mashmasha chiqib, katta janjalga aylangani, oqibat musht ishga tushganini Oysanam uyda emas, qamoqning so'roqxonasida aytdi. «Men o'zimni himoya qildim. «Bo'g'aman», deb yopishganlarida itarib yubordim, yiqilib, boshlari dazmolning uchiga tegdi. Shu bilan... jonlari chiqdi», deb uvvos tortib yig'lashni boshladi.

Masala yechilgach, necha oy davom etgan ish Zohidga oddiy gapday bo'lib ko'rindi. Zaripovani ozod qilish haqidagi qarorni yozib berdi. Bir ko'ngli qarorni o'zi olib borib, bu jabrdiyda ayolni kuzatib qo'ymoqchi ham bo'ldi. Lekin bahsda yengilganini tan olib borishni istamadi. Buning ustiga respublika prokuraturasidan Said Qodirov yo'qlab qoldi. Zohid «Ish»ning yakuni haqida hisob berganidan so'ng Said Qodirov:

— Asadbeklarning ishi yangi bosqichga kiryapti, — dedi. — Ularning orasidagi odamimiz topildi. Uni narkokurer sifatida Krasnoyarga yuborishgan ekan. Nazarimda sinab ko'rishmoqchi bo'lishgan. Uning xabariga qaraganda, Asadbek o'zining eng yaqin sherigidan uzoqlashgan. Oraga Moskva mafiyasi aralashgan. Demak, ishi yana ham qiyinlashadi. Moskva jinoiy guruhining militsiya bilan aloqasi yaxshiga o'xshaydi. Biz bir yangi gap topib u yoqqa yuborsak, yo'q bo'lib ketishi mumkin. Krasnoyarda bizning odamni mol bilan qo'lga olishgan. Lekin uning uyiga tekshiruv kelmagan. Biz tomonga xabar ham berilmagan. Keyin uni qamoqdan chiqarishgan. Hozir unga ish buyurmay qo'yishgan.

— Chaqirib olish kerakdir?

— Hali vaqt bor. Asadbekning «Kesakpolvon» laqabli sherigi Moskva guruhi bilan qoradori bo'yicha katta ish boshlaganga o'xshaydi. Asadbek chetda emish. Nega? Shuni aniqlash kerak. Yana bir gap: Mirodil degan odamning xotini bizga murojaat qildi: eri yo'qmish. Mahmud Ehsonovning janozasidan keyin yo'qolgan. «KamAZ»dan tushgan odam o'shanga o'xshaydi: past bo'yli, kallasi katta. Laqabi ham shunga yarasha — Xumkalla.

— Tinchitib yuborishganmi?

— Shunaqaga o'xshaydi. Bu ishlar bo'yicha ma'lumot yuqori idoraga qadar yetib bordi. Yangi kattamiz bu masalada juda qattiq talab qilyapti. Biz sizni bu yoqqa ishga chaqirish maslahatini pishirib qo'ydik. Asadbeklar doirasiga bog'liq yopilgan hamma ishlar qayta qo'zg'otiladi. Nima deysiz?

Zohid yangi rahbarning talablari haqida mayor Soliev aytgan gaplarni eslab, «demak, asosiy ishlar endi boshlanadi», deb qo'ydi.

— Nega o'ylanib qoldingiz? Taklif yoqmadimi? Yo Qo'rqyapsizmi?

— Qo'rqyapman. Shu ishning chala qolishidan qo'rqyapman.

— Endi bundan qo'rqmang. Vaqtincha, aldovchi chekinish tugadi.

Said Qodirovning bu gapidan Zohidning ko'ngli yayrab:

— Qahva ichmaymizmi? — deb so'radi.

— Ha, albatta, endi aqlni peshlab olish kerak.

Ikki kundan so'ng Zohid Said Qodirovning yonidagi xonadan joy oldi. Ularga harakatning asosiy yo'nalishini o'n kun ichida ishlab chiqish topshirildi. Ular guruhning jinoyatlarini bir-bir bayon qilib berishlari mumkin edi. Ammo ularning zimmasida buni isbot etish, guruhning barcha a'zolarini jinoyat ustida qo'lga olish vazifasi turardi.

U damda Zohid o'zining bu urinishdagi birinchi qurbon bo'lishini bilmas edi.

## 2

Zohid ish joyini o'zgartirgan kuni Asadbek o'g'li, kelinlari bilan Moskvaga qarab uchdi. Uning qaroridan Kesakpolvon Xongireyni ogoh etib, «Jamshid birga kelsin», degan topshiriqni oldi. Jamshidning shaharda Tarzan bilan qiladigan ishlari bor edi. Shuning uchun Asadbek uning o'ziga xamroh bo'lishini noxushlik bilan qabul etdi.

Moskvada ularni Ilikoning o'zi kutib olib, ikki kundan so'ng Abdusamad bilan kelinlari o'zi kuzatdi.

Kuzatadigan kuni ertalabdan Asadbekning ko'ngli g'ash bo'ldi. Nazarida farzandini, kelinlarini so'nggi marta ko'rayotganday edi. «Sheremetev-2»ga yetib borishganda bolalari tekshiruvdan o'tayotgan ekan. O'g'lini bag'riga bosib o'pganida, kelinlari Ovrupo odatiga ko'ra uning yonog'idan o'pishganda, ayniqsa Mushtariy yig'idan ovunolmagan holda asta-asta uzoqlashayotganida undagi g'ashlik alanga oldi. Chap ko'krigidan bir

nima uzilganday bo'ldi. U hatto «yuragim hozir yoriladi, bu ayriliqqa chiday olmaydi», deb o'yladi. Yuragi yorilib o'lganlarni ko'p eshitgan: avval ko'z oldi qo'rong'ulashadi, nafasi qaytadi, keyin chap kuragida qattiq og'riq sezadi... Asadbek aynan shunday bo'lishini istadi. Hammasidan birato'la qutulgisi keldi. Lekin ko'z oldi qorong'ulashmadi, nafasi qaytmadi, kuragida og'riq sezmad. Faqat bo'g'ziga bir nima tiqilib, yig'lagisi keldi. Ko'zlaridan yosh oqqanini o'zi ham sezmad.

Uchoq uchib ketganidan so'ng ham Asadbek iziga qayt-gisi kelmay turdi. Iliko shu yerdagi restoranda joy tayyorligini aytgach, unga noiloj ergashdi.

Iliko «ularning parvozi bexatar bo'lsin», deb qadah ko'targach, bo'g'zida qadalib turgan narsadan qutulish uchun ham ichdi. Aroq tomog'ini kuydirib o'tdi-yu, ammo qadalib turgan narsa yo'qolmadi.

Jamshidning soatga qarab olganini sezgan Iliko:

— Ishing bo'lsa boraver, Bekni o'zim kuzatib qo'yaman, — dedi.

Jamshid «ijozatmi?» deganday xojasiga qaradi. Asad-bek uni Xongirey chaqirtirganini bilardi. Shu sababli ko'z qarashi bilan «boraver», deb ruxsat berdi.

Iliko bobosining so'nggi damlarini, Sulikoni ko'p eslaganini ayta turib:

— Seni ham ko'p yodga oldilar, — dedi.

Asadbek cholning armonlarini xayoliga keltirib:

— Bobong senga nasihat qilib qo'yishimni istagandilar, — dedi.

— Qanaqa nasihat?

— Bobong seni yo'lingdan qaytishingni, boshqacha yashashingni xohlardilar.

— Buni bilaman... o'zimga ham aytganlar. Endi or-qaga qaytish yo'q. Orqada faqat o'lim bor. Endi o'yindan chiqish mumkinmas, bu o'zingga ham ma'lum.

— Oldinda ham o'lim bor, — dedi Asadbek o'ychan tarzda.

— To'g'ri aytding. Istaymizmi, istamaymizmi, endi ikki o'lim oralig'ida «lezginka»ga o'ynayveramiz.

— Men ungacha ozgina bo'lsa ham odamga o'xshab yashab olmoqchiman. Mening oshnam bor. Bir kuni «sen baxt izlab umr kechirmading, qasos deb yashading», deb ta'na qildi menga. Umuman u to'g'ri aytdi. Endi men uchun bitta qasos qoldi. Keyin baxt izlab ko'rsammikin? — Asadbek shunday deb ayanchli kulimsiradi.

Iliko sigaret tutatib, tutundan nimadir o'qiganday tikildi.

— Yo'q, — dedi u. — Endi kechikding, Bek. Bizning baxtimiz — zo'r bir dushmanning qo'lidan o'lim to-pish.

— Baxtga kechikdim... — dedi Asadbek xo'rsinib, — Qasosga kechikmasam bas.

— Qasosing — Xongireymi?

— Ha. Yana bir kishi.

— Shoshilma. Xongireyni menga qo'yib berasan. Unga eng avval men haqliman. Ish pishyapti. Yaqinda u o'lim farishtasi bilan o'pishadi. Sen menga halaqit bermay tur.

— Yo'q, Iliko, sen menga halaqit berma. Sendan ko'ra men ikki, yo'q, uch karra haqliman. O'rtada sen uchun akang bor, xolos. Mening esa do'stim bilan o'g'lim bor. Yana tutingan ukam ham bor.

— Sen nimaga qasd qilayotganingni bilmayapsan. Bu yerda Xongireyni chivin chaqishi ham qiyin.

— Shuning uchun u biz tomonga borishi kerak. Yaqinda borganida g'aflatda edim. U yana bir boradi.

— Men bexabar qolmay.

Ilikoning kuzatuvida «Domodedovo»ga kelgan Asadbek Jamshidni kutib, hatto keyingi uchoqda uchmoqchi ham bo'ldi. Lekin Iliko bunga ko'nmadi.

Jamshid ikki kundan so'ng qaytib, ushlanib qolishi sababini aytdi.

Jamshidni yo'qlagan Xongirey oldinda katta ishlar turganligidan gapirib, Kesakpolvondan ko'ngli to'lmayotganini bildirdi:

— U bir merov, laqma ekan. Bek akang qanday qilib uni yonida olib yuribdi?

Jamshid «bilmayman» deganday yelka qisdi.

— Men uning o'rnida seni ko'rmoqchiman, — dedi Xongirey o'tkir ko'zini unga qadab.

Jamshid bu kutilmagan gapdan noqulay ahvolga tushib, undan nigohini olib qochdi.

— Mening ustozim Zelixon og'a odam tanlashni bilardi. Seni menga bekorga tavsiya etmagan. Sen noz qilib o'zingni u yon-bu yon tashlamaginu, Bekning o'rniga tayyorlan. Bek seni o'ldirmoqchi edi. Istasang uni o'ldirishing mumkin. Men uni senga sovg'a qildim.

Xongirey bu maqtovlardan so'ng Jamshidga bo'lajak vazifani tushuntirdi:

— Kecha Moskvaga polshalik talabalar kelishdi. Komsomolning «Sputnik» degan sayyohlik xizmati bor, bilasanmi? Polshaliklar shularning taklifi bilan kelishgan. Ertadan keyin ular sening yurtingga uchishadi. Ularning orasida krakovlik bir yigit bor. Sen Krakovda bo'lganmisan?

— Yo'q.

— Adashma, bo'lgansan, esingdan chiqdimi? Axir «yuksak askarlik burchingni» Krakov yaqinidagi Sovet qo'shinlari safida o'tagansan-ku?

Jamshid Xongireyning nima demoqchi ekanini ang-lab, «davom etavering, maqsadingizni tushunyapman», deb qarab turaverdi.

— Polshaliklar «Yunost» mehmonxonasiga joylashishgan. Sening xonang o'sha krakovlik yigitning ro'parasida. Yigitning ismi — Valdemar Vilchek.

Xongirey shunday deb unga surat ko'rsatdi. Keyin «Krakov» degan suratli kitobni qo'lga tutqazdi.

— Kechgacha ko'rib, o'qib, suv qilib ichib yubor. Kechqurun u bilan restoranda tanishasan. Qolgan topshiriqni Mamatbeydan vaqti kelganda olasan,— dedi Xongirey.

Xongireyning topshirig'ini, Valdemar bilan tanishib kelganini bayon qilib bo'lgach, Jamshid «Endi nima qilamiz?» deganday Asadbekka qaradi.

Jamshid «Krakov» degan so'zni tilga olganidayoq Asadbek Xongireyning Krakovga borishi haqidagi gapini esladi. Otasining vasiyati, amakisining Krakov uchun bo'lgan janglarda xalok bo'lganini Jamshidning shu shahar yaqinida xizmat qilgani bilan bir narsa ekanini tushundi. Xongireyning maqsadini fahmlaganday ham bo'ldi:

— Polkovnikning o'limini to'rtinchi kasalxonada tobutga joylashganmidi? — Asadbek shunday savol berdi-yu, javob kutmay, o'ylandi: «Polkovnik yashagan mehmonxonadan bu kasalxona uzoq. Yoshlarning mehmonxonasi esa juda yaqin... Krakovlik bola ham shu yerga tushmasmikin?..»

— Mamatbey nima qilishni aytmadimi?

— Yo'q hali.

— Bolani balki polkovnik singari mehmon qilarsan?

— Yo'g'-e?

— Molning yarmi shu yerda-ku? Sen to'rtinchi kasalxonaga bor. O'likni yorgan odamni top. Siquvga ol. Ammo qochirib yuborma, bizga ham bir xizmat qilib berishi mumkin. Agar men Xongireyning o'rnida bo'lganimda qoradorini chet elga Maskov orqali yubormas edim. Chegaradan katta molni olib o'tish osonmas. Maskovga olib ketgan molni o'sha atrofda pullaydi. Chet el bilan ahdi bo'lsa — eng oson yo'l shu. Bojxonada o'lik titib ko'rilmaydi. Sen Tarzanga tayinla. Yigitlarni xitlatib qo'ymasdan Haydar akangni kuzatsin.

Asadbekning taxmini to'g'ri chiqqanini Jamshid polshaliklar Urganchdan qaytishganda bildi. Mamatbey Krakovlik yigitni yaxshilab mehmon qilishni topshirib, qo'lga ixcham yelim xaltachada kukun berdi. Jamshidning vazifasi shu kukunni musallasga solish edi xalos. Polkovnikni kuzatib borganday borishi, kutib o'tirishi lozim emasdi. Kechasi qornida kuchli og'riq turgan mehmonni «Tez yordam» eng yaqin joyga — to'rtinchi kasalxonaga olib bormog'i muqarrar edi.

### 3

Jamshid polshalik mehmonlar bilan uchgan kunning indiniga Xongirey xos yigitlari bilan birga Varshavaga, avtomobil safariga yo'l oldi. U hammasini aniq hisoblab chiqqan edi. Polshaliklar Urganch sayohatidan qaytishib, Jamshid Valdemarni mehmon qilayotganida Xongireyning mashinasi Brest chegara postidan o'tgan edi. Uning mo'ljalicha, Polsha yerlarida sayru-sayohat qilib Krakovga kelgunicha Valdemarning jasadi solingan tobut Krakovga keltirilib, marhum yerga topshirilishi kerak edi.

Xongireyning rejasidan bexabar pan Lyubomirskiy mehmonlarni qarorgohida kutib olib, ziyofat qilgach, olib kelingan qoradorining miqdori bilan qiziqdi.

— Siz aytgandan ko'ra ko'proq, — dedi Xongirey unga ayyorlik bilan boqib.

So'ng molning qaerdaligini aytdi. Bu yangilik ko'pni ko'rgan panni ham taajjubga soldi. O'likning qorniga qoradori tiqish hatto unga ham vaxshiylik bo'lib tuyulib, qoshlarini sal chimirdi.

— U holda beriladigan pulning o'n foizini chegirib qolamiz, — dedi u.

Kashfiyoti uchun pandan olqish eshitishni niyat qilgan Xongirey uning bu gapidan ajablendi:

— Nega endi? Ahdni buzasizmi?

— Ahd buzilmaydi. Biz bir polshalik yigitni o'ldirishga ahdlashmagan edik. O'n foiz marhumning oilasiga beriladi.

— Uni biz o'ldirmadik. Ko'p meva yeb, zaharlangan.

— Yosh yigitlar bekorga zaharlanishmaydi.

Xongirey qovog'i soliq panning bir so'zli ekanini bilib:

— Xo'p, unda besh foizini beramiz, — dedi.

— Men savdolashmayman, — dedi pan keskin tarzda. — Pulni siz bermaysiz, biz olamiz.

Ortiqcha e'tirozga o'rin qolmadi. Kech kirishi bilan yo'lga o'tlanishdi. Pan Lyubomirskiy Xongireyning yigitlaridan qurollarni oldirib qo'yib, ularni qarorgohda qoldirdi. O'zi ham qabristonga bormadi. Xongirey uning yordamchilari bilan qabristonga borib tobutning chiqarib olinishini, ochilishini o'zi kuzatdi. Jasadning egnidagi kiyim yechilishi bilan yorilgan qorinni tikkan iplarga qaradi. Iplar kelishilgandek zarhal edi. Tugunlari ham belgilanganicha edi. Xongirey «demak, yo'lda ochishmabdi», deb yengil tin oldi. Biroq, murdaning qorni ochilib, qoradori o'ralgan tuguncha ko'rinmagach, ko'z oldi qorong'ulashdi. Pan Lyubomirskiyning yordamchisi «nega aldading?» yoki «senga kim pand berdi?» deb so'rab o'tirmadi. Yigitlariga imo qilishi bilan Xongireyning qo'llari orqasiga qayrilib, kishan urildi.

Pan Lyubomirskiy ham «nega unday bo'ldi?» deb surishtirmadi.

— Sen bilan ish pishmasligini sezgan edim. Gamlet hadeb maqtagani uchun ishonibman. Sen katta ish qilolmas ekansan. O'zingning bu yoqqa kelishing, sening eng katta ahmoqliging. Rejangning nima uchun amalga oshmagani bilan mening ishim yo'q. Bu sening masalang. Bundan bu yog'iga sen Lvovga ham yaqinlashmaysan. O'lgan yigitning xunini esa baribir to'laysan. Yigirma kilo dorining hisobidan berasan. Pul kelguncha



yigitlaring shu yerda turishadi. Bir hafta ichida pul kelmasa, bularning o'liklarini olib ketasan. Ha, olib ketasan. Bu yerga ko'ndirmayman ularni.

Katta boylik havasida yo'lga chiqqan Xongirey orqasidan tepki yeb xorlangan it kabi Moskvaga qayt-di-yu, Kesakpolvonni chaqirtirdi. Xongireyning rejasini o'zicha to'g'ri o'qigan Asadbek aynan shu yerda yanglishdi: Xongirey nima gap bo'lganini surishtirish uchun o'zi kelmay, aybdorlarni chaqirtirishni ma'qul ko'rdi.

#### 4

Moskvaga shoshqich chaqirtirilganlarining boisini Mamatbey ham, Kesakpolvon, Jamshid ham bilishmas edi. Xongirey ularning har biri bilan alohida, alohida gaplashdi. Unga qadar Kesakpolvon ham, Jamshid ham zindon kabi qop-qorong'u va zax yerto'lada mahbus kabi saqlandilar.

Jamshid o'z vazifasini bexato bajargan edi. U polshalikning vafotidan keyingi bo'lajak voqealardan bexabar edi. Keyingi ishlardan faqat Mamatbey bilan Kesakpolvongina xabardor edi. Shuning uchun Jamshidning boshi ustidagi gumon buluti tarqalib, Kesakpolvon tomonda quyuqlashdi.

Polkovnikning tobuti yonida ham, krakovliknikida ham Kesakpolvon turgan edi. U tobut qopqog'ini mahkam mixlatib, qotirib ketgandi. Ketishi bilan Tarzanning kelishi, tobut ochilib, qoradori olinishi, marhumning qorni avvalgiday tikib qo'yilishini u yetti uxlab, bir tushida ko'rmagan edi. Masalaga qorinni yorgan do'xtir oydinlik kiritishi mumkin edi. Ammo Xongirey Kesakpolvonga bunday imkoniyat bermadi. Jamshid bilan qaytgan Mamatbey o'sha odamni qidirdi. Biroq, topolmadi.

Xongirey «Asadbekka sovg'a», deb bir quti berib yuborgan edi. Jamshid unda nima borligini taxminan bilganligi uchun ko'rsatgisi kelmadi. Lekin sovg'a olib kelganini bildirdi.

— Ko'rsat,— deb talab qildi Asadbek.

Jamshid uni uyga olib kirishni istamadi. Asadbek ko'chaga chiqqach, mashina yukxonasini ochib, quti bog'langan shoyi tasmani yechdi.

Jamshidning taxmini to'g'ri edi — qutida Kesakpolvonning kallasi yotardi. Asadbek unga uzoq tikilmadi. Bir paytlar uning yuziga tupurgan lablar go'yo alam bilan qimtilgan edi. Chaqchayib qolgan ko'zlar esa go'yo «Men o'lmaganman, tirikman, men o'lmayman» deya-yotganday edi. Asadbek bu o'lik basharaga tupurgisi, tupurib xumordan chiqqisi keldi. Biroq o'zini tutdi. Qutining qopqog'ini yopdi-da:

— Ko'mdirib qo'y, — dedi.

— Qaerga? — deb so'radi Jamshid.

— Malla go'rkovga ayt, Hosilning go'riga qo'ysin.

Jamshid mashinaga o'tirayotganida Asadbek uni to'x-tatdi:

— Mallaga tayinla, ko'zlarini yumdirib, keyin qo'ysin.

Go'rkov xarchand urinmasin, qotib qolgan mijjalar yumilmadi. Shundan so'ng u ochiq ko'zlar ustiga bir hovuch tuproq to'kdi-da, lahad ustidan tuproq tortdi.

Bu dunyoga sig'ishmay, talashgan ikki odam bir lahadda jam bo'lishdi...

Bir haftadan so'ng pochta Asadbeknikiga qalin xatjild tashlab ketdi. Asadbek birovga xat ham yozmasdi, maktub ham olmasdi. Shuning uchun ajablanib, jild-ni ochdi. Undan gazeta chiqdi. Yarim betga yaqin joyni egallagan maqola o'rtasida Xongireyning rasmi bor edi. Yo'g'on harflar bilan «XX asr: Girey xonning hojatxonada o'ldirilishi» deb sarlavha qo'yilgan maqola «O'tgan kuni Moskvada «Xongirey» nomi bilan mashhur

qonundagi o'g'ri hojatxonada chavaqlab tashlandi...» degan satrlar bilan boshlanardi. Asadbek maqolani oxirigacha o'qimadi.

Iliko uni dog'da qoldirgani uchun armon bilan xo'rsindi.

Xongireyning o'limini eshitgan Iliko ham shunday armon bilan xo'rsinganda, Xongireyni tomsklik Balabuxaning yigitlari o'ldirib ketishganidan u bexabar edi.

Asadbek uyga sig'may, ko'chaga chiqdi.

Nima uchundir ko'cha gavjum edi.

Asadbek nima uchundir odamlar oqimiga qarshi yurib borardi...

Bu voqeadan bir yil o'tib, O'zbekistonning pokiza osmonida ozodlik bayrog'i hilpiradi...

## AYTAR SO'ZIMIZNING INTIHOSI

Vasl tugab, firoqqa yetishildi.

Uzoq yillar mobaynida behisob satrlar orqali tanishganimiz yaxshi-yomon odamlar bilan xayrlashish fursati yetdi.

Hazrat Navoiy «Munshaot»larida «Mashaqqat esa ibtidosi aning, murod o'lg'usi intihosi aning», deb yozmish ekanlar.

Olloh barchalarimizni mashaqqat sahrosidan kechib o'tib, murodga yetishganlardan qilsin.

Dastlabki satrlarni bitishdan oldin Yaratganga munojot etib, bayonlarimda Haq yo'ldan toydirmasligini tilagan edim, yana iltijo etaman: Yo, Rab, bizlarni, to qiyomatga qadar zurriyodlarimizni ham adashganlardan qilmagin.

Tangri taologa behisob-behisob va yana behisob shukronalarimiz bo'lsinkim, o'zining madadi ila shuningdek, Siz aziz kitobxonlarning duolari tufayli mo'ljalimizdagi yana bir bayon nihoyasiga yetdi. Tangri tilagimizni ravo aylab, ajoyib bir baxt bag'ishladi.

Bundayin baxt siz azizlarga, xususan, hamasrlarimizga ham nasib etsin! Endigi tilagimiz: bajargan ishimiz xayrli bo'lg'ay. Omiyn ya Rabbil-olamiyn. Shubhasizki, bu bayonlarda qalamning ojizligi sababli yo'l qo'yilgan xatolar ham uchrar. Buning uchun tavbalar qilganimiz barobarinda Siz, azizlardan uzr so'raymiz.

Yana hazrat Navoiy debdilarkim:

*Intihosi ishqning hijron emish, ey ahli ishq,  
Vasl davroni aro mag'rur bo'lmang asru ham.*

Bizning bayonimizdagi ko'p odamlar dunyo vasliga mag'rur bo'lib, oqibatda alamga bandi bo'ldilar. Ular Yaratganning ogohlantirishini eshitmaslik uchun quloqlariga go'yo qo'rg'oshin quyidilar. Rahmonning eslatmalarini o'qimaslik uchun go'yo ko'zlariga nil tortib, ko'r bo'lib oldilar. Bu dunyoda qul bo'lishga arziydigan matohning o'zi yo'qligini fahmlamadilar. Oqibat, Olloh o'zining va'dasiga ko'ra, ularga shaytonlarni hamroh qilib qo'ydi. Shayton ularni to'g'ri yo'ldan to'sdi. Qachonki qiyomat chinqirig'i yangrab, bundaylar Ollohning huzuriga borishgach, afsus chekadilar va umrlari bo'yi jonajon hamroh bo'lgan shayton alayhila'naga qarab «Qani edi, men bilan sening oramizdagi masofa mag'rib va mashriqchalik uzoq bo'lsa. Sen eng yomon hamrohsan»\*, der ekanlar.

Olloh hech qaysimizni — o'zimizni, zurriyodlarimizni, qavmu qarindoshlarimizni, birodarlarimizni, tanish-bilishlarimizni bundaylardan qilmasin, inshaolloh!

Barcha, barchaga, hatto o'zimizga dushman deb bilgan kimsalarga ham hidoyat bersin.

Barchaga hidoyat nasib etsa bu dunyo qanchalar go'zal bo'lar edi, vallohi a'lam!

---

\* Zuhruf surasining 39-oyatidan ma'no tarjima.

© [Tohir Malik](#)  
[Islom.uz](#) ma'rifat markazidan olindi.

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) - 2007